

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**“BANK ISHI” kafedrası**

**“TIJORAT BANKLARI RESURSLARINI BOSHQARISH”  
fanidan**

**MA'RUZA MATNLARI**

<b>Bilim sohasi:</b>	200 000	– Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
<b>Ta'lim sohasi:</b>	230 000	– Iqtisod
<b>Mutaxassisliklar:</b>	5A230701	– Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha)
	5A230702	– Bank hisobi va audit

## KIRISH

«Tijorat banklari resurslarini boshqarish» fanini chuqur o‘rganish moliya, bank ishi va boshqa iqtisodiy sohalardagi muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Uning asosiy maqsadi – tijorat banklari moliyaviy resurslari, ularni turkumlanishi, banklarga bush pul mablaglarini jalb etish, bank resurlarini iqtisodiy tahlil qilish, hisob yuritish bo‘yicha maslahatlar berish va boshqalardan iborat. « Tijorat banklari resurslarini boshqarish » fanini o‘rganish uning turli mulkchilik shakllaridagi banklarni moliyaviy resurslarini boshqarishda to‘tgan o‘rnini tushunish va nazariy bilimlarni amaliy bilimlar bilan boyitishni vazifa qilib qo‘yadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘rishini, inflatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta‘minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Bugungi kundagi globallashtirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy pirovard maqsadi – bu banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashdan iboratdir. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmonida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish ning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida, bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta‘minlash, banklarning kapitallashtirish darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar keltirib o‘tilgan.<sup>1</sup>

O‘quv-uslubiy majmuaning o‘quv dasturi ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarning mazmunlari va rejasi hamda foydalaniladigan adabiyotlarning ro‘yxati ham keltirilgan. Bu bo‘limda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi

ishlarni bajarish bo'yicha o'zlashtirishni nazorat qilish hamda baholashning ko'rsatkich va mezonlari berilgan.

Ikkinchi asosiy bo'limda har bir mavzu bo'yicha reja topshiriqlar va o'quv-uslubiy hujjatlar keltirilgan. Magistrantlarda mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini asosli ravishda himoya qilish, bahslashish ko'nikmalarini hosil qilish uchun bahsmunozara darslariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu maqsadda o'quv qo'llanmaning ikkinchi qismi jamiyat hayotidagi ba'zi masalalarni amaliy darslarda muhokama qilishga mo'ljallangan. Bunday darslarni olib borishda hozirgi paytda katta ahamiyat kasb etib borayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, jumladan kichik guruhlarda ishlash, guruhlarning ma'lum pozitsiyani egallashi, barchaning bir-birini o'qitishi, «aqliy hujum» kabi usullarni keng qo'llash darslarni samarali bo'lishi, ularning qiziqarli kechishini ta'minlagan.

O'quv-uslubiy majmua so'nggida magistrantning fan bo'yicha reyting ballarini yig'ma baholash varag'i keltirilgandir.

Mazkur fanni o'rganish uchun magistr-iqtisodchi davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan quyidagi iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada buladi: Bank ishi, Bank risklari, Monetar siyosat, Xalqaro amaliyotda bank risklarini boshkarish, bank auditi va xalqaro bank ishi va boshqa maxsus fanlar.

**1-mavzu. “Tijorat banklari resurslarini boshqarish fanining predmeti, metodi va vazifalari”**

- 1. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish fanining tarkibi va yo‘nalishi.**
- 2. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi.**
- 3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fanning maqsad va vazifalari.**

**1. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish fanining tarkibi va yo‘nalishi.**

Bank faoliyati, Shuningdek, banklarning resurslari ham boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari faoliyati va resurslari singari boshqarishga kuchli ehtiyoj sezadi. Zero gap juda murakkab bo‘lgan faoliyat, ya’ni bevosita pul – kredit munosabatlarini boshqarish bilan bog‘liq masalalar xususida ketmoqda. Banklar orqali ishlab–chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’molni o‘zida aks ettiruvchi yirik pul oqimlarining harakati o‘tadi. Pul va tovar bozorlarida banklarning faoliyati juda qo‘pqirrali bo‘lib, hozirgi kunda yirik tijorat banklari turli xildagi 300 dan ortiq operatsiya va xizmatlarni amalga oshiradi.

Tijorat banklari resurslarini boshqarishdan ko‘zlangan maqsad iqtisodiyotdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb qilish, ulardan oqilona foydalanish orqali bankning foydasini vujudga keltirishdan iboratdir.

Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tijorat banklari resurslarini samarali boshqarishning vazifasi ularning to‘lov qobiliyatini ta’minlab turish uchun zarur bo‘lgan miqdordagi resurslarni topish va ushbu mablag‘larni iqtisodiy jihatdan foydali maqsadlarga joylashtirish hisoblanadi.

Shunisi e’tiborliki, jahon iqtisodiyotining tobora globallaShuvi va moliyaviy institutlar o‘rtasida raqobatning kuchayishi jamiyatdagi mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishning zarurligini keltirib chiqarmoqda.

Dunyoda keyingi 200 yil ichida 20 dan ortiq turli darajadagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar ro‘y bergan bo‘lib, ularning asosiy sabablaridan biri, mamlakatda moliya va fond bozorlari hamda kredit muassasalarida etarli darajada boshqaruvining yo‘lga qo‘yilmaganligi va mavjud iqtisodiy riskning aniq baholanmaganligi bilan izohlanadi. Buning natijasida, nafaqat mazkur mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti, balki ularga qo‘shni bo‘lgan va iqtisodiy hamkor mamlakatlar iqtisodiyoti ham katta miqdorda zarar ko‘rmoqda.

Tijorat banklari resurslarini boshqarishning zamonaviy vositalari aniqlanishi va bank amaliyotiga tatbiq etilishi ularning faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Ammo keyingi yillarda bu sohada hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar talaygina.

Buning asosiy sababi, xalqaro va mahalliy banklar amaliyotida tijorat banklari resurslarini boshqarish masalasi etarlicha o'rganilmaganligidadir. Bunga qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjud.

**Birinchi**dan, 1950–1960 yillarda iqtisodiyotda va xalqaro moliya bozorlarida arzon moliyaviy resurslarning etarli darajada mavjudligi banklar uchun resurslarni izlab topish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha muammo tug'dirmagan.


**Ikkinchi**dan, mavjud iqtisodiy sharoit tijorat banklariga mijozlar va aholining bo'sh pul mablag'larini muddatli depozitlarga past foizlar asosida jalb qilish imkoniyatini bergan. Banklar, ushbu yo'l bilan jalb qilgan arzon mablag'lari hisobidan etarli darajada daromadlarini shakllantirgan, bu o'z navbatida, ularda resurslarni boshqarish ehtiyojini keltirib chiqarmagan. Chunki muddatli depozitga jalb qilingan mablag'lar tijorat banklariga barqaror kredit resurslari bazasini yaratish va barqaror foyda olish uchun xizmat qilgan.

**Uchinchi**dan, tijorat banklari hukumat va Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan ishonchli va Yuqori foizli qimmatli qog'ozlarga ega bo'lishi ularning qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini zudlik bilan qondirish imkoniyatini bergan.

## 2.Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaraga erishishda banklarning resurslarini samarali boshqarish muhim o'rin tutadi. Tijorat banklarini moliyaviy barqaror resurslar bilan ta'minlash muammosi bank resurslarini boshqarish zaruriyatini keltirib chiqargan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

### Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi:



### Fanning vazifalari:

1. Magistrantlar fanni o'rganish davrida har bir o'tiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'raladigan "tayanch" ibora, test savollariga javob berib, tegishli masalani echa olishi;
2. O'qish davrida yozma nazorat ishlarini bajarishi va referatlar tayyorlashi;
3. Fanni o'zlashtirish natijasida va kelajakda magistrant bank faoliyatida bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishni bilishi lozim.

### **3.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fanning maqsad va vazifalari.**

Quyidagi me'yoriy hujjatlarni o'qish va og'zaki topshirish.

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 mayda qabul qilingan "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2344-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori. 2010 yil 26 noyabr, PQ-1438.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2012 yil 29 dekabrda 36/1-sonli "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2012 yil 29 dekabrda 36/2-sonli "Tijorat banklari kapitalining monandiligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori

### **2-mavzu. "Tijorat banklari faoliyatini boshqarishni tashkil qilishning umumiy asoslari"**

- 1. Iqtisodiy munosabatlarda mustaqil sub'ekt sifatida tijorat bankini boshqarish.**
- 2. Tijorat banklari faoliyatini barqarorlashtirish va unga ta'sir qiluvchi omillar.**

### **Iqtisodiy munosabatlarda mustaqil sub'ekt sifatida tijorat bankini boshqarish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodi sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda, chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbasidir.

Bank foydasining o'sib borishiga ta'sir qiladigan bir necha xil omillar mavjud ular – bankning rentabelligi, vaqtincha bo'sh mablag'larning samarali ishlatilishi, turli xil pullik xizmatlar doirasini (faktoring, lizing, trust xizmatlari va h.k.) kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi

aktivlarni ko'paytirish va boshqalar hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri Yuqori darajada foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Banklarning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular faoliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda banklarning foyda olishi va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli Yuqori bo'ladi. Yuqorida aytilgan foyda keltiruvchi zaxiralarni amalda tatbiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan tavakkalchilik (zarar ko'rish ehtimoli bilan) bilan bog'liq bo'ladi.

Tijorat (aksiyali, pay asosida va xususiy tartibda tashkil qilingan) banklar huquqiy va xususiy shaxslarga «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» qonunda nazarda tutilgan operatsiyalarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish orqali shartnoma asosida kredit, hisob-kitob va boshqa xil bank xizmatlarini ko'rsatadi.

Tijorat banklarining nizom jamg'armasi kimga qarashli ekanligiga va uni tashkil qilish uslubiga qarab, bajarilayotgan operatsiyalarning turi, faoliyat ko'rsatish hududi va tarmoq belgilariga qarab birbiridan farq qiladi. Respublikada, mintaqalarda ko'zda tutilgan ma'lum dasturlarni bajarish va o'zga faoliyat turlarini pul mablag'lari bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda maxsus tijorat banklari tashkil etilishi mumkin.

Bank boshqaruvi moliyaviy menejmentning asosiy bo'g'ini sifatida o'zida bank faoliyatini samarali tashkil etish, boshqarish va istiqbolli rivojlantirishning aniq mexanizmini qamrab oladi. Zamonaviy bank menejmenti tizimi bankni rivojlantirish, moliya instrumentlarini hamda hududlarda bank tarmoqlarini kengaytirish, raqobat siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish, muloqot strategiyasini rivojlantirishni samarali boshqarishga oid munosabatlarni mujassamlashtiradi.

Banklarda aktivlarni boshqarish masalalari bank menejmentining asosiy yo'nalishi sanaladi. Bunda bank boshqaruvining muhim unsurlaridan hisoblangan – rejalashtirish, tahlil (monitoring), muvofiqlashtirish, nazorat (baholash) tamoyillari bank aktivlarini boshqarishning tashkiliy asoslarini ifodalaydi. Shuningdek, banklarda aktivlarni boshqarish tizimi passivlar, likvidlik, samaradorlik, xodimlarni boshqarish kabi bank menejmentining tarkibiy qismlari bilan chambarchas bog'langan.

### **Tijorat banklarini boshqarishni tashkil qilish asoslari**

Tijorat banklari tashkiliy tarkibini kurish modellarini urganib chikilishi - bunaka yagona optimal model yuk ekanligini kursatadi.Xammasi bank oldida turgan aniq maksad va vazifalar,ixtisoslaShuv turi va xususiyatlari,bankni tashkil etishning muxim xususiyatlariga bog'liq.Banklar jamgarma banki,ipoteka kredit instituti,trust banki ,mikrokredit instituti va boshka kurinishlarda tashkil kilinishi mumkin va manna Shu kurinishlar banka u yoki bu tashkiliy tarkibni tanlashda muxim omillar bo'lib xizmat kiladi.

## Banklar klassifikatsiyasi

Sinflar	Banklar turlari
Mulkchilik shakliga kura	Davlat,Aksioner,Kooperativ,Xususiy,Aralash va CHet el kapitali ishtirokidagi banklar
Tashkiliy huquqiy shakliga kura	Ochik aksionerlik jamiyatlari,YOpik aksionerlik jamiyatlari,Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar
Funksional belgisiga kura	Emission(bu fakat 1 pogona uchun),depozit va tijorat
Operatsiyalarni yuritish xususiyatlariga kura	Universal,ixtisoslashgan
Tarmoklarga xizmat kursatishiga kura	Kup tarmokli,monotarmokli
Filiallari mavjudligiga kura	Filialli,filialsiz
Xizmat kursatish makoniga kura	Regional,xalqaro
Faoliyat masshtabiga kura	Kichik,urta va yirik
Ixtisoslashuviga kura	Rivojlantirish,munitsipial va ipoteka
Bir-biriga bog'liqlik darajasiga kura	Bosh(golovnoy,ona) bank,docherniy,asotsiatsiyalashgan
Faoliyat samaradorligiga kura	Moliyaviy kiyinchiligi yuk banklar,Faoliyatida ma'lum kiyinchiliklarga ega banklar,jiddiy moliyaviy kiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan banklar va kritik moliyaviy xolatdagi banklar.

Lekin,banklar yukorida keltirilgan turlariga bevosita bog'liq de bayta olmaymiz.SHakli kanaka bulishidan kat'iy nazar bank bankligicha koladi va uning umumiy tarkibi uzgarmaydi.Lekin baribir, kredit tashkilotining faoliyat yunalishi boshkaruv apparati tarkibiga uzining ma'lum «chizgi»larini «chizmay» kuymaydi.

Aksionerlik banklarida (xususiydan farkli ravishda) aksionerlar talablarini birlashtirib boglab turuvchi Bank Kengashining urni yukori.Ipoteka bankida kuchmas mulkni baholaydigan maxsus bulimning urni bekiyos.Investitsion bankda Loyixaviy moliyalash bulimi aloxida axamiyat kasb etsa,Trast banklarda xar xil turdagi mijozlar mulkini boshkarish bulimi asosiy xisoblanadi.

Banklarning u yoki bu tashkiliy tuzilishga ega bulishi ma'lum normativ talablarga xam bog'liq.Ma'lumki,bank nazorati organlari banklarni ro'yxatdan utkazish va ularga litsenziya berish jarayonida bir kator xujjatlar (ta'sis shartnomalari,ustav va yangi kredit institutining faoliyat xususiyatlaridan kelib chikadigan tashkiliy tuzilishi) takdim etilishini talab kiladilar.Huquqiy normalarga kura kayta tashkil etilgan banklar uzlarining ustavidagi ,va eng asosiysi, faoliyat yunalishidagi,bank kapitalidagi, tashkiliy tarkibidagi bulajak uzgarishlar tugrisida bank nazorati organlariga xabar berishlari kerak.YAngi bank



ochishdan oldin uning muassislari bank kanaka huquqiy asosda (aksioner, kooperativ va b) tashkil etilishi, kanaka tarkibiy bulinmalardan (boshkaruv, bulimlar, sektorlar) iborat bulishi kerakligini uzlari uchun aniq belgilab olishlari kerak.

Bankka mos tashkiliy tarkibni vujudga keltirish bir martalik jarayon emas. Bankning dastlabki tashkiliy tarkibiga bankni rivojlantirish kuchiga uzgartirish kiritish bilan, faoliyat chegarasini uzgartirish bilan, yangi turdagi bank maxsulotlarini yaratish va rivojlantirish bilan uzgartirishlar kiritilishi mumkin. Bankni reorganizatsiya kilinishi uning sanatsiyasiga yoki kushilishi yoki tugatilishiga olib kelishi mumkin.

Shunday kilib, bank faoliyatini mukammallashtirishga karatilgan tashkiliy kayta kurish ichki yoki tashki omillar natijasidagina amalga oshiriladi.

Banklar reorganizatsiyasi choralari talab kiluvchi tashki omillarga quyidagilar kiradi:

- Ba'zi bir bank xizmatlari konyunkturasidagi uzgarishlar, ish faoliyatining pasayishi va pul bozorida vujudga keladigan kiyinchiliklar
- Innovatsiyalarning rivojlanishi, yangi boshkaruvchi tarkib va kadrlar ta'minotini talab kiluvchi yangi bank xizmatlari.
- Samarasiz bulgan bank xizmatini taklif kilinishi va sotilishi natijasida bankning rakobatbardoshligini yo'qotishi
- Bank boshkaruv jarayonidagi adekvat uzgarishlarni talab kiluvchi axborot ta'minoti va telekommunikatsiya soxasidagi texnologik uzgarishlar
- Mijozlar shikoyatlari, ularning bankdan ketishi, boshka kredit institutlariga murojaat kilishlari.

Banklar tashkiliy tuzilishini uzgarishiga ta'sir kiluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- Yangi aksionerlar okib kelishi natijasida bankning tez rivojlanishi, rakobatbardoshlikning usishi, bank maxsulotlari bozori kengayishi
- Bank biznesining barcha yunalishlari bo'yicha operatsiyalar xajmining kengayishi natijasida bank personallari «perezagruzka»si.
- Karor kabul kilishning chuzilib ketgan va tulik bulmagan jarayoni.
- Juda sust boshkaruv
- bank personalining professional darajasi pastligi va xodimlar kunimsizligi
- yangi filiallarga bulgan talab va xokazo

Bank boshkaruv organlari tarkibidagi uzgarishlar ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga, shtat jadvali uzgarishiga, karor kabul kiluvchi shaxslar kompetensiyalari taksimlanishiga xam ta'sir kiladi. Bu Shuni bildiradiki, banklar reorganizatsiyasi zarur va foydali bulishiga karamasdan, yangi boshkaruv mexanizmini ishlab chikishga ketadigan vaqt va xarajatlar bilan bog'liq muammolarni keltirib chikarishi mumkin. Reorganizatsiya xar kuni utkazilmaydi. Kayta tashkil etish chora-tadbirlari bir-birini davom ettirmaydi.

Banklar tashkiliy tuzilishi uzgarishi

Boshkaruvni kayta tashkil etish bankning umumiy strategiyasiga mantikan mos kelishi kerak. Strategiya va menejment bir-biriga karama-karshi kelmasligi

kerak, muvaffaqiyat fakatgina Shu ikkalasining birlaShuvidan kelib chikadi. Fan va amaliyotda kredit tashkilotini rivojlantirishning uzok muddatga muljallangan boshkaruvi-strategik boshkaruv degan tuShuncha xam Shundan kelib chikkan. Bankning faoliyat falsafasi uning maxsulotlar bozoriga munosabati, bankning xizmat kursatayotgan bozoridagi ulushi, geografik faoliyati, mijoz va xamkorlariga bog'liq. Bank faoliyati falsafasi uning foyda olishga erishish omillari, ishlab chikaruvchanligi, iqtisodliligi va rentabelligini aniqlaydi.

Bank strategiyasi va menejmenti – bu bozorda faoliyat yuritishning uzok muddatli dasturi bo'lib, u mustakil va ijodiy ish, rivojlanishning maksad va yunalishlarini belgilab beruvchi goyalarni ishlab chikish va realizatsiya kilish demakdir.

Bank strategiyasi shakllantirilmaganligi (bank falsafasi aniqlanmaganligi) bankni boshkarish organlari tarkibini kurishda, xodimlar mexnatini tashkillashtirishda kiyinchiliklarni keltirib chikaradi. Bankning umumiy savollariga javob topilmagan bulsa, ijro etuvchilar xar kunlik joriy (kichik, bir yunalishga tegishli) muammolarga duch kelaveradilar. Amaliyotda bu xolat xar kunlik boshkaruv apparatini kayta kurishga olib kelishi mumkin (bank boshkaruvini yoki boshka xodimlarni uzining asosiy professional vazifalarini bajarishdan chalgitish evaziga).

Bankni reorganizatsiya kilish yoki uni rivojlantirish strategiyasini ishlab chikish bankning kuchli va kuchsiz tomonlarini taxlil kiiluvchi chukur va xar tomonlama analizni talab kiladi. Bu taxlil usuli quyidagi faoliyat ob'ektlariga karatilgan: rejalashtirish, boshkaruv nazorati, xisob, kontrolling, marketing, personalni boshkarish.

Bankning kuchli va kuchsiz tomonlari taxlili , Shuningdek, bankning xajmi kanchalik optimalligi, uning huquqiy shakli faoliyati yutuklarini kanchalik ta'minlab berishi, tarmoklari etarli yoki etarli emasligi (filiallari, bankomatlar va xk) va xokazolarni baholashga yordam beradi.

Jaxon amaliyotida **SWOT** (Strength Weakness Opportunity Threaten) deb nomlanadigan bu **taxlil** turi bankning imkoniyatlari va risklari, tashki muxit ta'siri taxlili bilan xam boglangan. Baholar asosida bank tijorat faoliyatini yuritishi uchun kaerda sharoit borligini ; pul, kredit va moliya bozoridagi imkoniyatlarini kaysi turdagi mijozlarga va kaysi regionlarda kullashi mumkinligini; Kaysi soxalarda , uzining kuchli tomonlarini inobatga olgan xolda, yukori riska borishi mumkinligini aniqlab olish kerak buladi. Aksincha, uzining kuchsiz tomonlarini xisobga olib, strategiya tez-tez uzgarib turadigan, foyda kamayishi mumkin bulgan, kushimcha resursga tez-tez talab buladigan, boshka bank va nobank kredit tashkilotlari, sugurta tashkilotlari aralashishi mumkin bulgan ma'lum «zona»larni uzicha aniq tasavvur kila olishi kerak.

Umuman olganda, kuchli va kuchsiz tomonlar taxlilida banklarga quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi:

- Kursatadigan xizmatlari (bank maxsulotlari) ro'yxati;
- Faoliyat geografiyasi;
- Sotadigan maxsulotining bozordagi ulushi;
- Foydani olish va taksimlashdagi maksadlar;

- Rejadagi maksadlarga erishish tamoyillari;
- Davlat va davlat strukturasi bilan o'zaro aloqalari;
- Faoliyatning asosiy yunalishlari va rentabellikka erishish yullari;
- Umumjamiyat maksadlariga munosabati;
- Kadrlar siyosati asoslari;
- Maksadlarga erishishda bankdagi xamkorlikni aniqlash;

Yangi tashkiliy tarkib variantini kiritish

Banka yangi tashkiliy tarkib variantini kiritish uchun mutaxassislar guruhi yigiladi va ular u yoki bu modelga asoslanib amaliyotda uz goyalarini realizatsiya kiladilar.Bank bu boradagi karorlarni individual yoki jamoa bo'lib kabul kilinishini xam belgilab olishi kerak.Kupchilik banklar uchun bunday karorlar prinsipial xisoblanadi.Bank uz faoliyati uchun individual karorlarni kabul kila olishi yoki olmasligi va buning uchun personal javobgarlik kanaka bulishini belgilab olishi kerak.

Oxirgi karorni kabul kilishda taklif etilayotgan tashkiliy model korreksiyaga beriladi.Bank reorganizatsiyasini utkazish jarayonida doimiy ravishda ishda kanaka natija bulayotgani,nimani aniqlashtirish kerakligi va nimani tugirlash yoki nimani yuk kilish kerakligi tekshirib boriladi.

Bankning yangi tashkiliy tuzilishida yangi yoki korreksiyalangan-eski ustav,farmon va karorlar paydo buladi.

Kupchilik chet el rivojlangan banklari ish ustavi va tashkiliy ustavni aloxida tuzishadi.

Ish ustavida umumiy konun-koidalar,bank siyosati va maksadlari kursatiladi.Unda boshkaruvchilar va aloxida tarkibiy bulinmalar (bank boshkaruvchisi,tijorat bloki bulimlari,investitsion blok,Shuningdek,aloxida departamentlar bo'yicha,trust bulinmasi,Shuningdek boshka personal tomonidan bajariladigan xisobot,statistika va taxlil) vazifalari va huquqlari kursatiladi.Bu xujjatda , ish xaki,ta'til,ishdan bushatish,kuchmas mulkni sotish va olish,ijarasi va lizingi,asosiy va oborot mablaglar xolati bo'yicha kursatmalar aks ettiriladi.

Tashkiliy ustavda bank boshkaruvi va uning a'zolari huquq va majburiyatlari,saylash tartiblari,koida va cheklovlarga sharxlar(\*Shuningdek yangi tijorat bulimlarini,filiallarni,chet elda bulimlarni ochish bo'yicha),tekshiruv,reviziyalar,aloxida faoliyat bo'yicha xisobotlarni tayyorlash tartiblari,Shuningdek,personalga talablar va bank sirini saklashga doir talablar kursatiladi.

Reorganizatsiyani utkazish tarkibiy tuzilmalarning vujudga kelishi samaradorligi ustidan xar tomonlama nazoratni talab kiladi.Nazorat ob'ekti bo'lib boshkaruv organlari (bulimlarni boshkarish) va boshkaruv instrumentlari (rejalashtirish,moliyalashtirish tizimi, xarajatlarning aloxida turlari bo'yicha xisob-kitob) xisoblanadi.Nazoratning asosiy ob'ekti bo'lib boshkaruv jarayoni (karor kabul kilish) katnashadi.

Nazorat jarayonida restrukturizatsiya natijalari baholanishi va e'lon kilinib borilishi,reorganizatsiya natijalari taxlil kilib borilishi kerak.Bu Shuningdek,xisob-kitob soxasini nazorat kilishni xam uz ichiga oladi.Buxgalteriya xisobotlari,operatsion xisob-varaklarning yuritilishi,xujalik faoliyati taxlili,bank

statistikasining takdim etilishi bank faoliyatidagi tarkibiy uzgarishlar tugrisida «signal» berib turishi kerak.

### **3-mavzu. “Tijorat banklari resurslari va ularni tashkil qilishning umumiy jihatlari”**

- 1. Tijorat banklari moliyaviy resurslari haqida tushuncha.**
- 2. Tijorat banklari moliyaviy resurslarining tarkibi.**
- 3. Moliyaviy resurslarni boshqarishni tashkil qilishning tamoyillari va xususiyatlari.**

#### **Tijorat banklari moliyaviy resurslari haqida tushuncha**

Bank faoliyatini tashkil qilishning ilk bosqichi bu bank resurslarining tashkil qilishni ko‘zda tutadi, ya‘ni tijorat banklari mustaqil bank sifatida faoliyat boshlashi uchun zarur bo‘lgan jihatlardan biri bu tijorat bankining minimal miqdori uning faoliyatiga asos soluvchi resurs – bank kapitaliga ega bo‘lishdir.

Shu bois banklar faoliyatini olib borish, avvalambor, ularda etarli bank resurslarining mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Bank resurslarining mukammal tashkil qilinishi va ishlatilishi bank faoliyatining samarali olib borishiga zamin yaratadi. Bu resurslar tijorat banklarining tijorat va xo‘jalik faoliyatini ta‘minlash uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishda banklarning resurslarini shakllantirish va ularni oqilona ishlatish katta ahamiyatga ega. Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni, balki resurslarni jalb etish manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o‘zgartirib turishni ham o‘z ichiga olib, tijorat banki aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblandi. Passivlardan samarali foydalanish to‘g‘ri depozit siyosatini p‘ritishni talab qiladi. Tijorat banklari resurslarining tarkibini tadqiqot qilishdan oldin bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini ko‘rib chiqish lozim deb o‘ylaymiz.

Umuman resurs so‘zining mohiyatini olib qaraydigan bo‘lsak resurs fransuzcha «ressourse» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, pul mablag‘lari, yordamchi mablag‘, imkoniyat, zaxira, mablag‘ va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai<sup>2</sup> degan ma‘noni anglatishi ta‘kidlangan.

Resurslar turli xilda, masalan, tabiat resurslari, iqtisodiy resurslar, odam resurslari va boshqalar bo‘lishi mumkin. Shundan iqtisodiy resurslar jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taqsimlandigan iqtisodiy imkoniyatlarining (potensialning) asosiy elementlaridan hisoblanadi. Undan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Iqtisodiy resurslar asosiy qismi, bu moliyaviy resurslar bo‘lib, bu resurslar iqtisodiyotning rivojlanishining ta‘minlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablag‘larini tashkil qiladi. Moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo‘lib, vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘lari, soliqlar, jismoniy shaxslarning pul

---

<sup>2</sup> Sovet Entsiklopediya lug‘ati. M. Sovet Entsiklopediya 1986 g.

mablagʻlari chek-depozit emissiyasi hisoblanadi. Biz Shu moliyaviy resurslarning ajralmas qismi boʻlgan bank resurslarigi kengroq toʻxtalmoqchimiz. Bank resurslari toʻgʻrisida i.f.n. B. Boboev tomonidan ilmiy tadqiqot olib borilgan boʻlsada, biz bizning fikrimizcha, bank resurslari va ularning mohiyati hamda ishlatilishi bilan bogʻliq savollar mazkur muallifning ishida oʻzining toʻliq ifodasini topmagan. Respublikada pul bozorini shakllantirish va unda pul resurslari bilan operatsiyalar oʻtkazishda bank strategiyasini ishlab chiqish uchun bank resurslari tuShunchasini va oʻtkaziladigan operatsiyalarning mohiyatini toʻliq aniqlash lozim. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarni oʻrganib chiqishimiz Shuni koʻrsatadiki, chet el adabiyotlarida «bank resurslari» tuShunchasiga kam eʼtibor berilganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, E.Rid, R. Kotter, E.Pill va R.Smitlarning<sup>3</sup> tahriri ostida chop qilingan «Kommercheskie banki» kitobida bank balansini guruhlashtirgan holda koʻrish, unda pul mablagʻlarining manbalariga eʼtibor berishi va pul mablagʻlarini koʻrib chiqishda, avvalambor, banklarning passiv operatsiyalarining tahlil qilish zarurligi uqtilgan.

YAna bir guruh olimlardan D. Polfreman va F. Fordlar<sup>4</sup> bank faoliyatini tahlil qilishda bank resurslarini koʻrib chiqmasdan ularni bank passivlari deb koʻrib chiqishgan va ular bankning aksionerlari mablagʻlari va jamgʻarmachilarning mablagʻlaridan tashkil topgan degan fikrni bildirishgan. Koʻrinib turibdiki, xorijlik mualliflar bank resurslarini aniq ifodalab ularning shakllanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini koʻrishdan koʻra umuman tijorat banklarining passiv operatsiyalari va passivlariga kengroq eʼtibor berishgan. Bu holatni bir jihatdan ijobiy baholash mumkin, yaʼni, xorijiy banklar faoliyatida avvalam bor ularning majburiyatlari va ularning bajarilishi, bizning fikrimizcha, old vazifa qilib belgilab olishgan. Bu qarashning ikkinchi jihati Shundaki, tijorat banklari Shu resurslarni oʻz majburiyatlarini bajarishi uchun mukammal joylashtirishni afzal koʻradi va qattiq kredit siyosatini olib boradi. Tijorat banklarining faolyati mijozlari oldida olgan majburiyatlarini bajarishga qaratilgan boʻladi. Biz paragrafnig boshqa resurs tushnchasiga taʼrif berganda «resurs» bu nafaqat mablagʻ, balkiy u zahira va imkoniyat ham deb oʻtgan edik. Shundan kelib chiqib «bank resurslari» nafaqat qarz majburiyatlari yoki egalik huquqini olish uchun mablagʻ jalb qilish, balki bank uchun daromad keltiradigan zahira va imkoniyat hamdir.

Bankning passivlari va uning resurslari tuShunchasi bir xil tuShuncha emas. Bank resurslari bank passivining bir qismini tashkil qilish manbai va uning hajmi bir necha omillarga bogʻliq. Bular:

- banklarning oʻz mablagʻlari hisobidan amlaga oshiriladigan faoliyati;
- pul-kredit muomalasini boshqarish sohasidagi Markaziy bankning siyosati;
- bank jalb qilingan mablagʻlari majburiy zahira miqdori va boshqalar.

Iqtisodiy adabiyotlar va bank mablagʻlarining shakllanishi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarda «bank resurslari», «kredit resurslari», «depozit resurslari», «bank passivlari», kabi tuShunchalarni uchratishimiz mumkin va bu tushnchalarga mualliflar tomonidan turlicha kelitirilgan taʼriflarning shohidi boʻlamiz.

---

<sup>3</sup> E.Rid, R. Kotter, E.Pill va R.Smit Kommercheskie banki perevod s angl. M.: Kosmopolis 1991g. str.-16

<sup>4</sup> Polfreman D. Ford F. Osnovi bankovskogo dela. Perevod s angl. Moskva: infra 1996 g. str.-102.

Rossiyalik olim O.I.Lavrushining fikricha, tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi.<sup>1</sup> Shunday fikrni boshqa mualliflarning ishlarida ham uchratish mumkin. Tijorat banklarining resurslari o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan tashkil qilinishini ta'kidlash bizning fikrimizcha ularning manbalariga ko'proq e'tiborni qaratadi. Bank resurslarining zarurligi bank faoliyatini tashkil qilishi va olib borish natijasida shakllanadi. Banklar tashkil qilinishining ilk bosqichlarida banklardan avvalambor o'z kapitalining mavjud bo'lishi talab qilinadi va banklar faoliyatini qanchalik olib borish uchun esa mablag'lar jalb qilinishni talab qilinadi. Shu boisdan tijorat banklari resurslari mohiyatini ta'riflashda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligi e'tiborga olishdan tashqari u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini, ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutishi lozim.

Shundan kelib chiqqan holda bank resurslari bu bank siyosati doirasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan, bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar, bankning daromad olishga asos bo'luvchi zahira va imkoniyatlarning yig'indisidir degan ta'rifni keltirmoqchimiz. Bu ta'rif orqali biz, birinchi navbatda, bank siyosatini amalga oshirishda qo'yilgan vazifalaridan kelib chiqqan holda bank resurslarni turli manbalardan tashkil qilinishi ta'kidlashimiz mumkin.

Tijorat banklari, boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni Shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Undan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ob'ekti orqali aniqlanadigan bank faoliyatining ko'lami, ular joylashtiradigan resurslar hajmi, miqdori, jalb qilingan mablag'lar summasiga bog'liq bo'ladi. Bunday holat resurslarni jalb qo'lish bo'yicha banklar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Qolaversa, bank resurslari pul shaklida bo'lsada tijorat banki faoliyatini keng olib borib bankka ma'lum bir daromad keltira olish qudratiga ega bo'lgan zahira va imkoniyatdir. Tijorat banklari o'zining kredit siyosatini tuzganda yoki o'zoq davrga o'z faoliyatining strategi yo'nalishlarini to'zganida Shu zaxira va imkoniyatlarining ko'lami keng ko'rib chiqishi va o'zining faoliyat yo'nalishlari daromad manbalari sifatida nazarda tutishi lozim.

CHet el adabiyotlarida<sup>1</sup> mablag'larni jalb qilish operatsiyalarini nafaqat tijorat banklari, balkiy moliyaviy kompaniyalar, jamg'arma kassalari, turli xil fondlar bajaradi degan fikrni uchratish mumkin. Albatta bozor munosabatlarning

---

<sup>1</sup> Bankovskoe delo. Pod redatsey I.O. Lavrushina M.Fin. i statistika. 1998 g. str.68

<sup>1</sup> Sinki Dj. F. Upravlenie finansami kommercheskix bankov. Perevod s angl. M.: Catallaxy. 1994 g. str. 22-23

rivojlanishi banklar faoliyati raqobatbardosh moliyaviy institutlar va fondlarning shakllanishiga olib keladi. Lekin fondlarning faoliyati va maqsadi bilan tijorat banklarining faoliyati va maqsadi bir xil emas. Turli fondlar va muassasalar faoliyatidan ko'ra banklarda depozitlar sug'urtalangan kafolatlangandir. Turli boshqa moliyaviy muassasalardan ko'ra tijorat banklari bu mablag'larni saqlash va riskdan himoya qilishda mablag' egasiga o'z kafolatini berishi mumkin va mijozning o'z mablag'ini yuqotishi bilan bog'liq riski banklarda boshqa fondlar yoki kassalarga nisbatan ancha pastdir yoki deyarli yo'q deyish mumkin.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Bank resurslarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Bular: banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardir. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi. Bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.


Bank resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil qiladi. Bank boshqa kapitalarini jalb qilish uchun bank o'z kapitalining etarlilik darajasi miqdorini ko'rsatish lozim.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida, bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, Shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bankka sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati, to'lovlar amalga oshirish, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi.

Bank resurslarining aylanishini quyidagicha ifodalash mumkin.

### *Bank resurslarining aylanishi sxemasi.*





2.kredit

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o‘z navbatida banklar faoliyatini doimiylikiga asos hisoblanadi.

### Tijorat banklari moliyaviy resurslarining tarkibi

Alohida tijorat banklari uchun bank resurslari tarkibiy tuzilishi turli xillik bilan farqlanadi. Bu uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tushintiriladi. Ikkita tijorat bankining tarkibiy tuzilishi quyidagi ma’lumotlar bilan xarakterlanadi.

#### Bank resurslari tarkibi

(%)

	Ko‘rsatkichlar	Bank №1	Bank №2
I. o‘z mablag‘lari-jami Shu jumladan		17,4	7,2
1.1	Ustav fondi	3,9	1,3
1.2	Boshqa fondlar	9,4	3,2
1.3	Joriy yildagi taqsimlanmagan foyda	4,1	2,7
<b>II. Jalb qilingan mablag‘lar-jami, jumladan:</b>		82,6	92,8
2.1	Muddatli depozitlar	76,9	70,1
2.2	Muddatsiz depozitlar	4,3	4,3
2.3	Aholi qo‘yilmalari	0,3	0,4
2.4	Sertifikatlar, veksellar	1,1	-
2.5	Banklararo kreditlar	-	18,0

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, alohida tijorat banklarining resurslari strukturasi sezilarli farq qiladi. Bu, avvalambor, tijorat banklarining o‘z mablag‘lariga taalluqli bo‘lib, tahlil qilinayotgan banklarda ularning miqdori turlichadir. Birinchi bankning o‘z mablag‘lari ikkinchi banknikidan ikki marta ortiq. Birinchi bankda ustav fondi 3,9 % - ni, o‘z mablag‘lari summasining 22,3 % ni tashkil etgan. Ikkinchi bankda ustav fondi 1,3 % ni, ya’ni o‘z mablag‘lari summasining 18 % ni tashkil etgan.

Jalb qilingan resurslar birinchi bankda 82,6 % ni, ikkinchi bankda 92,8 % ni tashkil etgan. Bunda ikkinchi bank banklararo kreditdan foydalangan va u 18,0 % ni tashkil etgan. Birinchi bank esa aksariyat hollarda mijozlarning resurslari bilan ishlagan.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining resurslarini tashkil qilish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. Shu sabab o‘tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini



shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bular:

- ✳ banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;
- ✳ Iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;
- ✳ aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;
- ✳ korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

Banklarda mavjud bo'lgan mablag'lardan foydalanish imkoniyatiga qarab bank resurslari o'z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo'linadi. Bu holda banklar resurslariga bank kapitalidan tashqari ma'lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo'lgan jalb qilingan depozitlarni, boshqa banklarning depozitidan va vakillik hisob raqamidan qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo'yicha qoldiqlarni va boshqa depozitlar va qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Undan tashqari bankning ixtiyorida mavjud bo'lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun etarli bo'lmasa, zarur miqdordagi mablag'larni markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, pul bozorida sotib olishi yoki qarzga olishi mumkin.

Shunday qilib o'z mablag'lari va jalb qilingan yoki sotib olingan mablag'lari yig'indisi tijorat banklarining resurs bazasini tashkil qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi:

- ✳ YUridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqlaridan qoldiqlari;
- ✳ Bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar;
- ✳ Olingan banklararo kreditlar;

Bank vakil tomonidan ochilgan "loro" (Vostro) depozit va valyuta hisob varaqasidagi mablag'lar va boshqa manbalar;

Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo'yicha gurhlarga ajratish mumkin.

Tijorat banklarining o'z mablag'larini oladigan bo'lsak, ular o'zining ishonchlilik darajasi bo'yicha farqlanadi.

O'z mablag'lari elementlari orasida (umuman rezerv bazasida) eng ishonchligi bu kredit tashkilotining ustav kapitalidir. Ustav kapitalini shakllantirilishi (paychilik yoki aksiyadorlik shaklida) tijorat bankini shakllanishini asosiy nuqtasi hisoblanib, uning miqdori - bank tomonidan olingan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlaydi. Bu bankning o'z mablag'larining eng konservativ usulidir. Ustav kapitalining miqdori, uni shakllantirish tartibi va unga uzgartirishlar kiritish bankning Nizomida belgilangan bo'ladi. Ustav kapitalini oshirish yangi paylarni yoki aksiyalarni muomalaga chiqarish yoxud sof foydani kapitalizatsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ustav kapitalidagi o'zgarishlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanishi va Markaziy bank ro'yxatidan o'qtishi kerak. Ushbu jarayonning murakkabligi tufayli banklar o'zlarining ustav kapitalini oshirishga intilmaydilar.

Bankning boshqa jamg'armalari orasidagi muhimlaridan biri bu zahira kapitali bo'lib, u tijorat banklarining foydasidan ma'lum bir foizini ajratish orqali tashkil qilinib, u majburiyatlarni qaytarishga va maxsus zahiralarni tashkil qilinmaydigan bank operatsiyalari bilan bog'liq xatarlarni qoplashga sarflanadi. Amaliyot Shuni ko'rsatadiki, zahira jamg'armasining miqdori o'tgan yillarda hisobdan chiqarilgan kreditlar bo'yicha keladigan zararlar bilan mos kelmaydi. Mablag'larni ajratish mexanizmi ham yaxshi shakllanmagan, ya'ni zahira kapitali miqdori ma'lum bir summaga etgandan so'ng 5% dan kam bo'lmagan miqdorda mablag'lar ajratish. Zahira kapitali odatda kredit xatari ochiq namoyon bo'lgana bank kengashining qarori bilan sarflanishi mumkin.

Bankning barcha boshqa jamg'armalari ham bankning sof foydasidan ajratiladi va kredit resurslari sifatida bank kapitali tarkibiga kiritiladi.

Turli debitorlar bilan hisoblashishlar bo'yicha tuzilgan jamg'armalar ham qonunchilikka asosan tijorat bankining o'z mablag'lari qatoridan joy olgan. Shu bilan birga xalqaro hisob standartlariga asosan kredit tashkilotlari ushbu mablag'larni o'z mablag'lari qatoriga kiritmaydi, balki ularni o'zaro mos debitorlik qarzi majburiyatlaridan ayirishadi. Bu esa zahiralarning iqtisodiy mohiyatini, ya'ni ular o'zida aktiv daromad keltiradigan operatsiyalarni aks ettiradi. Shu sababdan ham ular xatarli mablag'lar hisoblanadi va ishonch kamligi tufayli bankning o'z mablag'lari tarkibiga kiritilmaydi.

Ishonchlilik darajasi bo'yicha bankning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'laridan keyingi o'rinda turuvchi jalb qilingan va qarzi mablag'lari bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siriga bog'liqdir:

- Fuqarolarning omonatlari va yuridik shaxslarning depozitlari foiz stavkalari miqdori;

Omonat va depozitlarni qabul qilish, hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochish va ularni yuritish shartlari.

Passivlarni ishonchlilik darajasini pasayib ketishi prinsipi jalb qilingan va qarzi mablag'lari tarkibini aniqlash asosiga quyilgan.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari qarzi mablag'laridan Shunisi bilan farq qiladiki, birinchisida mablag'larni taqdim qilish mijoz va bank omonatchilarining tashabbusi bilan amalga oshirilsa, keyingi holda - bank tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Jalb qilingan mablag'lar qatorida alohida resurs sifatida kredit tashkilotlarining mablag'larini ajratish lozim. Chunki banklar - ishlab chiqarish va savdo tashkilotlari yoki xususiy shaxslardan farqli ularoq ular bir-birlari bilan operatsiyalarni amalga oshirishda banklararo bozorda qatnashishlari mumkin, Shu sababdan ham ular bir-birlarini likvidliklariga va moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xuddi Shu tamoyil asosida qarzi mablag'larining alohida bir guruhga markaziy bank va boshqa banklar oldidagi majburiyatlar ham kiritiladi.

Bundan tashqari, tashqi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatadigan Yuqori darajadagi riskli resurslar qatoriga norezident banklar, korxonalar va jismoniy shaxslarning mablag'lari kiradi.

Bank tizimi hukumat tomonidan kattiq nazorat qilinadi. Bundan tashqari hamma bank har kunga balans tuzadi, bu esa nazoratning yana bir vositasidir.

Nobank sektoridan jalb qilingan mablag'lar qatorida ishonchlilik darajasiga ko'ra depozitlar (asosan muddatli depozitlar) muhim o'rin tutadi. G.S. Panovanning traktovkasiga asosan: depozitlar - «mijozning bankka ma'lum bir talablari borligini tasdiqlovchi hisoblar yoki bitimlar va shartnomalarga asosan mijozlarning banklarga omonat shaklida qo'ygan pul mablag'laridir».<sup>1</sup>

Muddatli depozitlar oldindan bitimda yoki shartnomada kelishilgan muddatga jalb qilinadi. Umuman olganda, A.A. Kazimagomedovning aytishicha, hozirda doimiy qoldiqni saqlagan holda depozit hisob raqamlaridan pul mablag'larini muddatdan echib olish imkonini beruvchi hisob raqamlar ham mavjud.

Bank amaliyotida jismoniy shaxslarning depozitlari omonatlar deb yuritiladi.

Ishonchli manbaga ega bo'lgan depozitlar miqdorini oshirib yuborish potentsiali risk markazini tashkil qilishi mumkin. Shu sababdan ham ko'pgina mamlakatlarda markaziy banklar pul-kredit munosabatlarini tartibga solishda depozitlar bo'yicha minimal (maksimal) foiz stavkalarini belgilash instrumentidan foydalanidilar.

Shu bilan birga, mijozlarning hisob va joriy hisob raqamlaridagi qoldiqlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim, chunki bu mablag'lar deyarli tekin hisoblanadi va Shu sababdan bu mablag'lar bankning kredit resurslari qatoridan joy olishi mumkin. Bu mablag'lardan ustalik bilan foydalanilsa, ularni o'z mablag'lariga ham tenglashtirish mumkin.

Tijorat banklarining barcha resurs bazasidagi elementlarni turli belgilar bo'yicha guruhlarga ajratish mumkin.

Tahlil maqsadida va klassifikatsiyaning asosini boshqarishda (1.1-jadvalda keltirilgan), quyidagi belgilar keltirilgan:

- A. Manbai bo'yicha;
- V. Mablag'larni kimga tegishliligi bo'yicha;
- S. Muddatiga ko'ra;
- D. Qiymatiga ko'ra;
- E. Ishonchlilik darajasiga ko'ra;
- J. Ko'payish manbaiga ko'ra va boshqalar.

Tijorat bankining resurs bazasi, umuman bank faoliyati kabi mamlakatning Markaziy banki tomonidan nazorat qilinadi. Ammo bu erda teskari bog'liqlik ham bor. Masalan bank xizmatlari bozoridagi ob'ektiv holat qonunchilikda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarini o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Tijorat bankining resurs bazasini tashkil qilinishi, tahlili va boshqarilishi umumiy ob'ektiv iqtisodiy qonunlar va bank tizimini tizimli tekshiruviga asoslanadi.

Qo'yida tijorat banklarining resurslari tug'risida yanada chuqurroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning tasnifini keltiramiz. Bu tasnif iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan qisqacha tavsifdan farqli ularoq bank resurslarining manbasi, turlari kimga tegishli ekanligi, muddati, qiymati ishonchlilik va risk darajasi, ko'rsatish imkoniyatlarini qzida mujasamlashtirilgan holda ishlab chiqilgan.

## **TIJORAT BANKLARI RESURSLARINING TASNIFLANISHI**

---

<sup>1</sup> Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo banka M. 1996 str.-68

Klassifikatsiya belgisi	Resurslar turlari	Izoh
1	2	3
Manbai	O'z mablag'lari	Nizom, qqshimcha kapital, zaxiralar, foyda va zararlar hisob rakamidagi qoldiq
	Jalb kilingan va qarzi mablag'lari	Mijozlarining hamda vakil-banklarining joriy, depozit, jamg'arma va boshqa hisob raqamlaridagi mablag'lar; yuridik shaxslar tomonidan olingan kreditlar
Mablag'larning kimga tegishliligi bo'yicha	Bankka tegishli	O'z mablag'lari: jamg'armalar, taksimlanmagan foyda, taksimotdan keyinga joriy davrning foydasi, uz mablag'larini ko'payishiga ta'sir kiluvchi xarajatlarni hisobga olmagan holda
	Bankka tegishli bo'lmagan	Qarz banklararo kredit, banklararo moliyaviy mablag'lari yordam, muddatli qimmatli qog'ozlar
		Jalb depozitlar, maxsus jamg'armalar, hisob qilingan raqamlardagi vaqtincha bo'sh mablag'lar, mablag'lar bankning kreditorlik qarzlari, debitorlar bilan hisoblashishlar o'z mablag'lariga tenglashtirilgan mablag'lar
Muddatiga ko'ra	Uzoq muddatli	O'z mablag'lari, o'z mablag'lariga tenglashtirilgan-mablag'lar (talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqlar), uzoq muddatli depozitlar, moliyaviy yordam.
	Qisqa muddatli	Qisqa muddatli depozitlar, korxon va tashkilotlarning talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqdan
Qiymati	To'lovli	O'z mablag'lari, depozitlar, boshqa yuridik shaxslarining
	Nisbatan to'lovsiz	Talab kilib olinguncha xisob rakamlari, korxonalarining xisob va joriy xisob rakamlari
Ishonchlilik darajasiga ko'ra	Ishonchli	O'z mablag'lari, uzok muddatli depozitlar, moliyaviy yordam
	Ishonchsiz	Qisqa muddatli depozitlar, talab qilib olinguncha depozitlar, korxon va tashkilotlarning hisob va joriy hisob raqamlari
Ko'payish manbai	O'z Ichki	Taksimlanmagan foyda
	Mablag'lari Tashqi	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish (aksiya, obligatsiya, veksellar), Shu jumladan, konvertirlanadigan, bank aktivlarini sotish, ko'chmas mulkni ijaraga berish
	Jalb qilingan tashqi va qarzi	Qimmatli qog'ozlarni konvertatsiya qilish Yuridik shaxslarni hisob rakamlarini ochish, fuqarolarning omonatlari, yuridik shaxslarning depozitlar, banklararo

Yuqorida tavsiya qilingan tasnif, bizning fikrimizcha, banklar faoliyati uchun zarur bo'lib tijorat banklari o'zida mavjud bo'lga resurslarni qaysi manbadan, qanday qiymatda, qancha muddatga jalb qilinganligi to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'ladi. Undan tashqari bu tasnif asosida tijorat banklari mablag'lar qaysi sub'ektga tegishli ekanligi va bu sub'ektning moliyaviy ahvoli, unga Shu

mablag'lar qaysi muddatga zarurligi yoki boshqacha qilib aytganda ularning likvidlilik, ishonchlilik darajasi, Shu mablag'lar bo'yicha mavjud risklar va ularning darajasining aniqlashga va Shu omillar asosida chora tadbirlarni amalga oshirib banklarning resurs bazasini barqaror ushlab to'rishga yordam beradi.

Tijorat banklari, boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni Shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Undan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ob'ekti orqali aniqlanadigan bank faoliyatining ko'lami, ular joylashtiradigan resurslar hajmi, miqdori, jalb qilingan mablag'lar summasiga bog'liq bo'ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo'yicha banklar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Bank resurslarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Bular: banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardir. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi. – bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambar-chas bog'lik bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

### **Moliyaviy resurslarni boshqarishni tashkil qilishning tamoyillari va xususiyatlari.**

Bank resurlarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil kiladi. Bank boshqa kapitalarini jalb qilish uchun bank qz kapitalining etarli darajasi miqdorini ko'rsatish lozim.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, Shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Iшонchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib ular axolining bush turgan pul mablag'larining bankka sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati to'lovlar amalga oshiriladi, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi.

Bank resurslarining aylanishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Biz tijorat banki bo'limining ko'rsatkichlarini ifodalovchi quyidagi jadval ma'lumotlaridan bankning resurs bazasini tashkil qiluvchi elementlar va ularning tarkibini aniqroq ko'rishimiz mumkin.

### **Tijorat banking resurs bazasi va undan foydalanish to'g'risida ma'lumot.**

	Ko'rsatkichlar	Ming so'm	%
	Bankning resurs bazasi. Bankning o'z mablag'lari		
1.	Bank kapitali – jami (30000 + 29830 x/v*)	226209	33.1
	Shu jumladan:		
	Aksiyadorlik kapital (30300+29830 x.v)	82739	12.0
	Qo'shimcha kapital (30600 x.v)	0	0
	Rezerv kapital (30900 x.v)	40254	6.0
	Taqsimlanmagan foyda (31200 x.v)	103216	15.1
	Vositalar qiymatini baholashda yuzaga keluvchi ortiqchalik (31500 )	0	0
2.	Jalb qilingan depozitlar – jami		
	Shu jumladan;	170989	25.1
	talab qilingunga qadar (20200 X.V)	109794	16.1
	Jamg'arma (20400 x.v)	10957	1.6
	Muddatli (20500 x.v)	17159	2.5
	Mijozlarning boshqa depozitlari (22600 x.v)	1614	0.3
3.	Boshqa banklarning depozitlari va vakilliklik		
4.	schyotidagi qoldiq (21000)	0	
	CHiqarilgan qimmatli qoG'ozlar (23600 x.v)	0	
5.	Forvard – valyuta kursi (22800 x.v)	0	
6.	Boshqa majburiyatlar (29800 x.v – 29830 x.v)	1259	0.2
7.	Kliring transaksiyalari (23200 – 23204, 23208,		
8.	23210, 23212, 23218, 23220)	0	
	Boshqa passivlar (22200+23220 x.v)	30206	4.4
9.	Bankning jami o'z ixtiyorida bo'lgan resurs bazasi		
10.	(1+2+3+4+5+6+7+8+9) qatorlar	397198	58.2
	Sotib olingan resurslar – jami:		
11.	(21600+21800+22000 x.v) sh.j.	285674	41.8
	Markaziy bankdan (21602, 21802, 22002 x.v)	187333	27.4
	Moliya vazirligidan (21610, 22010 x.v)	57911	8.5
	Banklararo pul bozoridan (21606, 21806 x.v)	0	
	Nobyudjet fondlardan (21605, 21805, 22005 x.v)		
	Xukumat xisob varaqlari (23400 x.v)	0	

12.	Bankning jami resurs bazasi (10+11+12) qatorlar. * - x/v – xisob varagi	40430	5.9
13.		682872	100

Jadval ma'lumotlari Shuni ko'rsatdiki, tijorat banki resurs bazasining 33.1 % bankning o'z mablag'lari, ya'ni bank kapital va taksimlanmagan foydasiga to'g'ri keladi. Bank ixtiyorida bo'lgan resurslarning 25.1 % jalb qilingan depozitlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib bank bank ixtiyorida bo'lgan o'zi yiqqan resurslar jami – 58.2 5 ni tashkil qiladi. Bank tomonidan sotib olingan resurslar esa 41.8 % ni tashkil qiladi. Undan 27.4 % markaziy bankdan olingan kredit resurslarini, 8.5 % moliya vazirligidan olingan resurslarni, 5.9 % Xukumat hisob varag'ida bo'lgan resurslarni tashkil qiladi.

Bank tomonidan tashkil qilingan resurs baza turli xil kreditlar va investitsiyalarni va boshqa aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin. Buni quyidagi jadval materiallaridan ko'rishimiz mumkin.

### Bank resurslarining ishlatilishi

Bank resurslarning yunalishi:			
1.	G'aznadagi mablag'lar va qimmatbaho metallar (10100 + 900 x.v)	88491	12.9
2.	Markaziy bankdagi majburiy rezerv zaxiralar (10309 x.v)	0	
3.	Boshqa banklardagi vakillik hisob varaqlaridagi mablag'lar depozitlar ( 10500)	0	
4.	Sotib olingan qimmatli qog'ozlar ( 10700, 11300 x.v)	0	
5.	Faktoring operatsiyalar (11100 x.v)	0	
6.	Banklararo kreditlar (12100+13300 x.v)	0	
7.	Xukumatga ajratilgan kreditlar (12300 x.v)	0	
8.	Sof kredit kuyilmalar (12500, 12600, 12700, 12900, 13100, 13700, 13800, 13900, 14000, 14300, 14900, 15100, 15300, 15500, 15700 x.v)	0	
9.	Sof investitsiyalar (15900 x.v)	42915	62.9
10.	Bank mulki (16500, 17700, 19921, 19923 x.v)	0	
11.	Forvardlar va valyutaviy xolat (16900, 17100 x.v)	43876	6.4
12.	Tranzit hisob varaqlari (17300 x.v)	0	
13.	Hukumat hisob varaqlari (17500 x.v)	0	
14.	Boshqa aktivlar (19900 +16100+16300-19921, 19923 x.v)	0	
15.	Jami qo'yilmalar (1+2+3+4+5+6+7+8+9+10+11+12+13+14)	0	
16.	Ortiqcha bo'sh resurslar ( I-bulim 13 k – II-bulim 15 k)	0	
17.	Vakillik hisob varag'idagi qoldiqlar (10301 x.v)	121300	17.8
18.	Moliya vazirligidagi fondagi mablag'lar ( 23204, 23208, 23210, 23212, 23218, 23220 x.v)	682818	54.0
19.	Vakillik hisob varag'idagi ortiqcha (bo'sh) mablag'lar (17k-18k)	60112	
20.	Vakillik hisob varaq nolikvidliligi (18k-17k)		

18.		59354	
19.		758	
20.		0	

Jadval ma'lumotlari Shuni ko'rsatib turibdiki tijorat banki resurslarining bir qismi bankning gaznadagi mablag'lari va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga yunaltilsa, mablag'larning asosiy qismi kreditlar berish uchun sarflanadi, ya'ni resurslar hisobidan berilgan sof kreditlar salmog'i mablag'lar sarfida 62.9 % ni tashkil qiladi. Mablag'ning 17.8 % boshqa aktivlarga yo'naltirilgan. Hamda undan tashqari 54.0 ming so'm miqdorida ortiqcha resurslar mavjud. Vakillik hisob varaqasidagi bo'sh mablag'lar 758 ming so'mni tashkil qiladi.

Bankning o'z mablag'lari uning faoliyatining asosini tashkil qiladi, chunki ular jalb qilayotgan depozitlar, ya'ni real kredit resurslari hajmini pirovard natijada aktiv amaliyotlar hajmini belgilab beradi. Bankning o'z mablag'lari tijorat banklarining faoliyatini boshqaruvchi va ular ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Markaziy bank uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi.

Bankning o'z mablag'lariga ustav fond (kapital) rezerv fondi va bank foydasi hisobiga tashkil topadigan bank fondlari hamda yil davomida taqsimlanmagan foyda kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag'lariga to'g'ri keladi. bankning o'z mablag'larida asosiy o'rinni ustav kapitali egallaydi.

Bankning ustav kapitali – bu bank ishini tashkil qilishning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Markaziy bankning me'yoriy talablariga muvofiq bank kapitali asosiy (birinchi darajali kapital) va qo'shimcha (ikkinchi darajali) kapitaldan iborat. birinchi darajali kapital hisob-kitob qilingan kapital yig'indisining 50 foizidan kam bo'lmasligi lozim. Tartibga solish funksiyasini asosan birinchi darajali kapital bajaradi, chunki u doimiyroq hisoblanadi.

Bank kapitali uning faoliyat yuritish chegaralarini belgilab beradi, investorlar hamda aksiyadorlar va qolaversa bankning o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy barqarorlik darajasini ko'rsatib beradi.

Bankning tashkil topish shakliga qarab ustav kapitalining shakllantirilishi turlicha bo'ladi. Agar bank aksionerlik jamiyati ko'rinishida shakllanayotgan bo'lsa, ustav fondi aksiyalarining nominal qiymati ko'rinishida tashkil topadi. bunda aksiyalar ochiq obuna qilish yo'li bilan yoki ta'sischilarning ustav fondidagi ulushlariga qarab tarqatilishi mumkin.

Agar bank mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rinishida tuzilgan bo'lsa, ustav fondi ulushlarga bo'lingan holda bo'ladi. Ularning hajmi ta'sis hujjatlari bilan aniqlanadi. bunda bank ishtirokchilari o'zlarining ulushlari me'yori chegarasida majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar.

Bankning tashkiliy – huquqiy shakliga qaramay, uning ustav fondi huquqiy va jismoniy shahslarning to'lovlari orqali shakllanadi va ta'sischilarning



majburiyatlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ustav fondi faqat bank ishtirokchilarining hususiy mablag‘lari hisobiga tashkil topishi mumkin. Jalb qilingan kredit, garovga olingan, boshqa yo‘llar bilan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan ustav fondini shakllantirishga yo‘l qo‘yilmaydi. bankning ustav fondi faqat pul mablag‘lari va moddiy aktivlar hisobiga tashkil topishi mumkin.

Respublika byudjeti mablag‘lari, davlat nobyudjet fondlari mablag‘lari va O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv va mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoridagi bo‘sh pul mablag‘lari va boshqa ob‘ektlar banklarning ustav kapitali shakllanishida qatnashmaydi. Qonunda ko‘rsatilgan holatlarda bank ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag‘laridan foydalanish mumkin.

Agar aksiyadorlar ustav kapitalini shakllantirishda qarz mablag‘idan foydalansa, ustav fondiga qo‘shilgan mablag‘ aksiyadorga qaytarib beriladi va aksiyalar kelgusida sotish uchun bankka qaytariladi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy bank faoliyat shartlari, biznes-rejada ko‘rsatilgan operatsiyalar turi va hajmiga qarab bank ustav kapitali miqdoriga qo‘shimcha talablar qo‘yish mumkin. Ustav fondining minimal miqdori bankning barqaror faoliyatini ta‘minlash uchun o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat bankining ustav fondining minimal miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlar oldingi paragraflarimizda keltirilgan edi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining etarlilik darajasini belgilashda quyidagi asosiy talablarga rioya qilinadi.

- Markaziy bank belgilagan ustav kapitalining eng kam miqdori yuzasidan talablarga muvofiqligi;

- Ko‘zda tutilayotgan o‘shni qo‘llab - quvvatlash darajasi;

- Ko‘zda tutilayotgan daromadlar va asosiy foizlar darajasi;

- Muassislarning zarur hollarda qo‘shimcha kapitallar kirita olish qobiliyati va boshqalar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan banklar ustav kapitaliga talablar iqtisodiy ahvol va bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bank ustav kapitali miqdorining o‘zgarishi va o‘zgarishni ro‘yhatga olish tartibi Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Banklarni ustav kapitalining minimal miqdorini belgilanishi banklarni har hil risklardan saqlash maqsadida belgilanadi. CHunki bank ustav fondi qancha katta bo‘lsa, uning resurslari ham ko‘p bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z Shu‘ba bankini ochish yoki bu erdagi bank ustav kapitalida ishtirok qilish istagini bildirgan norezident bank ustav kapitali 30 mln. AQSH dollari ekvivalentiga teng summadan kam bo‘lmasligi kerak.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> – O‘zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami T. O‘zbekiston 2000 y. 245 bet.

### **3-mavzu. “Tijorat banklari resurslari va ularni tashkil qilishning umumiy jihatlari”**

- 4. Tijorat banklarining o‘z resurslari, ularning tarkibi.**
- 5. Tijorat bankining jalb qilingan resurslari va ularni tarkibi.**
- 6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari moliyaviy resurslarini shakllantirish bilan bog‘liq islohotlar va ularning mohiyati.**

#### **Tijorat banklarining o‘z resurslari, ularning tarkibi.**

Aksionerlik jamiyati ko‘rinishidagi tijorat banklar o‘z ustav kapitalini oshirishlari uchun qo‘shimcha miqdorda aksiyalar chiqarishlari va ularni yuridik va jismoniy shahslar orasida tarqatishi mumkin. Qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilishda bu banklarga o‘z qarz majburiyatlari – obligatsiyalar chiqarish huquqi berilgan. Obligatsiyalar barcha aksiyalar to‘la to‘lanib bo‘lgach, ustav fondining 20% dan oshmaydigan qiymati hajmida chiqarilishi mumkin.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat ko‘rinishida tashkil topgan banklar o‘zlarining ustav kapitallarini yoki qo‘shimcha ishtirokchilarni ulushini oshirish orqali ko‘paytirishlari mumkin.

Har yili har bir bank aksioneri (ishtirokchisi) o‘zining ustav kapitalidagi ulushiga mos ravishda bank foydasining bir qismini dividend ko‘rinishida oladi.

Devidendlar hajmi va uni hisoblash tartibi aksiya turi va chiqarilishi shartlariga bog‘liq bo‘ladi (oddiy yoki imtiyozli aksiyalar).

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari natijasi bo‘lmish rezerv fondlar bank etarli foyda olmagan paytda bank obligatsiyalari bo‘yicha foiz bo‘lib hizmat qiladi. Rezerv fond foydadan ajratmalar hisobiga shakllanadi.

Rezerv fond bilan bir qatorda tijorat banklarda ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish fondlari foydadan hisobiga tashkil topish mumkin. Ularni shakllantirish va ishlatish tartibi tijorat hisob-kitoblari to‘g‘risidagi bank yo‘riqnomalarida belgilanadi.

Bankning mijozlari oldidagi majburiyatlarini ta‘minlash – bank mablag‘larining asosiy funksiyasi bo‘lib hisoblanadi. Ularga o‘z majburiyatlari bo‘yicha javobgarlikni ta‘minlovchi kattalik sifatida qaralishi mumkin. bank amaliyotida kapital resurslarni yo‘qotish natijasida zarar ko‘rilganda bank to‘lov qobiliyatini saqlab qolish uchun resurslar rezerv bo‘lib hisoblanadi. Chunki bank kapitali aksionerlarga qaytarilmasligi ham mumkin. bankning o‘z resurslari miqdori uning faoliyat qo‘lamiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mablag‘lari hajmidan kelib chiqadi. bankning o‘z mablag‘lari uning moddiy bazasini rivojlantirish manbai bo‘lib hizmat qiladi.

Bank amaliyotida o‘z kapitalning netto va brutto turlari farqlanadi. bankning o‘z kapitali – brutto – bankning barcha fondlari va balans bo‘yicha taqsimlanmagan foydasi yig‘indisiga teng. bankning o‘z kapitali – netto – bu kapital bruttodan o‘z mablag‘laridan kapital xarajatlarning oshgan qismini, yo‘l qo‘yilgan va potensial zararlar, sotib olingan hususiy aksiyalar va muddati 30

kundan ortiq bo'lgan debitor qarzlarni chegirib tashlagandan qolgan summaga teng. Shunday qilib kapital – netto naqd mavjud bo'lgan bank o'z kapitalini o'zida aks ettiradi.

Tijorat bankning o'z kapitali miqdori ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. bu omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonunga muvofiq bankning o'z kapitali hajmi uning aktiv operatsiyalarini chegaraviy hajmini belgilab beradi. Shuning uchun ma'lum miqdor mijozlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan bank (misol uchun, tarmoq banki) belgilangan normativlarga rioya qilgan holda, o'zlik kapitalining Shunday miqdoriga egalik qilishlari kerakki, o'z doimiy mijozlarining asoslangan qarz mablag'lariga bo'lgan talablarini qondirishlari lozim.

Ikkinchi, bank uchun zarur bo'lgan o'zlik kapitalining miqdorining o'ziga hos xususiyatlari mavjud. Mayda, lekin son jihatdan ko'p ko'pchilikni yirik kredit oluvchi korxonalarni tashkil qiluvchi bankka o'z mablag'lari nisbatan ko'p miqdorda kerak bo'ladi. Chunki yirik mijozlarga xizmat qiluvchi banklarda kreditning qaytarilmaslik riski katta bo'ladi.

Uchinchi, tijorat bankning o'z kapitali miqdori, uning aktiv operatsiyalari xarakteriga bog'liq bo'ladi. bank olib borayotgan operatsiyalari katta risklar bilan bog'liq bo'lishi, o'z mablag'larining nisbatan ko'p bo'lishini taqozo etadi. bu hol hususan innovatsion banklarga tegishlidir. Agar bankning kredit portfelida minimum riskli ssudalar ko'pchilikni tashkil qilsa, bankning mablag'lari nisbatan kam bo'lishi mumkin.

Bankning aktiv operatsiyalari xarakteriga qarab, bank kapitali va uning turli darajadagi riskli aktivlari o'rtasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rnatgan normativlari bankning o'z kapitali miqdorini aniqlashga bir qancha yo'nalishlar belgilab beradi.

Bank kapitali hajmini aniqlayotganda banklar bu mablag'lar olinadigan foyda miqdorini aniqlanmasligini ham e'tiborga olishadi. bu faqatgina bankning aniq mijozlar doirasiga xizmat ko'rsatish imkonini ochib beradi.

To'rtinchi, bankning zaruriy xususiy kapital miqdori kredit resurslari bozorining rivojlanganlik darajasiga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki olib borayotgan pul-kredit siyosatiga bog'liq. Rivojlangan bozor sharoitida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning erkinlashtirilgan kredit siyosatini olib borishga yo'l ochib berishi natijasida tijorat bankning kredit resurslariga talabini qondirish osonlashadi va bankning zaruriy o'z mablag'lari darajasi kamayadi. Etarli darajada moliya bozorining rivojlanmaganligi, kredit siyosatining qattiq qo'lligi banklarning o'z mablag'larini doimiy tarzda oshirishni talab etadi.

Banklarning o'z mablag'lari miqdorini oshirishda 2-usul ishlatilishi mumkin: qo'shimcha aksiyalar chiqarish va ularni joylashtirish yoki chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini oshirish. birinchi usul bilan foydani jamg'arish bankning rezerv va boshqa fondlarini jadallashtirilgan tarzda shakllantirish va ularni keyinchalik kapitalga aylantirish shaklida ro'y beradi. bunda yil ohirigacha foydaning bir qismi to'g'ri kapitalga aylanishi ham mumkin. bu usul ancha arzon, yangi paychilar jalb qilish yoki aksiya chiqarish borasidagi qo'shimcha harajatlarni

talab etmaydi. Lekin foydani jamg'arish joriy yilda aksionerlarga to'lanadigan dividendlar miqdorini kamayishiga olib keladi. Bu esa bankning bozorda to'tgan mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan bank ustav kapitalini oshirish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- moliyaviy yil yakuni bo'yicha ko'rilgan foizning bir qismini yoki hammasini aksiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish;
- aksiyadorlar tomonidan aksiyalar nominal qiymati oshirilgan qismining to'lanishi;
- moliyaviy yil yakuni bo'yicha ko'rilgan bank foydasini aksiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish va aksiyadorlar tomonidan aksiyalar oshirilgan nominal qiymatining etishmaydigan qismining to'lanishi hisobidan amalga oshiriladi.

Bankning ustav kapitali aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki aksiyalar umumiy sonini qisqartirish, jumladan keyinchalik ularni to'lash sharti bilan sotib olish orqali kamaytirilishi mumkin.

### **Tijorat banking jalb qilingan resurslari va ularning tarkibi**

Jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning roli juda katta bo'lib, bank resurslarining 70%dan ortig'ini tashkil qiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo'jaligining va aholining qo'shimcha aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi.

banklar mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag'lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me'yorlar yordamida tartib soladi. bu quyidagi normativlar: kapital etarlicligi, bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk miqdori, aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo'riqnomasiga muvofiq, aholidan pul omonatlarini jalb qilish miqdori bankning o'z kapitali miqdori bilan chegaralanadi.

Hozirgi kunda banklar amaliyotida mavjud me'yoriy hujjatlarga asosan:

- davlat ixtisoslashtirilgan banklar bazasida tashkil topgan tijorat banklari uchun jalb qilinadigan mablag'lar hajmi o'z kapitalining 25 barobaridan oshmasligi kerak;
- yopiq turdagi aksioner banklar uchun 20 barobardan oshmasligi;
- ochiq turdagi aksioner banklar uchun 15 barobardan oshmasligi kerak.

Rejali iqtisodiyot davrida banklarda bo'sh turgan mablag'larini jalb qilishdan manfaatdorlik yo'q edi, chunki banklarning aktiv operatsiyalari miqdori jalb

qilingan mablag'lar miqdoriga qarab emas, balki kredit qo'yilmalar bo'yicha o'rnatilgan limitga qarab aniqlanar, jalb qilingan mablag'lar bo'yicha rag'batlantirish bilan banklar Shug'ullanmas edilar. Aksariyat hollarda yirik loyihalarni amalga oshirish uchun bank ssudalari o'rniga ko'proq byudjet mablag'lari jalb qilinadi. Shu bois muddatli omonatlarni o'rta va uzoq muddatli kredit manbalari sifatida jamg'arishga ehtiyoj bo'lmagan.

Ikki pog'onali bank tizimiga o'tilishi, iqtisodiy mustaqil tijorat banklarining tashkil topishi, banklarning o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyiliga o'tishi, passivlar va aktivlar muvofiqligiga erishish muammosi bank faoliyatida dolzarb masalalarga aylandi. bozor munosabatlarining rivojlantirish bank resurslarining ham turli-tumanlaShuviga olib keldi.

banklar jalb qiladigan mablag'lar tarkibi turlicha bo'ladi. Ularning asosiy turlariga quyidagilar kiradi: bank mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb qilgan mablag'lar (depozitlar), o'z qarz majburiyatlarini chiqarish yo'li bilan mablag'larni to'plash (depozit va jamg'arma sertifikatlarini, veksellar, obligatsiyalar) va banklararo kredit vositasida boshqa kredit tashkilotlaridan olinadigan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinadigan ssuda mablag'lari va boshqalar kiradi. Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig'ish usuliga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- depozitlar;
- nodepozit resurslar.

Jalb qilingan mablag'larni asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi.

banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi.

Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, Shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi (mukofoti) bo'lib hisoblanadi.

bankning «Oltin qoidasi»ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy schetlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin. Vaholanki, mijozlar, odatda, o'z mablag'larining hammasini birdaniga olishmaydi, Shuning uchun, bankning naqd pul rezervi omonatlarga nisbatan shakllanadi.

bundan tashqari, aksariyat bank operatsiyalari naqd pulsiz ko'rinishda amalga oshiriladi. Kassa zahiralari ko'rinishida bo'lmagan naqd pullar bank likvidligini oshiradi va u boshqa mijozlarga yoki bankka kredit sifatida yo'naltirilishi mumkin. Kassa zahiralari tashqari tijorat banklari tomonidan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanishda boshqa cheklovlar bo'lib u O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatiladigan majburiy zahiralari shaklida ifodalanadi.

Depozit hisobvaraqlari turlicha bo'lishi mumkin va ularning tasniflanishi asosida qo'yilmalar manbai, ularning maqsali yo'naltirilganligi, daromadlilik

darajasi va boshqa Shu kabi mezonlar etadi, ammo aksariyat hollarda mezon sifatida pul qo'yuvchi toifasi va qo'yilmani olish shakllari inobatga olinadi.

Pul qo'yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar);
- jismoniy shaxslar;

Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- muddatli depozit mablag'lar;
- talab qilib olingunga qadar depozit mablag'lar;
- aholining jamg'arma qo'yilmalari.

O'z navbatida bu guruhlarning har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi.

Muddatli depozit mablag'lar ularning muddatidan kelib chiqib tasniflanadi;

- 3 oy muddatgacha depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
- 12 oydan Yuqori bo'lgan depozit mablag'lar.

bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning Yuqori likvidlik darajasini ushlab turish va ma'lum Yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqib turli aktivlarga joylashtiriladi.

***Talab qilib olinguncha qadar depozitlar*** – bu bankni oldindan ogohlantirmay mijoz tomonidan xohlagan vaqtda talab qilib olinadigan mablag'lardir.

Ularga joriy, hisob-kitob, byudjet va hisob – kitoblarni amalga oshirishi yoki mablag'lardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq hisob-varaqalardagi mablag'larni, boshqa banklarning vakillik hisobvarag'idagi qoldiqlarni kiritish mumkin. Talab qilinguncha depozitlar joriy hisob kitoblar uchun mo'jallangan. bu hisobvaraqdagi mablag'lar harakati naqd pul, pul o'tkazish, boshqa hisob-kitob hujjatlari bilan rasmiylashtirilishi mumkin. bank likvidligini boshqarish nuqtai nazaridan qaraganda joriy va byudjet hisobvaraqlari, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bo'yicha hisobvaraqlar, maxsus hisobvaraqlar banklar uchun foydaliroq hisoblanadi. Chunki bu mablag'lar Yuqori likvidlikka ega. bu depozit turining asosiy kamchiligi – ular bo'yicha juda kam miqdorda foizlarning to'lanishi yoki umuman to'lanmasligidir. bundan tashqari joriy va byudjet hisobvaraqa egalari o'zlarining statuslaridan kelib chiqib kredit olmaydilar, bu esa banklarga mablag'larni o'z rejalari asosida ishlatishga imkon beradi.

Talab qilib olguncha bo'lgan depozitlarga banklarning korrespondent banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'larini ham kiritish mumkin. bu hisobvaraqlar ular hisob kitoblarni va to'lovlarni bir tomonlama tartibda yoki bir birlarining topshiriqlari bo'yicha amalga oshirish maqsadida ochilgan. Mazkur bankning boshqa bankda ochilgan vakillik hisobvarag'i «Nostro» scheti, mazkur bank boshqa bank uchun ochgan vakillik hisobvarag'i «Loro» scheti deb yuritiladi va bunday hisobvaraqlarini ochish banklararo imzolangan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi. bu hisobvaraqlardan to'lovlar, qoidaga ko'ra, ulardagi mablag'lar hajmi chegarasida amalga oshirilishi kerak. Ular bo'yicha mavjud mablag'lardan ko'proq operatsiyalar o'tkazish

zaruriyati tug'ilganda, vakilga alohida balans hisobvarag'idan overdraft krediti berilishi mumkin.

Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarga kontokorent hisobvarag'i mablag'larini ham kiritish mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida talab qilib olinguncha Yuqoridagi depozitlardan tashqari nau-hisobvaraqlar (uchinchi shaxs foydasiga hisob hujjatlarini yozib berish), bank tomonidan belgilanadigan hisob cheklari ham kiritiladi.

Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- depozitning bu turida xohlagan vaqtda, xohlagan summada mablag'ni qo'yish yoki olishi mumkin;
- depozit muddati chegaralanmagan;
- kam miqdorda foiz to'lanadi;
- bu turdagi depozitlar bo'yicha Markaziy bankka o'tkaziladigan majburiy rezervlar salmog'i Yuqori va h.k.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar turlicha hajmga ega. bu odatda, bank resurslarini shakllantirishning eng arzon manbaidir. Mablag'larning Yuqori harakatchanligi tufayli talab qiluvchi hisobvaraqlardagi qoldiq doimiy emas, ba'zida juda o'zgaruvchan. Hisobvarag'i egasi istagan paytda mablag'larni olish ehtimoli bank oborotida Yuqori likvid aktivlarning hissasi ko'proq bo'lishini talab qiladi. bu esa kamroq likvidlikka ega bo'lgan biroq Yuqori daromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. Shu sababli banklar talab qilguncha hisobvarag'i egalariga past foiz to'laydilar yoki umuman to'lamaydilar. biroq, talab qilguncha hisobvaraqlardagi mablag'larning Yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan ularning minimal, doimiy qoldig'ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo'lmog'i lozim.

Muddatli depozitlar – bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. bu turdagi depozitlar qo'yilgan muddatda o'zgaras bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi.

Muddatli qo'yilmalar mablag'larni shartnoma bo'yicha muddat va shartlarda to'liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo'yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo'yilma bo'yicha to'lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo'yuvchi tomonidan bajarilishiga bog'liqdir. Qo'yilmaning muddati va summasi qanchalik katta bo'lsa, foizi ham Shunchalik Yuqori bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek amaliyotda asosan 1, 3, 6, 9, 12 oy yoki yanada uzoqroq muddatga qo'yilmalar rasmiylashtiriladi. bunday aniq chegaralar pul qo'yuvchilarni o'zlarining mablag'larini ratsional tashkil qilish va qo'yilmalar qo'yishga rag'batlantiradi, Shuningdek, banklarga o'zlarining likvidliklarini boshqarish uchun sharoit yaratadi. Pul qo'yuvchi tomonidan qo'yilma bo'yicha mablag'larni muddatidan oldin olinganda u shartnomada ko'rsatilgan foizlardan to'liq yoki qisman mahrum bo'lishi mumkin. Odatda bunday hollarda foizlar talab qilguncha qo'yilmalarga to'lanadigan foizlar hajmigacha pasaytiriladi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. Shu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas (depozit siyosatida ko'rsatilgan) foiz to'lanadi;

- joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;

- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;

- mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo'naltiriladi;

- majburiy rezerv normasi nisbatan past bo'lishi mumkin va h.k.

Jamg'arma depozitlari aholi pul jamg'armalarining to'planishi uchun xizmat qiladi. Jamg'arma depozitlarga pul mablag'larini jamg'arish yoki saqlash maqsadida shakllantirilgan qo'yilmalar kiradi. Ularning maxsus xususiyatli tomonlari – saqlashning rag'batlantirilishi va Yuqori daromadlilik darajasi, ma'lum davr ichida jamg'arila borishi kabilar hisoblanadi.

O'zimizning amaliyotda jamg'arma depozitlari deganda faqatgina aholi mablag'larini muddatli qo'yilmalar yoki talab qilgungacha hisobvaraqaqlarida jamg'arilishi bilan bog'liq har qanday operatsiyalar tuShuniladi. Hozirgi vaqtda tijorat banklari balansida aholi qo'yilmalari «kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobining yangi schetlar Reja»siga muvofiq balans schetdan hisoblanadi.

20206 - schetda – jismoniy shaxslarning talab qilinguncha depozitlari.

20406 - schetda – jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari.

20606 - schetda – jismoniy shaxslarning – muddatli depozitlari.

Qo'yilma summasi bank kassasiga naqd pulda yoki naqd pulsiz kiritilishi mumkin. Qo'yilmaning shakllanishi usuliga bog'liq holda bu operatsiyalar buxgalteriya hisobidan turlicha aks ettiriladi. Masalan: qo'yilmani bank kassasiga naqd to'laganda quyidagi buxgalteriya provodkalari amalga oshiriladi.

Debet scheti №10101 – «Kassadagi naqd pul»

Kredit scheti №20206 – Agar qo'yilma «Talab qilingungacha» hisobvarag'idan pul o'tkazish yo'li bilan shakllansa, unda provodka quyidagicha:

Debet schet №-20206

Kredit schet №-20406

Qo'yilma summasining boshqa kredit tashkilotidan kelishi quyidagicha aks ettiriladi:

Debet schet №10501 – «boshqa banklar vakillik varaqaqlaridan qabul qilishga».

Kredit schet №20206

### **Aksioner tijorat bankining mijozlar bo'yicha Depozit shakllari to'g'risida ma'lumot.**

Depozit turlari	ming so'm	foiz
-----------------	--------------	------



1. Talab qilib olinguncha depozitlar, jami	105022	78.9
Shu jumladan:		
a) hukumat	16481	12,4
b) jismoniy shaxslar	5352	4,0
v) davlat korxonolari	22025	16,5
g) qo'shma korxonalar	111	0,1
d) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	54692	41,1
e) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	6361	4,8
2. Jamg'arma depozitlari, jami	10957	8.2
Shu jumladan:		
a) hukumat	0	0
b) jismoniy shaxslar	10957	8,2
v) davlat korxonolari	0	0
g) qo'shma korxonalar	0	0
d) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	0	0
e) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	0	0
3. Muddatli depozitlar, jami	17159	12,9
Shu jumladan:		
a) hukumat	0	0
b) jismoniy shaxslar	11659	8,8
v) davlat korxonolari	5500	4,1
g) qo'shma korxonalar	0	0
d) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	0	0
e) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	0	0
Jami depozitlar	133138	100

Jadval ma'lumotlari Shuni ko'rsatadiki, tijorat banki tomonidan jalb qilingan depozitlar ichida asosiy o'rinni talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar tashkil qilib, ular salmog'iga 78,9% depozitlar to'g'ri keladi. Muddatli depozitlar bankning barqaror kredit imkoniyatini asosi bo'lsada, ularning hajmi barcha depozitlarning 12,9%ini tashkil qiladi. Talab qilib olingunga qadar bo'lgan depozitlar tarkibida asosiy o'rinni xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar, davlat korxonolari, hukumat mablag'lari tashkil qilsa, muddatli depozitlar ichida asosiy o'rinni jismoniy shaxslar mablag'lari egallaydi. Tahlil qilinayotgan bankda aholi jamg'armalari salmog'i past bo'lib, u jami depozitlarning 8,2%ini tashkil qiladi.

Tijorat banklari faoliyatidagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, aholi mablag'larini jalb qilish bo'yicha ishlar hisoblanmoqda, va ular bu boradagi yirik bank Xalq banki bilan boshqa tijorat banklari muvaffaqiyatli raqobat qilmoqdalar.

### **Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari moliyaviy resurslarini shakllantirish bilan bog'liq islohotlar va ularning mohiyati**

Bank tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmon va Qarorlarida belgilab berilgan bank tizimi barqarorligini yanada

kuchaytirish, omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilinishini ta'minlash vazifalariga qaratildi, hususan:

- tijorat banklarining kapitallashuvi darajasini oshirish;
- aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb etish tadbirlarini kengaytirish;
- banklarning investitsion faolligini, xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bilan bog'liq investitsion loyihalarni moliyalashdagi rolini oshirish, bankrot holatidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklashdagi ishtirokini yanada kuchaytirish;
- aholi bandligini oshirishni rag'batlantirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish borasidagi vazifalar ijrosi ta'minlandi.

Shuningdek, bank muassasalari tarmog'ini kengaytirish, mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatish sifatini yanada oshirish va ularning zamonaviy turlarini joriy etish, kredit axboroti tizimini takomillashtirish va nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2013 yilda mamlakatimiz bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish, uning barqarorligi va likvidligini mustahkamlashga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Natijada oxirgi besh yil davomida mamlakatimiz bank sektori kapitalining etarlilik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me'yordan 3 barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etdi.

2015 yilda tijorat banklarining jami kapitali o'tgan yilga nisbatan 25 foiz oshib, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 6,5 trln. so'mni tashkil etdi.

Bank aktivlari 2014 yilga nisbatan 32,4 foiz o'sib, 27,5 trln. so'mga etdi.

Bugungi kunda, mamlakatimiz bank tizimi xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan eng barqaror tizim bo'lib qolmoqda.

Buni «Standard & Poor's», «Moody's», «Fitch ratings» kabi xalqaro reyting agentliklari tomonidan ikki yildan buyon O'zbekiston bank tizimiga muttasil ravishda "barqaror" reyting darajasini bergani ham tasdiqlab turibdi.

2014 yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki "barqaror" reytingni olgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 23 taga etdi, bu banklarning aktivlari mamlakatimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda.

Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatdan tubdan o'zgardi. Agar 2000 yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlardan tarkib topgan bo'lsa, 2013 yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning depozitlari hisobidan shakllantirildi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyati yildan-yilga ortmoqda. Ularning qo'yilmalarining 75 foizdan ortig'ini uch yildan ziyod bo'lgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etadi. Umuman, so'nggi o'n yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmi 7 barobardan oshdi.

Xususan, 2011 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 35,6 foiz oshib, bugungi kunda ularning miqdori 15,6 trln. so'mga etdi

2011 yilda iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida noan'anaviy yondaShuvning amalga oshirilishi natijasida tijorat banklari balansiga qabul qilingan 164 ta iqtisodiy nochor korxonalarining 156 tasida ishlab chiqarish to'liq qayta tiklandi va ularning 110 tasi yangi strategik investorlarga sotildi.

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar natijasida kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2010 yilga nisbatan 1,5 barobar oshib, 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 4,1 trln. so'mni tashkil etdi.

Tijorat banklari tomonidan o'tgan yili xalqaro moliya institutlarining 143,4 mln. AQSH dollari miqdoridagi kredit liniyalari o'zlashtirildi. Ushbu ko'rsatkich ham o'tgan yilning Shu davriga nisbatan 1,4 barobar oshdi.

Mazkur sohaga ajratilgan kreditlar hisobiga hududlarda 291 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Tijorat banklarining kapitallaShuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni keng jalb qilish, resurs bazasini ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar banklarning jami depozitlari miqdori yildan yilga oshib borishini ta'minlamoqda. Xususan, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 36,3 foiz o'sib, bugungi kunda ularning miqdori 18 trln. so'mdan oshdi.

Aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchining tobora ortib borayotganligi, ularning banklardagi jamg'armalarining qonun bilan to'liq kafolatlanganligi va o'z vaqtida qaytarilayotgani omonatlar miqdorining o'tgan yilga nisbatan 38,8 foiz oshib, bugungi kunga kelib uning miqdorini 6,2 trln. so'mga etishiga puxta zamin yaratdi.

Tijorat banklari rahbarlari zimmasiga mamlakatimiz Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ustvor vazifalar, ya'ni banklarning kapitallaShuv darajasini yanada oshirish, investitsion faolligini kuchaytirish, aholi va chet ellik investorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, etakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qabul qilingan xalqaro me'yorlar, mezonlar va standartlarga asoslangan holda bank tizimini baholash ko'rsatkichlarining zamonaviy tizimini joriy etish borasidagi ishlarni og'ishmay davom ettirish.

#### **4-mavzu. “Tijorat banklarining kapitalini boshqarish”**

- 1. Bank kapitalini tashkil qiluvchi asosiy elementlarning tavsifi.**
- 2. Bank kapitali, bankning moliyaviy resurslarini o‘zgarishi.**
- 3. Bank kapitali o‘rnatish me‘yori hajmining o‘lchanilishi va uning tartibga solish usuli.**

#### **Bank kapitalini tashkil qiluvchi asosiy elementlarning tavsifi**

Tijorat bankining o‘z mablag‘lari, uning faoliyatini boshlashda hamda kelajakdagi faoliyatini yuritishda moliyaviy asos hisoblanadi. Ular bank faoliyatida bankrotlik va to‘lovsizlik holati yuzaga kelganda bank omonatchilari hamda boshqa kreditorlariga kompensatsion to‘lov kafolati sifatida saqlanadi, Shu bilan birga bank vazifalari doirasida ayrim operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bankning o‘z mablag‘lari va o‘z kapitali tuShunchalarini farqlash kerak. Bankning o‘z mablag‘lari va o‘z kapitali tuShunchalarini farqlash kerak. Bankning o‘z mablag‘lari tuShunchasi – bu kengroq tuShunchadir, u o‘z ichiga bankning faoliyati jarayonida tashkil topgan barcha passivlar: ustav, zahira va bankning boshqa fondlari; bank tashkil etgan barcha zahiralari; taqsimlanmagan foyda va joriy yil foydasini oladi. O‘zlik kapitali hisobli ya’ni hisob-kitob yo‘li bilan aniqlanadigan hajmidir. U bankning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, bankning mavjud harajatlarini qoplash uchun maxsus yaratilgan fond va zahiralardir. Bank kapitalining boshqa korxonalar kapitalidan farqi Shundaki, bankdan o‘z kapitali aylanma mablag‘laridan 10 foizini, korxonalarda esa taxminan 40-50 va undan ortiq foizni tashkil etadi. Bankning regulyativ kapitali quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ❖ Barqarorlik
- ❖ Kreditorlar huquqlariga nisbatan subordinatsiya
- ❖ Qayd etilgan daromadlarning mavjud emasligi.

Bank kapitali bank faoliyatida muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Himoya
2. Operativlik
3. Tartibga solish

**Bank kapitalining asosiy maqsadi riskni kamaytirish bo‘lgan bu funksiyalarining boshqacha nomlanishini ham uchratish mumkin.**

**Bu nuqtai – nazardan bank kapitali:**

1. Zararlarni qoplovchi va to‘lovga layoqatlilikni saqlovchi bufer sifatida xizmat qiladi.

2. Moliyaviy resurslar bozoriga kirishni ta’minlaydi va banklarni likvidlik muammolaridan himoya qiladi.

3. Bank o‘z darajasini saqlab turadi va risk darajasini chegaralaydi.

Bank kapitalining asosiy tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ❖ Oddiy aksiyadorlik kapitali
- ❖ Imtiyozli aksiyadorlik kapitali
- ❖ Ortiqcha yoki qo‘shimcha kapital
- ❖ Taqsimlanmagan foyda
- ❖ Zahiralar
- ❖ Subodinar majburiyatlar
- ❖ Shu’ba korxonalarining nonazorat aksiyalar paketi

### **Bank kapitali, bankning moliyaviy resurslarini o‘zgarishi.**

Oddiy aksiyadorlik kapitalining hajmi bank tomonidan chaqirilgan, o‘zgaruvchan daromadga ega va dividendlar to‘lovi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga bog‘liq bo‘lgan oddiy aksiyalarning nominal qiymati orqali aniqlanadi.

Imtiyozli aksiyadorlik kapitalining hajmi daromadning qayd etilgan stavkasi bo‘yicha to‘lovlar ko‘rsatilgan, Shu bilan birga muddatsiz hamda qoplash muddati belgilangan muomalaga chiqarilgan turli aksiyalarning nominal qiymati orqali aniqlanadi.

Ortiqcha qo‘shimcha kapital bu chiqarilgan aksiyalarning bozor va nominal qiymatlari o‘rtasidagi farqdir.

Zahiralar – kutilmagan harajatlarni qoplash, Shu jumladan aktivlar bo‘yicha yo‘qotishlarni kompensatsiya qilish, dividendlar to‘lash va chiqarilgan aksiyalarni kelajakda chegirish, turli shakldagi majburiyatlarni qoplashga mo‘ljallangan mablag‘lar hajmidir.

Subodinar majburiyatlar – bu investorlar tomonidan yo‘naltirilgan qarz kapitalidir. Bunda bankning majburiyati omonatchilar oldidagi bankning majburiyatiga nisbatan ikkinchi darajali, ammo aksionerlar oldidagi majburiyatiga nisbatan birinchi darajali hisoblanadi. Bunday majburiyatlar kelajakda bank aksiyalariga almashtirilishi mumkin.

Shu’ba korxonalarining nonazorat aksiyalar paketi – bu bankning boshqa tarmoq korxonalaridagi ulushidir.

Bank kapitali asosiy (birinchi darajali) va qo‘shimcha (ikkinchi darajali) kapitaldan iborat.

### **I darajali kapital quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

- A) To‘liq to‘langan va muomalaga kiritilgan oddiy aksiyalar;
- B) Nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar muayyan sotib olish sanasi va shartlariga, egasining xohishiga ko‘ra sotib olinish imkoniyatiga ega emas. Bank aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq ular bo‘yicha dividendlar to‘lanmasligi mumkin.
- V) Qo‘shimcha kapital – oddiy va imtiyozli aksiyalar bozor narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi;
- G) Taqsimlanmagan foyda:
  - kapital zahiralar;
  - avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi;
  - joriy yil zararlari.
- D) Aksiya egalari kamchiligining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisobvaraqlarida o‘sishi. Bu ulush Shu’ba korxonalarining hisobvaraqlari bank

moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.

E) Bank kapitalini xorijiy valyutadagi qismiga ekvivalenti tarzda, bankning valyutadagi aktivlarini qayta baholashdan tashkil qiladigan devalvatsiya zahirasi.

## **II darajali kapital quyidagilardan iborat:**

A) Joriy yildagi sof foyda;

B) Riskni hisobga olgan holda aktivlari summasining 125 foizi va hisob-kitoblarning soʻng I darajali 100 foizi kapitaldan oshmagan miqdordan umumiy zahiralar. Nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar muayyan sotib olish sanasi va shartlariga, egasining xohishiga koʻra sotib olinish imkoniyatiga ega emas. Bank aksiyadorlarining umumiy yiGʻilishi qaroriga muvofiq ular boʻyicha dividendlar toʻlanmasligi mumkin.

V) hisob-kitoblardan soʻng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar.

G) Subordinar qarz – bu bankning qarz majburiyatlari shakli boʻlib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan soʻng I darajali kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz toʻlash muddati etib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 20 foizdan kamayib borishi shart. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz garov taʼminotiga ega boʻlmasligi, bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar boʻyicha talablar depozit talablari qondirilganidan soʻng amalga oshirilishi, boshlanGʻich toʻlov muddati 5 yildan ortiq boʻlishi lozim.

Bank tizimida Markaziy bank yangi tashkil etilgan bank va faoliyat koʻrsatayotgan banklar uchun zaruriy kapitalning minimal qiymatini blgilaydi. Belgilangan kapitalning quyi chegarasiga rioya qilish bank operatsiyalarini yuritish huquqini beruvchi litsenziya olishning zaruriy talabidir.

Dastlab, bankni tashkil etish jarayonida, uning regulyativ oʻzlik kapitalining yagona manbasi bu ustav fondi hisoblanadi, qolgan manbalar bankning faoliyati jarayonida shakllanadi. Shuning uchun yangitdan tashkil etilayotgan banklarda kapitalning minimal hajmida ustav fondi koʻzda tutiladi.

Shu sababli, bank faoliyatining ilk jarayonlarida oʻzlik regulyativ va ustav kapitali tuShunchalari mos keladi. Foydalarning yiGʻilishi, zahira fondlari, suGʻurta fondlarining tashkil etilishi ustav kapitalini oʻzlik kapitalining bir qismiga aylantirib qoʻyadi. Kapital eʼlon qilingan va toʻlangan boʻladi. Birinchi bank tashkil qilinishi davrida belgilanadi va qisman toʻlanishi mumkin, ikkinchisi esa toʻliq toʻlanadi. Eʼlon qilingan kapital bankning roʻyxatga olingandan soʻng bir yil ichida toʻlanishi shart.

## **Bank kapitali oʻrnatish meʼyori hajmining oʻlchanilishi va uning tartibga solish usuli**

Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori:

xususiy banklar uchun — 5 mln evro ekvivalentidan;

boshqa tijorat banklari uchun — 10 mln. evro ekvivalentidan kam boʻlmasligi lozim.

Bank I darajali kapitalining miqdori bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan kam bo'lmashligi lozim. Bunda bank I darajali kapitalining miqdorini aniqlash uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining milliy valyutadagi ekvivalenti O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan hisobot oyining oxirgi kuniga valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarni yuritish maqsadida belgilangan valyutalar kursi bo'yicha aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi hollarda banklarga nisbatan regulyativ kapital miqdorini oshirish to'g'risidagi talablarni qo'yishga haqli:

xavfsiz bo'lmagan va nosog'lom bank faoliyatining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qoniqarsiz moliyaviy holat;

bank foydasining qoniqarsiz prognozi;

yuqori darajadagi bank tavakkalchiligi va balansdan tashqari moddalar mavjudligi holatlari aniqlanganda.

Har bir bankning regulyativ kapitali uning monandligini aniqlash maqsadida mazkur Nizom talablariga muvofiq hisoblab chiqilishi lozim.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi (TAUS) chegirmalar ajratilgan holda tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2015 yil 1 sentyabridan boshlab tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy miqdori (TAUS) quyidagi tarzda hisoblanadi:

$TAUS = \text{Chegirmalar chiqarilgan tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar summasi} + \text{Operatsion tavakkalchiliklar summasi (OT)} + \text{Bozor tavakkalchiliklari summasi (BT)}$ ;

$OT = (100 / \text{belgilangan } K1 \text{ ning eng kichik darajasi}) \times (\text{Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi} \times 15 \text{ foiz})$ ;

$YAlpi \text{ daromad} = (\text{foizli daromadlar} - \text{foizli xarajatlar}) + \text{boshqa daromadlar}$ .

Agar yalpi daromad qaysidir yilda nolga teng yoki salbiy ko'rinishda bo'lganda, o'rtacha ko'rsatkichni hisoblashda u maxrajdan va suratdan chiqarib tashlanishi lozim.

$BT = (100 / \text{belgilangan } K1 \text{ ning eng kichik darajasi}) \times (\text{Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori} \times 10 \text{ foiz})$ .

Ochiq valyuta pozitsiyalarining umumiy summasini hisoblashda xorijiy valyutalarning umumiy uzun yoki umumiy qisqa ko'rsatkichlari yig'indisining mutloq ko'rsatkichining eng kattasi olinadi.

Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati 10 foizdan kam bo'lmashligi kerak. Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti  $K1$  quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$K1 = RK / TAUS.$$

2016 yil 1 yanvardan boshlab  $K1$  ning eng kichik darajasi 0,115 (11,5 foiz) miqdorida belgilanadi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini

hisobga olgan holda K1 ning eng kichik darajasini 0,145 (14,5 foiz) miqdorida ta'minlashlari shart.

SHuningdek, 2017 yilning yanvaridan ushbu ko'rsatkich 0,125 (12,5 foiz); 2018 yilning 1 yanvaridan ushbu ko'rsatkich 0,135 (13,5 foiz) tashkil etadi.

Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi qo'shimcha zaxiradan iborat. Bunday zaxiradan maqsad banklar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik davrlarida zararlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kapital zaxirasining ta'minlanishini kafolatlash hisoblanadi.

I darajali kapitalning monandlik koeffitsienti  $K2 = I$  darajali kapital/TAUS sifatida aniqlanadi.

Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi barcha aktivlarning 3,0 foizi sifatli I darajali kapital bo'lishini hisobga olgan holda va Bazel 3 me'yorlariga muvofiq K2 koeffitsienti 2015 yilning 1 sentyabridan 0,075 (7,5 foiz); 2016 yilning 1 yanvaridan 0,085 (8,5 foiz); 2017 yilning 1 yanvaridan 0,095 (9,5 foiz); 2018 yilning 1 yanvaridan 0,105 (10,5 foiz) va 2019 yilning 1 yanvaridan 0,110 (11 foiz) miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.

Banklar 2015 — 2018 yillarda soliqlar to'langandan so'ng qoladigan sof foydadan ajratmalar ajratish orqali quyida keltirilgan ko'rsatkichlardan kam bo'lmagan miqdorda kapitalni oshirish bo'yicha barcha choralarni ko'rishlari lozim.

*[Oldingi tahrirga qarang.](#)*

<b>Kapitalning monandligiga qo'yilgan minimal talablar (%)</b>			
<b>Talab kuchga kirish sanasi</b>	<b>Regulyativ kapitalga, (K1)</b>	<b>I darajali kapitalga, (K2)</b>	<b>I darajali asosiy kapitalga</b>
01.09.2015	10	7,5	6
01.01.2016	11,5	8,5	7
01.01.2017	12,5	9,5	7,5
01.01.2018	13,5	10,5	8,5
01.01.2019	14,5	11	9,5

*(37-bandning jadvali O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 24 iyundagi 14/17-sonli [qarori](#) (ro'yxat raqami 2693-1, 07.07.2017 y.) tahririda — O'R QHT, 2017 y., 27-son, 632-modda)*

Kapitalning monandlik darajasi talablari bilan bir qatorda banklar I darajali kapitalni nomoddiy aktivlarni chegirib tashlangan holda mazkur Nizomning [5](#) va [6-boblarda](#) nazarda tutilgan aktivlar qo'shilgan umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadigan leveraj koeffitsientiga rioya etishlari kerak:

$K3 = I$  darajali kapital / (Umumiy aktivlar+mazkur Nizomning [5](#) va [6-boblardagi](#) aktivlar — Nomoddiy aktivlar). Leveraj koeffitsientining eng kichik darajasi 0,06 (6 foiz)ga teng.

Leveraj koeffitsientini hisoblashda kelgusida balans aktivlarida aks etishi ehtimoli bo'lgan bank balansining «Ko'zda tutilmagan holatlar»



hisobvaraqlaridagi aktivlar ham hisobga olinadi. Bularga kapitalni monandligini hisoblashda qo'llaniladigan aktivlar kiradi.

Balansdan tashqari aktivlar leverajning asosiy manbasi hisoblanadi. SHuning uchun banklar leveraj koeffitsientini hisoblashda yuqorida qayd etilgan balansdan tashqari aktivlarni, kreditning qayta hisoblash omilini (100 foiz) qo'llagan holda, quyidagi ikki holatdan tashqari, hisoblashlari lozim:

xosilaviy (derevativ) operatsiyalar kapital monandligini hisoblashda foydalaniladigan «tavakkalchilikka dastlabki moyillik»ka muvofiq o'tkazilishi;

bank har doim o'zi tomonidan so'zsiz bekor qiladigan barcha majburiyatlar uchun 10 foizlik kreditning qayta hisoblash omilini qo'llashi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklardan ularning faoliyatiga xos tavakkalchilik, iqtisodiy shart-sharoit va moliyaviy ahvolidan kelib chiqib, kapital monandligining yanada yuqori koeffitsienti ta'minlanishini talab qilishi mumkin. Bunday tavakkalchiliklar muammoli kreditlarning katta hajmi, sof zararlar, aktivlarning yuqori darajada o'sishi, foiz stavkalari bo'yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi yoki tavakkalchilikka asosalangan faoliyatga jalb qilinish kabilarni o'z ichiga oladi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi.

Bank kapital hajmini aniqlash nafaqat zaruriy nazariy savollardan biri hisoblanadi, balki u tartibga solish nuqtai-nazardan amaliy ahamiyatga ham ega. Bank kapitalini tartibga solishning zaruriyati, avvalo bankning bankrotlik riskiga yo'liqishini chegaralash va bankga nisbatan jamoat ishonchiga saqlash bilan belgilanadi.

Bankning qanday hajmdagi kapitalga ega bo'lishi kerakligini belgilashdan oldin, uning qanday o'lchanishini aniqlash zarur. Bank kapitali o'lchashning uch turi ma'lum:

- Buxgalteriyaning umumiy qabul qilingan tamoyillari bo'yicha;
- Buxgalteriyaning tartibga solish tamoyillari bo'yicha;
- Bozor qiymati bo'yicha

1. Buxgalteriyaning umumiy qabul qilingan tamoyillari bo'yicha kapital uning balans qiymati bo'yicha baholanishi mumkin. Kapitalning balans qiymati bank aktivlarning va majburiyatlarining balans qiymati o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Bu holatda bank aktivlarining va majburiyatlarining katta qismi bank balansida ularni sotib olish yoki ishlab chiqarish qiymatida baholanadi. Vaqt o'tishi bilan ularning birlamchi balans qiymatlari o'zgaradi, bu esa kapitalning etarlilik darajasini aniqlashda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

2. Buxgalteriyaning tartibga solish tamoyillari bo'yicha bank kapitali, uning barcha asosiy tarkiblarining qiymatlari summasi sifatida hisoblanadi. Kapital tarkibiga quyidagi elementlarni kiritish : subordinar qarzarlar va bankning Shu'ba korxonalaridagi ulushi, boshqaruv organlari, bank kapitalining barqarorlik darajasini qisman oshiradi.

3. Bank kapitalining bozor qiymati bank aktivlarining va majburiyatlarining bozor qiymatlari o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Ushbu uslub haqiqiy kapital hajmi to'g'risida nisbatan aniq ma'lumot beradi.

Bank kapitalini boshqarishning asosiy uslublari bo'lib, ustav kapitalning minimal hajmi va kapitalning adekvatlik ko'rsatkichlariga o'rnatilgan talablar hisoblanadi.

Ustav kapitalining hajmi, uni shakllantirish va o'zgartirish tartibi bank Nizomi bilan belgilanadi. Ustav kapitalning maksimal summasi qonun bilan cheklanmaydi, lekin tijorat bankining barqarorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari kapitalining etarligiga qo'yiladigan talablari to'g'risidagi № 420 Nizomiga asosan tijorat banki ustav kapitalining minimal qiymatini quyidagicha belgilagan.

2006 yil yanvardan boshlab:

- tijorat banklari uchun - 4.0 mln. AQSH\$;
- xususiy banklar uchun –2.0 mln . AQSH\$;
- chet el kapitali ishtirokidagi banklar uchun – 5.0 mln . AQSH\$

2007 yil 1 yanvardan boshlab:

- tijorat banklari uchun - 5.0 mln. AQSH\$;
- xususiy banklar uchun –2.5 mln . AQSH\$;
- chet el kapitali ishtirokidagi banklar uchun – 5.0 mln . AQSH\$

Yuqoridagi nizomga asosan O'zR MB tomonidan quyidagi kapital adekvatligi ko'rsatkichlari o'rnatilgan:

a) Regulyativ kapitalning umumiy summasi (RK) I darajali kapital va II darajali kapital summasi, chegirishlar hisobga olingan Xolda, aniqlanadi.

b) Riskni hisobga olgin holda tortilgan aktivlarning umumiy summasi (TXAUS) riskni hisobga olgan holda hisoblangan balans va balansdan tashqari aktivlarning summasi, chegirishlar hisobga olingan holda, aniqlanadi.

c) Umumiy kapitalning etarlilik koeffitsienti K1 quyidagicha aniqlanadi:

### **K1qRK / TXAUS**

K1 ning minimal darajasi 0,1 (100%) ga teng.

d) I darajali kapitalning etarlilik darajasi:

K2 qI darajali kapital / TXAUS

K2 ning minimal darajasi 0,05 (5%) ga teng.

e) I darajali regulyativ kapitalni umumiy summasining 50% idan bo'lmasligi kerak.

Kapitalning etarlilik talablari qatorida tijorat banklari leveraj koeffitsientiga (K3) rioya qilishlari kerak . YA'ni I darajali kapitalni, umumiy aktivlar summasidan nomoddiy aktivlar va Gudvillni chegirilgan summasiga bo'lib aniqlanadi:

K3 q I darajali kapital / (Umumiy aktivlar – Nomoddiy aktivlar – Gudvill)

Leveraj koeffitsientining minimal darajasi 0,06 (6%) teng.

## **4 -mavzu“Tijorat banklarining kapitalini boshqarish”**

### **4. Bank kapitalini kupaytirishning asosiy manbalari.**

**5. Tijorat banklarining kapitalini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari va usullari.**

**6. O‘zbekiston Respublikasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tijorat banklari kapitalini ko‘paytirish borasidagi islohotlar.**

### **Bank kapitalini ko‘paytirishning asosiy manbalari**

Bankning o‘z kapitalini ko‘paytirish bank hamkorlarining manfaatlaridan kelib chiqadi va u bank tizimining barqarorlik shartlaridan biri hisoblanadi. U bankka aktiv operatsiyalar hajmini kengaytirishga va ularning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bir vaqtning o‘zida mijozlarga xizmat ko‘rsatishning moliyaviy kafolati oshadi, ko‘rsatiladigan xizmatlar doirasi kengayadi, banklararo raqobat vujudga keladi. Kapitalni boshqarish jarayoni uni to‘ldirishning manbalarini qidirib topishga bog‘liq. Bank kapitalini to‘ldirishning manbalari ichki va tashqi manbalarga bo‘linadi.

Kapitalni ko‘paytirishning asosiy ichki manbasi bu foydaning aksionerlarga to‘lanmaydigan va bankda qoladigan qismidir. Kapitalni ko‘paytirishning bunday usulining asosiy afzalliklari quyidagilar:

- Yangi aksiyalarni joylashtirish bo‘yicha xarajatlarning yo‘qligi;
- Bankning ochiq bozor mablag‘lariga nisbatan mustaqilligi;
- Yangi shaxslarning bankni boshqarishdagi qatnashishini chegaralash hisobiga mavjud aksionerlarning manfaatlarini himoyalash.

Ammo bu usulning ham kamchiliklari mavjud. Asosan, bu bank tomonidan olinadigan foyda hajmini cheklanganligi, hamda to‘lanadigan dividendlar va ushlab qolinadigan foyda hajmlari o‘rtasida nisbatni o‘rnatish zaruriyatidir.

Ushlab qolinadigan foydaning hajmi bankni boshqarishda katta ahamiyatga ega. Ushlab qolingani foyda ulushining kichikligi kapitalning ichki manbalarining o‘shirishini sekinlashtiradi, Shu bilan birga bankrotlik riskini oshiradi va foyda keltiruvchi bank aktivlarining hajmini kengaytirishni to‘xtatadi. Ushlab qolingani foydaning dividendlarning hajmini tushirishi mumkin, bu esa aksiyalarning bozor kursini tushishiga olib keladi. Bu holatda ulanadigan foyda va aktivlarning o‘shirish sur‘ati orasidagi optimal nisbatni aniqlash zarur. Aktivlarning o‘shirish sur‘ati aksionerlik kapitalini soliqlar to‘langandan keyingi sof foydani, ushlanadigan foyda ulushiga ko‘paytmasiga bo‘lish orqali topiladi.

**Aq.s. q SF / Ak \* UFU**

Bu erda:

**SF** – sof foyda;

**Ak** – aksioner kapital;

**UFU** – ushlangan foyda ulushi.

Markaziy bankdan bank kapitalini ko‘paytirishga qo‘yilgan talablariga asosan.

2005-2007 yillarda tijorat banklari sof foydadan ajratma me‘yori leveraj koeffitsientidan kelib chiqib quyidagicha belgilangan:

- a) leveraj koeffitsienti 0,15 gacha bo‘lsa – sof foydadan 30% i

- b) leveraj koeffitsienti 0,15 dan 0,30 gacha – sof foydadan 20% i  
 v) leveraj koeffitsienti 0,30 va undan Yuqori bo‘lsa – sof foydaning 10% i miqdoridagi ajratma kapitalni ko‘paytirishga yo‘naltirishi lozim (30903 xv).

Ichki manbalarning cheklanganligi banklarni o‘z kapitalini oshirish uchun tashqimanbalarga murojaat etishiga majbur qiladi. Bunday manbalarga quyidagilar kiradi:

- Oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotish;
- Kapital qarz majburiyatlarini emissiya qilish;
- Aktivlarni sotish va asosiy fondlarning ayrim turlarini ijarasi.

Bankning bu turlaridan qaysi birini tanlashi quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan foydaning aksionerlik kapitali daromadligiga ta’siri.
2. Bank mulki va faoliyatiga aksionerlar nazorati ta’siri.
3. har bir manbadan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar.
4. har bir manba bilan bog‘liq risklar.
5. Bank faoliyatining riskliligi (berilgan kreditlardan bank aktivlari, depozitlari yoki kapitaliga nisbatan).
6. YAngi kapital mablag‘lar jalb qilinadigan kapital bozorining kuchli yoki zaifligi.
7. Bank kapitalining strukturasi va hajmiga bog‘liq tartibga solish me’yorlari.

### Tijorat banki kapitalini hisoblash

№	Xarakteristika	Kapital		
		Asosiy (I darajali)	Qo‘shimch (II darajali)	Jami ital(I darajali darajali)
	(A)	(B)	(V)	(G)
<b>I 1 darajali kapital</b>				
1	Oddiy aksiyalar			
	To‘liq to‘langan oddiy aksiyalar	2608800		
	Minus: qayta sotib olingan aksiyalar			
	CHiqarilgan to‘liq to‘langan aksiyalar			2608800
2	Nokumulyativ muddatsiz jalb qilingan aksiyalar			
	To‘liq to‘langan jalb qilingan aksiyalar	0		
	Minus: qayta sotib olingan aksiyalar	0		
	CHiqarilgan to‘liq to‘langan qilingan aksiyalar			0
3	Ortiqcha (izlishek) kapital	0		0

4	Taqsimlanmagan foyda			
	Kapital zaxiralar	2376211		
	Taqsimlanmagan foyda	140866		
	Minus:joriy yildagi zarar			
	Jami taqsimlanmagan foyda			2517077
5	Aksiya egalari kamchiligining tashqir korxonalar aksiyadorlik bvaraqlardagi ulushi	0		0
6	Devalvatsiya uchun zaxiralar av kapitalining valyutadagi higa)			
<b>II</b>	<b>I darajali kapitaldan chegirmalar</b>			
1	Nomoddiy aktivlar	4538		-4538
<b>III</b>	<b>Korrektirovkalangan I darajali kapital</b>			<b>5121339</b>
<b>IV</b>	<b>II darajali kapital</b>			
	Joriy yil sof foydasi		10534	10534
	Mumkin bo'lgan zararlarni lash uchun zaxira (riskka lgan aktivlarning 1.25% idan nagan)		0	0
	II darajali kapitalning I darajali taldan ortgan qismi		0	0
<b>V</b>	<b>CHegirmalar olingunga qadar ka asoslangan umumiy kapital umasi</b>			5131873
<b>VI</b>	<b>Riskka asoslangan umumiy ital summasidan olinadigan girmalar</b>			
1	Konsolidirlashmagan konalar kapitaliga investitsiya			
2	Bank kapitalining barcha stitsiya instrumentlari			
<b>VII</b>	<b>Riskka asolangan kapitalning umiy summasi</b>			5131873
<b>VIII</b>	<b>Riskni hisobga olgan holdagi vlar umumiy summasi</b>			5865067
<b>IX</b>	<b>I darajali kapital etarlilik ajasi (III / VII)</b>			87,3194%
<b>X</b>	<b>Riskka asoslangan umumiy italning etarlilik darajasi (VII / I)</b>			87,4990%

## **Tijorat banklarining kapitalini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari va usullari.**

Regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitalning yig‘indasidan iborat.

Regulyativ kapital tarkibiga xavfsiz bo‘lmagan va nosog‘lom bank faoliyatining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan shartlar (tashkil qilinadigan jamg‘armalar/zaxiralardan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish, qarz majburiyatlarini chiqarish shartlari va boshqalar) bilan cheklangan kapital elementlari kiritilishi mumkin emas.

I darajali kapital regulyativ kapitalning 75 foizidan kam bo‘lmasligi lozim. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdorining uchdan bir qismidan oshib ketsa, oshgan summa regulyativ kapital tarkibiga kiritilmaydi.

I darajali kapital I darajali asosiy kapital va I darajali qo‘shimcha kapitalni o‘z ichiga oladi.

I darajali asosiy kapital bank regulyativ kapitalining 60 foizidan kam bo‘lmasligi va o‘z ichiga quyidagilarni olishi zarur:

a) bankning to‘liq to‘langan oddiy aksiyalari;

b) qo‘shilgan kapital — oddiy aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to‘langan summa;

v) taqsimlanmagan foyda:

bank balansidagi avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan kapital zaxiralar va boshqa zaxiralar (tekinga olingan mulklar (30905) va boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi (30908) bundan mustasno);

to‘lanmagan dividend summasidan tashqari o‘tgan yillardan qolgan taqsimlanmagan foyda;

joriy yil zararlari;

g) ozchilik ulush egalarining bank yig‘ma balansiga birlashadigan korxonalaridagi ulushlari. Bu ulush sho‘ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi;

d) devalvatsiya zaxirasi.

I darajali qo‘shimcha kapital o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

a) nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bunday aksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim:

muayyan sotib olish sanasi yoki shartlariga ega emas;

egasining xohishiga ko‘ra sotib olinishi mumkin emas;

bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to‘lanmasligi mumkin;

ular bo‘yicha o‘tgan davrdagi olinmagan dividendlar to‘lanmaydi;

bank faqat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan oldindan olingan ruxsati bilan va chiqarilganiga 10 yildan kam bo‘lmagan aksiyalar va sotib olinadigan summani kapitalning o‘sha turi yoki boshqa undan yuqoriroq turiga almashtirgandan so‘ng yoxud bank kapitalining monandligi kapitalga qo‘yilgan

minimal talabdan yuqori ekanligini ko'rsatgandan so'ng, ularni sotib olishi mumkin bo'lgan.

b) qo'shilgan kapital — imtiyozli aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to'langan summa;

v) I darajali qo'shimcha kapitalga qo'shilish shartlariga javob beruvchi sho'ba korxonalarining ishtirok etish ulushi (sho'ba korxonalari tomonidan chiqarilgan va uchinchi shaxslar ixtiyorida bo'lgan kapitalga tenglashtirilgan vositalar).

*Oldingi tahrirga qarang.*

Dividend stavkalari o'zgarib turuvchi imtiyozli aksiyalar mazkur Nizomning [11](#) va [12-bandlardagi](#) shartlar bajarilishidan qat'i nazar, I darajali kapital hisob-kitobiga kiritilmaydi.

*(13-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 24 iyundagi 14/17-sonli [qarori](#) (ro'yxat raqami 2693-1, 07.07.2017 y.) tahririda — O'R QHT, 2017 y., 27-son, 632-modda)*

II darajali kapital quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) joriy yildagi sof foydasi, bankning oraliq moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o'tgan bo'lsa — tasdiqlangan moliyaviy natijalaridan ko'p bo'lmagan miqdorda, aks holda bank hisobotidagi sof foydaning 50 foizi;

b) chegirmalardan so'ng tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasining 1,25 foizidan yuqori bo'lmagan miqdordagi standart kreditlarga (aktivlar) yaratiladigan zaxiralar;

v) chegirmalardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali xususiyatlariga ega bo'lgan vositalar). Aralash turdagi majburiyatlar, shuningdek I darajali kapitalga kiritilmagan imtiyozli aksiyalar, agar ular quyidagi shartlarga javob bersa, II darajali kapitalga kiritiladi:

to'liq to'langan;

garov bilan ta'minlanmagan;

bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari va bank boshqa kreditorlari talablari bajarilgandan so'ng qondiriladigan;

aksiya egasining tashabbusi bilan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining oldindan berilgan roziligisiz to'lanishi mumkin bo'lmagan;

bankning barcha zaxiralarini qoplashi va bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish huquqini bermaydigan;

agar bank oxirgi 3 ta chorak mobaynida foyda olmagan bo'lsa yoxud oddiy yoki imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar (foizlar) to'lamaslik to'g'risidagi qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar)ni to'lash muddati emitent xohishiga ko'ra kechiktirilishi mumkin bo'lgan aksiyalar;

g) subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz summasi to'lash muddati etib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

garov ta'minotiga ega bo'lmashligi;  
bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitorlar va bankning boshqa kreditorlari talablari qondirilganidan so'ng amalga oshirilishi;  
boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan keyin bo'lishi;  
muddatidan avval O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ruxsati bilan qaytarilishi.

d) aktivlarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasining 45 foizi miqdori.

Kapitaldan chegirmalar kapital monandligi koeffitsientlari hisoblangunga qadar I darajali kapitaldan chegiriladi.

I darajali kapitalni hisoblab chiqarishda I darajali asosiy kapital va I darajali qo'shimcha kapital yig'indisidan quyidagilar chegiriladi:

nomoddiy aktivlar;

birlashmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kapitaliga barcha investitsiyalar summasi, shu jumladan bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kapitalini tashkil qiluvchi qarz majburiyatlari;

boshqa banklarning kapitaliga qilingan investitsiyalar.

*[Oldingi tahrirga qarang.](#)*

Bunda I darajali kapitaldan chegirmalar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-son «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [Farmoniga](#) muvofiq tanlov savdolarida banklarga realizatsiya qilingan ishlab chiqaruvchi bankrot korxonalar mol-mulki negizida tashkil qilingan korxonalariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi F-4010-son [farmoyishi](#) bilan tasdiqlangan Iqtisodiy nochor korxonalarni tanlov savdolarida banklarga realizatsiya qilish tartibiga muvofiq iqtisodiy sudlarning qarorlariga binoan kreditor banklar balansiga tugatish qiymati bo'yicha qabul qilingan ishlab chiqaruvchi bankrot korxonalar mol-mulki negizida tashkil etilgan korxonalariga banklarning investitsiyalari kiritilmaydi.

*(16-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 24 iyundagi 14/17-sonli [qarori](#) (ro'yxat raqami 2693-1, 07.07.2017 y.) tahririda — O'R QHT, 2017 y., 27-son, 632-modda)*

Turli davlatlar o'rtasida banklararo iqtisodiy aloqalar integratsiyasi tufayli barcha mamlakatlar banklari uchun qabul qilinadigan kapitalning etarliligini aniqlash muammosi paydo bo'ldi. 1987-1988 yillar orasida SHveysariya xalqaro hisoblar banki barcha rivojlangan mamlakatlar bilan kelishib bank kapitalini baholashning asosiy mezon va standartlarini belgiladi. Bank kapitalining etarliligining asosiy umumiy ko'rsatkichi qilib, xalqaro banklar ittifoqi kapital va risk hisobga olinigan aktivlar summasi o'rtasidagi nisbatni qabul qildi. U "riskli aktivlar koeffitsienti" deb nom oldi va quyidagi formulada hisoblanadi:

**$KRA = \frac{q}{K} / AVR$**

Bu erda:

**KRA** – riskli aktivlar koeffitsienti

**K** – bank kapitali



**AVR** – risk darajasi hisobga olingan bank aktivi

Ushbu formula aktivlarning turiga va risklilik darajasiga nisbatan aniqlanadi. Bu daraja 0 dan 100 foiz oraliG‘ida o‘zgaradi

## **5-mavzu. “Bank majburiyatlarini boshqarish”**

- 1. Bank tomonidan qabul qilinadigan depozit turlari.**
- 2. Bank depozitlari narxini baholashning usullari.**

### **Bank tomonidan qabul qilinadigan depozit turlari**

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini bankga jalb qilish bilan bog‘liq operatsiyalar depozit operatsiyalari deyiladi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat boyliklarining 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o‘zlarining depozit siyosatlarini asosida olib boradilar. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining ob‘ekt va sub‘ektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarning subektlari bo‘lib bir tomondan tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan:

- davlat korxonasi va tashkilotlari;
- moliya, sug‘urta, investitsion va trust kompaniyalar;
- xususiy korxonasi va tashkilotlar;
- aksioner kompaniyalar;
- banklar va boshqa kredit muassasalari;
- qo‘shma korxonalar, kooperativlar;
- jamoa tashkilotlari va fondlar;
- alohida jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmalari qatnashadilar.

Depozit operatsiyalarining obekti bo‘lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag‘lari (qo‘yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo‘lib, balans likvidligi, mijozlarning moliyaviy ahvolidan barqarorligi hisoblanadi. Depozit operatsiyalari tijorat banklarining depozit siyosatini amalga oshirish orqali ta‘minlanadi, ya‘ni:

- depozit operatsiyalari bank daromadining oshishga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi kerak;
- bank balansining likvidligini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish kerak;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli qo‘yilmalarga e‘tibor qaratish lozim;
- depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog‘liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralarini ko‘rish zarur va boshqalar.

Pul qo'yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

1. yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar) qo'yimalari;
2. jismoniy shaxslar qo'yimalari.

Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- muddatli depozit mablag'lar;
- talab qilib olingunga qadar depozit mablag'lar;
- aholining jamg'arma qo'yimalari.

O'z navbatida bu guruhlarining har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi.

Muddatli depozit mablag'lar ularning muddatidan kelib chiqib:

- 3 oy muddatgacha depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
- 12 oydan Yuqori bo'lgan depozit mablag'lariga tasniflanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar o'zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar hamda depozit hisobvaraqlarning boshqa turlarini ochish huquqiga egalar.

Mijoz tomonidan har qanday hisobvaraqlar ochilayotganda bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish shartnomasi tuziladi.

Bank hisobvarag'i shartnomasi bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning birinchi marta milliy valyutada ochgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i uning asosiy hisobvarag'i hisoblanadi.

Mijozlar qonunchilik asosida bir yoki bir necha banklarda ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochishlari mumkin.

Byudjet muassasalariga hisobvaraqlar respublika yoki mahalliy byudjetlar hisobidan ajratiladigan mablag'larni kirim qilish va Shu mablag'lardan foydalanish uchun ochiladi. Bundan tashqari, byudjetdan tashqari mablag'lar uchun talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochilishi mumkin. Byudjet tashkilotlariga jamg'arma va muddatli hisobvaraqlar faqat byudjetdan tashqari mablag'larni saqlash uchun ochiladi. Respublika va mahalliy byudjetlar hisobidan mablag'lar ajratiladigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga har bir byudjet bo'yicha alohida hisobvaraqlar ochiladi. Mijozlar tomonidan hisobvaraqlar ochish uchun bankka ushbu Yo'riqnomada ko'zda tutilgan zaruriy hujjatlar taqdim qilingan kundan boshlab, banklar ikki bank ish kuni mobaynida ularga hisobvaraqlar ochishlari shart. Hisobvaraqlarning egalari hisobvaraqlar ochish uchun taqdim qilingan hujjatlarning haqiqiyliги bo'yicha javobgardirlar. Tadbirkorlik sub'ektlari uchun, banklarda ochiladigan hisobvaraqlar uchun to'lov miqdori eng kam oylik ish haqining bir karrasidan oshmasligi lozim. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga hisobvaraqlar ochilgandan keyin, banklar keyingi ish kunidan kechiktirmay, hisobvaraqlar ochilganligi to'g'risida tegishli soliq organiga yozma ravishda xabar berishlari shart.

Mijozlarning (tadbirkorlik faoliyati bilan Shug'ullanmaydigan jismoniy shaxslardan tashqari) hisobvaraqlar ochish uchun asos bo'lgan hujjatlari, bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish shartnomasi, Shuningdek unga qilingan o'zgartirishlar, mijozning manzili o'zgarganligi to'g'risidagi bankka bergan xati va nomi o'zgarganligini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi mijozning alohida jildi (yuridik yig'majildi)da saqlanadi.

. Tadbirkorlik sub'ektlari (yuridik shaxsni tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda faoliyat ko'rsatadigan) tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- a) hisobvaraqlar ochish to'g'risida ariza;
- b) davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
- v) imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqlar.

Tadbirkorlik sub'ekti bo'lmagan rezident yuridik shaxslar, jumladan byudjet tashkilotlari tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- a) hisobvaraqlar ochish to'g'risida ariza
- b) soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
- v) imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqlar

Yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmalari (vakolatxonalar, filiallari)ga talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ushbu yuridik shaxsning iltimosnomasi bo'yicha (iltimosnomada yuridik shaxsning soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ko'rsatiladi) hisobvaraqlar ochish to'g'risida ariza hamda imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqlar taqdim etilganda ochiladi.

O'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirmoqchi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat ro'yxatidan o'tgunlariga qadar ta'sischi (ishtirokchilar)ning dastlabki badallarini kiritish uchun milliy va/yoki xorijiy valyutada vaqtinchalik (mablag' yig'ish uchun) talab qilib olinguncha hisobvaraqlar ochilishi mumkin.

Vaqtinchalik hisobvaraqlar ochish uchun vakolatli shaxs bank-ka ta'sischi (ishtirokchi)lar nomidan ixtiyoriy shaklda hisobvaraqlar ochish to'g'risida ariza taqdim qiladi.

Rezident va norezident jismoniy shaxslar tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish uchun bankka hisobvaraqlar ochish to'g'risida ariza hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki unga tenglashtirilgan hujjatlar) taqdim qilinadi. Hujjatdagi ma'lumotlar hisobvaraqlar ochish to'g'risidagi arizaga yoziladi.

### **Bank depozitlari narxini baholashning usullari**

Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo'lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo'yilgan mablag'larga daromad olish mijozlarning qo'yilma qo'yishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi

Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit schetlarining alohida ko'rinishlari bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisobvarag'ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va, nihoyat, mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog'liq.

Talab qilingungacha bo'lgan depozitlar bo'yicha hisobvaraqlari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va ular qoldiqning nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bunday schetlar guruhi daromadlik darajasi bilan ajralib turadi. Yuridik shaxslarga ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i bo'yicha foizlar umuman to'lanmasligi mumkin. Bunday foyda, odatda, mijozlarni hisob kassa xizmatlari uchun to'lov mablag'larini talab qilinguncha hisobvaraqlarda mablag'larni minimallashtirish va ortiqcha summalarni qo'yilmalarning daromadliroq shakllariga joylashtirishga undaydi.

Jismoniy shaxslar uchun ochilgan talab qilinguncha varaqlar bo'yicha foizlar deyarli majburiy tartibda o'rnatiladi, ammo u bo'yicha daromad hamisha muddatli qo'yilmalarga qaraganda pastroq bo'ladi. Muddatli qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkasi hajmini o'rnatishdagi muhim omil bo'lib, mablag'lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidiligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalb qilingan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

Nazariy jihatdan zamonaviy bank tizimida naqd pulsiz aylanishlarning rivojlanishi natijasida dastlabki shakllantirilgan depozitlarni (dastlabki yoki real depozitlar Markaziy bank tomonidan chiqarilgan naqd pullar asosida shakllanganlikni taqozo qiladi) cheklanmagan tarzda bir bankdan ikkinchi bankka o'tkazish, Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarni cheksiz oshirish imkoniyati mavjud. Xorijiy nazariyada bu jarayon depozit multiplikatsiyasi (ya'ni mablag'larning bir bankdan boshqasiga zanjirsimon shaklda o'tkazilishi) va kredit ekspansiyasi deb nom olgan.

Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zaxira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo'lib xizmat qiladi.

## **5-mavzu. "Bank majburiyatlarini boshqarish"**

**3. Bankning nodepozit manbalarga bo'lgan umumiy ehtiyojini baholash.**

**4. Bank resurslarini muqobil nodepozit manbalari va ularni tanlash omillari. Bankning majburiyatlarini boshqarish usullari.**

**Bankning nodepozit manbalarga bo'lgan umumiy ehtiyojini baholash**

Bank resurslarini muqobil nodepozit manbalari va ularni tanlash omillari

**Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari** deb, tijorat banklarining yirik pul bozorlaridan pul mablag'larini jalb qilish, qimmatli qog'ozlar,

veksellarni, obligatsiyalar vositasini muomalaga qo'yish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish sohasidagi operatsiyalariga aytiladi.

Jahon banki amaliyotida tijorat banklariga mablag'larni jalb qilishning keng tarqalgan nodepozit shakllari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- banklararo bozordan qarz olish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish;
- bank akseptlarini sotish;
- tijorat qog'ozlarini chiqarish;
- evro - dollarlar bozorida qarz olish;
- kapital notalar va obligatsiyalar chiqarish va boshqalar.

Odatda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda resurslarning nodepozit manbalaridan ham foydalanishga katta e'tibor beriladi. Ular bozorda raqobatchilik asosida vositachilar (brokerlar) orqali sotib olinadi. Bu erda, birinchidan, mablag'larni sotib olish g'oyasi bankning o'ziga tegishli, ikkinchidan, bu g'oya bankning biror - bir mijoz bilan bog'liq emas. Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozori mexanizmidan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan yirik banklar keng foylanadilar. Nodepozit mablag'lar yirik miqdorda sotib olinadi.

Qo'yilmalarga mablag'larni jalb qilish uchun tijorat banklari qo'shimcha ravishda chet el tajribasidan foydalanishi mumkin, xususan:

- aholi mablag'larini jalb qilish bo'yicha turli dasturlarni ishlab chiqish;
- mijozlar - pul qo'yuvchilarga turli - tuman, jumladan, nobank xizmatlarni ham ko'rsatish;
- qo'yilma muddati tugashi bilan mukofot berish bilan investitsion xarakterdagi qo'yilmalardan Yuqori foiz stavkasini qo'llash;
- doimiy pul qo'yuvchilarga "bankka sadoqati" uchun mukofot to'lash;
- mijoz va bank iqtisodiy qiziqishlarini optimallashtiradigan aralash xarakterda amal qiluvchi NAU va SAPS tipidagi hisobvaraqlarni qo'llashni amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 21 martdagi Farmoniga asosan tijorat banklari aholining bo'sh pul mablag'larini muddatli depozitlarga jalb qilishni oshirishga qarab banklar daromadi imtiyozli soliqqa tortilish va foiz miqdorlarini oshirish mumkinligi ta'kidlangan

### **Bank resurslarini muqobil nodepozit manbalari va ularni tanlash omillari. Bankning majburiyatlarini boshqarish usullari.**

Tijorat banklarida boshqaruvni joriy qilish, ularning aktiv va passivlarini shakllantirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, tijorat banklarida yuz beradigan har qanday o'zgarish oxir-oqiibat butun iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Bank tizimida "likvidlik/daromad" riski va uni boshqarish masalasi banklar paydo bo'lgan davrdan boshlab yuzaga kelgan va hozirda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan mavzudir. Xalqaro moliyaviy insiroz natijasida bankrot bo'lgan yirik banklarning xatolari o'z likvidligini optiml

darajada tutib tura olmasligi yoki o'ta darajada daromadlilikka ahamiyat berib, likvidlik darajasining kamayishi shaklida yuzaga keldi.

Qolaversa, 2008 yildan beri davom etayotgan xalqaro iqtisodiy-moliyaviy inqiroz davrida "leveraj" ta'sirida qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi "moliyaviy pufak" muammosining "bank krediti inqirozi" shaklida rivojlanishi va iqtisodiy-moliyaviy inqirozning kelib chiqishi ham banklarning o'z aktiv va passivlarini joylashtirishdagi "likvidlik/daromad" xatari nisbatining buzilishi deya baholanayotganligi bunga yana bir yorqin misoldir. Tijorat banklarida "likvidlik/daromad" xatarini boshqarish asosan aktiv va passivlarning mos va optimal shaklda joylashtirilishiga bog'liq. Hech bo'lmaganda, kerakli vaqtda talab qilingan miqdorda hamda foydali foiz darajalarida mablag' topish yoki aktivlarni oshirish imkoniyati bo'lishi lozim.

Shunga ko'ra, bugungi kungacha bank aktivlari va passivlarini joylashtirish borasida bir qancha uslublardan foydalanilgan. Bular: "Tijorat kreditlari", "Mablag'larni qayta taqsimlash", "Kutilayotgan daromadlar", "Passivlarni boshqarish", "Aktiv va passivlarni boshqarish" kabi uslublardir. Ma'lumki, bank faoliyatidagi har qanday risk, avvalo, bank foydasi miqdoriga ko'rsatadigan tasir darajasiga qarab guruhlarga ajratiladi. Bank foydasining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi xatarlar "birlamchi", bilvosita ta'sir qiluvchi xatarlar esa "ikkilamchi" xususiyatga ega. Bugungi kunda bank aktiv va passivlarini boshqarish texnologiyasi, yagona tahlil bilan bank faoliyatidagi mavjud va kutilayotgan risklari darajasini aniqlash va bankning ertangi moliyaviy ahvoli haqida oldindan ma'lumot to'plash imkoniyatini talab etmoqda.

Shu o'rinda tijorat banklarining reytingina baho beruvchi kompaniyalar tomonidan tijorat bankining ma'lum davr ichidagi faoliyati yakuniga baho berish emas, balki mavjud aktiv va passivlarning joylashtirilishiga va bankning kelajak faoliyatida kutilayotgan risklar darajasining Yuqori yoki pastligiga qarab, bank faoliyatiga barqaror deb baho berish muhimroqdir.

Bu turdagi baho berishda bank aktiv va passivlarini tahlil qilishning "farq usuli"ga murojaat qilish maqsudga muvofiqdir. Bunungi kunda ushbu tahlil uslubi "Qishloq Qurilish bank" OATB tomonidan o'z faoliyatida keng joriy qilinmoqda. "Qishloq qurilish bank" nafaqat moliyaviy tahlil, ya'ni tijorat tashkiloti sifatida foyda olish, bank bank muassisi sifatida o'zining g'aznachilik faoliyatini, ya'ni likvidlik imkoniyatini ham baholashga e'tibor berayotgan tijoart banklaridan biri hisoblanadi.

Aslida farq uslubi aktiv va passivlarning "qaytish" va to'lov grafigiga asoslangan holda, kutilayotgan risklar darajasiga baho berishga tayanadi. "Farq uslubi"ning "stress" va "muvaffaqiyatli holat" ssenariylari tuzib chiqilib, kutilayotgan risklarning eng Yuqori va eng quyi chegaralarini aniqlash mumkin. Bu tahlillar albatta, bank faoliyatiga baho berishda zarur hisoblanadi. Qaytish va to'lov grafigi mavjud bo'lmagan aktiv va passivlar bo'yicha tahminlar ilgari suriladi. Ma'lum muddatga (o'n kunlik, yarim oylik, oylik, yillik) balans ma'lumotlari asosida tuzilgan farq uslubi variantlari solishtirilib, "tahminlarning xatolik darajasi" ni aniqlash va "optimal taxminlar

varianti” ni shakllantirish mumkin. Quyida, shartli raqamlar bilan “farq uslubi”ni qisqacha izohlayomiz:

### Aktiv va passivlarning “Farq uslubi “ tahlili<sup>5</sup>

Aktivlar	amalda		grafik va tahmin asosida			
	davr boshi		davr o‘rtasi		davr yakuni	
	so‘m	%	so‘m	%	so‘m	%
1.Likvid aktivlar	10	0	5	0	5	0
2.Daromad keltiruvchi aktivlar	70	20	50	18	30	15
3.Fiskal aktivlar	20	0	20	0	20	0
<b>Jami aktivlar</b>	<b>100</b>	<b>14</b>	<b>75</b>	<b>12</b>	<b>55</b>	<b>8</b>
passivlar						
1.muddatsiz majburiyatlar	50	1	45	1	45	1
2.muddatli majburiyatlar	30	25	25	23	15	20
3.bank kapitali	20	0	20	0	20	0
<b>Jami passivlar</b>	<b>100</b>	<b>8</b>	<b>90</b>	<b>7</b>	<b>80</b>	<b>4,3</b>
Farq /(M m)	0	0	-25	11	-35	8,3
Kumulyativ farq/marja daromad	10	6	-20	6	-30	3,7
harajat	14	0	9		4,4	
foyda(R net)	8		6,3		3,44	
farq hisobiga foyda	6	0	1,2	-1,5	-1,14	-2,1
foydadagi o‘zgarish(±2%)	6	0	0,7	±2	-1,84	±2,80
kutilayotgan foyda	9,66	<b>Aktivlarning daromadliligi</b>				<b>6</b>
foydadagi o‘zgarish	4,8	<b>Leveraj koeffitsienti</b>				<b>5</b>
<b>Bank elastiklik koeffitsienti</b>	49,7	<b>Kapitalning daromadliligi</b>				<b>30</b>

Jadvaldagi “farq usulubi” yordamida amaldagi va kelajakda kutilayotgan risklar miqdori va belgilangan davr uchun risklar darajasini aniqlash mumkin. Bu risklarni aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

1.Farq- bu tijorat banking likvidlik holatini (mablag‘larning etariligi yoki kamomadini) ifodalaydi. Bu erda farq- foiz darajalaridagi o‘zgarishlarga nisbatan elastik bo‘lgan aktiv va passivlar o‘rtasidagi farqni izohlaydi. Bular asosan daromad keltiruvchi aktivlar va foiz to‘lovi majburiyatlaridir. Salbiy – “-” farq, demak likvid

<sup>5</sup> 12 (175)/2011 Bozor, pul va kredit

mablag'larga bo'lgan talabning Yuqoriligini,ijobiy "+" farq bo'lsa,likvid mablag'larning ortiqchaligini ifodalaydi.

2.Foiz marjasi – jami aktivlar va passivlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz darajalari o'rtasidagi farqni izohlaydi.

3. M m (daromadning o'lik nuqtasi yoki zarasizlik nuqtasi) – daromadning o'lik nuqtasi bu bank foydasi bilan zarari o'zaro teng bo'lgan nuqtadir. M m – foyda olish uchun mavjud ortiqcha likvid mablag'larni sotishning eng kam foiz darajasini ifodalaydi.Agar nominal foiz darajalari M m dan Yuqori bo'lsa , bu resurslar bozoridagi mablag'larning tannarxi bank daromadlilik darajasidan Yuqori ekanligini ifodalaydi.

4.Foiz F – forvard foiz darajasi bo'lib, bankning kelajakdagi ma'lum davr intervalidagi zararini kamaytirish uchun bugungi kun shartlaridagi eng Yuqori foiz darajasi.

5.Spread (marja) – aktiv va passivlar bo'yicha o'rtacha foiz darajalari o'rtasidagi farq.

6. R net – kutilayotgan daromad va harajatlar asosida kutilayotgan foyda.

7.Ke – Bankning elastiklik koeffitsienti,ya'ni foiz darajalarining o'zgarishi natijasida bank foydasining o'zgarishi.

8.Bankning to'lov balansi (mablag'larning chiqimi va kirimi)

9.AKD (ROA) – bir birlik aktivlarning daromadlilik darajasi.

10.Leveraj – bir birlik aktivlar tarkibidagi bankning o'z mablag'lari salmog'i.

11.KKD (ROE) – bir birlik o'z resurslarining (yoki bank kapitalining) daromadlilik darajasi.

12.Likvidlik riski – farq miqdori bilan aniqlanib,aktivlarning qaytish va passivlar bo'yicha to'lovlar miqdorining qanchalik mosligini ifodalaydi.Salbiy farq kutilayotgan likvidlik riskini ifodalasa,ijobiy farq daromadlilik darajasining pasayish riskini ifodalaydi.

13.Marja – aktivlarning daromadlilik darajasi bilan passivlarning xarajatlilik darajasi o'rtasidagi farqni ko'rsatib,kutilayotgan foyda miqdorining ortish yoki kamayish xatarini ifodalaydi.

14.Kumulyativ farq – bank ixtiyoridagi daromad keltiruvchi aktvlarni oshirishning yoki kutilayotgan mablag'lar tanqisligini kamaytirishning eng Yuqori miqdori hisoblanadi.

15.Foydadagi o'zgarish – amaldagi foiz darajasining 2 foizga yoki foizga o'zgarishi hisobiga va farqning salbiy yoki ijobiligiga qarab ,kutilayotgan foyda miqdoridani o'zgarishni ifodalaydi.Foydadagi o'zgarishning kutilayotgan foyda miqdoriga nisbati bankning elastiklik koeffitsientini ifodalaydi.Bank faoliyatining foiz darajalaridagi o'zgarishga nisbatan beqarorligi Yuqori bo'lganda,unga "barqaror bank" sifatida baho berib bo'lmaydi.

Bu tahlilil uslubining yutug'i Shundan ibortki, aktiv va passivlarni diversifikatsiya qilish maqsadida qisqa yoki uzoq muddatli kreditlar berish yoki mablag'lar sotib olish borasida ham oldindan qaror qabul qilish imkoni mavjud.Bundan tashqari,xorijiy valyutadagi balans bo'yicha alohida tuzilib,bankning valyuta kurslari bo'yicha risklarini ham baholash mumkin.



Ushbu uslub yordamida ,tezkor thlil bilan birga tijorat bankining kelajakdagi holati haqida ma'lumotga ega bo'lish hamda bank faoliyatidagi kutilayotgan xatarlar darajasini kamaytirish uchun bugundan boshlab qarorlar qabul qilish imkoniyati mavjud.CHunki, xatarlarni boshqarish – oldindan chora ko'rish demakdir.

## **6-mavzu. “Tijorat banklari resurslarini boshqarishda depozit siyosati va uni takomillashtirish”**

- 1. Bankning depozit siyosati, uning elementlari va mezonlari.**
- 2. Aholiga bank xizmatlari ko'rsatish.**

### **Bankning depozit siyosati, uning elementlari va mezonlari**

“Depozit siyosati” so‘zining iqtisodiy mohiyatidan ko‘rinib turibdiki, “saqlashga topshirilgan” qiymat, buyum yoki boshqa predmetni “boshqarish” zarurligini angalatadi.

“Siyosat” tuShunchasi – filosofiya ensiklopedik lug‘atida “Siyosat – ham amaliy munosabatlar ham mafkura sifatida iqtisodiy jarayon harakati bilan umumlashtirilgan va jamiyatning iqtisodiy bazisiga qurilma bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy qiziqishlar oxir oqibatda siyosiy harakatning sababi sifatida maydonga chiqadi”.

Vebstrning lug‘atida “siyosat” tuShunchasi “ketma-ket bog‘langan harakatlarning bajarilish usuli, bu erda tamoyillar uni amalga oshirishda tegishli usullar siyosatini aniqlashning asosi sifatida tuShuniladi”.

“Siyosat”ni kelib chiqishini aniqlaydigan jamiyat munosabatlari sohasi siyosat ta'sirining ob'ekti bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, “siyosat”ni ham biron bir sohadagi faoliyat ham mafkura sifatida tuShunish mumkin.

Shunday qilib, “siyosat” ixtiyoriy sohada ma'lum bir uslublar to‘plami aniq vazifalarni echishga qaratilgan tadbirlar majmui deb tuShunilsa, unda bankning resurs bazasini shakllantirish bo‘yicha o‘tkazilayotgan operatsiyalar tavsifi bu siyosatni “depozit siyosati” deb atashga imkon beradi.

Demak, bizning fikrimizcha, “depozit siyosati” so‘zini alohida olib qaraydigan bo‘lsak, ushbu so‘z tijorat banklarining muddatli moliyaviy resurslarni boshqarish ma'nosini anglatmaydi. “Depozit siyosati” so‘zini, albatta “tijorat banklari depozit siyosati” tarzida qo‘llansagina, u tijorat banklarida jalb qilingan mablag‘lar doirasida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va boshqarish ma'nosini anglatadi.

Depozitlar banklar tomonidan amalga oshiriladigan depozit siyosatining asosiy o‘zagini tashkil etadi. Xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlardan ma'lum bo‘lishicha iqtisodchi olimlar bank depozitining iqtisodiy mohiyatiga turlicha yondashdilar.

Rossiyaning iqtisodiyot bilan bog‘liq adabiyotlarida depozitlarga bank mijozlarining barcha pul mablag‘lari, ya'ni yuridik yoki jismoniy shaxslar nomiga ochilgan xisobvarag‘idagi, joriy yoki boshqa hisobraqamlardagi pullar kiritiladi.

Demak iqtisodchi olimlar depozitlarning iqtisodiy mazmuniga yondoshuvlari turlichadir. Xususan, L. S. Padalkina “depozit-bu kredit muassasalardagi barcha muddatsiz quyilmalardir<sup>6</sup>” deya ta’kidlaydi.

L.S.Padalkinaning depozitni kredit muassasalaridagi muddatsiz quyilmalar degan fikriga qo’shila olmaymiz, chunki muallif depozitni muddatsiz quyilmalar tarzida ta’riflashi natijasida uning muddatli mablag’lar sifatida namoyon bo’lishini inkor etmoqda. Shu bilan birga, qiymat yoki natura ko’rinishida shakllanishi ham e’tibordan chetda qolgan.

Amerikalik iqtisodchi olim E. M. Rode “depozit – bank mijozlarining jamg’armadan tashqari barcha muddatli va muddatsiz quyilmalaridir” degan iqtisodiy talqinni ilgari suradi<sup>7</sup>. E.M.Rodening depozitga bergan iqtisodiy ta’rifi L.S.Padalkinaning ta’rifiga nisbatan aniqroq bo’lishi bilan birga, muallif bank depozitining aynan qiymat ko’rinishida namoyon bo’lishini e’tiborga olmagan.

Rossiyalik iqtisodchi M. N. Berezina “depozit – bu mijozga uning barcha turdagi pul mablag’larini saqlash uchun ochiladigan hisobvaraqqidir” degan yanayam soddaroq, agar ta’bir joiz bo’lsa depozitning iqtisodiy ma’nosiga judayam yaqin bo’lmagan fikrni ilgari suradi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflar va manbalardan ko’rinib turibdiki, bank amaliyotida qo’llanilayotgan depozitlar va umuman, depozitlar haqida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondoshuv mavjud emas. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya – kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog’ozlar yoki pul mablag’lari tushuniladi<sup>8</sup>.

Tadqiqotlar va amalga oshirilgan o’rganishlar natijasida tijorat banklari depozit siyosati ularning passiv operatsiyalari siyosatining asosiy tarkibini tashkil etishi ma’lum bo’lmoqda. Shu bois, banklarning depozit siyosati mohiyatini yoritishda ularning shakllanish xususiyatini tashkil etadigan passiv operatsiyalarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq.

Xalqaro bank amaliyotida passiv operatsiyalar banklar foydasidan fondlarni shakllantirish va ularni ko’paytirishga ajratmalar, depozit operatsiyalari, yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar, muomalaga qimmatli qog’ozlar, pul biletlar va tangalarni chiqarish tarzida to’rtta guruhga ajratiladi.

### **Aholiga bank xizmatlari ko’rsatish**

Tijorat banklari asosiy faoliyat turlaridan biri bu aholiga xizmat ko’rsatish bo’lib, u jaxon amaliyotida retail business (chakana xizmatlar biznesi) deb ataladi, Shu bilan birga Yuqori daromad olib keladi. Aytib o’tilganidek, jismoniy shaxslarga banklarda chakana xizmatlar bo’limida xizmat ko’rsatiladi, unda jismoniy shaxslardan milliy va xorijiy valyutada omonatlar qabul qilish, Pul o’tkazmalarini qabul qilish va to’lash, plastik kartochkalar bo’yicha xizmat ko’rsatish, valyuta ayirboshlash, iste’mol va ipoteka kreditlari xizmatlari ko’rsatiladi.

---

<sup>6</sup> Padalkina L.S. Sovremennaya denezno-kreditnaya sistema kapitalizma. –M.: VZFEI, 1982. –S.152.

<sup>7</sup> Rode E.M. Banki, birji, valyuti sovremennogo kapitalizma. M.: «Delo LTD», 1995. –S. 148.

<sup>8</sup> Mitsek S.A. Ekonomika finansovix institutov. –Ekatrenburg: Delo, 1996. –S.42.

Milliy iqtisodiyotning doimiy rivojlanish darajasini ta'minlash va iqtisodiyotga yo'naltirish mumkin bo'lgan investitsiyalar ko'lamini oshirishning eng samarali yo'llaridan biri aholi qo'lidagi vaqtinchalik bo'sh mablag'larni investitsiyaga jalb qilishdan iboratdir. Zero, prezidentimiz I. Karimov "Jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi: kelib chiqish sabablari va oqibatlari" asarlarida mazkur inqirozning milliy iqtisodiyotga ta'siri darajalaridan biri mamlakatning tashqi dunyoga moliyaviy jihatdan tobeligidir, deb ko'rsatib o'tgan.

Bundan tashqari Shu yo'l bilan bo'sh pul mablag'larini bank orqali yig'ish va iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish, natijada pul aylanish tezligini o'stirish evaziga milliy valyuta qadrsizlanishining oldini olish va inflyasiyaning jilovlanishiga erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda Yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010 yil 26 noyabrda PQ-1438 sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda Yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" da 2011-2015 yillarda aholi va xo'jalik sub'ektlarining tijorat banklaridagi depozitlari hajmini 2.5 marta oshirish va bu borada tijorat banklari va Markaziy bank tomonidan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish vazifasi belgilangan.

2010 yilda aholining real daromadlari 23.5 % ga, byudjet sohasi muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori 32 % ga, aholining umumiy pul daromadlari esa, jon boshiga 1.3 barobar oshdi. Banklar tomonidan jalb qilingan jami depozitlar hajmi 2011 yil 1 yanvar holatiga 2010 yilga nisbatan 52% ga oshib, 13.2 trln so'mga etdi.

Banklardagi omonatlar hajmining oshishida aholi real daromadlarining o'sishi hamda bank tizimining barqarorligi asosiy omil bo'lgani holda, banklardagi omonatlarning to'liq qaytarilishi davlat tomonidan kafolatlanganligi va ulardan olinadigan foiz daromadlari soliqdan ozod etilganligi hamda 410 xildan ortiq omonat turlari taklif qilinayotganligi bank depozitlarini qulay, havf-xatarsiz va barqaror daromadli moliyaviy instrumentga aylantirdi.

2012 yilning 1 yanvar holatiga tijorat banklaridagi jismoniy shaxslar – rezidentlarning so'm va valyuta hisobvaraqlaridagi omonatlari hajmi 3276,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2011 yil boshiga nisbatan 30,1 foizga (758,9 mlrd. so'm) ko'paydi.

### 2017 yilning 1-aprel holatiga tijorat banklaridagi jismoniy shaxslarning omonatlari hajmi

	mlrd. so'm	umumiy xajmga nisbatan foiz xisobida
--	------------	--------------------------------------

	jami	Shu jumladan chet valyutasida	jami	Shu jumladan chet valyutasida
<b>Jami</b>	<b>3276,6</b>	<b>567,3</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<b>Shundan:</b>				
<b>Xalq banki</b>	776,9	23,9	23,7	4,2
<b>Agrobank</b>	494,8	2,0	15,1	0,4
<b>TIF Milliy banki</b>	396,2	114,8	12,1	20,2
<b>Asaka bank</b>	264,3	91,5	8,1	16,1
<b>O'zsanoatqurilishbank</b>	215,7	16,8	6,6	3,0
<b>Qishlok qurilish bank</b>	214,7	0,8	6,6	0,1
<b>Ipoteka-bank</b>	193,6	4,1	5,9	0,7
<b>Kapitalbank</b>	144,0	125,5	4,4	22,1
<b>Hamkorbank</b>	128,3	81,9	3,9	14,4
<b>Ipak yo'li bank</b>	110,5	37,4	3,4	6,6
<b>Aloqabank</b>	72,7	2,4	2,2	0,4
<b>Mikrokreditbank</b>	59,7	6,5	1,8	1,1
<b>Turonbank</b>	57,7	22,6	1,8	4,0
<b>Trastbank</b>	24,3	2,3	0,7	0,4
<b>Savdogarbank</b>	22,9	1,0	0,7	0,2
<b>Kredit-standart bank</b>	19,1	1,7	0,6	0,3
<b>Orient finance</b>	13,3	11,7	0,4	2,1
<b>O'zKDB bank</b>	12,9	11,4	0,4	2,0
<b>Invest finans bank</b>	10,4	2,4	0,3	0,4
<b>Turkiston bank</b>	7,5	0,0	0,2	-
<b>RBS O'zbekiston MB</b>	6,0	3,4	0,2	0,6
<b>Ravnaq bank</b>	5,7	0,0	0,2	-
<b>Universal bank</b>	5,7	0,4	0,2	0,1
<b>Boshqalar</b>	19,7	2,8	0,6	0,5

## **6-mavzu. “Tijorat banklari resurslarini boshqarishda depozit siyosati va uni takomillashtirish”**

**3. Bank xizmatlari marketingi.**

**4. Tijorat banklari depozit siyosatining takomillashtirish yullari.**

**5. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari bilan bog‘liq risklarni boshqarish.**

### **Bank xizmatlari marketingi.**

Yaqin paytgacha bank xizmatlari bozori sotuvchi bozori bo‘lgan edi va bo‘nda mijozlar pulning katta miqdoriga ega bo‘lgan bo‘lsalar, banklar ko‘p bulmagan edi. Lekin oxirgi vaqtda inflyasiya darajasidagi ma‘lum barqarorlik, qayta moliyalash stavkasining oshishi va banklarning asosiy mijozlari — korxonalarda pul mablag‘larining etishmovchiligi sharoitida bank xizmatlari bozori haridor bozoriga aylanib qoldi. Shu paytdan boshlab ko‘p banklar mijozlarni jalb qilishning yangi usullarini kidira boshladilar. Mazkur maqsadga erishishda ular marketingni qo‘llashlari mumkin

Bank sohasidagi myarketingning o‘ziga xosligi avvalo bank mahsulotining xususiyatida belgilanadi. Bizning iqtisodiy adabiyotlarimizda va amaliyotimizda «bank mahsuloti» termini bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida yuzaga keldi. «Bank mahsuloti» deganda bank ko‘rsatayotgan barcha xizmatlar yoki operatsiyalar nazarda tutiladi.

Tovar va xizmatlar sotish - bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir korxonaning muhym vazifasidir. Bank ishi ham bundan mustasno emas. Bank rahbariyati va uning barcha bo‘g‘inlarining asosiy maqsadi - mijozlarni jalb qilish, xizmatlarni sotish sohasini kengaytirish, bozorni egallash, foydani oshirishdan iboratdir. Bank marketingining muhim ahamiyatga egaligi ana sho‘ndadir. So‘nggi vaqtlarda uning mazmo‘ni va maqsadi, moliya bozorlaridagi keskin kuchayotgan raqobat ta‘sirida sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda.

O‘zbekiston bank sohasiga marketingni singdirish halk xo‘jaligining to‘zilmalari va sohalarining bozor sharoitiga o‘tish jarayoni bilan bir vaqtda amalga oshirilmoqda. Bu holat nafaqat bank faoliyatini faollashishiga, balki yangi bank tizimini shakllantirishni tezlashtirishga va boshqa xo‘jalik sub’ektlarining bozor sharoitiga moslashishiga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan zamonaviy marketing ahamiyatini yanada oshiradi.

Har bir bank rahbari yoki mutaxassisi endilikda marketing bo‘yicha ekspert bo‘lishi ham darkor. Raqobatga bardosh berish uchun banklar bank xizmatlarining keng ko‘lamini taklif qilishga ma.jbur bo‘ladilar. Endilikda ular butun e’tiborlarini bozor muhiti asosi sifatida mijozlar ehtiyojlarini eng Yuqori darajada qondirishga qaratmoqdalar.

Marketing - bu puxta tayyorgarlik, chuqur va har tomonlama tahlil, bank barcha bo‘linmalarining rahbarlaridan tortib, to eng kichik

bo'g'inlarigacha faol ishlashini talab etuvchi bankning strategiyasi va falsafasidir.

### **Tijorat banklari depozit siyosatining takomillashtirish yullari**

Marketing nuqtai nazaridan yondashish bankning birinchi navbatda o'z mahsuloti emas, balki mijozlarning haqiqiy ehtiylari zaminida faoliyat yuritishni nazarda tutadi. Shu sababli bozorni puxta o'rganish, bank xizmatlari iste'molchilarining o'zgaruvchan xohish va talablarini tahlil etish zarurdir. Bank xodimi moliyaviy mahsulotlar sotuvchiga aylanadi. Har bir mijoz bilan muomala jarayonida u moliyaviy xizmat ko'rsatishning mijozga kerakli shakllarini aniqlashi va har bir bitimning zarurati va foydaliligini tushuntirishi lozim.

Bank marketingining asosiy maqsadlari

Zamonaviy marketing ta'sirida bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar ham o'zgarimoqda. Bank oldin omonatchi va qarz oluvchilarga bank mahsulotlarining ma'lum bir turlarini taklif qilgan bo'lsa, endilikda u doimiy ravishda mijozlarning alohida guruhlari, yirik firmalar, kichik korxonalar, jismoniy shaxslar vya x.k. manfaatlariga yo'naltirilgan xizmatlarning yangi turlarini ishlab chiqishi kerak Bank faoliyatining yagona mezonini mijozlarning haqiqiy ehtiyojlari bo'lib qolmoqda. Agar ma'lum bank xizmatiga talab bo'lmasa, o'ni umuman taklif qilmaslik kerak.

Ma'lumki bank faoliyati takrorlanadigan operatsiyalarga asoslanadi. Bundan bankning mijozlari tarkibini saqlab qolish va kengaytirish, ularga o'zoq muddat mobaynida moliyaviy xizmat ko'rsatishga intilishi kelib chiqadi.

Bankning vazifasi real ehtiyojlarni qondirish, mijozga unga kerak bo'lgan narsani berishdan iborat, cho'nki raqobat sharoitida mijozlarni yuqotmaslikning boshqa yo'li yo'q.

Bank marketing bo'limi quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

- yangi mijozlar bilan munosabatlarni o'rnatishni ta'minlash;
- faoliyat aloqalarining rivojlanishiga asos yaratish;
- yangi operatsiyalar va bank xizmatlarini tatbiq qilishga yordam beruvchi analitik tekshiruvlarni amalga oshirish;
- bozor konyukturasini o'rganish;
- mijozlarga tashkiliy va maslaxat yordamini ko'rsatish.

YA'ni marketing xizmatlari faoliyati bank xizmatlari

bozorini har tomonlama taxlil qilishni, zaruriy boshqaruv qarorlarini kabul qilish bo'yicha bank boshqaruvi uchun tavsiyalarni ishlab chiqishni, marketing rejasini ishlab chiqish va bank xizmatlarini bozorga chiqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Bank marketingining maqsadlaridan biri - yangi mijozlarni doimiy jalb qilishdir. Rivojlangan mamlakatlarda aholiga bank xizmatlarini taklif etish

darajasi ancha Yuqori uy xo'jaliklarining 80%i bank mijozlariga aylanib qolgan, joriy va jamg'arma hisobvaraqlariga, kredit kartochkalariga egadirlar. Bo'ndan tashqari banklar mijozlarga yangi xizmatlar taklifini kengaytiradilar, bankka ma'lum operatsiyalarni amalga oshirish uchun murojaat qilgan kishilar doimo qo'shimcha xizmatlar haridorlariga aylanadilar. Masalan, mijoz bankda yo'l cheklarini yoki valyutani sotib olsa, unga qo'shimcha ravishda chet el safari mobaynida baxtsiz hodisadan sug'o'rtalash xizmatini taklif qilish lozim.

### **Tijorat banklarining depozit operatsiyalari bilan bog'liq risklarni boshqarish**

Mamlakatimiz tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqishda va uning amaliyotga joriy etishda quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratish lozim:

1. *Banklarga jalb etilayotgan mablag'lar iqtisodiy nuqtai nazardan samarali bo'lishi lozim.* Bunda asosiy e'tibor tijorat banklari tomonidan passiv operatsiyalar natijasida jalb qilinayotgan mablag'larni aktiv operatsiyalarga joylashtirish orqali olayotgan daromadlari qilingan xarajatlarni qoplash bilan birga, tegishli foydani berishi muhim masalalardan hisoblanadi;

2. *Bankning depozit siyosati raqobatbardosh bo'lishi lozim.* Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari o'rtasida moliya va fond bozorlaridan mablag'larni jalb qilishda raqobat muhiti vujudga keladi. Bunday raqobatda yutib chiqishning asosiy mezonlaridan biri omonatchilarni yo'qotmaslik maqsadida ularning omonatlari bo'yicha to'lanadigan foiz to'lovlarini oshirib borish lozim bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning rentabellik darajasiga ta'sir qiladi, ushbu ta'sirning salbiy natijalarni keltirib chiqarmaslik holatlarini ta'minlanishi bank depozit siyosati raqobatbardoshligini anglatadi;

3. *Tijorat banklari depoziti siyosatida quyidagi holatlar alohida inobatga olinishi va aniq qilib belgilab qo'yilishi lozim.*

a). Depozit munosabatlarining sub'ektlari bo'yicha, ya'ni bank depozit mablag'lari aynan qanday shaxslarning mablag'lari hisobidan shakllanishi va ulardan bank uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari aniq belgilab olinishi kerak;

b). Depozitlarning shakllari bo'yicha, ya'ni bankka jalb etilayotgan depozit mablag'larning qanday hajmi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar, muddatli depozitlar va jamg'arma depozitlardan bo'lishi, ular o'rtasidagi nisbatlar inobatga olinishi maqsadga muvofiq;

v). Risk darajasi bo'yicha, ya'ni omonatchilar va mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha tegishli qoldiq summaları va ularni saqlash muddati qanchalik Yuqori bo'lsa, bank uchun depozit mablag'larini jalb etishda risk darajasi Shunchalik past bo'ladi va aksincha;

g). Mablag'larni jalb etishning asosiy maqsadi, ya'ni bank depozit mablag'larni jalb etishdan oldin ularni qanday aktiv operatsiyalarga (kredit, investitsiya, banklararo kredit, asosiy vositalar, naqd pul) jalb etilishi aniq belgilab qo'yilishi, bunda amalga oshirilgan aktiv operatsiyalar natijasida qilingan xarajatlarni qoplanishi e'tiborga olinishi lozim.

4. *Depozitlarni jalb etishi mo'ljallanayotgan moliya va fond bozorlarning holati.* Tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqayotganda bankning depozit bozorlari bilan o'zaro aloqadorligi, joylashuvi, filiallarning etarligi, vujudga kelishi mumkin bo'lgan raqobatga bardosh berishi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati, huquqiy-tashkiliy bazaning mavjudligi kabi holatlar alohida inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarida depozit siyosatini ishlab chiqishda asosiy e'tibor qaratiladigan masalalardan biri likvidlik va rentabellik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarur ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarida likvidlikni ortishi, bevosita ularning rentabellik darajasini tushishiga olib keladi. Albatta bankda rentabellikning pasayishi uning moliyaviy zaxiralarni shakllantirish, xodimlarga ish haqi hajmi barqarorligini ta'minlash va ularni moliyaviy qo'llab quvvatlash, bank kapitali hajmini oshirish va boshqa qator masalalarni amalga oshirish imkoniyatlarini chegaralaydi.

Rentabellikni oshirish orqali bankning likvidlik darajasini pasayishi, mijozlar, omonatchilar, investorlar oldidagi majburiyatlarni bajarish imkoniyatlarini pasaytiradi. Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqishda likvidlik va rentabellikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari depozit siyosatini shakllanishi va uning rivojlanishiga qator omillar ta'sir qilib, ularning ijobiy hal etilishi bankning likvidlik va rentabelligini ta'minlashga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **7-mavzu. "Bank aktivlari va passivlarini boshqarishning direktiv vositalari"**

### **1. Moliyaviy fyuchers shartnomalarini sug'urtalash.**

### **2. Kredit va foiz opsionlari, foizli svop shartnomalar.**

#### **Moliyaviy fyuchers shartnomalarini sug'urtalash.**

Fyuchers – xosilaviy moliyaviy instrumentlar turkumiga kiradi. Fyuchers operatsiyalari, birjadagi muddatli operatsiyalar bo'lib, xom-ashyo tovarlari, oltin, valyuta, moliyaviy va kredit instrumentlarini shartnoma tuzilayotgan paytda qayd etilgan bahoda sotish yoki sotib olishdan iborat. Bunda, shartnomani ijrosi kelgusida (2-3 yil) amalga oshadi.

Amaliyotda tovar fyucherslari, fond fyucherslari va valyuta fyucherslari mavjud.

Forvard va fyuchers shartnomalari ma'lum bir valyuta yoki moliyaviy instrumentni ma'lum bir kurs asosida kelgusidagi ma'lum bir sanada sotish yoki sotib olish to'g'risidagi shartnomadir.

Forvard shartnomalari – bu, birjadan tashqaridagi bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalardir. Fyuchers operatsiyalari esa – bu, valyutalarning belgilangan summalari bilan birja bozorida almashish operatsiyalaridir. Valyuta fyucherslari – bu, birjada amalga oshiriladigan to'lov muddati ko'rsatilgan va



standartlashtirilgan shartnoma xajmlari bilan xorijiy valyutalar bilan bo'lgan muddatli valyuta operatsiyalaridir. Bunday operatsiyalarni asosiy maqsadi kurslar farki sifatida daromad olishdir.

Fiyuchers shartnomalari ijro etilgunga qadar, kafolat sifatida, ma'lum bir summa bunak sifatida birjaga to'lanadi. Operatsiyalar bilan bog'liq hisob-kitoblar kliring palatasi orqali amalga oshadi va ushbu palata sotuvchi va sotib oluvchi orasida vositachi bo'lib, shartnoma ijro etilishini kafolatlaydi.

Fiyuchers operatsiyalarining ko'pchiligi tovar yoki boshqa bir savdo ob'ektlarini etkazib berish bilan yakunlanmaydi, chunki ushbu shartnomaning asosiy maqsadi xedjingsh, ya'ni aktivlar yoki majburiyatlarni baholar, kurslar yoki foiz stavkalarini o'zgarishi riskidan himoyalash (sug'urtalash)dir. Buning uchun birjada nakdli operatsiyalarga parallel ravishda, summalari jihatidan teng bo'lgan, ammo ularga karama-karshi bo'lgan fiyuchers operatsiyalari amalga oshiriladi.

Xom-ashyo tovarlari bilan fiyuchers operatsiyalari XX asrning 2-yarmidan boshlab amalga oshiriladi. Bretton-Vuds valyuta tizimi inkirozi va YAmayka valyuta tizimi sharoitida erkin so'zuvchi valyuta kurslarining kiritilishi, valyuta kurslari, foiz stavkalari, oltin bahosining tebranishidan himoyani talab eta boshladi. Buning uchun 1972 yildan boshlab xorijiy valyuta va oltin bilan fiyuchers operatsiyalari amalga oshirila boshladi. 1975 yildan boshlab – sertifikatlar, veksellar, obligatsiyalar, depozitlar bilan amalga oshirila boshladi. 1982 yilda bahosi turli fond indeklari bo'lgan fiyuchers operatsiyalari paydo buladi.

Tovar birjalari uchun an'anaviy bulmagan moliyaviy instrumentlar bilan fiyuchers operatsiyalarining yig'indisi moliyaviy fiyucherslar nomini oldi. Moliyaviy fiyucherslar birja shartnomalariga kiradi. Moliya borasidagi fiyucherslar bilan savdo 1972 yilda CHikago tovar birjasida birinchi bor xorijiy valyutalarga moliyaviy fiyuchers kontraktlari paydo bo'lishi bilan boshlangan (GBP, CAD, SEK, ITL, JPY, CHF, MEP).

Xorijiy valyutaga (AUD, GBP, SEK, FRF, JPY, CHF) fiyuchers kontraktlari CHikago tijorat birjasi tarkibidagi Xalqaro valyuta birjasi orqali to'ziladi.

CHikago birjasining bo'linmasi bo'lmish indeklar va opsionlar birjasi AUD, GBP, CAD, SEK, JPY, CHF-lariga bo'lgan fiyuchers kontraktlari bo'yicha opsionlar bilan savdo kiladi.

O'rtaamerika tovar birjasi GBP, CAD, SEK, JPY, CHF-lariga bo'lgan fiyuchers kontraktlari bilan savdo kiladi. AUD, FRF, GBP, JPY, SEK, CAD, CHF va Evro bo'yicha muddatli kontraktlar Filadelifiya birjasi orqali sotiladi.

Moliyaviy fiyucherslar bilan savdoning asosiy markazlari – an'anaviy muddatli tovar birjalaridir, ya'ni CHikago va Niyu-York tovar birjalari (Niyu-Yorkdagi oltin savdosi bo'yicha etakchi bo'lmish KOMEXS birjasi, valyuta bo'yicha - CHikago merkantayl ekscheyndj, moliyaviy instrumentlar bilan - CHikago bord of treyd).

Bundan tashqari, ular bilan Kanada, London, Singapur, Sidney birjalarida ham savdo qiladilar. Shu bilan birgalikda, ixtisoslashgan markazlar ham faoliyat ko'rsatadi. Masalan, NIFE (Niyu-York), LIFFE (London), Toronto fiyuchers

ekscheyndj. Jahonda fiyucherslar bilan 1 kunlik savdoning umumiy hajmi taxminan 100 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

Fiyuchers operatsiyalarida ko'pchilik broker firmalari, investitsiya institutlari, sanoat va savdo monopoliyalari, alohida investorlar ishtirok etadi. Shu bilan birgalikda, ushbu operatsiyalarda katta rolni tijorat banklari uynamokda. Buning uchun ular alohida maxsus Shu'ba kompaniyalar yoki bulimlar tashkil etadi.

Fiyuchers operatsiyalarini tartibga solish (muvofiqlashtirish) birja raxbariyati, markaziy banklar va moliya vazirliklariga yuklatilgan. AQSH-da muddatli savdo bo'yicha maxsus federal komissiya tashkil etilgan.

Marja tizimi (kafolat badali) xar qanday kamomadlarni koplash imkonini beradi. Ushbu kamomadlar, birjada fiyuchers kontraktlarini kundalik asosda qayta baholanish oqibatida xosil buladi. Shu sababli, kafolat badali birja savdosining ishtirokchisi tomonidan, shartnoma amalga oshirilgunga qadar, birjaga to'lanishi lozim. Masalan, xalqaro valyuta bozorida 25000 USD hajmida kontraktni to'zish uchun 1500 USD hajmida dastlabki sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan kafolat badalini to'lash talab etiladi.

### **Kredit va foiz opsionlari, foizli svop shartnomalar.**

Opsion – lotincha so'z “optio”dan olingan bo'lib, tanlov ma'nosini beradi. Opsion – bu ma'lum bir aktivni shartnomada qayd etilgan bahoda, oldindan kelishilgan sanada yoki kelishilgan ma'lum bir davr ichida sotib olish yoki sotish huquqini (sotib oluvchi opsioni uchun) boshqa shaxsga berilishi xaqidagi ikki taraflama shartnomadir.

Mazkur shartnoma bo'yicha bir broker (diler) yozib, opsionni boshqa brokerga beradi, boshqa broker esa uni sotib oladi va opsion shartlari ko'zda to'tgan muddat ichida uni (“strayk” baho) o'rnatilgan kurs asosida opsionni yozib bergan shaxsdan (sotib oluvchi opsioni) ma'lum bir miqdordagi valyutani sotib olish yoki unga bu valyutani sotish (sotuvchi opsioni) huquqiga ega buladi.

Shunday kilib, opsion sotuvchisi valyutani sotishga (yoki sotib olishga) majbur, opsionni sotib oluvchi shaxs esa buni kilishi shart emas. YA'ni, u, valyutani sotib olishi yoki sotib olmasligi (sotishi yoki sotmasligi) mumkin. Demak, opsion sotib oluvchini almaShuv kursini kelishilgan “strayk” bahodan oshik yokimsiz o'zgarishidan himoya kiluvchi, valyuta risklarini sug'urta qilishning shaklidir. Opsion, unga, agarda almaShuv kursi “strayk” bahodan oshib, unga yokimli tarafga o'zgarsa, daromad olish imkonini beradi.

Opsionning “strayk” bahoga nisbatan almaShuv (joriy) kursini usishi “apsayd” (inglizcha “upside” – Yuqori tomoni) deb ataladi. Uning “strayk” bahoga nisbatan pasayishi esa “daunsayd” (inglizcha “downside” – pastki tomoni) deb ataladi.

Opsionning 3 turi mavjud, ya'ni:

1.Sotib olishga opsion (“call option”) – bu opsionni sotib oluvchi shaxsning, valyuta kursining usish xavfidan (yoki ma'lum bir sanaga hisob-kitob kilishdan)

o'zini himoya qilish maqsadida, uning Shu mazkur valyutani sotib olish (yoki hisob-kitobni amalga oshirish) huquqidir (majburiyati emas).

2.Sotishga opsiyon ("put option") – bu opsiyonni sotib olgan shaxsning, valyuta kadsrizlanishidan o'zini himoya qilish maqsadida, Shu opsiyonni sotishga (yoki ma'lum sanaga hisob-kitob qilish) huquqini (majburiyatini emas) bildiradi.

3.Opsiyon stellaj (nemischa "stellage") yoki (dvoynoy opsiyon) yoki ("put-call option") – bu opsiyon egasiga valyutani, bazis bahosi bo'yicha, sotib olish yoki sotish huquqini beradi (bir vaqtning o'zida sotib olish va sotishni emas). Opsionda uning muddati ko'rsatiladi.

Opsiyonning muddati - bu sana yoki ma'lum bir davr bo'lib, sana yoki davr muxlati utib ketsa, mazkur opsiyonni ishlatib bulmaydi.

Opsiyonning 2 stili mavjud: a) evropacha va b) amerikacha.

Evropacha stili – bunda, opsiyon fakat ma'lum bir belgilangan sanaga ishlatilishi mumkin.

Amerikacha stili – bunda, opsiyon, opsiyon davrining istalgan paytida ishlatilishi mumkin.

Opsiyon o'z kursiga ega. Opsiyon kursi – bu strayk bahodir (inglizcha "strike price"). Bu valyutani, ya'ni opsiyon aktivini sotib olish ("put") yoki sotish ("call") mumkin bo'lgan bahosidir.

Opsiyonni sotib oluvchi shaxs, opsiyonni sotuvchi yoki uni yozib bergan shaxsga, mukofot deb atalmish komissiya xakini to'laydi.

Mukofot – bu opsiyonning bahosidir. Opsiyonni sotib oluvchi shaxsning riski Shu mukofot mikdori bilan cheklanadi, o'z navbatida, opsiyonni sotuvchi shaxsning riski esa, olingan mukofot mikdoriga kamayadi.

Opsionga egalik qilish, uni sotib olgan shaxsga, oldindan bilib bulmaydigan kelgusidagi o'zgarishlardan o'zini himoya qilish imkonini beradi. Opsiyon shartnomasi, opsiyon egasi uchun, ijro etilishi majburiy bo'lgan shartnoma emas. Shuning uchun ham, agarda opsiyon amalga oshmasa, egasi uni berib yuborishi yoki ishlatmasdan koldirishi mumkin.

Opsiyon va forvard shartnomalari orasidagi asosiy farqlar:

- 1.Sotib oluvchi apsayddan foyda oladi.
- 2.Sotib oluvchi daunsayddan himoya qilingan.
- 3.Sotib oluvchi opsiyon uchun mukofot to'laydi.

Mukofot, ya'ni opsiyonning bahosi quyidagi 2 elementdan tashkil topadi: a) ichki qiymat va b) davriy qiymat.

Ichki qiymat (boshqacha nomi ichki qimmatligi) – bu, opsiyon egasining uni sotishdan olgan potensial daromadi. Opsiyon mukofotining pastki chegarasi ichki qiymatga tengdir. Chunki, sotuvchi opsiyonning strayk bahosi va joriy bahosi ("spot" kurs) sifatidagi farkdan kichik bo'lgan mukofotga rozi bulmaydi.

Misol. "Spot" kurs 1 AQSH dollari - 20 so'mni tashkil etadi. Opsiondagi sotib olish "strayk" bahosi – 19 so'm. Opsiyon egasi AQSH dollarlarini 1 AQSH dollari - 19 so'm bahoda sotib olishi va 1 AQSH dollari-20 so'm bahoda sotishi mumkin. Bunda, opsiyonning ichki qiymati 1 so'mni (20 so'm – 19 so'm) tashkil kiladi.

“Ichki qiymat” tushunchasidan kelib chiqqan holda opsiyonlar quyidagilarga farqlanadi:

1. ”Puldagi opsiyonlar” (inglizcha “in the money option”).
2. ”Pulning oldidagi opsiyonlar” (inglizcha “at the money option”).
3. ”Pulsiz opsiyonlar” (inglizcha “out of the money option”).

Opsiionning almaShuv kursi, uning shartnoma, strayk, bahosidan Yuqori bo‘lsa – “puldagi opsiyon” buladi. “Puldagi opsiyon” mustaqil ijobiy qiymatga ega, ya’ni fyuchers joriy bahosidan past sotish bahosiga ega sotuvchi opsiioni, yoki sotish bahosi, fyuchers joriy bahosidan past bo‘lgan sotib olish opsiioni.

Misol. YAnvarda ijro etiladigan fyuchers 1 AQSH dollari - 20 so‘m bahoda sotilsa, unda ijrosi yanvarda, sotilish bahosi 1 AQSH dollari- 19 so‘m bo‘lgan sotib oluvchi opsiioni “pulda” 1 AQSH dollari-1 so‘m buladi.

Bazis bahosi taxminan joriy bahosiga teng, ya’ni mustaqil bahosi nolga teng bo‘lgan opsiyon - “pulni oldidagi opsiyon” buladi.

Salbiy mustaqil qiymatga ega bo‘lgan opsiyon - “Pulsiz opsiyon” buladi.

Davriy qiymat opsiyonlar savdosida risklarni aks ettiradi. Bunday risklarning katta yoki kichikligiga “strayk” baho, valyuta kurslarning o‘zgaruvchanligi, foiz stavkalari, valyuta bozoridagi talab va taklif miqdorlari ta’sir etadi.

Opsiionlar joriy bahosi va “strayk” baholarining tengligi sharoitida davriy qiymat o‘zining eng katta miqdoriga etadi. Chunki, opsiionlar joriy bahosining u yoki bu tarafga ogish extimolligi nihoyatda Yuqori. Agarda, opsiionning ijro sanasiga joriy bahosi (“spot” kurs) tebranish extimoli nolga yaqinlashsa, unda davriy qiymat ham nolga teng buladi.

Svop (ingl. “swap”, “swop”) – almaShuv, almashtirish ma’nosini bildiradi. Svop operatsiyasi – bu, hisob-kitob sanalari turlicha bo‘lgan, taxminan teng xajmdagi xorijiy valyutaning bir vaqtning o‘zida sotilishi va sotib olinishidir. Svop, valyuta operatsiyasi valyutaning “spot” shartlari asosida, milliy valyuta evaziga sotib olinishi va keyinchalik uning qayta sotib olinishini ko‘zda to‘tadi. Demak, svop operatsiyasi – bu, valyutaning, miqdor jihatidan teng summalarga, ular bo‘yicha hisob-kitoblarni turli sanalarda amalga oshirish sharti bilan, bir vaqtning o‘zida sotib olinishi va sotilishidir. Svop – bu, valyutani, so‘nggi sotuv kafolati bilan, vaqtinchalik sotib olishdir.

Amaliyotda svop, bir vaqtning o‘zida, valyuta almaShuvi bilan bog‘liq ikki alohida shartnomaning imzolanishini ko‘zda to‘tadi. Bu shartnomalar karama-karshi yunalishlarga va turli hisob-kitob sanalariga ega. Bu shartnomalarning biri bo‘yicha, birinchi valyuta ikkinchi valyuta hisobiga, ma’lum bir sanada etkazib berish sharti bilan sotib olinadi. Ikkinchi shartnoma bo‘yicha esa, birinchi valyuta ikkinchi valyutaga, boshqa sanada etkazib berish sharti bilan, sotib yuboriladi.

Svop valyuta operatsiyalarini ko‘p xollarda banklar amalga oshiradi. Bunda, ikki bank orasida ikki valyuta bilan almaShuv ma’lum bir davrda bo‘lib, shartnoma oxirida dastlabki valyutalar banklarga qaytariladi. Valyutalar bilan almaShuv, bir vaqtning o‘zida to‘ziladigan, ammo valyutalarning turli sanalarda etkazib berilishi ko‘zda to‘tilgan ikki karama-karshi shartnoma shaklida amalga oshadi: “spot” bir shartnoma bo‘yicha va “forvard” boshqa shartnoma bo‘yicha. Buning natijasida ikkala bank ham, “spot” shartlari asosida sotib olingan valyutani, to u “forvard”

shartlari asosida sotilgunga qadar, o'z ixtiyoriga oladi. Barqaror iqtisod va kapitallarning erkin xarakati sharoitida forvard bozoridagi baholar foizlar farqlariga boglangandir. Forvardli (hisob-kitob qilingan) kurs quyidagiga teng buladi:

$F = (1+a)/(1+L) \times S$  bu erda, F – valyutaning forvardli kursi;

S – valyutaning “spot” kursi;

a – banklararo kredit bo'yicha foiz stavkalari;

L – Libor stavkasi (London banklararo stavkasi).

Misol. AQSH dollarining joriy “spot” kursi 4987 Rossiya rublini tashkil etadi. Banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkasi yillik 12%dan to 16%gacha tebranib turibdi. Bu holda, yillik foiz stavkasi 16% va LIBOR stavkasi yillik 3,16%ga teng bo'lganda, AQSH dollarining 3 oylik forvard kursi:

$F = (1+0,16) \times 3/12 / (1+0,0316) \times 3/12 \times 4987 = 5145,83$  RUR

Beqaror iqtisodiyot sharoitida hisob-kitob qilingan forvardli kurs kullanilmaydi. Valyuta bahosi shartnoma asosida belgilanadi.

Svop shartnomalarining boshqa shartnomalarga nisbatan kulayligi Shundaki, ular valyuta riskini to'la bartaraf etadilar. Turli sanalarda sotib olingan va sotilgan valyutalar, teskari svopni tashkil etgan holda, sotilishi yoki sotib olinishi mumkin. Shuning uchun, agarda hisob-kitob sanalaridagi farqlar hisobiga koplanmagan pozitsiya xosil bo'lsa, u osongina to'la koplanishi yoki kamaytirilishi mumkin. Svop – bu, joriy foiz stavkalari ta'siri ostida, bir valyutaning o'zgarib turadigan forvard marjasini boshqa valyuta forvard marjasiga qanday ta'sir etishi yuzasidan turli fikrga ega bo'lgan brokerlarning (diler) o'zaro aloqasidir.

Svop operatsiyalarining asosiy kulayligi Shundaki, uning ishtirokchilariga valyutalarni qiska muddatli tebranishidan bezovtalanishiga xojat yo'q, chunki bunday tebranishlar forvardli kursga sezilarli ta'sir etmaydi. Svop operatsiyalarida, bir vaqtning o'zida, “spot” va “forvard” kurslari belgilanadi va barcha holatlarda, bu kurslar bir biridan fark kiladi.

Amaliyotda foiz stavkasining svopi va valyuta svopi farklanadi. Foiz stavkasining svopi – bu, kreditning asosiy shartli summasi bo'yicha AQSH dollaridagi foiz to'lovlari bilan ma'lum bir muddatga ikki taraf orasida almashinish to'g'risidagi keliShuvdir. “Kreditning asosiy summasi” yoki “prinsipial” atamasi, svopni belgilovchi nazariy asosga tegishlidir. Shunday kilib, kreditning asosiy shartli summasi – bu, foizlar nisbatan hisoblanadigan oddiy summadir. Asosiy summa bilan almashinilmaydi. Muddat, bir yilgacha muddatdan to 15 yilgacha bo'lishi mumkin. Birok, ko'pchilik shartnomalar 2 yildan 10 yilgacha muddatlarga to'ziladi.

Foiz to'lovlari svopining asosiy 2 shakli mavjud bo'lib, bular ko'ponli svop va negizli (bazisnoy) svop hisoblanadi. Ko'ponli svopda ishtirokchi bo'lmish bir taraf, shartnoma paytida ma'lum bir kaznacheylik obligatsiyasiga nisbatan marja sifatida hisoblangan, kat'iy belgilangan stavkani to'laydi. Shu vaqtning o'zida boshqa taraf, shartnoma muddati davrida o'rnatilgan indeksga nisbatan davriy asosda o'zgarib turadigan, erkin o'zgarib turuvchi stavkani to'laydi.

Negiz svopida esa shartnomada ishtirok etuvchi ikki taraf, turli stavkalarga asoslangan, erkin o'zgarib turuvchi foiz to'lovlari bilan o'zaro almashadilar.

Asosan, ushbu nisbatan ochik (to'g'ri) mexanizmdan foydalangan holda, foiz stavkasining svopi obligatsiyalar chiqarilishini, aktivlar, passivlar va xar qanday nakd pul okimining bir turdagi ko'rinishdan boshqa turdagi ko'rinishga, hamda ba'zi bir variantlarda shartnoma tarkibidagi bir valyutani boshqa valyutaga transformatsiya kiladi.

Svop bozori moliyaviy resurlar manbalari orasidagi aloqani ulkan (global) hajmga oshishiga sabab bo'ldi. Instiutlar tomonidan moliyaviy qarorlar qabul qilinishining taxlil etish uslublarini keskin o'zgartirib yubordi. Bu albatta, svoplarning aktivlar va majburiyatlarini boshqarishning yangi samarali yullarini ta'minlash bilan ham bog'liqdir.

Valyuta svopi. Valyuta svopi foizli svop foydalangan uslub orqali nakdli okim tarkibini kat'iy belgilangan stavkadan erkin so'zuvchiga o'zgartirishi hamda svop mexanizmi orqali valyutaning o'zini ham o'zgartirishi mumkin. Bunday tusdagi shartnoma foizli-valyuta svopi yoki oddiy valyuta svopi deb ataladi. Foiz svopi va valyuta svopi orasidagi asosiy fark Shundaki, valyuta svopi nafaqat foiz to'lovlari bilan almashinishni, balki asosiy summa (prinsipal) bilan birlamchi va Yakuniy almaShuvni ham o'z ichiga oladi.

Birlamchi almaShuv svopning boshida, Yakuniy almaShuv esa svop muddatining tugash sanasiga amalga oshadi. O'zining bu mazmuniga ko'ra, valyuta svopi kompensatsion kredit yoki parallel zayomlarga juda uxshab ketadi.

Svoplardan foydalanish keng tarkalgan: bu endi bir nechta tanlov instrumentlaridan iborat ixtisoslashgan moslama emas. Svoplardan kapital qiymatini pasaytirish, xavf-xatarlarni boshqarish va yalpi iqtisodiyotda katta mikyosda ishlatish maqsadida foydalaniladi.

Svoplardan jahonning turli kapitallar bozorlarida arbitrajni olish uchun ham foydalaniladi. Qarz oluvchilar va kreditorlar sintetik instrumentlarni yaratib, yangi bozorlarga svop texnologiyasidan foydalangan holda kirib boradilar. Masalan, yangi, "potolok/pol" singari keliShuv ko'rinishidagi opsion xarakteristikalarini bilan svop tarkibiy to'zilmalari va svop xosilalari ishlab chiqilgan edi.

Foizli opsionlarning "potolok/pol" kombinatsiyasi sotib oluvchiga foiz stavkalarining "koridorini" ta'minlaydi. Svoplarning ommaviylashganligi foydalanuvchilarga, likvidlikning usishi va xujjatlarning standartlashishi kabi bir qator imtiyozlarni berdi. Svop biznesi, 140 ga yaqin a'zolarga ega bo'lgan Svop Dilerlarining Xalqaro Assotsiatsiyasi (ISDA) bilan hamkorlikda kullab-kuvvatlanadi.

## **7-mavzu. "Bank aktivlari va passivlarini boshqarishning direvativ vositalari"**

**3. «GEP», «Flor», «Koridor» ko'rinishidagi foizli shartnomalar.**

**4. Direvativ shartnomalarning bajarilishini monitoring qilish va boshqalar.**

**«GEP», «Flor», «Koridor» ko'rinishidagi foizli shartnomalar.**

Bank faoliyatida bir qancha xatarlar uchraydiki, bu xatarlar o'rtasidagi munosabat o'zaro bir biriga bog'liq munosabatdir. Bank faoliyatida uchraydigan asosiy 5 ta xatar mavduj:

Foiz xatari — foiz darajalarining o'zgarishi natijasida bank foydasi miqdoridagi o'zgarishdir.

Likvidlik xatari — bank aktiv va passivlarining qaytish va to'lov muddatlarining nomuvofiqligi natijasida ular o'rtasidagi farq.

Valyuta kursi xatari — valyuta kursidagi o'zgarish natijasida valyuta pozitsiyasining ta'sirida bank foydasi miqdoridagi o'zgarish.

Baho xatari — qimmatbaho qog'ozlarning bahosidagi o'zgarish natijasida bank foydasidagi o'zgarishlar.

Kredit xatari — kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi natijasida qo'shimcha zahiralarning shakllanishi va foiz daromadlarining hamda to'lovlarning kechikishi natijasida bank foyda miqdoridagi o'zgarish.

Bu erda faqat kredit xatari assimetrik xarakterga ega, ya'ni faqat bir tomonga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Qolgan 4 ta xatar, ya'ni likvidlik, foiz, baho va valyuta kursi xatarlari simmetrik xarakterdagi xatarlar hisoblanadi. Simmetrik xarakterdagi xatarlar ikki tomonga xam salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xatarlarni boshqarishda bugungi kunda rivojlangan Anglo — sakson uslubi 3 yo'nalishni taklif qiladi. Bular sug'urtalash (xedjirlash), arbitraj va spekulyasiya. Bu erda xedjirlash mazkur xatar yuzaga kelgan davrda uni sug'urtalash tartibini taqdim etadi. Arbitraj esa xatarlarni oldindan qonun himoyasida tutadi. Spekulyasiya jarayonida xatarlar ikki tomon o'rtasida taqsimlanib, butun xatar "tovonga yoyilish" ta'sirida bartaraf qilinadi. Ammo spekulyasiya jarayonida tomonlardan biri albatta zarar ko'radi.

Eng muhim xatarlar bu likvidlik, foiz va valyuta operatsiyalari bilan bog'liq xatarlardir. Yuqorida ta'kidlanganidek, likvidlik xatari darajasini likvid mablag'larning kamomadi miqdori ko'rsatadi. Likvidlik xatarining muddati esa davriy intervaldagi komulativ kamomadi miqdori ko'rsatadi. Likvidlik xatarining muddati esa davriy intervaldagi komulativ kamomadning yig'indisiga teng.

Valyuta kursi xatari esa valyuta kursidagi o'zgarish natijasida bank foydasidagi o'zgarish miqdorini ifodalab, milliy valyutadagi kutiladigan daromad bilan valyuta pozitsiyasidan ko'riladigan xarajatlarning o'zaro nisbatida ko'riladi.

Bank faoliyatida eng muhim va tashqi omillarga bog'liq bo'lgan xatar bu foiz xatari hisoblanadi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan birga foiz siyosatida diversifikatsiya qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda. CHet el banklarida ham 1970 yillarga qadar foiz xatarlari u qadar sezilarli ta'sir ko'rsatmas edi. CHunki, savdo va to'lov balansidagi kamomad, hamda inflyasiya darajasi ko'pgina g'arb mamlakatlarida u qadar Yuqori emas edi. 1970 yillarga kelib byudjet kamomadlari va inflyasiya darajasi kutilmaganda ortdi. Buning ta'sirida esa iqtisodiyotda foiz darajalarining muvozanati yo'qoldi va banklar faoliyatida foiz xatarlariga asosiy e'tibor berilishi talab qilindi.

Banklarning asosiy vazifalaridan biri foiz to'lovi sharti bilan iqtisodiyotdagi bo'sh mablag'larni jalb qilish va bu mablag'larni iqtisodiyotga kredit shaklida

yoʻnaltirishdir. Shunday bir sharoitda jalb qilingan mablagʻlarga toʻlanadigan foiz xarajatlari bilan kreditlardan olinadigan foiz daromadlari oʻrtasidagi farq (SPRED) banklarning foyda darajasini (marja) belgilab beradi. Bank aktiv va passivlarning tuzilmasi va qaytish miqdorining hamda vaqtining oʻzaro mos kelmasligi bilan birga foiz darajalaridagi oʻzgarishlar ham banklar faoliyatida katta xatarlarni yuzaga keltiradi. Bu xatar foiz xatari deb nomlanadi. Foiz xatarlariga iqtisodchilar quyidagicha taʼrif beradilar:

Jumladan, R.Richard — Veb «foiz xatari — bu foiz darajalaridagi oʻzgarishning bank kapitaliga, yaʼni bank marjasiga va spredga boʻlgan salbiy taʼsirlarining darajasidir» shaklida taʼrif beradi.

E.Straganova, «foiz xatari — foiz darajalaridagi oʻzgarish natijasida bank aktiv va passivlarining qaytish muddatlarining mos kelmasligi va jalb qilingan hamda joylashtirilgan bank mablagʻlarini qayta baholash shartlarining oʻzgarishi hisobiga bank koʻradigan potensial yoʻqotish» shaklida izoh beradi. E.Straganova oʻz fikrini davom ettirgan holda, foiz xatarining yuzaga kelishida aktiv va passivlarning qaytish muddati va miqdorlarining oʻzaro mos kelmasligini asosiy sabab qilib koʻrsatadi. R.Richard —Veb esa aksincha, foiz darajalaridagi oʻzgarishga taʼsir qiluvchi koʻpgina makroiqtisodiy omillar mavjudligini hisobga olgan holda, foiz darajalaridagi oʻzgarishlar bank aktiv va passivlarining muddati va miqdori boʻyicha oʻzaro mos kelmasligi oqibatini yuzaga keltiradi deb hisoblaydi.

Shu oʻrinda bizning fikrimizcha foiz darajalaridagi oʻzgarishlarga tashqi taʼsir qiluvchi omillar xaqiqatdan anchagina. Jumladan: pul massasidagi oʻzgarishlar, inflyasiya darajasi, valyuta kurslaridagi oʻzgarishlar va davlat xarajatlarini moliyalashtirishda amalga oshiriladigan koʻpgina tadbirlar foiz darajalarining oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatadi. Shunga koʻra raqobat mexanizmi takomillashgan iqtisodiyotda foiz darajalaridagi oʻzgarishlarga taʼsir qiluvchi omillar tarkibida tashqi omillarning taʼsiri kuchli boʻladi. Shu bilan birga bank aktiv va passivlarining tuzilmasi, aktiv va passivlarning qaytish muddati va miqdori oʻrtasidagi oʻzaro moslik foiz darajalarining oʻzgarishiga va bu boradagi taʼminlarga qarab shakllanishi lozim. Aks holda banklarda foiz xatarlarini kamaytirish qiyin bir muammoga aylanadi. Chunki, bozor mexanizmi rivojlanishi bilan iqtisodiyotda "suzib yuruvchi" foiz darajalari mexanizmi amal qila boshlaydi va foiz darajalariga taʼsir qiluvchi asosiy omillarning taʼsir kuchi kamayib, bir necha omillar hissasiga boʻlinib ketadi. Ikkinchi tomondan banklar tomonidan olib boriladigan aktiv va passivlarni boshqarish tadbirlarining asosiy maqsadi ham foiz darajalarining oʻzgarishi hisobiga yuz beradigan salbiy oqibatlarni bartaraf etishdir.

Qisqacha izohlaydigan boʻlsak, foiz xatari deganda iqtisodiyotdagi nominal foiz darajalari darajasidagi kutilmagan oʻzgarishlar hisobiga bank kapitalida kuzatiladigan salbiy oʻzgarishlar tuShuniladi.

Foiz xatarlarini boshqarishdan asosiy maqsad:

- turli moliyaviy instrumentlar taʼsirida pul mablagʻlari oqimida yuz beradigan oʻzgarishlarning xususiyatlarini anglab etish, xususan ularning qayta baholash imkoniyatlariga va foiz darajalaridagi oʻzgarishlarga taʼsirini aniqlash;
- foiz darajalaridagi oʻzgarishlarning bank sof daromadiga taʼsirini aniqlash.



Shunga ko'ra foiz xatarlarini ikkiga ajratish mumkin: Asosiy xatar — foiz darajalarining umumiy tarkibidagi o'zgarish bilan bog'liq bo'lgan xatardir. Bu asosan bank jalb qilgan mablag'lar bo'yicha foiz darajalari bilan bu mablag'larni joylashtirish bo'yicha belgilangan foiz darajalari o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Bunda foiz xatari foiz darajalarida kutilayotgan o'zgarish harakatlarining noaniqligidan paydo bo'ladi. Agar bank jalb qilgan mablag'larini o'zgarmas foiz darajalari bilan sotib olib, ularni o'zgaruvchan (suzib yuruvchi) foiz darajalarida joylashtirsa, u holda mazkur xatar miqdori ortadi. Ammo bugungi kunda mamlakatimizda bu tur foiz siyosati amaliyotda juda kam foydalaniladi. Shu bilan birga bu tur foiz xatarlarining ortishiga valyuta kurslaridagi o'zgarishlar ham ta'sir qiladi. Shuning uchun foiz xatarlari, valyuta kurslari bo'yicha xatarlar bilan birga qaralishi lozim.

Vaqt oralig'ining nomuvofiqligi bo'yicha xatar. Bu xatar asosan jalb qilingan mablag'lar va mazkur mablag'larni joylashtirish bo'yicha foiz darajalarini qayta baholash jarayonida vaqt oralig'ining o'zaro mos kelmasligi natijasida yuzaga keladi. Xatar miqdori qayta baholash bo'yicha vaqt oralig'ini tanlash jarayonida paydo bo'ladi. Foiz xatarlarining eng muhim salbiy ta'siri bank marjasini kamaytirishidir. Shu bilan birga foiz xatarlari bank aktiv va passivlarining qaytish muddatining o'zaro nomuvofiqligi va bu tur aktivlar va passivlar miqdorining mos kelmasligi natijasida ham paydo bo'ladi. Bunday holda foiz xatarlari, likvidlik xatari bilan birga ortadi.

### **Direvativ shartnomalarning bajarilishini monitoring qilish va boshqalar**

Bank faoliyati ustidan nazorat bo'yicha Bazel Qo'mitasi foiz xatarlarining manbalarini to'rtga bo'ladi:

1) baholardagi o'zgarish. Baholarning o'zgarishini natijasida yuzaga keladigan xatar asosan bank aktiv va passivlarining qaytish muddati va baholari o'rtasidagi farq natijasida paydo bo'ladi. Bu asosan mablag'larning o'zgarmas foiz darajalarida jalb qilinib, o'zgaruvchan foiz darajalarda joylashtirilishi natijasida paydo bo'ladi va aksincha. Ko'pgina hollarda banklar tomonidan daromadlik darajasini orttirish uchun o'zgarmas foiz darajasi bilan uzoq muddatga berilgan kreditlar qisqa muddatli mablag'lar bilan moliyalashtiriladi. Bunday holda bank o'z likvidligini doimiy ta'minlab turishi uchun aktiv ish olib borishi lozim. Ammo mablag'lar bo'yicha foiz darajalari o'zgaradigan bo'lsa, bu oxir oqibatda bank daromadlik darajasining kamayishiga olib keladi;

2) daromadlilik darajasidagi o'zgarishlar. Bu asosan bank aktivlari yoki passivlari tarkibida foiz darajalarining o'zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, qisqa muddatli majburiyatlar yoki qo'yilmalar bo'yicha foiz darajalari 2 foizga, uzoq muddatli majburiyatlar yoki qo'yilmalar bo'yicha foiz darajalari 1 foizga o'zgarishi bank daromadida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi;

3) asosiy xatar. Bu asosan turli xil moliyaviy instrumentlar o'rtasidagi korrelatsion munosabatlarning buzilishi natijasida bank kreditlari va depozitlari bo'yicha foiz darajalari nisbatining o'zgarish xataridir. Ko'pincha banklar tomonidan uzoq muddatli kreditlar qisqa muddatli depozitlar bilan

moliyalashtiriladi. Ammo kreditlar qayta moliyalash darajasiga asosan qayta baholansa, depozitlar Davlat Qisqa Muddatli Obligatsiyalarining (DQMO) daromadlilik darajasiga asosan qayta baholanadi. Bunday holda qayta moliyalash darajasi bilan DQMOlarining daromadlilik darajasi o'rtasidagi korrelatsion munosabalarining buzilishi to'g'ridan to'g'ri bank marjasiga ta'sir qiladi;

4) opsionga bog'liq xatar. Opsion mazkur operatsiyada qatnaShuvchiga moliyaviy instrument yoki kontrakt bo'yicha sotish, sotib olish yoki pul mablag'lari harakatini qandaydir o'zgarish qilish bo'yicha majburiyat emas, balki xuquq beradi.

Bu tur kutilmagan va doimiy xatarlarning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun bank tomonidan xedjirlash usullari talab qilinadi. Foiz xatarlarini kamaytirish va sug'urtalash uchun quyidagi tadbirlarga asosiy e'tibor berish lozim:

- foiz darajalarining istiqboldagi o'zgarishlarini tahlil qilish;
- bank aktiv va passivlarining qaytish muddatlarining o'zaro mosligini ta'minlash va Shundan kelib chiqqan holda maqbul foiz darajalarini belgilash;
- foiz svoplarini amalga oshirish, foiz xatarlarini fyuchers, forvord va opsion yordamida xedjirlash;
- foiz xatarlaridan kutiladigan zararlarni qoplash uchun zahiralar tashkil qilish;
- foiz xatarlarining eng kam me'yorini aniqlash va bu tur xatarlar bo'yicha limitlar o'rnatish.

Foiz darajalarining kelajakdagi o'zgarishi bilan bog'liq tahlillar nafaqat miqdor ko'rsatkichlarga asoslanishi lozim, balki makroiqtisodiy holat va bundagi o'zgarishlarning iqtisodiy sub'ektlarning tahminlariga ko'rsatadigan ta'siri ham hisobga olinishi lozim. Pul bozoridagi ko'pgina o'zgarishlarga ishtirokchilarning inflyasiya bilan bog'liq kutish va tahminlari sabab bo'ladi. Aynan inflyasion kutish va inflyasiyaning istiqboldagi o'zgarish tahminlari foiz darajalarining kelajakdagi harakatini (dinamikasini) belgilab beruvchi asosiy omildir. Chunki inflyasion tahmin va kutishlar pul bozori sigmentlari o'rtasida mablag'larning aylanishini, muddatini hamda amalga oshiriladigan operatsiyalarning xarakterini belgilab beradi.

Shuning uchun ham foiz darajalaridagi o'zgarishlardan kutiladigan xatarlarni xedjirlashda bir necha usullardan birdaniga foydalanish lozim. Shundagina foiz xatarlarini boshqarish natijalari ijobiy bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, foiz xatarlarini boshqarishning muvoffaqiyati makroiqtisodiy holat bo'yicha etarli va aniq tahlil materiallarining mavjudligiga bog'liq.

Foiz xatarlari bank aktiv va passivlarining foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan ta'sirchanligiga, ya'ni bank aktiv va passivlarining foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan elastikligiga, foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan elastik bo'lgan aktiv va passivlarning miqdori va muddati nuqtai nazardan o'zaro muvofiqligiga bog'liq.

Shunga ko'ra foiz xatarlarini tahlil qilish jarayonida bank aktiv va passivlarini foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan elastikligiga qarab guruhlarga ajratish lozim. Buning uchun avvalo ma'lum bir vaqt oralig'i tanlab olinishi va bu oraliq

bo'yicha foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan elastik bo'lgan aktivlar (RSA - rate sensitive assets) va passivlar (RSL – rate sensitive liabilities) darajasini aniqlash lozim. Ular, ya'ni foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan elastik bo'lgan aktivlar va passivlar o'rtasidagi farq (GAR) bizga foiz va likvidlik xatarini tahlil qilish imkonini beradi.

Agar banklar bir xil muddatga va miqdorda mablag' jalb qilib aktivlarga joylashtirish imkoni bo'lganda edi, bank faoliyatida foiz xatari bo'lmas edi. Ammo qarz beruvchilar qisqa muddatga qarz berishni xoxlashsa, qarz oluvchilar esa uzoq muddatga olishni xoxlashadi, ya'ni bank aktivlarining qaytish muddati uzoq, miqdori kam bo'lsa, passivlarning qaytish muddati esa qisqa, miqdori ham katta bo'ladi. Natijada bank aktiv va passivlarining miqdor va muddatlari o'zaro mos kelmasligi (salbiy farq) yuzaga kelib, banklarda likvid mablag'larning etishmaslik xatari (likvidlik xatari), ya'ni bank tomonidan to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmaslik xatari kuzatiladi. Ko'pgina banklar tomonidan bu xil tadbirlar bank aktiv va passivlarini qayta shakllantirish imkoniyatini yaratish va qayta baholashni amalga oshirish uchun maqsadli ravishda, maxsus amalga oshiriladi.

Foiz xatarlarini baholashda asosan 2 xil usuldan foydalaniladi. Bular, Farq (GAR) tahlili usuli va bankning iqtisodiy tannarxini baholash usulidir.

1. Farq (GAR) tahlili usuli: Farq (GAR - inglizchadan tarjima «farq», «oraliq» ma'nosini bildiradi) deganda foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan elastik bo'lgan aktiv va passivlar o'rtasidagi farq tuShuniladi. Farq (GAR) quyidagi formula yordamida har bir valyuta turi bo'yicha alohida aniqlanadi:

$$\text{Farq (GAR)} = \text{FEA} - \text{FEP}$$

Bu tahlil usulining asosiy shakli bank aktiv va passivlarini qayta baholash muddatlari bo'yicha va kelajakda qaytish miqdori nuqtai nazardan o'zaro mosligiga ko'ra guruhlashtirishdir. Natijada ma'lum bir oraliqda foiz darajalaridagi o'zgarishlarning bank daromadlilik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri haqida taxminlar kilish mumkin bo'ladi.

Tahlil jarayonida foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan elastik bo'lgan aktiv va passivlar miqdorini aniqlash talab qilinadi. Faqat bank aktiv va passivlarini foiz darajalaridagi o'zgarishlarga nisbatan elastikligini aniqlash jarayonida quyidagi xususiyalarga e'tibor berish lozim: 90 kun mobaynida foiz darajalari o'zgaruvchan aktiv va passivlar. Bu tur aktiv va passivlarga o'zgaruvchan foiz darajalari bilan yo'naltirilgan va jalb qilingan kredit va depozitlar kirmaydi.

Shuning uchun ham avvalo foiz xatarlarining tabiatini, kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish lozim. CHunki foiz xatarlari makroiqtisodiy xatar hisoblanadi. Shuning uchun ham foiz xatarlarini likvidlik va valyuta kursi xatarlaridan farqli ularoq to'g'ridan - to'g'ri boshqarish imkoni yo'q.

## **8-mavzu. "Tijorat banklari resurslarini strategik boshqarish"**

- 1. Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishni strategik rejalashtirish.**
- 2. Tijorat banki moliyaviy resurslarini boshqarishda ichki va tashqi muhitning ta'siri.**

## **Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishni strategik rejalashtirish**

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari tarmoqlarini kengaytirish ular o'rtasida depozitlar, banklararo kredit va boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb etish uchun raqobatni yuzaga keltiradi. Shunday ekan, banklardan istiqbolni oldindan ko'ra bilish, kutiladigan o'zgarishlar va tashqi ta'sirlarni o'z vaqtida aniqlay olish talab etiladi. Bunda bank faoliyatini strategik rejalashtirish katta ahamiyatga ega. **Strategiya** deganda, tub ma'noda, olib borilayotgan faoliyatni mujassamlashgan rejalashtirish siyosati tuShuniladi. Strategik boshqarish inson salohiyatiga tayanib, faoliyatni mijozlar talablariga muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, raqobatda ustunlikni ta'minlaydigan o'zgarishlarni o'z vaqtida amalga oshiradi. Bank faoliyatida esa, bankning aniq maqsadlarga erishishiga imkon berib, uning uzoq muddat davomida faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. *Tijorat banklari moliyaviy resurslarini strategik boshqarish* - bu omonatchilar va boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb etish va mazkur bank uchun mablag'lar manbalarining tegishli kombinatsiyalarini belgilash bilan bog'liq faoliyat bo'lib hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish hamda moliyaviy resurslar boshqarilishini strategik rejalashtirish, umuman olganda, quyidagicha bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Bankning missiyasi hamda uzoq muddatli maqsadlarini belgilash;
2. Muhit hamda omillar tahlili;
3. Bankning kuchli va kuchsiz tomonlari hamda imkoniyat va xavf-xatarlar tahlili;
4. Bankning qisqa muddatli maqsadlarining belgilanishi;
5. Muqobil strategiyalar ishlab chiqib, ular ichidan eng maqbulini tanlash;
6. Strategiyani amalga oshirilishi;
7. Strategiyani bajarilishiga baho berish va nazorat olib borish.

Yuqorida keltirilgan bosqichlar ideal ko'rinish sifatida qabul qilinmasligi lozim, chunki vaziyatga qarab ularning tarkibi va ketma-ketligi farqli bo'lishi tabiiydir. Turli adabiyotlarda ham bu bosqichlar turlicha berilishini kuzatishimiz mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, muvoffaqiyatli strategiyaning tanlanishi, avvalambor, muhit hamda bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarning tahlili sifatiga bog'liq.

Tijorat banki moliyaviy resurslarini boshqarishda ichki va tashqi muhitning ta'siri, ularning ta'sirini kamaytirish orqali moliyaviy resurslarni boshqarish

Tijorat banklari o'z faoliyatini samarali asosda tashkil qilishi uchun muhit, ichki va tashqi omil tahlilini amalga oshirib borishi va uning salbiy ta'sirini kamaytirish choralarini ko'rishi lozim. Bank faoliyatida shakllangan muhit uning moliyaviy resurslarini boshqarish darajasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bank tomonidan boshqarilishi yoki ta'sir ko'rsatilishi mumkin bo'lgan omillarga ichki omil, bankka bog'liq bo'lmaganlarga esa tashqi omillar deyiladi. Moliyaviy resurs

manbalarini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadigan omillarga quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

**Tijorat banki moliyaviy resurslarini boshqarishga ta'sir o'tkazuvchi ba'zi ichki va tashqi omillar.**

<b>Ichki omillar</b>	<b>Tashqi omillar</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Yangi axborot texnologiyalardan foydalanish darajasi;</li> <li>• Boshqaruvchilar va xodimlar malakasi, ularning ishga munosabati;</li> <li>• Boshqaruv tizimi, tashkiliy tuzilishi;</li> <li>• Bank holati (bank obro'si, kapital hajmi, aktivlar sifati va bq.);</li> <li>• Boshqalar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqtisodiy vaziyat;</li> <li>• Siyosiy jarayonlar;</li> <li>• Qonunchilik;</li> <li>• Aholining bankka ishonchi;</li> <li>• <b>Aholi daromadlari, mintaqaning rivojlanganlik darajasi;</b></li> <li>• Infrastrukturaning shakllanganlik darajasi;</li> <li>• Markaziy bank siyosati;</li> <li>• MB tomonidan tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan talablar;</li> <li>• Inflyasiya, foiz stavkasidagi kutilmagan o'zgarishlar yoki nobarqarorlik;</li> <li>• Boshqalar.</li> </ul>

Bunda tijorat banklari operatsiyalarining avtomatlashtirishi moliyaviy resurslarni boshqarishga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi. *Birinchidan*, moliyaviy resurslar holati to'g'risidagi axborotni boshqaruvchilar yoki boshqa aloqador shaxslar tomonidan istalgan paytda olish imkoniyati tug'iladi. Bu esa samarali qarorlar chiqarish imkoniyatini yaratadi. *Ikkinchidan*, moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Bunga turli xil haqlarni avtomatik ravishda o'tkazilishi, aholiga internet orqali xizmatlar ko'rsatish kabilarni keltirib o'tishimiz mumkin. *Uchinchidan*, uzoq muddatli davrda bankning operatsion xarajatlari kamaytirilishiga erishiladi.

Boshqaruvchilar va boshqa xodimlarning bilim darajasi va malakasi ham juda muhim omil hisoblanadi. Agarda xodimlar etarlicha bilim va malakaga ega bo'lishmasa faoliyat samaradorligi pasayadi, yangiliklarning amaliyotga tezlik bilan joriy qilinishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham, bank xodimlari eng so'nggi bank operatsiyalari, texnologiyalari bilan tanishtirib borilishi yo'lga qo'yilishi, ular bilimlarining zamon talablariga moslab borilishi ta'minlanishi lozim. Bu masalaning birinchi tomoni, boshqa muhim tomoni esa xodimlarning yaxshi ishlashi uchun turli motivatsion choralar ko'rib borilishi lozim. Agar bankda bu borada sustkashlikka yo'l qo'yilsa, malakali kadrlarning ham ish samaradorligi, tabiiyki, pasayadi. Samaradorlikni oshirish uchun xodimlar ish haqi ko'rinishida rag'batlantirib borilishi, lovozim darajalari ham oshirilib borilishi va

boshqa choralar ko'rilishi talab etiladi. Bunda individual maqsadlarning ham amalga oshishi ta'minlanishi lozim.

### **Tijorat banki moliyaviy resurslarini boshqarishda ichki va tashqi muhitning ta'siri.**

Bankning tashkiliy strukturasi va boshqaruv tizimi Shunday tuzilishi kerakki, unda barcha jarayonlarning o'zaro muvofiqligi ta'minlanishi lozim. Boshqacha aytganda, barcha tarkibiy bo'limlar umumiy maqsadga erishish yo'lida xizmat qilishi lozim.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar bank tomonidan o'rganilib, vujudga keladigan muammolar qisman yoki to'laligicha bartaraf qilinishi mumkin.

Bank faoliyati davomida kuzatiladigan tashqi omillarning hamda yuzaga keladigan tashqi muhitning bankka ta'sirini to'laligicha bartaraf qilinishi juda qiyin masala, chunki bu omillar bankning boshqaruv imkoniyatidan tashqaridir. Bu kabi tashqi muhitning bank faoliyatiga ta'siri, faqatgina, kamaytirilishi mumkin xolos. Misol uchun, banklarda inflyasiya darajasi va foiz stavkasidagi o'zgarishlarning ta'sirini kamaytirish uchun turli derevativ qurollar hamda aktiv/passivlarni boshqarish texnologiyalaridan foydalaniladi.

Bank faoliyatini rejalashtirishda, ichki va tashqi muhit hamda bankning ularni salbiy ta'sirini kamaytirishdagi imkoniyatlari o'rganilgach, bankning maqsadlari aniq qilib belgilab olinishi lozim. Keyingi bosqichda esa qo'yilgan maqsadlar miqdorlarda ifodalanishi kerak. Bu jarayonda bank boshqaruvining barcha darajalari qatnashishi, ularning muammolari etiborga olinishi lozim. Bu orqali asosli maqsadlar o'rnatilishi, uning barchaga birdek ta'sunarli bo'lishi hamda turli bo'limlar faoliyatidagi muvofiqlik ta'minlanadi. Keyingi bosqichda esa faoliyatni o'zida batafsil ifoda etuvchi biznes rejalarning tuzilishi bank operatsiyalari ustidan ichki nazorat olib borish imkoniyatini yaratadi. Bundan farqli o'laroq, strategik rejalashtirishda uzoq muddatli davrda bankning maqsadlariga erishishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi muhitlarni o'rganishga (prognozlashga) harakat qilinadi. Strategik rejalashtirish o'z tabiatiga ko'ra mexaniq emas, balki yaratuvchan, o'zgarishlarni o'zida ifodalab borish xususiyatiga ega. Qisqa muddatlarga tuziladigan biznes rejalalar xarajatlar samaradorligini ta'minlashga qaratilsa, strategik rejalalar esa bankning bosh maqsadlariga erishish samaradorligini oshirishga qaratiladi. Shunday bo'lsada ular o'rtasidagi muvofiqlik ta'minlanishi lozim.

Xulosa qilib Shuni aytish mumkinki, kuchli raqobat sharoitida barcha darajadagi rejalarning ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi talab etiladi. Banklarda har tomonlama asosli va real rejalalar ishlab chiqilmas ekan, ularning inqirozga yuz tutishi riski boshqa banklarga qaraganda oshib ketadi.

## **8-mavzu. “Tijorat banklari resurslarini strategik boshqarish”**

**3. Ichki va tashqi muhitlar va omillarning ta’sirini kamaytirish orqali boshqarish.**

**4. Tijorat banklari resurslarini strategik boshqarish usullari**

**Ichki va tashqi muhitlar va omillarning ta’sirini kamaytirish orqali boshqarish.**

Resurslar negizi bank faoliyati uchun birinchi darajali ahamiyatiga ega. Biz bilamizki, tijorat banklari aktiv operatsiyalarini o‘zlarida mavjud bo‘lgan hamda jalb etilgan pul mablag‘lari manbalari doirasidagina amalga oshira oladilar. Binobarin, ayni passiv operatsiyalar aktiv operatsiyalarini xajmi va miqyosini belgilaydi. Bank passivlarini shakllantirish va maqbullashtirish jarayoni, tijorat banklarining resurs salohiyatini tashkil etadigan pul mablag‘larining barcha manbalarini boshqarish sifatini kasb etadi. Banklarning barqaror resurslar negizi uning aktiv operatsiyalar barcha turlarini muvaffaqiyatli ravishda o‘tkazish imkonini beradi. Shu sababli, har bir tijorat banki o‘z resurslari negizlarini oshirib borishga intiladi.

Tijorat banklari qarz mablag‘larini keng jalb etmoqdalar. Qarz mablag‘lari hisobiga aktivlar jami miqdorining 80%dan ko‘prog‘i shakllanadi. Bank operatsiyalaridan olinadigan nisbatan Yuqori bo‘lmagan foyda arzonigina qarz mablag‘laridan, Shu jumladan depozitlardan foydalanish, pirovard natijada aksiyadorlarning maqbul daromad olishlarini ta’minlaydigan miqdorga etishi kerak.

Tijorat banklarning likvidligini boshqarish siyosatini rivojlantiradigan va to‘ldiradigan passivlarni boshqarish nazariyasi quyidagi ikki asosga ega.

Birinchi- tijorat banki likvidlik muammosini qo‘shimcha pul mablag‘larini kapital bozorida sotib olgan holda jalb etish yo‘li bilan hal qilish mumkin. Real tarzda ushbu fikr-mulohaza g‘arb mamlakatlarida amalda ruyobga chiqqan.

Ikkinchi- tijorat banki o‘z likvidligini Markaziy bankdagi keng miqyosda qarzga beraladigan pul mablag‘laridan yoki banklaridan qarzga olinadigan, Shuningdek, evro valyutalar bozoridan olinadigan qarzlardan foydalanib ta’minlashi mumkin.

Tor ma’noda, passiv operatsiyalarini boshqarish deganda zaruriyatga ko‘ra qarz mablag‘larini faol ravishda topish yo‘li bilan likvidlikka bo‘lgan extiyojni qondirishga qaratilgan harakatlar tuShuniladi. Depozit sertifikatlarini joylashtira olishi, xamda evrodollar yoki boshqa mablag‘larni Markaziy bankdan qarzga olishi mumkinligi bankning kam daromadli ikklamchi zaxira aktivlariga kamroq darajada qaram bo‘lishiga imkon beradi. Bu esa, uning foyda olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Lekin bu operatsiyalar tavakkalchilik bilan bog‘liqdir. Passiv operatsiyalarini boshqarishda ushbu qo‘shimcha tavakkalchilikni va bundan tashqari, mablag‘larni jalb etish xarajatlari bilan ushbu mablag‘larni qarzlardan va qimmatli qog‘ozlarga joylashtirishdan olinishi mumkin bo‘lgan daromad o‘rtasidagi nisbatni e’tiborga olishi kerak.

Binobarin, aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarish o'rtasidagi o'zaro aloqalar bankning foyda ko'rish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir

Qisqa muddatli davrda passivlarni boshqarish quyidagi qoidalarga rioya etishni nazarda tutadi:

-aktivlar va passivlarni kamaytirish muddatlaridagi uzilishlar yoki turli vaqt oraliqlaridagi foizlarga sezgir aktivlar va passivlarning hajmlari o'rtasidagi nomuvofiqliklarni sinchkovlik bilan kuzatib borish. Foiz stavkalari dinimikasi xisob-kitob stavkasidan farqli bo'lsa, likvidlikning susayishi xavfi oshadi;

-fondlashtirish manbalari bo'yicha tavakkalchiliklarni diversifikatsiyalash va resurslarni to'ldirishning muqobil tarzidagi xilma-xil manbalarini topish.

### **Tijorat banklari resurslarini strategik boshqarish usullari**

Keyingi yillarda banklar o'z likidliklarini ta'minlash uchun keng miqyosida qarz olishdan foydalanmoqdalar. Qarz mablag'laridan foydalanish ko'lamini kengaytirish keyingi yillarda bank kreditlariga talab oshganligi va talab qilinguncha omonatlar nisbatan sekin ko'payayotganligi bilan belgila-nadi. Iqtisodiy faollik kuchayishi va inflyasiya sur'ati oshishi xo'jalik firmalarning kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarni oshishini anglatadi. Bundan tashqari, firmalar ham, yakka shaxslar xam foiz stavkalarga nisbatan sezgirroq bo'lib qolganlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, "talab qilinguncha" omonat turining ko'payishi sekinlashadi. Buning oqibatida banklarning mablag'larga ehtiyoji vaqti-vaqti bilan oshadi. Banklar ushbu vaqtinchalik ehtiyojni xalqaro amaliyotda banklararo kreditlar, zaxira fondlari, REPO bitimlari yoki evrodollarlar bozoridan qarz olish yordamida qondiriladi.

Banklar resurslarini boshqarishning asosiy konsepsiyalaridan biri va juda keng tarqalgan banklararo kreditlar nazariyasi hisoblanadi.

### **Banklararo kreditlar nazariyasi**

Markaziy bank yoki vakil bankdan qarz olish zahiralarning (binobarin, likvidlikning ham) holatini tuzatish uchun mablag'larini safarbar etishning "xisob oynasi" (diskount window) deb nomlanadigan bir usulidir. Zahiralarni baravarlashtirib borishning ushbu usuli keng tarqalmagan bo'lsada, bunday qarzlilar Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi.

Kredit resurslarining o'rnini qoplash muddatlari turlicha. Halqaro amaliyotda 1,3 va 6 oy muddatdagi depozitlar, bir kundan toki bir necha yilgacha eng Yuqori muddatlilari ko'proq tarqalgan. Banklararo kredit jalb etish ikkita usulda: mustaqil ravishda, to'g'ridan to'g'ri muzokaralar yo'li bilan yoki moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladi. Banklarning o'zlari banklararo kredit to'g'risida kelishilgan taqdirda ularning munosabatlarning maxsus shartnoma bilan rasmiylashtiradi.

Bo'sh resurslarni jalb etish to'g'ridan-to'g'ri sotuvchi-xaridor o'rtasida emas, balki vositachi ishtirokida kechadi. Banklarning o'zlari, brokerlik idoralari, fond birjalari, moliya uylari, kredit do'konlari yo'sinida qatnashishlari mumkin.

Evrodollarlar bozoridan qarz olish nazariyasi.



Evrodollarlar bozoridagi qarz olish yirik tijorat banklari uchun iloji bo'lgan passivlarini boshqarish instrumentidir. Undan chet elda filiallari bo'lgan banklar ham, bunday filiallari bo'lmagan banklar ham foydalanadilar. Evrodollarlar-AQSH dollarida ifodalangan va AQSHdan tashqaridagi tijorat banklarida, Shu jumladan, Amerika banklarining filiallarida saqlanadigan qo'yimlar.

Evrodollarlar AQSH bankning amerikalik yoki chet ellik omonatchisi chet eldagi bankka yoki Amerika bankining filialiga mablag' o'tkazganida yuzaga keladi. Ushbu operatsiya o'tkazilishi natijasida AQSH dollarlaridagi yangi depozit majburiyati yuzaga keladi. Mazkur holda AQSH dollarlaridagi qoplanishi shart bo'lgan bank qo'yimlari o'zgarasdan qoladi. Lekin chet elda AQSH dollaridagi yangi depozit majburiyati-evrodollarlar paydo bo'ladi.

Banklar resurslarini boshqarishning konsepsiyalaridan yana biri- zaxira fondlarini olish nazariyasi hisoblanadi.

### **Zaxira fondlarini olish nazariyasi.**

Zaxira fondlarini olish – likvidlikni ta'minlash maqadida kreditdan foydalanishning keng tarqalgan usullaridan biridir. Ushbu fondlar Markaziy bankdagi hisobvaraqlarda saqlanadigan depozit qoldiqlaridir. Kutilmaganda qo'yimlar oqimi kela boshlagan yoki ssudalar qisqargan taqdirda tijorat banklarida ortiqcha zahiralari yuzaga kelishi mumkin. Bu mablag'lar daromad keltirmasligi sababli, banklar ularni qisqa fursatga boshqa banklarga foydalanish uchun berib qo'yadilar. Zaxiralar majburiy hajmini tiklash yoki aktivlar sotib olish uchun mablag'ga muhtoj bo'lgan banklar ushbu ortiqcha mablag'larini bajonidil sotib oladilar. Zaxira fondlariga oid bir kunlik operatsiyalar o'z mohiyatiga ko'ra, ssudalar bilan ta'minlanmagan bo'ladi. Ba'zan banklarning biri boshqasiga davlatning qimmatli qog'ozlarini sotadigan bo'lsa, bitim qaytarib sotib olish to'g'risidagi bitim shaklini kasb etadi. Bunday bitimlar, odatda bir kunlik muddatga mo'ljallanadi. Lekin, ayrim bitimlar, odatda bir kunlik muddati bir hafta yoki hatto, bir necha haftani tashkil etishi mumkin.

### **Qaytarib sotib olish to'g'risidagi bitimlar nazariyasi.**

Zahira fondlariga oid banklararo operatsiyalarga, qo'shimcha ravishda banklar bilan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha dillerlar hamda boshqa investorlar o'rtasida Shularga o'xshash bitimlar amalga oshiriladi. Bu bitimlar qaytarib sotib olish to'g'risidagi bitimlar (repurchase agreements) yoki "peno" deb nomlanadi. Bunday bitimlar aktivlarni sotish, qaytarib sotib olish narxida amalga oshiriladi. Bunday bitimlar vaqtincha bo'sh mablag'lar uchun muhim kanal bo'lib qolgan. CHunki, ularni ikkala tomonning ehtiyojlariga moslashtirish oson. Ular bir kundan bir necha oygacha muddatga tuziladi. CHunki "repo" bitimlari-bank aktivlarni qaytarib sotib olish majburiyatini olgan holda, naqdsiz yo'l bilan sotganida to'lov xaridorning depozit xisobvarag'ini debetlash yo'li yoki boshqa bankka yozib berilgan chek orqali amalga oshiriladi.

Passivlarni boshqarishda bank xizmatlari bozorini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday tahlil ushbu mintaqadagi boshqa banklarning qo'yimlarini jalb etish shart-sharoitlari to'g'risida axborot beradi. Bank quyidagilarni:

-qo'yimlarga oid manfaatliroq shart-sharoitlarni

-Yangi moliyaviy mahsulotlarni  
-qo'shimcha xizmatlarni (masalan, bozor to'g'risidagi axborotni va boshqa kredit muassasalari foiz stavkalarining taqqoslanishi).

-Xizmat ko'rsatishning Yuqoriroq darajasini taklif etsa, raqobatbardoshligi oshadi.

Shundan qilib, tijorat banklarining passivlarini boshqarish kredit muassasasi faoliyatining juda muhim yo'nalishi sanaladi.

## **9-mavzu. "Bank ishida balansdan tashqari moliyalashtirish"**

**1. Banklarda balansdan tashqari moliyalashtirish tushunchasi.**

**2. Bank kafolatlarining tasnifi.**

**3. Bank zayomlari va boshka aktivlarning sekyuritizatsiyasi.**

**4. Bank resurslarini to'ldirish manbasi sifatida zayomlarni sotish.**

### **Banklarda balansdan tashqari moliyalashtirish tushunchasi**

Ko'pchilik rivojlangan davlatlar tijorat banklari yaqin yillarda komission daromad olishga qaratilgan balansdan tashqari faoliyatni sezilarli darajada kengaytirdilar. Mazkur faoliyat kengayishi an'anaviy kreditlash sohasidagi qisqarishlar bilan bog'liq.

Korporatsiyalarning qarz mablaglarini jalb qilish imkoniyatlarining ortishi, ya'ni qimmatli qogoz emissiya qilish orqali qarz jalb qilish, qolaversa nobank sektorining rivojlanishi banklarning kreditlash sohasidagi qisqarishlarga olib keldi.

Balansdan tashqari faoliyatning jadal o'sishga iqtisodiy asos bo'lib bugungi kunda korporatsiyalar yuz tutayotgan moliyaviy risklarning ortishi hisoblanadi. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar (derivativlar) moliyaviy risklarni xedjirlash instrumeni bo'lish bilan birga, balansdan tashqari moddalar qatoriga kiradi.

Balansdan tashqari moddalar aktivlari va passivlariga aloqasi bo'lmagan boyliklar, hujjatlar, topshiriqnomalarni hisobga olish maqsadida qo'llaniladi. Balansdan tashqari moddalar quyidagi bo'limlardan iborat:

-zaxira fondlaridagi pul biletlari va tangalar;

-qarzdorlarning muddatli majburiyatlari va ssudalar;

-bank tomonidan inkasso uchun va yo'ldagi hisob-kitob hujjatlari asosida kreditlar bilan ta'minlash uchun qabul qilingan hisob-kitob hujjatlari;

-qat'iy hisobotda turuvchi blankalar;

-pul belgilarini muomalaga chiqarishga ruxsatnomalar;

-to'lov uchun akkreditivlar va boshqalar;

Balansdan tashqari moddalar banklar balansida Yakuniy balans hisobvaraqaalaridan keyin joylashtiriladi.

Balansdan tashqari moddalar bo'yicha operatsiyalar bankning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi hisobotlarga kiritilmasa ham, bank uchun xatarlidir. Bu xatr ayniqsa mijozning uchinchi shaxsdan olgan kreditini bank tomonidan kafolatlanishida o'z aksini topgan. Agar bank mijozni, uchinchi shaxsdan olgan kreditini qaytarish imkoniga ega bo'lmasa, unga kafillik bergani uchun, bank bu kreditni to'laydi.

### **Bank kafolatlarining tasnifi.**

Xalqaro bank amaliyoti Shuni ko'rsatadiki, 100 yillar davomida banklar aholidan o'zlarining mablag'larini ko'paytirish maqsadida mablag'lar jalb etilgan va qarzlarga asosiy daromad manbai sifatida tayanib qolishgan. Oxirgi yillarda esa banklar oldida jiddiy muammolar paydo bo'lib qoldi, ya'ni omonatchilar jamg'armalari va qarz oluvchilardan qarz mablag'lariga bo'lgan talablar orasidagi farqdan oshishi va odatiy qarz oluvchilar banklardan tashqari yana boshqa foydali kapital quyish manbalarini topishdi. Nobank moliyaviy institutlar (brokerlik, dilerlik, sug'urta kompaniyalari) banklardan farqli ravishda naqd pulni boshqarishning yangi xizmatlarini taklif qilishdi. Buning oqibatida depozitlarning hajmi kutilgandan ko'ra pasaydi va banklar yangi mablag' jalb etish yo'llarini qidirishga majbur bo'linmoqda.

Bir qancha moliyaviy yangiliklar oxirgi vaqtlarda ommaviylashmoqda va ular fondlar o'rtasidagi farqni to'ldirishda keng yordam bermoqda. Bularga aktivlar sekyuritizatsiyasi, qarzlarning savdosi, kredit kafolatlarini chiqarish, kreditda mijozlarning ist'emolini himoyalashni kiritish mumkin.

Bank tashkilotlari va qarz oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarni asosiy tamoyillardan biri bu bank beradigan qarzlarning ta'milanganligidir. Kreditni so'ndira olmaslik riskidan qochish uchun qarzdor ta'minotga ega bo'lishi lozim (ishonch kreditidan tashqari). Belgilangan qonun-qoidalarga ko'ra bank tomonidan beriladigan kreditlar uchun ta'minot bo'lib mol-mulk, qimmatli-qog'ozlar, uchinchi shaxs kafolati, kredit so'ndirilmasligi sug'urtasi hisoblanadi.

Shu tufayli oxirgi yillarda moliyaviy kafolatlar bozori rivojlanmoqda. Kafolatlar qarz beruvchining kreditorlar olgan qarzni sug'urtalash orqali riskdan qochish va moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Moliyaviy kafolatlar qarzdor bankrot hisoblanib shartnomani bajarib bera olmagan taqdirda ham asosiy qarzni va foizlarni vaqtinchalik to'lash uchun mo'ljallangan. Balansdan tashqari faoliyatga asosan kredit kafolat xati, rezerv akkreditiv, tijorat akkreditiv va derivativlar kiradi. Moliyaviy kafolatlarining bir necha xili amalda bo'lsa ham AQSH banklari doirasida kredit xati (KKX) keng tarqalgan KKX bankning balansdan tashqari majburiyati hisoblanadi. Bunday bank yoki nobank tashkiloti

kreditni o'zining jamg'armalari hisobidan depozit shaklida yopadi va ularning joylashtirilishi bank krediti orqali qisartiriladi.


Sekyuritizatsiya bosqichi turli xil darajalardan iborat. Birinchidan riskdan holi daromadli likvidli investitsion kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari jamg'arilishi ko'payadi. Ikkinchidan yaxshi faoliyat yuritish aksiya, obligatsiya shaklidagi qimmatli qog'ozlarning jamg'arilishiga olib keladi. Bu esa real aktivlarga nisbatan moliyaviy aktivlarning oshishi va umumiy moliyaviy aktivlar tarkibida qimmatli qog'ozlar salmog'ini oshiradi.

O'zbekiston moliya bozorida banklar etakchi o'rinni egallashi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining faolmsaligi bank aktivlarining sekyuritizatsiyalashning qo'llanmasligiga olib keldi.

Sekyuritizatsiyalash tamoyili 1970 yillarda paydo bo'lgan va bu orqali bank qarzlari fond bozorida erkin aylanuvchi qimmatli qog'ozlar sifatida aylanadi.

Sekyuritizatsiyada bank daromadli aktivlarning bir qismini ipoteka va iste'mol ssudalariga joylashtiradi va ular ostida qimmatli qog'ozlar emissiya qilib sotadi. To'lash chog'ida daromadni aksiya egalari tomonga qaytaradi va yangi daromadidan foydalaniladi

### **Bank qarzlarni sekyuritizatsiyalash qarzlarni sotishdan tushgan mablag'lar**



### **Bank kafolatlarining tasnifi**

Kredit kafolati xati uchta asosiy elementni o'z ichiga oladi:

- Tashkiliy majburiyati (*bank yoki sug'urta kompaniyasi*);
- To'lovchi tomonidan KKK ni beruvchi;

Benefitsiar odatda bu bank yoki biror investor debitorga berilgan mablag'ning kafolati to'g'risida kayg'uradi.

KKKning asosiy xususiyati Shuki, u balansdan tashqari majburiyat hisoblanadi. Benefitsiar kafolatchidan mablag'ni kamdan kam holda so'raydi.


Bank KKK ikki turga bo'linadi: *to'g'ri* va *egri*.

To'g'ri KKK –qarz oluvchi bankka unchalik ma'lum bo'lmasa qo'llaniladi. Agar bank qarz oluvchining qarzni to'lab borishiga ishonmasa, undan kafolat xati talab qiladi. Odatda bunday kafolat, Shu

ish bilan Shugʻullanuvchi korxonalar tomonidan KXX orqali amalga oshiriladi.

Egri KXX- odatda investorlar guruhi oʻzining asosiy va qarz kapitalini riskli tashkilotga kiritganda qoʻllaniladi. Bunday loyihani moliyalashtirishda har bir investor KXX bilan mustahkamlangan shaxsiy majburiyatlarni jamlaydi. Agar investorlar bankka kredit uchun murojaat qilishga bankning kreditning boʻyicha mutaxassisi ularning har biridan kafolat talab qiladi va benifitsiar huquqlari kafolatlangan KXX imzolanadi, bu egri yoʻl hisoblanadi.

### **KXXning tuzilishi.**



Kreditlashning koʻp yillik tajribasi Shuni koʻrsatadiki, kreditga kafolat sifatida uchinchi tomonning kafolati ham qabul qilinadi.

Bank benifitsiar kafolatchidan bank kafolatini soʻrashi mumkin. Bank kafolati sifatida bank yoki kredit tashkiloti uchinchi shaxsdan majburiyatini toʻlab berishni talab kiladi. Uchinchi shaxs yozma holda bank benifitsiariga uning majburiyatini toʻlab berish toʻgʻrisida kafolat xatini beradi. Bu kafolat benifitsiar oldida qarzdorni oqlaydi va oxirida kafolatchi mukofatlanadi.

KXX ssuda majburiyatlari –bu mijozning oldindan belgilangan qarz miqdorini shartnoma muddti davomida olish huquqini taʼminlovchi bitimdir. Mazkur bitim quyidagilarni oʻz ichiga oladi: qarzning maksimal miqdori, bitim muddati uzunligi va toʻlanadigan foiz stavkalari .

KXX ssuda majburiyatlari bankka qarzga berilgan mablagʻlar uchun foizlardan tashqari qoʻshimcha komission daromad keltiradi.

Mazkur bitim qarzdor tomonidan kredit liniyasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadigan kompensatsion qoldiqni hisobraqamda saqlashni taqozo etadi.

Rezerv akkreditiv - bu uchinchi tomon kafolati bo'lib, bunda kreditga layoqatlikka mas'ul bo'lib mijoz o'rniga bank maydonga chiqadi.

Rezerv akkreditiv asosan tijorat qog'ozini emissiyasini taqsimlash maqsadida foydalanadi. Tijorat qog'ozini 270 kundan kam so'ndirish muddatiga ega bo'lib ta'minlanmagan qarz majburiyati hisoblanadi. Tijorat qog'ozini ta'minlanmagan bo'lganligi sababli u asosan Yuqori reytingga ega bo'lgan korporatsiyalar qisqa bo'lganligidan uni to'lash maqsadi firmalar yangi tijorat qog'ozlarini chiqaradilar. Bozor holatining o'zgarish yoki firma reytingining tushib ketishi tufayli firma yangi tijorat qog'ozlarini sota olmasa, tijorat qog'ozlari bo'yicha majburiyatlarni bajara olmaydi. Maskur riskni yumshatish maqsadida emisya qiluvchi firma to'lovni kafolat rezerv akkreditiv tuzishga kirishadi.

Rezerv akkreditiv firma uchun juda foydali bo'ladi, chunki banklarning reytingi firmaniqiga nisbatan ancha Yuqori bo'ladi.

Tijorat akkreditivdan foydalanish import eksport faoliyatlari bilan bog'liq. Maskur akkreditiv sotuvchi xaridorning kreditga layoqatligiga Shubha bildiganda foydalaniladi.

Akkreditivni tutib turuvchi(eksportchi) uni importchi bankiga akseptlash taqdim qilishi mumkin. Akseptlandi degan shtamp qo'yilish bilan, bank akseptanti deb nomlangan yangi instrument vujudga keladi va u ikkilamchi bozorda erkin momilada bo'lishi mumkin. Hozirda hosilaviy qimmatli qog'ozlarning forvard, fyuchers, opsion, svop turlari moliyaviy risklarning xedjirlash maqsadida bank tomonidan keng foydalanilmoqda.

### **Bank zayomlari va boshka aktivlarning sekyuritizatsiyasi**

Ko'plab rivojlangan malakatlar moliyaviy tizimlari sekyuritizatsiya bosqichida hisoblanishadi, bunda asosiy o'rinni pul bozori va qimmatli qog'ozlar bozori o'ynaydi. Tashkilot mablag'ni, ya'ni bank mijoz va uch tomon o'rtasidagi shartnomani bajarish lozim. KKK ning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

-kredit xati bankka komission xizmati uchun daromad keltiradi (**odatda 0,5** kredit summasidan)

-bu mijozga bankning chegaralangan qarzidan arzonrok qarz olish imkonini yaratadi.

Bu holatlarda esa sekyuritizatsiyalash bilan solishtirilib ko'riladi. Bank aktivlarini qimmatli qog'ozlarga joylashtirishdan yana paketlarga xizmat ko'rsatgani uchun ham haq oladi. Odatda sekyuritizatsiyalash qarzlari ostida shakllangan aktivlaridan olishgan daromadni o'z egasi qo'lga tushishini nazorati hisoblanadi. Bu qo'yilgan aktivlari bilan har bir operatsiyani o'tkazish chog'ida ularni o'z balansidan chiqarishga harakat qiladi, bu esa risk tug'ilganda yoki

foiz stavkasi nominal holga kelganda zararkurishnig oldini oladi. Bank aktivlarning sekyuritizatsiyasi va aksiyadorlarga to'lash chog'idagi foiz stavkalari farqidan ham daromad olishi mumkin.

Mablag'ni shakllantirish uchun sekyuritizatsiyalash hamma bank uchun ham urinli emas. AQSH da qimmatli qog'ozlar chiqarish uchun minimal xarajat 50 mln \$ ni tashkil etadi va kichik banklar bu xarajatni qoplash uchun investorlarni jalb qiladi yoki o'zlarining qarzlardan paket shakllantirib ular orqali ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqaradi.

Qarz bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar investorlarni ham riskliligi bilan jalb qiladi.

Bunday kreditni ta'minlash mablag'lariga masalasi boshqa moliyaviy tashkilotlardan olingan kredit xatlari misol bo'ladi. Bundan tashqari qarzlilar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar risk darajasiga qarab ham guruhlangan bo'ladi va investor u yoki bu risk guruhini tanlaydi. Bank kreditini ta'minlashning boshqa usullari pul mablag'laridan foydalanish hisoblanadi. Ular qarzlardan daromadning olinganligi qimmatli qog'ozlarga quyilmalar, foizlar va boshqa operatsiyalardan hosil bo'ladi.

Qarz bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar investor uchun sotib oluvchi uni ham moliyaviy tashkilot uchun ham (uni chiqargan) qulay lekin bunda malum bir risk katnashadi. Qarzlarning salmog'ining oshib ketishi ularni to'lashda muammo keltirib chiqaradi va kutilayotgan daromadni kamaytiradi o'z navbatida esa asosiy kapitalning daromadliligi va investorning kutilayotgan daromadini ham tushib ketishiga olib keladi.

Qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchi qimmatli qog'ozlarni har doim ham tahlil kilishgaerisha olmaydi, Shu tufayli investorlar bank faoliyatida ishlab chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va tezda to'lovni amalga oshira olishga etibor berish kerak. Agar paketlangan qarzlarning bir qismi tezda to'lansa bu investor uchun muammo keltirib chiqaradi, ya'ni to'lovlar foiz stavkasining tushib ketishi oqibatida yuz beradigan holat bunda investor yana kam daromadli mablag' jalb etishga majbur bo'ladi.

Sekyuritizatsiya riski bilan bog'lik yana bir holat Shuki, foiz stavkalari o'ynash natijasida bugun sotib olingan qimmatli qog'ozlar keyinroq katta daromad keltirishi mumkin. Bankdan qimmatli qog'ozlar sotib olgan investor uni sotishini xoxlasa u keyinchalik bor daromaddan mahrum bo'ladi. Agar foiz stavkalari oshsa kam mikdordagi qarzdorlar o'z qarzlarni tulaydilar Shuning uchun qarzlilar bilan ta'minlangan investitsiyalangan aktivlar o'zini tezda qoplab bera olishi mumkin emas.

Har xil sekyuritizatsiya banklar o'rtasida depozit jalb qilishda ham raqobatni shakllantiradi. Tajribali depozitorlar ular qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali bank depozitlarini sotib olishdan ko'ra

ko'proq daromad olishlarini sezib qolishadi. Sekyuritizatsiya ko'pgina korporatsiyalarga o'z banklari uchun kreditlarni ochiq bozori jalb qilishda ham qo'l keladi.

Banklar kafolat xati beradi va qimmatli qog'ozlarni ochiq bozorda sotish orqali to'g'ridan to'g'ri va komission daromadlar olishadi.

### **Bank resurslarini to'ldirish manbasi sifatida zayomlarni sotish**

Banklar qarzlardan nafaqat qimmatli qog'ozlar chiqarishda balki yangi mablag'lar shakllantirishda ham va ularni yangi egalariga sotish uchun ham foydalanishadi.

AQSH banklarining sotadigan qarzlari odatda 90 kunlik bo'ladi. Bu qarzlari yangi yoki sotuvchining qarzlari balansidan tashqaridan bir qancha vaqt yotgan ham bo'lishi mumkin.

Qoidaga ko'ra bank-sotuvchi yig'ilgan qarzlarga xizmat ko'rsatish va qarzdorlar manfaatiga qarab kam ish haqi uchun (3-8%) ishlaydi. Bunday qarzlarni sotib oluvchilar asosan horijiy va mahalliy banklar, sug'urta, pensiya kompaniyalari. Nobank qarz oluvchilardan esa vaqtinchalik kraynreyn fondlari hisoblanadi.

Qarzlarni qayta sotilishi kuchsizlari «uchinchi dunyo mamlakatlari» hisoblanadi. Argentina, Braziliya, Meksika, Peru, Rimning eski qarzlari o'z narxidan past narxlarda sotiladi. Asosan bunday qarzlarni o'sha davlatda faoliyat yuritayotgan banklar, investitsion xorijiy kompaniyalar sotib oladi. Bir qancha «uchinchi dunyo»ga berilgan kreditlar o'sha davlatlar tomonidan qayta sotib olinganda yaxshi daromad keltirgan.

Ko'pgina qarzlari xozirda qarzlari qatnashishi yoki qarzlarni bo'lish yo'li bilan sotiladi. Qarzda qatnashish shartnomasiga ko'ra bank qarzning bir qismini kreditorlar guruhiga, bu qarzni so'ndirish muddatiga teng muddatga sotadi, bunday paytda savdo o'tkaziladi keyn qarz so'ndiriladi. Odatda qarzda qatnashuvchi bankni qidirmaydi. Qarzlarni bo'lish – uzoq muddatli qarzning qisqa muddatli qarz ko'rinishi hisoblanadi. Qarzni bo'lish chog'ida bank sotuvchi qarz bo'yicha to'lanmaslik riskini o'z bo'yniga oladi va mablag'ining ma'lum qismini Shu qarzni to'lash uchun saqlab kuyishi lozim. Banklarning qarzlarni ko'payib ketishiga bir necha sabablar mavjud. Bunda kam daromadli aktivlar o'z o'rnini foiz stavkalari oshayotgan vaqtda katta daromadli aktivlarga o'z o'rnini foiz stavkalari oshayotgan vaqtda katta daromadli aktivlarga bo'shatib beradi. Bundan olingan foyda bankning boshida daromad mablag'larini moliyalashtirishga ishlatiladi yoki konvertatsiya qilinadi. Bundan tashkari qarzni sotish bank aktivini sekinlashtiradi va bank boshqaruvchisi uchun kreditlash bilan bog'liq risk kamaygan kapital oshgan balansni shakllantirishga imkon beradi. Bu qarzlarni sotib olib, banklar ssuda portfelini diversifikatsiyada yordam oladilar.



Qarzni sotish banklarga investitsion faoliyati ham hisoblanadi, ya'ni bankir o'zining qarzdorning bila olish qobiliyatini investorga sotadi. Investorlar bank qarzlarni sotib olishini xoxlashadi, chunki ular birinchi darajali qarzdor bilan ishlatilayotganii bilishadi. Masalan, bozorda aynan birinchi darajali qarzlarga Yuqori talab bor, agar bu holatda menejer noto'g'ri xarajat qilib o'z qarzlarni sotib kam likvidli aktivlarni olib qolsa, bank daromadi kamayishiga olib keladi.

Alohida hollarda bank-sotuvchi qarzni to'lanmagan qismi bo'yicha izlanish imkoni beriladi. Amalda xaridor «sotuvchi opsiyani» qabul qiladi, bu esa unga bankka ishonchli qarz sotish imkonini beradi. Bu shartnoma to'lanmaslik riskini qarz sotish imkonini beradi. Bu shartnoma to'lanmaslik riskini qarz bo'yicha bo'lishga majbur qiladi. Zamonaviy qarzlarda bunday shartnomalar umumiy qabul qilinmagan. Federal tizim qonunlariga ko'ra izlanish imkoniyatini oluvchi bank etarli qarzni qoplash uchun mablag'ga ega bo'lishi shart hisoblanadi

## **10-mavzu. “Tijorat banklari resurslari va ulardan samarali foydalanish yo'llari”**

- 1. Tijorat banklari resurslarining samaradorlik ko'rsatkichlari.**
- 2. Tijorat banklari resurslarini ko'paytirishning asosiy manbalari.**

### **Tijorat banklari resurslarining samaradorlik ko'rsatkichlari**

Tijorat banklarining resurslarini boshqarishning asosiy ko'rsatkichlari va uslubiyatlaridan tijorat bankning har kunlik ishi bankning o'z likvidligini saqlashga qaratilgan, uning sharti bo'lib mijozlar oldidagi majburiyatlarni to'xtovsiz bajarish, demak o'zini saqlay bilish hisoblanadi. Tashkiliy nuqtai nazardan, balans passiv va aktivining alohida gruppalari va moddalarining ma'lum ko'rsatkichlarida belgilangan nisbatga rioya qilishni taqozo etadi. Bunday ko'rsatkichlar tashqi va ichki ko'rsatkichlardan iborat. Tashqi ko'rsatkichlar-Markaziy bank tomonidan amal qilinayotgan qonunchilikka asosan o'rnatiladi. Ular tijorat banklari faoliyatini davlat tomonidan boshqarish shaklida namoyon bo'ladi.

Ichki ko'rsatkichlar esa - bank barqarorligini ta'minlovchi umumiy nisbatlarni aniqlab beradi. Masalan, joriy likvidlik ko'rsatkichi likvid mablag'lar umumiy summasining bank talab qilinguncha raqamlari bo'yicha majburiyatlariga nisbati aniqlab beradi. Uning mijozlarga hisob-kassa xizmatlarini ko'rsatayotgan banklar uchun qiymati – 0,2 ga teng, ya'ni talab qilinguncha raqam qoldiqlariga mos keluvchi, aktivlarning 20%ni, eng likvid shaklda (bank kassasidagi qoldiqlar, vakillik hisob raqamdagi qoldiqlar shaklida) ushlab turish kerakligini anglatadi. Aktivlarning aniq normasi va undagi alohida likvid aktivlar shakllarining nisbati tijorat banki tomonidan ishning xususiyatini inobatga olgan holda ixtiyori

belgilanadi. Ular ichki likvidlik ko'rsatkichlari bo'lib, bank mutaxassislarning operativ ishi uchun qo'llaniladi.

Ko'rsatilgan ko'rsatkichlarni ishlab chiqishda va likvidlikni boshqarishda omillar kompleksi inobatga olinadi. Ularni asosiy to'rt guruhga bo'lish mumkin:

1. Bank mijozi faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiquvchi tasodifiy va favqulotda omillar:

2. Ishlab chiqarish va qayta ishlashga ta'luqli mavsumiy omillar:

3. Ish aktivligini tebrantiruvchi davriy omillar:

4. Fan-texnika progressi, investitsion jarayonlar va iste'molning siljishiga bog'liq bo'lgan uzoq muddatli omillar.

Mazkur ko'rsatkichlar bankning bevosita ishi hisoblanmaydi va tijorat banki faoliyatining yo'nalishini ta'minlovchi "cheklashlar" rolini bajaradi.

Tijorat banklar uchun ham, boshqa ixtiyoriy muassasalar kabi, likvidlikning umumiy asosi bo'lib, foydalilikni ta'minlash hisoblanadi.

Shuning bilan birga, tijorat banklarining mijozlar mablag'larini ishlatish hususiyati o'ziga xos likvidlik ko'rsatkichlarini ishlatishga undaydi. Tijorat bankining umumiy va o'ziga xos likvidligi bir-birini to'ldirsada, ba'zan ularning yo'nalishlari qarama-qarshi bo'ladi. Maksimal o'ziga xos likvidlikka, boshqa aktivlarga nisbatan kassa va korrespondent raqamlar maksimal bo'lganda erishiladi, ammo aynan Shu holatda bank foydasi minimal bo'ladi. Foydaning maksimallaShuvi mablag'larni saqlash emas, balki aktiv operatsiyalarga ishlatishni talab qiladi. O'z navbatida, kassa va korrespondent raqamdagi qoldiqni minimallashtirishga olib kelgani uchun mijozlar oldidagi majburiyatga havf-hatar tug'diradi. Demak, bank likvidlikligini boshqarish umumiy majburiyat va likvidlik spetsifikasiga keskin va chambarchas bog'liq bo'ladi.

Likvidlikni boshqarishning maqsadli funksiyasi Shundan iboratki, tijorat banki o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga majburiy rioya qilish bilan birga foydani maksimallashtirishga erishishi kerak. Bunday ishni amalga oshirish operativ-informatsion ta'minotni talab qiladi. Bank o'zida mavjud bo'lgan likvid mablag'lar va qisqa vaqtda to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar haqida operativ ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bunday tuShumlar va to'lovlar haqida ma'lumotni grafik shaklda ko'rish maqsadga muvoffiq bo'ladi va mazkur davrda kreditlarga taklif uchun asos yaratiladi. Foydaning maksimallaShuvi tuShumlarning ko'payishi va xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Biroq, bu ko'rsatkichlarga bo'ysunish tijorat banki uchun o'ziga xosdir. Ular o'z ichiga bank oborotining yalpi tuShumini emas, balki foydaning shakllanishi va ishlatilishini ta'minlaydigan qismini oladi. Kreditlar berish oborotning asosiy elementi bo'lib hisoblanadi va uning qaytarilishi toraygan qiymat harakati qonuni bilan boshqariladi.

Bank foydasining yalpi hajmi hizmat hajmiga va ularning narhiga bog'liq. Bu faktorlarning harakati, tabiiy bozor kon'yunkturasi ta'siridan tashqari, likvidlikni ta'minlashning spetsifik talabiga bog'liq.

Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining hajmi o'z va jalb qilingan mablag'lar hajmi bilan aniqlanadi. Biroq bank faoliyatini boshqarish ta'moyillariga qarab bu mablag'larning jami summasi (tarkibidan bino, inshootlar va boshqa material

resurslar chegirib tashlanganda) kreditlash uchun ishlatilmaydi. Shuning uchun bankning maqsadi bo'lib, aktiv operatsiyalarga yo'naltirilgan samarali resurslar hajmini aniqlash hisoblanadi. Samarali resurslar hajmini hisolash uchun quyidagi formula o'q'laniladi:

$$SKRq Uf + O'mq + D + Hrq + Bjr - Lpa - 0,15(D + Hrq) - 0,2Xrq$$

Bu erda:

SKR - samarali kredit resurslari;

Uf - ustav fondi;

O'mq - o'z mablag'lari qoldig'i;

D - depozitlar;

Xrq - hisob-kitob va bank mijozlarining boshqa hisob raqamlardagi qoldiqlari;

Bjr - boshqa jalb qilingan resurslar;

Lpa - bank binosi va boshqa past likvidli aktivlarga qo'yilgan resurslar.

Keltirilgan formulaga asosan, samarali resurslar hajmi bank balansi passivining umumiy summasidan (aktivlarga joylashtirilgan qo'yilmalardan tashqari - bino va boshqa asosiy vositalar bo'lib, ular qimmatbaho qog'ozlar bozori rivojlanmagan holda, mablag' sifatida ajratila olinmaydi va kredit o'q'yilmalarga yo'naltira olinmaydi) majburiy rezervga jalb qilingan mablag'lar qoldiqlari ((depozitlar qoldig'idan 15%, - 0,15 (D + Xrq)) va ularni ssudalar berish uchun ishlatilishini taqiqlovchi (0,2Xrq) likvid aktivlarga joylashtirilgan summasining taffovuti orqali aniqlanadi.

Likvidlikni boshqarishning maqsadli funksiyasini o'q'llash endi faoliyatini boshlagan banklar uchun resurslarni etarlicha joylashtirishdan iboratdir, ya'ni resurslar hajmini o'rnatish va bo'sh resurslarni taqsimlash, Shuningdek resurslar defitsitini qoplash manbasining hajmini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bo'sh resurslar hajmi - (BRX), Shuningdek resurslar defitsiti -(Rd) samarali kredit resurslar summasi va haqiqatdagi kredit qo'yilmalarining (XKQ) tafovuti orqali aniqlanadi:

$$BRX(Rd) q SKR - XKQ$$

Bo'sh resurslarni joylashtirish vaqt omilini inobatga olib amalga oshiriladi. Buning uchun resurslarni kredit qo'yilmalarning muddati bo'yicha taqsimlash zarur. Kredit resurslarini ishlatish muddati bo'yicha taqsimlash, bank balansining passivlari strukturasi aks ettiradi. Ko'rsatuvchiga qaytariladigan resurslar, hisob-kitob va boshqa mijozlar raqamlaridagi muddatsiz qoldiqlarni o'z ichiga oladi. SHartnomada ko'rsatilgan muddatli depozitlar, resurslar ishlatilishining aniq davrini o'rnatish mumkinligini ko'rsatadi. Muddatsiz resurslar gruppasini bankning o'z mablag'lari tashkil etadi. Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tijorat banklarining iqtisodiy normativlarining koeffitsient metodi tahlili asosida ekspress-metodika koeffitsientlarini ko'rib chiqamiz.

### **Koeffitsient metodi taxlili asosida ekspress-metodika. Analitik koeffitsientlar.**

Ko'rsatkichlar	Qiymati	Qiymati	
		Ruhsat etilgani	Kritik
<b>Barqarorlik</b>			
O'm foizda	$O'm/BV \cdot 100\%$	Min 8	Min 3
Tqq foizda	$Tqq/BV \cdot 100\%$	Min 7-10	Min 2-2,5
Mq foizda	$Mq/BV \cdot 100\%$	Max 65	Max 80
Bm+YUrq foizda	$(Bm \cdot YUr.q)/BV \cdot 100\%$	Max 75	Max 85
yordamchi ko'rsatkichlar			
Kpz1	$Mo'q/BV \cdot 100\%$	Max 3,5	Max 7
Kpz2	$Mo'q/So'zm \cdot 100\%$	Max 1,75	Max 2,5
Kpz3	$Mo'q/BV \cdot 100\%$	Max 10	Max 18
Likvidlik			
Kml	$LA/Tqq \cdot 100\%$	Min 70	Min - 30
yordamchi ko'satkichlar			
Kmql	$(LA-Tqq)/Mq \cdot 100\%$	Min 25	Min -50
Kmqul	$(LA+Qq-Tqq)/Mq \cdot 100\%$	Min 50	Min - 25

Bu erda:

O'm - o'z mablag'ari;

Tqq - talab qilinuvchi qo'yilmalar;

Mq - muddatli qo'yilmalar;

Bm - berilgan mablag'lar;

LA - likvid aktiv;

BV - balans valyutasi;

YUrq - Yuqori riskli qo'yilmalar;

Kq - kapital qo'yilmalar;

Mo'q - muddati o'tgan qarzdorlik;

So'zm - sof o'z mablag'lari;

Bank ssudalari bo'yicha foiz darajasi pul bozorining tebranishlari pulga talab va taklifning o'zgarishi orqali aniqlanadi. Ammo, pulga talab va taklifni konstanta deb faraz qilsak, tijorat banklari tomonidan beriladigan kredit narhi baza foiz stavkasining darajasini va foiz marjasining hajmini aniqlab beradi.

Baza foiz stavkasi tijorat banklarining passivlari bo'yicha to'layotgan foiz darajasidan tashkil topadi. Umumiy tayanch foiz stavkasi - (UBFS) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{УБФС} = \frac{\text{СРК} \times \text{ПТФС}}{\text{СРК}}$$

PTFS - passivlar turiga qarab foiz stavkalar.

SRQ - samarali resurs qiymati.

Umumiy tayanch foiz stavkasi analitik maqsadga ega bo'lib, kredit takliflari paketini baholash uchun ishlatiladi. Aniq ssudalar berishni echishda kreditning bazaviy narhi - (KBN) ko'rsatkichini ishlatish kerak. U vaqt faktorini inobatga olib o'rnatiladi va ssudani ishlatish davri - (T) deb belgilanadi.

Kreditning aniq narhini aniqlash uchun tayanch narhga marja o'oshiladi. Uning hajmini hisoblash asosida minimal kerakli daromad hajmi yotadi - (MDH). U bankning harajatlar summasi -(BX) va minimal kerakli foyda summasi - (MF) bilan aniqladi.

Xarajatlar, bank faoliyati uchun sarflar: kredit resurslar uchun to'lovlar, ishchi-hizmatchilarning maoshlari, arenda to'lovi, bino va inshoot uchun amortizatsiya, xo'jalik-operatsion va boshqa sarflar orqali aniqlanadi. Buning uchun alohida metodikadan foydalanish shart emas.

Foyda summasini hisoblash asosida o'z kapitaliga to'g'ri keladigan daromad summasi yotadi. Uning darajasi passivlar bo'yicha to'lanadigan baza foiz stavkasidan kam bo'lmasligi kerak.

O'z kapitaliga daromad normasining o'rnatilishida, imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan daromad darajasini ham inobatga olish kerak. Daromatlilikning o'rtacha normasining o'z kapital hajmiga nisbati dividendlar to'lashga qaratilgan foyda miqdorini aniqlab beradi va kerakli foydaning umumiy summasini hisoblash uchun asos hisoblanadi. Dividentlarga to'lanishi kerak bo'lgan foyda massasiga o'uyidagilarni qo'shish kerak:

- Bank zahira fondiga ajratma (ZF);
- Byudjetga to'lovlar (BT);
- Maqsadga muvofiq iqtisodiy rag'batlantirish fondining minimal hajmi (MMRF).

Bu erda bank daromadining minimal hajmi o'uyidagi formula bilan topiladi:

$$\text{MDH} = \text{BX} + \text{MF} + \text{ZF} + \text{BT} + \text{MMRF}$$

Foiz marjasining miqdorini aniqlash uchun daromadni kredit o'oyilmalar hajmiga bo'lish kerak:

$$\Phi\text{M} = \frac{\text{MDX}}{\text{KK}} \times 100\%$$

Mijozlarga kredit berish, soʻralayotgan kreditning tayanch narhi va foiz marjasini (FM) inobatga olib amalga oshiriladi. Masalan, agar formulaga asoslanib hisoblangan marja 3,3 %ni tashkil etsa, u holda kreditning real narhi (Yuqorida hisoblangan baza narhi 9,3 % ni tashkil etsada,) 12,6 % ni tashkil etadi. Bozor konʻyunkturasiga asosan kreditning haqiqatdagi narhi bank tomonidan hisoblangan haqiqiy narhidan Yuqoriroq yoki pastroq boʻlishi mumkin. Oxirgi holatda tijorat bank likvidlikni boshqarish boʻyicha, umumiy likvidlikni taʼminlash uchun qoʻshimcha choralar (Xarajatlarni kamaytirish orqali rezervlar yigʻish, passiv operatsiyalarning strukturasi oʻzgartirish va hokazo) topishga majbur boʻladi.

Bank likvidligini aniqlash uchun asosiy va qoʻshimcha koeffitsientlardan foydalanish mumkin. Asosiy koeffitsient boʻlib, daqiqaviy likvidlik hisoblanadi. Qoʻshimcha koeffitsientlarga: - muddatli majburiyatlar boʻyicha likvidlik koeffitsienti va muddatli majburiyatlar boʻyicha umumiy likvidlik koeffitsienti kiradi. Qoʻshimcha koeffitsientlar bank koʻrsatkichlari chegaraviy qiymatga teng boʻlganda hisoblanadi.

Likvidlikning hisob-kitobiga quyidagi balans aktivlari va passivlari guruhlari kiradi:

- Aktivlar:
- Likvid mablagʻlari;
- Kapital qoʻyilmalar;
- Passivlar:
- Talab qilinguncha qoʻyilmalar;
- Muddatli qoʻyilmalar.

Laxzalik likvidlik koeffitsienti (Kll) - bankning talab qilinguncha majburiyatlarini bir-ikki kun ichida toʻlay olish qobiliyatini koʻrsatadi. Talab qilinguncha majburiyatlarning birdaniga talab qilinishi ehtimoli juda kichik. Ammo, agar bank oʻz faoliyatida qiyinchilikka duchor boʻlsa, mijozlar oʻz mablagʻlarini olishi, zanjirli xarakterga ega boʻladi va bank oʻz majburiyatlarini operativ toʻlay olmasligi ish faoliyatiga katta salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Laxzalik likvidlik koeffitsienti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kll = \frac{qLA}{Tqq} \cdot 100\%$$

Agar olingan natija 100%dan Yuqori boʻlsa, talab qilinguncha raqamlardagi hamma mablagʻlar olingan holatda ham, bank toʻlovga qobiliyatlikni saqlab qolib, oʻz majburiyatlarini bajara oladi. Bu koeffitsient, banklarga mijozlar topshiriqnomaga berganda, qanchalik toʻlovni tez amalga oshirishi mumkinligini koʻrsatadi va asosan kassa-hisob xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar uchun katta qiziqish uygʻotadi. Mazkur uslubiyat boʻyicha laxzalik likvidlik koeffitsienti (Kll) 30% dan oshib ketayapti (boshqa uslubiyat boʻyicha - 40% atrofida), bank joriy operatsiyalar boʻyicha toʻlovlarni amalga oshira oladi. Mezon qiymati - 30% boʻlishi kerak.

Muddatli qoʻyilmalar boʻyicha likvidlik koeffitsienti - Kmml muddatli qoʻyilmalarning qaysi qismi kafolatlanganligini koʻrsatadi va quyidagicha topiladi:

$$Kmql = \frac{q(LA - Tqq)}{Mq} \cdot 100\%.$$

Mq – muddatli qoʻyilmalar;

Qoida bo'yicha, muddatli majburiyatlar talab qilingan paytda, bankka avvalroq talab qilinguncha majburiyatlar to'lanishi uchun qo'yilgan bo'lib, bankda likvid aktivlarning bir qismi qolgan bo'ladi. Haqiqatda, esa vaziyat sal boshqacha bo'ladi. Likvid aktivlar bilan birga muddati etgan ssudalar qaytarilgan bo'ladi (muddati o'tgan ssudalardan tashqari) va majburiyatlarni bajarish darajasi o'sadi. Ammo, berilgan ssudalar bo'yicha balans raqamlari muddati bo'yicha tuzilmaydi va balansni tahlil qilib, berilgan ssudalarning qaysi qismi qaysi muddatga qo'yilganligini aniqlab bo'lmaydi. Aynan Shunday holat uchun koeffitsient hisoblanadi.

Agar koeffitsient birdan katta bo'lsa, bank o'z majburiyatlarini barcha mijozlari oldida bajara oladi. Agar koeffitsient bir va nol orasida bo'lsa, bank o'z majburiyatlarini qisman bajara oladi va bitimlar muddati asosiy rol ni o'ynaydi. Bitimlar muddati qancha qisqa bo'lsa, bankning mijozlariga bo'lgan majburiyatlari Shuncha tez bajariladi. Agar koeffitsient birdan kichik bo'lsa, bank o'z majburiyatlarini faqat berilgan ssudalar qaytgandan so'ng bajara oladi. Bu koeffitsientning ruhsat etilgan qiymati - 25% ga va mezon qiymati «minus 50%» ga teng.

Muddatli qo'yilmalar bo'yicha umumiy likvidlik koeffitsienti ( $K_{mql}$  - muddatli majburiyatlarning qaysi qismi likvid aktivlar va kapital qo'yilmalar bilan qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi. ( $K_{mql}$ ) dan farqli umumiy likvidlik koeffitsienti ( $K_{mql}$ ) muddatli majburiyatlarning eng maksimal qismi bank bajarishi mumkinligini ko'rsatadi.

$$K_{mql} = \frac{LA + Kq - Tqq}{Mq} \cdot 100\%$$

$K_{mql} = 50\%$  - ruhsat berilgan qiymati,  $25\%$  - kritik qiymati hisoblanadi. Yirik banklar uchun yordamchi koeffitsientlarning ruhsat berilgan va kritik qiymatini o'rnatish murakkab, chunki likvidlikni xarakterlovchi jarayonlar modelda aytib o'tilgandan ozgina farq qiladi. Shuning uchun bu banklar uchun bunday koeffitsientlar ma'lumotnoma xarakteriga ega bo'lish mumkin.

### **Tijorat banklari resurslarini ko'paytirishning asosiy manbalari**

Kredit resurslari tuzilmasi. Bozor munosabatlariga o'tish tijorat banklarining resurslar tarkibini jiddiy o'zgartirib yubordi. Muayyan tijorat banki resurslari tarkibi uning ixtisoslashtirish darajasiga yoki aksincha, universallashtirish darajasiga, uning faoliyati xususiyatlariga, ssuda resurslari bozori ahvoriga bog'liqdir. Rossiyadagi o'rtacha tijorat bankining resurslar tarkibi quyidagilardan iborat:

- o'z mablag'lari;
- depozitlar;
- banklararo jalb qilingan mablag'lar;
- jalb qilingan boshqa mablag'lar.

O'z mablag'lari. Bankning o'z mablag'lari ustav sarmoyasi, jamg'armalar va taqsimlanmagan foydadan iborat bo'ladi.

Ustav sarmoyasi - korxonalar, tashkilot va birlashmalar badallari hisobiga shakllanadi, aksiyalarning nominal qiymatidan tashkil topadi va bank majburiyatlarining asosiy ta'minoti bo'lib xizmat qiladi.

Bank Kengashi bank fondlarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to'rtinchi idagidagi nizomlarni o'zi mustaqil tasdiqlaydi.

Zahira jamg'armasi bankning o'zi amalga oshirayotgan operatsiyalari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarini qoplashga mo'ljallangan. Zahira jamg'armasining eng kam miqdori kredit tashkilotining ustavida belgilab qo'yiladi, biroq u ustav sarmoyasi miqdorining 15 foizidan kam bo'lmasligi lozim. qonunchilikka muvofiq holda foyda hisobidan jamg'armaga yo'naltirilayotgan ajratmalar zahira fondini shakllantirish manbai hisoblanadi.

Shuningdek, banklar maxsus fondlarni ham tashkil etadilar. Bular amortizatsiya ajratmalari yo'li bilan tashkil etiladigan «Asosiy vositalarning eskirishi», «Banklararo jalb qilingan mablag'larning kamayishi» jamg'armalari hamda olingan foyda hisobidan vujudga keltirilgan iqtisodiy rag'batlantirish jamg'armalaridir.

Joriy yildagi sof foyda - bu barcha soliqlar va yig'imlar to'lab bo'linganidan so'ng bank ixtiyorida qoladigan foyda summasidir.

Jahon tajribasida bankning o'z mablag'lari (sarmoyasi) miqdorini aniqlashning turli usullari mavjud. U yoki bu usulda hisoblangan sarmoya miqdori ham turlicha bo'ladi.

Hisob-kitoblarda sarmoyani asossiz ravishda oshirib yuborish bankning ahvoli barqarorligi haqidagi yolg'on axborotga va Shu orqali omonatchilar, aksiyadorlarning, Shuningdek bankning o'zini ham aldanishiga olib keladi. Zero, bank o'z sarmoyasining katta miqdordaligidan kelib chiqqan holda aktiv operatsiyalarini kengaytirib yuboradi va Yuqori darajadagi tavakkalchilikka duchor bo'ladi. Aksincha, bank sarmoyasi miqdorini aniq o'lash uslubi uning sun'iy ravishda kamaytirilishiga olib kelsa, bu holda aktiv operatsiyalar ko'lamining torayishi kuzatiladi va o'z navbatida olinadigan foyda ham kam bo'ladi.

Ma'lumki, bank kapitalining etarlilik miqdoriga aktiv operatsiyalarining hajmi, tarkibi, sifati va xususiyati ta'sir ko'rsatadi. Bankning ko'proq tavakkalchilik bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishga ixtisoslashuvi nisbatan katta miqdordagi o'z mablag'lariga ega bo'lishni taqozo etadi, va aksincha bankning kredit portfelida kam tavakkalli ssudalarning ko'pligi o'z sarmoyasini nisbatan kamaytirish imkonini beradi. Bank uchun zarur bo'lgan o'z sarmoyasi miqdori uning mijozlari xususiyatlariga ham bog'liqdir. Chunki, bank mijozlari ichida ko'p kredit oluvchi yirik korxonalarining ko'pligi bankdan aktiv operatsiyalari hajmi Shu darajada qolgan holda o'z mablag'lari miqdorini ko'p sonli mayda mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashayotgan bankka qaraganda keskin oshirishni talab etadi. Chunki, birinchi holatda bankning bir qarz oluvchi hissasiga to'g'ri keladigan tavakkalchilik darajasi yuqori bo'ladi.

Bank sarmoyasi va aktivlar portfeli nisbati (Sarital- to assets ratio) sarmoyaning etarlilik o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. O'tgan o'n yillar



mobaynida jahon bank amaliyotida ushbu ko'rsatkich turli o'zgarishlarni boshdan kechirgan. 80-yillarda bank sarmoyasini baholash uslubi xalqaro moliya Tashkilotlarning munozara mavzuiga aylandi. Maqsad - qaysi mamlakatga talluqliligidan qat'iy nazar bank hamjamiyati sub'ektlari uchun qo'llaniladigan sarmoya etarliligining umumiy mezonlarini ishlab chiqishdan iborat edi. 1988 yilda tartibga solish va nazorat uslublari bo'yicha Bazel qo'mitasi sarmoya aktivlar nisbati ko'rsatkichlarini hisoblashning yagona tamoyillarini qabul qildi. Bunda tavakkalli aktivlar koeffitsienti (Sarital-to-assets ratio) sarmoya etarliligining bosh umumlashtirilgan ko'rsatkichi hisoblanadi. U quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$\begin{array}{l} \text{Таваккалли} \\ \text{активлар} \\ \text{коэффиц.} \end{array} = \frac{\text{Банк капитали (ўз маблағлари)}}{\text{Таваккалчилик даражаси бўйича чамаланган}} \\ \text{[активлар балансидан ташқари ҳисобрақамлар суммаси]}$$

Formula ko'rsatkichlari tavakkalchilik darajasiga qarab tabaqalashtirilgan aktivlar toifasiga bog'liq bo'ladi va 0 dan 100% gacha bo'lgan doirada o'lchanadi.

Solishtirma salmog'i uncha katta emasligiga qaramasdan bankning o'z sarmoyasi bir nechta hayotiy muhim vazifalarni bajaradi:

Himoya vazifasi. Bank tugatilgan taqdirda omonatchilarga tovon to'lanishini bildiradi.

Tezkor vazifasi. Ma'lumki, bankning muvaffaqiyatli ish boshlashi uchun boshlang'iya sarmoya (start kapitali) zarur bo'ladi. Undan binolar, uskunalar sotib olish, ko'zda tutilmagan yo'qotishlarga qarshi moliyaviy zahiralarni yaratishda foydalaniladi. Ushbu maqsadlar uchun o'z sarmoyasidan ham foydalaniladi.

Tartibga soluvchi vazifasi. Bankning muvaffaqiyatli ish olib borishidan jamiyatning ham manfaatdorligiga, Shuningdek davlat organlariga tartibga solish va nazorat vazifalarini amalga oshirish imkonini beruvchi qonunlar va qoidalarga asoslanadi.

Bank resurslarining umumiy summasida jalb qilingan mablag'lar etakchi o'rin tutadi, ba'zi baholarga ko'ra u 70-80 foizgacha etadi. Ayni paytda bu ko'rsatkich bank faoliyatiga xususiyatiga va vaqtincha bo'sh mablag'larni jalb qilishning yangi usullari paydo bo'lishiga oid o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi.

Jahon bank amaliyotida barcha jalb qilingan mablag'lar ularni jamlash usuliga qarab quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- depozitlar;
- boshqa jalb qilingan mablag'lar.

**Depozitlar.** Depozitlar, ya'ni mijozlar bankka qo'yayotgan pul mablag'lari yoki bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida muayyan vaqt mobaynida bank hisobraqamida turadigan mablag'lar tijorat banki tomonidan jalb qilingan mablag'larning asosini tashkil etadi.

Bank amaliyotida depozitlar va depozit hisobraqamlaridan foydalanish masalasi bo'yicha turlicha va ko'pincha bir-biriga zid nuqtai-nazarlar mavjud. Depozit deganda jahon bank amaliyotida sakdash uchun moliya-kredit yoki bank muassasasiga berilgan pul mablag'lari yoxud qimmatli qog'ozlar tuShuniladi. Banklarda «depozit» tuShunchasi deganda bank omonatlari bilan bir qatorda bojxona to'lovlari, yig'imglar, soliqlar va hokazolarni to'lash uchun kiritilgan badallar ham tuShuniladi.

Biz quyidagilar eng keng qamrovli tuShunchalar, deb hisoblaymiz:

Depozitlar depozit operatsiyalari ob'ektlari bo'lmish jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan muayyan muddatga yoki talab qilinganida beriladigan qilib bankdagi depozit hisobraqamiga kiritiladigan muayyan miqdordagi pul mablag'laridir.



### **Depozitlar turlicha tasniflanadi:**

-omonatchi turiga qarab depozitlarni jismoniy va yuridik shaxslar depozitlariga ajratish qabul qilingan;

-muddatiga va qaytarib olish tartibiga qarab depozitlarni talab qilinganida beriladigan, muddatli va maxsus depozitlarga ajratish qabul qilingan.

Talab qilinganida beriladigan depozitlar turli bank hisobraqamlaridagi mablag'lar bo'lib, ularni egalari (yuridik va jismoniy shaxslar) birinchi talabga ko'ra pul va hisob-kitob xujjatlaridan ko'chirma olish yo'li bilan olishlari mumkin (jahon amaliyotida «op sall hisobraqamlari»). Mamlakat bank amaliyotida talab qilinganida beriladigan depozitlarga quyidagilar kiradi:

-korxonalar va tashkilotlarning hisob-kitob, joriy hisobraqamlaridagi mablag'lar;

-turli maqsadlardagi jamg'armalar mablag'lar;

-hisob-kitoblar jarayonidagi mablag'lar;

-boshqa banklardagi vakillik hisobraqamlaridagi mablag'lar qoldiqlari;

-jismoniy shaxslarning talab qilinganida beriladigan omonatlaridagi mablag'lar;

-jamg'arma omonatlari.

**Muddatli omonatlar** - bu hisobraqamlarda turgan va belgilangan muddatga bankka kiritilgan pul mablag'laridir. Banklar omonatchilardan mablag'larni olish uchun maxsus xabarnoma talab qiladilar va muddatidan oldin olishga qarshi jamg'arma yoki to'lanadigan foizni kamaytirish shaklidagi cheklovlarni joriy etadilar. Muddatli depozitlarga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslar depozitlari;
- jismoniy shaxslar depozitlari;
- muddatli depozit sertifikatlari;
- jamg'arma sertifikatlari.

Maxsus deb yuritiladigan omonatlar alohida guruhga kiradi:

- hisob-kitoblar uchun maxsus hisobraqamlarda band qilib qo'yilgan mablag'lar (akkreditivlar, limitlangan chek daftarchasi va boshqalar.);
- maxsus jamg'armalar va maxsus maqsaddi jamg'armalar mablag'lari;
- kreditorlik qarzdorligi;
- hisob-kitob operatsiyalariga oid mablag'lar (banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar jarayonida bo'lgan mablag'lar, faktoring operatsiyasi uchun mo'ljallangan mablag'lar).

Depozitlar Shuningdek, qimmatlashuv darajasiga qarab ham tasniflanadilar:

- bepul (mijozlarning hisob-kitob, joriy hisobraqamlaridagi mablag'lari);
- pulli (depozit hisobraqamlaridagi mablag'lar);
- qimmat (banklararo kredit, Markaziy bankdan olingan kredit).

Depozitlar rasmiylashtirish usullariga qarab quyidagilarga ajratiladi:

- shartnoma bilan rasmiylashtirilgan (yuridik shaxslarning hisob-kitob, joriy hisobraqamlari va depozitlari);
- omonat daftarchasi bilan rasmiylashtirilgan (jamg'arma daftarchasi bilan talab qilinganida beriladigan hisobraqamlar);
- qimmatli qog'ozlar bilan rasmiylashtirilgan (depozit va jamg'arma sertifikatlari, obligatsiyalar, veksellar).

Depozitlar buxgalteriya bo'yicha quyidagicha tasniflanadilar:

Banklararo passiv kreditlar va depozitlar:

- Markaziy bankdan olingan kreditlar;
- kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar;
- nerezident banklardan olingan kreditlar;
- banklarning depozitlari va boshqa jalb qilingan mablag'lari;
- nerezident banklarning depozitlari va boshqa jalb qilingan mablag'lari.

Taluqliligiga qarab depozitlar quyidagilarga ajratiladi:

- byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari depozitlari;
- davlat mulki hisoblangan korxonalar va tashkilotlar depozitlari;
- nodavlat tashkilotlar depozitlari;
- rezident jismoniy shaxslar depozitlari;
- nerezident yuridik shaxslar depozitlari;
- nerezident jismoniy shaxslar depozitlari.

Boshqa jalb qilingan mablag'lar. Xorijiy bank amaliyotida banklar depozitlar jalb qilish bilan bir qatorda pul mablag'larini jalb qilishning boshqa shakllaridan ham foydalanadilar. Nodepozit operatsiyalarining eng keng tarqalgan shakllariga quyidagilar kiradi:

Evrodollar qarzlari (zayomlari) - chetdan qarz olish usullaridan biri bo'lib, u quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

-bozorning joylashuvi - Evropa;

-bozor hajmi yuzlab milliard dollarni tashkil etadi;

-qarz muddati o'rtacha 3-5 yil, bu Jzбекистон mezonlari bo'yicha o'ta uzoq muddatli hisoblanadi. Bu qarz jahon bozorida katta miqdorda taklif etilayotganligi bois eng arzon hisoblanadi;

-evrodollar obligatsiyalari ta'minot talab etmaydi;

-obligatsiyalarni chiqarish aksiyalardan farqli ravishda sarmoyaning tarqalib ketishiga olib kelmaydi.

Rezidentlar uchun qimmatli qog'ozlar chiqarish - tijorat banklari uchun qo'shimcha resurs jalb qilish usullaridan biri hisoblanadi:

-obligatsiyalar chiqarish;

-veksellar chiqarish;

## **10-mavzu. "Tijorat banklari resurslari va ulardan samarali foydalanish yo'llari"**

### **3. Tijorat banklari resurslaridan samarali foydalanish yo'llari.**


### **4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari resurslarini optimal boshqarish tijorat banklari daromadlarini oshirishning omili sifatida.**

#### **Tijorat banklari resurslaridan samarali foydalanish yo'llari**

"Likvidlilik-daromadlilik" dilemmasini hal qilishda aktivlarni boshqarishning uch xil yondoshuvi mavjud. Birinchi usul eng oddiy usul hisoblanadi, ya'ni *resurslarning umumiy fondi* usulidir (pull-of-funds). Ikkinchi usul – *aktivlar taqsimoti yoki resurslar konversiyasi* (asset allocation and conversion of funds). Uchinchi usul - EHM larni qo'llash orqali *boshqarishning ilmiy usuli va tahlilidan* foydalanish. Ushbu usullar aktivlarni boshqarishda har birining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Dastlab, birinchi usulga to'xtalsak. *Resurslarning umumiy fondi* usulida bankning barcha resurslarini birlashtirish g'oyasi yotadi. To'plangan resurslar keyin aktivlarga joylashtiriladi. (kreditlar, davlat qimmatli qog'ozlari, kassadagi naqd pullar va b.) . Ushbu usulning mohiyatini quyidagi chizmadan ko'rib tushunish mumkin.

#### **Resurslarning umumiy fondi usuli orqali aktivlarni boshqarish**



Aktivlarni boshqarishda ushbu usulni amalga oshirishda quyidagi bosqichlardan o‘tish darkor:

- *Birinchi*, mablag‘larning taqsimlanish tuzilishini aniqlashda ularning ulushini belgilash, bu ulush birlamchi rezerv sifatida tashkil qilinadi. Birlamchi rezervlarga balansdagi naqd va unga tenglashtirilgan pullar hamda ularning qoldiqari kiradi. Birlamchi rezervlar tijorat banki likvidligining asosiy manbasi hisoblanadi. Chunki aynan ushbu manba orqali tijorat banklari kunlik hisob-kitoblarida foydalanadi.

- *Ikkinchi*, ikkilamchi rezervlarni tuzish masalasidir. Tijorat banklari aktivlarni joylashtiryapganda “nokassaviy” likvid aktivlarni tuzadi. Bunday rezervlar Yuqori likvidlikka ega bo‘ladi. Chunki ularni qisqa muddat ichida naqd pulga aylantirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ikkilamchi rezervlarni tuzishdan maqsad birlamchi rezervlarni to‘ldirish manbasi hisoblanadi. Ikkilamchi rezervlarga qimmatli qog‘ozlar portfeli, ayrim hollarda ssuda hisobvarag‘idagi mablag‘lar kiradi.


- *Uchinchi bosqich*, kredit portfelini tuzishdir. Bank birlamchi va ikkilamchi rezervlarni tuzib bo‘lgandan keyin u o‘z mijozlariga ssudalarni berishi mumkin. Bank aktivlari ichida ssudalar asosiy o‘rini egallaydi.

- *To‘rtinchi bosqichda*, mablag‘lar taqsimlab bo‘lingandan keyin, qimmatli qog‘ozlar portfeli tarkibi aniqlanadi.

Yuqoridagi ta’kidlangan usul aktivlarni boshqarishda “likvidlik-foydalilik” dilemmasini to‘liqligicha hal qilolmaydi. Chunki, resurslarni aktivlarga joylashtirishning aniq mezonlari o‘rnatilmagan. Talab qilinguncha depozitlarga, jamg‘arma depozitlarga, muddatli depozitlarga hamda asosiy kapitalga nisbatan likvidlik magistrantlari hisobga olinmaydi. Buning oqibatida tijorat banklarining foydasi yildan yilga kamayib ketishi mumkin. Shuning uchun, tijorat banklari aktivlarni boshqarishning ikkinchi usuli, ya’ni – **aktivlarni taqsimlash usuliga** murojaat qilishadi.

Aktivlar boshqarishning ikkinchi usuliga batafsil to‘xtalib o‘tsak. Aktivlarni taqsimlash usuliga ko‘ra, tijorat bankiga zarur bo‘lgan likvid mablag‘lar resurslar jalb qilishning manbalariga bog‘liqdir. Bu usul -chizmada yaqqol tasvirlangan.

### Aktivlarni boshqarishning resurslar taqsimoti usuli



Aktivlarni taqsimlash usulida har bir depozit turi bo‘yicha alohida rezervlarni tashkil qilish nazarda tutiladi. Ushbu usulning eng asosiy afzalligi Shundaki, ushbu usulni qo‘llashda likvid aktivlarning kamayishiga olib keladi. Bu esa, foyda me‘yorini oshiradi. Ushbu usul tarafdorlari ta‘kidlashicha, foyda me‘yoring oshishi aynan ortiqcha likvid mablag‘larini ishlatib yuborishligidan kelib chiqadi. Umuman olganda, Yuqoridagi ikki usul majburiy rezervlar likvidligiga urg‘u beradi. Ikkala usul minimal likvidlik darajasiga tayanmasdan, o‘rtacha likvidlik darajasiga tayanadi. Bu esa ikkala usul uchun kamchilik hisoblanadi.

Aktivlarni boshqarishning uchinchi usuli – ilmiy boshqarish usuli. Ushbu usul orqali aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda matematik model usullaridan foydalaniladi. Ilmiy boshqarish usuli uch xil savolga javob berishni nazarda tutadi: “muammoning mohiyati nimada?”, “muammo echimining variantlari qanday?”, “qaysi variant eng yaxshi hisoblanadi?”.

Bizning fikrimizcha, Yuqoridagi ta‘kidlab o‘tilgan aktivlarni boshqarishning uch xil usuli an‘anaviy usullar qatoriga kiradi. Chunki, bugungi kunda aktivlarni boshqarishda yangi axborot texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, aktiv va passivlarni boshqarishda “GAP” tahlilidan keng foydalanish masalasidir. Aynan ushbu usul orqali jahonning nufuzli banklari o‘z aktivlari va passivlarini boshqaradi. Ushbu masalani AQSH

tajribasi misolida biz bitiruv malakaviy ishimizning birinchi bobi yakunida o'rganib chiqamiz.

Aktivlarni boshqarishni o'rganishda bank aktivlari likvidliligi masalasini ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. Chunki likvidlik muammosi bitiruv malakaviy ish mavzuimizga bevosita bog'langan.

Banklar samarali faoliyat yuritishi va ularning ishonchligini ta'minlashga erishish uchun banklarning likvidliligi qay darajada ekanligini aniqlash juda muhimdir. Likvidlilik bank faoliyatini tafsiflaydigan asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u bank tomonidan majburiyatlar o'z vaqtida bajarilishi hamda aktivlar o'sishini ta'minlash bilan birga, depozitlar va qarz mablag'lari darajasini samara-li boshqarishni bildiradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida banklar va ularning barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan uning biznesi qay darajada tashkil etilganiga bog'liq.

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy maqsadi daromad olishdir, Shu jumladan tijorat banklari ham o'z faoliyatlari natijasida daromad olib boradi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar o'z daromadlarini imkon darajasida oshirib borishga harakat qilmoqdalar. Lekin, daromadlilikka teskari proporsional bo'lgan likvidlilik ko'rsatkichi ham borki, u bo'yicha o'rnatilgan talablarga barcha tijorat banklari amal qilishlari kerak. Likvidlilik tijorat banklarining moliyaviy holatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Likvidlilik muammosi tijorat banklari vujudga kelishi bilanoq paydo bo'lgan. Ushbu muammolarning oldini olish bozor munosabatlariga o'tish sharoitida yanada dolzarblashadi, sababi, o'tkazilayotgan islohotlarning samarasi to'g'ridan-to'g'ri bank tizimi barqarorligiga bog'likdir.

Hozirgi sharoitda respublika bank tizimining likvidliligi va barqarorligi mamlakat uchun g'oyat muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham tijorat banklari likvidligini ta'minlash va uni boshqarish mexanizmini takomillashtirib borish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, dastavval bank likvidliligi 2 ta nazariy yondoshuvni o'z ichiga olar edi:

- bank aktivlari tarkibi, muddati, bank passivlari tarkibi, muddatlariga mos kelishi shart. Bu esa amaliy jihatdan tijorat banklari o'z likvidliligini boshqarish bo'yicha aktiv siyosat yuritishiga yo'l bermas edi. Ushbu berilgan nazariy asoslar natijasida bank moliyaviy talablari hajmi va muddati bank majburiyatlari hajmi va muddatlariga mos kelishi shart degan bankning oltin qoidasi yuzaga keldi;

- balans aktivlari va passivlari tarkibi real hajmda mos kelmasligiga asoslangan, hatto eng qudratli tijorat banklari ham moliyaviy inqirozlar, bankrotlik, iqtisodiy tangliklardan va boshqa mojarolardan sug'urtalanmagan. Bu ayniqsa, rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tgan davlatlarga xosdir.

Bank ishining evolyusion tarzda rivojlanishi natijasida ikkinchi yondoshuvga asosan aktiv va passivlarni boshqarish nazariyalari yuzaga kelib, rivojlandi.

Hozirgi kunda 4 ta asosiy nazariyalar o'zaro farqlanadi:

1. Tijorat ssudalari nazariyasi;
2. Joydan-joyga (aktivlarni) ko'chirish nazariyasi;
3. Kutiladigan daromad nazariyasi;
4. **Passivlarni boshqarish nazariyasi.**

### **Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari resurslarini optimal boshqarish - tijorat banklari daromadlarini oshirishning omili sifatida**

Tijorat banklarining resurs bazalari takomillashtirish va aholi bo'sh pul mablag'larini banklar tomonidan jalb qilish yo'llari resurslarini mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlar natijasida quyidagi takliflarni keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini muddatlari bo'yicha diversifikatsiya qilish orqali boshqarishni chuqurroq takomillashtirish, ya'ni, tijorat banklari o'zlarining moliyaviy resurslarni boshqarish jarayonida, resurslarni daromad keltiruvchi aktivlarga, jalb qilingan muddatlarini e'tiborga olgan holda joylashtirishga maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, resurslarni boshqarishda bu omilga e'tibor qaratilishi bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishiga imkon beradi;

Resurslarni aktivlarga joylashtira olish imkoniyatiga qarab jalb qilish lozim. Bu taklifni berishdan asosiy maqsad Shuki, ayrim banklar resurslarni ko'p miqdorda va Yuqori foiz stavkada jalb qilishi natijasida resurslarni aktivlarga joylashtirishga ulgurmaydilar. Buning natijasida bank ancha zarar ko'rish ehtimolidan holi bo'lmaydi. Banklarning daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida majburiy zahira talablarini kamaytirish lozim. Majburiy zahira talablarining kamaytirilishi banklarning o'zlarida ko'proq resurs qolishiga va daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirish imkoniyatini beradi. Resurslarning barqarorligini ta'minlash maqsadida Hay va Super Hay hisobraqamlaridagi mablag'lardan foydalanishni joriy qilish, chunki hozirgi kunda jahon bank amaliyotida qo'llanib kelayotgan Hay hisobraqamlaridagi va Super-Nau hisobraqamlaridagi pul mablag'larini jalb qilishdan keng foydalanilmoqda. Buni esa, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari faoliyatlariga joriy qilish lozim. Hay va Super-Nau hisobraqamlaridagi pul mablag'lariga e'tibor beradigan bo'lsak, bu mijozning hisobraqamidagi doimiy qoldiq chegarasida bank va mijoz o'rtasida shartnoma tuziladi. Bunga muvofiq, bank mijozning harakatsiz turgan pul mablag'lari doirasida foiz to'lash to'g'risida shartnoma tuzadi. Mijoz esa, ma'lum bir muddat davomida bankdagi hisobvara qoldig'idagi kelishilgan summadan foydalanmaydi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarida "Repo" operatsiyalarining salmog'ini ko'paytirish lozim. "Repo" bitimlari aktivlarni sotish va qaytarib sotib olish shartlari asosida belgilangan kunda va oldindan kelishilgan narxda amalga oshiriladi. Bunday bitimlar vaqtincha bo'sh mablag'lar uchun muhim kanal bo'lib qolgan, chunki ularni ikkala tomon ehtiyojlariga moslashtirish oson. Ular bir kundan bir necha oygacha bo'lgan muddatga tuzilishi mumkin. Lekin ko'pincha



qisqa muddatga tuziladi. Tavvakalchilik xatari Yuqori emasligi "repo" ning afzalligidir. Chunki "repo" bitimlari - bank zaxiralarini baravrlashtirishning eng yaxshi vositasidir. Bank aktivlarni qaytarib sotib olish majburiyatini olgan holda, ularni sotganida to'lov xaridorning depozit hisobvaragini debetlash yuli bilan yoki boshqa bankka yozib berilgan chek orqali amalga oshiriladi.

Birinchi holda bankning majburiy zaxiralari kamayadi. Chek olganida esa, nomiga chek yozilgan bankning zaxiralari nisbatan sotuvchi bankning muayyan huquqlari yuzaga keladi. Bu bilan tijorat banklari o'zlarining moliyaviy resurslarini boshqarish jarayonida etarli daromadga va likvid mablag'larining etarli miqdorda ta'minlashga imkon yaratishadi.

Banklararo bozorda banklararo kreditlar bozorini takomillashtirish va overnayt operatsiyalarini amalda joriy qilish.

Jahon banklari amaliyoti tajribalarida muvaffaqiyatli joriy etilgan lombard xizmat turini takomillashtirish hamda kontokorrent va overdraft kabi yangi xizmat turlarini Respublika amaliyotiga joriy qilish. Tijorat banklarining resurs mablag'larini oshirish maqsadida, aholi bo'sh pul mablag'larini bank plastik kartochkalariga jalb qilishni kengaytirish. Shuningdek, tijorat banklarining soliqqa tortilayotgan ba'zalaridan muddatli omonatlar o'sishi hisobiga kamaytiriladigan qismini yana kamida 4-5 yillar muddatiga uzaytirish lozim.

## **11-mavzu. "Tijorat banklari resurslari bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish"**

**1. Bank faoliyatida uning resurslarini shakllantirish bilan bog'liq risklar va ularning turlari.**

**2. Moliyaviy resurslarni joylashishi bilan bog'liq risklar.**

### **Bank faoliyatida uning resurslarini shakllantirish bilan bog'liq risklar va ularning turlari**

Bank amaliyotida risk har doim kutilmaan xodisa emas. Bank faoliyatining barcha turi risk bilan bog'liq. Bank faoliyat turi yoki operatsiyasi riskli ekanligini bilib turib, ushbu operatsiyani amalga oshirishga qaror qiladi va amalga oshiradi.

Bank riski iqtisodiy risklarning bir qismini tashkil qilib bank bilan jismoniy va huquqiy shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga tayanadi.

Mablag'larni kreditlash tamoyiliga asosan mijozlarga berilishi, banklar ishining ma'lum tamoyillarga asosan tashkil qilinishi ular faoliyatining turlari risk bilan bog'liq ekanligini anglatadi. Bu xol esa bank riskining ob'ektivligini ifodalaydi.

Bank faoliyatiga boshqa omillarning ta'siri, ularning natijasini hisoblash imkoniyatining mavjudligi va bir turdagi riskning turli sharoitda bo'lishi, uni turlicha qabul qilish va hisoblay olish uning yuzaga kelishining sub'ektiv sabablari hisoblanadi.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining qo'yidagi sabablari mavjud:  
-bozorni yaxshi urganmaslik

-resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish soxasida ma'lumotni etarli emasligi

-kreditlanadigan loyixa, ob'ekt va mijozlar to'g'risida ularning moliyaviy axvoli to'g'risida ma'lumot va axborotlarni to'liq emasligi

-tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi

-sub'ektlar yoki mijozlarning ongi,saviyasi , mablag'dan foydalanish bo'yicha bilimi.

Yuqoridagilarga asoslanib bank riski bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larining bir qismini yo'qotish, yoki daromad olmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib,bank operatsiyalarini (depozit, kredit investitsiya, valyuta) o'tkazishdir degan ta'rifni keltiramiz.

Bank faoliyatining risk bilan bog'liq bo'lishi harajatlar, zararlar va yo'qotishlar kabi kategoriyalarning doimiy uchrab turishi va ular bank amaliyotining kunlik monitoringida bo'lishini taqozo etadi. Harajatlar,zarar,yo'qotishlar o'z o'zidan risk hisoblanmaydi. Bu tuShunchalarning har biri o'zining moxiyatiga ega.

Bankning depozitlar, jamgarmalar va boshqa jalb qilingan mablag'lar bo'yicha foiz to'lash,boshqa moliya kredit institutlaridan jalb qilingan mablag'lar uchun ish haqi to'lash va boshqa operatsion harajatlar bilan bog'liq risklari qo'yidagi shakllarda namoen bo'lishi mumkin:

-bozor iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar,

-axoli jamgarmalari bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalarini oshib borishi

-kredit resurslari etishmovchiligi va boshqalar.

Bunday xolatda banklar o'z daromadlari bilan harajatlarini yopa olmaydi.


Bankning zarar ko'rishi-bank faoliyatida uchraydigan risklarning oldini ololmaslik natijasida yuzaga keladi. Bank faoliyatida risklar kelajakda amalga oshiriladigan operatsiyalarni taxlil qilmaslik,holatni yaxshi o'rganmaslik, bozor imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olmaslik, bank faoliyati uchun salbiy natijalariga olib kelishi mumkin.

Yo'qotishlar- bank foydasini kamaytiruvchi omil hisoblanib, u bank faoliyatining risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Riskning xajmi bank amalga oshiradigan operatsiyalarning risklilik darajasiga, risk soxasidagi strategiyasi sifatiga bog'liq bo'ladi. Daromadlilik va risk o'rtasidagi nisbatni saqlab turish bankni boshqarishning eng asosiy va murakkab muammosi bo'lib hisoblanadi. Banklarni ba'zan «risk sotib oluvchi va sotuvchilar» deb ataydilar.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo'yicha aniq guruhlariga bo'lish bilan bog'liq<sup>9</sup>

---

<sup>9</sup> Sh.Abdullaeva "Bank risklari va kreditlash"



Risklar tasnifi ularni har birining umumiy tizimdagi o'rnini belgilash, ularni boshqarishning samarali usullarini qo'llash imkonini beradi.

Bank risklarini tasniflashni qo'yidagi asosiy tamoyillar asosida olib boriladi.

1. Riskni paydo bo'lish sabablari va ta'sir qilish harakteri bo'yicha.
2. Namoyon bo'lish shakllari bo'yicha.
3. Boshqarish imkoniyatiga qarab risklarni bo'lib chiqish
4. Hisoblash usuliga qarab risklarni ajratish.
5. YUzaga kelish va ta'sir vaqtiga qarab risklarni ajratish.
6. YUzaga kelish soxasiga qarab risklarni tasniflash.

Paydo bo'lish sabablariga ko'ra risklar sof va sun'iy risklarga bo'linadi. Sof risklar ko'pincha ob'ektiv xususiyatiga ega va salbiy «o» natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bunday risklarga tabiiy ekologik transport risklari, tijorat riskini bir qismi kiradi.

Namoyon bo'lish shakllariga qarab bank risklari tizimli yoki tizimsiz risklarga bo'linadi. Tizimli risklar bank tizimidagi umumiy vaziyat natijasida bankning moliyaviy axvoli o'zgarishi ehtimoli sifatida ta'riflanadi.

Tizimsiz yoki nomuntazam risklar bank tizimida umumiy axvol barqaror saklangan xolda aloxida olingan bankning moliyaviy axvoli yomonlashishi ehtimolini bildiradi.

Boshqarish imkoniyatiga ko'ra bank risklari ochiq va yopiq bo'ladi. Ochiq risklarni tartibga solib bo'lmaydi. Yopiq risklarni esa boshqarish mumkin. Yopiq risklar diversifikatsiya siyosatini o'tkazish yuli bilan amalga oshiriladi. YA'ni bunda :

- bank operatsiyalarini umumiy xajmini saklash maqsadida bir necha mijozlarga berilgan kreditlarni kichik summalardan keng miqyosda taqsimlash
- yirik kreditlarni konsorsial asosda berish;
- depozit sertifikatlarini joriy qilish,
- qayta hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish,

- kredit va depozitlarni sug'urtalash amalga oshiriladi.

Balanslashmagan likvidlilik riskini paydo bo'lishi bank boshqaruv va xodimlari malakasi, bank faoliyatini va nazoratini tashkil qilish, risklarni tartibga solish uchun qo'llanayotgan usullarning ishonchligi, aloxida bank operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo'yicha risklar koeffitsienti shkalasini tuzishga asoslanadi.

### **Bank risklari iqtisodiy klassifikatsiyasi qo'yidagi elementlardan shakllangan.**

1. Tijorat bankining turi.
2. Bank risklarini ta'sir doirasi va kelib chiqishi.
3. Bank mijozlarining tarkibi.
4. Risklarni hisoblash metodi.
5. Bank risklari miqdori.
6. Bank risklarini boshqarish.
7. Bank risklari boshqarish metodi.

Hozirgi zamonda uch turli bank tizimi mavjuddir – ixtisoslashgan banklar, tarmoq banklari, universal banklar. Demak risk miqdori bo'yicha ixtisoslashgan banklar risk miqdori boshqa banklarga nisbatan ko'proq bshladi. Misol: innovatsion banklar , yangi texnologiya asosida ish yuritayotgan korxonalarni kreditlash bilan Shug'ullangan banklarda riskni boshqarish qo'shimcha metodlarni talab etadi. Masalan: davlat tomonidan kafolatlarni olish, zalog qo'yish va boshqalar.

Tijorat bankining ish faoliyatida tarmoqda o'rtacha risklarni miqdorini inobatga olmoq kerak.

Universal harakterga ega bo'lgan banklar faoliyatida hamma turdagi risklar inobatga olingani maqsadga muvofiqdir.

Ko'rib o'tilgan variantlarda risklarni miqdor darajasi ko'proq tarmoq banklariga tegishlidir. Tarmoq banklari tarmoqqa bog'liqdir.

Risklar universal banklarga nisbatan kamroq ta'sirlidir. Buning sababi universal banklar bir operatsiya turidan zarar ko'rsa,uni boshqa turdagi operatsiyalardan olingan foyda bilan qoplashi mumkin.

Bankning risklari 2 ga bo'linadi:

1. Ichki risklar
2. Tashqi risklar

### **Ichki risklar bank faoliyatidan kelib chiqib ikki turdan iboratdir:**

- Asosiy faoliyatdan kelib chiqadigan risklar,
- YOrdamchi faoliyatdan kelib chiqadigan risklar.

Asosiy faoliyatdan kelib chiqadigan risklar:

1. Kredit berishdan kelib chiqadigan risklar;
2. Foiz risklari;
3. Valyuta risklari;

4. Bozor risklari- qimmatli qog'ozlar bilan risklar;
5. Naqd pulsiz hisob-kitob risklari.

Yordamchi faoliyatdan kelib chiqadigan risklar:

1. Depozitlarni muddatdan oldin talab qilinsa;
2. YAngi turdagi operatsiyalardan kelib chiqadigan risklar;
3. Bank muttahamgarchiliklaridan kelib chiqadigan risklar.

#### **Tashqi risklar:**

1. Siyosiy o'zgarishdagi risklar;
2. Iqtisodiy o'zgarishlar risklari;
3. Harbiy harakat (urush) boshlanishi risklari;
4. Natsionalizatsiya;
5. Xususiylashtirish;
6. Qarz kompensatsiyasi;
7. Import litsenziyasini bekor qilish;
8. (er qimirlashi, suv bosishi, yong'in).

**Tijorat banklarining mijozlari tarkibi bank risklarini hisoblash metodikasini aniqlab beradi. Mayda kredit oluvchilar bozor iqtisodiyoti spetsifikasidan kelib chiqadigan risklarga monanddir.**

Yirik va katta miqdordagi kreditlarni bir mijozga berilishi ham tijorat banklarini inqirozga uchrashiga sabab bo'lgan. Shunday noxush voqelikdan himoyalaniшни metodi bu – katta miqdordagi kredit berishni chegaralash metodidir.

Bank riskini hisoblash metodiga qarab umumiy, ya'ni kompleks riski va xususiyga bo'linadi.

Kompleks risklarni hisoblaganda, uni baholash va prognozlashtirish asosida risklarni miqdorini bankning daromadiga nisbatan aniqlanadi va iqtisodiy normativlarga asosan belgilanadi.

Marketing izlanishlar tarixi Shundan dalolat beradiki, ishlab chiqaruvchilar, Shu jumladan banklar ham riskini minimallashtirish, katta miqdorda foyda olishga intiladilar.

Risklar va kutilayogan foydani nisbati ba'zi bir ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida bo'ladi. Risklarni miqdoran pasaytirishning qulay usuli bu sug'urtalash usuli bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi zamonda risklar miqdorini aniqlashda extimollar nazariyasi va matematik statistika usullaridan keng ko'lamda foydalaniladi.

#### **Vaqt bo'yicha risklar uch turga bo'linadi.**

1. retrospektiv risklar;
2. joriy risklar;
3. kelajakdagi risklar.

Bank operatsiyalarining hamma turi risklarga moyildir.

Hozirgi kunda tijorat banklari risklari taxlilida quyidagilarga e'tibor berishimiz shartdir.

- 1) Iqtisodiyotni o'tish davridagi inqiroz xolati, ishlab chiqarishni pasayishini;
- 2) Bank tizimini bozor iqtisodiyoti talabiga javob bermasligini;
- 3) Inflyasiya darajasini va uning o'sib borish dinamikasini.

Mana bu vaziyat bank risklari va ularning banklar faoliyatiga ta'sirini o'zgartirishi mumkin.

Risklar nazariyasining asta sekin rivojlanishi bilan risklarni taxlil qilish metodikasi va metodologiyasi ham rivojlanib bordi. Hozirgi kunda risklarni taxlil etishni quyidagi bosqichlari mavjuddir.

I bosqich. Tijorat banking turi va ko'rinishi.

II bosqich. Bank risklarining tarmoqlarga ta'siri.

III bosqich. Risklarni hisoblash metodikasi, va undagi qo'yilgan kamchiliklarni taxlili, absalyut va nisbiy ko'rsatkichlarni taxlili.

IV bosqich. Taxlil etilayotgan konkret risklarni boshqarishning mavjudligi.

V bosqich. Taxlil asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni effektivligiga baho berish.

*Bank operatsiyalarining harakteriga bog'liq bo'lgan risklar.*

Bank operatsiyalarining **xarakteriga** bog'liq bo'lgan risklar spetsifik harakterga ega bo'lib bank balansining tarkibida bo'lib o'tadigan operatsiyalarga va balansdan tashqarida bo'lib o'tadigan operatsiyalarga bo'linadi.

Balans doirasida va balansdan tashqarida bo'ladigan operatsiyalar quyidagi guruhlarga bo'linadi.

Passiv operatsiyalar risklari.

Bizga ma'lum tijorat banklari passiv operatsiyalar asosida o'zining resurslarini boshqaradi.

### **Moliyaviy resurslarni joylashishi bilan bog'liq risklar.**

Tijorat bankning passiv operatsiyalariga quyidagilar kiradi.

1. bank foydasidan ustav kapitalini shakllantirish va ko'paytirishga ajratmalar..

2. Yuridik shaxslardan kredit olish miqdorini ko'paytirish.

3. Depozit operatsiyalarni bajarish.

Birinchi guruhdagi ko'rib o'tilgan passiv operatsiyalar bank kapitalini shakllantiradi.

Ikkinchi guruhdagi passiv operatsiyalar bank faoliyatida muljallanmagan kreditlar berishda foydalaniladi, va tijorat bank likvidligini boshqarishga ishlatiladi.

Depozit operatsiyalar yordamida bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning resurslarini jalb etiladi, quyidagi usullar yordamida:

1. talab etilguncha saqlanadigan depozitlar.

2. Muddatli depozitlar.

3. jamag'arma depozitlar

Tijorat banklari depozitlarni jalb qilaetgan jarayonda aktiv va passiv depozit

operatsiyalar orasidagi optimal nisbatni saqlashlari lozim.

Banklar foiz riski yoki aktiv operatsiyalar bo'yicha risklarga o'z faoliyatida doimiy ravishda duch keladilar.

Foiz riskini boshqarish banklarni aktivlarni boshqarish (kreditlar va investitsiyalar) va passivlarni (jalb qilingan mablag'lari) boshqarishga bo'linadi.

Bank aktivlarini boshqarish bank balansini likvidliligi bilan va mijozlarning qimmatbaho qog'ozlari va bank kreditini olish shartlarini o'z ichiga oladi.

Foiz risklarini boshqarishni bir nechta konsepsiyalari mavjuddir. Shulardan:

1. Bank marjasining miqdori qancha Yuqori bo'lsa foiz xatarining foizi Shuncha past bo'ladi.

2. "Spred" konsepsiyasi. O'rtacha tortilgan stavkalar o'rtasidagi farqni taxlili va bank majburiyatnomalari bo'yicha to'langan o'rtacha stavkalari o'rtasidagi farqi bo'yicha.

3. O'rtadagi "farq" konsepsiyasi. Bank balansining aktiv va passivi nolikvidligi, bank foizining qat'iy belgilangan yoki suzib yuruvchi foiz stavkasi ma'lum bir muddat bilan aniqlanadi.

### **Foiz risklarining miqdoriga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi.**

1. Aktiv portfelidagi o'zgarishlar, kreditlar va investitsiyalar o'rtasidagi nisbati o'zgarishi ham.

2. Passivlar strukturasi o'zgarishlar, bankning o'zining mablag'lari bilan jalb qilingan mablag'larining o'rtasidagi nisbatining o'zgarishi.

3. Foiz stavkasining dinamikasi.

## **11-mavzu. "Tijorat banklari resurslari bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish"**

### **3. Risklarni monitoring orqali boshqarish.**

**4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni boshqarishni takomillashtirish.**

### **Risklarni monitoring orqali boshqarish**

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalarning risklilik darajasini aniqlash, bu jarayonni boshqarib borish muxim o'rin tutadi.

Tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilariga qarab tasniflanadi:

1. Likvidlik darajasiga qarab
2. Risk darajasiga qarab
3. Daromad darajasiga qarab

I. Birinchi guruh- Yuqori likvidli aktivlar.

a) kassadagi va yuldagi nakd pullar, qimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqalar.

b) korschetidagi mablag' koldiklari.

v) «Nostro» va «Vostro» schetlaridagi koldiklar

g) majburiy rezervlar scheti bo'yicha mablag'lar

d) qimmatli qog'ozlar schetidagi mablag'lar koldigi xazina veksellari va boshqalar.

**Ikkinchi guruh likvid aktivlar**

a) berilgan kreditlar.

b) O'zbekiston investitsiyalari

v) boshqa qimmatli qog'ozlar

**uchinchi guruh nolikvid aktivlar.**

a) Muddati o'tgan sudalar.

b) Muddat o'tgan foizlar

v) Sud aralaShuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda to'tilgan ssudalar.

g) Tugallanmagan ishlab chiqarish

d) Asosiy vositalar.

### **Risklilik darajasiga qarab aktivlar to'rt guruhga bo'linadi.**

1 guruh-riskdan xoli bo'lgan aktivlar.

Bularga nakd pullar Nostro, Vostro hisob varaq koldiqlar? MB qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalar.

2-guruh (kichik) minimal riskli aktivlar Nostr, Vostro hisobvaraqdagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar , evro obligatsiyalar, qisqa muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar . Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 20 % ga teng.

3-guruh. Yuqori riskli aktivlar, boshqa banklarga berilgan kreditlar , boshqalar uchun bank bergan garov va kafolatlar, bu aktivlar bo'yicha risk 50%ga teng.

4-guruh. Eng Yuqori darajadagi riskli aktivlar:

qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olish scheti, sotib olingan veksellar, trast xujjatlar va akkreditivlar bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, sud jarayonida bo'lgan kreditlar, akkreditivlar, forvard, bank va banklararo sotish va sotib olish.

Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 100%.

Daromad keltirishiga qarab bank aktivlari daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

### **Daromad keltiruvchi aktivlarga:**

- Barcha berilgan kreditlar
- Investitsiyalar (o'ziniki)
- Xazina veksellari.
- Davlat obligatsiyalari.
- qimmatli qog'ozlar



### **Daromad keltirmaydigan aktivlar:**

- Pul aktivlari guruhi
- Asosiy vositalar
- Kapital harajatlar
- Barcha moddiy aktivlar
- Nomoddiy aktivlar

Daromad keltirmaydigan aktivlarni shartli ravishda deb belgilaymiz va ularning darajasi umumiy aktivlarning xajmidan 3% oshmasligi lozim.

Agarda bunday aktivlar o'rnatilgan normadan miqdorda 2 va undan ortiq marta ko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

Tijorat banklarining faoliyatini taxlil qilish va aktivlar bahosini belgilashning asosi bo'lib uning balansi hisoblanadi. Balans asosida tijorat banklarining faoliyatini taxlil qilishda bir marta bo'ladigan harajatlar yoki daromadlarni alohida hisobga olgan ma'quldir. Chunki bu bir martalik bo'ladigan tuShum yoki harajat bank faoliyatining olib borilishi uning likvidiligi ko'rsatmasligi mumkin.

Bularni neytral harajatlar va neytral daromadlar deyiladi.

### **Neytral harajatlar**

- Bir martalik to'lovlar (yongin, pul ugirish)
- Bank biznesiga taallukli bo'lmagan to'lovlar.
- O'tgan davrdagi foizlar bo'yicha harajatlar.

### **Neytral daromadlar:**

- Bir martalik tuShumlar
- O'tgan davrdagi foizlar bo'yicha tuShumlar
- Bank biznesiga taallukli bo'lmagan tuShumlar

**Banklarning asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalari kredit operatsiyalari hisoblanadi. Shu sababli bank kredit operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadi va u bo'yicha risk darajasini aniqlashi lozim.**

Banklar kredit berishda o'z kapitaliga to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan foiz stavkasini hisoblashi kerak. Chunki bank kapitaliga to'g'ri keluvchi foiz yoki foyda normasi bank likvidiligi ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Bank o'zi beradigan kreditning samaradorlik darajasini aniqlash uchun bankda amalga oshiriladigan har bir operatsiya bilan bog'liq harajatlarni aniqlashi lozim. Bu esa har bir operatsiya uchun sarflanadigan vaqtni aniqlashni talab qiladi. Operatsiyani amalga oshirish uchun ketadigan vaqt aniq bo'lishi uchun bu jarayon 2-3 hafta, 1 oy davomida yozib borilishi: har bir operatsiya vaqti, minutlari xronometrik yul bilan o'lchanishi kerak.

## **Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni boshqarishni takomillashtirish**

Bank riskini boshqarish tizimi riskni yuzaga kelishini oldindan xomchut qilish risk tufayli yuzaga keladigan xolatlariga yul kuymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish borasida chora tadbirlar, usullar yigindisiga tushiniladi. Bank riskini boshqarish banklar faoliyatini chuqur bilish, bajariladigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay olish bankning kredit, investitsiya valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy axvoli tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Bank riskini boshqarishda bank boshqaruvchisini asosiy vazifasi bank faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan daromad bilan unda yuzaga keluvchi risklar o'rtasidagi optimal variantini topishdan iborat. Tijorat banklarida riskni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda korxonalaridagi foydalanilmagan rezervlarni baholash va bank xizmatini asosiy yunalishini aniqlab olish uchun o'rtacha tarmoq riskining xajmini hisobga olish kerak.

Tarmoq riski kredit riski bilan bog'liq bo'lib unga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham bank tarmoq siyosatini tuzishda nafaqat mijozlar balki sohalar to'g'risida keng axborotlarga ega bo'lishi tarmoq riskini baholashda qo'yidagilarni hisobga olish kerak.

- aniq davr mobaynida ushbu tarmoqning faoliyatining natijalari.
- ularning mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan barqarorligi.
- turli xil firmalarning bir yoki boshqa soxadagi faoliyatlari natijalarida sezilarli darajada mos kelmasligini mavjudligi.

Tarmoq riskini baholovchi ko'rsatkichlardan biri boror iqtisodiy faoliyat natijalariga nisbatan soxa faoliyati natijasining o'zgarishidir.

Bank mijozlarining tarkibiy tuzilishi bank riski va uning darajasini hisoblash usulini aniqlab berishi mumkin. Kichik qarzdorni faoliyati yirik qarzdornikiga nisbatan bozor iqtisodiyotining kutilmaan vaziyatlariga ko'prok bog'liq bo'ladi. Bank riski darajasini boshqarishda bank o'tkazadigan operatsiyalarining kafolatlanganligi, sug'urtalanganligi va boshqa tartibga solish usullaridan foydalanilganligiga qarab to'la o'rtacha va past risklar yuzaga kelishini hisobga olish kerak. Bankning asosiy operatsiyalari o'tgan va hozirgi risklarga tortilgan bo'ladi. Hozirgi risklarga kafolat berish bo'yicha operatsiyalar, o'tkazma veksellarni akseptlash, xujjatlashtirilgan akkreditiv operatsiyalari, regress huquqi bilan aktivlarni sotish va boshqalar kiradi.

Kelgusi riskka esa kafolatning o'zini ma'lum bir muddatdan so'ng uni to'lash, vekselni to'lash, bank krediti hisobidan akkreditivni amalga oshirilari kiradi.

Ko'p xollarda balans operatsiyalari bo'yicha yuzaga kelgan risk balansdan tashqari operatsiyalarga ham tarkaladi.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risklarning qo'yidagi asosiy turlariga e'tiborni jalb qilish kerak.

1. Depozitlarni shakllantirish riski.
  2. Faktoring operatsiyalar bo'yicha risk.
  3. Lizing keliShuvi riski.
  4. qarzdorlarni o'z majburiyat yuzasidan bajarmagan faoliyati bilan bog'liq bilan risk.
  5. Foiz stavkalarini tebranishi extimoli bilan bog'liq risk.
  6. qimmatli qog'ozlarning qadrsizlanish extimoli bilan bog'liq risklar.
  7. Valyuta kurslari tebranish extimoli bilan bog'liq risklar.
- Bank o'z faoliyatida mavjud riskni aniqlashi, uni qabul qilishi, ko'zatib borishi va uni boshqarish qobiliyatiga tayyor ekanligini zimmasiga olishi lozim. Bank risklarini boshqarishda ma'lum tamoyillarga rioya qilish katta ahamiyatga egadir.

Bank risklarini boshqarishning asosi qo'yidagi tamoyillarga hisoblanadi.

- o'z kapitalidan ortiq summaga risk qilmaslik.
- riskning oqibat to'g'risida uylash zararlarni qoplash manbalarini prognozlash.
- risklarni moliyalashtirish.
- bankning barcha bo'limlarida risklarni nazorat qilish.
- Bu tamoyillarga asosan bank o'zida mavjud resurslar atrofida risk qilishi kerak.

Risklarni boshqarishning asosiy usullari bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi.

- risklarni ulchash usulidan foydalanish.
  - tashqi rikslarni hisobga olish.
  - bank mijozini moliyaviy axvolini muntazam nazorat qilish.
  - rikslarni taqsimlash yulini qo'llash.
  - diversifikatsiya siyosatini o'tkazish
  - o'zgaruvchi foiz stavkalari asosida kredit berish
- depozit sertifikatlarni joriy qilish va x.k.

Agar risklarning oldini olishning to'liq imkoniyati bo'lmasa, u xolda oxirgi manba bu riskni qoplash hisoblanadi.

### **Riskni qoplash qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:**

- banklar tomonidan umumiy va maxsus rezerv fondlarini tashkil qilish:
- kredit bo'yicha %lar belgilashni to'xtatish va boshqalar.

Risklarni boshqarish daromad bilan risk o'rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud riskni minimallashtirishni o'z ichiga oladi.

## **12-mavzu. "Kredit resurslarini jalb qilish (akkumulyasiya) mexanizmi"**

- 1. Bank kredit resurslari va ularning iqtisodiy mohiyati.**
- 2. Tijorat banklari kredit resurslari tarkibida jalb qilingan mablag'larning tutgan o'rni.**

### **Bank kredit resurslari va ularning iqtisodiy mohiyati.**

Resurs - fransuzcha «ressource»<sup>1</sup> soʻzidan olingan boʻlib, pul mablagʻlari, yordamchi mablagʻ, imkoniyat, zahira, mablagʻ va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan maʼnolarni oʻzida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy manbalarda «resurs» soʻzi turli xil maʼnolarda, yaʼni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa koʻrinishlarda tez-tez uchrab turadi. SHundan iqtisodiy resurslarni jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taqsimlanadigan iqtisodiy imkoniyatlarining asosiy elementlaridan biri deb hisoblash mumkin. Undan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Iqtisodiy resurslar asosiy qismi, bu moliyaviy resurslar boʻlib, bu resurslar iqtisodiyotning rivojlanishini taʼminlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablagʻlarini tashkil qiladi.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbai boʻlib, vaqtinchalik boʻsh turgan pul mablagʻlari, soliqlar, jismoniy shaxslarning pul mablagʻlari, chek- depozit emissiyasi bilan bogʻliq mablagʻlar va boshqalar hisoblandi.

Iqtisodiy manbalarda va bank mablagʻlarining shakllanishi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarda «bank resurslari», «kredit resurslari», «depozit resurslari», «bank passivlari» kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin va bu tushunchalarga mualliflar oʻzlarining turlicha taʼriflari orqali izoh berganliklarining shohidi boʻlamiz.

Rossiyalik olim O.Lavrushinning fikriga koʻra, tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida boʻlgan oʻz va jalb qilingan resurslarining yigʻindisi boʻlib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi<sup>10</sup>. SHunday fikrni boshqa bir guruh mualliflarning ilmiy izlanishlarida ham uchratish mumkin. Tijorat banklarining resurslari oʻz mablagʻlari va jalb qilingan mablagʻlar hisobidan tashkil qilinishini taʼkidlash, bizning fikrimizcha, ularning manbalariga koʻproq eʼtiborni qaratadi. Bank resurslarining zarurligi bank faoliyatini tashkil qilish va olib borish natijasida shakllanadi. Banklar tashkil qilinishining ilk bosqichlarida banklardan avvalambor oʻz kapitalining mavjud boʻlishi va banklar keyingi faoliyatlarini olib borishlari uchun esa mablagʻlar jalb qilinishi talab qilinadi. SHu boisdan, tijorat banklari resurslari mohiyatini taʼriflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini eʼtiborga olish, balki u mablagʻlar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham koʻzda tutish lozim.

Tijorat banklari boshqa xoʻjalik subʼektlari kabi oʻzining xoʻjalik va tijorat faoliyatini taʼminlash uchun maʼlum miqdorda pul mablagʻlariga, yaʼni resurslarga ega boʻlishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, yaʼni iqtisodiyotning bozor modeliga oʻtishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatildi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga oʻzgaradi.

---

<sup>1</sup> Azriliyana A. Bolshoy ekonomicheskii slovar. M.: Institut novoy ekonomiki, 1999. - 852 s.

<sup>10</sup> Bankovskaya delo. Pod redaksii O.I. Lavrushina M.Fin. i statistika. 1998. s.68.

Bundan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ko'lamini, resurslar hajmiga bog'liq bo'ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo'yicha banklar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

SHundan kelib chiqib, bank resurslari tijorat banki faoliyatini keng olib borishga asos bo'lib, bankka ma'lum miqdorda daromad keltira olish qudratiga ega bo'lgan zahira va imkoniyatdir. Tijorat banklari o'zining kredit siyosatini ishlab chiqqanda yoki uzoq davrga o'z faoliyatining startegik yo'nalishlarini belgilaganda shu zaxira va imkoniyatlarning ko'lamini keng ko'rib chiqishi va resurslarni o'z faoliyat yo'nalishlarining daromad manbalari sifatida nazarda tutishi lozim.

CHet el adabiyotlarida<sup>1</sup> mablag'larni jalb qilish operatsiyalarini nafaqat tijorat banklari, balki moliyaviy kompaniyalar, jamg'arma kassalari, turli xil fondlar ham bajaradi degan fikrni uchratish mumkin. Albatta, bozor munosabatlarining rivojlanishi banklar faoliyatida raqobatbardosh moliyaviy institutlar va fondlarning shakllanishiga olib keladi. Lekin, fondlarning faoliyati va maqsadi bilan tijorat banklarining faoliyati va maqsadi bir xil emas. Turli fondlar va muassasalar faoliyatidan ko'ra banklarda depozitlar sug'urtalangan va kafolatlangandir. Turli boshqa moliyaviy muassasalarga nisbatan tijorat banklari bu mablag'larni saqlash va riskdan himoya qilishda mablag' egasiga o'z kafolatini berishi mumkin va mijozning o'z mablag'ini yo'qotishi bilan bog'liq riski banklarda boshqa fondlar yoki kassalarga nisbatan ancha past yoki deyarli yo'q deyish mumkin.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank kredit resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari yordamida shakllanib, bank balansining passiv qismida ikki katta guruhga bo'lib hisobga olinadi. Bular: banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'laridir. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi. Birinchisi, bu jalb qilingan depozitlar, ikkinchisi, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. SHu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Bank kredit resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil qiladi. Bank boshqa mablag'larini jalb qilish uchun, avvalambor me'yoriy hujjatlar talablari bo'yicha, o'z kapitalining etarlilik darajasi miqdorini shakllantirishi lozim.

Tijorat banklari bajarayotgan barcha operatsiyalar bevosita yoki bilvosita bank kapitalining etarliligi va uning sifatiga bog'liq bo'lib, har qanday tijorat banking to'lovga qobilligini va xatardan holiligini baholashda asosiy omil

---

<sup>1</sup> Sinki Dj. F. Upravlenie finansami kommercheskix bankov. Prevod s angl. M.: Catallaxy. 1994. s. 22-23.

hisoblanadi. Tijorat banklarining etarli miqdorda bank kapitaliga ega bo'lishi, ularning likvidligini ta'minlashda va faoliyati davomida duch keladigan xatarlardan zarar ko'rmay chiqib ketish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan asosiy talablar "Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Markaziy bankning 420-sonli Nizomida belgilangan. Nizom bo'yicha tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar xalqaro Bazel qo'mitasining andozalarida ko'zda tutilgan talablarga mos keladi. Bazel qo'mitasining andozalari, unga a'zo bo'lgan o'n ikkita mamlakat markaziy banklarining vakillari ishtirokida 1988 yilda ishlab chiqilgan va 1993 yilda amaliyotga joriy etilgan.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida, bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bank sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi. Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati, to'lovlarning amalga oshirilishi natijasida, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi.

Bank kredit resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa, o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

SHu sabab o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari kredit resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Buday o'zgarishlarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;
- iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida, tijorat banklarining zarar ko'rish darajasining oshishi;
- aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;
- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

Banklarda mavjud bo'lgan mablag'lardan foydalanish imkoniyatiga va ularning manbaalariga qarab bank resurslari o'z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo'linadi. Bank resurslariga bank kapitalidan tashqari ma'lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo'lgan jalb qilingan depozitlarni, boshqa banklardagi depozit va vakillik hisob raqamidagi qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo'yicha qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Undan tashqari, bankning ixtiyorida mavjud bo'lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun etarli bo'lmasa, zarur miqdordagi mablag'larni markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, resurslar bozorida sotib olishi yoki qarzga olishi mumkin. SHunday qilib, o'z mablag'lari va jalb qilingan yoki sotib olingan mablag'lari yig'indisi tarkibiy shakllanish

jihatdan tijorat banklarining resurs bazasini tashkil qiladi. Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi: yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqlaridan qoldiqlari; bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar; olingan banklararo kreditlar; vakil bank tomonidan ochilgan "Vostro" depozit hamda valyuta hisob varaqasidagi mablag'lar va boshqa manbalar.

Ustav kapitalining miqdori, uni shakllantirish va unga o'zgartirishlar kiritish tartibi bankning Nizomida belgilangan bo'ladi. Ustav kapitalini oshirish yangi aksiyalarni muomalaga chiqarish, yoki sof foydani kapitalizatsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ustav kapitalidagi o'zgarishlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanishi va Markaziy bank ro'yxatidan o'tishi kerak.

Bank kapitalining yana bir turi zaxira kapitali bo'lib, u tijorat banklarining foydasidan ma'lum foizini ajratish orqali tashkil qilinib, u majburiyatlarni qaytarishga va maxsus zaxiralar tashkil qilinmaydigan bank operatsiyalari bilan bog'liq xatarlarni qoplashga sarflanadi. Zaxira kapitali odatda kredit riski ochiq namoyon bo'lganda bank kengashining qarori bilan sarflanishi mumkin.

Turli debitorlar bilan hisoblashishlar bo'yicha tuzilgan jamg'armalar ham qonunchilikka asosan tijorat bankining o'z mablag'lari qatoridan joy olgan. SHu bilan birga xalqaro hisob standartlariga asosan, kredit tashkilotlari ushbu mablag'larni o'z mablag'lari qatoriga kiritmaydi, balki ularni o'zaro mos debitorlik qarz majburiyatlaridan chegirib tashlashadi. Bu esa zaxiralarning iqtisodiy mohiyatini, ya'ni ular o'zida aktiv daromad keltiradigan operatsiyalarni aks ettiradi. SHu sababdan ham, ular xatarli mablag'lar hisoblanadi va ishonch kamligi tufayli bankning o'z mablag'lari tarkibiga kiritilmaydi.

Ishonchlilik darajasi bo'yicha bankning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'laridan keyingi o'rinda turuvchi jalb qilingan va qarz mablag'lari bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siriga bog'liqdir:

– fuqarolarning omonatlari va yuridik shaxslarning depozitlari bo'yicha foiz stavkalari miqdori;

– omonat va depozitlarni qabul qilish, hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochish hamda ularni yuritish shartlari.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari qarz mablag'laridan shunisi bilan farq qiladiki, birinchi holda, mablag'larni taqdim qilish mijoz va bank omonatchilarining tashabbusi bilan amalga oshirilsa, keyingi holda - bank tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Jalb qilingan mablag'lar qatorida alohida resurs sifatida kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlarining mablag'larini ko'rsatish lozim. CHunki, banklar ishlab chiqarish va savdo tashkilotlari yoki xususiy shaxslardan farqli o'laroq bir-birlari bilan operatsiyalarni amalga oshirishda banklararo bozorda qatnashishlari mumkin, shu sababdan ham ular bir-birlarining likvidliklariga va moliyaviy holatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xuddi shu tamoyil asosida, qarz mablag'larining alohida bir guruhiga, markaziy bank va boshqa banklar oldidagi majburiyatlar ham kiritiladi. Bundan tashqari, tashqi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatadigan yuqori

darajadagi riskli resurslar qatoriga norezident banklar, korxonalar va jismoniy shaxslarning mablagʻlari ham kiradi. Nobank sektoridan jalb qilingan mablagʻlar qatorida ishonchlilik darajasiga koʻra depozitlar (asosan muddatli depozitlar) muhim oʻrin tutadi.

SHu oʻrinda, mijozlarning hisob raqamlaridagi qoldiqlariga ham alohida eʼtibor qaratish lozim, chunki, bu mablagʻlar deyarli tekin hisoblanadi va shu sababdan bu mablagʻlar bankning kredit resurslari qatoridan joy olishi mumkin. Bu mablagʻlardan ustalik bilan foydalanilsa, ularni oʻz mablagʻlariga ham tenglashtirish mumkin. Tijorat banklari resurslarining shakllanish tartibi va ularning ustav kapitalining minimal miqdori Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

Tijorat banklari kredit resurslarini jalb qilish uchun xil yoʻli asosida jalb kiladilar, yani bu akkumulyatsiya mexanizmi. Akkumulyatsiya mexanizmiga tijorat banklarining oʻz mablagʻlari, jalb kilgan mablagʻlari va sotib olingan mablagʻlari kiradi.

Kredit resurslarini jalb qilish mexanizmini rejali iqtisodiyotdagi holati va hozirgi holatini solishtirish maqsadga muvofiq boʻladi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida butun mulk davlatga tegishli boʻlgani uchun resurslarni jalb qilish banklar uchun muammo boʻlmagan. U davlat tomonidan mablagʻlarni yoʻnaltirish orqali amalga oshirilgan. I-bobda aytilganidek, ishlab chiqarish shakllari oʻzgarishi bilan kredit mexanizmiga taʼsir qiladi.

### **Rejali iqtisodiyot va bozor iqtisodiyotida akkumulyatsiya mexanizmi**

Rejali iqtisodiyot	Bozor iqtisodiyoti
Davlat banklari mablagʻlari	Tijorat banklari oʻz mablagʻlari
Davlat budjeti va nobudjet tashkilotlari mablagʻlari	Depozit mablagʻlar
Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalari mablagʻlari	Nodepozit mablagʻlar
Ashcholi mablagʻlari	

Bank resurslari bank tomonidan passiv operatsiyalarning amalga oshirilishi natijasida tashkil topadi va bank balansining passiv kismida aks ettiriladi. Bank resurslari boʻlib oʻz mablagʻlari, jalb kilingan mablagʻlar, banklararo kredit va boshka karz mablagʻlari kiradi. Tijorat banklari bank resurslarini kredit resurslari sifatida ishlatishi va foiz koʻrinishida daromad olishi mumkin.

Bank kredit resurslarini shakllantirishda asosiy manba boʻlib quyidagilar hisoblanadi: oʻz mablagʻlari; jalb qilingan mablagʻlar; sotib olingan mablagʻlari.

**Oʻz mablagʻlari.** Bankning oʻz mablagʻlari bank qaysi mulkchilik shaklida boʻlishidan qatʼiy nazar, bank resurslarining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

**Birinchiidan,** bankning oʻz mablagʻlari bankning moliyaviy resurslari uchun manbadir. Bularsiz bank oʻz faoliyatini boshlay olmaydi. Chunki bank uchun er, bino va ish jihozlari birinchi navbatda zarurdir. Odatda, operatsiyalarni koʻpaytirish maqsadida qilingan xarajatlar foyda hisobidan qoplansa, banklar koʻpincha qoʻshimcha aktsiyalar chiqarishga harakat qiladi.

**Ikkinchiidan,** oʻz mablagʻlari bank uchun himoya va kafolatdir. Agar bank aktiv operatsiyalarinig natijasi zarar bilan tugagan boʻlsa, yaʼni zarar hajmi tashkil



etilgan rezervdan oshib ketsa, zararni qoplash uchun aktsioner kapitalning ma'lum bir qismi ishlatiladi.

Bankning o'z mablag'lari tarkibiga ustav kapitali, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda kiradi.

**Bankning ustav kapitali.** Agar bank aktsiyadorlik jamiyati sifatida tashkil topsa, uning ustav kapitali, sotilgan aktsiyalarning nominal qiymati yig'indisidan iborat bo'lib, ayrim hollarda ushbu yig'indidan ortiq yoki kam bo'lishi mumkin.

Bank qaysi mulkchilik shaklida bo'lishidan qat'iy nazar, uning ustav kapitali qatnashchilarning pul quyilmalaridan tashkil topishi lozim. Bank ustav kapitali faqat pul ko'rinishida va moddiy aktivlar hisobidan tashkil etilishi mumkin.

Ustav kapitali uchun to'lanadigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida yoki boshqa banklarda ochilgan jamg'arma hisobvarag'iga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan mablag'lardan depozit sifatida foydalanish mumkin. Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Xorijiy banklar uchun agar ushbu banklar tomonidan O'zbekistonda sho'ba banki ochilsa, bu sho'ba bankning ustav kapitali asosiy bank tomonidan to'liq to'lanadi.

**Zahira fondi.** Banklarning rezerv fondi tashkil qilinishidan maqsad shuki, banklar aktiv operatsiyalari natijasida ko'riladigan zararni qoplash uchun, ko'zda tutilgan foyda olinmay qolgan hollarda, imtiyozli aktsiyalarga dividend to'lash uchun, bank chiqargan obligatsiyalarga to'lanadigan foizlarni to'lash uchun tashkil qilinadi. Zahira fondi har yili foyda hisobidan qilinadigan ajratmalar hisobidan tashkil qilinadi. Zahira fondining hajmi ustav kapitaliga nisbatan 25 foizdan 100 foizgacha bo'lishi mumkin. Bu bank ustavida ko'rsatiladi. Zahira fondiga ajratmalar summasi tijorat banki aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

Bankning o'z mablag'larining muhim funktsiyasi, bu bankning majburiyatlarini ta'minlash bo'lib xizmat qiladi. O'z mablag'larini biz bankning majburiyatlari oldidagi kafolati deb atashimiz mumkin. Jahon banki amaliyotida bankning o'z mablag'lari resurslar uchun manba bo'lib xizmat qilib, bankning to'lov qobiliyatini saqlashga imkon beradi. Agar bank aktiv operatsiyalari natijasida zarar ko'rib resurslarini yo'qotsa, o'z mablag'lari aktsiyadorlari oldida majburiyat bo'la olmaydi. O'z mablag'lari bank rivojlanishi uchun baza bo'lib xizmat qiladi.

**Jalb qilingan mablag'lar.** Tijorat banklari resurslari tarkibida jalb qilingan mablag'larning salmog'i yuqori darajada bo'ladi. Rivojlangan davlatlar tijorat banklari aktiv operatsiyalarining 90%ini jalb qilingan mablag'lar qoplaydi.

Tijorat banklari korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, bank va aholidan bo'sh pul mablag'larini o'ziga jalb qiladi. Pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qilish depozit operatsiyalari deyiladi. Banklar uchun depozitlar passiv operatsiyalar o'tkazishda asosiy resurs hisoblanadi.

**Depozit** - bu pul mablag'i bo'lib, naqd yoki naqdsiz ko'rinishda bankka ma'lum muddatga haq to'lash sharti asosida saqlash uchun beriladi.

Qo'yilmalarni bir nechta xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiya qilish mumkin:

- Depozitning egasiga qarab, depozitning egasi jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

- Depozitning muddatligi yoki olish tartibi bo'yicha:

- a) muddatli depozitlar

- b) talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar

- v) jamg'arma depozitlarga bo'lish mumkin.

Tijorat banklari bo'sh pul mablag'larini quyidagi manbalardan jalb qilishi mumkin:

- \* tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo'lidagi pul, ya'ni pul kapitali;

- \* aholi qo'lidagi pul ertami-kech ehtiyojni qondirish uchun to'plangan pul, egasi qo'lidagi kapital emas, balki iste'molni qondirish vositasi;

- \* davlat ixtiyoridagi pullar. Bu pul ham kapital (davlat korxonalarini uchun), ham umumiy iste'mol pulidir;

Yuqorida qayd qilingan bo'sh pullar ssuda fondini tashkil etadi va uning yuzaga kelishi ob'ektiv tarzda muqarradir.

**Talab qilib olinguncha depozitlar** — bu shunday mablag'larki, bunday mablag'lar har qanday vaqtda egasi tomonidan talab qilinishi mumkin. Bunday mablag'lar bo'lib joriy, hisob-kitob, byudjet va boshqa schetlar, hisob-kitoblar o'tkazish bilan bog'liq mablag'lar yoki maqsadli mablag'lar hisoblanadi.

**Muddatli depozitlar.** Bunday pul mablag'lari bank va mijoz urtasidagi kelishuvga asosan, ma'lum muddatga, foiz to'lash sharti bilan jalb qilinadi. Foiz stavkasi qo'yilmaning miqdori va muddatiga qarab, past yoki yuqori bo'ladi. Yana bir holati, muddatli depozitning egasi qo'yilmadan faqat muddati o'tgandan keyingina foydalanishi mumkin. Agar mijoz muddatidan ilgari depozitni talab qilsa, foiz stavkasi kamaytiriladi. Banklar muddatli depozitlarni jalb qilishdan manfaatdordirlar, chunki ular stabil va bankka ularni ma'lum davrga aktiv operatsiyalar bo'yicha joylashtirish imkonini beradi.

**Jamg'arma depozitlari.** Jamg'arma depozitlari davriy badallar asosida shakllantirib boriladigan mablag'lardir.

Jamg'arma depozitlari muddatli va talab qilinguncha turlarga bo'linadi. Bunday depozitlarni rasmiylashtirish jamg'armaning turiga qarab amalga oshiriladi. Buning uchun mijozga «jamg'arma daftari» beriladi.

Respublikamiz tijorat banklari depozitlarida talab qilinguncha bo'lgan depozitlarning salmog'i yildan yilga pasayib borayotganligi banklarning resurs bazasi mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida tijorat banklarining kreditlash salohiyatini oshiradi.

Jamg'arma depozitlarining depozitlar umumiy hajmida kichik salmoqqa ega ekanligi aholining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini bank muassasalariga jalb qilish borasida sezirlarli muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.

Depozitlar banklar resurslarini shakllantirishda muhim va zarur manbadir. Bank bu resurslarni jalb qilishi uchun xarajatlar qilishga ham to'g'ri keladi. Qo'yilmalarning mobilligi ma'lum darajada mijozlarga ham bog'liq. Raqobatchi banklar kredit resurslari bozorini egallashga harakat qiladi.

Banklar mablag'larni jalb qilish uchun «depozit siyosati»dan tashqari boshqa passiv operatsiyalarni ham amalga oshiradilar.

**Banklararo kredit.** Banklar resurslarini boshqa banklardan ssuda olish, ya'ni banklararo kredit hisobiga ham kengaytirish mumkin. Ortiqcha kredit resurslarini sotish bilan moliyaviy barqaror tijorat banklari shug'ullanadi. Bu resurslar daromad keltirishi uchun banklar bu resurslarni boshqa banklarga joylashtirishga harakat qiladilar. Banklar resurslarini joylashtirib, daromad olishdan tashqari, bank-kreditor uchun bankning boshqa faoliyatlari bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Banklar uchun o'z kredit resurslarini xo'jaliklarga joylashtirishdan ko'ra, banklarga joylashtirgan foydaliroqdir. Ayniqsa, hozirgi sharoitda kreditning qaytishi uchun kafolat xo'jalik korxonalaridan ko'ra banklarda kattaroqdir. Banklararo kreditning muddatlari har xil. Rivojlangan davlatlar tijorat banklari amaliyotida bir, uch, olti oy muddatli banklararo kredit berish ko'prok ishlatiladi. Yana shuni aytib o'tish joizki, 1 kundan tortib bir necha yil muddatga beriladigan banklararo kredit berish ham rivojlanmokda. Hozirgi paytda MDH davlatlarida 3 oydan 6 oy muddatgacha banklararo kreditdan foydalanish banklar faoliyatida keng tarqalgan. Banklararo kreditning foiz stavkasi, odatda, xo'jaliklarga beriladigan kreditlar foiz stavkasidan past bo'ladi va Markaziy bank tomonidan bu stavkalar nazorat qilinadi. Resurslarni jalb qilish nuqtai nazaridan esa bank uchun banklararo kredit boshqa depozitlarni jalb qilishdan ko'ra qimmatroqqa tushadi. Banklar resurslarini banklararo kreditlar hisobiga shakllantirishdan maqsadi shuki, banklar o'z mijozlarini kreditga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir va kredit qo'yilmalarini yanada kengaytirib foyda olishdir.

Banklararo kreditni jalb qilish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

*Birinchi*, banklar mustaqil ravishda, ya'ni to'g'ridan to'g'ri yo'l bilan amalga oshiriladi.

*Ikkinchi*, biror moliyaviy vositachi orqali.

Banklararo kreditning foiz stavkasi shartnoma tuzilayotgan paytdagi kredit bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda o'rnatiladi.

## **2. Tijorat banklari kredit resurslari tarkibida jalb qilingan mablag'larning tutgan o'rni.**

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda asosiy e'tibor bank balansi passividagi mablag'larning manbalariga qaratiladi. Ushbu mablag'lar ikkita yirik guruhga majburiyatlar va kapitalga bo'linadi.

Majburiyatlar – bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar hisobidan, kapital esa bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'larning barqaror manbalar hisobidan shakllantirilishi tijorat banklarining samarali ishlashini va iqtisodiy jihatdan baquvvatligini ta'minlaydi.

Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushinip majburiyatlar tashkil etib, ular 85-90 foizdan iborat bo'ladi. Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab barqaror va nobarqaror, ular uchun to'lanadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag'larga ajratish mumkin.

Demak, bank resurslarining mohiyatini ochib berishda ularning shakllanish manbasining asosini tashkil etadigan passiv operatsiyalarni e'tiborga olish juda muhim hisoblanadi. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari xususida

xorijlak, Mustaqil davlatlar hamdustligiga a'zo mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodchi olimlari tadqiqotlar olib borgan. SHu bois, ushbu masalani chuqur o'rganishda real ehtiyoj yo'qligini ta'kidlagan holda, yuqorida qayd etilgan fikrimizning tasdig'i sifatida ularning ayrimlarini keltirib o'tsam.

Professor SH.Abdullaevaning fikriga ko'ra, bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi<sup>11</sup>.

Xuddi shuningdek, yana bir guruh o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar "Passivlar haqida bankning shunday operatsiyalari tushuniladiki, ularning natijasida passiv yoki aktiv-passiv hisob varvqlarida mablag'larning ko'payishi yuz beradi, jumladan, passivdagi mablag'lar aktivdagidan ortib boradi<sup>12</sup>"- deb ta'riflanadi. Demak bankning passiv operatsiyalari asosida uning resurslari shakllantiriladi.

Xalqaro bank amaliyotida passiv operatsiyalarning quyidagi to'rtta shaklidan keng foydalaniladi:

- a) banklarning foydasidan fondlarni shakllantirish va ularni ko'paytirishga ajratmalar;
- b) depozit operatsiyalar;
- b) yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar;
- r) qimmatli qog'ozlar, pul biletlar va tangalarni muomalaga chiqarish (emissiya).

SHulardan depozit operatsiyalarga to'xtaladigan bo'lsak. Depozit operatsiyalar- banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlarga ko'ra muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalardir<sup>13</sup>.

Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining ob'ekt va sub'ektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarining sub'ektlari bo'lib bir tomondan tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan:

- davlat korxonalar va tashkilotlari;
- moliya, sug'urta, investitsion va trust kompaniyalar;
- xususiy korxonalar va tashkilotlar;
- aksioner kompaniyalar;
- banklar va boshqa kredit muassasalari;
- qo'shma korxonalar, kooperativlar;
- jamoa tashkilotlari va fondlar;
- alohida jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmalari qatnashadilar.

<sup>11</sup> Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar.-T.: "Moliya", 2000. 211-b

<sup>12</sup> Kadirov A.K., Karaliev T.M., Omonov A.A. Xozyaystvenniy raschet vsisteme kommercheskix bankov. Monografiya.-T.: 2Uzbittsentri», 1991. s.16

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to'plami.-T.: "O'zbekiston", 2003, 86-b

Depozit operatsiyalarining ob'ekti bo'lib ehtiyojdan ortiq pul mablag'lari hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo'lib, balans likvidligi, mijozlarning moliyaviy ahvolidan barqarorligi hisoblanadi. Depozit operatsiyalari tijorat banklarining depozit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi, ya'ni:

- depozit operatsiyalari bank daromadlarining oshishiga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi kerak;
- bank balansining likvidligini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish kerak;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli qo'yilmalarga e'tibor qaratish lozim;
- depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog'liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralari ko'rish zarur va boshqalar.

**Banklar depozit operatsiyalarini tashkil qilishda bir necha asosiy prinsiplarga amal qilishlari zarur:**

- depozit operatsiyalar foyda olishga ko'maklashishi yoki kelajakda foyda olishga sharoit yaratishi kerak;
- depozit operatsiyalar turli tuman va turli sub'ektlar bilan amalga oshirilishini ta'minlash;
- depozit operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida muddatli omonatlarga alohida ahamiyat berish;
- kredit qo'yimlari bilan depozit operatsiyalar muddati va qiymati orasida o'zaro bog'liqlik va muvofiqlikni ta'minlash;
- depozit va kredit operatsiyalarini tashkil etishda bank bo'sh resurslarini hajmini kamaytirish;
- depozitlarni jalb etishga imkoniyat yaratuvchi bank xizmatlarini rivojlantirish.

YAqin kunlarga, banklar tomonidan depozit operatsiyalarga etarli ravishda e'tibor qaratilmas edi. Buning asosiy sabablari:

—**birinchidan**, bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning taklifdan birmuncha yuqoriligi;

—**ikkinchidan**, inflatsiya darajasining nisbatan balandligi;

—**uchinchidan**, arzon moliyaviy resurslarning mavjudligidir. Ushbu holat tijorat banklarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ortiqcha qiyinchiliklarsiz qondirish bilan birga, ularga etarli miqdorda o'z foydasini shakllantirish imkoniyatini ham beradi. Ammo aholining banklarga omonatlar qo'yish istagining pasayib ketganligi, pul mablag'larini kredit muassasalari tizimidan tashqarida aylanishini kamaytirish lozimligi, keyingi yillarda inflatsiya darajasining pasayishi, Markaziy bankning qayta maliyalash stavkalarining muntazam ravishda kamayib borishi tijorat banklaridan depozit operatsiyalarning amaliy ahamiyatini oshirishni talab etmoqda.

Tijorat banklarining jalb qilgan mablag'larining asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo'yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarvg'ida ma'lum vaqtgacha saqlanadigan mablag'lar

hisobidan shakllantiriladi. Bank amaliyotida qo'llanilayotgan depozitlar haqidagi iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya-kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlar yoki pul mablag'lari tushuniladi<sup>14</sup>.

Rossiyalik iqtisodchi olim L.S.Padalkinaning fikricha depozit tarkibiga faqat muddatsiz depozitlar kiradi<sup>15</sup>.

E.M.Rode depozitlar o'z ichiga, jamg'arma sertifikatlaridan tashqari – barcha muddatli va muddatsiz omonatlarni oladi<sup>16</sup>, dab ta'kidlaydi.

Depozit mijozlarning banka vaqtincha foydalanish uchun bergan mablag'lari bo'yicha bank va mijoz o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni aks ettiradi.

Depozitlarning guruhlanishi bo'yicha me'yoriy hujjatlar va iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim manbalarda ular asosan, uchtae guruhga ajratilsa, ba'zi adabiyotlarda to'rtta guruhga ajratilishi ta'kidlanadi, Markaziy bankning depozitlar to'g'risidagi nizomida esa beshta guruhga bo'lingan.

Bizning nazariyalarimizda, banklarning depozit operatsiyalarini iqtisodiy mazmuni va muddatiga qarab to'rtta guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Ushbu guruhga talab qilib olunguncha saqlanadigan hisobvarvqlardagi depozitlar, muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlar (sertifikat)lar va boshqa depozitlar kiradi

Depozit mablag'larni moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror va nobarqaror mablag'larga hamda to'lovliligi jihatidan qimmat va nisbatan arzon mablag'larga ajratish maqsadga muvofiq.

Moliyaviy jihatdan barqaror mablag'lar tijorat banklarining asosiy foyda manbasini tashkil etish bilan birga, ularni kutilmaganda vujudga keladigan zararlardan himoya qilish imkoniyatini ham beradi. Ushbu mablag'larga, yuqorida ta'kidlaganimizdek, banklarning ustav kapitalini, joriy yil va o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini, joriy yilning sof foydasi hamda muddatli va jamg'arma (sertifikat) depozitlarini kiritishimiz mumkin. Muddatli va jamg'arma (sertifikat) depozitlar banklar uchun muddati jihatidan ham barqaror moliyaviy manba hisoblanadi. Zero banklar, ushbu mablag'larni likvidsizlikka tushib qolish muammosini o'ylamasdan ma'lum muddatga kredit resurslari sifatida ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tijorat banklari resurslarining muddati jihatidan nobarqaror mablag'lari qatoriga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlardagi mablag'larni kiritishimiz mumkin. Banklar mazkur turkumga kiruvchi mablag'lardan kredit resursi sifatida foydalgandanda ularning likvidsizlik holatiga tushib qolish ehtimoli yuqori bo'ladi. Chunki mijoz ushbu hisobvaraqlardagi mablag'larni bank kutmagan paytda qisman yoki to'liqicha ko'chirish haqida bankka topshiriq berishi yoki naqd pul shaklida berishni talab qilish huquqiga ega. SHu jihatdan, ushbu hisobvaraqlarda saqlanadigan mablag'lar muddat jihatidan nisbatan nobarqaror resurslar turkumiga kiritiladi. Bank tomonidan mazkur

---

<sup>14</sup> Mitsek S.A. «Ekonomika finansovix institutov» Ekatreburg, 1996. S.42

<sup>15</sup> Padalkina L.S. Sovremennaya denejno-kreditnaya sistema kapitalizma.-M.:VZFEI, 1982. S.58.

<sup>16</sup> Rode E.M. Banki,birji, valyuti sovremennogo kapitalizma.-M.: «FiS», 1986. S.42

mablag‘lar kredit resurslari sifatida ishlatilishi uni kutilmagan puytda likvidsizlik holatiga olib kelishiga sabab bo‘ladi.

Mablag‘larning tashkil topish manbalari jihatidan qimmatli yoki arzon mablag‘lar guruhiga bulish mumkin. Bu erda asosiy e‘tibor depozit operatsiyalari natijasida vujudga keladigan mablag‘larga qaratilib, yuqorida qayd etilgan nisbatan barqaror mablag‘lar tijorat banklari uchun qimmat resurs manbalarini tashkil etadi. Arzon resurs mablag‘lari turkimiga esa o‘z-o‘zidan aniqki nisbatan noborqaror mablag‘lar kiradi.

**Mul’tiplikatsiya jarayoni va uni majburiy zahira tomonidan cheklanishi.**

<b>Banklar</b>	<b>Depozit</b>	<b>Kredit (2-4)</b>	<b>Zaxira (2*20/100)</b>
"A" bank	1000	800	200
"B" bank	800	640	160
"V" bank	640	512	128
"S" bank	512	409,6	102,4
<b>JAMI:</b>	<b>5000</b>	<b>4000</b>	<b>1000</b>

Manba: Iqtisodiy adabiyotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

“A” bankdagi dastlabki depozit 1000 birlikning 20%i (200 birlik) majburiy zaxira sifatida Markaziy bankka o‘tkazilgandan keyin tijorat bankining kredit berish imkoniyati 800 birlikni tashkil qiladi. Bu kredit mijozga berilgandan keyin boshqa bank depozitiga aylanishi mumkin. Masalan. Ushbu berilgan kredit summasi “B” bankning mijoz bo‘lgan mahsulot etkazib beruvchining hisobvarag‘iga sotuvdan tushum shaklda kelib tushadi. “A” bankning krediti “B” bankda depozitni vujudga keltiradi. “B” bank bu depozitdan kredit beradigan bo‘lsa, majburiy zaxirani hisobga olgan holda (800\*20/100) uning miqdori 640 (800-160) birlikka teng bo‘ladi. Ushbu jarayonni oxirigacha (ya’ni depozit va kreditlarning to‘liq ishlatilishigacha) tasavvur qiladigan bo‘lsak, 1000 birlik shakllantirilgan dastlabki depozit miqdori, majburiy zaxira darajasi 20% bo‘lganda barcha banklar bo‘yicha 5000 birlikkacha, 800 birlikka teng bo‘lgan dastlabki kredit miqdori esa 4000 birlikka o‘sishi mumkin.

Agar majburiy zaxira yo‘q deb taxmin qilinsa nazariy jihatdan depozit mul’tiplpkatsiyasi va kredit ekspansiyasi cheksizlikka teng va teskarisi, majburiy zahira 100% bo‘lgan taqdirda depozit mul’tiplpkatsiyasi 0 ga teng bo‘ladi.

Depozit (yoki kredit) mul’tiplpkatsiyasining maksimal miqdori yoki chegarasini hisoblash uchun quyidagi matematik formuladan foydalaniladi.

$$D=D_0*1/R$$

Bundan:

D—bank tizimida shakllantirilishi mumkin bo‘lgan depozitning maksimal miqdori;

D<sub>0</sub>—dastlabki depozit;

R—depozit birligiga teng keladigan likvidlik zahirasi.

YUqorida keltirilgan misolimizda depozit mul’tiplpkatsiyasi koeffitsenti 5 yoki 5000 birlikka (D=1000\*(1/2)), kredit mul’tiplpkatsiyasi koeffitsenti esa 4 yoki 4000 birlik (K=800\*(1/0.2))ka teng.

Mul'tiplikatsiya darajasi majburiy zaxira darajasiga teskari mutanosib ravishda o'zgaradi, demak majburiy zahira darajasi oshsa, bank tizimining kredit salohiyati imkoniyatlari ham kamayadi.

Depozit mul'tiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasi g'oyasi quyidagi iqtisodiy zaruriyatni keltirib chiqaradi: har qanday tijorat banki depozitlarni qabul qila turib, o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarini bajarishlari uchun uning ma'lum bir qismini likvidlik zahirasi sifatida saqlashlari lozim. SHu bois tijorat banklarining kredit berish salohiyati miqdori bank tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar, majburiy zaxira hajmiga bog'liq. Kredit potentsiali (salohiyati) miqdori (Ks)ni qisqacha holda quyidagi formula bilan ifodalash mumkin.

$$Ks=D-Mz-Lz$$

Bu erda:

D—jalb qilingan mablag'lar;

Mz—majburiy zahira miqdori;

Lz—likvidlikni ta'minlashbo'yicha zahiralar.

SHunday qilib tijorat banklarining kredit salohiyatiga:

- bankka jalb qilingan mablag'larning umumiy miqdori;
- Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zahira darajasi;
- joriy likvidlikni saqlash maqsadida tashkil qilingan zahira va undan foydalanish tartibi;
- kredit salohiyati manbalarining tarkibi va barqarorligi;
- bank majburiyatlarining tarkibi va umumiy miqdori kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklarining depozit siyosatini shakllantirishda hisobga olinadigan uchunchi omil tijorat bankining likvidligi va to'lovga qobilligining o'zgarishi hisoblanadi. Tijorat banki balansining joriy likvidlik darajasini pasayishi bankning depozitlar va ularga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarish imkoniyatini pasaytiradi.

Banklar balansining umumiy likvidligi yomonlashuvi muddatli va jamg'arma depozitlarining o'z vaqtida hamda to'liq qaytarilmaslik holatlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun ham bank balansining joriy va umumiy likvidligini ta'minlash tijorat banklari depozit siyosatining samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarining depozit siyosatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarining o'zgarishi hisoblanadi. Agar Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarida ko'proq qimmatli qog'ozlarni sotuvchi bo'lib ishtirok etsa, bu holat tijorat banklarining likvidlikini pasayishiga olib keladi. Bu esa, banklarning depozit siyosatiga tegishli o'zgarishlarni kiritilishiga sabab bo'ladi.

Tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinadigan asosiy omillardan yana biri bank xizmatlari milliy bozoridagi o'zgarishlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikamizda bir qator tijorat banklarining kredit resurs bazasining nisbatan zaifligi ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sonini oshishiga to'sqinlik qilmoqda. Bunda, ayniqsa banklarning qimmatoi qog'ozlar



bilan bog‘liq operatsiyalari ning rivojlanish darajasi pastligicha qolmoqda. O‘tish davriga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri moliyaviy bozorlarni rivojlanish darajasining past ekanligi hisoblanadi. Bu esa, aholining va korxonalarining pul mablag‘larini keng ko‘lamda bank muassasalariga jalb qilish jarayoniga bevosita salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytadiganda, tijorat banklarining depozit siyosatini oqilona boshqarish banklarning kredit resurslarini salmog‘ini yanada oshishiga olib keladi.

### **13-mavzu. “Kredit iqtisodiy kategoriyasi va kreditlashni tashkil etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari”**

- 1. Kredit munosabatlari va ularning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o‘rni.**
- 2. Kreditning mohiyati va uning ko‘rinishi, ya’ni uning yuzaga chiqishi.**

#### **Kredit munosabatlari va ularning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o‘rni**

Kredit (lotincha – ishonish – verit, doveryasya) deganda o‘z egalari qo‘lida vaqtincha bo‘sh turgan ayrim qiymat yoki pul mablag‘larining boshqalar tomonidan ma‘lum muddatga xaq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar tushuniladi.

Kredit qadimdan ma‘lum bo‘lib, u dastlab savdoda almashuv jarayonida paydo bo‘lgan bo‘lib, u avval tovarlarni kreditga sotilishi bilan bog‘liq. Bunga sabab xaridorni tovar sotib olishga hamisha ham naqd puli bo‘lmaydi, u tovar sotilsa tushadi, tovar sotuvchi esa uni tushishini kutib turolmaydi (shu davrda tovarning qiymati tushib ketishi, sifati pasayishi mumkin.). SHu va boshqa holatlar tovarlarni kreditga sotishga olib kelgan. Kredit tovar ishlab chiqarishning va tovar muomalasining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi va uning rivojlanishi bilan bog‘liq. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan pul shaklidagi kredit paydo bo‘ldi. Keyinchalik kredit berish mustaqil faoliyatga aylanib, uning asosiy funksiyasi bo‘lib pul egalari va unga vaqtincha muxtoj bo‘lganlar o‘rtasidagi vositachilikdir. Hozir bu faoliyat maxsus malaka va texnikaga ega bo‘lgan maxsus ixtisoslashgan muassasalar-banklar tomonidan amalga oshirilmoqda. Kreditning imkoniyati va zarurligi shu bilan bog‘liqki korxonalar mahsulot sotishda, xodimlarga mehnat xaqi hisoblanganda, korxonalar va jismoniy shaxslar o‘z pullarini banklarda saqlashi va boshqa hollarda vaqtinchalik bo‘sh bo‘lgan pul mablag‘lari bo‘lgani holda boshqa korxonalar va tashkilotlarda o‘z faoliyatlarini uzluksizligini ta‘minlash uchun tegishli pul mablag‘iga ehtiyoj sezadi. Bu holat qishloq xo‘jalik korxonalariga ham tegishli bo‘lib, bu ishlab chiqarishni mavsumiyligi, mahsulot ishlab chiqarish vaqti bilan uni sotish hajmini ko‘pchilik mahsulotlar bo‘yicha mos kelmasligi, sotilgan mahsulotlarga pulni o‘z vaqtida kelib tushmasligi va boshqa holatlar ularni kreditdan foydalanishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning ahamiyatini oshishi quyidagilar bilan bog‘liq:

- naqd puldan foydalanishni kamaytirib, muomila harajatlarini, pul emissiyasini kamayishini ta'minlaydi;

- korxonalar va aholining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari kredit muassasalarida saqlanishi tufayli ulardan unumli foydalanish ta'minlanadi.

- bank muassasalariga to'plangan pullar xalq xo'jaligi tarmoqlari, korxonalarining asosiy va aylanma mablaglarining to'ldirishning qarzga olingan manbai sifatida muhim ahamiyatga ega.

- kredit tufayli xo'jaliklar o'rtasidagi shartnoma majburiyatlarining bajarilishi ta'minlanadi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi va boshqalar.

Ijtimoiy iqtisodiy tizimda kreditning o'rni va roli u bajarayotgan funksiyalar bilan aniqlanadi. Kreditning funksiyasi – bu kreditning iqtisodiyotdagi faoliyatining muayyan ravishda namoyon bo'lishidir. Kreditning mohiyatini tushunish uchun avvalom bor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo'lishi uchun uning zarur munosabatlari - kreditning ob'ekti va sub'ektini bilish zarur. Kreditning ob'ekti - bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan qiymatdir. Boshqacha aytganda kredit aynan qaysi maqsad uchun berilsa, shu kredit obekti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida banklar dehqonchilik va chorvachilik harajatlari - mineral o'g'it, yoqilg'i va moylash materiallari va boshqa harajatlar kreditlanadi.

Kredit munosabatlarining sub'ektlari bo'lib (qarz beruvchi) va qarzdor (qarz oluvchi)lar hisoblanadi. Boshqacha aytganda kreditlash sub'ektlari bo'lib davlat korxonalar va tashkilotlari, qurilish tashkilotlari, savdo tashkilotlari, fermer va shirkat xo'jaliklari, yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, qo'shma korxonalar, mikro firmalar, birlashmalar, tijorat banklar va boshqalar hisoblanadi. Uqoridagi sub'ektlar kredit oluvchi sifatida faoliyat ko'rsatsa, tijorat banklari yoki boshqa kredit muassasalari kredit beruvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Kreditlar quyidagi tamoyillarga ega:

Kreditning qaytarilishi. Bu tamoyil kreditning umumiy belgisi hisoblanadi, lekin u o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. U moddiy jarayonlarga, qiymat aylanishining tugashiga asoslanadi. Ammo doiraviy aylanishning tugashi – bu qaytarib berish emas, qaytarib berish uchun zamin tayyorlash hisoblanadi. Qaytarib berishlik obektiv belgi hisoblanadi va bu tamoyil boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan moliyadan farq qiladi. Kreditning bu tamoyili amaliyotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko'chirish yo'li bilan to'lanadi. SHu yo'l bilan banklar kredit resurslarini qayta tiklanishini ta'minlaydi. Sobiq ittifoq davrida «qaytarilmaydigan ssuda» tushunchasi mavjud bo'lib, u qishloq xo'jaligida ham keng tarqalgan edi. Bu banklarni korxonalar moliyaviy ahvolini hisobga olmagan holda berilib, aslida u byudjet subsidiyasining qo'shimcha shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Kreditning muddatliligi. Bu kreditning ma'lum muddatga berilishini anglatib, u qisqa va uzoq mudatli kreditga bo'linadi. Bu muddat qarzdor uchun xoxlagan muddatda emas, balki u shartnomada belgilangan muddat hisoblanadi. Kreditni o'z vaqtida qaytarilishi ikkala tomon uchun ham muhim hisoblanadi. Qarz bergan tomon uchun kreditni o'z vaqtida foiz bilan qaytarilishi uni yana kreditga

berish imkoniyatini yaratadi, qarzdorni esa shartnomada ko'zda tutilgan jazo choralardan qutultiradi. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarni tejimli va qayta ishlatish muddatiga, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish muddatiga, tovarlarni sotish muddatiga va pirovard natijada aylanma mablag'larni doiraviy aylanishini tezligiga bog'liqdir.

Kreditni tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligi. Bu tamoyilning mohiyati shuki, bunda xo'jalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag'larining bir so'miga muayyan boyliklarning har bir so'mi qarama-qarshi turishi kerak. Berilgan kreditlar tovar-moddiy boyliklari va ma'lum harajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Ta'minlanmagan kreditlarning berilishi kreditlarni bankga qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Buning uchun hozirgi sharoitda qarz oluvchilar bankga tovar yoki tovar xujjatlarini, mulkni garovga qo'yadi. Kredit warrant (garov uchun xizmat qiluvchi xujjat) yoki uchinchi shaxs kafolati asosida ham berilishi mumkin.

To'lovlilik. Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag'larini hisoblangan foizi bilan to'liq o'tkazadilar. Kredit uchun xaq to'lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi qo'shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo'ladi. Hozirgi sharoitda ssuda foizi miqdori shartnomada o'z aksini topadi va u kreditlashning o'rtacha normasi va bank marjasidan tashkil topadi.

Kreditning maqsadlilik. Bu shu bilan bog'liqki, qarz oluvchi olingan kreditni ma'lum maqsadga (tovar moddiy boyliklar sotib olish, ishlab chiqarish harajatlarini qoplash va boshqalar) yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bu maqsadlar kredit beruvchi va kredit oluvchi o'rtasida tuzilgan shartnomada o'z aksini topadi. Korxonalar olgan kreditni faqatgina kredit shartnomasida ko'rsatilgan ishni bajarishga (sotib olishga va boshqalar) sarflashi kerak.

Kreditning samaradorligi. Bu tamoyil nafaqat kredit va foiz summasini bankga qaytarib to'lashni, balki shu kredit yordamida kreditlanadigan yoki moliyalashtiriladigan soha, tarmoq, korxonalar qancha samaradorlikka erishishini ifodalashi zarur.

### **Kreditning mohiyati va uning ko'rinishi, ya'ni uning yuzaga chiqishi.**

Kreditga bo'lgan talab qaysi usulda va muddatda, kim tomondan qondirilishiga va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, kredit bir necha tur va shakllarga bo'linadi. Uzoq davrlardan buyon kreditning berilish muddatiga qarab ikki turi mavjud. Bular:

- Qisqa muddatli kreditlar (1 yilgacha)
- Uzoq muddatli kreditlar (1 yildan uzoq)

Qisqa muddatli kreditlar bir necha oydan bir yilgacha bo'lgan muddatda beriladi. Bu turdagi kreditlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlarining doiraviy aylanishining uzluksizligini ta'minlaydi. Bir yil fondlar aylanishining tabiiy o'lchovi sifatida xizmat qiladi. SHuning uchun ham bir yil qisqa va uzoq muddatli kredit berishning chegarasi bo'lib xizmat qiladi.

Uzoq muddatli kredit turlariga kelganda esa, u ham kredit munosabatlari tarkibida alohida o‘rin egallaydi.

Uzoq muddatli kreditlar - xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlarga mo‘ljallangan obektlarni qurish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta jihozlashga doir harajatlarni sarmoya (investitsiya) bilan ta‘minlash, yangi turdagi mahsulot va yangi texnologik jarayonlarni o‘zlashtirish, shuningdek boshqa investitsion maqsadlar uchun va ishlab chiqarishni qayta tiklash va yangilash bilan bog‘liq tez qoplanuvchi va yuqori samara beruvchi tadbirlar uchun beriladi.

Uzoq muddatli kredit 1 yildan ochiq muddatgacha beriladigan ssudadir, lekin ssuda muddati ssudaning qoplanish (biznes rejada ko‘rsatilgan) muddatidan oshmasligi kerak.

Qaytarish muddatlari bo‘yicha muddatli, muddati o‘tgan va muddati uzaytirilgan kredit turlari mavjud:

Muddatli kredit - kredit shartnomasiga ko‘ra to‘lov muddati hali etib kelmagan ssudadir.

Muddati uzaytirilgan kredit - ayrim hollarda kreditni qaytarish muddati kelmasdan avval qarzdor tomonidan bankka taqdim etilgan iqtisodiy asoslangan yozma iltimosnoma asosida kreditni qaytarish muddatini keyinroqqa surilishi to‘g‘risida filial kredit komissiyalari qarorlari asosida Bosh bank kredit qo‘mitasi bilan kelishilgan holda ijobiy qaror qabul qilingan qarzlardir. Muddati o‘tgan kreditlar - kredit shartnomasida belgilangan qaytarish muddati, shuningdek, garchi ularning muddati uzaytirilgan bo‘lsa, uzaytirish muddati ham tugagan qarzlardir. Muddati o‘tgan kreditlar iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra qayta rasmiylashtirilgan hisoblanadi, chunki kredit shartnomasida muddati o‘tqazib yuborilganligi uchun oshirilgan foiz stavkalarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Miqdori bo‘yicha kreditlarning quyidagi turlari mavjud:

#### 1. Mikro-kreditlar:

Mikrokredit - qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun beriladigan eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshmaydigan ssudadir.

Boshlang‘ish (start) sarmoyasini shakllantirish uchun mikrokreditlar:

- yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik sub’ektlari uchun eng kam oylik ish xaqining 50 baravarigacha miqdorda;

- mikrofirmalar va dexqon xo‘jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan) eng kam oylik ish xaqining 100 baravarigacha miqdorda;

- fermer xo‘jaliklari uchun eng kam oylik ish xaqining 200 baravarigacha miqdorda beriladi.

#### 2. Makro-kreditlar:

Makrokredit - turli mulkchilik shaklidagi sub’ektlarga beriladigan eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshadigan kreditlar.

#### 3. Mono-kreditlar:

Mono kreditlar - 1-darajali bank kapitalining 25% idan oshadigan miqdorda yirik investitsion loyihalarini sinditsiyalash asosida beriladigan kreditlar.«Ishonchli» (blank) kreditlarini berish tartibi. Tijorat banklari va ularning filiallari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ta‘minlangan yoki "ishonchli" deb

nomlanadigan, ta'minlanmagan (blankli) kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Kreditlarning ta'minotsiz - ishonch asosida berish bank uchun katta xatar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham, bunday kreditni oluvchining kreditni qaytarish qobiliyati (reytingi) 1-sinfdan past bo'lishi mumkin emas. SHuningdek, bank bilan kredit oluvchi o'rtasida doimiy aloqa mavjud bo'lishi va kredit oluvchining to'lovga layoqatliligi (qobilligi) shubha tug'dirmasligi lozim.

Ishonchli kreditlar reytingi 1-sinfga mansub bo'lgan (ayrim hollarda istisno tariqasida, kreditlarni muntazam ravishda o'z vaqtida yoki muddatidan oldin qaytargan kreditga layoqatliligi 1-sinfdan past bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga), yaxshi kredit tarixi va etarli o'z sarmoyasiga ega bo'lgan likvidlik darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan hamda kam-ko'stsiz kreditni qaytara olish qobiliyatiga ega bo'lgan mijozlarga beriladi. Ishonchli kreditlarni berishni asosiy shartlaridan biri qaytarish muddati 1 yilgacha bo'lishidir.

Ba'zi hollarda istisno tariqasida bank filiali kredit komissiyalari yoki Bosh bank kredit qo'mitasining qaroriga muvofiq 12 oydan ortiq bo'lgan muddatlarga ishonchli kreditlar ajratilishi mumkin.

Ishonchli kredit belgilangan muddatda qaytarilishi lozim, uning muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'minlangan yoki ta'minlamagan ishonchli kreditlarni berish, kreditning maqsadidan kelib chiqqan holda kredit shifriga asosan ochiladigan alohida ssuda, kontokorrent va overdraft hisob raqamlari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Kreditni qaytarish muddati kelganida, qarzdorning kreditni qaytarish uchun pul mablag'lari bo'lmasa, kredit muddati o'tgan ssuda hisob raqamiga o'tkazilib, u bo'yicha majburiyatnomalar esa, №2-kartotekaga joylashtiriladi va kalendar navbati tartibida undiriladi. Alohida ssuda hisob raqami bo'yicha kreditlash tartibi. Tijorat banki va uning filiallari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni kredit liniyalari ochib yoki oshmasdan alohida ssuda hisob raqamlari orqali quyidagi maqsadlar uchun kreditlashlari mumkin:

- tovar-moddiy boyliklarini sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlarini to'lab berishga; - kredit oluvchining asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va amal qilish muddati 30 kundan oshmaydigan akkreditivlarni ochishga.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni "Kredit liniyasi oshmasdan" alohida ssuda hisob raqami orqali kreditlash, kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadga muvofiq, tovar-moddiy boyliklarini sotib olish, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar xaqini to'lash uchun kredit oluvchining to'lov topshiriqnomasini bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ssuda hisob raqamidan to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi bank qarori har bir to'lovni o'tkazish maqsadi kredit shartnomasida qayd etilgan maqsadlarga mosligini tahlil etish asosida qabul qilinadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni "Kredit liniyasini ochish" orqali kreditlash, kredit shartnomasida avvaldan qayd etilgan kredit summasi doirasida, alohida ssuda hisob raqamidan amalga oshiriladi. Bunda, kredit oluvchining asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lgan tovar-moddiy boyliklarini sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlari kredit mablag'lari hisobidan to'lab

beriladi. "Kredit liniyasini ochish" yo'li bilan beriladigan kreditning miqdori, undan foydalanish muddatlari va uni qaytarishning davriyligi kredit oluvchini maxsulot etkazib beruvchilar, haridorlar bilan tuzgan shartnoma - bitimlarini tahlil etish asosida belgilanishi hamda, ular kredit shartnomasida o'z aksini topishi lozim. Kredit oluvchiga "ochiq kredit liniyasi" bo'yicha xizmat ko'rsatilganligi uchun, u bankka kredit shartnomasida qayd etilgan kreditlash limitining foydalanilmagan summasiga hisoblanadigan vositachilik xaqini to'laydi. Kredit oluvchi kreditlash liniyasining amalda foydalanilgan qismi uchun foizlar to'laydi. Overdraft hisob raqami orqali kreditlash tartibi. Overdraft kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank mijozning asosiy "talab qilib olinguncha" depozit hisob raqamida qisqa muddat mobaynida debetli (qoplanmagan) qoldiq bo'lishiga ruxsat beradi. Overdraft hisob raqamidan foydalanish xuquqi eng ishonchli mijozlargagina beriladi.

Overdraft hisob raqamidan kredit berish, kredit oluvchining asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lgan tovar - moddiy boyliklarini sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul hisob-kitob hujjatlarini to'lab berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Overdraft hisob raqamidan to'lovlarning boshqa (kechiktirib bo'lmaydigan extiyojlar, byudjetga to'lovlar va boshqa) turlari overdraft hisob raqamidagi kreditli (qoplangan) qoldiq doirasida amalga oshiriladi.

Overdraft hisob raqamidan kredit berilganida, kredit oluvchi har oyning oxirida bu hisob raqam bo'yicha kreditli (qoplangan) qoldiqni ta'minlashi kerak. Agarda, mijoz bankda muddatli depozit hisob raqamiga ega bo'ka, u holda unga o'z depozit mablag'lari doirasida doimiy debetli (qoplanmagan) qoldiqqa ega bo'lish xuquqi beriladi. Kredit oluvchining mazkur bankda muddatli depozit hisob raqami bo'lmagan va oy oxirida ham overdraft hisob raqamida debetli (qoplanmagan) qoldiq saqlanib qolgan taqdirda, shu mijozga kredit berish, berilgan kredit to'liq qaytarilgunga qadar, to'xtatiladi. Kontokorrent hisob raqami bo'yicha kreditlash tartibi. Bank kontokorrent hisob raqamidan moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni kreditlaydi. Bu hisob raqam mijozning yagona hisob raqami hisoblanib, kredit shartnomasiga asosan ochiladi va bank shu hisob raqam orqali mijozning barcha turdagi amaliyotlarini amalga oshiradi. Mazkur hisob raqam aktiv-passiv hisoblanib, ya'ni ham aktiv, ham passiv qoldiqqa ega bo'lishi mumkin. Kontokorrent hisob raqami ochilishi bilan kredit oluvchining asosiy "talab qilib olinguncha" depozit hisob raqami yopiladi. Kredit oluvchi kontokorrent hisob raqami bo'yicha o'rnatilgan kreditlash limiti doirasida kreditlanadi. Kontokorrent hisob raqamiga kredit oluvchining barcha tushadigan mablag'lari kirim qilinadi. Agar kirim qilingan summa (tushum)lar olingan kredit summasidan oshib ketsa, u holda kontokorrent hisob raqami o'z belgilangan maqsadini o'zgartirmagan holda kreditli(qoplangan) qoldiqqa ega bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar garovi asosida beriladigan (lombardli) kreditlarni taqdim qilish tartibi. Kredit oluvchining asosiy faoliyatga taalluqli bo'lgan tovar - moddiy boyliklarni sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning xaqini to'lash uchun qimmatli qog'ozlarni garovga olib, alohida ssuda hisob raqamidan berilgan qisqa muddatli ssudadir. Lombard kreditining

o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, garovga olinadigan qimmatli qog'ozlar, shartnoma tuzilgan kundagi nominal qiymati bo'yicha emas, balki uni sotishda yuzaga keladigan, kursga bog'liq risklarni inobatga olgan holda aniqlangan qiymati bilan baholanadi. SHuning uchun ham, banklar qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish asosida lombard kreditini berish to'g'risida qaror qabul qilishda, kredit oluvchining moliyaviy ahvoli va kreditni qaytarish qobiliyatini tahlil etish bilan birga, kredit ta'minotiga olinadigan qimmatli qog'ozlar kursi bo'yicha risklar darajasini baholashga ham alohida ahamiyat berishlari lozim. Qimmatli qog'ozlar bozorida birja kursini tebranib turishi munosabati bilan qimmatli qog'ozlarni kotirovkalashda kursga bog'liq riskni mavjudligi sababli, ularning garov qiymati birja bahosining 75 foizidan oshmasligi kerak.

Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyashtirish tartibi. Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarga investitsion kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va berilgan kreditlarni maqsadga muvofiq ishlatishlik tamoyillariga rioya qilingan holda, shartnoma asosida beriladi. Ushbu ajratilayotgan kreditlar mijozning birlamchi hisob raqami ochilgan bank filialidan, ayrim hollarda ikkilamchi hisob raqami ochilgan bank filialidan berilishi mumkin.

Zarar ko'rib ishlovchi, nolikvid balansga ega xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga investitsion kreditlar berilmaydi, agar ilgari kreditlar berilgan bo'lsa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirib olinadi. Ushbu qoida kredit shartnomasida qayd etilishi shart.

Investitsion kreditlar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga yangi turdagi maxsulot va yangi texnologik jarayonlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarishni qayta tiklash va yangilash bilan bog'liq tez qoplanuvchi va yuqori samara beruvchi tadbirlar uchun beriladi. Kreditdan foydalanishning aniq muddati kreditlanayotgan obektlar bo'yicha mablag'larning aylanishi va harajatlar oqlanishi asosida belgilanadi.

Investitsion kreditlar-ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlarga mo'ljallangan obektlarni qurish, qayta tiklash va texnik jihatdan kayta jixozlashga doir harajatlar bilan bog'liq investitsiya maqsadlari uchun 3 yil va undan ortiq muddatga beriladi. Ta'lim kreditini berish tartibi. Ta'lim kreditlari tijorat banklari filiallari tomonidan oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqorosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun talabalarning o'zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

Ta'lim kreditlari, oliy ta'lim muassasalarida o'qish davri hisobga olgan holda, bakalavriatga o'qishga qabul qilingan talabalarga 10 yilgacha, magistraturaga o'qishga qabul qilingan talabalarga 5 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Muddatli harbiy xizmatni o'tash davri bu muddatga kirmaydi.

### **13-mavzu. "Kredit iqtisodiy kategoriyasi va kreditlashni tashkil etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari"**

#### **3. Tijorat banklarida kreditlashni tashkil qilishning nazariy asoslari va**

## **kreditning ta'minlanganligi to'risida tushuncha**

### **4. Respublika tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etishning huquqiy asoslari**

#### **Tijorat banklarida kreditlashni tashkil qilishning nazariy asoslari va kreditning ta'minlanganligi to'risida tushuncha**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim jihatlaridan biri jamiyat iqtisodiy sohasining boshqa sektorlaridagi tub o'zgarishlarning poydevori bo'lishga munosib bank tizimini yanada rivojlantirishdan iboratdir. Bank krediti respublika iqtisodiyotida muhim o'rin tutishi o'z - o'zidan aniq. U jismoniy va yuridik shaxslar moddiy texnika bazasini mustahkamlashga ko'maklashib, asosiy va oborot ishlab chiqarish fondlarini tuzish, tiklash va ko'paytirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Korxonalar va tashkilotlarga o'z mablag'lari bilan cheklanib qolmaslik, yangi pul mablag'larini xo'jalik oborotiga kiritish imkonini beradi va shu bilan ishlab chiqarishning o'sishi va jadallashishi uchun zarur iqtisodiy zamin yaratadi.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan kreditlar miqdori yildan yilga oshib bormoqda. SHu sababli tijorat banklari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu, kredit resurslarini samarali joylashtirish va ularni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun avvalom bor kreditlash jarayonini to'g'ri tashkil etish, mijozni moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganish muhim hisoblanadi.

Bankning kreditlash jarayoni bu mijoz bankka ariza bilan murojaat etgan kun va ular orasida kredit shartnomasi imzolangan davrdan boshlab, to olingan ssudani so'ndirishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladigan jarayondir. Kreditlash jarayoning boshlanishi mijoz va bank o'rtasida kredit munosabatlarining o'rnatilganligini bildiradi. Ushbu jarayonda bank qarz oluvchidan istalgan hujjatni talab qilish huquqiga va ssuda berishdan avval, qarz oluvchining moliyaviy holatini batafsil o'rganib chiqib, uni kreditga qobil deb topgachgina unga ssuda berishi va to ssuda so'ndirilishiga qadar uni doimiy monitoring qilib borishi zarur. Kreditlash jarayonining xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, Kreditlash jarayonida kredit siyosati talablaridan kelib chiqib, mijozning moliyaviy holatini aniq va ishonarli tahlil etilish va monitoringni to'g'ri tashkil qilish samarali natijalarga olib keladi.

Respublikamiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini tashkil etishning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bank faoliyatiga tegishli qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, tijorat banklari ichki me'yoriy hujjatlari va tartiblari to'plami hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Aksiyadorlar jamiyati va ular huquqini himoya qilish to'g'risida", "Bank siri", "Aholi omonatlarini kafolatlash fondi to'g'risida"gi va boshqa qonunlarni keltirish mumkin.



O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40 - moddasiga ko'ra, tijorat banklari yuridik shaxs bo'lib, ularning asosiy maqsadi foyda olishdir<sup>17</sup>. Faqat etarli miqdorda foyda oladigan bankgina o'z aksiyadorlariga dividend to'lashga, sarmoyani ko'paytirishga, faoliyat ko'lamini kengaytirishga, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirishga, filiallar tarmog'ini kengaytirish bilan birga bozorda o'z mavqeini ko'tarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Banklar aholidan omonatlarni jalb qilib, o'zi tavakkal qilib riskni o'z bo'yniga olgan holda jalb qilingan mablag'larni kredit va investitsiya amaliyotlariga yo'naltiradi. Fuqarolik kodeksining 765 va 785 moddalariga hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunning 39 - moddasiga asosan banklar jalb qilingan omonat va boshqa mablag'larning to'laligicha saqlanishini va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashlari shart.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini tashkil etishdagi asosiy o'zgarishlarga "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 21 martdagi Farmoni asos bo'ldi. Bu Farmonga asosan kreditlash borasida tijorat banklarining mustaqilligini oshirish, kreditlash jarayonini kengaytirish va takomillatirish masalalarini amalga oshirish ko'zda tutildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir bankni siyosiy, iqtisodiy va ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritishi amalda mustaqil bo'lishini talab etadi. Tijorat banklari shunga muvofiq o'zining mustaqil kredit siyosatini va kreditlash nizomini ishlab chiqishdi. Hozirgi kunda har bir tijorat banki kreditlash faoliyatini "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunga, kredit siyosatiga va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirmoqda. Bu esa barcha banklarning yagona umumiy me'yoriy hujjat asosida emas, balki mustaqil ravishda, o'z faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kreditlash jarayonini tashkil etishga imkoniyat yaratadi. SHundan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda tijorat banklari kreditlash jarayonini tashkil etib, uni yildan-yilga takomillashtirib bormoqdalar.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini samarali tashkil etish uchun, birinchi navbatda, ularning kredit siyosatini ishlab chiqish lozim. Biz tijorat banklarining kredit siyosatini oldingi paragrafda ko'rib chiqdik.

YUqoridagi me'yoriy hujjatlarga asosan kreditlash jarayonini tashkil etish va zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirish, ya'ni kredit hujjatlari to'plamini shakllantirish tartibi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

a) kredit olish uchun arizalarni ko'rib chiqish va bo'lg'usi qarz oluvchi bilan suhbatlashish;

b) qarz oluvchining kreditni olish qobilligini va ssudani berish bilan bog'liq riskni baholash;

v) kredit foiz stavkasini belgilash;

g) kredit shartnomasini tayyorlash va imzolash.

Ushbu bosqichlar amalga oshirilgandan so'ng, kredit munosabatlari o'rnatiladi. Ayrim holatlarda mijozlarning kredit to'loviga layoqatligini chuqur tahlil qilinmasligi natijasida kredit riski kelib chiqishini inobatga olgan holda,

---

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi Toshkent: -2003. -B. 300-308.

bunday holatlar ro‘y bermasligi maqsadida mijozlar moliyaviy ahvolini to‘g‘ri baholash lozim.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini samarali tashkil etish uchun, birinchi navbatda, ularning kredit siyosati ishlab chiqilishi lozim. SHu maqsadda biz banklarning kredit siyosatiga qo‘yilgan talablar va tijorat banklari kredit siyosatining asosiy jihatlarini ko‘rib chiqishni maqsad qilib oldik.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning faoliyatida xo‘jalik sub‘ektlarini kreditlash funksiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun banklar faoliyatining samaradorligi va likvidligini ta‘minlash uchun avvalambor, banklarning kredit siyosatini to‘g‘ri ishlab chiqishga e‘tibor berish zarur. Banklar oladigan daromadlar uning aktiv operatsiyalari natijasida, asosan kredit operatsiyalari orqali vujudga kelishi banklar tomonidan kredit siyosatini oqilona tashkil etish va amalga oshirishni taqazo qiladi.

Kredit siyosati bank strategiyasining bir bo‘lagi sifatida kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko‘zlangan maqsadini, tamoyillarini va yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi, taktik jihatdan esa moliyaviy yoki boshqa instrumentlarni, kredit bitimlarni amalga oshirishdan bankning maqsadlariga erishish yo‘nalishlarini va qoidalarini, hamda kredit jarayonini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarining kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizomida kredit siyosatini ishlab chiqishga nisbatan aniq talablar qo‘yilgan. Unda “Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko‘rsatmalar bilan ta‘minlovchi hujjatdir”<sup>18</sup> – deb aniq belgilab qo‘yilgan. Buning ijobiy tomoni shundaki, kreditlash jarayonida risklar bo‘lishining va kredit portfelini samarali boshqarish uchun kredit siyosati zarurligi alohida ta‘kidlangan. Uning yana bir muhim tomoni shundaki, kredit siyosati kreditlash jarayoni va u bilan bog‘liq risklar paydo bo‘lishidan oldin ishlab chiqilishi va risklarni yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymasligi hamda kreditlash bo‘yicha oldindan belgilab olingan qoida va echimlarni to‘g‘ri hal qilinishiga erishish lozimligini ko‘zda tutadi. Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog‘liq, ob‘ektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to‘g‘ri tuzish va olib borish, barcha bo‘limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushinilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to‘g‘ri olib borishiga, yuqori risklardan qochishga, bank imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlashga asos hisoblanadi. YAxshi ishlab chiqilgan kredit siyosati kredit riskini boshqarish va uni kamaytirishga asos bo‘ladi.

Kredit siyosatining zarurligi shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko‘p xodim ishlashidan qat‘iy nazar, bankda bu siyosat bo‘lishi lozim.

---

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarining kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 905-sonli nizomi, 2000 yil 21 mart.

Chunki bu siyosat kredit bo'yicha unifitsirlashgan umumiy qoida va tamoyillarning bajarilishini, operatsiyalar bajarilishining ketma-ketligini ta'minlaydi. Bankning kredit siyosati bankning hamma xodimlari – kichik xodimdan yoki bank boshqaruvi raisigacha bir xil bo'lishi lozim. SHuning uchun ham kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va echimlar to'plami deyiladi.

Kreditlash siyosati va uning samaradorligi to'g'ri kredit narxlari belgilangan sharoitda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Kredit siyosatini samarali olib borishda bank xodimlari bank mijozlarining mablag'larini kimlarga foydalanishga berish mumkinligini yaqqol bilishi lozim.

Har qanday tijorat kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: kredit qo'yilmalari hajmining o'sishini, risk yuqori bo'lgan operatsiyalarning odilona diversifikatsiyasini, qisqa va uzoq muddatli kredit qo'yilmalar hajmini keskin ko'paytirish va ulning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. SHuningdek, kredit siyosati investitsion kreditlar salmog'ini oshirish, ustun darajada iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi asosiy yo'nalishlarni ham o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi lozim.

Tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish va uni amalga oshirish amaliyotining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Bank tomonidan berilgan kreditlarning iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida joy lashtirilganlik holati.

2. Tijorat banki tomonidan berilayotgan qisqa va uzoq muddatli kreditlarning o'zaro nisbati.

3. Tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar hajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'zgarishi.

4. Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash.

5. Kreditlash shakllaridan foydalanish darajasi.

6. Foizlarni o'stirimaslik maqomiga ega bo'lgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar miqdoining o'zgarishi.

7. Banklarning kreditlash faoliyatida garov ob'ektlaridan foydalanish samaradorligi.

8. Tijorat banklarining etarli darajada barqaror resurs manbalariga ega ekanligi.

### **Respublika tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etishning huquqiy asoslari**

Bilamizki, tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etishning asosiy mezonlaridan biri uning me'yoriy-huquqiy asosining qay darajada yaratilganidir. Respublikamiz tijorat banklari kredit faoliyatining huququy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bank faoliyatiga tegishli qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar to'plami hisoblanadi. Xususan,

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Aksiyadorlar jamiyati va ular huquqini himoya qilish to'g'risida", "Bank siri", "Aholi omonatlarini kafolatlash fondi to'g'risida"gi va boshqa qonunlarni keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40 – moddasiga ko'ra, tijorat banklari yuridik shaxs bo'lib, ularning asosiy maqsadi foyda olishdir<sup>19</sup>. Faqat etarli miqdorda foyda oladigan bankgina o'z aksiyadorlariga dividend to'lashga, sarmoyani ko'paytirishga, faoliyat ko'lamini kengaytirishga, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirishga, filiallar tarmog'ini kengaytirish bilan birga bozorda o'z mavqeini ko'tarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Banklar aholidan omonatlarni jalb qilib, o'zi tavakkal qilib riskni o'z bo'yniga olgan holda jalb qilingan mablag'larni kredit va investitsiya amaliyotlariga yo'naltiradi. Fuqarolik kodeksining 765 va 785- moddalariga hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunning 39 – moddasiga asosan banklar jalb qilingan omonat va boshqa mablag'larning to'laligicha saqlanishini va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashlari shart.

Kreditlash jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining 4-moddasiga asosan quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- ◆ qaytarilishi;
- ◆ foizligi;
- ◆ muddatligi<sup>20</sup>.

Bundan tashqari kreditning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilishi va ta'minlanganligi ham tamoyil darajasida ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloh qilish siyosati iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatori bank tizimida ham keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Kreditlash jarayonini tashkil etish, korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish kabi masalalarni to'g'ri amalga oshirish kredit riski darajasini pasaytirishga, hamda bank kredit portfelini sifatini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi, hamda bu banklar huquqiy va jismoniy shaxslarga o'zlarining jozibador xizmatlarini ko'rsatadilar.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini tashkil etishdagi keyingi o'zgarishlarga "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni asos bo'ldi<sup>21</sup>. Bu Farmonga asosan kreditlash borasida tijorat banklarining mustaqilligini oshirish, kreditlash

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.: Toshkent: -2003. –B. 300-308.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent: O'zbekiston, 1996 yil 25 aprel. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 2003. -B. 30-46.

<sup>21</sup> "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni Toshkent, 2000. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 2003.

jarayonini kengaytirish va takomillatirish masalalarini amalga oshirish koʻzda tutildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir bankni siyosiy, iqtisodiy va ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritishi amalda mustaqil boʻlishini talab etadi. Tijorat banklari shunga muvofiq oʻzining mustaqil kredit siyosatini va kreditlash nizomini ishlab chiqishdi. Hozirgi kunda har bir tijorat banki qisqa muddatli kreditlash amaliyotini “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunga, kredit siyosatiga va boshqa meʼyoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirmoqda. Bu esa barcha banklarning yagona umumiy meʼyoriy hujjat asosida emas, balki mustaqil ravishda, oʻz faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kreditlash jarayonini tashkil etishga imkoniyat yaratadi. SHundan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda tijorat banklari kreditlash jarayonini tashkil etib, uni yildan-yilga takomillashtirib bormoqdalar.

Endi biz tijorat banklarining kredit faoliyatiga taʼlluqli boʻlgan meʼyoriy hujjatlarning asosiylari quyidagilar.

Meyoriy hujjatlarning ichida Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining kredit siyosati boʻyicha belgilagan talablari muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini samarali tashkil etish uchun, birinchi navbatda, ularning kredit siyosatini ishlab chiqish lozim. SHu maqsadda biz banklarning kredit siyosatiga qoʻyilgan talablar va tijorat banklari kredit siyosatining asosiy jihatlari amalda qanchalik toʻgʻri ishlab chiqilganligini tahlil qilamiz.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarining kredit siyosatiga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisida” gi 905-sonli nizomida kredit siyosatini ishlab chiqishga nisbatan aniq talablar qoʻyilgan. Unda “Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kredit portfelini samarali boshqarishga doir koʻrsatmalar bilan taʼminlovchi hujjatdir”<sup>22</sup> – deb aniq belgilab qoʻyilgan. Buning ijobiy tomoni shundaki, kreditlash jarayonida risklar boʻlishining va kredit portfelini samarali boshqarish uchun kredit siyosati zarurligi alohida taʼkidlangan. Uning yana bir muhim tomoni shundaki, kredit siyosati kreditlash jarayoni va u bilan bogʻliq risklar paydo boʻlishidan oldin ishlab chiqilishi va risklarni yuzaga kelishiga yoʻl qoʻymasligi hamda kreditlash boʻyicha oldindan belgilab olingan qoida va echimlarni toʻgʻri hal qilinishiga erishish lozimligini koʻzda tutadi.

Ushbu Nizomda quyidagi aniq talablar aks ettirildi:

1. Tijorat bankining kredit siyosati alohida hujjat shaklida ishlab chiqilishi va Bank kengashi tomonidan tasdiqlanishi shart.

2. Kredit siyosatini ishlab chiqish yuzasidan javobgarlik bank Boshqaruvi va Kengashi aʼzolariga yuklatiladi.

---

<sup>22</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarining kredit siyosatiga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisida”gi 905-sonl nizomi, 2000 yil 21 mart.

3. Bankning kredit siyosati bir yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqilishi va tegishli yilning 1 fevraliga qadar Kengash tomonidan tasdiqlanishi shart.

4. Bankning maqomi va joylashgan o'rnidan qat'iy nazar kredit siyosatida quyidagi masalalar o'z aksini topgan bo'lishi kerak:

- beriladigan kreditlarning hajmi va turlari;
- qisqa va uzoq muddatli kreditlarning o'zaro nisbati;
- moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish tartibi;
- kredit portfelini tahlil qilish tartibi;
- kreditlarning qaytarilishini ta'minlash choralari;
- kredit siyosatining maqsadi va strategiyasi;
- vakolatlar darajasi va javobgarlikning taqsimlanishi;
- kreditlarning turlari va shakllari;
  - kreditlarning kreditlashni turli ko'rsatkichlari bo'yicha qoplanishi;
- kreditlarni qoplanishi;
- mijozlar bo'yicha moliyaviy ma'lumotlar;
- garov ta'minotiga qo'yiladigan talablar;
- kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar;
- foiz stavkalari;
- o'zaro daxldor shaxslar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar;
- balansdan tashqari moddalar;
- kredit portfelini audit qilish;
  - bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim qilinadigan hisobotlar.

Bugungi kunda har bir tijorat banki o'zining kredit siyosatiga ega bo'lib, uni doimiy ravishda takomillashtirib borishga e'tiborni qaratishlari lozim.

Tijorat banklari faoliyatida kredit risklarini kamaytirish hozirgi kunda kredit siyosatining bosh maqsadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Kreditlash jarayonida kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida Markaziy bankning 1998 yil 2 dekabrda 557-sonli "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi riskning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi nizomida keltirilgan quyidagi talablarga rioya etiladi:

-tijorat banklarining bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan ta'minlangan kreditining eng yuqori miqdori bankning birinchi darajali kapitaliga nisbatan 0,25 qilib belgilangan;

-tijorat banklarining bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan ta'minlanmagan kreditining eng yuqori miqdori bankning birinchi darajali kapitaliga nisbatan 0,05 dan oshmasligi lozim.

SHuni alohida aytish lozimki, xalqaro amaliyotda bir qarzdorga beriladigan kredit riskini kamaytirish maqsadida sinditsiyalashgan kreditlar turidan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda sinditsiyalashgan kreditlar berish evrovalyutalar bozorida kreditlashning asosiy shakllaridan biriga aylangan.

Sinditsiyalashgan kredit deganda ikki va undan ortiq bankni vaqtinchalik bank sindikatiga birlashib, ular tomonidan bitta mijozga beriladigan kreditlarni tushunish mumkin.

Bank sindikatini yaratishning zarurligi bizning nazarimizda qator sabablar bilan izohlanadi. Ular orasida asosiylari, quyidagilardan iborat:

- yirik ob’ektlarni moliyalashtirish maqsadida bir necha tijorat banklarining ixtiyoridagi vaqtinchalik bo’sh pul mablag’larini birlashtirishning zarurligi;
- sindikatga kiruvchi banklar o’rtasida kredit riskini taqsimlashning zarurligi;
- foyda olish imkoniyatini mavjudligi;
- banklarning kredit resurslari etarli bo’lmagan sharoitda ularning yirik investitsion loyihalarda ishtirok etish imkoniyati.

Keyingi yillarda sinditsiyalashgan kreditlar berish mexanizmida sezilarli o’zgarishlar yuz bermoqda. SHunday o’zgarishlardan biri yirik xalqaro tijorat banklarining bu sohadagi monopol mavqeiga putur etganligidadir.

Bank kapitalining 10 foizidan oshadigan bitta mijozga beriladigan kreditga yirik kredit deb aytiladi. SHuni ta’kidlash lozimki, bank uchun “Yirik” toifaga kiradigan va bir qarz oluvchiga beriladigan kreditlar miqdorini shu qarz oluvchining o’z mablag’lari miqdoridan oshmaslik tavsiya etiladi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan yirik kreditlarning umumiy miqdori ko’rsatkichining eng yuqori darajasi regulyativ kapitalga nisbatan 8 barobar qilib belgilangan.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash maqsadida qator me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqqan.

Imtiyozli kreditlash Jamg’armasi hisobidan beriladigan kreditlar “Tijorat banklari tomonidan kichik va o’rta biznes sub’ektlari, dexqon va fermer xo’jaliklariga imtiyozli kreditlash maxsus jamg’armaning mablag’lari hisobidan kredit berish tartibi to’g’risida” gi 2000 yil 19 maydagi nizomiga muvofiq beriladi.

Tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg’armasi bank foydasidan (soliq to’langandan so’ng), 25 foiz miqdorida ajratmalar o’tkazish hisobiga shakllanadi. Bunda ajratmalarning 85 foizi filial ixtiyorida qoladi. Jamg’armaga chorakda bir marta, birinchi oyining 10 sanasidan kechikmasdan, bank Biznes-rejasida ko’zda tutilgan choraklik sof foydaning rejalangan summasidan ajratmalar o’tkaziladi.

Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, fuqarolarning va tadbirkorlik sub’ektlarining ishchanlik faolligini oshirish uchun ularning moliyaviy mablag’lar hamda xizmatlarga bo’lgan ehtiyojlarini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O’zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to’g’risida”gi qonuni 2006 yil 15 sentyabrda qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan, mikrocredit, mikroqarz hamda mikrolizing tushunchalari ifoda etilgan. Mikromoliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi tashkilotlar qonunga muvofiq mikromoliyaviy xizmatlarni amalga oshiradilar.

Kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo’llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish hamda kredit berish jarayonini imkon qadar soddalashtirish va qulay bo’lishini ta’minlash maqsadida qator (“Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko’rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va dexqon xo’jaliklarini milliy va chet el valyutasida mikrocreditlash tartibi to’g’risida” 2000 yil 29 fevraldagi 902-sonli, “Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko’rsatayotgan fermer xo’jaliklari va kichik biznesning boshqa sub’ektlarini milliy va chet el valyutasida

mikrokreditlash tartibi to'g'risida" 2000 yil 29 fevraldagi 903-sonli, "Tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi 2001 yil 3 oktyabrdagi 1074-sonli, "Tijorat banklari tomonidan ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida"gi 2002 yil 3 iyundagi 1146-sonli nizom) me'yoriy hujjatlar muvofiqlashtirildi va yangi tahrirda yagona, "Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga byudjetdan tashqari jamg'armalar va Mikrokreditbank kredit liniyalari hisobidan mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida"gi 1548-sonli nizom 2006 yil 21 fevralda ishlab chiqildi. Bundan asosiy maqsad, banklarda hujjatlar sonini qisqartirish va tadbirkorlar uchun kreditlash amaliyotidan foydalanishda qulaylik yaratishdir. Chunki hujjatlar sonining ko'p bo'lishi, ularni o'rganish va amaliyotda qo'llash jarayonida ma'lum chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan byudjetdan tashqari jamg'armalar: – Dehqon va fermerlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Ish bilan bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda sobiq "Biznes Fond"ga qarashli kredit liniyalrini AT "Mikrokreditbank" imtiyozli kredit resurslari hisobidan tijorat banklari o'z mijozlariga kreditlar bermoqda.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda muhim o'rin tutadi. SHu bilan birga, byudjetdan tashqari jamg'armalar kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning ikkinchi manbasi ham hisoblanadi.

Dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarining faoliyatini boshlash uchun aylanma mablag'larni shakllantirishga, investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga, asbob-uskunalar sotib olish uchun beriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan kichik biznes sub'ektlariga beriladigan kreditlar muddati har bir jamg'armaning Nizomida belgilangan tartibga ko'ra turlicha bo'ladi. Dehqon va fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga beriladigan mikrokreditlar 2 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan beriladigan boshqa barcha mikrokreditlar 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida" hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarni rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 7 noyabrdagi 383-sonli "Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashtirish mexanizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2003 yil 30 oktyabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 476-sonli Qarorlari asosida Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan "Fermer xo'jaliklarning



davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi 1295-sonli nizom 2004 yil 6 yanvarda ishlab chiqildi.

Tijorat banklari o'z mijozlari faoliyati to'g'risida doimiy axborotga ega bo'lishi, ularning kredit to'loviga layoqatliligini, to'lov intizomini tahlil qilish va kreditlardan kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi zaxiralar vujudga keltirili lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 9 noyabrda tasdiqlangan 242-sonli «Aktivlar sifatini tahlili tartibi va mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni ishlatish» to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu Nizomda berilgan kreditlarning tasniflanishi va kredit riskini baholash yangi tartibi, kutilmagan yo'qotishlarga qarshi zaxiralar hisoblash, ushbu zaxiralarning ishlatilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish lozim. Bankda zaxiralarni to'g'ri va aniq tashkil qilinganligi bank tomonidan kreditlar tasnifi aniq amalga oshirilganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qaroriga asosan, moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilish, shuningdek kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralarini ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash respublikaning moliya-bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarorining 1-ilovasi 32-bandida, bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmini joriy qilish, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda banklar aktivlari sifati monitoringini takomillashtirish, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilish belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida 2011 yil 10 sentyabrda Markaziy bank Boshqaruvining «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 26/1-sonli qarori qabul qilindi. Markaziy bank Boshqaruvining ushbu qarori 2011 yil 22 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 632-2-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilib 2011 yilning 2 oktyabrda kuchga kiradi. Markaziy bankning «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibi»ga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarda, jumladan quyidagilar ifodalangan.

Markaziy bankda tijorat banki aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralanadigan majburiy zaxira depoziti tashkil qilindi hamda

ushbu majburiy zaxira depozitiga tijorat banklari o'z aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi shakllantirilgan maxsus zaxiralar summasiga teng miqdordagi mablag'larni vakillik hisobvaraqlaridan o'tkazib borish talabi qo'yildi. Majburiy zaxira depozitiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar miqdori har oyning 10, 20-sanalari va oy yakuni bo'yicha shakllantirilgan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira summasidan kelib chiqib qayta hisob-kitob qilinadi.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, uch ish kuni mobaynida tijorat banklari maxsus zaxiralar summasiga etmayotgan miqdordagi mablag'larni majburiy zaxira depozitiga o'tkazishi yoki tijorat banklarining asoslantirilgan murojaatiga ko'ra Markaziy bank tomonidan ortiqcha mablag'lar banklarga qaytariladi.

SHuningdek, yangi kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, Markaziy bank tijorat banklari kredit portfelini tahlil qilgan holda, tijorat banklariga qo'shimcha ravishda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantirish yuzasidan ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborishi mumkin. O'z navbatida, agar tijorat banklari yuqorida keltirilgan talablariga amal qilmagan taqdirda, Markaziy bank majburiy zaxira depozitiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'larni bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idan undirib oladi va bankka nisbatan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunining 53-moddasiga muvofiq tegishli chora va sanksiyalarni qo'llaydi. Bundan tashqari, yangi kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga ko'ra, bank tomonidan ajratilayotgan barcha kreditlar bo'yicha to'lovlar kredit shartnomasining butun amal qilish muddatiga taqsimlangan holda bo'lib-bo'lib to'lanishi belgilab qo'yildi. Ushbu qoida banklarda muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'yimaslik yuzasidan ogohlantiruvchi belgi sifatida xizmat qiladi.

#### **14-mavzu. "Kredit mexanizmi va uning tarkibiy qismlari"**

- 1. Kredit mexanizmi tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari.**
- 2. Kredit mexanizmining tarkibiy elementlari va ularning ketma-ketligi.**

#### **Kredit mexanizmi tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari**

**Kredit mexanizmi**- xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, o'z ichiga kreditlash shartlarini, usullarini va kreditni boshqarishni oladi. Kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit siyosati amalga oshiriladi.

Klassik iqtisodchi olimlar kredit mexanizmini kredit munosabatlarini tashkil etishning konkret usullari bilan bog'lashgan va bu usullar pul oborotini hamda kredit munosabatlarini tashkil etish amaliyotida qo'llanilishini ta'kidlashgan. SHuni inobatga olgan holda kredit mexanizmi kredit munosabatlarining namoyon bo'lish shakli sifatida qaralmoqda. Masalan, **prof. M.S.Atlas** kredit mexanizmi to'g'risida shunday yozgan: «Kredit mexanizmi kredit tizimi organlari, kreditlashtirish vositalari va usullari, tamoyillari, majmuasidan iborat bo'lib, ular yordamida tegishli organlar o'zlarining vazifalarini amalga oshiradilar va butun xalq xo'jaligiga hamda korxonalarining xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadilar».

**M.S.Atlas** kredit mexanizmini xo‘jalik mexanizmining iqtisodiy richaglaridan biri sifatida qaraydi. U orqali ishlab chiqarish va yalpi maxsulot taqsimlashni nazorat vositasi sifatida yalpi ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatiladi. Kredit mexanizmining qaytarishlilik, muddatlilik va to‘lovlilik tamoyillari xo‘jalik mexanizmlarini ratsional va optimal xolda rivojlanishni taqozo qiladi.

**YU.P.Avdians** kredit mexanizmini kredit tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin etib, uningcha kredit tizimi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: 1) kredit munosabatlarining sferasi; 2) kredit mexanizmini (kredit tizimi ob‘ekti va sub‘ekting o‘zaro ta‘sir etish vositasi va bank tomonidan kredit munosabatlari sferasining boshqarilishi); 3) iqtisodiy rivojlanishning manbalari. Bundan tashqari u kredit mexanizmi texnik emas, iqtisodiy tushuncha ekanligini ta‘kidlaydi. Kredit mexanizmi o‘zida kreditning barcha tomonini va uning konuniyligini, kishilarning konkret faoliyatini umumlashgan ifodasini aks ettirishini aytgan. Uningcha kredit tizimi uning boshqa qismlariga: kredit munosabatlari, kredit munosabatlari elementlari, (kredit uchun foiz, kredit muddati va ob‘ekti, kredit munosabatlaridagi tomonlarning iqtisodiy qiziqishlari) xalq xo‘jaligida kredit munosabatlarini yuzaga keltiruvchi banklarga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Uning fikricha, kredit mexanizmi tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-kredit tizimi rivoji, amal qilish shartlari va prinsiplari;

-kredit tizimining pul muomalasi, xalq xo‘jaligining naqd pulsiz xisob-kitoblari va moliya tizimining boshqa bo‘g‘inlari bilan o‘zaro aloqasi.

**Prof. V.I.Ribinning** fikricha, kredit mexanizmi kredit xarakterli xususiyatlari va uning mazmunini ochib beruvchi munosabatlarning o‘zidan iborat hamda ular namoyon bo‘lishining shakli va usullaridir.

«Islohotlar sharoitida kredit va xisob-kitoblar» ishida **V.I.Ribin** kredit mexanizmi tushunchasini kiritibgina qolmay, uni o‘ziga xosligini qayd etib o‘tadi. Bank apparati faqatgina kredit mexanizmiga ega bo‘lganligi sababligigina korxonalar xo‘jalik moliyaviy faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kredit mexanizmining mazmuni **prof. S.B.SHteynleyger** tomonidan kengroq ma‘noda talqin qilingan. U kredit mexanizmining tarkibiga kiruvchilarni uch guruhga bo‘ladi: 1) banklar; 2) kredit sferasining alohida va xususiy qonunlarini saqlashga qaratilgan elementlar; 3) shu qonunlarning mazmunini hayotga tatbiq etishning shakl va usullari.

**N.D.Barkovskiy** kredit mexanizmining mazmunini ochishga harakat qilib, quyidagilarni yozgan edi: «Kredit mexanizmi konkret bir tarixiy sharoitda kredit munosabatlarining namoyon bo‘lishi va ularni realizatsiya qilish shaklidir».

**V.S.Pashkovskiy** esa: «Kredit mexanizmi kredit munosabatlarini amalda tashkil etishning konkret shaklidir» - deb yozgan. V.S.Pashkovskiy qayd qilishicha, kredit mexanizmini «boshqariladigan va boshqaradigan tizim» sifatida qarash kerak. Bunday aniqlash mexanizm natijaviyligini kuzatish imkoniyatini kengaytiradi. V.S.Pashkovskiy kredit mexanizmini rejalashtirish usullari va shakllari, kreditni berish, tartibga solish, so‘ndirishning o‘zaro bog‘liqlik tizimi deb tushunadi. Kredit mexanizmlarida boshqaruvning etakchi roli ko‘rsatilishiga qaramay, boshqaruv aspekti kategoriyani aniqlashda, shuningdek uning tuzilishida ham ishtirok etmaydi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni bazis va usqurtma elementlariga dahldorligi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, ularni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh ta'riflarda kredit mexanizmi ustqurma elementlari qatoriga kiritilgan bo'lsa, ikkinchi guruh vakillari esa, uni bazis-ustqurma xarakteriga ega ekanligini qayd etishgan.

Masalan, **prof. V.I.Ribin** 2-guruh iqtisodchilaridan hisoblanib, kredit mexanizmini tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning ma'lum bir qatlami, kredit munosabatlarining yuqori bir bo'lagi sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, «kredit mexanizmi tarkibiga kreditning mazmuni va xususiyatlarini belgilovchi munosabatlar, ularning namoyon bo'lish shakllari, usullari, metodlari kiradi».

Kredit mexanizmi to'g'risida yuqorida bildirilgan fikrlarni tahlil qilib, shunday bir umumiy xulosaga kelish mumkin: garchi bildirilgan fikrlar bayon etilish shakli jihatidan bir-biridan qisman bo'lsa ham farq qilsa-da, lekin ularning hammasida bir narsa tan olingan, ya'ni kredit mexanizmi bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditdan foydalanish usulidir.

Kredit munosabatlarining namoyon bo'lish shakllari, ya'ni amaliyotda kreditdan foydalanish usullari, barcha hollarda ham kreditning mohiyatiga asoslanadi. O'z navbatida, har bir iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. Demak, aytish mumkinki, kredit mexanizmi kreditning qayta taqsimlash va haqiqiy pullarni kredit pullari va kredit operatsiyalari bilan almashtirish funksiyalarini takror ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirishga qaratilgan. SHundan kelib chiqqan holda, kredit mexanizmini ikki tarkibiy bo'lakka – kreditning qayta taqsimlash funksiyasini namoyon bo'lish shakllariga va haqiqiy pullarni almashtirish funksiyasi namoyon bo'lish shakllariga ajratish mumkin. Bu shakllar har xil saviyada va har xil darajada namoyon bo'lish imkoniga ega.

Kreditning qayta taqsimlash funksiyasining namoyon bo'lishini, kreditlashtirish tamoyillari, shart-sharoitlari va shakllarining majmuasi tariqasida tushunamiz.

Kredit mexanizmi ikkinchi bo'lagining tasnifini tushunish uchun, avvalo, kreditning haqiqiy pullarni kredit pullari va operatsiyalari bilan almashtirish funksiyasi mazmunini yoritishga harakat qilamiz, chunki ularning mohiyati iqtisodchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, banklarning passiv operatsiyalari va naqd pulsiz hisob-kitoblar kreditning ikkinchi funksiyasi namoyon bo'lishi shakllaridan biridir. Demak, kredit mexanizmining ikkinchi bo'lagi naqd pulsiz hisob-kitoblar bilan uzluksiz bog'langan.

Kredit mexanizmi – bu xo'jaliklarni kreditlash usullari va shakllari, rag'batlantirish, richaglar, vositalar yig'indisi; kredit resurslar akkumulyasiyasi bo'yicha qabul qilish tizimi, ulardan foydalanish chegaralarini aniqlash, etkazib berish va qaytarib olish usullari.

**V.I.Ribin** fikricha, kredit mexanizmi o'zida kreditdan maqsadli foydalanish mexanizmi va xarakat mexanizmini birlashtiradi. Bular ob'ektiv va sub'ektiv boshlash munosabatlari bo'yicha farqlanadi. Xarakat mexanizmi – bu kreditni ob'ektiv xarakat qilishi, inson tomondan mutloq anglab olinmagan bo'ladi. Kreditning maqsadli foydalanish mexanizmi kreditdan foydalanishning aniq

shakliga ega bo‘ladi, ya’ni kredit mexanizmi – bu kredit munosabatlarini yuzaga chiqish shakli «kredit mexanizmiga kreditni xususiyati va mazmunini ochib beruvchi munosabatlarni o‘zi, kreditlash usullari, shakllari ham kiradi».

**Kredit mexanizmi tizimi quyidagi asosiy tizimlardan iborat :**

- kreditlash metodlari majmuasi;
- richak va stimullar, normativlar, limitlar kompleksi;
- qonuniy me’yoriy xujjatlarda shakllantirilgan kreditlash qoidalari va qonunlar to‘plami;
- kreditlash sub’ektining ichki me’yoriy ta’minoti;
- informatsion ta’minot, shuningdek, kreditlash bo‘yicha qarorlarni qabul qilish uchun informatsion baza.

CHet el fundamental tadqiqotlarida “kredit mexanizmi” atamasi uchramaydi. Uning amal qilishi kredit, kredit siyosati, foiz stavkasi, turlari, kreditlash tamoyillari, kompaniyalarga kredit berish shakllari, ipoteka, ssuda kapitali bozori, kredit nazariyasi, foiz nazariyasi tushunchalari orqali qaraladi.

“Kredit mexanizmi” kategoriyasi bo‘yicha rossiyalik iqtisodchilar orasida yagona fikrga kelinmaganligi kreditlash nazariyasi va amaliyotdagi muammoni echilmaganligini ko‘rsatadi. SHu bilan birga, kredit mexanizmi moxiyatini turlicha talqin qilinishi bu kategoriyaga turlicha yondashilganligi bilan tushuntiriladi.

Kredit mexanizmi tuzilishini zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mos ishlab chiqish masalasini qo‘yib, uni o‘z ichiga kredit siyosati, kredit mexanizmlari institutsional asosi, kredit tizimi tashkilotlari darajasi va prinsplari, uning infrastrukturasi, kreditor va qarz oluvchilarning orasidagi o‘zaro aloqalarini olishi kerak deb xisoblash mumkin. Bunda kredit jarayoni boshqaruvi yaxlitlashtirish elementi bo‘lib xizmat qiladi, qaysiki kredit mexanizmini butun tarkibini tuzib chiqadi, ular bir butunlikda birlashtiriladi va kredit mexanizmi birgalikda rivojlanishiga yo‘naltiradi. Undan tashqari, boshqaruv kredit mexanizmini takomillashtirish, uni amal qilish samaradorligini oshirish bo‘yicha yaxlit chora tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliya va kredit mexanizmlari bilan bir qatorda, «**moliya-kredit mexanizmi**», «kredit-hisob-kitob mexanizmi» kabi tushunchalar qo‘llaniladi. Bunday qo‘shma terminlar uchun moliya va kredit kategoriyalarining iqtisodiy negizi yagona ekanligi asos qilib olingan.

Moliya va kredit kategoriyalari muhim jihatlari bo‘yicha bir-biridan farq qilishlariga qaramasdan, ular bir-biriga bog‘langan kategoriyalar jumlasiga kiradi va ma’lum doiralarda o‘zaro va birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘p hollarda ta’sir moliya-kredit mexanizmi orqali namoyon bo‘ladi. **Professor M.A.Passel** «moliya-kredit mexanizmi» ning mustaqil tushuncha ekanligini quyidagicha ifodalaydi: «...ko‘p hollarda moliyaning ham, kreditning ham moliyalashtirish va kreditlashtirish ob’ekti umumiy bo‘ladi. Davlat bir-biridan farq qiladigan ushbu pullik munosabatlar shakllarini qo‘shib olib borishiga qaramasdan, ularni mablag‘ xosil qilish va taqdim etish xususiyatlariga qarab bir-birlaridan ajratadi».

**V.K Senchakova** 1979 yildagi «Moliyaviy mexanizm va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda uning roli» ishida: «Kredit mexanizmi o‘zida

markazlashgan va markazlashmagan ssuda foizlari, kredit richaglari, qoidalari, me'yorlari va normativlari, rezervlar, limit va stimullar, shuningdek, moliya va bank qonunchiligi majmuini ifodalaydi» deb ta'kidlagan. Bu izohda kredit resurslarini taqsimlash jarayoniga, tizimli yondashuv asosida kredit mexanizmi orqali iqtisodiy jarayonlarni boshqarishga urg'u berilgan.

Moliya-kredit mexanizmini aniqlash jarayonida olimlar ikkita qarama-qarshi guruxga bo'lindilar:

**1-gurux:** (D.A.Allaverdyan, M.A.Pessel, V.K.Senchachov, M.V.Romonovskiy va boshqalar) fikriga moliya va kredit mexanizmi - bu yagona moliya-kredit mexanizmining qismlari. **2-gurux** esa (A.D.Barkovskiy, V.I.Ribin, O.A.Malchanova, N.I.Valenseva va boshqalar) bu kategoriyalarni bilishning kredit va moliya mexanizmlari mustaqil bo'lishga xaqli va ularni qo'shish to'g'ri emas deb xisoblashganlar.

Moliya va kredit mexanizmlari bir tushuncha deb xisoblaydigan mualliflar fikricha, moliya pul munosabatlar tizimi sifatida qayta ishlab chiqarish jarayonida aylanma oborot fondlari bo'lib xizmat qilar, o'z ichiga kreditni olgan mustaqil zveno sifatida qaraladi.

Moliya kredit mexanizmidan asosiy ahamiyati ular o'z vaqtida xo'jalik sub'ektlarini pul resurslari bilan ta'minlashni ko'ra oladi.

Moliya kredit munosabatlari bazasi va moliyaviy resurslarni shakllantirishni milliy daromad va yalpi umumiy maxsulotni taqsimlash xamda qayta taqsimlashga xizmat qiladi. O'z navbatida M.A.Pessel, moliya va kredit kategoriyalari birgalikda yagona iqtisodiy munosabatlar doirasida xarakat qiladi, bu xolda esa "moliya kredit mexanizmi" atamasidan foydalanish to'g'ri deb aytgan edi. **V.I.Ribin va N.I.Valensevaning** fikriga, moliya-kredit mexanizmlarini yagona iqtisodiy asosga ega ekanligi va o'xshashligiga qaramasdan, ularni bo'lish kerak, chunki ularning xarakati kapital aylanma oborotidan turli bosqichlarida yuzaga keladi. Unda ishtirok etuvchi sub'ektlar orasidagi yuzaga keladigan munosabatlar xarakteri turli xil bo'ladi.

SHu bilan birga «moliya-kredit mexanizmi» tushunchasini tan olgan holda, mustaqil moliya-kredit mexanizmlarini yoki moliya-kredit mexanizmini inkor etish noto'g'ridir. CHunki, bu mustaqil terminlarni qo'llash, bozor mexanizmining o'rganilayotgan bo'g'ini ta'sir doirasiga va sohasiga bog'liq.

Ko'pchilik mualliflar o'z ishlarida kredit mexanizmini emas, balki moliya-kredit mexanizmini ko'rib chiqadilar. SHunday ekan kredit mexanizmini moliya-kredit va xo'jalik mexanizmi elementi sifatida izohlash mumkin. «**Xo'jalik mexanizmi**» tushunchasi xo'jalik yuritish formalari va tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv metodlari va tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv metodlari va tarixiy xususiyatini xisobga olgan xolda iqtisodiy qonunlar ifodalangan xuquqiy me'yorlar yig'indisi sifatida tariflangan. «**Moliyaviy mexanizm**» esa, lug'atda xo'jalik mexanizmning tarkibiy qismi sifatida ko'rsatilib, uning yordamida taqsimot munosabatlarining dunyo tizimi, daromad va jamg'armalar yaratilishi, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlari tashkil topishi va ulardan foydalanilishi ta'minlanadi.

Xalq xo'jaligi rivojlanishida kredit mexanizmi roli va ahamiyati muhimligini e'tiborga olib, iqtisodchilar xo'jalik mexanizmi tizimida uning o'rnini aniqlashda xanuzgacha yagona fikrga kelisha olmaganlar. Ko'pgina mualliflar xo'jalik mexanizmini «Iqtisodiy richaklar – pul, narx, foyda, kredit va moliyadan foydalanish asosida iqtisodiy rag'batlantirish va tashkil etishda ifodalanuvchi umum ishlab chiqarishni boshqarish usullari va shakllari tizimi» sifatida qarashadi. Bunda **N.D. Barkovskiy** va **N.I.Valenseva** kredit mexanizmini xo'jalik mexanizmining bir iqtisodiy rag'batlantirishi va richagiga kiritishadi. **V.I.Ribin** esa, kredit mexanizmi funksiyasi va rolidan kelib chiqib, uni «xo'jalik mexanizmining xech qanday tarkibiy qismi emas, balki butun xo'jalik mexanizmi» deb xisoblaydi.

Kredit bilan xo'jalik mexanizmini o'zaro munosabatlarini kuzatib, **O.A.Molchanova** shunday xulosa qiladi, kredit mexanizmi – ssuda fondini realizatsiya qiluvchi iqtisodiy mexanizmdir. Kredit esa - bu tovar. Kredit tizimida ham har qanday xo'jalik tizimidagi prinsiplar amal qiladi.

**N.I.Valensova** fikricha, kredit mexanizmi – amal qilishi xo'jalik mexanizmi tuzilishini to'liq aniqlab, beradi. Kredit mexanizmini takomillashtirish muammolari butun xo'jalik mexanizmini rivojlantirish savollarini kompleks echishni, ya'ni narxlarni o'rnatish, naqdsiz xisob-kitoblarni tashkil etish, byudjet bilan xisob-kitoblar va boshqalarni talab qiladi.

Agar kredit munosabatlari sub'ektlari iqtisodiy aloqalari bilan birgalikda tahlil qilinayotgan bo'lsa, «kredit-hisob-kitob mexanizmi» tushunchasidan foydalanish ham mumkin va bu birmuncha maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayrim hollarda «kredit mexanizmi» tushunchasi bilan birgalikda «**kreditlashtirish mexanizmi**» atamasi ham qo'llaniladi. Bu terminning qo'llanilishiga «kredit mexanizmi» tushunchasining ayrim amaliy faoliyat sohalarini o'rganishda keng ma'noni anglatishi asos hisoblanadi.

Odatda, kreditlashtirish mexanizmi deyilganda, kreditlashtirish shart-sharoitlarini belgilovchi elementlarning yig'indisi tushuniladi. U o'z mazmun jihatidan «kredit mexanizmi» tushunchasiga qaraganda bir muncha «tor» ma'noni anglatadi. SHu bilan birga, kredit mexanizmining tarkibiga kiradi va bu fikr ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan ham tan olingan.

Rossiya va horijda so'nggi 25 yilda kredit munosabatlari tarixi va rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, kredit mexanizmi harakati rejalashtirilishi bozor sharoitida ham mavjud, faqat sotsializmga qaraganda birmuncha boshqacharoq.

**70-yillarning** boshida **O.I.Lavrushin** o'zining «Iqtisodiy stimullar tizimida kredit» nomli ishida kredit mexanizmi rivojlanishini quyidagi 3 yo'nalish bo'yicha bo'ladi: kredit chegaralari kengayishi; ssuda berish va qaytarishning ta'sirchan mexanizmini izlab topish; jamiyatda ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'barlantirishda kredit richaklarini rolini oshirish deb qayd etadi. U kreditlash mexanizmi kredit mexanizmining amal qilinishining jarayon qismidir deb qaraydi.

**O.I.Lavrushin**ning fikricha, «kreditlash mexanizmi shunday tashkil topishi kerakki, u o'z vaqtida kreditni harajatga aylanish imkoniyatini oldini olishi, yo'l

qo'yilgan cheklanishlar haqida o'z vaqtida xabar berishi, o'rnatilgan me'yorlardan chetlanishlarga yo'l qo'ygan korxonalariga aktiv ta'sir ko'rsatishi kerak».

**R.V. Korneevning** fikricha, kredit mexanizmi xarakati xo'jalikning shunday sharoitlarini yaratishga yo'naltirilishi kerakki, unda korxonalar yoki tarmoqning o'zi ishlab chiqarishni kengaytirishi, mahsulot sifatini yaxshilash uchun qo'shimcha resurslarga qiziqishi kerak. R.V.Korneevning «Sanoat tarmog'ining davlat banki bilan kredit munosabatlari» kitobida kredit korxonaning xo'jalik moliyaviy faoliyatiga kredit mexanizmi orqali ta'sir etishini aytib o'tadi.

**N.I.Valenseva** va **I.D.Mamanova** bank kreditidan foydalanish samaradorligini tadqiq qila turib, kreditlash mexanizmini: «Kredit berish va so'ndirishni rejalashtirish, uning maqsadli yo'nalishi ustidan nazorat bilan bog'liq qarorlar majmuasi» sifatida izohlaydi.

Kredit mexanizmi jarayonini ko'rib chiq turib, mualliflar aylanma mablag'lar tashkil etilishi va kreditlash mexanizmining o'zaro bog'liqligini qayd etadilar. Boshqacha aytganda, ular kreditlash mexanizmini korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari bilan aloqasini qayd etishadi. «Kredit mexanizmi» va «kreditlash mexanizmi» tushunchasini chegaralash **R.G.Olxovada** ko'rinadi. U xisoblaydiki, «kredit mexanizmining bir elementi hisoblangan kreditlash mexanizmi o'zida quyidagi bo'g'inlardan tuzilgan tizimni ifodalaydi: o'z va qarz, aylanma mablag'larni chegaralash prinsplari, kreditlash metodlari, ssuda schyoti ko'rinishlari, kreditlash ob'ektlari, kreditning rejali boshqarish metodlari, kreditdan foydalanish ustidan nazoratni tashkil etish metod va turlari».

### CHet el davlatlari kredit mexanizmi elementlarining qiyosiy tavsifi

Kredit mexanizmi elementlari	AQSH	Buyuk Britaniya	Germaniya	Fransiya	Yaponiya	Italiya	Roosiya
1. Kredit siyosati: -ekspansiya; -restruksiya.	+	+	+	+	+	+	+
2. Kredit instrumentlari: -kredit siyosati; -byudjet siyosati; -soliq siyosati.	+	+	+	+	+	+	+
3. Kredit stavkasi miqdori: -ishlab chiqarish rentabelligi chegarasida; -ishlab chiqarish rentabelligi chegarasidan yuqori.	+	+	+	+	+	+	+



4. Kredit shakllari: -bank va nobank tashkilotlarning kreditlari; -tijorat kreditlari; -markazlashgan resurslar; -xalqaro kreditlar.	+	+	+	+	+	+	+
5. Kredit bozoridagi raqobatning mavjudligi.	+	+	+		+	+	
6. Kredit operatsiyalari assortimenti: -loyixalar, mijozlarga mo'ljallangan kredit maxsulotlarning turli kurinishlari; -kredit maxsulotlarining bir necha kurinishlari.	+	+	+	+	+	+	
7. Kredit bozori infratuzilmasi rivojlanishi darajasi: -yuqori; -past.	+	+	+	+	+	+	+
8. Kredit mexanizmini tartibga soluvchi sub'ektlar: -markaziy bank; -vazirlik tuzilmalari.	+	+	+	+	+	+	+
9. Ikkilamchi bozorni rivojlanish darajasi (veksel, garovlarni realizatsiya qilish bozorlari) : -yuqori; -past.	+	+	+	+	+	+	+
10. Investitsion iqlim: -qulay; -noqulay.	+	+	+	+	+	+	+

Boshqa mualliflardan farqli, **Ribin** kredit mexanizmi tuzilishini kreditga asoslangan, kreditni rejalashtirish va iqtisodiy richaglar bilan birga kredit munosabatlari va tashkiliy-iqtisodiy tuzilish boshqaruviga ajratadi. Bunda tashkiliy-iqtisodiy tuzilish boshqaruvchi o'z ichiga faqat kreditlash sub'ektlarini oladi. Kredit mexanizmini boshqaruvchi davlat tashkilotlari kirmaydi. **V.V.Zemskov**, ko'p aspektli yondoshuvga asoslangan, kredit munosabatlari 2 ta qatlamda – moxiyati bo'yicha, ob'ektiv, teranlikda kredit mohiyati va mazmunini

ochib beradi hamda ishlab chiqarish, aniq kredit munosabatlari doirasida mavjud bo'ladi.

Kredit mexanizmi, deb yozadi **V.V.Zemskov**, - o'zida kredit munosabatlarini funksional qatlamini aks ettirib, kreditni sifat aniqliklari, ya'ni moxiyatining xususiyatlari, maxsus qonunlar, funksiyasini qayta tiklash va saqlab qolishni ta'minlaydi.

**V.V.Zemskov** fikricha, kredit mexanizmi tuzilishi uch elementga ajratiladi – kreditni rejalashtirish, kreditni tartibga solish va kreditlash. Bunda qaralayotgan kredit sub'ektlari va kredit resurslari xisobga olinmaydi. Ularning ta'siri faqat funksional qatlam doirasi bilan chegaralanadi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan 1987 yili **V.V Zemkov** kredit munosabatlari va ularning namoyon bo'lish shakllari mohiyatini kompleks ko'rib chiqish tarafdori bo'lib chiqadi. U bunday yondashuvdan kredit mexanizmini ko'rib chiqishda ham foydalaniladi. V.V Zemkov kredit mexanizmini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi: kreditni rejalashtirishni tashkil etish, kreditni tartibga solishni tashkil etish, kreditlashni tashkil etish.

**O.A Molchanova** «Kredit mexanizmi murakkab, doimiy rivojlanuvchi strukturaga ega bo'lgan xo'jalik mexanizmi elementi hisoblanadi va o'zida kredit munosabatlarini tashkil etish shaklini ifodalaydi» deydi.

Agar iqtisodchilarning kredit mexanizmiga yondashuvlari umumlashtiriladigan bo'lsa, unda kredit mexanizmi o'zida barcha iqtisodiy sub'ektlar qiziqishlari, ya'ni moliya-kredit siyosatini ta'minlash uchun kredit munosabatlarini rejali boshqarish usul va ko'rinishlari majmui ifodalanadi, deb xulosa chiqarish mumkin.

Kredit mexanizmining amal qilishining tashkil etish va yo'naltirishga **davlatning ta'siri** kredit munosabatlarining ob'ekti va sub'ektini belgilovchi, kreditlash rejimining differentsiatsiya ko'rsatkichlarini belgilash, foiz stavkasini darajasini, kredit turlarini, ssuda schyotlarini boshqarish tartibini, ya'ni kredit mexanizmining asosiy elementlarini belgilashda ko'rinadi. Bu kreditni tashkil etish doirasida yagona siyosatni ta'minlaydi. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit munosabatlarining keyingi rivoji kredit berish va qaytarish masalalarini markazlashgan echimi imkoniyatlari va xuquqlarini kengaytirishni, iqtisodiy javobgarlikni kuchaytirishni (lekin davlat tomonidan o'rnatilgan kreditlash jarayoni saqlagan xolda) talab etadi. Kredit mexanizmida boshqaruvning maqsad va funksiyalari ko'rsatilgan. Ushbu xolatda boshqaruv funksiyalariga - rejalashtirish, tartibga solish, me'yorlar belgilash, operativ boshqarish, taxlil va ragbatlantirish kiradi.

Har bir mamlakat ssuda-kapitali bozorini ishtirokchilarini nazorat qiluvchi tashkilotlarga ega. Buyuk Britaniya va Italiyada buni Markaziy Bank amalga oshiradi. Boshqa davlatlarda qo'shimcha tartibga soluvchi organlar, Germaniyada - bank ustidan nazorat bo'yicha Federal muassasa, Fransiyada bank komissiyasi, kredit bo'yicha Milliy Sovet, YAponiyada Moliya Vazirligida bank byurosi mavjud.

Nemets banklari tizimi asosan iqtisodiy (bilvosita) uslublar bilan tartibga solinadi, Buyuk Britaniya, AQSH, Italiya bank tizimlari ma'muriy (bevosita)


usullar orqali tartibga solinadi. Iqtisodiy boshqarish uslublarida kredit operatsiyalarini o'tkazishda bir muncha erkinliklar beriladi. Germaniyada tijorat banklari erkin faoliyat olib borishi kredit tizimi axvoli bo'yicha javobgarlik va qo'yilmalarning riskliligiga extiyot bo'lishni talab qiladi.

Markaziy banklar maxsus tartibga soluvchi tashkilotlar sifatida AQSH, Fransiya, Italiya, YAponiyada kredit operatsiyalarini miqdoran cheklashdan foydalanishadi. AQSHda kreditlar bo'yicha maksimal foiz stavkalar belgilangan, talab qilinguncha bo'lgan depozitlarga foiz to'lash taqiqlangan. YAponiyada su'niy foiz darajasini pasaytirish sharoitida kreditlarni to'g'ridan-to'g'ri miqdoran cheklash amalga oshiriladi, yangi banklar ochilishi ta'qiqlanadi. Italiyada Depozit banklari 18 oydan oshmagan muddatlarda kredit beradi. Fransiyada yirik banklarga beriladigan kreditlar xajmi bo'yicha cheklovlar mavjud.

Mamlakatda bozor iqtisodiyoti asoslari yaratilishi bilan paraditmlar ham o'zgarimoqda, kredit mexanizmi amal qilish prinsiplari va richaglari, metodlarini baholash va prognozlashtirishga yondashuvlar ham o'zgarib bormoqda. Kredit tizimi o'zgarib, yangi kredit institutlari paydo bo'lmoqda. Moliya bozorida moliya va kredit o'rtasidagi yangi proporsiyalar va o'zaro munosabatlar ham o'zgarimoqda. O'zgarayotgan vaziyatlar kredit mexanizmini amal qilish vositalari va usullari, boshqacha aytganda adekvat instrumentariyalarini talab qiladi.

**Instrumentariy**-qo'llaniladigan instrumentlar majmuini bildiradigan so'zdir. Kredit mexanizmi amal qilish doirasida instrumenitariya nazariyasi va amaliyoti o'zida kredit mexanizmi amal qilishini ifodolovchi tizimlashgan tushuncha va terminlar (ob'ekt, sub'ekt, predmet, metod, institut turi, ko'rinishi, vositasi, prinsipi va qoidalarini) majmuini ifodalaydi.

### **Bozor iqtisodiyotida kredit mexanizmining instrumentariysi.**



## 2. Kredit mexanizmining tarkibiy elementlari va ularning ketma-ketligi.

Kredit mexanizmining mazmunini o'rganishda uning **tarkibiy elementlari** muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu tarkibiy qismlar va elementlar ayrim hollarda umumlashtirilgan, ayrim hollarda esa maxsus tarzda berilgan. Qay tarzda berilishidan qat'iy nazar, kredit mexanizmi bozor mexanizmining tarkibiy qismi sifatida o'z ichiga kreditlashtirish tamoyillarini, kreditlashtirish shart-sharoitlarini va bank tizimini qamrab olishi ta'kidlanadi.

Kredit mexanizmining tarkibiy qismlari to'g'risida gapirib, birinchi o'ringa kreditlash tamoyillarini qo'ydik. Chunki ular kreditning mazmunini aks ettirib, vaqtinchalik foydalanishga berilayotgan mablag'larni belgilangan muddatda va to'liq ravishda qaytib kelishini bu mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. Kredit munosabatlari kreditlash tamoyillari kredit nazariyasi va kredit muassasalarining faoliyati rivojlanib borgan sari takomillashib va o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar ko'p jihatidan kredit munosabatlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Kredit muassasalari kredit munosabatlari mazmunini chuqur o'rgangan holda kreditning mohiyatini aks ettiruvchi yangi tamoyillar vujudga keltirishi mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o'tish va shunga mos ravishda, kredit munosabatlari

sub'ektlarining iqtisodiy mustaqillik doirasini kengaytirilishi ayrim kreditlashtirish tamoyillari mazmunini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Kreditlash tamoyillarining kredit mazmuni bilan aloqadorligi ularning yana bir o'ziga xos xususiyatini vujudga keltiradi. Bizga ma'lumki, kreditning mazmuni uning umumiy va maxsus xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Agar umumiy xususiyatlari uni boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro bog'liqligini aks ettirsa, maxsus xususiyatlari esa kreditni iqtisodiy munosabatlar majmuasidan ajratib turadi. Kreditlashning maxsus ya'ni konkret tamoyillari bilan tanishamiz. Kreditlashtirish maxsus tamoyillarining mazmuni kreditning ichki mohiyatidan kelib chiqib, mamlakat ssuda fondini normal harakatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bu tamoyillar ichida kreditning maqsadlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda kreditning maqsadlilik deyilganda, ssuda fondi mablag'larini korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik yuritish maqsadlaridan kelib chiqadigan xarajatlarga yo'naltirish tushuniladi. Bu tamoyilning mohiyati kredit munosabatlari maqsadidan kelib chiqqan holda, jamiyatning asosiy iqtisodiy qonuni va vaqtni tejash umumiy qonunining talablari bilan belgilanadi.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. YA'ni ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular:

- Qaytarib berish;
- Muddatlilik;
- Ta'minlanganlik;
- Maqsadlilik;
- To'lovlilik.

Kreditning qaytarib berish tamoyili. Bu tamoyil kreditning mustaqil iqtisodiy kategoriya ekanligining shartidir. qaytarib berishlik kreditning muhim belgisi hisoblanadi. qaytarib berishlik o'z-o'zidan vujudga kelmaydi; u moddiy jarayonlarga, qiymatning aylanishini tugashiga asoslanadi. qarzgacha beriladigan qiymat faqat muayyan bir muddatgina o'z egasi qo'lidan uzoqlashadi, lekin egasini o'zgartirmaydi. qaytarib berishlik muayyan shartnomada o'zining o'rnini topadi.

Kreditdan samarali foydalanishi asosida qaytarib berishlik – butun bank faoliyatining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Kreditning bu tamoyili o'z amaliyot aksini kredit va undan foydalanganlik uchun % summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko'chirish yo'li bilan to'lanadi. SHu yo'l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta'minlaydilar. Bizning amaliyotimizda markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida kreditlashning "qaytarilmaydigan ssuda degan" norasmiy tushunchasi bor edi. Kreditlashning bu shakli xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida keng tarqalgan edi. fzining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qaytarilmaydigan ssudalar byudjet subsidiyasining qo'shimcha shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida "qaytarilmas kredit" tushunchasi bozor iqtisodi tamoyillariga yod bo'lib, bunday kreditning amaliyotda bo'lishi iqtisod uchun juda xavfli hisoblanadi.

Kreditning muddatligi – bu tamoyil kredit beruvchidan olingan kreditni o'z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya'ni kreditning qanday muddatga berilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda shu muddatlilik tamoyiliga ko'ra kredit uzoq va qisqa

muddatli kreditlarga bo'linadi. Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo'lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko'rsatilgan ma'lum muddatda kreditning qaytarilishi zarurligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikkala tomon uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytarib olsa, uni egasiga o'z vaqtida qaytarish yoki yana uni kreditga berish imkoniyatiga ega bo'ladi. qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o'z vaqtida kreditorga qaytarsa unga shartnomada belgilangan jazo choralari ko'rilmaydi. Kreditning muddati bo'yicha kredit shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilishi narijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralarni qo'llashi mumkin. Bu choralar ham yordam berilgan hollarda kredit beruvchi moliyaviy talablarni xo'jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarning tejamli qayta ishlatish muddatiga, ishlab chiqargan mahsulotini jo'natish muddatiga, tovarlarni sotish muddatiga va pirovard natijada aylanma fondlarning doiraviy aylanishining tezligiga bog'liqdir.

Kreditning ta'minlanganlik tamoyili – bu tamoyil yordamida xalq xo'jaligining rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasida bo'lishi zarur bo'lgan proporsiyalarining bir me'yorda bo'lishi rag'batlantiriladi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik oborotida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan moddiy boyliklarning bir sqmi qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalq xo'jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to'liq tovar moddiy boyliklari va ma'lum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu o'z navbatida bankning likvidliligiga va upl muomilasga katta ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga muhim e'tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda bu jarayonning amalga oshirilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Kredit olayotgan korxonaga bankka tovar yoki tovar hujjatlarini, boshqa biror shakldagi mulkini garovga qo'yadi. Agarda bank bergan kredit qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida bankka qaytarilmasa bank tovarni sotish hisobidan qarz o'rnini qoplash huquqiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, kreditning ta'minlanganlik tamoyili qarz oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining muldorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va o'zining amaliy aksini kreditni biror garov asosida yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi.

To'lovlilik tamoyili – bu tamoyil aylanma fondlarning doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoning ta'minlovchi to'lov resurslari summasini avanslashtirilgan zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag'lari uchun kreditlarga foiz shaklida to'lovni o'tkazadilar. Kreditning to'lovliligi uni to'liq summada o'z egasiga qaytarishigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi.

Kredit uchun haq to'lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi qo'shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning amaliyotda 3ta asosiy

funksiyasini bajaruvchi bank foizi normasini oʻrnatish jarayonida namoyon boʻladi.

Huquqiy shaxslar foydasining va jismoniy shaxslar daromadining taqsimlanishi;

Ishlab chiqarishni tartibga solish va ssuda kapitalining taqsimlanishi orqali tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro miqyosda aylanishi;

Iqtisodiyot rivojlanishining inqirozli bosqichida bank mijozlarining pul mablagʻlarini inflyasiyadan himoyalash va boshqalar.

Ssuda fondining stavkasi ssuda kapitalidan olingan yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati bilan aniqlanib, kredit resurslarining bahosi sifatida namoyon boʻladi.

Kreditning maqsadliligi – bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yoʻnaltirilganligi, masalan, tovar moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hakoza aniq biror obʻektga maqsadli yoʻnaltirilganligi korxonalar bilan bank oʻrtasida tuziladigan kredit shartnomada koʻrsatilgan boʻladi. Korxonalar olgan kreditni faqatgina kredit shartnomasida koʻrsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak. Bunda kredit aniq obʻektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor mahsulotga, joʻnatilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va boshqalarga beriladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida mavjud boʻlishi va harakat qilishining muhim tomonlarini oʻzida ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning yuqorida keltirilgan tamoyillaridan tashqari, kreditdan oqilona foydalanishni ifodalovchi tamoyil kreditning samaradorligi tamoyilini kiritishimiz zarur. Bu tamoyil nafaqat kredit va foiz summasini bankka qaytarishni, undan tashqari shu kredit yordamida kreditlanadigan soha, tarmoq, korxonalar qancha samaradorlikka erishishini ifodalash zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida beriladigan kreditlar maʼlum bir loyihalarning bajarilishiga yoʻnaltirilgan boʻladi. Banklar loyihalarni kreditlashdan oldin loyihani bajarish uchun yoʻnaltiriladigan mablagʻlarni samaradorligini hisoblab chiqishlari zarur. Agar biz bozor iqtisodi yuqori rivojlangan mamlakatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga eʼtibor beradigan boʻlsak, bu mamlakatlarda korxonalar, tashkilotlarga kredit berishdan oldin qoʻyiladigan mablagʻlarning samaradorligi hisob-kitob qilib chiqiladi. Agar loyihaga qoʻyiladigan mablagʻlar samara beradigan boʻlsagina, shu loyiha uchun mablagʻ ajratiladi. Har bir korxonalar va tashkilot uchun kreditdan foydalanishda uning samaradorligiga alohida eʼtibor berish katta ahamiyatga egadir, chunki samaradorlik kreditning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Samaradorlik tamoyilining boʻlishi va unga rioya qilish kreditning boshqa tamoyillarining bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Samaradorlik kreditdan aniq, maqsadli foydalanishni taqazo etadi. Samaradorlik koʻrsatkichi kredit qoʻyilmalar oʻrtacha qoldigʻining 1 soʻmiga toʻgʻri keladigan realizatsiya qilingan tovarlar mahsulotning hajmini koʻrsatadi.

Kreditni jalb qilish yordamida ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi, tovarlarni sotish hajmini oshishi kreditning samaradorligini belgilab beradi. Korxonada kam kredit resurslari hisobiga ko'p mahsulot sotuviga erishadigan bo'lsa, kreditning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Kredit resurslarining samaradorligi asosan ikki omil: realizatsiya qilingan mahsulotning hajmi va kredit resurslarining aylanish davriga bog'liq.

Xulosa tariqasida shuni qayd etish lozimki, ular kreditlashtirish jarayonida o'zaro uzviy bog'liqlikda va aloqadorlikda amal qiladi. Sub'ektlar tomonidan bu tamoyillardan biriga rioya qilmaslik, boshqa tamoyil talablarini ham buzilishiga olib keladi. Oqibatda, kredit munosabatlarida qiyminchiliklar vujudga kelishi kreditning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri pasayishi mumkin. Kreditlashtirish samaradorligi banklar tomonidan kredit munosabatlarini tashkil etish jarayonida barcha tamoyillarni talablari har tomonlama inobatga olinganda yuqori bo'lishi mumkin. Bunga kreditlashning shart-sharoitlari orqali erishiladi.

Bizga ma'lumki kredit munosabatlari ob'ektiv xarakterga ega bo'lsa ham, har bir aniq holatda ular banklarning faol ishtirokida tashkil etiladi. Bu jarayonlarni tashkil etishda banklar kreditlash tamoyillari va kreditlash shart-sharoitlariga asoslanadilar. Kreditlashtirish shart-sharoitlari deganda - kreditlash jarayonini tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan elementlarning majmuasi tushuniladi. Kreditlash shart-sharoitlari o'z ichiga bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan kreditlashtirish ob'ektlari, usullari kreditga layoqatlilik, kredit shartnomasi va nazoratni qamrab oladi.

Kredit mexanizmini tashkiliy iqtisodiy elementlaridan biri kreditlash ob'ektlaridir. Kreditlash ob'ektlari deyilganda kredit beriladigan aniq maqsad yoki uning nimaga mo'ljallanganligi tushuniladi. Xo'jaliklarga beriladigan kreditlarni ishlab chiqarish fondlarining aylanishi bilan uzviy bog'liqligi korxonada va tashkilotlarni kreditlashtirish jarayonini 2 sferaga ajratishni taqazo etadi:

1. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatini kreditlashtirish.
2. Kapital xarajatlar va quyilmalarni kreditlashtirish.

Kreditlashtirish bu tarzda 2 sferaga ajratish aylanma va asosiy fondlarning aylanishlaridagi xususiyatlar bilan belgilanadi. Ma'lumki, aylanma mablag'lar o'zlarining harakatchanligi aylanish tezligining kattaligi va ularni tashkil etishga beriladigan kreditlarning muddatini qisqaligi bilan ajralib turadi.

Asosiy fondlar esa, aksincha sekin harakat qiladi va bu harakat uzoq davr davomida o'zining to'liq ko'rinishini olishi mumkin. SHuning uchun ham asosiy fondlarni kreditlashtirish jarayoni kredit munosabatlarini o'ziga xos tarzda tashkil etishni taqazo etadi. Bu holat kapital xarajatlarni kreditlash jarayonida bank ssudalari asosiy fondlarni yangilash, kengaytirish, ta'mirlash va texnik jihatdan qayta jihozlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni mablag'lar bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. Bu xarajatlar o'z navbatida kapital quyilmalarni kreditlashtirishning asosiy ob'ektlari bo'lib hisoblanadi.

Aylanma mablag'larga beriladigan kreditlar esa ishlab chiqarish va muomala fondlaridagi moddiy boyliklar va xarajatlarni harakatini ta'minlashga mo'ljallangan.



Aylanma mablag'lar o'zining qaysi tarmoqqa qarashli ekanligiga qarab aylanishi davrida ma'lum xususiyatlarga ega bo'ladi. Aylanma mablag'larning aylanish davridagi xususiyati xo'jalik sub'ektlarining qaysi tarmoqqa ta'luqli ekanligiga bog'liq.

Mavsumiy tarmoqlarda aylanma mablag'larning aylanishi bir tekisda kechmaydi. Chunki bu tarmoqlarda aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoj yilning fasliga, mavsumga qarab turlicha bo'ladi.

qishloq xo'jaligi va unga o'xshagan boshqa tarmoqlarda aylanma mablag'larga bo'lgan talab bank kreditni jalb qilish yo'li bilan qoplanishi mumkin.

Nomavsumiy tarmoqlarda aylanma mablag'larning aylanishi bir maromda kechishi mumkin. SHunga qaramasdan nomavsumiy tarmoqlarda ham materiallarning mol etkazib beruvchidan kelib tushishida tovar ortiqcha yoki kam kelib tushganda, transport bo'yicha qiyinchiliklar bo'lgada, tayyor mahsulotni sotish jarayoni va boshqalarda aylanma mablag'larga bo'lgan talab bank krediti hisobidan qoplanishi mumkin.

Aylanma mablag'lar xo'jalik sub'ektlari faoliyatning asosi bo'lib, bank tomonidan beriladigan kreditlarning aksariyat qismi

aylanma mablag'larga yo'naltiriladi. SHu tufayli har bir xo'jalik sub'ekti aylanma mablag'larini to'g'ri tashkil qilmog'i va ulardan foydalanishda samaradorlikka erishmog'i lozim.

Uzoq muddatli kreditlashtirish ob'ektlari to'g'risida shuni qayd etish lozimki, xo'jaliklarning faoliyatiga bozor munosabatlari kirib borgan sari ularning doirasi kengayib boradi. Chunki hozirgi vaqtda markazlashtirilgan fondlardan moliyalashtirilgan kapital xarajatlar xo'jaliklarning o'z mablag'lari va bank krediti hisobiga amalga oshirilmoqda va har bir aniq holatda ularning kreditlashtirish ob'ekti sifatida tan olinishi kreditlash tamoyillariga mos kelishi bilan harakterlanadi. Kreditlashtirish ob'ektini o'rganishda banklar kreditning qaytaruvchanlik harakterini inobatga olishadilar. Chunki kredit ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishida ma'lum bir muddat davomida qatnashadi. SHuning uchun ham kredit xo'jaliklarda vujudga kelgan vaqtinchalik ehtiyojlarni qondirishga yo'naltiriladi.

Kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri kreditga layoqatlilikdir. Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditni o'z vaqtida qaytarishning muhim shakli hisoblanadi. Davlat mulkchiligiga asoslangan jamiyatda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit mexanizmida muhim o'rinni egallagan edi. Bank faoliyatiga davlat yakka hukumronligi ularning mustaqil sub'ekt sifatida faoliyat ko'ratishiga to'sqinlik qiladi. SHu bilagn birga kredit resurslari markazlashgan tarzda reja asosida tasdiqlanadi. Eng xususiyatli tomoni shundaki, banklar beradigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilay olmaydilar. Bozor iqtisodiyot sharoitida esa kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit berishda asosiy e'tibor qilinadigan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki tijorat banklari o'z faoliyati natijalari uchun to'liq javobgar hisoblanadi va kredit uchun foiz esa uning asosiy daromad manbai bo'lib qoladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditlash jarayoni qarz oluvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligi, belgilangan muddatda qarzni

qaytarilmasligi kabi ko'pgina xatarlar bilan bog'liq. Ba'zan tabiiy ofatlar zarar ko'rishga sabab bo'ladi.

Rivojlanib borayotgan korxonalar yoki tashkilotlarning bankrot bo'lib qolishiga iste'mol talabi yoki ishlab chiqarish texnologiyasining o'zgarishi ham hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Raqobat natijasida bahoni yoki daromadni kamayishi ham qarzni so'ndirishga ta'sir etadi.

qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash zaruriyati quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiyotning xo'jalik hisobidagi pag'onalari nodavlat-lashtirilganligi va xususiylashtirilganligi;

- Aksiyadorlik, jamoa, xususiy va ijra korxonalarini vujudga kelganligi va rivojlanayotganligi;

- Korxonaing moliyaviy barqarorligini har doim ham ko'rsata olmaydigan (kreditor oborotidagi begona pul mablag'lari) korxonadagi o'z mablag'larining ko'payishi, bundan tashqari joriy ishlab chiqarish faoliyati uchun mablag'ga bo'lgan eng minimal doimiy talab darajasiga eta olmasligi;

- Banklar tizimini rivojlanishi bilan banklar tomonidan xatarni qisqartirish maqsadida ishdagi barqarorlikni oshirish.

Kreditga layoqatlilikni tahlil etish chog'ida banklar tomonidan quyidagi masalalar hal etilishi lozim:

1. qarz oluvchi o'z vaqtida majburiyatlarini bajara oladimi yoki yo'q?

2. qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajarishga tayyormi?

Birinchi savolga qarz oluvchilarning moliyaviy xo'jalik kafoliyatini o'rganish javob beradi. Ikkinchisi esa yuridik harakterga ega bo'lib, korxon va tashkilot rahbarining shaxsiy fazilatlarini bilan ham belgilanadi.

qarz oluvchilarning kreditni o'z vaqtida qaytarishiga qodirligi aylanma mablag'lari va kreditdan foydalanish samaradorligi, daromadlilik darajasini balans ma'lumotlari asosida tahlil qilish orqali, bu majburiyatlarni bajarishga tayyorligi esa korxon va tashkilotlarning ish yuritish usullarini, rivojlanish istiqbollari, ularning rahbarlarini ishini tashkil etish va yurgizish fazilatlarini o'rganish orqali aniqlanadi.

Kreditga layoqatlilikni aniqlash orqali bank tomonidan kreditlash imkoniyati va shartlari to'g'risidagi masala hal etilgunga qadar qarz oluvchiga sifat bahosi beriladi, bu esa ssudadan unumli foydalanish va uni o'z vaqtida qaytaritilishi ehtimolini oldindan ko'ra bilishga yordam beradi.

Kreditga layoqatlilikni ko'pgina talqinlari mavjud: masalan, V.P.Kobinskiy shunday ta'rif beradi. "Kreditga layoqatlilik kapitalni yo'q bo'lishini emas, balki qaytadan yaratilishini kafolatlovchi shartlar bilan o'lchanadi".

M.O.Saxarova shunday yozadi: "Bank mijozlarini kreditga layoqatliligi korxon va tashkilotning moliyaviy xo'jalik holati sifatida qarz olingan mablag'dan unumli foydalanishiga va qarz oluvchining shartnoma shartlariga muvofiq kreditni qaytarishga tayyorligi qobiliyattigi ishonch beradi".

V.T.Sevruk bu haqida shunday talqin beradi: "Bank tizimini xo'jalik hisobiga o'tishi, tijorat banklarini vujudga kelishi, iqtisodiyotda to'laqonli pul-tovar munosabatlarini shakllanishi korxonalarini ularning moliyaviy holatidan

qat'iy nazar guruhlarga bo'lgan holda ularni faoliyati tahlil mazmunini anglash zaruratini vujudga keltiradi”.

Ko'pgina tijorat banklari o'z amaliyotida qarz oluvchining obro'-e'tiborini tahlil etishga katta e'tibor qaratadi. Bunda qarz oluvchining nafaqat qarzni qaytarishga tayyorligi, shuningdek o'z to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishga ichki manfaatdorligi ham tushuniladi. SHu bilan bir qatorda banklar tomoidan kredit qobiliyatiga ta'sir etvchi omillar, ya'ni foyda olish qobiliyati, aktivlarga egaligi hamda konyuktura holati ham tahlil etiladi.

Jahon banki amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligi kredit munosabatlari maqsadga muvofiqligi va uning shakllarini belgilash chog'idagi asosiy belgilash ob'ektidan biri hisoblanadi. qarzni qaytarish qobiliyati mijozning axloqiy sifatlari, uning mashg'uloti turi va san'ati ko'chmas mulkka qo'ygan sarmoyasi darajasi, ssudani so'ndirish uchun mablag'ni ishlab topish imkoniyati va boshqa majburiyatlar bilan bog'langan.

XIX asr oxirida N.X. Bunga “Teoriya kredita” asarida fransuz banklarining bu haqidagi so'zlarini keltiradi: “Ishonch bildirib – biz ularning (qarz oluvchilar) rostgo'yligiga e'tibor beramiz – bu bizning aldanib qolmasligimizga ishontiradi, ularning san'atiga e'tibor e'tibor beramiz – bu bizga ularni hisob-kitobda aldanib qolmasligiga umid beradi, ularni mashg'ulotiga e'tibor beramiz – bu biz kutayotgan foizga bo'lgan umidni belgilaydi.

SHuni ta'kidlash joizki, N.X. Bunga kredit qobiliyatini sarmoyaning harakatsizligi bilan bog'lab, qarzni qaytarish kafolati kerakli miqdorda etarli bo'lishi kerak deb hisoblagan.

Kreditga layoqatlilik – bu mijozning kreditlash imkoniyati va shartlari to'g'risidagi masala xal etilgunga qadar bank tomonidan beriladigan sifat bahosi bo'lib, u ssudaning bankka o'z vaqtida qaytarilishini hamda undan unumli foydalanish ehtimolini avvaldan ko'ra bilishga imkon beradi.

Kredit mexanizmini yana bir muhim elementlaridan biri kredit shartnomasidir. Turg'unlik yillarida banklar tomonidan korxonalarining asosiy faoliyatini kreditlashtirish markaz-lashtirilgan tartibda belgilangan instruktiv va me'yoriy xujjatlar asosida amalga oshirilgan. quyi bank muassasalari kredit munosabatlarini bevosita o'zlari tashkil etsalar ham bu jarayonga hech ta'sir o'tkaza olmas edi. Kredit munosabatlaridagi bu holat kreditlash tamoyillari talablariga rioya qilinmaslikka hamda kredit qarz mohiyatini qariyb yo'qotishgacha olib keldi. Xo'jalik yuritishni o'zgarishi va rivojlanishi natijasida kredit mexanizmida bu holatlarni oldini olish uchun tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ulardan biri bank muassasalari bilan xo'jaliklar o'rtasida bo'ladigan kredit munosabatlarini shartnoma asosida rasmiylashtirilishidir. Kredit shartnomasi bank bilan mijoz o'rtasidagit sherikchilik munosabatlarining rivojlanishiga yordam berdi. Kreditlash jarayoniga kredit shartnomasini joriy etilishi, bir tomondan korxonalar va tashkilotlarning kredit mablag'laridan samarali foydalanishda ma'suliyatini va mustaqilligini oshirdi. Ikkinchi tomondan, kreditni

rejalashtirishda, berishda va undan foydalanish jarayonini nazorat qilishda quyi bank muassasalarini huquqlari kengaytirildi.

Kredit shartnomalarida bank muassasalari va xo'jaliklarni huquqlari va majburiyatlari, kreditlash ob'ektlari, usullari, shartlari, kredit uchun foiz to'lovlari hamda kreditlashtirish uchun zarur bo'lgan xujjatlari bankka topshirish muddatlari ko'rsatiladi. Kredit munosabatlari kredit shartnomasi asosida tashkil etiladi. Kredit shartnomalarini tuzish jarayonida bank muassasalari korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy xo'jalik faoliyatlarini har tomonlama iqtisodiy tahlil qiladi, ularning moliyaviy holatlarini sog'lomlashtirish, tovar-moddiy boyliklar zaxiralarini kamaytirish, o'z va qarz mablag'laridan samarali foydalanish tadbirlarini belgilashda ishtirok etadi.

Xo'jaliklar kredit shartnomalaridagi o'z majburiyatlarini bajarmasalar yoki kreditlash tamoyillariga amal qilmasalar banklar ularni kreditlash jarayonin to'xtatib qo'yish va berilgan kreditlarni muddatidan oldin qaytarib olish huquqiga egadirlar.

Kredit shartnomada bankning huquqlari va mijoz oldidagi majburiyatlari aniq qilib ko'rsatib berilgan. Kredit bank tomonidan mijozning faoliyatini doimiy nazorat qilib turilmasa, bank kreditlari o'z vaqtida qaytarilmaydi.

Kredit shartnomasida bank quyidagi huquqlarga ega: Tijorat banki berilgan kreditning ta'minlanganligi bo'yicha; garovga olingan mulk bo'lsa uning saqlanishini tekshirish, hamda kreditning maqsadli ishlatilishi bo'yicha joylarga chiqib tekshirishlar o'tkazib turish huquqiga ega. Mijoz kredit shartnomasi amal qilmasdan faoliyat yuritsa, banklar amaldagi qonunlarda belgilangan choralar ko'riladi. Bank kredit shartnomada ko'rsatilgan xajmda va muddatda mijozga kredit berish, Vazirlar mahkamasi va Markaziy bankning kreditlash bo'yicha me'yoriy xujjatlarning o'zgarishi hamda kreditlash bo'yicha kelib chiqadigan muammolar haqida mijozni ogohlantirib turishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit shartnomalari kredit mexanizmining muhim tarkibiy elementiga aylanishi hamda uning mazmunini qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajisini belgilash lozim. Kredit shartnomasini tuzish tartibi va undagi ko'rsatkichlar bank muassasalari va mijoz tomonidan mustaqil ravishda va ikkala tomonning manfaatlariga mos holda belgilanadi.

Kredit mexanizmi elementlaridan yana biri bank nazoratidir. Kredit munosabatlarida yuz berayotgan tub o'zgarishlar bank nazoratini ham takomillashtirishni taqazo etadi.

Odatda kreditlash jarayonida bank nazorati deyilganda banklarning kredit resurslarini boshqarish, kreditlash tamoyillari va shart-sharoitlariga rioya qilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan faoliyat tushuniladi. Uning asosiy maqsadi kreditlashtirishning iqtisodiy asoslangan chegaralarini *buzilishini* oldini olishdan iborat. Bank nazoratini 2 turga bo'lish shartli harakterga ega. Bular:

Kredit berilgunga qadar va berish jarayonida amalga oshiriladigan bank nazorati va kredit operatsiyalari amalga oshirilgandan so'ng o'tkaziladigan bank nazorati. Bank faoliyatida ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi va ular bir-birini to'ldirib boradi.

Tijorat banki o'zi xizmat ko'rsatayotgan mijozlar faoliyati to'g'risida doimiy ma'lumotga ega bo'lishi, uning kredit qobiliyati, to'lov intizomi ahvolini tahlil qilib borishi lozim. SHu maqsadda mijozning moliyaviy holati, uning tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulot etkazib berish borasidagi o'z majburiyatlarini, ishlab chiqarish xajmlarini qanday bajarayotgani, muomala chiqimlari, olayotgan foydasi, o'z aylanma mablag'larini ko'payish dinamikasi, tovar moddiy boyliklar zaxiralari hamda aylanma mablag'larni aylanishini ahvoli tahlil qilib turiladi.

Bank har chorakda mijozning kredit qobiliyatini hisoblab chiqib qarz oluvchi bo'yicha tutilgan maxsus yig'ma jildda bu ma'lumotlarni to'plab boradi. Joyning o'zida buxgalteriya hisobi va hisobot ishlarini ahvoli, balans ma'lumotlarining to'g'riligi va debitorlik-kreditorlik qarzlarning holati hamda bankka berilgan garov holati tekshirib turiladi.

qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashgan, u bank nazoratidan bo'yin tovlagan, hisobot ma'lumotlari noto'g'ri olib borilgan, buxgalteriya hisobi o'z holiga tashlab qo'yilganligi aniqlangan hollarda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq bank bundan buyon kredit berishni to'xtatishga, hamda ilgari berilgan kreditlarni ta'minot sifatida qabul qilingan va kredit shartnomasi shartlarida ko'zda tutilgan majburiyatlar orqali qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan muddatidan ilgari undirib olishga haqli. Garov to'g'risidagi shartnoma bo'yicha bank garovga qo'yilgan mulkni mustaqil ravishda sotish mumkin. Garov predmeti sotishdan tushgan summa qaytarilmagan kredit hajmidan ortiq bo'lsa, bank o'rtasidagi bu tofovutni bir oy ichida qarz oluvchiga to'lashi shart. Ma'lumki kredit munosabatlarini nazorat qilish jarayonida banklar xo'jalik sub'ektlariga iqtisodiy va ma'muriy-tashkiliy tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy ta'sirlar jumlasiga kredit miqdorini chegaralash, foiz to'lovlari normasini oshirish, yangi kreditlar berishni to'xtatish va qarz mablag'larini muddatidan ilgari qaytarib olish kiradi.

Ma'muriy tashkiliy ta'sir - qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi va natijada qarz mablag'larining xo'jalik oborotidagi tabiiy harakatiga to'sqinlik qiluvchi kamchiliklarni tugatishga qaratilgan.

Hozirgi sharoitda bizning fikrimizcha bank nazoratida iqtisodiy chora va ta'sirlarning doirasi kengayishi va ular ma'muriy tashkiliy choralarga qaraganda ko'proq qo'llanilishi lozim. Bu jihatidan mijozlarni kreditga layoqatligini baholashni takomillashtirish va chet el tajribasidan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Kredit mexanizmi elementlariga quyidagilar kiradi:

-kredit munosabatlarining ob'ekti va sub'ektlari;

-kreditlash usullari, kredit berish va qoplash shartlari (shuningdek kredit uchun foiz);

-kredit rejimi va kredit richaklari;

-kredit mexanizmini amal qilishini tashkiliy texnologik ta'minoti;

-kredit mexanizmi amal qilishni xuquqiy me'yoriy va informatsion ta'minoti.

Kredit mexanizmi asosida ikkita element yotadi: 1-kredit tashkilotlari iqtisodiyotdagi bo'sh resurslarni amaliy faoliyat natijasida yig'adi va foyda olish maqsadida jalb qilingan resurslarni joylashtiradi. 2-potensial qarz oluvchida qo'shimcha resurslarga extiyojni yuzaga kelishi. Bunday xolda qarz oluvchi tijorat bankga yoki boshqa kreditorlarga ma'lum muddatga pul resurslar berishni iltimos qilib murojat etadi. Bu esa kredit jarayonini boshlanishi xisoblanadi. So'ng kreditor kreditlash ob'ektini baxolaydi, qarz oluvchini kreditga layoqatliligini, garov xolatini va kafolat ishonchligini taxlil qiladi, kredit berish xaqida qaror qabul qiladi.

«Kredit tashkilotini kredit berish» elementi juda ko'p xarakteristik shakllarni tanlash, kreditlashni aniq, ma'qul uslubini va ssuda shartnomasi turini tanlash, kredit stavkasini miqdorini, kreditni berish va so'ndirish ishlarini bajarish tartibini aniqlashni o'z ichiga oladi. SHu erda kredit shartnomasi tuziladi, kredit bitimini xujjatlarini rasmiylashtirish, resurslar qaytarilmaganda garovga egalik qilish xuquqini olish va qarz oluvchiga kreditor resurslarni etkazib berish majburiyatini olish bo'yicha ishlar olib boriladi..

Kreditlash jarayonida kredit tashkiloti ssudani doimiy ma'muriy boshqarish ssuda xisob-varaqlari xolati ustidan nazorat, qarzlarni uz vaqtida so'ndirish, kredit shartnomasidan foydalanish yo'li bilan amalga oshiradi. Bir vaqtning o'zida kredit tashkiloti bank monitoringini, qarz oluvchini moliyaviy xolatini, uning bozordagi xolati, bank kreditlash tamoyillariga amal qilishini taxlil qilish orqali amalga oshiradi.

Kredit tashkiloti bank monitoringi jarayonida resurslarni qaytish imkoniyatini aniqlaydi. Bunday imkoniyat mavjud bo'lmasa kreditor qarzlarni ta'minot xisobidan so'ndiradi yoki ikkilamchi kredit bozoriga realizatsiya qiladi. Kreditni qaytarilishi qarz oluvchiga ijobiy kredit tarixini olish uchun mustaqil imkon beradi. Kredit operatsiyalari o'tkazish natijalari, shuningdek kredit tashkilotining bo'sh pul resurslarga vaqtincha qo'yilmalari kredit siyosatini xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Barcha tasvirlangan kredit mexanizmi elementlari o'zaro bog'liq va makro doiradagi tashqi omillar ta'sirida amal qiladi.

Kredit mexanizmi faoliyati natijasiga baho berish kredit mexanizmini nazariyasini ishlab chiqarish va tajriba to'plash imkoniyatini beradi, bu orqali keyinchalik davlat kredit siyosati xarakteriga **ta'sir o'tkazish**, shuningdek kredit mexanizmini mikrodarajada tartiblash usuli va maqsadlariga ta'sir etish mumkin.

Kredit tizimi kredit mexanizmi tuzilishi elementlari tavsifiga mos holda: kredit tashkilotlari, kredit siyosati, kreditlash jarayonini davlat banklari tomonidan tartibga solish, kredit tizimi tashkilotlari saviyasi va ularning infrastukturasi, qarz oluvchilar va kreditorlar orasidagi munosabatlar asosida amalga oshiriladi. Rivojlangan davlatlarda kapital konsentratsiyasi, avvalo moliyaviy sektor sub'ektlarini ko'p sonli ekanligi bilan belgilanadi.

Kredit mexanizmining **muhim elementlaridan yana biri kredit shartnomasi** bo'lib, u kredit munosabatlarini amalga oshirishning huquqiy asosi hisoblanadi. Kredit mexanizmining muhim elementlaridan yana biri – **kreditga layoqatlilikdir**. Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditnin o'z vaqtida qaytarishning muhim shartidir. Davlat mulki bo'lgan jamiyatda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit mexanizmida muhim o'rin egallamaydi. Chunki bunda banklar mustaqil sub'ekt bo'la olmaydi, kredit resurslari esa markazlashgan tarzda reja asosida taqsimlanadi. Eng xarakterli tomoni shundaki, banklar beradigan kreditlar uchun foiz stavkalarini mustaqil belgilay olmaydilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit berishda e'tibor qilinadigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib qoladi. Chunki tijorat banki o'z faoliyati natijasi uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Kredit uchun foiz esa uning asosiy daromad manbai bo'lib qoladi.

#### **14-mavzu. "Kredit mexanizmi va uning tarkibiy qismlari"**

- 1. Kredit mexanizmining bazaviy elementlari**
- 2. Tijorat banklari kreditlarining garov ta'minoti mexanizmi**

#### **Kredit mexanizmining bazaviy elementlari**

Mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy hayotiga ko'prok kirib borayotgan bozor munosabatlari kredit mexanizmi sohasida sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu yo'nalishda yangicha tafakkurni vujudga keltirishni, kredit mexanizmini boshqarish va takomillashtirishni yangi usul va uslubiyatlarini amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Zero, kredit munosabatlari va kredit mexanizmi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi va biri ikkichisiz rivojlana olmaydi.

#### **redit mexanizmi(KM) mohiyatiga qarashlar**

<b>Mualliflar</b>	<b>Kredit mexanizmiga izoh</b>	<b>Asosiy xususiyatlari</b>
-------------------	--------------------------------	-----------------------------

N.D.Barkovskiy	Bank tomonidan bajariladigan vazifalar, rejalashtirish, pul aylanmasi va kreditni boshqarish, tashkillashtirishning usul va shakllari yig'indisini amalga oshiruvchi tamoyillar va uslublar tizimi	Nafaqat kredit sohasida, balki hisob-kitoblarni tashkillashtirish, pul muomalasi, resurslar akkumulyasiyasi sohasida ham amal qiladi; KM – aniq davrda kredit munosabatlarining paydo bo'lish shaklidir.
N.I.Valenseva	Kredit resurslarini akkumulyasiya qilish usullari, ularni ishlatish chegaralarini belgilash, shuningdek resurslarni taqdim etish usublari va kredit tamoyillariga amal qilishni nazorat qilishning yig'indisi. Kreditning qayta taqsimlash va kredit pullarni chiqarish funksiyalarini amalga oshirish yo'li.	KMning obektiv asosi – ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy asosi – ishlab chiqarish va aylanishining moddiy jarayonidir.
M.S.Atlas	Kredit tizimi tashkilotlari, kreditlash vositalari, tamoyillari, shakl va uslublari yig'indisi.	KMning vazifasi kredit - munosabatlarini boshqarishdir.
M.A.Pessel	Kredit munosabatlari yig'indisi, kreditlash uslublari va shakllari yig'indisi.	KM – kredit harakatining iqtisodiy qonuniyatlarini amalga oshiruvchi vositalar va metodlar yig'indisi; KM – bu bazaviy tushuncha bo'lib, kreditlash mexanizmi uning elementlaridan biridir. U ssudani taqdim etishda ishlatiladigan shartlar, uslublar va shakllar yig'indisidir.
YU.P.Avdiyans	Ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonini o'ziga hos bank metodlari orqali tartibga solish, jamiyat ishlab chiqarishini tejamkorligi va proporsionalligini rag'batlantirish.	Kredit tizimining bir ?ismi. Nafaqat moliya-kredit qonuniyatlariga, balki obektiv umumbozor qonuniyatlariga ham bo'ysunadi. KM – bu texnik tushuncha emas, iqtisodiy tushunchadir.
O.I.Lavrushin	Kreditning qayta taqsimlash funksiyasini amalga	KMning obektiv asosi – ishlab chiqarish munosabatlari, kredit



	o'shinishning yo'li bo'lib, resurslarni akkumulyatsiyasi, kreditni ishlatish chegaralarini o'rnatish bilan bog'lig' usullari, kreditni taqdim etish metodlari yig'indisi.	mohiyati va iqtisodiy qonunlar. Ishlab chiqarishning an'anaviy ko'rinishining o'zgarishi kredit shakli va KMga ta'sir qiladi.
V.S.Pashkovskiy	Kreditni rejalashtirish, bersh, nazorat qilish, qaytarish metod va shakllarining o'zaro bog'liq tizimidir. Kredit munosabatlarini tashkil qilishning amaldagi shakllarining mujassamlashuvidir.	Kredit tizimi tashkilotlarida ularning rivojlanish yo'nalishlari va samaradorligining alohida yo'llarini hisobga olgan holda boshqaruvning qonun-qoidalari qabul qilinishi kerak.

Yuqoridagilarni umumlashtirib kredit mexanizmiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Kredit mexanizmi – kredit tizimi doirasida, ya'ni kredit muassasalari va iqtisodiyot soxalari o'rtasida kreditni boshqarish va rejalashtirishni usul hamda shakllari asosida amalga oshiriladigan qarz berish, investitsion, vositachilik, maslahat berish, mablag'larni jamlash, qayta taqsimlash borasidagi kredit munosabatlari, kreditlash uslublari va shakllari majmuasidir.

Xorij adbiyotlarida "kredit mexanizmi" atamasiga ko'p duch kelavermaymiz. Bu atama ularda "kredit", "kredit siyosati", "foiz stavkasi", "kreditlash tamoyillari", "kompaniyalarni kreditlash shakllari", "ipoteka", "ssuda kapitali bozori" kabi alohida tushunchalar orqali ta'riflanadi.

Kredit mexanizmi xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, o'z ichiga kreditlash shartlarini, usullarini va kreditni boshqarish va uni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni oladi. Kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit siyosati amalga oshiriladi.

Quyidagilar kredit mexanizmi elementlari hisoblanadi:

1. Kredit subektlari.
2. Kredit obekti.
3. Taqdim etish metodlari.
4. Qonuniy me'yoriy xujjatlarda shakllantirilgan kreditlash qoidalari va qonunlar to'plami;
5. Kreditlash sub'ektining ichki me'yoriy ta'minoti;
6. informatsion ta'minot, shuningdek, kreditlash bo'yicha qarorlarni qabul qilish uchun informatsion baza.
7. O'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larga cheklovlar.
8. Kreditni rejalashtirish.
9. Kreditni berilishi va qaytarilishi bo'yicha banklarning iqtisodiy nazorati va h.k.

Kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri kredit shartnomasi bo'lib, u kredit munosabatlarini amalga oshirishning huquqiy asosi hisoblanadi.

Kredit mexanizmining muhim elementlaridan yana biri – kreditga layoqatlilikdir. Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditni o‘z vaqtida qaytarishning muhim shartidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichi kredit berishda e‘tibor qilinadigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qoladi. Chunki tijorat banki o‘z faoliyati natijasi uchun to‘liq javobgar hisoblanadi. Kredit uchun foiz esa uning asosiy daromad manbai bo‘lib qoladi.

Kredit mexanizmini boshqarish va tartibga solishning yangicha usullarini ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish kredit muassasalarining salohiyatidan kelib chiqadi, hamda iqtisodiyotdagi mavjud pul resurslaridan yuqori samarada foydalanishning eng muhim shartlaridan biridir. Bu jarayon uzluksizlikni talab etadi. Chunki bozor munosabatlari taraqqiyoti va iqtisodiyot rivoji uzluksizdir.

Kredit mexanizmining amalga oshirishda albatta kreditning tamoyillariga alohida etibor qaratiladi.

Kreditlash jarayonini tashkil etish, korxonalar va tashkilotlarni moliyaviy ahvolini tahlil qilish kabi masalalarni to‘g‘ri amalga oshirish kredit riskini oldini olishga hamda bank kredit portfelini sifatini yaxshilanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu kredit siyosati elementlarini to‘g‘ri tashkil qilinganligini ijobiy natijasi hisoblanadi.

Kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- qaytarilishi;
- muddatliligi;
- maqsadlilik;
- ta‘minlanganlik;
- to‘lovlilik;
- samaradorlilik.

Kredit iqtisodiy munosabatlarni belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi, ya‘ni pulning harakati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi. Kreditning o‘ziga xos xususiyati unda tovar-pul munosabatlarining mavjudligidir. SHunga muvofiq kredit ham tovar, ham pul shaklida bo‘lishi mumkin. Kredit bank, tijorat, iste‘mol, lizing, ipoteka, xalqaro va davlat kreditlari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Davlat kreditiga ta‘rif berishda ko‘pgina moliyachilarda bu moliyaning bir qismi degan tushuncha paydo bo‘ladi. Bir tarafdin, davlat krediti o‘zida belgilangan tamoyillarga asoslanagan an‘anaviy kredit munosabatlarini mujassamlashtiradi. Boshqa tarafdin, davlat o‘z funksiyalarini bajarib, markazlashgan fondlarni taqsimlash va shakllantirishda ssuda fondlaridan foydalanadi. Bu esa moliya munosabatlaridir. SHu tarzda, davlat krediti o‘zida ham moliyaviy, ham kredit munosabatlarini birlashtirib, har ikkala kategoriyaga xos bo‘lgan taqsimlash funksiyasini tasdiqlaydi. Qaytarilish tamoyili kreditning mohiyatini ifodalaydi. Bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so‘m pul mablag‘lari yana bankka qaytarilishi lozim. qaytarib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag‘larning uzluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qaytarish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa tovar-pul munosabatlarining iqtisodiy kategoriyalaridan farqli bo‘lgan iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib turadi. Qaytarilish kreditning ajralmas belgisi hisoblanadi.

Kreditning keyingi tamoyili muddatlilik bo'lib, u qaytarishlik tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kreditlashning muddatliligi ikki tomonlama xarakterga ega. Birinchidan, kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarilishigina bildirib qolmay, balki bu qaytarilishni aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati, bir tomondan foydalanishga berilayotgan kredit resurslarining bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga boqliq. Kreditlash muddatliligining bu ikki tomonlama xakteri inobatga olinganda vaqtinchalik foydalanishga berilgan mablag'larni to'liq va belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kreditning muddatliligiga rioya qilish banklar uchun ham, qarz oluvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning hisobiga banklar kredit resurslarining aylanishini jadallashtirsalar va ulardan oqilona foydalanishga erishsalar, xo'jaliklar o'z daromadlarini ko'paytirish, o'z va qarz mablaqlaridan foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Kreditning keyingi tamoyili - kreditning ta'minlanganligidir. Bunda ssudaning ta'minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zaxiralari, ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditni o'z muddatida qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zahirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosan korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari bilan real ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitda kreditning ta'minlanganligi sifatida tovar-moddiy boylik va xarajatlardan tashqari garov, kafolat va kafillik kabi shakllari ham amaliyotda keng qo'llanilmokda. Ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kredit shartnomasiga ko'ra qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni qo'yib rasmiylashtiradi. Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi. Kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 80 foizigacha miqdorida beriladi.

Kreditlashning yana bir tamoyili - olingan kredit uchun haq to'lash yoki foizlilikdir. Bunda shartnomaga ko'ra kredit oluvchi korxonaga o'z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag'laridan vaqtincha foydalanganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bankning foiz mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bankning foiz stavkasi bu kreditning «narxidir». Kredit uchun haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobiga shu jumladan resurslarni ko'payishiga hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o'z xarajatlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to'lash tamoyili qarzga olingan mablag'lardan unumli foydalanish va kreditni qaytarish muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. Qaytarilish

muddati o'tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi, bu esa qaytarish muddati shartlariga qat'iy ravishda rioya qilishga yordam beradi.

Samaradorlik tamoyili kreditning maqsadliliigi bilan bog'liq bo'lib bunda kredit iqtisodiy naf keltirishi ham kerak bo'ladi<sup>23</sup>.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit to'lovi miqdorini belgilashda ahamiyat beradigan quyidagi asosiy tamoyillar mavjud. Bular:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudalar buyicha o'rnatilgan bazaviy foiz stavkasi;

- Banklararo kredit buyicha o'rtacha foiz stavkasi, ya'ni aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun boshqa banklardan sotib olingan resurslar buyicha;

- Turli depozit hisobvaraqlar buyicha mijozlarga bank tomonidan to'lanadigan o'rtacha foiz stavkasi;

- Bankning kredit resurslarining tarkibi (jalb qilingan mablag'lar hissasi yuqori bo'lganda kredit narxi ham yuqori bo'ladi);

- Kreditga bo'lgan talab;

- Talab qilinayotgan kredit muddati va kredit turi, ya'ni uning taminlanganligiga bog'liq ravishda risk darajasi;

- Mamlakatdagi pul aylanishini muvozanati (inflyasiya sur'ati yuqori bo'lsa kredit shunchalik qimmat bo'ladi, chunki pul kadsizlanishi tufayli bankning o'z resurslarini yo'qotish riski ortadi) va boshqalardir.

- Kreditning yana bir tamoyili kreditning maqsadli yo'naltirilganligidir. Bunda aniq xo'jalik jarayonlarining kredit bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Kreditni maqsadli yo'naltirish tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini faqat ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflashni ko'zda tutadi. Kreditlar biznes-reja asosida beriladi.

- Kreditning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash uning o'z vaqtida qaytarilishi uchun real shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tamoyilga rioya qilish bank muassasalari tomonidan qarz oluvchi korxonalarining hisobotlari asosida nazorat qilinadi. Berilgan kredit qarz oluvchi tomonidan boshqa maqsadga ishlatilgan bo'lsa, u holda belgilangan tartibda kredit muddatidan ilgari qaytarib olinadi.

Bankning kreditlash tamoyillarining barchasini amaliyotda yalpi qo'llanilishi bank manfaatlarini himoyalashga yordam beradi.

YUqorida ko'rib chiqilgan tamoyil asosida kredit olmoqchi bo'lgan mijozlarga kredit paketi tayyorlanadi va kredit olish mumkin yoki mumkin emasligi tahlil qilinadi.

### **Tijorat banklari kreditlarining garov ta'minoti mexanizmi**

Kreditlarning ta'minoti asosan 2 turga, ya'ni birlamchi va ikkilamchi ta'minotga bo'linadi. Garov ikkilamchi ta'minotning asosiy turlaridan biridir. Mulk garovi - bu kredit ta'minotining eng ko'p tarqalgan shakllaridan hisoblanadi.

---

<sup>23</sup> Lavrushin O.I. "Dengi. Kredit. Banki"

Mulk garovi garov shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. To'lov majburiyati bajarilmaganda bank ushbu garovni sotish orqali kreditni qoplashi mumkin.

O'z-o'zidan mulkni garovga quyish (ko'chmas mulk va boshqalar) kreditor - mulni ushlab turuvchi (garovga qo'yilgan) shaxs agar garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bajarilmasa, ushbu mulkdan o'z hoxishiga binoan foydalanish xuquqiga egaligi tushuniladi O'zbekiston Respublikasida garov munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 264, 289 sonli moddalar va O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida" gi qonuni asosida boshqariladi. Garov asosida kreditor, agar qarzdor - gapov qo'yuuvchi shaxs garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmasa, ko'yilgan mulk asosida o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi huquqiga egaligi va shu bilan birga, boshqa kreditorlar oldida nisbatan afzalliklarga egaligi ta'minlangan. Garovga quyilish mulk nafaqat qarz mablag'larini qaytarilishini, balki uning foizlarini va boshqa kurilgan zararlarni qoplanishini ta'minlashi shart. Bundan tashqari garovga qo'yilgan mulkni bozor narxlari tushib ketishini ham hisobga olish lozim. YUqoridagilardan kelib chiqib garovga quyilgan mulk berilayotgan kredit bahosidan yuqori bo'lishi lozim.

Garov asosida yuridik shaxslarning ham, jismoniy shaxslarning ham majburiyatlari ta'minlanishi mumkin. Garov shartnoma yoki qonun asosida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda garov shartnomasi keng tarqalgan bo'lib, qarzdor o'z hoxishiga binoan, o'z mulkini kreditor bilan shartnoma tuzgan holda garovga qo'yadi. Garov asosida haqiqiy talab etilayotgan mablag' ta'minlanishi mumkin. YA'ni, ushbu garov shartnomasi orqali boshqa maqsadlarda, boshqa shartnomalarda foydalanish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan garov predmeti bo'lib, garovga qo'yuuvchi shaxsning har qanday mulkni, shu bilan birga qimmatbaho qog'ozlar va mulkka egalik xuquqlari bo'lishi mumkin.

Xususiy mulkchilik qonuniga asosan, garov predmetining egasi gapovga qo'yuvchi shaxs bo'lishi mumkin SHu bilan birga, garovga qo'yuvchi shaxs nafaqat ham qarzdor bo'lishi mumkin, balki uchinchi shaxs ham bo'lishi mumkin. Mulkdan foydalanish xuquqi, uning xaqiqiy egasi singari, mulkka egalik qilish, foydalanish va egalik qilish kabi xuquqlarni, agar qonun va shartnomalarda kqrsatilgan bo'lmasa, qarz beruvchi shaxsga beriladi. Vazirlar maxkamasining № 50 sonli 1.02.94 dagi "Vaqtinchalik shatnoma va garovlarni davlat registratsiyasi haqidagi" qonunning 5 bandida garov predmetiga kiritilmagan ayrim korxonalar va mulklar sanab o'tilgan.

Amaliyotda garovdan foydalanish uni qo'llashning maxsus mexanizmi bo'lishini ko'zda tutadi. Garov mexanizmi bu garov to'g'risidagi shartnomani tayyorlash, tuzish va ijro etish jarayonidir.

Garov mexanizmini amalga oshirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- garov predmetlarini va turlarini tanlash;
- garov predmetlarini baholash;
- garov to'g'risida shartnomani tuzish va amalga oshirish;
- garov undirishga murojaat qilish tartibi.

Garov predmetining miqdor va sifat jihatlariga umumiy va maxsus talablar mavjud bo'lib, sifat jihatiga bo'lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

- Garov predmeti qarz oluvchiga tegishli bo'lishi kerak;
- Garov predmetlari pul qiymatiga ega bo'lishlari shart;
- Garov predmetlari likvid bo'lishi ya'ni realizatsiya qilinish xususiyatiga ega bo'lishlari kerak.

Garovning miqdoriga bo'lgan umumiy talab bu garovga qo'yilgan mulk qiymatining berilgan kredit va unga hisoblangan foizlar summasidan ko'p bo'lishidan iborat.

Garovning sifat va miqdor jihatlariga bo'lgan maxsus talablari garov shakliga va risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tovar-moddiy boyliklarning garov predmeti bo'lishga maqbulligi 2 omil orqali aniqlanadi:

- boyliklarning sifati;
- kreditorni ularning saqlanishi ustidan nazorat qila olish imkoniyati.

Tovar-moddiy boyliklarining sifat mezonni quyidagilar hisoblanadi: tez realizatsiya qilinishi, narxlarning nisbatan barqarorligi, sug'urtalash imkoniyati, saqlanish muddatining uzoqliligi. SHuning uchun tez eskiradigan tovarlar garovga qabul qilinmaydi.

Faqatgina ushbu mezonlarni aniqlash va ularga mos keladigan boyliklarni garovga qabul qilish emas, balki ularni saqlanishini ta'minlash ham muhimdir. Faqat shundagina qo'yilgan garov kreditning qaytarilishiga kafolat bo'lishi mumkin.

Garov predmetiga quyidagilarni kiritish mumkin: korxonalar va tashkilotlar, asosiy fondlar (bino, inshootlar, uskunalar), tovar-material buyumlari, tovar-transport xujjatlari (varrant, konosament, ombor xujjatlari, shartnoma va b.), valyuta mablag'lari - qimmatbaho buyumlar va qimmatbaho qog'ozlar.

Garov ikki shaklga bo'linadi:

- Garov predmeti o'z egasida qolishi.
- Garov predmeti garovni oluvchini berilishi.

Garov ob'ekti o'z egasida qolgan holda u quyidagi xuquqlarga ega:

- garovga qo'yilgan mulkdan foydalanish va unga egalik qilish;
- garov bilan ta'minlangan, majburiyaglar bo'yicha qarz egasiga o'tkazish va boshqalar.

Bu holatda garov beruvchi shaxs o'z hisobidan garov predmetini umumiy qiymatini sug'urtalashi, uning yaxshi saqlanishi ta'minlashi va mulkni ijaraga berilishi haqida garov oluvchini ogohlantirishi lozim.

Garov predmetining o'z egasida qolishi quyidagi hollarda yuz beradi:

- oborotdagi tovarlarni garovga qo'yish;
- ko'chmas mulkni garovga quyish.

Oborotdagi tovarlarni garovga qo'yish garov vaqti kelganda garov beruvchi o'z oborotidagi tovarlarini hammasini yoki qisman sotib o'z qarzini summasini yoki undan ko'pini-qaytarishi tushuniladi. Bunda garovga qo'yuvchi shaxs o'z tovar mahsulotlarini hisob-kitobini va to'g'ri saqlanishini ta'minlashi shart. Oborotdagi

tovarlarni garovga qo'yish asosan savdo va ta'minot tashkilotlarda ko'proq foydalaniladi Masalan, mahsulot va tovarlarni sotib olish.

Kuchmas mulk garovi (ipoteka)- korxonalar, tashkilotlar, bino, inshoot va qurilishlarni, er va undan foydalanish huquqlarini garovga qo'yish tushuniladi.

O'z kreditlarini bino, inshoot va qurilma uskunalarini garov asosida berishlarida, banklar nafaqat ularning qanchalik tez sotilishini, balki kredit oluvchining foyda olish darajasini, garovlarning sotilishini olgan holda, ularning kreditni qaytarish sharoitida va muhitini ham hisobga olishlari lozim.

Bank, garov predmetini ushlab turuvchi sub'ekt sifatida, garovga qo'yilgan mulkning hujjatlari asosida uning haqiqiylikini, holatini va uni saqlanayotgan muhitini tekshirishga haqlidir.

Agar garov predmeti garov beruvchi tomonidan sarflangan yoki ishlatib etkazilgan bo'lsa, unda garovga beruvchi shaxs ushbu mulkni qayta tiklashi yoki boshqa mulk bilan qoplashi lozim, aks holda bank-garov mulkini ushlab turuvchi sub'ekt sifatida berilgan kreditni o'z muddatidan oldini talab qilishga haqli hisoblanadi.

Garov qo'yishning ikkinchi shakli- garovga qo'yilgan mulkni o'z egasida emas, balki uni ushlab turuvchi shaxsda qolishi hisoblanadi. Bu tur boshqachasiga «zaklad» deb ham yuritiladi va bank amaliyotida qulay garov turi bo'lib, unda ko'chmas mulk bo'lmagan mulk gapovga qo'yiladi. Buning sababi shundaki, pul garov oluvchi (bank)ga berilganda.

Ushbu shakl bank faoliyatida keng qo'llanilib, asosan garovga ko'yilgan mulk ko'chmas mulk bo'lib hisoblanmasa bankda bunday garov e'tiborli bo'lib hisoblanadi. Buning asosiy sababi bankka ko'yilgan har qanday hollarda bank uni qaytarishga qodir ekanligi hisoblanadi.

Ushbu garov shakli quyidagi turlarda bulishi mumkin:

- mustahkam (ishonarli) garov;
- xuquqiy garov.

Mustahkam (ishonarli) garov klassik jihatdan, tovar va boshqa mulkni kredit tashkiloti omborida yoki qarz oluvchi omborida bank nazorati ostida saqlashi tushiniladi. Zakladga olingan qimmatbaho buyumlar o'z navbatida quyidagi talablarga javob berishi lozim: tez sotiladigan, sug'urtalash oson bo'lgan, bank nazorati ostida uzoq muddat saqlanishi mumkin bo'lishi lozim.

Albatta, ushbu mulklarni bank tomonidan nazorati turli xil qiyinchiliklarga va xarajatlarga olib keladi. Sharb mamlakatlarida ushbu xizmatlarni ombor tashkilotlari banklar uchun (xizmat) ko'rsatadi. U mulk va uning saqlanish bo'yicha to'laqonli nazorat olib borishi, undan tashqari bergan kreditining qaytishi imkoniyatlariga to'laroq ishonch hosil qilish mumkin.

Garov predmeti uni saqlanishini ta'minlash bilan bir qatorda bank uchun yana boshqa majburiyatlarni bajarishiga olib keladi. Masalan, garovni mulkini ushlab turuvchi sub'ekt (bank) shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa garov beruvchi manfaatlariga mos kelgan holda mulkning hisob-kitobini olib borishi lozim, majburiyatlar bajarilgandan so'ng garov beruvchi mulkni qaytarilishini ta'minlashi lozim.

Garov predmetini kimda qolishidan qat'iy, nazar, garov mulkini beruvchi yoki uni oluvchi sub'ekt mulkni turli xil tabiiy ofatlardan sug'urtalashi lozim. Nafaqat tabiiy ofatlaridan, balki mulkni o'g'irlanishi yoki davlat organlari tomonidan garov mulkini beruvchi sub'ektning iqtisodiy faoliyatini to'xtatib quyishidan ham sug'urtalishi lozim. Sug'urta hodisalar bo'lib o'tib, mulkka zarar etkazganda, bank garov mulkini ushlab turuvchi, sub'ekt sifatida: sug'urta qoplamasini o'z krediti hisobiga olishga haklidir.

Garov predmeti har qanday hollarda ham sug'urta qilish mulkni beruvchi shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining ta'kidlashiga, qarz oluvchi bitta mulkni bir nechta kreditorga garovga qo'yish mumkin. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 273-moddasiga asosan garovga qo'yilayotgan mulk, ilgari tuzilgan garov shartnomasiga asosan taqiqlanmasa, qabul qilinadi. SHuni unutmaslik lozimki, qonun chiqaruvchilar birinchidan, garovga quyilayotgan mulk majburiyat summasidan yuqori bo'lishi lozim; ikkinchidan, turli kreditorlarning muddatlari turlicha bo'lgani uchun, majburiyatlarni ham ketma-ket bajarish mumkin, bank kreditor sifatida mulkni garovga olishdan oldin, garovga qo'yilgan yoki qo'yilmaganligini tekshirib ko'rishlari lozimligini uqtiradilar. Bu esa, har bir bankni o'z ketmaketligida talablarini qo'yishi va mijozni krediglash masalasini hal etishini ta'minlaydi. Garov shartnomasi yuridik hujjat bo'lib, garov mulki ta'minlayotgan majburiyatdan holi ravishda tuziladi.

Garov shartnomasi og'zaki emas balki, yozma hujjat tarzida amalga oshirilishi lozim. Bu hujjatda garov predmetini shaklini, majburiyat shartlarini, majburiyat muddatini, mulkning hajmi va qiymatini, garov sub'ektlarining majburiyatlarini va garov shartlarini bajarilmaganda tortishuvni oldin xal etish masalalarini aks ettirishi lozim.

Garov shartnomasida, shular bilan birga, ikkala tarafning nomlari va adreslari garovga qo'yilgan mulkni qaerda joylashgani ko'rsatilishi lozim. Agar yuqoridagi ko'rsatmalar ko'rsatilmasa garov shartnomasi xaqiqiy hujjat bo'lib hisoblanmaydi. Garov shartnomasini tuzilgan vaqtdan boshlab garov xuquqi paydo bo'ladi va garov mulkiga nisbatan garov xuquqi ushbu mulkni garovga berilgan vaktdan boshlanadi.

Garov shartnomalari uchun notarial guvoynomalar joriy etilgan. Ammo, ikkala tomonning kelishuvi notarial tomondan tasdiqlashga, har qanday kelishuv xoh og'zaki bo'lsin, asosiy shartnomaga qo'shimcha qilib kiritiladi.

Mulkning qanday shakl bo'lishidan qat'iy nazar, davlatning garov mulki ruyxatdan o'tishi majburiy belgilangan. YA'ni, garov shartnomasi tuzilib, unga qo'l qo'yilgandan so'ng va notarial tasdiqlagandan so'ng, garovga qo'yilgan mulk davlat garov organida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Garov mulki qo'yilgani hisobiga garovni ushlab turuvchi o'zining talablarini qondirishga haqli. YA'ni bu ushbu vaqtdagi garovni ushlab turuvchi subektning qilgan hamma xarajatlari (foizlari, zararlari, muddati o'tkazilib yuborilishi, mulkni ushlab turish xarajatlari va sud xarajatlari) kiradi.

Kreditor qo'ygan majburiyatlarini qarz oluvchi o'z vaqtida bajarmasa, garov predmet hisobidan kreditor olish mumkin. Bunda kreditor qo'yilgan muddatda



sudga murojat etib, talab qilishga hakli. Sud organiga murojaat etmasdan, faqatgina garov sub'ektlarining shartnomalarida garov majburiyatlari bajarilmasa yoki bajarish shartlari ko'rsatilgan bo'lsa va ushbu shartnomani notarial tasdiqlatilgan bo'lsa kreditor mulk orqali talablarining qondirishi mumkin. Kreditor qo'yilgan majburiyatlarni bajarilmaganligini yoki to'liq bajarilmaganligini isbot qilishi lozim. Agar qarori bank hisobiga hal bo'lsa, unda mulk sotilib kreditor o'z talablarini u tushumdan qondirishi mumkinligi haqida hujjat beriladi.

Garov predmeti konunda ko'rsatilgan asosida, ommaviy savdo yo'li bilan sotiladi: mulkning boshlang'ich narxi sud qarori bilan belgilanadi. Eng yuqori bahoni to'lagan shaxsga ushbu mulk sotiladi. Mulk sotilmagan vaqtda, bank va qarz oluvchi kelishib, bank o'z hisobiga olishi va talablarini qondirishi mumkin. Mulk qayta sotuvga chiqarilib sotilmay qolsa, kreditor mulkni 10% ga arzon qilib keyingi sotuvga chiqarishi mumkin. Agar garov oluvchi garovni sotish to'g'risidagi bildirishdan keyin mulk 1 oy davomida sotilmasa garov oluvchi uni o'z ihtiyoorida qoldirish xuquqidan foydalansa shartnomasi tugatiladi.

Agar mulkni sotuvidan tushgan tushum kreditor talab kilayotgan summasidan yuqori bo'lsa, farq garov qo'ygan shaxsga qaytariladi va agar tushum kreditor talab qilayotgan summasidan kam bo'lsa, unda qolgan summani qarzdorning boshqa mulkidan olishi mumkin.

Agar bank talab qilayotgan summani 3 shaxs tomonidan amalga oshirilsa unda O'zbekiston Respublikasi talablarni osonlashtirish qonuniga muvofiq talab qilish huquqi 3 shaxsga o'tadi.

Qonun chiqaruvchi organlar quyidagi hollarda tortishuvsiz kreditor hisobiga hal etilishi mumkinligini ko'rsatgan. Bunda agar garov shartnomasida ko'rsatilgan bo'lsa va shartnoma notarial tasdiqlangan bo'lsa. YUqoridagilarga qo'shimcha ravishda (agar) garovga qo'yilgan mulk sotilgunga qadar garovga qo'yuvchi shaxs sotuvni to'xtatishi mumkin, agarda shartnoma majburiyatlarini bajarsa.

Garov huquqi garov majburiyatlari bajarilganda quyidagi hollarda to'xtaydi:

- garov mulkini buzulishi, yo'qolishi yoki yo'q bo'lishi;
- garov predmetini erkin sotuvda sotilishi;
- garov mulkiga egalik qilish bankga o'tishi bilan.

Garov xuquqini to'xtashining eng sodda normal holi bo'lib, garov mulki orqali majburiyatlarni bajarilishi kerakli xujjatlar bilan tasdiklanishi lozim. Majburiyatlar to'liq bajarilmasa garov shartnomasi o'z kuchida qoladi.

Arizaga kafolat xati 2 nusxada biriktirilib, kafolat beruvchi sub'ekt, tashkilotning raxbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanishi lozim.

Garov beruvchi banki xodimi kafolat xatida ko'rsatilgan imzo va pechatlarning xaqiqiyiligini tekshiradi, mijozning to'lovga layoqatliligini tahlil qiladi va ijobiy qaror qabul qilinganda bank rahbari va bosh hisobchisi bu hujjatlarni imzolaydilar va bank pechati qo'yiladi. Keyinn rasmiylashtirilgan kafolat xati o'rnatilgan qoida bo'yicha ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun bosh bankga beriladi. Bosh bank tomonidan tasdiqlangan kafolat xagi kafolat beruvchining bankiga 9925-raqamli balansdan tashqari schetga kirim qilish uchun yuboriladi.

Bank boyliklar garovi ostida kredit berayotganda kreditni qaytarilishini ta'minlash uchun realizatsiya qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni hisobga olgan holda garov qiymatini ssuda qiymatiga mosligini tekshirishi shart.

Kredit ta'minotini tekshirish natijalariga ko'ra bank o'rnatgan marja tufayli garovdagi boyliklarning real hajmi ssuda qiymatidan 30 mln. so'mga kamomad chiqmoqda. Bunda bank qarzdordan garovdagi boyliklar qiymatini belgilangan summaga to'ldirib qo'yishni talab qiladi.

Talablar va mulkiy huquqlarni o'tkazish (sessiya). Ba'zi mamlakatlar amaliyotida kredit ta'minoti sifatida talab va mulkiy huquqlarni o'tkazish (sessiya) qo'llaniladi. Sessiya – bu qarzdor hujjati bo'lib, unga asosan qarzdor o'zining talablari yoki mulkiy huquqlarini kredit ta'minoti sifatida bankka o'tkazadi.

### **15-mavzu. “Tijorat banklarining kredit siyosati kreditlarni boshqarishning asosi sifatida”**

**1. Bankning kredit siyosati uning bank resurslarini joylashtirishdagi o'rni.**

**2. Tijorat banklarini kredit siyosatining mezonlari.**

**3. Tijorat banki kredit portfeli, uning mohiyati va shakllanishi.**

#### **Bankning kredit siyosati uning bank resurslarini joylashtirishdagi o'rni**

Kreditlash bank ishining o'zagi bo'lib, uning sifatiga qarab bankning faoliyati to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Bunda, asosan, kreditlarni boshqarish jarayonining asosiy ahamiyat kasb etishiga sabab Shuki, uning sifati bank ishining samradorligiga bog'liqdir. Iqtisodchilar tomonidan jahon banklarining sinishi (bankrotlikka uchrashi) sabablarini tadqiq qilish Shuni ko'rsatayaptiki, asosan, banklarning sinishiga sabab – bank aktivlari sifatining (eng avvalo kreditlarning) pastligidir. Kreditning sifati kreditlash jarayonini boshqarishga bog'liq bo'lib quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

- tijorat bankida mukammal ishlab chiqilgan kredit siyosati kreditlashtirish jarayonining mavjudligi;

- kredit portfelini optimal boshqarishning yo'lga qo'yilganligi;

- kreditlarni muntazam nazorat qilishning tashkil qilinganligi;

- bank tizimida ishlaydigan xodimlarning tayyorgarlik darajasi.

“Kredit siyosati” hujjatli kreditlarni boshqarish jarayonining poydevorini tashkil etadi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan “Kredit siyosati” kreditlarni oqilona boshqarishning samarali yo'llaridan hisoblanadi. Ushbu hujjat bankning kreditlashtirish faoliyatining andozalari va parametrlarini belgilab beradi. Ushbu belgilangan standartlar va parametrlardan kredit berish, qarzlarni hujjatlashtirish va boshqarish bo'yicha ma'suliyatli bo'lgan bank xizmatchilari qo'llanma sifatida foydalanishlari lozim. Kredit siyosati bank boshqaruvi a'zolari, qonun chiqaruvchi, strategik qaror qabul qiluvchi shaxslarning

xatti-xarakatini belgilab beradi hamda ichki va tashqi auditorlarga bankda kreditlarni boshqarish darajasining o'tish davrida, moliyaviy bozorlarga davlatning ta'siri kamaygan sharoitda, tijorat banklari ichki siyosatini o'zlari ishlab chiqishni keskin faollashtirishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 2 martdagi "Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomga asosan bankning kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beriladi: Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.

Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq, ob'ektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to'g'ri tuzish va olib borish, barcha bo'limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushinilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to'g'ri olib borishiga, Yuqori risklardan qochishga, bank imkoniyatlarini to'g'ri aniqlashga asos hisoblanadi.

Yaxshi ishlab chiqilgan kredit siyosati kredit riskini boshqarish va uni kamaytirishga yaxshi imkon beradi.

Kredit siyosatining zarurligi Shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko'p xodim ishlashidan qat'iy nazar, bankda bu siyosat bo'lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo'yicha unifitsirlashgan umumiy qoida va tamoyillarning bajarilishini, operatsiyalar bajarilishining ketma-ketligini ta'minlaydi. Bankning kredit siyosati bankning hamma xodimlari – kichik xodimdan yoki bank boshqaruvi raisigacha bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va echimlar to'plami deyiladi.

Kreditlash siyosati va uning samaradorligi to'g'ri kredit narxlari belgilangan sharoitda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Kredit siyosatini samarali olib borishda bank xodimlari bank mijozlarining mablag'larini kimlarga foydalanishga berish mumkinligini yaqqol bilishi lozim.

Bank qanday kreditlar, qancha miqdorda, kimga, qaysi sharoitlar bilan berilishini hal qilishi zarur. Biznesning Shunday turlari borki, bank kredit bera turib ular bo'yicha qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun xar bir faoliyat risk bilan bog'liq ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Bankning kredit siyosati uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarning oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning, bank majburiyatlari bilan kapitali o'rtasidagi va boshqa ko'rsatkichlarning me'yorida bo'lishini taqazo qiladi. Oqilona kredit siyosati beriladigan kreditlarning sifatini oshiradi. Shuning uchun kredit siyosatining asosiy maqsadi boshqaruv jarayoni, fondlarning etarliligi, risklarni sifat darajasi bo'yicha turkumlari, kredit portfelining balansi, majburiyatlarning tarkibiy qismlarini ajratish kabi elementlarini o'zichiga olmog'i lozim.

Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat:

✓ Bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog‘liq masalalar;

✓ Bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o‘rinbosari, kredit qo‘mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro‘yxati (eng ko‘p kredit summasi va turlari);

✓ Bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo‘yicha jami majburiyatlari;

✓ Kredit arizalari bo‘yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;

✓ Kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida albatta saqlanadigan hujjatlar ro‘yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat haqida shartnoma va hokazolar);

✓ Kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar;

✓ Kreditning ta‘minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;

✓ Barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me‘yorlar bayoni;

✓ Eng Yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko‘rsatish (ya‘ni kredit summalari va bank yalpi aktivlarining eng Yuqori nisbati);

✓ Bank xizmat ko‘rsatadigan mintaqa, kredit qo‘yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;

✓ Muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimollari ko‘rsatiladi;

Qolgan hujjatlarda ta‘qiqlanadigan yoki nomaqbul kredit turlari tavsiflanadi (to‘lovga qodirligi o‘ubhali bo‘lgan yoki hujjatlar to‘liq ro‘yxatni taqdim etmagan) qarz oluvchilar va hokazolar).

Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me‘yorida amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to‘g‘ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xolos bo‘lish, bank kreditlarini to‘g‘ri baholash imkonini beradi. Shu bilan birga bir vaqtda kredit siyosati siyosiy, iqtisodiy va xuquqiy shartlarni hisobga olgan holda ancha yumshoq bo‘lishi darkor.

Bank kredit siyosati bank resurslari, ularning joylashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Bank resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag‘lar, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarning depozitlaridan tashkil topadi. Shuningdek, hozirgi kunda jalb qilingan resurslar ichida banklararo kredit xam alohida o‘rin egallaydi. Depozitlar bo‘yicha belgilangan foiz stavkalari, hamda boshqa bankdan olingan kredit uchun foiz stavkalari bank tomonidan beriladigan kreditning foiz stavkalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Kredit siyosatining aniq va mukammal tayyorlanish va izohlanish xar bir bank uchun kreditlash jarayonini ijobiy tashkil etish uchun asos bo‘ladi. Bank tomonidan to‘plangan resurslarni to‘g‘ri va oqilona joylashtirish bankning kredit siyosatining sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Kredit siyosati sifatiga va xolatiga qarab bank jalb qilgan resurslarini to‘g‘ri joylashtirish va oldindan ko‘zlangan daromad olish imkoniyati yaratiladi.

### **Kredit siyosatining mezonlari va kredit turlari.**

Har qanday tijorat kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: kredit qo'yilmalari hajmining o'mishini, risk Yuqori bo'lgan operatsiyalarning odilona diversifikatsiyasini, o'rta va uzoq muddatli kredit qo'yilmalar hajmini keskin ko'paytirish va ulning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuningdek, kredit siyosati investitsion kreditlar salmog'ini oshirish, ustun darajada iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi asosiy yo'nalishlarni ham o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi lozim.

Kredit siyosati bankning o'ziga xos "kredit tili"ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat'iy siyosat asosida berilgan bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samarali ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari: foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish bank faoliyati me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, uning qarzdorlari va aksiyadorlari foydasini ko'paytiradi va faravonligini oshiradi.

Aniq bir tijorat bankining kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilarni belgilab olinadi:

- kredit risklari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni baholash va bartaraf etish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy axvolini aniqlash kredit riskini bashorat qilish;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so'ndirish choralarini ishlab chiqish;
- kredit qo'yimlarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadlilikini ta'minlash;
- kredit olgan mijoz bilan doimo aloqada bo'lib turish;
- kichik va o'rta tadbirkorlikni, dehqon va fermer xo'jaliklarni moliyaviy qo'llab quvvatlashdan iborat.

Bank tomonidan, xo'jalik sub'ektlarining aylanma mablag'lari etishmasligi, mavjud mablag'larning me'yoridan ortiqcha tayyor mahsulot qoldiqlariga jalb qilinishi, mablag'larning tayyor mahsulot sifatida qotirib qo'yish sabablarini o'rganib borish, zararga ishlayotgan va bankrotlik alomatlari ko'zga tashlanayotgan xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy ahvolini doimiy monitoringini tashkio qilish bank kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Kredit siyosati bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlash va belgilashi lozim. Masalan, kreditlash sohalari bo'yicha: tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qo'yimlarni moliyalash va boshqa tarmoqlarga kredit berish, kredit turlari bo'yicha: "kredit liniyalarini ochib va ochmay" kreditlash yoki kreditlashning boshqa usullarini qo'llashni belgilab berishi mumkin.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim, kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida raxbariyatga xabar berio'lari lozim. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tuShunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, Shuningdek, bank Boshqaruvi av Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichga olishi lozim. Kredit siyosatida qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Raxbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolariga yuklatilgan. Odatda tijorat bankining kredit siyosati yo'nalishlari quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

- bank o'rni va obro'sini moliyaviy-borqaror banklar singari yaxshilash;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativlariga muvofiq darajada o'z kaptalining etarililigini ta'minlash;
- bankning samaradorligi va barqarorligini qo'llab-quvvatlagan holda uning daromadlarining maksimallaShuvini ta'minlovchi aniq kredit va investitsiya siyosatini o'tkazish;
- strategik jihatdan muhim bo'lgan shahar rayonlarida yangi omonat kassalarini ochish bilan bog'liq bo'lgan bank tarmog'ini kengaytirish.

Kreditlash jarayonida bank siyosati bank oldidagi majburiyatlarni bajara oladigan mavjud yangi mijozlarni kredit resurslari bilan ta'minlash, sinf darajasidagi kreditlarni taqdim etishni kengaytirish hisoblanadi. Tijorat banki foydaliligini hisobga olgan holda xalqaro standartlar miqyosida mijozlarga sifatli kredit xizmatini taqdim etishga intiladi. Shuning uchun bank kredit siyosatini asosiy tamoyillariga quyidagilar kiritilgan:

- ✓ kreditlash to'g'risida qarorlar qabul qilishning barcha darajalari bo'yicha javobgarlikni taqsimlash;
- ✓ bank tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari uchun aniq belgilangan shartlarning mavjudligi;
- ✓ maxsus kreditlash tamoyillari – muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlilik, ta'minlanganlik va rentabellik asosida beriladigan kreditlarni majburiy nazorat qilish;
- ✓ bank boshqaruvining umumiy siyosati bilan maxsus faoliyat yo'nalishlari siyosati (ya'ni depozitlar bo'yicha, investitsiya bo'yicha, aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha va hokazo)ning uzviy bog'liqligidir.

## **Kredit yo'qotishlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar<sup>24</sup>**

---

<sup>24</sup> Jahon banki missiyasining umumiy sharxi – Vashington DS – 1997 yil 3 mart.

Ichki omillar	67 foiz	Tashqi omillar	33 foiz
Ta'minot etishmasligi	22 foiz	Kompaniyani bankrotligi	12 foiz
Kredit arizasi tahlil qilinganda notug'ri baholash	21 foiz	Kreditorlarni haklarini talab qilishlari	11 foiz
Mijoz faoliyatini yaxshi urganmaslik	18 foiz	Oilaviy muammolar	6 foiz
Ta'minotni yomonligi	5 foiz	Ta'magirlik	4 foiz
Boshqa ichki omillar	1 foiz		

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, kredit yo'qotishlariga ta'sir qiluvchi ichki omillar ichida asosiy o'rinlarni kredit uchun ta'minotning etishmasligi hamda mijoz faoliyati va arizasini yaxshi taxlil kila olmasligi hisoblanadi. Shunisi xarakterliki, respublikamiz milliy bank tizimida ham kreditning haytmasligiga sabab buluvchi birlamchi omillar ana Shulardir. Lekin respublikamizda buning bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud.

Kredit portfelini tarmoq bo'yicha tahlil qilish tijorat banki kredit siyosatini strategiya va taktikasini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

### **15-mavzu. "Tijorat banklarining kredit siyosati kreditlarni boshqarishning asosi sifatida"**

#### **4. Bankning kredit siyosatini oqilona olib borish yo'llari.**

#### **5. Xorijiy banklarning kredit siyosati va uning xususiyatlari**

#### **6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tijorat banklari kredit siyosatini boshqarish bilan bog'liq muammolar.**

#### **Tijorat banklari kredit siyosatini oqilona olib borish yo'llari.**

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish natijalari Shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining kredit siyosatini amalga oshirish amaliyotining asosiy yo'nalishlari bo'lib quydagilar hisoblanadi:

1. Bank tomonidan berilgan kreditlarning iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida joy lashtirilganlik holati.

Ushbu yo'nalishning ahamiyati Shundaki, tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilishning asosiy mezonlaridan biri kreditlarni mijozlarning tarmoq xususiyatiga ko'ra joylashtirilganligi hisoblanadi. Shu jixatdan olganda, ushbu yo'nalish kredit siyosatining samaradorligini belgilashda hisobga olinadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2. Tijorat banki tomonidan berilayotgan qisqa va uzoq muddatli kreditlarning o'zaro nisbati.

Tijorat banklari faoliyatining mazmuniga ko'ra, avvvalo, qisqa muddatli kreditlash institutlari hisoblanadi. Ular xo'jalik sub'ektlarining aylnma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda inflyasiya darajasining nisbatan Yuqori va nobarqaror ekanligi tijorat banklarining kredit portfelida qisqa muddatli kreditlarning salmog'ining yanada oshishiga sabab bo'ladi.

Inflyasiya darajasi nisbatan Yuqori bo'lmagan va barqaror bo'lgan sharoitda uzoq muddatli kreditlar xajmini oshirish tijorat banki daromad bazasini mustaxkamlashning sinalgan usullaridan biri hisoblanadi.

3. Tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar hajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'zgarishi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar hajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'zgarishi kredit siyosatining samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda bank amaliyotida, xususan, G'arbiy Evropa davlatlarining bank amaliyotida muddati o'tgan kreditlar jami kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ini 3 foizdan oshmasligi normal xolat hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaraviy miqdori 5 foizni tashkil qiladi.

4. Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash.

Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning birlamchi omillaridan biri kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlar hajmidagi Yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisoblanadi. Buning boisi Shundaki, kreditlash tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Shuning uchun banklar yalpi daromadining asosiy qismini kreditlash faoliyatidan olishlari lozim.

5. Kreditlash shakllaridan foidalanish darajasi.

Kreditlash shakllaridan to'laqonli tarzida foydalanish kredit siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kreditlash shakllari bankning kreditlash imkoniyatini oshirishga bevosita ta'sir qiladi.

Hozirgi vaqtda, respublikamiz bank amaliyotida kreditlashning asosan ikki shaklidan foydalanilmoqda. Bular mijozni alohida ssuda hisobraqamidan kredit liniyasi ochmasdan turib kreditlash shakli va faktoring shaklidir.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan kreditlashning overdraft, kontokorrent, kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash, forfeyting shakllaridan foydalanilmayotganligi ularning kredit siyosatining samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi.

6. Foizlarni o'stirmaslik maqomiga ega bo'lgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar miqdoining o'zgarishi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrda "Tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizlarni o'stirmaslik siyosati to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, banklar quyidagi hollarda kreditlarga foiz hisoblashni to'xtatadilar:

a) Bir yilgacha muddatga berilgan kreditlar uchun kreditning asosiy summasini va foizlarni to'lash 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda, yaxshi ta'minlangan va tiklash jarayonidagi kreditlar bundan mustasno;



b) Bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar uchun kreditning asosiy summasini va unga hisoblangan foizlarni to'lash 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda, yaxshi ta'minlangan va tiklash jarayonidagi kreditlar bundan mustasno;

v) Berilgan kreditning asosiy summasi yoki unga hisoblangan fozlarni qaytarilish muddati necha kunga kechiktirilganligidan qat'iy nazar banklarda Shubxa uyg'otgan xolda.

Foiz hisoblash to'xtatilgan kundan boshlab hisoblangan foizlar summasi tegishli foizli daromadlar hisobraqamidan chegirib tashlanishi lozim. Bunda tegishli foizli daromadlar hisobraqami debetlanadi, 16309-"Hisoblangan, lekin undirilmagan foizlar" hisobraqami kreditlanadi.

7. Banklarning kreditlash faoliyatida garov ob'ektlaridan foydalanish samaradorligi.

Respublikamiz tijorat banklarining faoliyatida kreditlarni garov asosida berish kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, garov ob'ektlaridan unumli foydalanish masalasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy e'tibor garov ob'ektlarini sotish evaziga kreditlarning asosiy qarz summasi va ularga hisoblangan foizlarni undirishga qaratiladi.

8. Tijorat banklarining etarli darajada barqaror resurs manbalariga ega ekanligi.

Tijorat banklarining samarali kredit siyosatini amalga oshirish imkoniyati bevosita ularni etarli darajada kredit resurslari bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

Hozirgi kunda kredit siyosatini tuzishda har bir tijorat banki mustaqil bo'lib, ular kredit siyosatining mohiyati, maqsadi va tarkibini takomillashtirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning faoliyatida xo'jalik sub'ektlarini kreditlash funksiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lganligi uchun banklar faoliyatining samaradorligi va likvidligini ta'minlash uchun avvalambor, banklarning kredit siyosatini turli ishlab chiqishga e'tibor berish zarur. Banklar oladigan daromadlar uning aktiv operatsiyalari natijasida, asosan kredit operatsiyalar tufayli vujudga kelishi banklar tomonidan kredit siyosatini oqilona tanlash va o'tkazishni taqazo qiladi.

Kredit siyosati bank strategiyasining bir bo'lagi sifatida kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko'zlagan maqsadini, tamoyillarini va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi, taktik jihatdan esa moliyaviy yoki boshqa instrumentlarni, kredit bitimlarni amalga oshirishdan bankning maqsadlariga erishish yo'nalishlarini va qoidalarini, hamda kredit jarayonini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilib aytganda, kredit siyosati kredit risklarni kamaytirish orqali bankning xavfsizligi, likvidligi va rentabelligini ta'minlash maqsadida kreditlash bo'yicha oldindan belgilangan qoida va echimlar majmuasi asosida tashkil qilingan kredit portfelini boshqarish sohasidagi bankning strategiyasi va taktikasidir. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa omillarni inobatga olgan holda mustaqil o'zining kredit siyosatini ishlab chiqishi va olib borishi mumkin.

Odatda ssuda operatsiyalari bank foidasining asosiy qismini tashkil qiladi. Shuni inobatga olgan holda banklar o'z kredit siyosatini ishlab chiqishda va olib borishda ssuda operatsiyalaridan keladigan daromad va ularning samarali olib borilishiga katta e'tibor berishlari lozim. Bankning kredit operatsiyalarini olib boirish va ularning samaradorligi uchun javob berish bankning direktorlar kengashi zimmasiga yuklatiladi. Direktorlar kengashi kreditlarni berish bilan bog'liq vazifalarni boshqaruvning quyi tabaqalariga yuklaydi. Kredit siyosati hay'ati kreditni qaysi sohalarga berish, kredit berishning umumiy tamoyillari, uni berishdagi cheklanishlar va boshqalarni ishlab chiqadi hamda Shularning amalga oshirilishini nazorat qilib borishi lozim.

Hozirgi kunda tijorat banklar mustaqil ravishda o'z kredit siyosatini ishlab chiqadilar. Lekin amaliyot Shuni ko'rsatadiki, ba'zi banklar faoliyatida bu siyosatni ishlab chiqishda ma'lum kamchiliklarni ko'rish mumkin. Birinchidan, kredit siyosatini ishlab chiqishda ko'proq, bosh banklar aktiv rol o'ynab ular har doim ham bankning quyi bo'g'inlarining kredit ishlarini inobatga olmaydigan holatlarni uchratish mumkin.

Ikkinchidan, bank salmog'i katta-kichikligidan qat'iy nazar har bir bank xodimi bankning kredit siyosatining hech bo'lmaganda maqsadi, umumiy yo'nalishlari bilan tanish bo'lishi, ularning bajarilishi bo'yicha faoliyat olib borishi lozim.

Ko'pgina tijorat banklarining kredit siyosatida asosiy e'tibor kreditlar berish bo'yicha erkinlik, kredit turlari, kreditlarni to'lash, foiz stavkalari, kredit bo'yicha garov qiymati va uning bahosi, mijoz to'g'risida moliyaviy axborot, o'z vaqtida to'lanmagan va muddati kechiktirilgan kreditlar, bank kengashi va boshqaruviga beriladigan hisobotlar, kreditlarning konsentratsiyasi, aloqador shaxslarning ishlash tamoyillari, risk baholash, kredit portfelini audit qilish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi ko'zda tutilgan bo'lsada, ularning mohiyatini ochib berishda ba'zi bir noaniqliklar mavjud edi. Masalan, kreditlarni konsentratsiya qilish to'g'risidagi yo'nalishida kreditlarning turi, hududiy joylanishi va boshqa belgilari bo'yicha konsentratsiya qilish lozim deyilsa, yana Shunday kreditlar konsentratsiyasi banklarni katta zararlarga qo'yishi mumkinligi ta'kidlanadi. YOki mijozlarning moliyaviy ahvolini ifodalovchi kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlarni ifodalovchi kreditning bahosi va samaradorligini ko'rsatuvchi yo'nalishlar keltirilmagan. Tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqishda ish yo'nalishlar bo'yicha aniq ma'lumot va hujjatlarga ega bo'lishi va kredit siyosati sifatida rejalashtirishlari, bizning fikrimizcha, banklarni katta risklardan oldindan himoya qilishi mumkin. Undan tashqari Yuqorida keltirilgan kreditni konsentratsiyalash bo'limi o'rniga kreditlarni diversifikatsiyalash yoki kredit portfelini boshqarish bo'limi deb kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Banklar tomonidan beriladigan kreditlar respublikani iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga, infrastrukturani takomillashtirishga, eksport salohiyatini kengaytiruvchi sohalarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Tijorat banking kredit siyosati, kredit bozorini tahlil qilish vaeng kichik kredit riskka ega bo'lgan bozorlarni aniqlash; mablag'larni depozitga jalb qilish; kreditlash jarayonida Yuqori samaradorlikka erishish; bankning depozit va kredit

portfelini boshqarishni optimallashtirish; muammoli kreditlar salmog'ini kamaytirish; bankning likvidliligi va to'lovga layoqatliligini ta'minlash kabi masalalrni o'z ichiga olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimimini yanada erkinlao'tirish va isloh qilish borasidagi chora tadbirlar to'g'risida"gi 2000yil 21 martdagi farmoni tijorat banklarining faoliyatini olib borishda va ularning kredit siyosatini tuzishda to'la erkinlik va mustaqillik berilishiga yo'l ochib berdi. Endilikda tijorat banklari o'zlarining mustaqil kredit siyosatini ishlab chiqmoqdalar. CHunki hamma banklar uchun to'g'ri keladigan, yagona kredit siyosati mavjud emas edi. Alohida olingan tijorat banki uning faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi risklarniinobatga olgan holda mintaqa, viloyat, tumandagi iqtisodiy, siyosiy, sotsial holatdan kelib chiqib o'z kredit siyosatini ishlab chiqishlari kerak. Bankning aniq kredit siyosatiga ega emasligi bank risklarini oshiradi. Kredit siyosatining aniq emasligi belgilab qo'yilgan vazifalarining to'liq bajarilishiga va undan kutilgan samaraga erishishga to'sqinlik qiladi.

Bankning kredit siyosatini olib borish, kredit portfelini samarali natijasini ta'minlashni ko'zda to'tganligi uchun banklarning kredit portfelini tashkil qilishga ta'sir qiluvchi omillar ichida banklar xizmat ko'rstish bozorining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan har bir bank o'zi tanlagan bozor sektoridagi asosiy mijozlarning qarz mablag'iga bo'lgan talabini hisobga olishi kerak.

Bank faoliyati turli risklar bilan bog'liq, Shuning uchun kreditlar. Depozitlar va boshqa majburiyatlar bilan o'z mablag'lari o'rtasida maqbul muvozanatni saqlash bankning eng maqsadlaridan biridir. Oqilona kredit siyosati bank kredit portfelini sifat jihatdan tartibga solish ko'lamini, mablag' olish imkoniyati, eng Yuqori risk darajasi, ssuda portfeli manbalari va muddatlari bo'yicha mutanosibligini, bank majburiyatlari va aktivlari tuzilmasining mosligini hisobga olish kerak. Kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari bank direktorlar kengashi tomonidan belgilanadi.

Bank murakkab va muntazam o'zgarib turadigan iqtisodiy sharoitlarda, avval hech qachon duch kelinmagan yoki to'liq hal etilmagan vazifa (masalan, risk konsepsiyasini ishlab chiqish va ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni ko'ra bilish, kreditlar jamlanishi hisobini yuritish va iqtisodiy sharoitning qarzdorlar daromadlariga qanchalik ta'sir ko'rsatishini aniqlash) ko'ndalang turganida kredit siyosatining o'rni ayniqsa muhimdir. Kredit siyosatini ishlab chiqish foyda olish va samarali ish yuritish holati saqlangan holda, bozor ehtiyojlari qondiriladigin eng Yuqori risk darajasini aniqlashni taqazo etadi.

Kredit siyosatidagi har qanday chetlanish to'liq, hujjatlashtirilishi, asoslanishi va istisnolar ko'rsatilishi kerak.

Shu tariqa, kredit siyosatini qat'iy va batafsil ishlab chiqilgan har qanday bank uchun katta ahamiyat kasb etadi va u kreditlash tadbirlarini mazmunini ayonlashtiradi. Bu tadbirlarni amalga oshiradigan xodimlar majburiyatlarni belgilab beradi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etishbankning asosiy maqsadlari: foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish, bank me'yorlariga rioya etishga erishishi imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo‘ladi. Bu esa o‘znavbatida, uning qarzdorlar va aksiyadorlari foydasini ko‘paitiradi va faravonligini oshiradi.

### **Xorijiy banklarning kredit siyosati va uning xususiyatlari.**

Xorijiy davlatlarning yirik banklarida yozam ravishda kredit siyosati to‘g‘risida memorandum ishlab chiqiladi va barcha bank xodimlari o‘z faoliyatini Shu memorandum asosida olib borishlari zarur. Memorandumning tarkibi har bir bankning faoliyatini hisobga olgan holda har xil bo‘lsada, u bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini qay tariqada olib borishni o‘z ichiga oladi. Memorandumda olib boriladigan siyosatning asosan, ya’ni ko‘proq ishonchli va foyda keltiruvchi kreditlar berish, kreditlar berishda mavjud kredit resurslarni hisobga olish, kredit berishning oxirgi chegarasini belgilab berish va boshqalar ko‘rsatiladi. Memorandumda kredit siyosatining umumiy maqsadi aniq aks ettiriladi.

Memorandumda kreditlash shakllaridan foydalanish tartibi, kredit siyosatining ustivor yunalishlari, kreditlarga foiz hisoblash, ularni undirish va balansdan o‘chirish masalalari aniq aks ettiriladi.

Hujjatda qaysi kreditlarni berish bank uchun foydali va qaysi kreditlarni berishdan bank saqlanishi lozimligi, bank xodimlariga kreditlar berish, kreditlarning sifatini nazorat qilish shakllari va boshqalar ko‘rsatiladi.

Buning uchun quyidagilar aniqlanadi:

- ✓ bank uchun maqul bo‘lgan kreditlar turlari;
- ✓ qanday kreditlar berishdan bank o‘zini tutish;
- ✓ ko‘ngildagiday bo‘lgan qarzlarning tarkibi;
- ✓ ko‘ngilsi qarzlarning tarkibi;
- ✓ bankning kreditlash bilan bog‘liq faoliyatidoirasi;
- ✓ bankning o‘z xodimlariga kredit berish doirasidagi siyosati;
- ✓ qarzdorlikning har xil darajalariga ko‘ra kreditlarning hajmini qisqartirish;
- ✓ kredit riskini boshqarish, tekshiruv va nazorat doirasidagibankning siyosati.

Yirik bir amerika banklarining memorandumini sxemasi 5 bo‘limni, ya’ni umumiy qoidalar, kreditlar kategoriyasi, kredit siyosatining har xil masalalari, kredit portfeli sifati ustidan nazorat hamda bank qo‘mitalarini o‘z ichiga oladi.

Kredit siyosati to‘g‘risidagi memorandumda bankning kredit ekspansiyasini amalga oshirish lozim bulgan geografik xududlar aniq aks ettiriladi.

AKSHning Siti bankining kredit siyosati to‘g‘risidagi Memorandumining tarkibi quyidagicha:

1. Umumiy qoidalar:

- boshqaruv;
- operatsiyalarni qo‘llash sferasi;
- ssudalarning balans portfeli;
- portfelni boshqarish;
- ssudalar depozitlar koeffitsienti;
- bitta mijozga beriladigan kreditning maksimal miqdori;

- ssudalarni berish vakolatlari;
- foiz stavkalari;
- ssudalarni qoplash shartlari;
- kreditlarning ta'minlanganligi;
- kreditga layoqatlilikni baholash tizimi;
- kreditni rasmiylashtirish uchun zarur bulgan hujjatlar majmui;
- ssudalar bo'yicha to'lovsizlik koeffitsienti;
- muddati o'tgan ssudalarni balansdan o'chirish;
- ssudalarni prolongatsiya kilish tartibi.

## 2. Ssudalarning aloxida turlari:

- qishlok xo'jalik korxonalariga berilgan ssudalar;
- sanoat korxonalariga berilgan ssudalar;
- ipoteka ssudalari;
- «Viza» kartochkalari va tiklanadigan ssudalar;
- ipoteka kreditlari berish bilan Shugullanuvchi filiallar;
- akkreditivlar;
- nomaqbul ssudalar.

## 3. Kredit siyosatining turli masalalari:

- direktorlarga va bankning ma'sul xodimlariga beriladigan ssudalar;
- bankning oddiy xodimlariga beriladigan ssudalar;
- manfaatlar to'qnaShuvi.

## 4. Ssudalarning sifati ustidan nazorat:

- kreditga layoqatlilikni baholash bo'limi;
- ssuda portfelini taftish qilish.

## 5. Qo'mitalar:

- direktorlar kengashi qoshidagi ssuda qo'mitasi;
- moliyaviy maslaxatchilar qoshidagi ssuda qo'mitasi;
- ssudalarni taftish kilish bo'yicha qo'mita.

Barcha rivojlangan xorijiy davlatlarda kreditlash bilan bog'lik operatsiyalar bank aktiv operatsiyalarining asosiy turi bo'lib qolmoqda. Masalan 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida AKSH tijorat banklarining kreditlash operatsiyalari ularning aktiv operatsiyalarining 60 foizini tashkil kildi. Bu ko'rsatkich Fransiyada - 65,6 foizni, GFR da - 53,0 foizni, Italiyada - 48,7 foizni, Gollandiyada - 47,1 foizni, Daniyada - 56,0 foizni, Ispaniyada - 66,4 foizni, Angliyada - 63,5 foizni tashkil kildi.

Shuni ta'kidlash joizki, xozirgi vaqtda xorijiy banklar amaliyotida jismoniy shaxslarga beriladigan ssuda operatsiyalari xajmi o'sib bormokda. Masalan, Fransiya va Germaniyada bunday ssudalar miqdori korxonalar va tashkilotlar oladigan ssudalar miqdori bilan tenglashdi, AQSHda esa bunday ssudalar miqdoriga ko'ra birinchi o'ringa chiqdi.

Tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan amalga oshiradigan operatsiyalarini shartli ravishda ikki yirik guruhga bulish mumkin: iste'mol krediti va uy-joy krediti.

Iste'mol krediti deganda, odatda, tovarlar sotib olish maqsadida beriladigan kreditlar tuShuniladi. Bunday kreditlar xorijiy davlatlarda rivojlangan. Ular

aholining tovarlarni sotib olish talabini rag'batlantiradi. Ayniqsa, o'rtacha daromad ko'radigan shaxslar iste'mol kreditidan keng foydalanadilar.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda individual mijozlarga beriladigan ssudalar ichida ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinni ipoteka ssudalari egallaydi. Ular asosan uy-joy qurish, ularni ta'mirlash yoki sotib olish maqsadlariga beriladi. Bunday kreditlar uchun garov sifatida uy, er uchastkasi olinishi mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida uy-joy kreditining muddati 7 yildan 20 yilgacha, ayrim hollarda 30 yilgacha belgilanadi. Bunday kreditlar Yuqori foiz riskiga ega, chunki bu muddat mobaynida jalb qilingan resurslarning bahosi oshishi mumkin. Shuning uchun tijorat banklari uy-joy kreditini berishda suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalanadilar.

Xulosa qilib aytganda, tijorat bankining kredit siyosati bankning kreditlashni amalga oshirishdagi maqsadi va strategiyasini, kredit berish jarayonida bank xodimlari vakolat darajasi va mas'uliyatini, tijorat banki tomonidan beriladigan kreditlarning turlari va toifasi, bank krediti yo'naltiriladigan iqtisodiyot sohaslarini belgilab olish, kreditlash usullari, kreditlash ko'rsatkichlari, kreditlarni qaytarib to'lash shartlari va qoidalari, kreditning muddati, qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora tadbirlar, yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida ifoda qiluvchi qarzdorlarning faoliyatiga oid moliyaviy axborotlar, garov ta'minotiga qo'yiladigan talablar, kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar, foiz stavkalari bo'yicha bajariladigan operatsiyalar, ko'zda tutilmagan holatlar moddalari, kredit portfelini audit qilish bo'yicha talablar bank Boshqaruvi va kengashiga taqdim qilinadigan hisobotlar bo'yicha talablarni o'zida ifoda qilishi lozim.

### **Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tijorat banklari kredit siyosatini boshqarish bilan bog'liq muammolar.**

1. Respublikamizning bir qator tijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiyalash talabiga rioya etilmayotganligi muammosi.

Respublikamizning bir qator tijorat banklarida, kredit portfelini diversifikatsiyalash talabiga rioya etilmayapti. Kreditlarning 40 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqqa mansub bo'lgan korxonalarda to'planishiga yo'l qo'yilmoqda. Bu esa, kredit riski muammosini keskinlashishiga olib keladi. Buning boisi Shundaki, bank kreditlarining asosiy qismi joylashtirilgan tarmoqda foyda normasining pasayishi muddati o'tgan kreditlar hajmining keskin o'sishiga olib keladi.

2. Tijorat banklari xodimlarining kredit oluvchi xo'jalik sub'ektlari moliyaviy hisobotini to'g'ri va haqqoniy tahlil etish uchun malaka va tajribasining etishmasligi.

Bu Shubhasiz, muammoli kreditlarni va kredit mablag'larini o'z vaqtida unmaslik holatini vujudga keltiruvchi bosh omillardan biridir. Chunki xo'jalik sub'ektlari bilan amaliy ishlash tajribasiga ega bo'lmagan bank xodimi tomonidan tayyorlangan kredit yig'ma jildi doimo qo'shimcha nazoratni talab etadi. Lekin

banklarda xizmat turlarining ko'pligi va eng asosiysi, xo'jalik sub'ektlari bilan ishlashda amaliy tajribasi bo'lmagan xodimlarga murabbiylik qiluvchi ustoz xodimlarning etishmasligi natijasida malaka va tajribasiz xodimlar xulosasi asosida moliyaviy ahvoli nochor bo'lgan korxonalariga kredit berish holatlari yuzaga kelmoqda. Chunki, xo'jalik sub'ektlari bilan ishlashda malaka va tajribasi bo'lmagan xodimlar kredit oluvchining hisobotlarini tahlil etishda ko'prok kompyuterga joylashtirilgan dasturlardan foydalanadilar. Bu esa, ko'pincha kredit oluvchining moliyaviy ahvolini to'liq va to'g'ri baholash imkonini bermaydi. Mijozlar tomonidan ko'pincha o'zlarining kredit to'loviga layoqatlilik darajasini Yuqori qilib ko'rsatish maqsadida hisobotlardagi ko'rsatkichlarni asossiz o'zgartirib taqdim etish hollari ham uchramoqda.

3. Bank kredit qo'mitalarining, ayrim hollarda, o'z vakolati va vazifasiga sovuqqonlik va ma'suliyatsizlik bilan qarashi.

Bu omil tijorat banklari kredit berish mexanizmining asosiy bog'lovchi va muhim elementidir. Boshqacharoq qilib aytganda, aynan kredit qo'mitasi kredit berish jarayonida hal qiluvchi rolni bajaradi.

Ayrim tijorat banklarida kredit qo'mitasi majlislari o'tkazilmay, rasmiyatchilik uchun tuzilgan bayonnomalarga imzo qo'yish hollari hamda qo'mita a'zolari yuz foiz ovoz bermagan hollarda ham kredit berish yuzasidan qarorlar qabul qilish hollari hamon uchramoqda. Aynan Shunday holatlar ham muammoli kreditlar miqdorini yanada oshishiga olib kelmoqda.

4. Tijorat banklari kredit bo'linmalari xodimlari o'rtasida xizmat vazifalari taqsimotini to'g'ri tashkil etilmaganligi.

Bank muassasalari banklararo raqobatda nafaqat o'z o'rnini saqlab qolish, balki etakchi banklar qatoridan joy olish maqsadida Shuningdek, mijozlar ko'ngliga qarash maqsadida, deyarli kun bo'yi ularga xizmat qilish tartibini joriy etmoqdalar. Natijada, kun bo'yi mijoz topshirig'i bilan band bo'lgan kredit bo'linmasi xodimlarini mijozlarning xo'jalik-moliyaviy foliyatini tahlil etish bilan Shug'ullanishga vaqt ajratishi qiyin kechmoqda. Bu esa, bank uchun mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyatida yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar haqida tasavvurga ega bo'lmaslik holatini keltirib chiqarmoqda. Bankning mijoz xo'jalik-moliyaviy faoliyatida yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar haqida tasavvurga ega bo'lmay turib, mijozning bankning kredit mablag'i hisobiga ishlab chiqargan yoki ishlab chiqarmoqchi bo'lgan mahsulotiga talab darajasini o'rganib chiqmasdan, mahsulotni ishlab chiqarish quvvatini tahlil etmay turib kredit berishi, albatta, muammoli kreditlar vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

5. Mijozlar tomonidan taqdim etilayotgan biznes rejalarni banklar tomonidan etarli darajada tahlil etilmayotganligi hamda kredit shartnomalarini tuzishdagi kamchiliklarning mavjudligi.

Banklar uchun kreditni rasmiylashtirish jarayonida ham, kredit mablag'idan foydalanish jarayonida ham asosiy e'tiborni qarzdor tomonidan tuzilgan biznes rejani tahlil etish va tahlilni davom ettirishga qaratishlari zarur. Lekin biznes rejalarga kreditor tomonidan ham, qarz oluvchi tomonidan ham kredit amaliyoti uchun talab etiladigan rasmiy bir hujjatdek yondoshiladi. Holbuki, aynan biznes reja mijozning mablag'laridan foydalanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim

bir hujjatdir. Lekin banklarda biznes rejalar kreditni rasmiylashtirish davridagina o'rganib chiqiladi. O'rganilganda ham biznes rejadagi oxirgi natijaning ijobiy ekanligi, ya'ni mazkur faoliyat natijasida olinadigan foyda qismigina banklarni qiziqtiradi. Vaholanki, kredit olishni maqsad qilib olgan mijoz albatta faoliyat natijasida olinadigan foyda miqdorini Shunday darajaga etkazib hisoblaydiki, natijada, bank uchun qarzdor tomonidan kreditni qaytarish xavfi yo'qday tuyuladi. Shuning uchun ham biznes rejalar mijozlar tomonidan deyarli bir biriga o'xshash holatda tuzilmoqda. Muammoli kreditlar tarixi tahlil etilganda, aksariyat hollarda biznes rejalarining rasmiyatchilik uchungina tuzilganligining guvohi bo'lamiz. Holbuki, banklar tomonidan mijozning kredit mablag'idan foydalanish jarayonini o'z ichiga olgan biznes rejasi asosida xo'jalik faoliyatini doimo tahlil etib borilishi kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarishning garovidir.

6. Mijozlarning sezilarli qismida Yuqori likvidli garov ob'ektlarining etishmasligi muammosi. Bundan tashqari,

- Kreditlarni maqsadga muvofiq ishlatilmaslik hollariga yo'l qo'yilmoqda
- Mijozning kreditga layoqatlilik darajasi etarli o'rganilmasdan unga ishonchli kreditlar berish hollari mavjud
- Banklarda kreditlarning asosiy summasi kredit to'lash muddatining so'ngida amalga oshirilyapti va kredit grafigi kupol ravishda uzib kelinmokda
- Kreditlarning sezilarli qismi uchinchi shaxsning kafolat xati asosida berilgan
- Respublikamizning bir qator yirik tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlarning salmog'i ancha kichik
- Respublika tijorat banklarining asosiy qismida resurs bazasining zaifligi taxlillar natijasida namoyon bo'lmoqda.
- % siyosatining yaxshi yulga kuyilmaganligi
- Kreditlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bulgan risklarning tulik taxlil kilinmasligi
- Hamon banklarimizda kreditlash sub'ekti emas balki, kreditlash ob'ektiga e'tibor berilishi kabi muammolar ko'p uchramoqda.

## **16-mavzu. "Mijozlarning kreditga layoqatliligi va kreditlash tartibi"**

**1. Asosiy va aylanma mablaglar. Aylanma mablaglar tarkibi, aylanma mablaglar manbalari va ularning tarkibi.**

**2. Kreditorlik karzlari va ularning turlari.**

**1. Asosiy va aylanma mablaglar. Aylanma mablaglar tarkibi, aylanma mablaglar manbalari va ularning tarkibi.**

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borishda aylanma mablag'lar muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, pul muomalasini barqarorlashtirish asosida milliy pul birligini mustahkamlashning asosiy yo'llaridan biri - ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni takomillashtirishdan iborat. Ishlab chiqarishni



yo'lga qo'yish va uning samaradorligini oshirish, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni ishlab chiqarishda qo'llash, iqtisodlilik tamoyiliga rioya qilish, material xarajatlarini kamaytirish, arzon, lekin sifatli materiallarni ishlab chiqarishda qo'llash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. SHuni ta'kidlashimiz lozimki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish avvalom bor aylanma mablag'lardan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Har bir xo'jalik o'z ishlab chiqarishini tashkil qilish, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun ma'lum qiymatni avanslashtirishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun esa avanslashtirilgan qiymat ishlab chiqarish va muomala sferalarida doimiy ravishda aylanib turishi zarur. Avanslashtirilgan qiymat mehnat vositalari va predmetlarini sotib olishga sarflanishi mumkin. SHu jihatdan ishlab chiqarish vositalarini ikki shakldagi aktivlarga, ya'ni uzoq muddatli va aktivlarga bo'lish mumkin. Uzoq muddatli aktivlar ishlab chiqarishda uzoq yillar davomida qatnashadi. Eskirib borishi bilan uzoq muddatli aktivlar o'z qiymatini qisman yangi yaratilayotgan mahsulotga o'tkazib boradi.

Aylanma aktivlar uzoq muddatli aktivlardan farq qilib, ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashadi va yaratilgan mahsulotga o'z qiymatini to'la o'tkazadi, shakli o'zgaradi.

Aylanma aktivlar aylanish jarayonida uch bosqichni bosib o'tadi: pul, ishlab chiqarish va tovarlarni sotish bilan bog'liq bosqichlar.

Aylanishning birinchi bosqichida ishlab chiqarish vositalari sotib olinadi (P-T(i/v)). Korxonalarining ajratilgan pul fondlari ishlab chiqarishning ashyoviy omiliga aylanadi. Birinchi bosqichning xususiyati shundaki, bu bosqichda ba'zi korxonalar o'z mablag'lari etarli bo'lmagan hollarda qarzga bank kreditini oborotga jalb qilishlari mumkin.

Aylanma aktivlar aylanishning ikkinchi bosqichi - ishlab chiqarish bosqichi (T-i/ch-T') bo'lib, bunda ishlab chiqarish omillari (ish kuchi va ishlab chiqarish vositalari) qo'shilishi yuzaga keladi va bu jarayon aylanma aktivlari aylanishi iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq ifodalashga yordam beradi. CHunki, ikkinchi bosqich asosiy va hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda yangi qiymatga ega bo'lgan yangi mahsulot yaratiladi. Ikkinchi bosqich, ishlab chiqarishda samaradorlikka erishish omillariga boy bo'lgan bosqich bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun: ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash; material resurslarini iqtisod qilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini arzonlashtirish; mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish zarur.

Aylanma aktivlar aylanishining uchinchi bosqichi, (T'-P')da yangidan yaratilgan mahsulot realizatsiya qilinadi. Oxirgi bosqichda aylanma mablag'lar yana boshlang'ich shakl - pul shakliga o'tadi va bu esa aylanish jarayonini boshidan boshlash imkonini beradi.

Aylanma aktivlar aylanishining uchala bosqichi bir - biri bilan chambarchas bog'liq va ularni o'rganish katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qilish, uning uzluksizligini ta'minlash, aylanish bosqichlari bo'yicha

aktivlarni to'g'ri taqsimlash ishlab chiqarishda samaradorlikka, korxonalar moliyaviy faoliyatining yaxshi natijalarga erishishiga olib kelishi mumkin.

Fondlar aylanishining asosiy shakli - pul shakli ishlab chiqarishni tashkil qilishda asosiy rol o'ynaydi. SHuning uchun ular aylanishining asosiy shakli, jarayon boshlanishida pul mablag'larini avanslashtirish va jarayon tugashida aktivlarning pul shakliga o'tishidir. Haqiqatda pul mablag'larini avanslashtirmasdan turib fondlar aylanishini boshlash mumkin emas va shundan kelib chiqqan holda boshqa bosqichlar o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi.

Korxonalarining avanslashtirilgan mablag'lari natural-ashyoviy shaklda va boshqa shaklda, ya'ni qiymat shaklida bo'lishi mumkin. Aktivlarning qaysi bir turini moslashtirishga qarab, ular asosiy va aylanma mablag'larga bo'linadi.

Avanslashtirishning xususiyati shuki, mablag'lar korxonada doimiy ravishda bo'lib turadi va aktivlarning aylanishiga qarab o'z shaklini o'zgartirib turadi. Aktivlarning aylanishi davomida aylanma mablag'lar pul shaklidan ishlab chiqarish zahiralari shakliga, ishlab chiqarish zahiralari shaklidan tugallanmagan ishlab chiqarish (tayyor bo'lmagan mahsulot)ga, tugallanmagan ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot shakliga o'tadi. Oxirgi bosqichda mahsulot sotiladi, ya'ni tovar shaklidan pul shakliga o'tadi va jarayon boshida avanslashtirilgan mablag'lar kelib tushgan tushum hisobidan tiklanadi. Aylanma aktivlari va ularning iqtisodiy mohiyati to'g'risida oxirgi yillar ichida birorta ham yirik iqtisodiy adabiyot yozib, chop qilingan emas. SHuning uchun aylanma aktivlar to'g'risidagi ba'zi bir munozara bo'yicha 80-90 yillar adabiyotlarigagina murojaat qilishimiz mumkin.

Aylanma aktivlar iqtisodiy kategoriya sifatida bir necha xususiyatlarga ega. SHulardan biri - aylanma ishlab chiqarish va muomala aktivlari uchun avanslashtirilgan qiymatlarni bir iqtisodiy kategoriya - aylanma aktivlar kategoriyasiga birlashishidir. Ba'zi iqtisodchilar aylanma aktivlarni iqtisodiy kategoriya sifatida qaramaydilar. Ularning fikricha, aylanma fondlarga iqtisodiy kategoriya sifatida tovar ishlab chiqarish jarayonining asosini tashkil qiladi. Aylanma aktivlarning yana bir xususiyati - ularning tashkil qilinishi va ulardan foydalanishdir.

Aylanma aktivlarning aylanishini boshlash uchun avvalom bor avanslashtirilgan qiymatga ega bo'lish lozim.

Aylanma aktivlar korxonada balansining aktiv qismida ko'rsatilib quyidagi tarkibiy guruhlariga bo'linadi.

**I guruh.** *Tovar-moddiy boyliklar, bularga:*

- 1- ishlab chiqarish zahiralari;
- 2- tayyor mahsulot;
- 3- tovarlar kiradi.

**II guruh.** *Ishlab chiqarish xarajatlari, bularga:*

- 1- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- 2- kelgusi davr xarajatlari va boshqalar kiradi.

**III guruh.** *Pul mablag'lari, bularga:*

- 1- g'aznadagi pul mablag'lari;
- 2- valyuta mablag'lari;

- 3- hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari;
- 4- boshqa schyotlardagi pul mablag‘lari kiradi.

**IV guruh. Debitorlar, bularga:**

- 1- xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar;
- 2- bo‘nak to‘lovlari;
- 3- byudjet bilan hisob-kitoblar;
- 4- xodimlar bilan hisob-kitoblar;
- 5- shu‘ba korxonalar bilan hisob-kitoblar;
- 6- uyushma korxonalar bilan hisob-kitoblar;
- 7- ta‘sischilar bilan hisob-kitoblar;
- 8- boshqa debitorlar kiradi.

Aylanma aktivlar o‘zining qaysi tarmoqqa qarashli ekanligiga qarab aylanishi davrida ma‘lum xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Aylanma aktivlarning aylanish davridagi xususiyati xo‘jalik sub‘ektining qaysi tarmoqqa taalluqli ekanligiga bog‘liq. Mavsumiy tarmoqlar (qishloq xo‘jaligi, tayyorlov, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar)da aylanma aktivlarning aylanishi bir tekisda kechmaydi.

CHunki bu tarmoqlarga aylanma aktivlarga bo‘lgan ehtiyoj yilning fasliga, mavsumga qarab turlicha bo‘ladi. Masalan, qishloq xo‘jaligida qish, bahor oylarida aylanma aktivlarga bo‘lgan talab oshishi, kuzga kelib aylanma aktivlarga bo‘lgan talab kamayishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi va shunga o‘xshagan boshqa tarmoqlarda aylanma aktivlarga bo‘lgan talab bank kreditini jalb qilish yo‘li bilan qoplanishi mumkin.

Mavsum bilan bog‘liq bo‘lmagan tarmoqlar (sanoat, savdo, ta‘minot va boshqalar)da aylanma aktivlarning aylanishi (mahsulot sotib olish, ishlab chiqarish va sotish jarayonini amalga oshirish) bir maromda kechishi mumkin. SHunga qaramasdan nomavsumiy tarmoqlarda ham materiallarning mol etkazib beruvchidan kelib tushishda, tovar ortiqcha yoki kam kelib tushganda, transport bo‘yicha qiyinchiliklar bo‘lganda, import mollar ko‘p miqdorda kelib tushganda, tayyor mahsulotni sotish jarayoni va boshqalarda aylanma mablag‘larga bo‘lgan talab bank krediti hisobidan qoplashi mumkin.

1990 yilgacha aylanma aktivlar bo‘yicha normativlar o‘rnatilgan. Normativ - bu minimal miqdordagi zahiralar bo‘lib, ular doimo ho‘jalik sub‘ektlari oborotida bo‘lishi lozim. Normativ miqdorini korxonalar o‘z mablag‘idan qoplashi kerak.

Oxirgi yillarda ho‘jalik sub‘ektlarining aylanma aktivlariga normativ o‘rnatish yana amaliyotda qo‘llanilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar o‘zida mavjud zaxira va harajatlar summasini xom cho‘t qilish asosida o‘tgan davrda mavjud mablag‘lar va kutilayotgan o‘zgarishlarni hisob-kitob qilish yo‘li bilan kreditga bo‘lgan talabni aniqlaydilar

Xo‘jalik sub‘ektlarining aylanma aktivlari quyidagi manbalar hisobidan tashkil qilinadi:

1. Korxonaning o‘z aylanma mablag‘lari.
2. Bank kreditlari.
3. Kreditor qarzlar

#### **4. Boshqa manbalar**

Xo'jalik sub'ektlari ishlab chiqarish va tovarlarni sotish jarayonini normal olib borish uchun tovar-moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlarining minimal miqdorida o'z aylanma mablag'lariga ega bo'lishi kerak.

Korxonalarining o'z aylanma mablag'leri quyidagi manbalardan tashkil topadi:

- a) davlat korxonalarida byudjetdan ajratmalar hisobidan;
- b) yuqori tashkilotlarning ajratmalari;
- v) ta'sisчилarning pay badallari;
- g) aksiyador korxonalarda aksiyalar chiqarish va sotish yo'li bilan vujudga keladigan manbalar hisobidan.

Korxonaning o'z aylanma mablag'leri uning kapitalida o'z ifodasini topadi. Ustav kapitali asosan foyda hisobidan yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan ko'paytirib boriladi. Korxonaning o'z kapitalining miqdori qancha yuqori bo'lsa, uning faoliyati shunchalik boshqa kreditorlarga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni o'z aylanma mablag'larining yuqori salmog'i korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligidan dalolat beradi.

Aylanma aktivlarning ikkinchi manbasi - bank krediti va boshqa qarz mablag'leri hisoblanadi. Korxonaning normal faoliyatini olib borish uchun o'z aylanma mablag'leri etarli bo'lmasa, oborotga qisqa muddatli bank kreditlari jalb qilinishi mumkin. Xo'jaliklar faoliyatida bunday ahvol mavsumiy va vaqtinchalik zahiralari va xarajatlarni qoplash, akkreditiv ochish va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida va boshqa shunga o'xshash holatlarda yuzaga keladi.

Xo'jalik sub'ektlarining aylanma aktivlarini tashkil qilishda kreditning rolini quyidagilar bilan ifodalash mumkin:

1. Kreditning xo'jalik oborotida ishtirok etishi aylanma mablag'larni iqtisod qilishga olib keladi.
2. Kredit xo'jaliklar faoliyatida uchrab turuvchi mavsumiy ehtiyoj, boshqa holatlar bilan bog'liq bo'linishlarning oldini olishga yordam beradi.
3. Kredit ishlab chiqarish, tayyorlov va sotish jarayonini tezlashtiradi va hajmini oshiradi.
4. Kredit o'z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.
5. Bank korxonalariga kredit berish yo'li bilan ularning faoliyatini yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi.

## **2. Kreditorlik karzlari va ularning turlari.**

Aylanma aktivlarning uchinchi manbasi - kreditor qarzlardir.

Kreditor qarz shaklidagi mablag'lar korxonaga tegishli bo'lmagan mablag'lar bo'lsa-da, ular korxonaga oborotida doimo ishtirok etadi. SHu tufayli ular aylanma aktivlarning manbai hisoblanadi. Kreditor qarzlarga quyidagilar kiradi:

1. Mol etkazib beruvchilar bilan hisoblar.
2. Byudjet bo'yicha qarzlilar.
3. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlilar.
4. Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlilar.

5. Mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzlilar.
6. Byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlilar.
7. SHu'ba korxonalariga qarzlilar.
8. Uyushma korxonalariga qarzlilar
9. Boshqa kreditorlar.

Aylanma aktivlarning boshqa manbalariga moddiy rag'batlantirish fondi va boshqa fondlar qoldiqlari kirishi mumkin. Korxonalarining moliyaviy ahvoli ijobiy bo'lsa, u o'z vaqtida bank kreditini to'lashi, mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilishi, ish haqini to'lashi, byudjetga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi mumkin.

Korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashganda to'lanmagan qarzlilar hosil bo'ladi. To'lanmagan qarzlilar:

- a) bank kreditlari bo'yicha;
- b) mol etkazib beruvchilarga o'z vaqtida to'lanmagan qarzlilar;
- v) ish haqi bo'yicha to'lanmagan qarzlilar va boshqalar bo'yicha yuzaga keladi.

To'lanmagan qarzlilarining yuzaga kelish sabablari korxonalar ko'zlagan rejalarining amalga oshirilmaganligi, aylanma aktivlardan foydalanishida samaraga erisha olmaslik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Aylanma aktivlardan foydalanishda bo'ladigan kamchiliklar:

1. Korxonalar o'z aylanma mablag'lari bilan etarli ta'minlanmagan sharoitida;
2. Aylanma aktivlar aylanishi sekinlashganda;
3. Korxonada talabdan ortiqcha tovar moddiy boyliklar zaxiralari yig'ilib qolganda;
4. Aylanma aktivlar ko'zda tutilganidan boshqa maqsadlarga ishlatilganda yuzaga keladi.

## **16-mavzu. "Mijozlarning kreditga layoqatliligi va kreditlash tartibi"**

**3. Mijozlarning kreditga layoqatliligi tushunchasi, uning mazmun-mohiyati.**

4. Kreditga layoqatlilikning asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlari.
5. Aylanma mablaglardan samarali foydalanish kursatkichlari.

### **Mijozlarning kreditga layoqatliligi tushunchasi, uning mazmun-mohiyati**

**Kreditga layoqatlilik** - bu mijozning moliyaviy faoliyatiga har tomonlama berilgan baho bo'lib, u qarz oluvchining so'ralayotgan kreditni (asosiy qarz summasi va u bo'yicha foidlarni) o'z vaqtida qaytarish va boshqa qarz majburiyatlarini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlarining, banklar faoliyatining tijoratlashuvi yuzaga keladi. Keyingi yillarda turli xil mulkchilik shakliga asoslangan korxonalar tashkil topdi. Bu korxonalar qaysi mulkchilik shakliga asoslangan bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy jihatdan to'liq mustaqil bo'lib, o'z xarajatlarini o'z daromadlaridan qoplaydilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan korxonalarda qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj

yuzaga keladi va bu ehtiyoj zarur bo'lganda bank kreditlari hisobidan qoplanishi mumkin. SHu sababli, bozor iqtisodiyoti sharoitda kredit va uning muhim elementlaridan biri kreditga layoqatlilikni baholashning o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki banklar ham bozor munosabatlarining mustaqil sub'ektlaridan bo'lib, iqtisodiy jihatdan faoliyat natijalari uchun o'zlari javobgar hisoblanadilar. Biz oldingi paragraflarda ta'kidlaganimizdek, banklarning maqsadi ham korxonalarinikiga o'xshash bo'lib, ular o'z xarajatlarni o'z daromadlari hisobidan qoplab yuqori foyda olishga intiladilar. Banklarning foyda bilan ishlashi ularning yanada keng tarmoqli faoliyat olib borishiga, mijozlarga ko'rsatadigan xizmat turlari va sifatini kengaytirishga, ustav kapitalini oshirishga, bank xodimlarini moddiy rag'batlantirishga, ko'proq mablag' ajratishga, o'z aksionerlariga ko'proq dividendlar to'lashning va bularning barchasi bankka bo'lgan ishonchning yanada oshishiga imkoniyat yaratadi. Tijorat banklari faoliyatida qo'ygan maqsadga erishish va bergan kreditlarining samara bilan bankka qaytib kelishini ta'minlashi uchun mijozning moliyaviy holatini uning kreditni o'z vaqtida qaytara olishi imkoniyatlarini tekshirib ko'rishi lozim.

Kreditlash jarayoni turli xildagi risk omillari bilan bog'liq bo'lib, kreditga layoqatlilik kreditni o'z vaqtida to'lashni o'zida mujassamlashtiradi. SHuning uchun bank ssuda berayotganda kreditga layoqatlilikni o'rganishi, ya'ni qarz oluvchining moliyaviy holatini hamda uning kreditni o'z vaqtida to'liq qaytarib berish qobiliyatini baholashni o'ziga shart deb biladi. Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishning maqsadi qarz oluvchining majburiyatini o'z vaqtida va to'liq qaytarib berish qobiliyatini aniqlashdan iborat. SHu bois bank o'ziga olishga tayyor bo'lgan risk darajasi u taqdim etayotgan kredit hajmi va kredit berish shartlarining qay darajada bajarilishiga bog'liq

Bank nafaqat mijozning ma'lum kunlardagi to'lov qobiliyatini baholashi, shu bilan birga, uning kelajakdagi moliyaviy barqarorligini ham prognozlashi zarur. Moliyaviy barqarorlikni va kredit operatsiyalaridagi risk hisobini ob'ektiv baholash, bankka kredit resurslarini samarali boshqarish hamda foyda olish imkonini beradi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi korxonalarining to'lov qobiliyati va barqarorligini aniqlashda chet el tajribasiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritish zaruratini tug'dirdi, bunda buxgalteriya balansining yangi tahlilini yuritish asosiy o'rinni egallaydi. Balansdagi aktiv va passivlarni qabul qilingan moddalar bo'yicha guruhlashtirilishi, to'lov qobiliyati va kreditga layoqatlilikni etarli darajada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Bank risklarini kamaytirish va uning daromadini oshirishda kredit jarayonini tug'ri tashkil qilish, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash muhim o'rin tutadi. Mijozga berilgan kredit o'z vaqtida qaytib kelishini xohlaydigan bank avvalambor mijozning kredit zayavkasi va uning kredit tarixini mukammal o'rganib chiqishi lozim. Bu jarayon bank riskini oldini olishning ilk bosqichi hisoblanadi.

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini o'rganish va kredit berilgandan keyin kredit monitoringini muntazam olib borish bank riskini kamaytirish va uning daromadini oshirishning navbatdagi bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, kreditlash jarayonini tashkil qilish kredit arizasini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Amaliyotda kredit arizalarini ko'rishda nimalarga e'tibor berish zarurligini ta'kidlab utish joiz. Har bir mijozga chuqur e'tibor bilan munosabatda bo'lish, har bir bank xodimining faoliyat ko'rsatish qoidalarining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Odatda o'z mijozlariga e'tibor bilan muomala qilmaydigan xodimlari bo'lgan bankning kelajagi xam bo'lmaydi.

Jahon amaliyotida kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank xodimi mijozlarga kreditlash shartlari haqida ma'lumot beradi va bankning anketa savollariga javob berishni taklif qiladi. CHet el banklarida mijozlar bilan bo'lgan birinchi va undan keyingi uchrashuvlar natijasi hisobotlarda umumlashtiriladi. Bu hisobotlar ma'lum miqdorda savollarning standart yig'imini o'z ichiga oladi. Bunday hisobotga mijozning bankga har tashrifidan so'ng o'zgartirish kiritiladi va yangi ma'lumot bilan to'ldiriladi. Bu hisobotlar kredit inspektoriga kelgusi mijoz to'g'risida uchrashuvlari oldidan kerakli ma'lumotlarni beradi. Kelgusi mijoz kredit inspektori bilan bo'ladigan uchrashuvga olinadigan ssuda, uning ishlatilish maqsadi, summasi, qaytarilish muddati va taqdim qilingan ta'minotini o'z ichiga olgan kredit arizasi bilan keladi.

Ko'pgina davlatlarda nufuzli banklar kredit arizasi bilan birga bir necha hujjatlarni ko'rib chiqadi, bularga:

**1.** Qarz oluvchi kompaniya (korxon) ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan nusxasi;

**2.** Moliyaviy hisobot, korxon balans va oxirgi uch yil uchun foyda va zarar hisobotini o'z ichiga oladi. Balans yil oxirigacha tuzilib, unda aktivlar, majburiyatlar va kapital tuzilmasi ko'rsatiladi. Foyda va zarar schyoti bir yillik vaqtni o'z ichiga oladi va kompaniya daromadi va harajatlari, sof daromadi, uning rezervga taqsimlanishi va chegirmalar, dividend to'lovlari va h.k.lar to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi.

**3.** Kassa tushumlari va harakati to'g'risida hisobot. U ikki hisobot muddatida tuzilgan balanslarning solishtirilishiga asoslan - gandir va u har xil bo'limlar va fondlar harakatida bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rishga yordam beradi. Hisobot resurslari defitsitini, ishlatilishini, foizlar uchun mablag'lar bo'sh vaqti va kassa tushumlarining defitsitini yuzaga kelishi va h.k.ning umumiy holatini ko'rishga yordam beradi.

**4.** Ichki moliya hisoboti. Bu hisobot kompaniya moliyaviy holati, 1 yil, kvartal yoki oy davomida resurslarga bo'lgan ehtiyojining o'zgarishlarini aks ettiradi.

**5.** Ichki operativ hisob bo'yicha ma'lumotlar. Balans tuzish uchun ko'p vaqtni talab qiladi. Lekin kreditor bankga qarz oluvchi kompaniya to'g'risida ba'zi bir operativ hisobot ma'lumotlari kerak bo'lib qolishi mumkin.

**6.** Moliyalashtirishning prognozi. Bu hisobot kelgusi sotuvni baholash, xarajat, tovarni ishlab chikarish bilan bog'liq harajatlari, debitor qarzdorlik, zaxiralar qaytarilishi, naqd pulga ehtiyoj, kapital qo'yilma va h.k.larni o'z ichiga oladi.

7. Soliq deklaratsiyasi eng kerakli qo‘shimcha axborot sifatida. Unda qarz oluvchi soliq to‘lovchi sifatida boshqa hujjatlarga kirgizilmagan axborotlar bo‘lishi mumkin.

8. Biznes - reja. Ko‘pgina kredit zayavkalari hali moliya hisoboti va boshqa hujjatlarga ega bo‘lmagan ishni endi boshlayotgan korxonalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq. Bunday paytda qarz oluvchi kompaniya bankka kreditlanadigan loyiha maqsadi va uni amalga oshirish usullari xaqida ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi batafsil biznes - rejani taqdim etishi kerak.

Kredit inspektori kredit arizasi va unga kiritilgan hujjatlarni yaxshilab o‘rganib chiqadi. Bundan so‘ng u kelgusi qarz oluvchi bilan yana bir bor suhbatlashadi. Suhbat davomida kredit inspektori qarz oluvchi kompaniya (bank) ishlarini har tomonlama o‘rganishi shart emas, u kreditor-bankni qiziqtiradigan savollarga kerakli darajada ahamiyat berishi kerak.

Ko‘zga ko‘ringan chet el banklarining amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, kelgusi mijoz bilan suhbat aniq bir tartibda berilgan quyidagi savollarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Bank kreditlashning birinchi bosqichida quyidagilarni aniqlashi kerak:

**A.** Qarz oluvchining ishonchliligi va kreditga layoqatliligi, uning sherik sifatidagi faoliyati doimiyliigi va samarasi.

**B.** Kredit zayavkasining asoslanganligi va kredit qaytarilishining ta‘minlanganlik darajasi. Bank kerak bo‘lsa kredit taklifi bo‘yicha o‘z talablarini ishlab chiqishi va mijozni u bilan tanishtirishi mumkin.

**V.** Kredit taklifining bank kredit siyosati va ssuda portfeli tuzilmasiga to‘g‘ri kelishi. YAngi kredit berish va kredit portfeli diversifikatsiyasi kredit riskining pasayishiga olib keladimi yoki yo‘qmi degan savolga javob topishi lozim.

Bankning kredit berish bilan shug‘ullanuvchi xodimlari yaxshi bilmaydigan iqtisod tarmoqlaridagi korxonalariga ssuda bermasligi kerak. Lekin bunday hollarda kredit taklifini baholash uchun nufuzli ekspertlarni jalb qilishlari mumkin. Ammo bu bankning qo‘shimcha harajatiga olib kelsa - da, kreditlash bilan bog‘liq risklarning oldini olishi mumkin.

Har qanday ariza va qo‘shimcha hujjatlar hamda suhbat natijalarini aniqlashning hal qiluvchi omili bo‘lib qarz xarakteri va kreditga layoqatliligini aniqlash hisoblanadi. Kredit inspektori qarz oluvchiga arizani tayyorlash davomida mijozning kreditni qoplashga loyiq qimmatli aktivlarini va daromad miqdorini biladi. Mijozning og‘zaki javoblari yozma bergan ma‘lumotlariga qaraganda ko‘proq ma‘lumot beradi. SHu bilan bir vaqtda inspektor mijoz hamkorlik qilgan banklarga murojaat qiladi.

Kredit inspektori qarz oluvchi daromadining faqatgina miqdoriga emas, balki barqarorligiga ham e‘tibor berish kerak. Ular mijozdan sof daromad haqida ma‘lumot olishni istaydilar.

Daromadning miqdori va doimiyliigi turg‘unligining bilvosita ko‘rsatkichi bo‘lib, mijozlarning depozit hisoblaridagi o‘rtacha bir kunlik qoldiq to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisoblanadi. Qarz oluvchi tomonidan berilgan bu ma‘lumotlar kredit inspektor tomonidan tegishli bank tomonidan berilgan ma‘lumotlar bilan taqqoslanadi.



Bank depozit hisoblaridagi salmoqli qoldiqlarni bo'lishi mijoz moliyaviy ahvolidan, uning moliyaviy intizomligidan va olingan kreditlarni qaytarish borasidagi intilishlari jiddiyligidan dalolat beradi.

Tajribali kredit inspektori ahamiyat beradigan omillardan yana biri mijozning bir joyda uzoq va doimiy faoliyat ko'rsatishi, yashashi hamda mashg'ul bo'lishidir. Ko'pgina banklar odatda ko'rsatilgan joyda bir necha oygina ishlayotgan shaxslar va yaqinda ro'yxatdan o'tgan firmalarga rad javobini beradilar.

Kredit inspektorlari "qarzlarni piramidasi" deb ataluvchi holatning paydo bo'lishini qo'llab - quvvatlamaydilar. "Piramida" holati bu qarzdor 1 ta bank yoki firmadan olgan qarzini to'lash uchun boshqa kreditordan qarz olishi tushuniladi. Mijozning kredit kartochkalari bo'yicha qarzining kattaligi, ko'pligi o'zining hisobidan yozib berilgan cheklarning tez tez qaytib kelishiga inspektorlar katta e'tibor beradi. Bunday dalillar asosida mijozning haqiqiy moliyaviy ahvoli va uning pul mablag'larini boshqarish qobiliyati haqida xulosa qilinadi.

Agar mijoz bilan ishlarni davom ettirish hal qilinsa, unda inspektor kredit dosesini yig'adi va uni kredit bo'limiga yuboradi. Bu bo'limda mijozning kreditga layoqatliligi chuqur o'rganiladi va kredit riskiga baho beriladi.

Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditni o'z vaqtida qaytarishning muhim shartidir. Davlat mulkchiligiga asoslangan jamiyatda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit mexanizmda muhim o'rinni egallay olmaydi. Banklar faoliyatiga davlat yakka hukmronligi ularning mustaqil sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishiga tusqinlik qiladi va kredit resurslari markazlashgan tarzda, reja asosida tasdiqlanadi. Eng xususiyatli tomoni shundaki, banklar beradigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil o'zlari belgilay oladilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit berishda e'tibor qilinadigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib qoladi. Chunki tijorat banki o'z faoliyati natijasi uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Kredit uchun foiz esa uning asosiy daromad manbai bo'lib qoladi.

Korxonaning kreditga layoqatliligini o'rganish tijorat bankiga kredit berish mumkinligini aniqlashga, uning miqdorini, foiz stavkasining darajasini belgilashga imkon beradi. Bundan tashqari, kreditga layoqatliligini aniqlash ssudani o'z vaqtida qaytarish ehtimolini, eng asosiysi bank riskini kamaytirishga imkon beradi.

Kreditga layoqatlilikni baholash korxonaning o'zi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlarning tahliliga asosan, ular mol etkazib beruvchilar haridorlar va boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishlari mumkin.

Ijobiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar hech qanday to'siqsiz kredit olishlari va uning hisobidan tovar moddiy boyliklarni sotib olishi, salmoqli mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga, oldindan olingan kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lashga yo'naltirishlari mumkin. Salbiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar bankdan kredit ololmasada, o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishlab chiqarish, sotuv hajmini, o'z mablag'lari miqdorini, rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha choralar ishlab chiqish lozimligi to'g'risidagi axborotga ega bo'ladilar.

Korxonalar va banklar uchun kreditga layoqatlilik ko'rsatkichining ahamiyati muhimligini hisobga olib biz kreditga layoqatlilik ko'rsatkichining iqtisodiy mohiyati to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko'rsatkichning mohiyati to'g'risida turli ta'riflarni uchratish mumkin. Ko'pgina mualliflar tomonidan kreditga layoqatlilikka, korxonalarining qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish imkoniyati sifatida ta'rif beriladi. Bizning fikrimizcha, bu ta'rif ko'proq korxonaning to'lovga layoqatliligiga berilgan ta'rifdir. Amaliyotda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi ko'proq bankdan qarz oluvchi korxonalar faoliyatini ifoda qiladi. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin:

- qarz oluvchi nuqtai nazaridan kreditga layoqatlilik;
- kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatini ifodalasa;
- bank nuqtai nazaridan - korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyatini bildiradi.

Ba'zi iqtisodchilar qarz oluvchining kreditga layoqatlilik ko'rsatkichini baholashda birinchi o'ringa korxonaning daromad olish imkoniyatini qo'yishadi. Bizning fikrimizcha, daromad olish - korxonaning ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat turining natijasi hisoblanib, shu natijaga erishish maqsadida korxonalar kreditga muhtojlik sezadi.

Agar qarzlarni to'lash miqyosida qaraydigan bo'lsak, kreditga layoqatlilikka nisbatan to'lovga layoqatlilik tushunchasi kengroqdir. Chunki to'lovga layoqatlilik jismoniy va huquqiy shaxslarning barcha qarz va majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatini ifodalaydi. Kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan farq qilib, ssuda bo'yicha qarzlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyatini ko'rsatadi. Undan tashqari kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan to'lash manbalari bilan ham farq qiladi.

Korxonalar, tashkilotlar o'z qarz, majburiyatlarini sotishdan tushgan tushum yoki boshqa har xil tushumlar hisobidan amalga oshirsa, kredit bo'yicha qarzlarni to'lash birinchi navbatda mahsulotni sotish hisobidan tushgan tushumdan amalga oshirilishi belgilanadi. Bank kreditini to'lash bo'yicha muammolar yuzaga kelganda, ssudani to'lashning kafolatlik manbalari qo'l kelishi mumkin. Bular:

- ssuda bo'yicha garov sifatida olingan mulk;
- boshqa bank yoki korxonalarining kafolati;
- sug'urtalash hisobidan qoplash va boshqalar.

YUqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, to'g'ri kredit bergan bank, korxonalar to'lovga layoqatli bo'lmagan holda ham bergan kreditni, to'liq yoki qisman qaytib olishni mo'ljallashi mumkin.

O'zining barcha ahamiyatiga qaramasdan bu ko'rsatkichlar ayrim ma'noda chegaralangan ahamiyatga ega. Birinchidan, ko'pgina ko'rsatkichlar, shu jumladan, moliyaviy ahvolni, kapitalning borligi va boshqalarni xarakterlovchi ko'rsatkichlar asosan o'tmish bilan bog'liq bo'lib, ular o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi, kelajakdagi kreditga layoqatlilikni rejalashtirish esa kelajakda ssudalarni qaytarilish imkoniyatlariga baho beradi. Ikkinchidan odatda bunday ko'rsatkichlar hisobot muddatiga qolgan qoldiq asosida hisoblanadi, vaholanki

ma'lum davrdagi oborotlar haqidagi ma'lumotlar ssudalarni qaytarish imkoniyatlarini to'laroq tasvirlaydi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishda ma'lumotlarning har xil manbalaridan foydalaniladi:

- a) bevosita mijozlardan olingan materiallar;
- b) mijoz haqidagi bank arxivida mavjud bo'lgan materiallar;
- v) mijoz bilan ish yuzasidan aloqada bo'lgan shaxslar (uning mol etkazib beruvchilari, kreditorlari, uning mijozlari, banklari va boshqalar) tomonidan berilgan ma'lumotlar;
- g) xususiy va davlat agentliklari va tashkilotlarining hisobotlari va materiallari (kreditga layoqatlilik haqidagi hisobotlari, investitsiya bo'yicha ma'lumotnomalar va boshqalar).

Bunday tashkilotlar hozirchalik bizning amaliyotimizda yo'q. Biz oldingi boblarda shunday agentlik zarurligi to'g'risida gapirib o'tgan edik.

Bank tomonidan o'rganib chiqilgan materiallarni va mijoz tomonidan berilgan bevosita ma'lumotlarni olgan kredit bo'limining ekspertlari o'z bank arxiviga murojaat qiladi. Agar mijoz oldin ham kredit olgan bo'lsa arxivda uning qarzini kechiktirib to'langanligi va boshqa kamchiliklari haqidagi ma'lumot bo'ladi. Undan tashqari bank boshqa kredit tashkilotlari bilan aloqa o'rnatib, ushbu qarzdor to'g'risida ma'lumot olishi mumkin.

Kredit arizasini baholashda kredit bo'limi xodimlari aniq qarz oluvchi bilan bog'liq savollarni ko'rib chiqibgina qolmay, u faoliyat ko'rsatayotgan mintaqa, tarmoqlarda yuzaga kelgan iqtisodiy ahvolni ham hisobga olishlari lozim.

Kredit berish bo'yicha sifat tahlili ham bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

- a) qarz oluvchi obro'sini o'rganib chiqish;
- b) kredit maqsadini aniqlash;
- v) asosiy qarz va foizlarning qaysi manbalar hisobidan qoplanishini aniqlash;
- g) bank qisman o'z bo'yniga oladigan qarz oluvchining risklarini baholash.

Qarz oluvchining reputatsiyasi sinchkovlik bilan tekshiriladi, bunda mijozning kredit tarixini o'rganib chiqish juda muhimdir. Korxonalar rahbarining shaxsiy va ish bilan bog'liq bo'lgan xislatlariga ham katta e'tibor beriladi.

### **Kreditga layoqatlilikning asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlari**

Korxonalarning kreditga layoqatliligini aniqlashda turli xil ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ko'rsatkichlar soni chegaralanmagan, ya'ni qarz oluvchining faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir tijorat banki uni o'zi mustaqil aniqlaydi. Banklar orqali qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash turlicha bo'lishi mumkin, lekin ularning hammasi ma'lum bir andozaga tushirilgan moliyaviy koeffitsientlardan foydalanadilar. Ularga:

- qoplash koeffitsienti;
- likvidlilik koeffitsienti;
- mustaqillik(muxtoriylik) koeffitsienti, ya'ni o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti kiradi.

Likvidlilik mijozning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini (qoplanishini) bildiradi. Likvidlilik va qoplash koeffitsientlari qarz oluvchining balans likvidliligini, ya'ni passivdagi majburiyatlarni qoplash uchun aktivdagi pul mablag'larining etarlilik imkoniyatlarini tasvirlaydi.

Qoplash va likvidlilik koeffitsientlari balansning aktiv va passivlarini solishtirish yuli bilan hisoblanadi. Likvid mablag'lar o'zining tez pulga aylanishi darajasiga qarab 3 guruhga bo'linadi.

**Birinchi guruh likvid mablag'larga:**

- pul mablag'lari, jumladan hisob - kitob varag'i;
- valyuta hisob varag'idagi;
- boshqa hisob varaqlardagi va kassadagi pul mablag'lari kiradi.

**Ikkinchi guruh likvid mablag'lariga tez pulga aylanadigan talablar (bu talablarning muddati odatda 3 oydan oshmasligi lozim):**

- ishonchli debitorlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob - kitoblar;
- muddati 3 oygacha bo'lgan avans to'lovlar;
- byudjet bilan hisob - kitoblar;
- korxonalar bilan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgan boshqa operatsiyalar;
- ishchi - xizmatchilar bilan hisoblashlar;
- ta'sischi hamda boshqa debitorlar bilan hisob – kitoblar.

Ikkinchi guruh likvid mablag'larning aksariyat qismini yaqin 3 oy ichida to'lanish lozim bo'lgan debitorlar tashkil qiladi. SHuning uchun kredit berishda bu likvid aktivlarning haqiqatda 3 oy ichida pulga aylanish ehtimolini chuqur tahlil qilish lozim.

- 3 oy da to'lanishi lozim bo'lgan veksellar;
- xorijiy korxonalar bilan hisob - kitoblar;

**Uchinchi guruh likvid mablag'lariga tez sotiladigan tovar moddiy qimmatliklarining zahiralari bo'yicha talablari kiradi:**

- ishlab - chiqarish zaxiralari va kelgusi davr xarajatlari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- tayyor mahsulot;
- tovarlar;
- boshqa zahiralari va harajatlar kiradi.

Qisqa muddatli majburiyatlarni aniqlashda:

**a) o'zgartirishlar kiritmasdan quyidagi ko'rsatkichlar olinadi:**

- qisqa muddatli qarzlari;
- qisqa muddatli kreditlar;
- buyurtmachilardan tushgan avanslar;

Kreditorlar:

- mol etkazib beruvchilar oldidagi qarzlari;
- byudjetga qarzlari;
- ish haqi bo'yicha qarzlari;
- ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzi;
- mulk va shaxsiy sug'urtalash bo'yicha qarzi;
- byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzi;

- sho‘ba korxonalar bo‘yicha qarzlari;
- uyushma korxonalar bo‘yicha qarzlari;
- boshqa kreditorlar;

b) o‘zgartirishlar kiritilib quyidagi ko‘rsatkichlar olinadi (yaqin uch oy muddatga):

- uzoq muddatli qarzlari;
- uzoq muddatli kreditlari;

Uchinchi guruh likvid mablag‘larini tahlil qilganda, tovar - moddiy boyliklarning haqiqatda ishlab chiqarish uchun zarurligiga e‘tibor berish lozim. Kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichlarini hisobga olganda aylanma aktivlar tarkibiga:

• korxonada omborida turib qolgan, ishlab chiqarish uchun zrrur bo‘lmagan tovar moddiy boyliklari;

- ishlab chiqarishdan olib tashlangan tovarlari;
- talab bo‘lmagan, sifatsiz tovar - boyliklari;
- qiyin sotiladigan tovarlari va boshqalar qo‘shilmasligi kerak.

Agar mijozning likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlaridan ikki barobar va undan ortiq bo‘lsa, mijoz moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi.

Mijoz balansi va boshqa moliyaviy hujjatlarga asosan kreditga loyoqatlilik ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

Likvidlilik koeffitsienti (Kl) quyidagicha hisoblanadi:

$$K_l = \frac{1, 2 \text{ va } 3 \text{ guruh likvid mablag‘lar}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}$$

Qoplash koeffitsienti (Qp)ni hisoblashda barcha likvid mablag‘larning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati olinadi. Qoplash koeffitsienti likvidli aktivlar qanchalik darajada qisqa muddatli majburiyatlarni qoplay olishi mumkinligini ifodalaydi. Agar korxonaning likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlarini 2 va undan ortiq barobar qoplasa, sub‘ektning moliyaviy ahvoli shunchalik barqaror hisoblanadi. Ba‘zi hollarda ho‘jalik sub‘ektlari faoliyatida ehtiyojdan yoki normativdan ortiqcha tovar moddiy boyliklari (ayniqsa, mavsumiy korxonalarda) zahiralarning yuzaga kelishi yaxshi ishlaydigan korxonalarda ham qoplash koeffitsientining past bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Lekin qoplash koeffitsienti 1 dan kam bo‘lmasligi lozim. Qoplash koeffitsientining 1 ga tengligi likvid aktivlar kreditlari va zayomlari hisobidan tashkil qilinganligi va likvid aktivlarni tashkil qilishda korxonaning o‘z mablag‘lari ishtirok qilmaganligini ko‘rsatadi. Qachoki qoplash koeffitsienti 1 dan kichik bo‘lsa, xo‘jalik sub‘ektining moliyaviy ahvolidan muammolar borligi, uning barqaror emasligi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin chunki korxonada o‘z majburiyatlarini qoplay olmaydi:

$$K_l = \frac{1 \text{ va } 2 \text{ guruh likvid mablag‘lari}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}$$

Qoplash koeffitsienti mijozning qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash uchun barcha turdagi aylanma mablag'larning etarli darajasini aniqlashga imkon beradi.

Likvidlilik koeffitsienti qarz oluvchi o'z mablag'lari hisobidan qarzning qancha qismini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi, ya'ni bu koeffitsientdan mijozning yaqin kelajakda operativ ravishda bankka qarz to'lab berish qobiliyatini prognozlash uchun foydalaniladi. Likvidlilik koeffitsienti qancha yuqori bo'lsa, kreditga layoqatlilik shuncha yuqori bo'ladi.

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi muxtoriylik koeffitsienti umumiy korxonalar balansini passivining qancha qismi korxonaning o'z manbalaridan tashkil topganligini baholaydi va qarz mablag'lari ichidagi korxonalar mustaqilligini aks ettiradi.

Moliyaviy mustaqillik yoki muxtorlik koeffitsienti ( $K_m$ ) mijozning o'z mablag'larining barcha mablag'lar manbalari ichida tutgan salmog'ini, ya'ni korxonalar faoliyatining qancha qismi o'z kapitali hisobidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_m = \frac{\bar{\text{O'z mablag'lari manbalari}}}{\text{Balans summasi}} \times 100\%$$

Bank uchun kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari kredit shartnomasi tuzilayotganda risk darajasini aniqlash nuqtai nazaridan muhimdir. O'z mablag'lari manbalari va uning hajmi qanchalik katta bo'lsa, mijozning o'z vaqtida qarz majburiyatlarini to'lash qobiliyati shuncha yuqori bo'ladi. Korxonalar kreditlash uchun uning o'z mablag'lari manbalari bilan ta'minlanganligi 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

**Xo'jalik ob'ektlarining o'z mablag'lari manbalari tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- ustav fondi;
- rezerv fondi;
- boshqa tashkil qilingan fondlar;
- o'tgan va hisobot yillaridagi taqsimlanmagan foyda.

Korxonalar o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi 30% dan kam bo'lmasligi kerak. Aylanma aktivlarining aylanish tezligi va korxonalar faoliyatidan kelib chiqqan holda bu ko'rsatkich o'ziga past bo'lishi ham mumkin. Agar bu ko'rsatkich 60% dan yuqori bo'lsa, kredit bo'yicha riskni minimal deb qarash mumkin.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning natijasi me'yoriy talablar bilan taqqoslanadi va korxonalar moliyaviy ahvoli aniqlanib, kredit berish mezonlari belgilanadi. Kredit berish bo'yicha sinflarga ajratishda quyidagi talablar hisobga olinadi.

**Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlarni sinflarga ajratish bo'yicha talablar**

№	Ko'rsatkichlar	I sinf	II sinf	III sinf
1.	Qoplash	$K_q > 2,0$	$2,0 > K_q > 1,0$	$1,0 > K_q$

	koefitsienti (Kq)			
2.	Likvidlilik koefitsienti (Kl)	$Kl > 1,5$	$1,5 > Kl > 1,0$	$1,0 > Kl$
3.	Muxtorlik koefitsienti (Km)	$Km > 60\%$	$60\% > Km > 30\%$	$30\% > Km$

Kreditga layoqatlilikning har bir sinfdagi korxonalariga banklar har xil kredit munosabatlari tuza oladilar. 1 - sinfga mansub qarz oluvchilarga bank kredit liniyasi ochishi, kontokorrent hisob raqami bo'yicha kredit berishi, boshqa qarz oluvchilarga nisbatan past foizlarda ishonchli kreditlar berishi, kreditlar bo'yicha ta'minganlik talab qilinmasligi mumkin.

2 - sinfga mansub qarz oluvchiga esa umumiy asoslarda va odatdagi tartibda, ya'ni majburiyatni muvofik, shaklda ta'minlanishi (kafolat, garov, kafillik) sharoitida kredit beriladi., agar uning qo'shimcha ko'rsatkichlari ijobiy holda bo'lsa, unda unga imtiyozlar berilishi mumkin, ammo ishonchli kreditlar berilmaydi. Agar qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha kamchiliklar bo'lsa, uning moliyaviy ahvoli nobarqaror deb topilishi va uni yaxshilash uchun choralar ko'rishni talab qilish, kredit bo'yicha garovni mustahkamlash, foiz stavkalarin oshirishi, ssudaning summasini va muddatini cheklash choralari ko'rish mumkin.

Bank uchun 3 - sinfga mansub korxonalarini kreditlash jiddiy risklar bilan bog'liqdir. SHuning uchun ular kamdan - kam holatlarda va yuqori turadigan korxonalar kafolati hamda mulkni garovga qo'ygan holatda eng yuqori foizlarda kreditlanadilar.

Agarda tahlil bo'yicha mijozning moliyaviy holatida qoplash koefitsienti 0,5dan ( $kk < 0,5$ ) kichik bo'lsa, likvid mablag'lari juda kam bo'lsa yoki umuman mavjud bo'lmasa va uning o'z mablag'lari miqdori ham kam bo'lsa, u nolikvid balansga ega bo'lgan, moliyaviy holati nochor korxonaga deb qaraladi va uni 4 - sinfga kiritish mumkin va bunday korxonalariga odatda umuman kredit ajratilmaydi.

Mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashning muhim bir xususiyati shundaki, yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar korxonaning kreditga layoqatliligini baholashning yakuniy ko'rsatkichlari hisoblanmaydi. Mijozlar faoliyati va ularning moliyaviy ahvolini yanada chuqurroq ko'rib chiqishda hamda kreditga layoqatliligining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha mijoz turli xil sinflarga taalluqli bo'lib chiqsa, u holda moliyaviy ahvoli haqida tug'ri xulosaga kelish uchun kreditga layoqatlilik darajasini baholashning qo'shimcha ko'rsatkichlarini tahlil qilish lozim bo'ladi.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, mijozning moliyaviy holatini baholashda aniq bir xulosaga kelish uchun kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlariga qo'shimcha sifatida kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Korxonaning kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari asosan

mijozning aylanma aktivlari holatini yanada chuqurroq tahlil qilishni ko'zda tutadi. Ma'lumki, qisqa muddatli kreditlar xo'jalik sub'ektlarining aylanma aktivlariga beriladi. SHuning uchun mijozning kreditni o'z vaqtida bankka qaytara olish qobiliyati ham uning aylanma aktivlaridan foydalanishidagi samaradorlik darajasiga qarab belgilanadi. Xo'jalik sub'ektlari aylanma aktivlardan qanchalik samarali foydalanayotgan bo'lsa va aylanma aktivlarning aylanish tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, kreditdan foydalanish samarasi va uni o'z vaqtida bankka to'lash imkoniyati ham shunchalik yuqori bo'lishi mumkin. Biz aylanma mablag'larning samaradorlik ko'rsatkichlari to'g'risida oldingi paragraflarimizda kengroq to'xtalgan edik. SHu bois biz qisqacha bo'lsada kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlarini keltirib o'tmoqchimiz. Bu ko'rsatkichlardan biri bu aylanma aktivlarning aylanish koeffitsienti hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning aylanishi koeffitsienti (Kl) joriy aktivlarning aylanish tezligi va aktivlarga qo'yilgan mablag'larning pul mablag'lariga aylanish tezligini xarakterlab, u ma'lum davr (oy, kvartal, yil) ichida aylanma mablag'lari necha marta aylanganligini ifodalaydi:

$$K_{ob} = \frac{\text{Реализация қилинган маҳсулот ҳажми}}{\text{Айланма маблағларнинг ўртача хронологик қолдиғи}}$$

Kobni hisoblash aylanishni prognozlash va kreditlash muddatini aniqlashga imkon yaratadi. Aylanma aktivlarning aylanishi koeffitsienti aylanma aktivlarning harakati tezligini ifodalaydi va tahlil qilina?tgan davrda mahsulotni sotishdan tushumlarning cheklanishi hamda aylanma aktivlarning o'rtacha qiymatini hisoblab borishga imkon yaratadi.

SHuningdek, aylanma aktivlarning kunlarda aylanishini ham hisoblash mumkin. Bu ko'rsatkich korxonada aylanma mablag'larining bir marta aylanishi (P-T-I/CH-T-P) uchun necha kun ketishini ko'rsatadi (kunlarda):

$$A_k = \frac{\text{Айланма маблағларининг ўртача қолдиғи}}{\text{Реализация ҳажми}} \times 360 \text{ кун айланиши}$$

Aylanma aktivlar aylanishiga qancha kam kun ketsa, korxonaning foyda olishi, binobarin kreditni bankka to'lashi shuncha tez amalga oshiriladi.

Mijozning moliyaiviy ahvolini xarakterlovchi yana bir muhim ko'rsatkich - bu ularning o'z aylanma mablag'larining haqiqiy mavjudligini tasdiqlovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

O'z aylanma mablag'larining mavjudligi ko'rsatkichi (O'AyMM) Quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{O'AyMM} = \frac{\bar{Uz\ mablag'lari}}{\bar{manbalari}} - \frac{Uzoq\ muddatli\ aktivlar}{(110-330\ balans\ qatorlari)} - \frac{}{qoplanmagan\ zararlar}$$



Agar korxonaning asosiy aktivlari o'z mablag'lari manbalaridan yuqori bo'lsa, u holda korxonalar balansini nollikvid ekanligini ko'rsatadi. Nollikvid balansga ega bo'lgan korxonalar bank kreditlaridan foydalanish huquqidan mahrumdirlar.

Mijozning moliyaviy holatini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin .

***Mijozning qarzi mablag'lari salmog'i.***

$$\text{Qarzi mablag'lari ko'effitsienti} = \frac{\text{Qarzi mablag'lar}}{\text{Barcha mablag'lar}}$$

$$\text{Mijozning uz mablag'lari salmog'i} = \frac{\text{Uz mablag'lari}}{\text{Barcha mablag'lar}}$$

***O'z mablag'larining aylanuvchanligi ko'effitsenti.***

$$\text{Uzlik mablag'lar aylanuvchanligi ko'effitsienti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Uz mablag'lar}}$$

***Qarzi mablag'lar aylanuvchanligi ko'rsatkichi.***

$$\text{Qarzi mablag'lar aylanuvchanligi ko'effitsienti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Qarzi mablag'lar}}$$

Firmaning o'z qarzdorlari (debitor) hisob raqamlari hisobidan qanchalik tez to'lovlarini amalga oshirishini ko'rsatuvchi ko'effitsent.

$$\text{Debitorlik qarzlari aylanuvchanligi ko'effitsienti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Debitorlik qarzlari}}$$

Firmaning qanchalik kreditorlar oldida o'z majburiyatlarini qoplay olishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich:

$$\text{Kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi ko'effitsienti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Kreditorlik qarzlari}}$$

***Asosiy vositalar aylanishini ifodalovchi ko'rsatkich:***

$$\text{Asosiy aktivlar aylanuvchanligi ko'effitsienti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Asosiy aktivlar}}$$

Har bir so'm o'zlik mablag'lariga to'g'ri keluvchi foyda miqdorini ko'rsatuvchi ko'rsatkich:

$$\frac{\text{Ўзлик маблағлар рентабеллигининг коэффициенти}}{\text{Ўзлик маблағлар}} = \frac{\text{Фойда}}{\text{Ўзлик маблағлар}}$$

Mijozning to'lovga layoqatliligini tahlil qilish deganda mijozga berilgan kreditni ishlata olish va qaytarib bera olish imkoniyatini o'rganish tushuniladi. Dunening ko'p mamlakatlarida mijozning kredit layoqatliligi turlicha aniqlanadi.

AQSHda mijozning kreditga layoqatliligini baholash va kredit riskini minimallashtirish maqsadida 5 "S" nomini olgan usuldan foydalaniladi. Bu usul asosida mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi.

- customer character - mijozning obrusi;
- capacity to pay - to'lovga layoqatliligi;
- capital - kapital;
- collateral - ssudaning ta'minlanishi;
- current business conditions and goodwill - iqtisodiy holati va uning kelajagi.

Bu usul bo'yicha mijozning obro'si, mas'uliyat darajasi, qarzni to'lashga bo'lgan istagi va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval bank mijozning: o'tmishda o'z majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi; qarzlarni to'lashda kamchiliklar bo'lganligi; kreditlanuvchi subektning iqtisodda, bozorda qanday mavqega ega ekanligini tekshiradi. Bunda bank qarzdor bilan suhbat olib boradi, arxivdan mijoz to'g'risida materiallarni olib, tahlil qiladi, boshqa firma va banklar bilan maslahatlashadi va hokazo.

Qarzdorning to'lov qobiliyatida uning moliyaviy imkoniyatlari, uning kreditni to'lash qobiliyati qarzdorning foyda va zararlari hamda kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar puxta tahlil qilish orqali aniqlanadi. Unda bank qarzni to'lash bo'yicha mijoz mablag'larining 3 manbasini chuqur o'rganib chiqadi. Bular:

- joriy kassa tushumlari (cash flow);
- aktivlarni sotish;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari (jumladan, pul bozoridagi qarzar).

SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, bank asosiy e'tiborini boshqa omillarga ham, jumladan, firmalarning aksiyador kapitaliga, uning tuzilishiga, aktiv va passivlarning boshqa moddalariga bo'lgan nisbatiga hamda qarzning ta'minlanishiga, uning etarlilik darajasiga, sifatiga va qarzni to'lamaslik holida garovni sotish darajasiga qaratadi.

So'ngra, kreditga bo'lgan talabnomani qarab chiqqanda umumiy shart-sharoitlar jumladan; davlatdagi ishbilarmonlik iqlimini aniqlovchi va bank bilan birgalikda qarzdorning holatiga ta'sir etuvchi omillar: iqtisodiy ahvol, monand tovar bo'yicha boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatning mavjudligi, soliqlar, xom ashyoga narx-navolar va boshqalarga e'tibor qaratiladi.

Angliya banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashda savollar varag'i mavjud. Savollarga javoblar bankka kredit berish karorini qabul qilishga imkon beradi. Quyida shunday savol-varaqning namunasini keltiramiz.

Avvalambor qarz oluvchi (borrower)ga ta'rif beriladi. Uning oilasi, obro' - e'tibori, sofdilligi, bankka tanishligi, bank bilan munosabatlari. Boshqaruv tarkibi malakasi - ma'lumoti, mutaxassislik bo'yicha staji, boshqara olish qobiliyati.

To'lovga qobillik - to'lov intizomiga rioya qilish, biznes talablariga resurslarning mosligiga e'tibor beriladi. Keyin esa quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tekshiriladi:

1. Purpose (kredit maqsadi). Qonuniyligi, bank kredit siyosatiga to'g'ri keladimi va boshqalar;

2. Amount (kredit summasi) kredit summasini hisoblashda aniqlik. Tasdiqlovchi hujjatlar mavjudmiyo so'ralgan summa etarli, kam yoki ko'pligi;

3. Repayment (qaytarish) kredit kachon qaytariladiyo qaytarilish grafigi mavjudligi qaytarilish manbasi - kelajak daromadlari, qisqa muddatli kreditlar, aktivlarni sotish qarz oluvchi pul okimlarini bashorat qilish;

4. Viability (kreditlanayotgan loyihaning realligi) mazkur kredit qanchalik zarur texnik - iqtisodiy asoslar bajarilganmi. Mazkur kompaniya hisobvaraqlari tahlil qilinganmiyo qarz oluvchi balansi baholanganmi;

5. Risks (risklar). Bank va kompaniya uchun risklar manbalarini mujassamlanganligi riskning oldini olish chora - tadbirlarini amalga oshirish mumkinmi;

6. Security (ta'minlanganlik). Ta'minot taqdim etilmoqdami u mavjudmi. Garovlarni sug'urta polislarini tekshirish. Garov qiymati kanday? Garovni qayta baholash bo'lib o'tadimi, qachon?

7. Profitability (foydalilik) kredit shartnomasida daromad va xarajatlar aniq ta'riflanishi lozim. Foiz darajasi bank tortilgan riskka mos keladimi? Foiz darajasi, xarajatlarni qoplaydimi?

YUqoridagilarni o'zida ifoda qiluvchi "Parts" nomli qarz oluvchi qobiliyatini tahlil qilish usuli keng tarqalgan bo'lib, unda:

- Purpose - kreditning maqsadi;
- Amount - ssudaning hajmi;
- Repayment - qarzni to'lash;
- Term - muddati;
- Security - ssudaning ta'minlanganligi kabilar tahlil qilinadi.

Mijozlarning kreditga layoqatliligini tekshirishning boshqa usullari ham mavjud. Mijozning kreditga layoqatliligi asosida mijozning faoliyatini xarakterlaydigan zarur axborotlarni yig'ish yotadi. AQSH va boshqa G'arb mamlakatlarida mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda banklar uchun maxsus huquqiy norma va qonunlar mavjud. Mijozlar hisobotlarini banklar tomonidan tahlil qilinishi ikki xil ko'rinishga ega: ichki va tashqi ko'rinishga ega. Tashqi tahlil shu qarz oluvchi faoliyatini boshqalar bilan solishtirishdan iborat. Ichki tahlil esa moliyaviy hisobotlarning turlicha qismlarini ma'lum vaqt oraligida solishtirishdan iboratdir.

Xorijiy davlatlar amaliyotida mijozning pul oqimi chuqur tahlil qilinadi.

Pul oqimi mijozning o'z xarajatlarini qoplash va qarzlarni o'z resurslari hisobidan to'lash qobiliyatining o'lchamidir. Bunday tahlil turlicha olib boriladi, jumladan, bu maqsadda qarz oluvchining pul mablag'larining harakat hisobotidan

foydalanishi mumkin. Buning uchun mijoz pul mablag'larining harakati haqidagi hisoboti tuziladi va u quyidagi savollarga javob berishiga imkoniyat beradi:

- Mijoz kelajakda moliyaviy aktivlarning o'sishi uchun o'zini pul mablag'lari bilan ta'minlay oladimi?

- Qarz oluvchi faoliyatining o'sish sur'ati tashqi manbalardan moliyalashtirish zarur bo'lgan darajada tezligi.

- Qarz oluvchi keyingi investitsiyalashdan paydo bo'lgan qarzni qoplash uchun ortiqcha pul mablag'lariga egami?

Bank amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligini tekshirishning to'g'ri va egri usullari mavjuddir.

To'g'ri usullardan kam foydalaniladi. Bunda mijoz tomonidan to'plangan ballar, u olishga haqli bo'lgan ssuda summasiga tenglashtiriladi.

Egri usullar esa juda keng tarqalgan. Uning mazmuni turlicha baholash ko'rsatkichlariga ma'lum ballar berishdan iboratdir. Buning natijasi bo'lib mijozning kreditga layoqatliligini sinfini aniqlash xizmat qiladi. O'z - o'zidan ayon bo'lib turibdiki, mijozning kreditga layoqatliligini baholashda ballar tizimidan foydalanish - eng ob'ektiv va iqtisodiy asoslangan qarorlarni qabul qilish jarayonidir. YAgona muammo shundan iboratki, bunda mijozning kreditga layoqatliligini baholash bo'yicha axborotlarning yangilanishi talab qilinadi, bu esa o'z navbatida, bank uchun juda qimmatga tushishi mumkin. SHuning uchun uncha katta bo'lmagan banklar odatda axborot bazasining cheklanganligi va ko'p xarajatligi tufayli mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda "koeffitsientlar" usulidan foydalaniladi.

To'lovga layoqatlilikni tahlil qilish asosida mijozning faoliyatini to'laroq aks ettiruvchi ma'lumotni yig'ish yotadi. AQSH va boshqa G'arb davlatlarida to'lovga layoqatlilikni aniqlashda bank tomonidan qo'llaniladigan ma'lumotlarni yig'ish tartibi va ma'lumot hajmiga tegishli maxsus yuridik normalar ishlab chiqilgan. Unda ko'rsatilishicha to'lovga layoqatli bo'lgan ixtiyoriy qarz oluvchiga kredit berish mumkin. AQSH Kongressi "Teng kredit olish imkoniyati to'g'risida"gi (ECOA) -Equal Credit Opporunities Act) qonunni qabul qilgan. Qonunga muvofiq kreditorlar tomonidan kredit qarz oluvchilarning yoshi, oilaviy ahvoli, jinsi, dini va millatiga qarab ajratilmasligi kerak. Kredit haqiqatda mijozning kredit to'lay olish qobiliyatiga qarab ajratilishi lozimligi ko'zda tutilgan.

Mijozni to'lovga layoqatliligini aniqlashda va bank tomonidan anketa to'ldirishda asosiy mezonlarni belgilaydigan boshqa bir yuridik hujjat AQSH FRT tomonidan qabul qilingan "V" yo'riqnomasidir. Bu yo'riqnomada qaysi ma'lumotlar mijozni to'lovga layoqatliligini aniqlashda balli tizim qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan; mijozga qarshi ishlatiladigan ma'lumot yig'ishdagi cheklovlar ham ko'rsatib o'tilgan.

Masalan, qarz oluvchi majburiyatlari bo'yicha javobgarligidan qat'iy nazar o'z oilasi haqida anketaga ma'lumot yozishi kerak.

Kreditorlar esa kredit olish uchun arizani olganlaridan keyin 30 kun mobaynida mijozning kredit olish imkoniyati haqida unga xabar qilishi kerak.

Masalan, Buyuk Britaniya Parlamentida 1993 yil mamlakatning yirik banklaridan biri (N) National Westminster Bank ko'p yillar davomida o'z mijozlaridan siyosiy axborotlar va so'rovlar olganligi haqida tortishuvlar bo'lgan.

AQSHda qonun qarz oluvchining oilaviy ahvoli va holati, telefoni bor-yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni mijozlardan yig'ish imkoniyatini banklar uchun cheklab qo'ygan.

CHet el adabiyotlarida mijozning kuchli va kuchsiz tomonlari, uning imkoniyatlari va riskini aniqlashda "SWOT" (S - strong, W - weak, O - opportunities, T - threat) metodidan foydalanilishi mumkinligi to'g'risida fikr bildirilgan. Bunda mijozning to'lovga layoqatlililigining asosiy mezonlari ; ya'ni:

- qarz olish uchun ariza beruvchilarning kuchli tomonlari;
- qarzorning kuchsiz va bo'sh tomonlari;
- qarz oluvchining muvaffaqiyati uchun qaysi omillar muhimligini aniqlash;
- kredit berishdagi risk darajasi kabi ko'rsatkichlar o'rganib chiqiladi.

Mijozning moliyaviy hisobotining bankirlar tomonidan tahlil qilishning ikki xil shakli bor: Ichki va tashqi tahlil. Ichki tahlilda mijoz hisobotining muhim elementlari bir-biriga taqqoslanadi va ma'lum vaqt davomida o'zgarishi tahlil qilinadi. Tashqi tahlilda qarz oluvchi boshqa qarz oluvchilar bilan taqqoslanadi.

Ichki tahlil koeffitsientlar tahlili bo'lib, uning ikkita kamchiligi bor: 1) Koeffitsientlar mijoz operatsiyalari qanday o'tayotganligi to'g'risida ma'lumot bermaydi; 2) Tahlilda o'tib ketgan ma'lumotlardan foydalaniladi, lekin kredit kelajakdagi faoliyat uchun beriladi.

Ko'pgina g'arb mamlakatlarida mijozlarning to'lovga layoqatliligini baholash quyidagi yunalishlarda olib boriladi:

1. **Personal capacity** - qarz oluvchining shaxsiy fazilatlarini (odilligi, maqsadining jiddiyligi yaxshi ishchi sifatida tavsifi va boshqalar);

2. **Revenues** - mijoz daromadi, oilaning yalpi daromadi tahlili. Bunda mijozning kreditni qoplash xarajatlarini uning oylik daromadlarining 1/3 qismidan oshmasligi kerak.

3. **Material capacity** - ssudaning ta'minlanishi, mijozning ko'chmas va boshqa mulklari tahlili;

Ko'pincha mijozning pul oqimlari to'g'risida ma'lumot talab qilinadi.

**Pul oqimi (cash flow)** - bu mijozning xarajatlarini va majburiyatlarini qoplash uchun xususiy resurslarining etarliligi yoki yo'qligini o'lchaydi.

Rivojangan mamlakatlarda mijozni kreditlashning muhim jihati kredit berish jarayonining (yuridik va jismoniy shaxslarga) markazida inson turadi. Masalan, Germaniyada qanday kredit olishdan qat'iy nazar, qarz oluvchi o'zining shaxsiy fazilatlarini va to'lovga layoqatliligi to'g'risida bir qator hujjatlarni bankka berishi lozim.

Kredit berish jumbog'ini echishda nemis bankini qiziqtiradigan muammolar quyidagilardan iborat:

1. Tadbirkorning shaxsiy xarakteri: xulq-atvori, qiliqlari, tashqi ko'rinishi, odati, ta'sirchan talaffuzi, odillik darajasi (iqtisodiy va moliyaviy holati to'g'risida ochiq so'zlashi), yoshi, oilaviy holati, jamoat ishlarida o'rni, mansabi va xobbisi;

2. Umumiy ma'lumoti: o'quv yurtini tugatganligi to'g'risidagi diplom nusxasi, kvalifikatsiyasi, riskka qo'l urishi, iqtisodga qiziqishi, rejalashtirish qobiliyati;

3. Jismoniy holati: sog'ligi holati, (oldingi kasalliklarini xisobga olgan holda), sport bilan shug'ullanishi;

4. Texnik bilim saviyasi: maxsus o'quv yurti, tajribasi, ishga ixtisoslashuvi;

5. Mulki: tashkilot ishlarida qatnashish darajasi, shaxsiy mulki, ko'chmas mulkka egalik qilishi, daromadning boshqa manbalari, korxonada daromadidan shaxsiy foydasi, shaxsiy qarzlari, soliq majburiyatlari, oila a'zolarining mulkiy holati, musobaqalarda ishtiroki.

Savollarga javoblar bank bo'limida suhbat, telefon yoki anketa berish orqali aniqlanishi mumkin. Nemis banklarida mijozning to'lovga layoqatliligini baholashda arizaning "Oylik daromad hisobi" bo'limi asosiy o'rin egallaydi.

<b>A: Oylik daromad</b>	<b>V: Oylik xarajati</b>
soliqdan tashqari maosh	joriy xarajatlar
bolalar uchun olinadigan nafaqalar	sug'urta badallari
pensiya	oldingi kredit uchun to'lovlar
omonatlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar	kvartira to'lovlari
boshqa daromadlar	boshqa xarajatlar
<b>JAMI: A</b>	<b>JAMI: V</b>

### **S: Ixtiyoridagi daromad (A - V)**

Hozirgi vaqtda Germaniyadagi barcha tijorat banklari individual shaxslarga berilgan ssudalar to'g'risida Bundes bankning maxsus departamentiga ma'lumot berishlari shart. Bu bankning shu sferadagi faoliyatini nazorat qilishga imkoniyat yaratib beradi.

Fransiya va Belgiyada tijorat banklari Markaziy bankdan individual ssudalarni to'lamaydiganlar haqida ma'lumot olish huquqiga ega. Lyuksemburgda bank sirini saqlash zaruriyati tufayli bu huquq ishlatilmaydi. Lekin, mijozning, masalan, jamg'arma depozitini ssuda olingan bankka ko'chirish imkoniyati banklar uchun yaratilgan. Bulardan tashqari mijoz kreditni to'lay olmasa, maoshidan akseptsiz shaklida undirib olish huquqini bankka beradi.

Bular bilan bir qatorda mijoz obro'sini baholash ham juda muhimdir. Buni baholashning bir yuli - kredit skoring yulidir. Skoringni (ochko, ball yig'ish) har bir bank holati, vaziyatiga qarab o'zlari ishlab chiqadilar.

Kredit skoring modeli birinchi bo'lib, amerika iqtisodchisi D.Dyuran tomonidan 1940 yillar boshida ishlab chiqilgandi. U ball hisoblashda quyidagi koeffitsientlarni qo'lladi:

1. YOshi: 20 dan yuqori bo'lgan har bir yil uchun 0,1 bal (maksimum - 0,3);
2. Jinsi: Ayol - 0,4; erkak - 0;

3. YAshash muddati: berilgan joyda yashagan har bir yili uchun 0,042 ball (maksimum - 0,42);

4. Kasbi: kichik riskdagi kasb uchun - 0,55, yuqori riskdagi kasb uchun - 0,16 - boshqa kasblar uchun;

5. Bandligi - 0,059 - bir koorxonadi ishlagan har bir yili uchun(maksimum - 0,59);

6. Moliyaviy ko'rsatkichlari: 0,45 - bankdagi mablag'lari uchun; 0,35 - kuchmas mulkka egaligi uchun, 0,19 - hayoti sug'urta polisi uchun.

Bu koeffitsientlarni qo'llash bilan Dyuran "yaxshi" va "yomon" mijoz o'rtasidagi chegarani 1,25 ball deb oldi. 1,25 balldan yuqori balli mijozlar kreditga layoqatli hisoblangan, bundan kam ball yiqqanlar esa kreditga layoqatsiz deb topilgan.

Hozirda AQSH banklari idividual shaxslarni kreditlashda turli xil yondashuvlar ishlab chiqmoqdalar. Har bir bank o'zining xususiy tizimini ishlab chiqmoqda. Ko'pgina Amerika banklari o'z amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda ikki xil usuldan foydalanadilar:

1. banklar birinchi mijozni bank talablari yuzasidan tekshirib chiqadi va kredit berish yoki bermaslikni hal qiladi.

2. kreditga layoqatlilikni baholashda balli tizimdan foydalaniladi. Bunda matematik korrelyasion tahlil va omillar tahlilidan foydalaniladi.

Banklar mijoz balansining moddalari va bo'limlari orasidagi turli proporsiyalarni ta'riflovchi boshqa moliyaviy koeffitsientlarni ham hisoblaydi. Banklar bu koeffitsientlarni me'yoriy kattaliklarini belgilaydilar va mavjud kattaliklarni ular bilan solishtirib, so'ng solishtirish natijalariga ko'ra mijozning kreditga layoqatliligi hisoblanadi. Koeffitsientlarning me'yoriy chegarasi turli tarmoq, hudud va boshqalardagi korxonalar uchun turlicha bo'lishi mumkin. Bunday baholashlar haqiqatga yaqinroq bo'lishi uchun uzoq muddat orasidagi mijozning moliyaviy ahvolini nazorat qilib borish, o'zgarishning aniq yunalishlarini, davrlarini, qonuniyatlarini aniqlovchi xususiy statistik ma'lumot bazasini yaratish zarur.

Bank kreditga layoqatlilikning ball (reyting) tizimini qo'llashi ham mumkin, unda, har bir koeffitsientga (uning normativga yaqinligiga qarab) ballarda belgilanadi va to'plangan ballar yig'indisiga qarab mijozning yuqori, o'rta yoki past guruh likvidlik bo'yicha ajratiladi. Mijozni reytingi bo'yicha qaysi guruhga mansubligiga qarab kredit talablarini susaytirishi, kuchaytirishi yoki umuman kreditlashni rad etishi mumkin.

Qarz oluvchi moliyaviy holatini baholash bilan birga bank uning iqtisodiy holatini, faoliyat jarayonini, ishlab chiqarish mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan munosabatlarini, korxonaga egalari bilan ellanma ishchilar o'rtasidagi, boshqaruvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. SHuningdek, bank foydalani-layotgan texnologiyalar, vositalar, ularning yangiligini va raqobatbardoshligini o'rganadi, bozorlarni egallash (yoki to'xtatish) imkoniyatlarni va boshqalarni baholaydi. Hujjatlarni tahlil qilish bilan birga bank xodimlari

mijozlarni "joylarga" borib tekshirish, mijozlarning ish jarayonini tartibi va tashkil etilishi bilan tanishishi maqsadga muvofiq.

Keyingi paytlarda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda bank mijozlarining ma'naviy-axloqiy sifatlariga tobora ko'p e'tibor berilmoqda. Bu sifatarning etarli darajada aniq baholash imkonini beruvchi testlar va uslublar yaratildi.

Ana shunday testlardan biri "qizil signallar tizimidir". U xorij banklarining tajribalarining qo'rsatishicha mijozlarning ishonchliligini aniqlashga imkon beradi.

*Qarz oluvchi tarixidan signallar; "qizil signallar tizimi" to'g'risida qisqacha to'xtalamiz. Bu tizim qarz oluvchining faoliyatiga baho beruvchi bir necha bo'limlardan iborat:*

1. YAqin o'tmishdagi moliyaviy noqobilligi.
2. Qarz oluvchi ma'lumotlaridagi nomutanosibliklar va qarama - qarshiliklar.
3. Qarz oluvchini boshqarishga doir "signallar".
4. Qarz oluvchi ishonchli aloqalari mavjud, hamkorni qidirmoqda.
5. Boshqaruvchining past ma'naviy sifatleri.
6. Boshqarish uchun xodimlar, oila a'zolari, kompaniya xo'jayinlari orasida kurash.

7. Boshqarishdagi tez - tez o'zgarishlar.
  8. Boshqaruvchining xovliqma xarakteri.
  9. Boshqaruvchilarning kreditlash jarayonini tezlashtirishga harakat qilishlari.
- Aylanma aktivlar. Ishlab chiqarish faoliyatini aks ettiruvchi "signallar".*

1. Mol etkazib beruvchilar va xaridorlar qatorini farqlardi.
2. Qarz oluvchining o'z debitorlari ustidan nazorati susayganligi.
3. Qarz oluvchining bugungi kunda muammolarni boshidan kechirayotgan soxaga tegishliligi.

1. Balansining aktiv va passiv moddalari bo'yicha mutanosibligi.
- Kreditlashga tegishli "signallar".*

1. Qarz oluvchi kredit maqsadini aniq ko'rsatmaydi.
2. Qarz oluvchida qarzni to'lash bo'yicha aniq dastur yo'q.
3. Kreditni to'lash bo'yicha zahira mablag'lari yo'q.
4. Qarz oluvchi maqsadi moddiy ta'minotga ega emas.
5. Qarz oluvchining kredit savolnomasi yomon asoslangan.
6. Qarz oluvchi bir vaqtning o'zida ham aktivlari, ham umumiy kapitali garoviga ssuda olishni mo'ljallagan.

7. Kredit bevosita kiymat tashkil etiluvchi, ishlab chikarish jarayoniga emas, balki muomala sohasiga yunaltirilgan.

8. Kreditni qaytarish muddati to'liq asoslanmagan.
- Belgilangan normalardan chetlashish "signallari".*

1. O'z xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobot ma'lumotlarini taqdim etish davriyligidagi buzilishlar.

2. Bank hisob varaqlarini yuritishdagi normalardan chetlashishlar.
3. Kreditlash shartlarini qayta ko'rilishi; kreditni qaytarish sxemasidagi o'zgarishlar; ssudani cho'zish bo'yicha iltimoslar.
4. Xo'jalik faoliyati moliyaviy ko'rsatkichlarini rejadan farqlanishi.



## 5. Qarz oluvchining mahorati va hisob tizimlarida chetlanishlar.

Kreditga layoqatlilikni baholash bilan birga bank kreditdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ham tekshiradi. Buning uchun qarz oluvchini kredit olishdan maqsadini tasdiqlovchi hujjatlar ko'rib chiqiladi. Bank qarz oluvchining maqsadini realligini va haqqoniyligini, ularni (talab, taklif, sifat va miqdor, narxi, raqobatchilarning qarshiligi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha) shakllanayotgan bozor konyukturasiga mos kelishini baholaydi. SHu bilan birga, bank mijoz kredit so'ragan faoliyat turi bo'yicha daromad va xarajatlarni solishtiradi. Bank kreditdan foydalanish natijasida mijozning o'z xarajatlarini qoplashi va kreditning qaytarilishiga etarli daromad olishga imkon bo'lishi lozim.

Ana shunday baholashlarga asosan bank kreditni berish (yoki uni rad etish) to'g'risidagi qaror qabul qiladi. Mijozning kreditga layoqatliligiga qarab bank kredit bo'yicha foiz, muddat va summasini o'zgartirishi mumkin. Bu parametr qarz oluvchi bilan muvokama etiladi va kredit shartnomasida belgilab qo'yiladi.

Ko'rib chiqqanimizdek, turli mamlakatlarda kreditga layoqatlilikni aniqlashda turlicha yondashuvlar bo'lsada, ularning asosiy maqsadi bank tomonidan beriladigan kreditlarning samarali ishlatilishi va ularning o'z vaqtida bankka qaytib kelishini ta'minlashdan iborat.

### **Aylanma mablaglardan samarali foydalanish kursatkichlari.**

Korxonada o'z aylanma aktivlarining holatini, ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilib borish lozim.

Aylanma aktivlardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'lib:

- a) aylanma aktivlarning kunlarda aylanishi;
- b) aylanma aktivlarning aylanish koeffitsienti;
- v) korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- g) korxonada oborotida mavjud bo'lgan o'z aylanma mablag'lari kabi asosiy ko'rsatkichlar va bir necha qo'shimcha ko'rsatkichlar mavjud.

1. *Aylanma mablag'(aktiv)larning kunlarda aylanishi* (Ak.a.) aylanma mablag'lar bir marta aylanishi (ya'ni P-T...i/ch...T'-P'gacha) uchun necha kun ketganligini tavsiflaydi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$Ak.a. = \frac{A\bar{y}.k}{C} \times K$$

Bu erda:  $Ao'.q.$  - Aylanma mablag'(aktiv)larning o'rtacha qoldig'i

$K$  - hisoblanayotgan davrning kunlar soni (90 kun, 180 kun, 360 kun)

$S$  - sotuv hajmi.

Aylanma aktivlarning kunlarda aylanish sonining qisqarishi ular aylanishining tezlashuvidan, bu o'z navbatida sotuv hajmi va foydaning ko'payishidan, aksincha holat esa, korxonaning moliyaviy ahvolidan dalolat beradi.

2. Aylanma aktivlarning aylanish koeffitsienti ( $Ka$ ) ma'lum bir davr (1 yil, 6 oy, 1 oy) ichida aylanma aktivlari necha marta aylanganidan dalolat beradi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_a = \frac{C}{\bar{A}y.k.}$$

Aylanma aktivlar ma'lum bir davr oralig'ida qancha ko'p aylansa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi, ya'ni shuncha marta daromad olishga erishish mumkin. Har bir xo'jalik sub'ekti o'zida mavjud bo'lgan aylanma mablag'larning tezroq aylanishini ta'minlashi lozim. Bu esa korxonada tushumining ko'payishiga, uning mol etkazib beruvchilar, byudjet, bank va boshqa sub'ektlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga imkon yaratadi.

3. Aylanma aktivlarning samaradorligini ifodalovchi keyingi ko'rsatkich - korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi yoki muxtoriylik koeffitsienti (Km)dir. Bu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqillik darajasini ko'rsatib, o'z mablag'lari manbalarini korxonada balansining jami passiviga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$K_a = \frac{\bar{Y}_{zMM}}{B_{II}}$$

O'zMM - o'z mablag'lari manbasi;

B<sub>II</sub> - balans passivi.

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 30 foiz dan kam bo'lmasligi lozim. Agar bu ko'rsatkich 60 foizdan yuqori bo'lsa, kreditlash bo'yicha risk minimal bo'lishi mumkin.

4. Korxonada oborotida mavjud bo'lgan o'z aylanma mablag'lari miqdori korxonaning likvidligini ifodalashi mumkin.

Bu ko'rsatkich (HMA) quyidagicha aniqlanadi:

**HMAqO'zMM - Ua.**

Bu erda: U<sub>a</sub> - uzoq muddatli aktivlar (qoplanmagan zararlar).

Agar korxonaning uzoq muddatli aktivlari uning o'z mablag'lari manbasidan yuqori bo'lsa, bunday korxonalar "nolikvid korxonalar" deyiladi va ularga kreditlar berilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, aylanma mablag'(aktiv)lari xo'jalik sub'ektlari faoliyatining asosi bo'lib, bank tomonidan beriladigan kreditlarning aksariyat qismi aylanma aktivlarga yo'naltiriladi. SHu tufayli har bir xo'jalik sub'ekti aylanma aktivlarini to'g'ri tashkil qilmog'i, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishmog'i lozim.

## 17-mavzu. "Kredit ta'minoti, uni turlari va rasmiylashtirilishi"

### 1. Kreditning ta'minlanganlik tushunchasi va uning ahamiyati.

## **2. Kredit qaytarilishida garovning to'tgan o'rni.**

### **1. Kreditning ta'minlanganlik tushunchasi va uning ahamiyati.**

Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytib berishligi, kreditning muddatligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadligi va to'lovlik tamoyillaridir. Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan tamoyili kreditning ta'minlanganligidir. Bu tamoyil yordamida kreditning iqtisodiyotni rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan miqdorda moddiy boyliklar qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga berilgan har qanday kreditlar to'liq tovar-moddiy boyliklari bilan yoki ma'lum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning likvidligiga va pul muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. SHuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy-boyliklari va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri, berilgan ssudalarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulking ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir.

O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar turli shakldagi ta'minlanganlikka ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolar kodeksining 259- moddasiga asosan qarzdorning majburiyatlarini garov, qarzdorning mulkini ushlab qolish, kafolat, va qonun bo'yicha yoki shartnomada ko'rsatilgan boshqa usul bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin. Bu ta'minotning qaysi birini tanlash majburiyat turiga bog'liq. Aksariyat hollarda kredit va qarz shartnomasini bajarish bo'yicha garov, kafolat qulay hisoblanadi. Qarz oluvchi kreditning ta'minlanganligi sifatida bir yoki bir necha turdagi ta'minlanganlikni qo'yishi va uni kredit shartnomasida ko'rsatishi mumkin. Kreditning ta'minlanganligi bo'yicha garov kredit shartnoma bilan bargalikda rasmiylashtiriladi va unga albatta ilova qilinishi lozim. Jahon amaliyotida bank ssudalarini ta'minlashning o'ta keng tarqalgan turlari quyidagilar hisoblanadi:

- er, uy-joy;
- qimmatli qog'ozlar;
- debitorlik qarzlari yig'indilari;
- tegishli hujjatlar bilan birga taqdim etilgan tovarlar;
- sug'urta polislari va boshqalar.

▪ Er, uy-joy va boshqa ko'chmas mulk muhim ta'minlash ob'ekti bo'lib hisoblanadi. U hech qachon o'z qiymatini to'la yo'qotmaydi. SHu sababli, er, uy-joy ishonchli garov hisoblanadi.

▪ Qimmatli qog'ozlar bank uchun ma'qulroq ta'minlash turi hisoblanadi. Chunki qimmatli qog'ozlarni fond bozorida osongina sotish mumkin, bankda saqlash uchun xarajatlar talab qilinmaydi. Shular bilan bir qatorda, ularni sotish va sotib olishda ortiqcha rasmiyatchilikning yo'qligi qimmatli qog'ozlarning ta'minlanganlik ob'ekti sifatida ahamiyatini oshiradi. Ayni vaqtda shuni esda tutish lozimki, agar ta'minlanganlik sifatida aksiya olinayotgan bo'lsa, uning kursi keskin tebranishi mumkinligini, kurs pasayganda zarar ko'rishligini, albatta inobatga olish lozim.

▪ Debitor qarzdorlik yig'indisi deganda, bu erda ochiq schyotlar bo'yicha hisob-kitoblardagi qarzdorlik yig'indisi tushuniladi. Bu pul bankning mijozi jo'natgan tovarlari uchun haridorlardan olishi lozim bo'lgan puldir. Bu turdagi ta'minlash ob'ekti jahon amaliyotida keng qo'llaniladi.

▪ Xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar ko'pchilik davlatlarda, xususan, respublikamizdagi kreditning keng qo'llaniladigan ta'minlanish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta qilinuvchi sug'urta kompaniyasiga badal to'lab boradi. Sug'urta muddati tugashi bilan mablag' to'lagan shaxsga qaytarilishi mumkin. Bank sug'urta polisini yig'ilgan badallar yig'indisi miqdorida ta'minlanganlik uchun qabul qiladi.

Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan-bir garov shakli kredit shartnomasi bo'lib hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan hajmda, ishonchga sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatda kreditlash jarayonida qo'llaniladi. O'rta va uzoq muddatli kredit berishda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda sug'urta qilish, qarz oluvchi hisobidan amalga oshiriladi. Bizning amaliyotimizda ba'zi hollarda, tijorat banklari tomonidan o'z sho'bahalarini va muassasalarini kredit berishda shu usul qo'llanilishi mumkin.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar. Bunday kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki, ko'proq ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin, qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda, ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib etkazilgan zararlarni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlikning o'rtacha bozor narxidan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvchi natijasida aniqlanadi.

Kreditlar sifatli aktivlar bilan, aytaylik, er yoki hukumatning qimmatli qog'ozlari, ya'ni davlat zayomlari bilan ta'minlangan bo'lsa, u holda ularning foiz stavkasi ta'minlanmagan kreditlarnikiga nisbatan past bo'lishi mumkin. Chunki, bunda kreditni qaytarmaslik riski minimallashtirilgan bo'ladi. Xalqaro kreditlar

oltin, olmos, platina kabi nodir metallar bilan ta'minlangan bo'lsa, ularning foiz stavkasi sezilarli darajada past bo'ladi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lgan mulkni o'z ichiga olishi kerak.

Bank ssudalarini tovar-moddiy boyliklari bilan to'liq ta'minlanganligi pul muomalasining barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank mablag'larining aylanishi, ya'ni pullari naqd pulga va aksincha transformatsiyalanib turadi.

Ta'minlanganligi bo'yicha kreditlar ta'minlanmagan va ta'minlangan kreditlarga bo'linadi. Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik xarakteriga qarab garovli, kafolatlangan, sug'urtalangan va hokazolarga bo'linadi.

Ta'minlanmagan kreditlar ishonchli (blankali) deb ham ataladi va odatda faqat solo - veksel (qarz oluvchining ssudani qaytarish majburiyati) orqali taqdim etiladi. Ta'minlanmagan kreditlar qarz oluvchining obro'sini hisobga olgan holda va uning daromadlari darajasini baholashdan so'ng'ina beriladi. Kreditning sifati past bo'lganda ham u ta'minlanmagan kredit deb yuritiladi va bunda kreditlar bo'yicha kreditning qaytmaslik riski yuqori bo'ladi.

Kreditning ta'minlanganlik tushunchasi, bu xujalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag'larining xar bir sumiga muayyan moddiy boyliklarning bir sumi karama-karshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalk xujaligi tarmoklariga berilgan kreditlar tulik tovar moddiy boyliklari va ma'lum xarajatlar bilan ta'minlangan bulishi kerak. Tarmoklarga ta'minlanmagan bank kreditlarining berilishi bank kreditlarining bankka kaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu uz navbatida, bankning likvidligiga va pul muomalasiga katta ta'sir kursatadi. SHuning uchun xam, bozor iktisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta'minlangan bulishiga muxim e'tibor berilmokda. Xozirgi sharoitda bu jarayonning amalga oshirilishini kuyidagicha ifodalash mumkin:

Kredit olayotgan korxonaga bankka tovar yoki tovar xujjatlarini, boshka biror shakldagi mulkni garovga kuyadi. Agarda bank bergan kredit karz oluvchi tomonidan uz vaktida bankka kaytarilmasa, bank tovarni sotish hisobidan karz urnini koplash xukukiga ega buladi. Ba'zida kredit warrant asosida xam berilishi umkin. (Warrant – garov uchun xizmat kiluvchi xujjat). Bunda kreditor berayotgan krediti tovar modiy boyliklar bilan ta'minlanganligiga ishonch xosil kilishi kerak.

Bank ssudalarining tovar moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligi pul muomalasining barkarorligini ta'minlaydi, chunki bank aylanmasidagi pullar nakd pulga transformatsiyalanib turadi.

Xulosa kilib aytganda, kreditning ta'minlanganligi karz oluvchi uziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida karz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini ximoya kilishni ta'minlaydi va kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda uzining amaliy aksini topadi. Bu umumiktisodiy barkarorlik davrida, ayniksa, muximdir.

Kreditning ta'minlanganligi deyilganda, berilgan kreditning qaytarilishi aniq moddiy kiymatliklar, pul xarajatlari yoki pul mablag'larini olishga bo'lgan huquq

bilan kafolatlanganlik bulishi tushuniladi. Kreditning ta'minlanganligi amaliyotda garov ob'ektini tegishli tartibda rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ayrim xollarda, masalan, yirik mijozlarga kredit berilayotganida garov sifatida anik shaklga ega bulgan garov ob'ekti emas, balki aktivlarning umumiy summasi olinishi mumkin.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida asosan ta'minlanmagan kreditlar beriladi. Ular blankli kreditlar deb ataladi.

Blankli kreditlar berishni keng tarkalganligining asosiy sababi kuyidagilar:

- Tijorat banklarida mijozlarning mulkiy va moliyaviy xolatini baxolash tizimi yukori darajada rivojlangan.

- Kreditlarni garov ta'minoti bilan ta'minlash ortikcha xarajatlarni va kushimcha vakti talab kiladi.

- Garov ta'minoti sifatida olingan ob'ektlar baXosining pasayish xavfi doimo sakalnib koladi

Kreditlarni garov ta'minoti bilan ta'minlashning asosiy sababilari, bu mamlakatlardagi iktisodiy va siyosiy nobarkarorlik tufayli mijozlarning pul okimi zaif va nobarkarordir. Bizga ma'lumki, kredit garov ob'ekti bilan ta'minlanmagan takdirida, uni kaytarishning yagona manbai bo'lib mijozning pul okimi hisoblanadi. Pul okimi kanchalik zaif va nobarkaror bulsa, kreditning kaytmaslik extimoli shunchalik yukori buladi.

Mijozlarning kredit tarixini urganish amaliyoti shakllanmaganligi sababli kredit riski yukori buladi. tijorat banklarida mijozlarning moliyaviy va mulkiy xolatini baxolash tizimi rivojlanmagan buladi.

## **2. Kredit qaytarilishida garovning to'tgan o'rni.**

Kreditning kaytarilishida garovning urni katta. Tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar ta'minlanganligiga kura ikki yirik guruxga bulinadi:

a) ta'minlangan kreditlar;

b) ta'minlanmagan kreditlar.

Garov ob'ektlari likvidlilik darajasiga kura bir-biridan tubdan fark kiladi. Xalkaro bank amaliyotida yukori likvidlilik darajasiga ega bulgan garov ob'ektlari birinchi toifali garov ob'ektlari deb ataladi.

Garov ob'ektlariga kuyidagalar kiradi:

1. er;

2. Hukumatning kimmatli kogozi;

3. markaziy bankda kayta hisobga olinadigan tratalar;

4. korxonalarining Hukumat tomonidan kafolatlangan kimmatli kogozi;

5. tijorat banklarining kimmatli kogozi.

Er garov ob'ekti sifatida amaliyotda juda kadrlanadi. Odatda erning baxosi doimiy ravishda usib boradi va u barkaror hisoblanadi. Ayniksa rivojlanayotgan davlatlarda erning baxosi sezilarli darajada yukori sur'atlar bilan usadi, shuning uchun xam erni garovga olish asosida kreditlash moliyalashtirishning nisbatan xavfsiz shakli hisoblanadi. Bunda banklar istalgan va garovga olingan erni sotish

yoʻli bilan kredit va uning foizini undirib olishlariga kattik ishonadilar. Lekin, erni garov sifatida foydalanish uchun xukukiy asoslar etarli bulishi lozim.

Masalan, Oʻzbekiston Respublikasida er fondining mutlok asosiy kismiga nisbatan xususiy mulkchilik mavjud emas. Kishlok xujaligida fermerlarga etarli uzok muddatli ijaraga berilgan, lekin ijara Xukukidan bank kreditlari uchun garov sifatida foydalanish mumkin emas.

Hukumatning kimmatli kogozi duniyoning deyarli barcha mamlakatlari yukori likvidli garov obʻektlari sifatida tijorat banklari tomonidan tan olinadi. Braziliya, Argantina va Rossiya davlatlarida Hukumatning kimmatli kogozi nisbatan sezilarli darajada ishonchsizlik kayfiyati mavjud. Bu kayfiyat ushbu mamlakatlar Hukumatlarining defolt Xolatlariga yoʻl kuyganligi bilan izoXlanadi. Lekin bunday davlatlar kupchilikni tashkil etmaydi.

Hukumatning kiska, urta va uzok muddatli kimmatli kogozi mavjud boʻlib, ulardan kreditlar olishda garov sifatida faol tarzda foydalaniladi. Lekin Oʻzbekiston Respublikasida ushbu obʻektdan faol tarzda foydalanish real shart-sharoiti mavjud emas.

Markaziy bankda kayta hisobga olinadigan tratalar, shubxasiz, yukori likvidlilik xususiyatiga egadir. CHunki tijorat banki markaziy bankdan uziga ajratilgan kayta hisobga olish kontengenti doirasida istalgan vaktida taratalarni topshirib pul mablaglari olish mumkin.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, Garbiy Evropa davlatlari xujalik amaliyotida sanoat korxonalarining Hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalari mavjuddir. Xar kandy kimmatli kogozi tulovini Hukumat tomonidan kafolatlanishi uning likvidlilik darajasini oshiradi.

Kafillik va taʻminlanganlikning boshka shakllari. Kafillik garov taʻminotining bir shakli boʻlib, tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kullaniladi. Odatda, moliyaviy jixatdan barkaror bulgan korxonalarining, sugʻurta kompaniyalarining va boshka xujalik subʻektlarining kafilliklari kredit uchun garov sifatida kabul kilinadi.

Tijorat banklari kafilning moliyaviy va mulkiy xolatini baxolash tizimini takomillashtiradilar. Baxolash jarayonida moliyaviy koefitsientlardan keng kulamda foydalaniladi.

Respublikamiz tijorat banklarining kreditlash amaliyotini taxlil kilish natijalari shuni kursatdiki, kafillik bilan taʻminlangan kreditlarning sezilarli qismini qaytmaslik holatlari kuzatildi.

Kafillikdan tashkari, taʻminlanganlikning shakllaridan biri sugʻurta polisi hisoblanadi. Sugʻurta polisi sugʻurta tashkilotlari tomonidan yoziladi. Kredit uz vaktida kaytmagan sharoitda sugʻurta tashkiloti kreditning asosiy summasi va unga hisoblangan foizlarni tulab beradi. SHuning uchun xam sugʻurta kompaniyalarining tulovga kobilligini baxolash tijorat banklarining faoliyatida muxim amaliy axamiyat kasb etadi.

## **17-mavzu. “Kredit ta’minoti, uni turlari va rasmiylashtirilishi”**

### **3. Kredit ta’minlanganligining asosiy shakllari**

#### **4. Garovga olingan mulkni baholash va sug‘urtalash.**

### **3. Kredit ta’minlanganligining asosiy shakllari**

Tijorat banklari kreditni qaytmaslik xatarini oldini olish maqsadida quyidagi ta’minot turlarini qabul qiladi:

- mol-mulk (ko‘chmas va ko‘char mulklar);
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning kafilligi (kafolati);
- uchinchi (jismoniy) shaxslarning kafilligi;
- qarz oluvchining muddatli va jamg‘arma omonatlari (depozitlari);
- qimmatli qog‘ozlar;
- sug‘urta polislari va boshqa ta’minot turlari;

Ta’minot sifatida olinayotgan mol-mulk va kafillar (tashkilotlar) kredit olinayotgan hududda (filialda) joylashgan bo‘lishi shart. Boshqa hududlarda joylashgan mol-mulk va kafillar (tashkilotlar) ta’minot sifatida tan olinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kreditlarni qaytarish ta’minoti sifatida olingan ko‘chmas mol-mulk va boyliklarning mavjudligi va saqlanishi ssuda berishga qadar oldindan, mustaqil baholovchi yoki bank xodimi tomonidan baholanishi hamda kreditning amal qilish davrida bank xodimlari tomonidan garov ta’minoti saqlanayotgan yoki joylashgan joyga chiqib har chorakda kamida bir marta tekshirilishi zarur.

Garovga olingan boyliklar hisobidan berilgan kreditlar - bu qarz oluvchining xususiy mulki hisoblangan, kreditor bankning talablari bo‘yicha aniq mulkiy boyliklar yuzasidan garov xuquqlari bilan ta’minlangan kreditlardir. Kreditlar moddiy garov bilan faqat kredit berish chog‘ida emas, balki kreditlarning butun amal qilish davri mobaynida ta’minlanishi shart.

Qarz oluvchining molk-mulkiga bo‘lgan bankning garov xuquqi O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq rasmiylashtiriladi. Garov shartnomasi notarial idorada rasmiylashtirilishi va belgilangan tartibda qayd etilgan bo‘lishi lozim.

Qarz oluvchi bir vaqtning o‘zida kreditni ta’minoti sifatida bir nechta ta’minot turlaridan foydalanishi mumkin.

Garov predmeti har xil mol-mulkdan, shu jumladan, buyum, jixozlar va boshqa qimmatliklardan iborat bo‘lishi mumkin. Muomaladan chiqarilgan garov ob’ektlari, qarz oluvchining shaxsiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan talabnomalar, jumladan, shaxs xayotiga yoki sog‘ligiga etkazilgan zararni qoplash, aliment to‘g‘risidagi talabnomalar bundan istisno hisoblanadi va bu ob’ektlar ta’minot sifatida qabul qilinmaydi.

Garovga qo‘yilayotgan mol-mulkni baholash O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan amalga oshiriladi.



Bundan tashqari ta'minotning turlari quyidagilar kiritish mumkin: qimmatbaho toshlar va metallardan tayyorlangan zargarlik buyumlari, Moliya Vazirligi, banklar, boshqa kredit institutlar va sug'urta kompaniyalarining kafolatlari.

Tijorat banklari, kreditni qaytarish qobiliyati 2-toifadan past bo'lmagan kredit oluvchilardan, kreditni qaytarilish ta'minoti sifatida "Madad", "O'zbekinvest", "Ishonch" BSK, "Kafolat", "Alskom" shuningdek, "O'zdavlotsug'urtanazorat" ning litsenziyasiga ega bo'lgan boshqa sug'urta kompaniyalaridan, kreditning qaytmaslik xatarini sug'urtasi bo'yicha bank-benefitsiar foydasiga sug'urta polislarini qabul qilishlari mumkin.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga berilgan kreditlar ta'minotiga "O'zagrosug'urta" davlat - aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan kredit oluvchining kreditni qaytarmaslik xatari bo'yicha bank - benefitsiar foydasiga berilgan sug'urta polislarini qabul qilinishi mumkin. Bunda kreditlash faqat, sug'urta to'lovi sug'urta kompaniyasining bankdagi hisob raqamiga o'tkazilib, kredit oluvchi tomonidan bankka sug'urta polisi taqdim etilgach amalga oshiriladi. Berilayotgan kredit hisobidan sug'urta to'lovini to'lash man etiladi

O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 52-moddasiga muvofiq qarzdorning oilasi normal turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan uy-joy va boshqa mulklarni kredit ta'minoti sifatida olishga ruxsat etilmaydi.

YUqori likvidlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar ham garov ashyosi bo'lishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

- davlatning qimmatli qog'ozlari;
- aksiya va obligatsiyalar;
- boshqa emitentlarning depozit sertifikatlari.

#### **4. Garovga olingan mulkni baholash va sug'urtalash.**

Garovga olinayotgan mol-mulkni turiga qarab mustaqil yoki bank ichki baholovchisi (kredit komissiyasi) baholashi mumkin. Tashqi baholovchi tomonidan mol-mulk baholanganda qarz oluvchi tomonidan uning xizmat xaqi to'lanadi.

Garovga olinayotgan mol-mulkni kredit komissiyasi joyiga chiqib quyidagi shartlarni hisobga olgan holda baholashi kerak:

- mol-mulkga bo'lgan egalik xuquqi;
- garovga olinayotgan mol-mulkning boshqa majburiyatlardan xolisligi;
- uzoq muddat davomida saqlanish xususiyati;
- mol-mulkning jismoniy va ma'naviy eskirishi darajasi;
- garovga olinayotgan mol-mulk bahosining barqarorligi;
- iste'mol va ishlatish chegaralari (garovga olingan ta'minot turi tor doiradagi ixtisoslashtirilgan soxalarda ishlatilmasligiga e'tiborni qaratish lozim).

Garovga olinayotgan mol-mulk turiga qarab, bank filiallari qarz oluvchi bilan ipoteka, ko'chmas mulk va boshqa turlar bo'yicha yozma shartnoma imzolaydi. Bu shartnomalar notarial idoralarda tasdiqlanishi kerak.

Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha shartnoma rasmiylashtirilib, qarzdor tomonidan ushbu qog'ozlar bankka saqlash uchun taqdim etiladi. Qarzdor tomonidan asosiy qarz va foiz to'lovlari to'liq qaytarib berilgan taqdirdagina garovga olingan qimmatli qog'ozlar unga qaytarib beriladi. Garovga olingan qimmatli qog'ozlarni qisman berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Garovga olingan vositalar bo'yicha monitoring o'rnatilishi lozim. Monitoring jarayonida garovga olingan vositalarning narxi bozorda garovga olinayotgan davrga nisbatan pasayib ketganligi yoki yaroqsiz holga kelib qolganlik holati aniqlansa, bank qo'shimcha ta'minot turlarini talab qilish huquqiga ega bo'ladi va bu holat bank hamda mijoz o'rtasidagi tuziladigan kredit shartnomasida o'z aksini topishi kerak.

Kredit ta'minoti sifatida tovarlar, valyuta, valyuta boyliklari, shuningdek, avtotransport olinishi mumkin. Bu holda garovga qo'yilgan mol-mulk zakalat sifatida bankka (garovni saqlab turuvchiga) topshiriladi. Avtotransport vositalari bundan mustasno bo'lib, sotish, ijaraga berish, xadya qilish va boshqalar xuquqsiz garovga qo'yuvchi ixtiyorida qoldiriladi. Zakalat garov shartnomasi kabi rasmiylashtiriladi va notarius tomonidan tasdiqlanadi.

Ta'minot sifatida moliyaviy vositalar qabul qilinganda quyidagicha bo'ladi.

#### **Moliyaviy vositalarning ta'minot sifatid qabul qilinishi**

<b>Ta'minot turi</b>	<b>Garov ob'ektini baholashga qo'yilgan talablar</b>	<b>Qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilish miqdori foizda</b>
Sug'urta polisi (qaytmaslik xatari).	hujjatlar va moliyaviy hisobotlarning bevosita bog'liqliligi.	Ta'minotning 100% miqdorida
Davlat qisqa muddatli majburiyatlari. (DQMM)	Birjadan tashqari bozorda haridor tomonidan taklif etilgan bahoning 100%i miqdorida	Garov bahosining 90% miqdorida
Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)	Toshkent, Seul, Tokio, Nyu-York yoki Evropa Ittifoqi davlatlari fond birjalarida haridorlar tomonidan taklif etilayotgan va chet el valyutasi bilan belgilangan bahoning 100% miqdorida.	Garov bahosining 90% miqdorida
Aksiyalar (birjada qiymatga ega bo'lgan)	Toshkent, Seul, Tokio, Nyu-York yoki Evropa Ittifoqi davlatlari fond birjalarida haridor tomonidan taklif etilayotgan aksiyalarning chet el valyutasi bilan belgilangan bahosining	Garov bahosining 75% miqdorida

	100% miqdorida.	
Aksiyalar (birjada qiymatga ega bo'lmagan)	Korxonalar tashkilotlarining tegishli tarzda tasdiqlangan moliyaviy hujjatlari (hisobot davri va o'tgan davrlardagi auditorlar tomonidan tasdiqlangan balansi) asosida taklif etilayotgan bahoning 100%i miqdorida.	Garov bahosining 75% miqdorida
Tijorat banklaridagi sumdagi depozitlari	Bankning ishonchlik reytingi (0% dan 100% gacha) asosida	Ta'minotning 100% miqdorida
Tijorat banklaridagi valyuta depozitlar	Bankning ishonchlik reytingi (0% dan 100% gacha) asosida	Ta'minotning 100% miqdorida

Ta'minot turlarining baholash tamoyillari quyida o'z ifodasini topgan.

- Uchinchi shaxslarning kafilligi ta'minot turi sifatida qabul qilinganda garov ob'ektini baholashga qo'yilgan talab yuridik shaxslar uchun moliyaviy hisobotlar asosida hisob – kitoblarga asoslanishi va jismoniy shaxslar uchun doimiy daromad manbasiga ega bo'lishi talab etiladi va qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi 100 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan;

- Bankning yoki sug'urta kompaniyasining kafolati ta'minot turi sifatida qabul qilinganda garov ob'ektini baholashga qo'yilgan talab Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari asosida kafolatchi reyting darajasining talab darajasida bo'lishi talab etiladi va qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi 100 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan;

- Erkin er maydoni (bog' va qurilish maydonlari) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda:

a) Baholovchi agent ta'minot ob'ektining bozor bahosidan 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlashi lozim, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

b) Garov ob'ektini sotib olish qiymatidan (bitim 1 yil muddatdan keyin tuzilmagan bo'lsa) 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash lozim, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

v) bank jarayoni orqali odatiy baholash. Bunda baholash qiymatidan 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash lozim, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

Bunda qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi garov bahosining maksimal 50% i miqdorida bo'lishi belgilangan.

- Tadbirkorlik faoliyatida ishlatilishi mumkin bo'lgan mulklar (do'kon, sex va ofis binolari) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda:

a) Baholovchi agent ta'minot ob'ektining bozor bahosidan 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlashi lozim, chunki ta'minot xuquqini tez

realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

b) Garov ob'ektini sotib olish qiymatidan (bitim 1 yil muddatdan keyin tuzilmagan bo'lsa) 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash lozim, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

v) bank jarayoni orqali odatiy baholash. Bunda baholash qiymatidan 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash lozim, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

Bunda qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi garov bahosining maksimal 80% i miqdorida bo'lishi belgilangan.

- Qurilish maydonlari (tadbirkorlik maqsadlariga mo'ljallangan) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda:

a) Baholovchi agent ta'minot ob'ektining bozor bahosidan 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlashi lozim, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

b) Garov ob'ektini sotib olish qiymatidan (bitim 1 yil muddatdan keyin tuzilmagan bo'lsa) 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash lozim, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

v) bank jarayoni orqali odatiy baholash. Bunda baholash qiymatidan 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash lozim, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin.

Bunda qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi garov bahosining maksimal 80% i miqdorida bo'lishi belgilangan.

- Ijaraga beriladigan ko'chmas mulk (turar joy) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda shartnoma asosida har yili kelishiladigan ijara xaqi uzoq muddatli investitsiyalarning kapitalizatsiya qilinadigan foiz summasi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda, baholash summasi qiymatidan 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin. (kapitalizatsiyaning bu omili rahbariyatning qaroriga asosan vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi)

Bunda qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi garov bahosining maksimal 50% i miqdorida bo'lishi belgilangan.

- Ijaraga berilgan ko'chmas mulk (tadbirkorlik maqsadlariga mo'ljallangan) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda SHartnoma asosida har yili kelishiladigan ijara xaqi uzoq muddatli investitsiyalarning kapitalizatsiya qilinadigan foiz summasi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda, baholash summasi

qiymatidan 1 yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi, chunki ta'minot xuquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov ob'ektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1 yil muddat o'tishi mumkin. (kapitalizatsiyaning bu omili rahbariyatning qaroriga asosan vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi).

Bunda qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi garov bahosining maksimal 80% i miqdorida bo'lishi belgilangan.

- Dastgox, uskuna va jixozlar (asosiy vositalar) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda:

a) kompyuter vositalari. Sotib olish bahosi (uskuna) minus 20% yillik amortizatsiya (eskirish qiymati) (sotib olingan yilni hisobga olgan holda).

b) ko'chmas dastgox (uskuna). Sotib olish bahosi minus 20% yillik eskirish qiymati.

v) transport va harakatlanuvchi vositalar. Sotib olish bahosi minus 20% (engil transport) yoki 15% (ogir transport) yillik qiymati eskirishi.

Bunda qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi garov bahosining maksimal 80% i miqdorida bo'lishi belgilangan.

- Zargarlik buyumlari va qimmatbaho metallar ta'minot turi sifatida qabul qilinganda ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi 60 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan;

- Olinishi kutilayotgan bank o'tkazmalari ta'minot turi sifatida qabul qilinganda ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi 80 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan.

## **18-mavzu. "Tijorat banklarining passiv va aktivlari bo'yicha foiz siyosati"**

### **1. Tijorat banklari foiz siyosatini va uning tuzilishi**

### **2. Kredit bahosi va uning shakllanish mexanizmi.**

#### **1. Tijorat banklari foiz siyosatini va uning tuzilishi**

Tijorat banklari baho siyosati bank xizmatlariga va mahsulotlariga baho o'rnatish bilan bog'liq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Baho siyosati nafaqat bank boshqaruvida asosiy komponent vazifasini bajaradi, balki bank daromadlilikini boshqarishda iqtisodda ustuvor ham hisoblanadi. Tijorat banklarining baho siyosati asosiy yo'nalishi bu banklarning foiz siyosatidan iborat bo'ladi. Chunki, banklar aktiv va passivlar bo'yicha foiz siyosatini amalga oshirish orqali baho belgilanadi.

Bank sohasida «aktiv» va «passiv» operatsiyalar bo'yicha foizlar uchraydi. Aktiv operatsiyalar bo'yicha foizlar – bu mijozlar tomonidan bankka to'lanadigan foizlar. Passiv operatsiyalar foizlar esa, bu mijozlarning depozit va jamg'armalari bo'yicha bank tomonidan to'lanadigan foizlar. Qarz beruvchi va qarz oluvchilar o'rtasida moliyaviy vositachilar sifatida qatnashayotib, banklar birinchilardan olingan mablag'larni ikkinchilarga vaqtinchalik foydalanishga beradilar. Bunda qarz beruvchilar depozitlar bo'yicha foizlar oladi, qarz oluvchilar ma'lum vaqtda

mablag'lardan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar bank manfaati esa marja ko'rinishida ifodalanadi.

Bank foizidan foydalanish mexanizmi bir nechta elementlarni o'zida mujassamlashtiradi va uning yordamida bank foiz siyosati vujudga keladi hamda uning amaldagi ko'rinishi ssuda foizi hisoblanadi. Bank foiz stavkasiga olimlar turlicha ta'riflar berganlar. Masalan I.O. Lavrushin bank foizini kredit munosabatlarida qatnashuvchi sub'ektlardan biri bank bo'lgan holda vujudga kelishini ta'kidlaydi. Ssuda foizi esa ssudan vaqtinchalik foydalanishga ssudalashtiriladigan o'ziga xos narx hisoblanadi. SHunga o'xshash ta'rifni yana bir olim Tavasiev berib u shunday deydi: "banklar uchun pullar o'zida "oldi-sotdi" predmetini ifodalab o'zining narxi bo'lgan bank foiziga ega". Nazariy nuqtai nazardan uni to'lash manbai bo'lib kreditdan foydalanish natijasida olinadigan qarz oluvchi foydasining bir qismi hisoblanadi.

Bank foizining turli xil formalari mavjud bo'lib ular: depozit foizi ko'rinishida, ssuda foizi bo'yicha, shu bilan birlikda banklararo kreditlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya foizlari va boshqalar.

Bank foizi mazmunida shuni nazarda tutish kerakki, bank muassasalari o'zining mablag'larini emas, balki chetdan keladigan mablag'larni ssudaga joylashtiradi. Bank faoliyatida bajarilmaydigan majburiyatlar riski, aktiv tomondan pul qo'yuvchilarning ham passiv tomonidan majburiyatlar bajarilmasligi riskini oshiradi.

Bank foizi 2 xil ma'noda foydalaniladi:

1. Bank jalb qilgan mablag'lar (boshqa kredit tashkilotlaridan olingan banklararo kreditlar, jismoniy va yuridik shaxslarning omonotlari va depozitlariga foiz, mijozlarning hisobvaraqlaridagi qoldiqlarga foiz) ga to'laydigan qiymatni ifodalashda;

2. Bank joylashtiradigan mablag'larga olinadigan qiymatni ifodalash uchun . Boshqacha qilib aytganda bank foizi turli shakllarda :

- + Depozit foizi;
- + Ssudalar bo'yicha foiz;
- + Banklararo kreditlar bo'yicha foiz;
- + Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha foizlar.

Kredit summasiga muvofiq kelmagan foizning mutloq miqdori hech narsani anglatmaydi. SHu sababdan kredit kelishuvining samaradorligini oydinlashtirish kredit qiymatining u yoki bu ma'qul qiymatni aniqlash uchun nisbiy ko'rsatkich - foiz normasi ko'rsatkichidan foydalaniladi:

Ssuda kapitali bozorining turli sektorlari xususiyatlaridan kelib chiqib bir turdagi foiz stavkalari (bank va nobank) ning bir necha guruhini ajratish mumkin:

- Kredit muassasalari o'rtasidagi qisqa muddatli kredit operatsiyalarida qo'llaniladigan pul bozori stavkasi;
- Qayta moliyalashtirish stavkasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozoridagi (birlamchi va ikkilamchi bozor) stavkalar;
- Bank va boshqa kredit muassasalarining nobank tashkilotlariga va jismoniy shaxslar uchun foiz stavkalari.

O'z navbatida yuqoridagi guruhlarning har biri doirasida foiz stavkalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Bitim muddatlari bo'yicha:

- ❖ Qisqa muddatli;
- ❖ Uzoq muddatli.
- ❖ foiz stavkalarining tuzilishi bo'yicha:
- ❖ asosiy(bazaviy);
- ❖ qo'shimcha, ya'ni asosiy o'zgarishi natijasida o'zgaradigan foiz stavkalar.

SHakllanish xarakteri bo'yicha- bozor va tartiblanadigan to'g'ri yoki egri (Markaziy bank va boshqa sub'ektlar stavkalari) stavklariga bo'linadi. Tartiblanadigan stavkalarga qayta moliyalashtirish stavkasi va Markaziy bank shtraf stavkalari kiradi.

Foydalanish ko'lamiga bo'yicha- hududiy, milliy va halqaro kredit bozorlarida qo'llaniladigan stavkalar.

Kreditdan foydalanish davrida o'zgarish xarakteriga qarab -fiksirlangan (o'zgarmas) va suzuvchi (o'zgaruvchi) stavkalarga ajratiladi.

Ssuda foizini belgilar bo'yicha quyidagicha turga ajratiladi:

Kredit shakllari bo'yicha - tijorat foizi, bank foizi, iste'mol foizi, lizing bitimlari bo'yicha foiz, davlat krediti bo'yicha foiz.

Kredit muassasalari turi bo'yicha-Markaziy bank hisob stavkasi, bank foizi, lombard foizi.

Investitsiya turi bo'yicha-oborot mablag'lariga kredit bo'yicha foiz, asosiy fondlarga investitsiya bo'yicha foiz, qimmatli qog'ozlarga investitsiya bo'yicha foiz.

Kreditlash muddatlari bo'yicha foiz.

Kredit muassasalarining operatsiya turlari bo'yicha foiz.

Bank foizdan foydalanish mexanizmi o'zida banklar amalga oshiradigan foiz stavkasi siyosatining elementlari majmuini ifodalaydi. Mexanizmning alohida elementlari sifatida quyidagilar ajratiladi:

Foiz darajasini shakllantirish usullari;

Foiz stavkalarining differensiyalash mezonlari bo'yicha;

Markaziy bank tomonidan foiz normasini tartiblash metodlari bo'yicha;

Foizlar bo'yicha to'lovlarni o'tkazish va undirish tartibi bo'yicha;

Foizning qarz oluvchilar moddiy manfaatlar tizimi bilan o'zaro bog'liqligi;

Kredit muassasalarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirishda foizning o'rni.

Bank foizidan foydalanishning zamonaviy mexanizmi quyidagilar bilan xarakterlanadi:

Foiz darajasi kredit bitimi tomonlari o'rtasidagi kredit resurslariga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda shartnoma orqali aniqlanadi.

Markaziy bank doimiy ravishda to'g'ridan-to'g'ri ssuda foiz normasini ma'muriy boshqaruvidan uning darajasini qayta moliyalashtirish foiz stavkasini o'zgartirish va majburiy rezervlar normasini manevrlash orqali tartibga solishning iqtisodiy usullariga o'tayapti.

Ssudalar bo'yicha foiz stavkalari tijorat banklari tomonidan kredit kelishuvining aniq shartlarini hisobga olib o'rnatilmoqda, ya'ni ssuda hajmi va uni tugash muddati, ta'minot mavjudligi, mablag'larni jalb qilishdagi xarajatlar, kreditni rasmiylashtirish va nazorat bo'yicha xarajatlar, qarz oluvchining kreditga layoqatliligi va boshqalar.

Bank passiv operatsiyalari bo'yicha foiz bo'sh pul mablag'larini vaqtincha omonatlarga jalb qilish stimuli sifatida oshib bormoqda.

Foizlarning o'tkazilishi va undirilish tartibi shartnomada belgilanadi. Amaliyotda ssuda kunlari sanasi yaqinlashishi bilan oddiy foizlar hisoblash usulidan foydalaniladi.

Xozirgi vaqtda foizlarni to'lash manbasi kredit qo'yilmalarining yo'nalishidan kelib chiqib turlichadir. Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha to'lovlar mahsulot tannarhiga qo'shiladi, uzoq muddatli va muddati o'tgan kreditlar bo'yicha xarajatlar korxonaga soliqqa tortilgan foydasiga olib boriladi.

Zamonaviy mexanizmning xususiyati bevosita foizlar bo'yicha daromad va xarajatlarning bank yakuniy moddiy manfaatlari bilan bevosita bog'liqligi hisoblanadi.

Bank ssuda kapitalining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari umumiy summasining joylashtirilgan mablag'lar xajmiga nisbatan ifodalaydi.

Ssuda kapitalining tannarxi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

Bank xarajatlari 2 asosiy elementlardan tarkib topadi:

Resurslarni shakllantirish bo'yicha xarajatlar;

Bank faoliyatini ta'minlovchi xarajatlar.

Birinchi guruh xarajatlarga- jalb qilinadigan depozitlar (muddatli va talab qilib olingunga qadar depozitlar) ga to'lovlar, Markaziy bankning resurslariga foiz, banklararo ssudalar bo'yicha, qimmatli qog'ozlar bo'yicha va boshqalar.

Ikkinchi guruhga boshqa operatsion va bank ma'muriy boshqaruv xarajatlari kiradi. Jumladan:

- ✓ Qimmatliklar va hujjatlarni tashish uchun transport ijarasi xarajatlari;
- ✓ Blankalar, magnit lentalar va boshqa narsalarni sotib olish uchun xarajatlar;
- ✓ hisoblar markazi xizmatlariga xarajatlar;
- ✓ Amortizatsiya xarajatlari;
- ✓ Bank xodimlariga ish haqi xarajatlari;
- ✓ Binolarni saqlash va ta'mirlash xarajatlari.

Amaliyotda ssuda kapitalining tannarxi aktiv operatsiyalar bo'yicha foiz darajasini aniqlashda ularni bergan vaqtdan boshlab foizlar hisoblash boshlanadi. Ssuda foizining yuqori chegarasi bozor sharoitidan kelib chiqib belgilanadi. Quyi foiz darajasi bankning jalb qilish va faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlari orqali aniqlanadi. U kreditlash resurslariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Har bir alohida olingan bitimda foiz normasini hisoblashda tijorat banklari quyidagilarni hisobga oladilar:

Bazaviy foiz stavkasining darajasi, bu ma'lum davrga ta'minlangan ssudalar bo'yicha bankning eng kreditga layoqatli mijozlari uchun o'rnatiladi;

Alohida har bitim sharoitidan kelib chiqib riskni qo'shish.



Bazaviy foiz stavkasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Bazaviy foiz stavka= $S_1 + S_2 + P$ ; (1)

Bu erda:

$S_1$  - rejalashtirilayotgan davrga barcha kredit resurslarining o'rtacha real bahosi;

$S_2$  - bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha rejalashtirilayotgan xarajatlarning joylashtirilayotgan mablag'lar hajmiga nisbati;

P- bank ssuda operatsiyalarining rejalashtirilgan foydalilik darajasi.

Kredit resurslarining o'rtacha real bahosi ( $S_1$ ) o'rtacha tortilgan formula bo'yicha hisoblanib alohida resurs turi bahosi va uning bank umumiy jalb qilingan resurslar summasidagi ulushidan kelib chiqib hisoblanadi.

O'z navbatida alohida bank jalb qilingan resursning o'rtacha haqiqiy bahosi mazkur resurs bozoridagi nominal bahosi va majburiy zahira normasiga korrekcirovka asosida aniqlanadi:

Riskni hisobga olgan holatda quyidagi mezonlardan kelib chiqib guruhlanadi:

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligi;

Ssuda bo'yicha ta'minot va uning xarakteri;

Mijozning bank bilan mustahkam aloqasi;

Foizlarni hisoblash usullari;

Qarz oluvchining kredit muddatiga rioya qilishligi.

Ma'lumki ssuda foizi bank daromadini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va jalb qilingan mablag'larga to'lovlar uning xarajatlari tarkibida muhim o'rin egallaydi. Bank foiz marjasi bank aktiv va passiv operatsiyalarpi bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari o'rtasidagi farq muhim ma'no kasb etadi.

Quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{\text{fakt}} = \frac{D_p - R_p * 100 \%}{A_d} \quad (3)$$

Bunda:

$M_{\text{fakt}}$  - foiz marjasining amaldagi hajmi;

$D_p$  - foizli daromadlar;

$R_p$  -Foizlarni to'lash bo'yicha xarajatlar;

$A_d$ - foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi aktivlar.

Foiz marjasining tahlili quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Amaldagi foiz marjasini bazaviy bilan solishtirish, fomzlar bo'yicha daromadlarning oshishi yoki kamayishi sur'atlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi;

Foiz marjasi komponentlarini o'zgarishining tahlili daromad(xarajatlarning)larning qaysi kategoriyasi uning umumiy o'zgarishiga olib kelishini aniqlash imkonini beradi.

Foiz marjasining hajmiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bo'lib kredit qo'yilmalari va ularning manbalarining hajmi va tarkibi, to'lovlar muddati qo'llaniladigan foiz stavkalar xarakteri va boshqalar bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi.

## **2.Kredit bahosi va uning shakllanish mexanizmi.**

Bozor mexanizmi rivojlanish sharoitida g'arb mamlakatlarining tajribasini hisobga olish muhimdir. G'arbiy mamlakatlar bir vaqtning o'zida bir qator foiz stavkalarini - fiksirlanagan va suzib yuruvchi foiz stavkalarini qo'llashadi. Bu odatda bozor kon'yukturasi o'zgarishiga bog'liq bo'lib hisoblanadi.

G'arb amaliyotidagi tijorat banklari aktiv va passivlarni foiz stavkalarini tezlik bilan tartibga solish va yangi darajasiga o'tishdan kelib chiqib 4 ta kategoriyaga bo'lishadi:

1. Bozor sharoiti o'zgargan sharoitda aktiv va passivlar bo'yicha qo'llaniladigan tezkor va to'liq foiz stavkalarini ko'rib chiqish, ya'ni ko'rib chiqiladigan aktiv va passivlar;

2. 3 oy mobaynida to'liq tartibga solish;

3. Stavkalar 3 oydan oshgan muddatda ko'rib chiqiladigan aktiv va passivlar;

4. To'liq fiksirlangan foiz stavkali aktiv va passivlar.

Birinchi 2 guruh aktiv va passivlar foiz stavkaning o'zgarishiga ta'sirchan bo'lib ularning o'zaro munosabati bank foiz riskini baholash shuningdek foiz marjasini o'zgarishini prognozlash mumkin bo'ladi. Birinchi 2 ta guruh (1 va 2) aktiv va passivlarning balanslashmaganlik holati g'arbiy bank adabiyotlarida GEP nomini olgan. Agar foiz stavkasiga ta'sirchan aktivlar unga mos passivlardan oshsa GEP ijobiy, kam bo'lsa salbiy GEP bo'lib hisoblanadi.

Foiz stavkalari o'zgan vaqtda bank uchun ijobiy GEP ma'qul bo'lib bunda aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha stavkalar o'rtasidagi uzilisho'sadi, ya'ni bank foiz marjasi o'sadi. Aksincha foizning bozor darajasi pasayganda, salbiy GEP ushlab turiladi va fiksirlangan foiz stavkali aktivlar foizlar bo'yicha to'lovlani tezkor ko'rib chiqish bilan xarakterlanadigan passivlar hisobiga qo'llab quvvatlanadi.

Foiz stavkasining makroiqtisodiy darajada harakat qilishdagi asosi bo'lib bozor jarayonlarining rivojlanishi va kreditga to'lov miqdorining erkin o'zgarishi sharoitida xo'jalikda o'rtacha foyda normasi hisoblanadi. Foyda normasidan u yoki bu tomonga o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni umumiy va maxsus omillarga bo'lamiz. Umumiy omillarga qarz mablag'alariga talab va taklifning o'zgarishi, Markaziy bank siyosati, pul qadrsizlanishi darajasi.

Aktiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkasini aniqlovchi xususiy omillarga quyidagilar kiradi:

❖ Ssuda hajmi va uni qaytarish muddati;

❖ Ta'minot va uning xarakteri;

❖ Ssuda kapitalining hajmi;

❖ Qarz oluvchining kreditga layoqatliligi va boshqalar.

Ssuda foizlaridan foydalanish mexanizmi bir tomondan foiz mohiyatini tovar ishlab chiqarish sifatida boshqa tomondan foiz siyosatini oshirish maqsadida aniqlaydi.

Banklarning foiz siyosati bugungi kunda bank likvidligini ta'minlash va uni optimal boshqarishga qaratilishi kerak. Ssuda foizining differensiyasi aktiv

operatsiyalar bo'yicha qo'yilmalar likvidligiga bog'liq holda bo'lishi lozim. Milliy iqtisodiyotda bank foizining rolini oshirish, uning bevosita ta'sir doirasini kengaytirish va iqtisodiy jarayonlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, ularning summasi, ularni to'lash vaqti davri, to'lash shartlari va boshqalar mijoz bilan bank o'rtasida kelishib olinadi va tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalar kreditning muddati, qarz oluvchi tomonidan tavsiya qilingan garov holati va qiymati, uning likvidligiga, kredit resurslari baxosiga, kredit riskning darajasiga qarab tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi va u kredit shartnomada aks ettiriladi. Kredit bo'yicha foizlar muddati kelganda memorial order bilan rasmiylashtirilib, mijozning asosiy talab qilib olinguncha bo'lgan depozit varag'idan grafik bo'yicha undirib olinadi.

### **18-mavzu. "Tijorat banklarining passiv va aktivlari bo'yicha foiz siyosati"**

**3. Banklarning aktiv va passivlari bo'yicha foiz siyosatining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari**

**4. «Praym-reyt» stavkalarining o'zgarishining kredit bahosiga ta'siri**

### **3. Banklarning aktiv va passivlari bo'yicha foiz siyosatining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari**

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida foiz siyosatini shakllantirish bankning jalb qilingan resurslari qiymati, kredit riski darajasi, kredit amaliyoti xarajatlari, Markaziy bankning pul-kredit siyosati, kreditga bo'lgan talab va taklif, raqobat kabi omillar tahliliga asoslanadi. Xorijiy mamlakatlarda foiz siyosatining shakllanishi borasidagi orttirilgan tajriba va amaliyotni o'rganish natijasida mamlakatimiz tijorat banklarida foiz siyosati shakllanishini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilamiz.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida foiz siyosatini belgilash turli bosqichlarda va chuqur tahlillar asosida olib boriladi. Chunki foiz siyosatini bunday chuqur tahlil qilishdan asosiy maqsad bank kredit operatsiyalarining samaradorligiga erishish va bankning strategik maqsadlarini amalga oshirish hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida foiz siyosatini belgilashda bir qancha modellar qo'llaniladi. Bu modellar bank faoliyatining xususiyatlari, kreditlash usullari, mijozlarni toifalarga ajratish va boshqa jihatlari asosida amalga oshiriladi. Biz tadqiqot ishimizda asosan AQSH tijorat banklari amaliyotida foiz siyosatini belgilashda foydalaniladigan metodlar va modellarga to'xtalib o'tamiz. Kredit tizimi rivojlangan mamlakatlarda foiz siyosatini belgilashda quyidagi modellardan keng foydalaniladi:

- «Qiymat plyus» modeli;
- «Baho etakchiligi» modeli;
- «Qiymat – foyda» modeli.

**1. «Qiymat plyus» modeli.** Tijorat banklarida foiz siyosati shakllanishining oddiy modeli «Qiymat plyus» bo‘lib, bunda bank tomonidan jalb qilinadigan mablag‘lar va kredit amaliyoti bo‘yicha bankning operatsion xarajatlari hisobga olingan holda foiz siyosati shakllantiriladi. Mazkur model bo‘yicha foiz siyosatining shakllanishida quyidagi komponentlar hisobga olinadi va ularning yig‘indisi sifatida umumiy qiymat aniqlanadi:

– bank uchun qarz oluvchini kreditlash maqsadida jalb qilingan mablag‘lar qiymati;

– bank operatsion xarajatlari, shu jumladan kredit boshqarmasi xodimlarining oylik ish haqlari, kreditni rasmiylashtirish, hisobvaraqa ochish, kredit monitoringi va kreditni so‘ndirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar;

– bajarilmasligi mumkin bo‘lgan majburiyatlar riski darajasiga to‘lov (bankning risk ustamasi);

– kredit bo‘yicha bank marjasi yoki bankning oladigan minimal daromadi.

Buni quyidagi formula orqali ifodalaymiz: (4)

$$\text{Kredit bahosi} = \text{Kreditlash uchun jalb qilingan mablag‘lar qiymati} + \text{Bankning operatsion xarajatlari} + \text{Bankning risk ustamasi} + \text{Bankning foiz marjasi}$$

Ko‘rsatilgan komponentlardan har biri kredit summasiga nisbatan yillik foiz shaklida aks ettirilishi mumkin. «Qiymat plyus» modeli oddiyligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Lekin «Qiymat plyus» modelining kamchiliklari sifatida bank o‘z xarajatlarini aniqlash jarayonining texnik jihatdan murakkabligi va boshqa kreditorlar tomonidan taklif qilinadigan foiz stavkalar, ya‘ni raqobat omilining hisobga olinmasligi hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga yuqorida keltirib o‘tilgan komponentlarning mos foizlarini qo‘shish orqali keltirib chiqariladi. Masalan, bank o‘z mijozidan 10 mln. so‘mlik kredit buyurtmasini oldi va bazaviy stavka 14 foizni tashkil qildi. Kreditni rasmiylashtirish va nazorat qilish bo‘yicha operatsion xarajatlar tahlil natijasida kredit summasining 2 foizini tashkil qilishi aniqlandi. Kredit boshqarmasi kredit riski bo‘yicha 2-6 % miqdorida ustama o‘rnatilishini belgilib qo‘ygan. Bank esa o‘z foiz marjasini 2 % qilib o‘rnatdi. SHundan kelib chiqib, tijorat banki kreditining bahosi 20 foizni, ya‘ni (14%+2%+2%+2%) ni tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin.

**2. «Baho etakchiligi» modeli.** «Qiymat plyus» modelida keltirilgan kamchiliklar foiz siyosatini shakllanishining boshqa bir modelini, ya‘ni «Baho etakchiligi» (baho liderligi) modelining paydo bo‘lishiga olib keldi. 1930 yillardagi buyuk depressiya davrida AQSH ning eng yirik banklari «Praym-rayt» (gohida u bazaviy yoki ma‘lumot stavkasi deb ataladi) nomi bilan mashhur bo‘lgan kreditlar bo‘yicha unifikatsiyalashgan foiz stavkasini hamda qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha kreditga layoqatliligi yuqori ishonchli mijozlarga taklif qilinadigan eng past stavkani o‘rnatish tartibini joriy etdilar.

Hozirgi vaqtda AQSH da «praym-rayt» stavkasi tijorat banklari amaliyotida etakchi stavka bo‘lib, kredit bo‘yicha o‘z stavkalarini doimiy ravishda e‘lon qilib boradigan yirik banklarning, ya‘ni «pul markazlari» tomonidan e‘lon qilinadigan stavkasi hisoblanadi. Ko‘p yillar davomida ushbu stavka barqaror bo‘lgan, ammo qimmatli qog‘ozlar bozori va inflyasiyaning shiddatli rivojlanishi sharoitida «praym-rayt» suzib yuruvchi stavkasi qo‘llanila boshlandi. Har qanday qarz oluvchiga beriladigan kredit bo‘yicha haqiqatdagi foiz stavka quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Kc = Bc + Y + P_M ; (5)$$

**Bunda:**

**Ks** – kredit foiz stavkasi;

**Bs** – bazaviy yoki praym-reyt stavkasi (bank marjasini hisobga olingan holdagi);

**U** – ustama, birinchi sinfga kirmaydigan mijozlarga majburiyatlarni bajara olmasligi uchun qo‘yiladigan ustama;

**Rm** – risk mukofoti.

#### 4. «Praym-reyt» stavkalarining o‘zgarishining kredit bahosiga ta’siri

«Praym-rayt» stavkasi pul bozorining muhim stavkalari o‘zgarishi natijasiga asoslanadi. Etakchi banklar tomonidan «praym-rayt» suzib yuruvchi stavkani hisoblashning ikki xil usul bilan amalga oshiriladi:

1. «praym plyus» usuli;
2. «praym ko‘paytirish» usuli.

Quyidagi keltirilgan jadvalda «praym-rayt» stavkalarining o‘zgarishining tijorat banklari foiz siyosatiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

#### «Praym-reyt» stavkalarining o‘zgarishining kredit bahosiga ta’siri tahlili<sup>25</sup>

№	Foiz stavkalari	«praym plyus» usulida	«praym ko‘paytirish» usulida
<b>1. Bazaviy stavka oshganda</b>			
<b>1.1</b>	<b>10</b>	12	12
<b>1.2</b>	<b>12</b>	14	14,4
<b>1.3</b>	<b>14</b>	16	16,8
<b>1.4</b>	<b>16</b>	18	19,2
<b>1.5</b>	<b>18</b>	20	21,6
<b>2. Bazaviy stavka pasayganda</b>			

<sup>25</sup> Shartli ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

2.1	17	19	20,4
2.2	15	17	18
2.3	13	15	15,6
2.4	11	13	13,2
2.5	9	11	10,8

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foiz stavkalar bazaviy stavkalarining ko'tarilishi sharoitida «praym ko'paytirish» usuli bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlar «praym plyus» usul bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlarga nisbatan tez o'sadi. Bu usullarda «praym-reyt» stavkasiga bank tomonidan qo'yiladigan ustama mos ravishda qo'shish yoki ko'paytirish orqali aniqlanadi. Misol uchun bazaviy stavka 14 foizni tashkil qilsa va unda qarz oluvchiga qisqa muddatli kredit bo'yicha «praym + 2%» usulida 16 foiz belgilanadi. «Praym ko'paytirish» usulida esa («praym-reyt\*1.2») 16,8 foiz o'rnatiladi. Bazaviy stavkalarining pasayish sharoitida esa teskari holat kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, «praym ko'paytirish» usuli geometrik progressiyaga, «praym plyus» usul arifmetik progressiyaga muvofiq tarzda o'zgaradi.

1970 yillardan boshlab, xo'jalik sub'ektlarga taqdim etiladigan kreditlar bo'yicha asos sifatida ishlatiladigan foiz stavkalar «praym- rayt» bilan bir qatorda tijorat banklari LIBOR (London banklararo taklif stavkasi) stavkasini keng doirada foydalana boshladilar. Bu bank tizimining globallashuvi bilan hamda etakchi banklar tomonidan evrodollarni kredit resurs sifatida tobora ko'p ishlatilishi bilan bog'liq.

Kredit bo'yicha «praym-rayt» asosida foiz stavkalarining takomillashgan modeli 1980 yillarda paydo bo'ldi. «Praym-rayt» modelining paydo bo'lishi kuchli raqobat sharoitida yirik banklarning bozorni egallash va mijoz bazasini kengaytirishga qaratilgan faoliyati bilan izohlanadi. Bank kreditlariga talab ortib borgan sari, foiz stavkani kerakli darajada ushlab turish va boshqa banklar bilan raqobatlasha olish muammosi paydo bo'la boshlaydi. Misol uchun AQSH da ko'pchilik banklar ba'zi yirik va o'rta korporatsiyalarga «praym-reyt»dan past pul bozori stavkasi bo'yicha bir necha kun va hafta muddatga operatsion xarajatlar, riskni qoplash va daromad olish uchun unchalik katta bo'lmagan marja (0,25 foizdan 0,75 foizgacha) qo'shib boriladigan foizlarda kredit berishni amalda qo'llay boshladi. Ushbu stavka quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\text{Kredit foiz stavkasi (}\llcorner\text{praym-reyt}\llcorner\text{ dan past)} = \frac{\text{Pul bozorida mablag' jalb qilish bo'yicha xarajatlar}}{\text{Riskni qoplash va daromad olish uchun ustama}}$$


«Praym-reyt» stavkasidan farqli ravishda past stavkalar amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Bu foiz stavkalar bankning mablag'larni jalb qilish borasidagi stavkalariga tenglashib qolgan edi. Ushbu stavkalarining joriy qilinishi «praym-reyt» stavkasining bazaviy stavkasi funksiyasini yo'qolishiga olib keldi.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar bank tizimida paydo bo'lgan, «Baho etakchiligi» modelining yana bir shakli sifatida «kep» deb ataluvchi stavkalar kredit foizlarini aniqlashda qo'llanilmoqda. Buning mazmuni shundaki, bank mijozga suzib yuruvchi stavkada kredit berganda bazaviy stavkalar o'zgargan sharoitda ham o'zgarmaydigan kreditning maksimal foiz stavkasi hisoblanadi. Ammo banklar o'zlarining kredit shartnomalari bo'yicha «kep» stavkalarini o'rnatishda ehtiyot bo'lishlari lozim. YUqori foiz stavkalarini ushlab turishning uzoq davri, suzib yuruvchi foiz stavkalari bo'yicha riskning qarz oluvchidan kreditorga o'tib ketishga olib kelishi mumkin.

**3. «Qiymat–foyda» modeli** asosida kredit stavkasini o'rnatish. AQSHda bank amaliyotida tijorat banklarining barcha xarajatlarini va kreditlash faoliyatida yuzaga keladigan risklarni qoplay oladigan hamda bank uchun etarli daromadni ta'minlaydigan foiz siyosati shakllanishining murakkab modellari ishlab chiqilib amaliyotda keng qo'llanilmoqda. SHunday modellardan biri «Qiymat–foyda» modeli hisoblanadi. Bu modelga muvofiq, bank zarur moliyaviy resurslarni jalb qilishi, kreditlash amaliyoti xarajatlarini qoplashi va natijada etarli foydaga erishishi ko'zda tutiladi.

«Qiymat–foyda» modeli nuqtai nazaridan kredit foiz stavkalarini o'rnatishga yondashuv «mijozning daromadliligi tahlili» nomi bilan mashhur bo'lgan konsepsiyaning bir yo'nalishi hisoblanadi. Kredit bahosi qarz oluvchi mijozlarning daromadlarini tahlili asosida shakllantiriladi. Bunda kredit olishga buyurtma bergan mijozlarni o'rganishda, qarz oluvchi mijozning bank bilan munosabatlarini tahlil qilishga asosiy e'tibor qaratiladi. Tahlil ob'ekti mijozdan keladigan daromadlar hisoblanib, bank mijozidan olinadigan kredit foizlaridan tashqari daromad keltiradigan boshqa manbalar ham tahlil qilinadi.

Quyidagi keltirilgan 1.1-rasmda bank kreditlari foiz stavkalarining tarkibiy qismlari keltirilgan.



## **Rossiya banklari amaliyotida rublda berilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining tarkibiy qismi<sup>26</sup>**

Ma'lumotlari asosida Rossiya banklari amaliyotida kredit foiz stavkasining asosiy qismini bankning moliyaviy resurslari bahosi tashkil etib, 2008 yilda 46 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Kredit bahosining qolgan 54 % qismini bankning maxsus zaxiralarga ajratmalar, kreditlash amaliyoti bilan bog'liq operatsion xarajatlari, to'lanadigan soliqlar va tijorat bankining rejalashtirilgan foydasidan tashkil topgan.

Mijozlarning moliyaviy holatini tahlil qilish, kredit ta'minoti sifatini baholash, kreditning maqsadi va boshqa omillar tahlili natijasida kredit riski darajasi baholanadi. Foiz stavkalarini belgilash jarayonida muammolar paydo bo'lsa, u holda har bir mijoz uchun alohida stavka belgilanishi xususida qaror qilinishi zarur.

Ayrim mamlakatlarning (Singapur, Malayziya) bank amaliyotida ba'zi toifadagi mijozlarga nisbatan past foiz stavkada kreditlar taqdim etiladi. Buning sababi, mijoz olgan kreditdan keladigan daromadidan tashqari boshqa operatsiyalarini bajarish orqali bankka ko'proq foyda keltiradi. Natijada bank mijoziga kredit berishdan olinadigan daromad pasayishi kuzatiladi, lekin aslida bankning mijoz bilan bo'ladigan boshqa munosabatlaridan oladigan daromadlari uning o'rnini qoplaydi.

Jismoniy shaxslarni kreditlash va ularga taklif etilayotgan foiz stavkalarini o'rganishda Rossiya tajribasiga murojaat qilishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki Rossiya tijorat banklari amaliyotida kredit xizmatlari qo'shimcha to'lovlarning joriy qilinishi mijozlarning kreditni qaytarish imkoniyatlarini pasaytirdi va natijada bank kreditlarining qaytmasligiga olib keldi. SHu o'rinda Rossiya bank amaliyotida mavjud ko'rsatkichni keltirib o'tamiz. Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki raisi o'rinbosari G.Melikyanning ta'kidlashicha, ayrim tijorat banklari kredit portfelida mavjud muammoli kreditlarning 30 foizi aynan bank kreditlari bo'yicha bahoning noto'g'ri va yuqori shakllantirilganligi hisobiga yuzaga kelgan<sup>27</sup>.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida ham jismoniy shaxslarni kreditlashda berilgan kreditlarning ijobiy darajasi ta'minlanadi. Polsha 2000 yil va Ukraina bank amaliyotida 2006 yildan boshlab joriy qilindi. Xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida mijozlarga juda past foizlarda, ba'zi hollarda foizsiz kreditlarni taqdim qilishni taklif qilib, ularni chalg'itish orqali banklarga jalb qilinadi. Bank tijorat tashkiloti sifatida haq evaziga jalb qilingan resurslarni tekinga joylashtirishi mumkin emas. Demak, bank bunday kredit amaliyotlaridan boshqa usullar bilan daromad olishni rejalashtiradi, ya'ni kredit bo'yicha shartnomadagi foiz to'lovlaridan tashqari, yuqorida ta'kidlangan qo'shimcha to'lovlarni undirishga harakat qiladi. Kredit foiz stavkasining ijobiy darajasini ta'minlash bankning kreditlash bo'yicha olishni rejalashtirgan daromadlari, ya'ni mijozning kredit

---

<sup>26</sup> Moiseev S.R. «Tsenaobrazovanie» na kredit v Rossiya i vozmozhnosti ego optimizatsii // Bankovskoe delo, № 4, 2009. S.27-33.

<sup>27</sup> «Potrebitelskiy krediti viveli na chistiy protsent», // Kommersant'. №2 (3578), 2007.



bo'yicha jami to'lovlari yig'indisini berilgan kredit summasiga nisbati sifatida aniqlash va uni mijozga taqdim etish orqali belgilanadi.

Rossiya bank amaliyotida qarz oluvchi mijozlarga foiz siyosatini aniq ifodalovchi kredit foiz stavkalarining ijobiy darajasini ta'minlash bo'yicha majburiy tartib ishlab chiqilgan. Unga muvofiq tijorat banklari jismoniy shaxslarga beradigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarni ijobiy darajasini ta'minlashi va u to'g'risidagi ma'lumotlarni qarzdorga taqdim etishi talab etiladi. Rossiya Markaziy bankining «Jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan kreditlar bo'yicha samarali foiz stavkalarni ta'minlash tartibi to'g'risida» gi (29.12.2006 yilda qabul qilingan) tartibiga muvofiq, barcha tijorat banklari kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining ijobiy darajasini ta'minlagan holda, o'z mijozlariga taqdim qila boshladi.

## **19-mavzu. “Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash tartibi”**

**1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berishning huquqiy asoslari**

**2. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berish amaliyoti va uning ijtimoiy ahamiyati**

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berishning huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-son Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida» 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli qarori bilan tijorat banklariga kredit portfeli tarkibidagi uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashtirish ulushiga qarab tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha foyda solig'ini to'lash yuzasidan berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati 2020 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi.

Imtiyozli kreditlash maxsus Jamg'armasining resurslari hisobidan berilgan kreditlar orqali tijorat banklari oladigan daromadlari, bo'shayotgan mablag'larni mazkur Jamg'arma resurslarini oshirish uchun maqsadli yo'naltirish sharti bilan, foyda solig'ini to'lashdan 5 yil muddatga ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi va Moliya vazirligining 2013 yil 14 oktyabrdagi 329-V va 98-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 19 noyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, 2527- sonli “Tijorat banklari tomonidan davlat maqsadli jamg'armalari kredit liniyalari hisobidan imtiyozli mikrocreditlar berish tartibi to'g'risida”gi nizomga asosan;

**davlat maqsadli jamg'armasi** — O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;

**davlat maqsadli jamg'armasi kredit liniyasi** — davlat maqsadli jamg'armasi tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun tijorat banklariga ajratiladigan mablag'lar;

**qarz oluvchilar (qarzdor)** — yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari e'tirof etilgan.

Mikrokreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, muddatlilik, shuningdek maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

Mikrokreditlar 6 oylik imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz eng kam ish haqining 1000 baravarigacha miqdorda beriladi.

Mikrokreditlarning foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi. Bunda bank marjasi foiz stavkasining 50 foizini tashkil etadi.

Imtiyozli davr bilan berilgan mikrokreditlar bo'yicha foizlar ular berilgan kundan boshlab hisoblanadi va asosiy qarz imtiyozli davr tugaganidan keyingi kundan boshlab undiriladi.

Mikrokreditlar:

ilgari olingan kreditlarni yoki har qanday boshqa qarzlarni qaytarish;  
alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish;

savdo-vositachi va umumiy ovqatlanish tashkilotlari aylanma mablag'larini shakllantirish;

savdo va umumiy ovqatlanish ob'ektlarini qurishni moliyalash, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda ular uchun uskunalar sotib olish;

ishlab chiqarish maqsadlari uchun ishlatilmaydigan shaxsiy mulkni sotib olish;

ma'muriy xarajatlarni to'lash, jumladan xizmat avtomobillari ta'minoti;

mebel, uyali telefon sotib olish, shuningdek aloqa xizmatlariga to'lov maqsadlari uchun berilishi mumkin emas.

Davlat maqsadli jamg'armasi kredit liniyasi hisobidan mikrokreditlar:

chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik va baliqchilikni rivojlantirish;

mahsulotlar ishlab chiqarish, xom ashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash;

hunarmandchilikni rivojlantirish;

kasanachilikni tashkil etish;

xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun beriladi.

Davlat maqsadli jamg'armasi kredit liniyasi hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadlari uchun ajratiladigan mikrokreditlarni olishda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj quyidagi qatlamlari ustuvorlikka ega bo'ladi:

kam ta'minlangan oilalar a'zolari;

tarkibida nogironlar, jumladan Ko'zi ojizlar jamiyati a'zolari bo'lgan oilalar;

tarkibida ikki va undan ortiq ish bilan band bo'lmagan a'zolari bo'lgan oilalar;

boquvchisini yo'qotgan oilalarning a'zolari;

yosh oilalarning a'zolari.

Qarz oluvchi o'zining mazkur badda nazarda tutilgan oila a'zosi ekanligini tasdiqlash uchun bankka fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasini taqdim etishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qaroriga asosan "Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risidagi nizom"i O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 27 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2546 ga asosan.

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda oilaviy korxonalar kreditlash ob'ektlari hisoblanadi.

2. Kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

3. Kreditlar tijorat banki va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq beriladi.

4. Kreditlar kreditlanayotgan tadbirning o'zini-o'zi qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarga beriladi:

qarz oluvchi o'z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag'larni shakllantirish va investitsiya loyhasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga — 12 oy muddatgacha;

aylanma mablag'larni to'ldirishga — 18 oy muddatgacha;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga — 24 oy muddatgacha.

5. Tijorat banklari kreditlar bo'yicha kreditlashning imtiyozli davrini belgilashlari mumkin.

6. Kreditlar qonun hujjatlarida taqiqlangan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun ajratilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 16 aprelda 1337-son bilan ro'yxatga olingan Mazkur Nizomga AV 22.06.2012 y. 1337-2-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori bilan o'zgartirish kiritilgan "Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan fermer xo'jaliklariga g'alla etishtirish uchun "O'zdonmahsulot" tayyorlov korxonalarini bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomasi summasining 30 foizigacha miqdorida, ushbu kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olmagan fermer xo'jaliklariga kontraktatsiya shartnomasi summasining 80 foizigacha miqdorida kredit berilishi mumkin.

Jamg'arma kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan paxta xom ashyosi etishtiradigan fermer xo'jaliklariga ushbu kredit kontraktatsiya shartnomasi summasining 20 foizigacha miqdorida, ushbu kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olmagan fermer xo'jaliklariga beriladigan kredit miqdori kontraktatsiya shartnomasi summasining 70 foizigacha miqdorida beriladi.

Kreditlar mazkur Nizomda belgilangan shartlar asosida kreditni qaytarishga qodir bo'lgan qarz oluvchilarga shartnoma asosida 1,5 yilgacha (18 oy) bo'lgan

muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i joylashgan manzil bo'yicha beriladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi va bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra kredit shartnomasi asosida belgilanadi.

Tijorat banklari ushbu kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkalari belgilash borasida qaror qabul qilish huquqiga egalardir.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori kredit shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

Kreditlar qarz oluvchilarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- qishloq xo'jaligi texnikasi, ehtiyot qismlar va uskunalarni xarid qilish;
- yonilg'i-moylash materiallarini xarid qilish;
- mineral o'g'it, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari, veterinariya dori-darmonlari sotib olishga;
- MTP, muqobil MTP, shirkat xo'jaliklari, SIU (suv iste'molchilari uyushmalari), boshqa xo'jalik sub'ektlari xizmatlaridan foydalanganlik uchun to'lovlar;
- g'alla hosilini o'rish va paxta xom ashyosi yig'im-terimi xarajatlari uchun to'lovlar;
- bevosita g'alla va paxta xom ashyosi ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarga uchun.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 18 iyulda 1697-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda mazkur Nizomga AV 22.06.2012 y. 1697-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan "Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga imtiyozli asosda kreditlar berish tartibi to'g'risida **Nizom qabul qilindi.**

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Mikromoliyalash to'g'risida», «Ipoteka to'g'risida», «Iste'mol krediti to'g'risida»gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida» 2007 yil 18 maydagi PF-3878-son Farmoniga muvofiq, tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga imtiyozli shartlar asosida mikro kreditlar, ipoteka va moliyaviy iste'mol kreditlari berish tartibini belgilaydi.

**yosh oila** — har biri 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan yoshlar kiradi;

**imtiyozli davr** — kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilgan davr;

**mikrokredit** — yosh oilalarga eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun beriladigan pul mablag'lari;

**ipoteka krediti** — yosh oilalarga sotib olinayotgan ko'chmas mulkni garovga olish orqali uy-joy qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun beriladigan kredit;

1. Kreditlar tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, maqsadli foydalanish va muddatlilik shartlari asosida beriladi.

2. Tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan yosh oilalarga kreditlar quyidagi imtiyozli shartlar asosida beriladi:

oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish uchun mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda o'rnatiladi;

yosh oilalarga beriladigan ipoteka kreditlari uch yillik imtiyozli davr bilan foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

yosh oilalarga beriladigan moliyaviy iste'mol kreditlari olti oylik imtiyozli davr bilan foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

3. Imtiyozli davr o'rnatilgan holda berilgan kreditlar asosiy qarzni to'lash bo'yicha imtiyozli davr tugagandan keyingi oydan boshlanadi.

Imtiyozli davr kredit bo'yicha foizlar hisoblash va undirishga tatbiq etilmaydi. Bunda foizlar yosh oilaga kredit bo'yicha qarzdorlikning amaldagi qoldig'iga kunlik hisoblab boriladi va oyda bir marta undiriladi.

4. Yosh oilalarga mikrokreditlar quyidagi maqsadlarga beriladi: oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish uchun;

mikrofirmalar, kichik korxonalar, oilaviy korxonalar, fermer xo'jaliklari, shuningdek yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari dastlabki (boshlang'ich) sarmoyasini shakllantirish uchun;

yakka tartibdagi tadbirkorlik, mikrofirmalar, kichik korxonalar, oilaviy korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklarini kengaytirish va rivojlantirish uchun.

5. Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga mikrokreditlarning berilishi, monitoringi va qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi Qonuni va banklarning ichki kredit siyosatlarini bilan tartibga solinadi.

6. Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan yosh oilalarga mikrokreditlarning berilishi, monitoringi va qaytarilishi «Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan kredit berish tartibi to'g'risida nizom» bilan tartibga solinadi.

Jamg'armasi hisobidan berilgan mikrokreditdan foydalanganlik uchun imtiyozli foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdorida o'rnatiladi.

7. Davlat maqsadli jamg'armalari kredit liniyalari hisobidan yosh oilalarga imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha mikrokreditlarning berilishi, monitoringi va qaytarilishi «Tijorat banklari tomonidan davlat maqsadli jamg'armalari kredit liniyalari hisobidan imtiyozli mikrokreditlar berish tartibi to'g'risidagi nizom» ga asosan tartibga solinadi.

Uy-joy qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olishga ipoteka kreditlari berish, monitoring qilish va qaytarish tartibi

8. Ipoteka kreditlari yosh oilalarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kelishilgan yakka tartibdagi va namunaviy loyiha asosida, qurilishning belgilangan normalari va qoidalariga rioya qilgan holda yakka tartibda uy-joy qurishga va rekonstruktsiya qilishga;

yakka tartibdagi uy-joyi yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib olishga.

9. Tijorat banklari yoki boshqa kredit tashkilotlari tomonidan yosh oilalarga ipoteka kreditlari berish, monitoring qilish va qaytarish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 3 yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan «Uy-joy qurilishiga, uni rekonstruktsiya qilishga va sotib olishga ipoteka krediti berish to'g'risida nizom» asosida, mazkur Nizomda belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda tartibga solinadi.

10. Ipoteka kreditlari yosh oilalarga 15 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Bunda, yosh oilalar vositachilik haqini to'lamasdan kreditni muddatidan oldin qaytarishi hamda unga hisoblangan foizlar to'lovini muddatidan oldin amalga oshirishi mumkin.

11. Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga beriladigan ipoteka krediti kredit resurslari manbasidan qat'i nazar, quyidagi miqdorlarda beriladi:

yakka tartibdagi uy-joyi qurilishi va sotib olish uchun — qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 3000 baravarigacha;

yakka tartibdagi uy-joyi rekonstruktsiya qilish, shuningdek ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib olish uchun — qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigacha.

12. Yosh oila a'zolari (er yoki xotin)ning ish beruvchisi bo'lgan yuridik shaxslar yosh oila tomonidan olinadigan uy-joy qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olishga ipoteka krediti uchun dastlabki badalni bankka o'tkazishlari mumkin.

Bunda, badal summasi yosh oila a'zosi (eri yoki xotini)ning qaysi biri nomiga ipoteka krediti rasmiylashtiriladigan bo'lsa, uning nomiga bankda ochilgan jamg'arma omonat hisobvarag'iga ish beruvchi tomonidan o'tkaziladi.

Yosh oilalarga moliyaviy iste'mol kreditlari berish, monitoring qilish va qaytarish tartibi

13. Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga moliyaviy iste'mol kreditlari berish, monitoring qilish va qaytarish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Iste'mol krediti to'g'risida»gi Qonuni bilan ushbu Nizomda belgilangan xususiyatlar hisobga olingan holda tartibga solinadi.

Ma'lumki, 2007 yil 14 aprelda Adliya vazirligida 1675 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid kilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi" to'g'risidagi Nizomga asosan (mazkur Nizomga AV 07.04.2011 y. 1675-1-son bilan ro'yxatga olingan MV, MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan) kreditlar davlat ehtiyojlariga sotiladigan mahsulot qiymatining 60 foizigacha miqdorlarida yillik 3foizlik ustama haq to'lash sharti bilan (2 foizli qismi bank marjasi) g'alla uchun 12 oygacha, paxta xom ashyosi uchun 18 oygacha bo'lgan muddatga beriladi;

Bunda, kreditlar agrotexnika tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda ajratiladi:

a) paxta xom ashyosi uchun yilning 1 yanvariga qadar paxta xom ashyosi qiymatining 10 foizgacha, apreliga qadar 25 foizgacha, 1 sentabrga qadar 60 foizgacha;

b) g'alla uchun 1 yanvarga qadar g'alla qiymatining 35 foizigacha, 1 aprelga qadar 50 foizgacha 1 iyunga qadar 60 foizgacha;

Har oy va choraklarda ajratiladigan kredit resurslari miqdori Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi taklifiga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda o'zgartirilishi mumkin.

Kredit miqdori qishloq xo'jaligi korxonasining "O'zpaxtasanoat" uyushmasi va "O'zdonmahsulot" AK korxonalari bilan davlat ehtiyojlari uchun etkazib beriladigan mahsulot uchun tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi o'rtacha xarid narx asos qilib olinadi.

### **Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berish amaliyoti va uning ijtimoiy ahamiyati**

Respublikamizda tijorat banklari kreditlari bo'yicha tabaqalangan foiz stavkalarini belgilash amaliyoti tahsinga sazavordir. Xususan, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hamda aholining kam ta'minlangan qatlamini moliyaviy qo'llab quvvatlash maqsadida biznes uchun boshlang'ich kreditlarga va iste'mol kreditlarga Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi darajasida imtiyozli kreditlar berish, ayrim kreditlar bo'yicha uning 50 foizi darajasida belgilash tartibi joriy etildi.

Iqtisodiyotni real sektorini kreditlash uchun imtiyozli zaxiralarni shakllantirish jarayoni milliy iqtisodiyotimizni o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini oshirish maqsadida yil yakuni bo'yicha olingan foydaning 25 foizgacha bo'lgan summasi miqdorida imiyozli kreditlash zaxiralarni shakllantirish va ushbu zaxira summasini soliqqa tortish bazasidan chiqarib tashlash kabi pul-kredit siyosatining noan'anaviy usullarini joriy etdi. O'zbekiston hukumati tomonidan o'z vaqtida qabul qilingan qarorlar asosida va Markaziy bankning noan'anaviy pul-kredit siyosati natijasida mamlakatimizda "so'nggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko'paydi"<sup>28</sup>.

Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektorini har tomonlama rivojlantirish, ularning faoliyatini izchil taraqqiy etishi uchun davlat tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga investitsiya kiritilishi natijasida, iqtisodiy nochor

---

<sup>28</sup> Каримов И.А. "2015 йилда иқтисодийотимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тadbirkorликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиз". "Халқ сўзи" газетаси, 19 январ 2015 йил, 11-сон.

korxonalarining faoliyatini qayta tiklash, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xamda ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash imkonini bermoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan jamiyatni rivojlantirishning "o'zbek modeli"ning hayotga tatbiq etilishi va uning asosida inqirozga qarshi choralar kompleksining amalga oshirilishi tufayli iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida rivojlanishga erishilmoqda.

So'nggi yillarda qator rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish sur'ati pasayib, ishsizlik darajasi oshayotgan, ayrim davlatlar iqtisodiyoti esa defolt yoqasida turgan bir paytda O'zbekistonda keng ko'lamli tarkibiy o'zgarishlar davom etmoqda. Mamlakatimizning eksport salohiyati o'sib, jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi ortmoqda. Bularning barchasi yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlarida o'z aksini topmoqda. Xususan, 2015 yil yakuni bo'yicha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmining real o'sishi 2014 yilga nisbatan 8 foizni va uning nominal hajmi 171,4 trln. so'mni tashkil etdi.<sup>29</sup>

Mamlakatimiz bank tizimi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, strategik ahamiyatga ega tarmoqlarni moliyalash va investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda alohida o'rin egallayotganini ta'kidlash joiz. Aynan shu maqsadda keyingi yillarda bank sektorining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsiya yo'nalishida uzoq muddatli resurs bazasini ko'paytirish va bank kapitallashuv darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida banklar jami kapitali 2016 yilda 7 784 mlrd. sumga etib, so'nggi besh yilda 2,4 barobar ko'paydi.

Hozirgi paytda tijorat banklari tomonidan korxonalarini zamonaviy asbob-uskunalar xamda texnologik liniyalar bilan jihozlash, ularning negizida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va korxonalarini strategik investorlarga sotish bo'yicha choralar ko'rilmqda.

Tijorat banklarining kredit liniyalari hisobidan strategik ahamiyatga ega ob'ektlar qurildi, raqobatbardosh, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaydi, aholi bandligini oshirish ta'minlandi.

Banklar faoliyatida bu yil ham investitsiya faoliyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. 2015 yilda iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlarning hajmi 2014 yildagiga nisbatan 27,7 foizga oshib, ularning tijorat banklari jami kredit portfelidagi salmog'i 79,8 foizni tashkil etdi. Bu esa qulay ishlab chiqarish muhitini yaratishda va real sektor faoliyatini rag'batlantirishda mamlakatimiz banklari alohida o'rin tutishidan dalolat beradi.

Chunki, banklar bandlikni ta'minlashning muhim omili va barqaror daromad manbaiga aylanayotgan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, xizmat ko'rsatish va servis ob'ektlarini tashkil etish uchun aholiga mablag'lar ajratib kelmoqda.

Iqtisodiyotimizning real sektoriga tijorat banklari tomonidan investitsiya kiritishning ahamiyati o'ta muhimdir. Chunki tijorat banklari iqtisodiyotning

---

<sup>29</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг маълумотлари ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz))



strategik tarmoqlarining, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ob'ektlarining investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash hamda ularga kredit ajratish ishiga o'zining salmoqli hissa qo'shmoqda. Tijorat banklarining investitsion faoliyati orqali iqtisodiyotning real sektor tarmog'ini modernizatsiya qilish, uning faoliyatini yanada kengaytirish, texnik va texnologik qayta jihozlashga uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash xajmlarini oshirish va ularning resurs bazasini mustahkamlash imkonini yaratadi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga yaratilayotgan qulay ishbiarmonlik muhiti va imtiyozlar ular salohiyatining mamlakatimiz YaIMdagi ulushining tobora oshib borishida o'z aksini topmoqda.

2012 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakatimiz YaIMdagi ulushi 54,6 foizni, 2013 yilda bu ko'rsatkich 55,8 foizni, 2014 yilda 56,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilning yakuniga ko'ra 56,7 foizga etdi.

O'tgan yilda tadbirkorlarga tashqi bozorlarni o'rganish va o'zlarining eksport salohiyatlarini yanada oshirish borasida ham bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Bu borada mamlakatimizdagi etakchi banklardan biri hisoblangan Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining o'rni alohida e'tiborga molik.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar, ularga ajratilayotgan kreditlar hajmini jadal sur'atlarda oshirish imkonini bermoqda.

Xususan, 2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 9 158 mlrd.so'm yoki 2013 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2015 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 12 112 mlrd.so'm, shu jumladan, 2 526 mlrd. so'm miqdoridagi mikrokreditlar ajratildi va bu o'tgan yilga nisbatan 1,3 barobardan ziyoddir.



**1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hamda mikrokreditlar dinamikasi.<sup>30</sup>**

<sup>30</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг маълумотлари ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz))

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2015 yilda 12,1 trln.so'm miqdorida kreditlar berilib, shuning 2,5 trln.so'mi mikrokreditlar hissasiga to'g'ri keladi.

2016 yilda tijorat banklari tomonidan 14,0 trln.so'm yoki 2015 yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p miqdorda kreditlar ajratish prognoz qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish uchun:

- qulay ishbilarmonlik hamda sof raqobat muhitini yaratishni davom ettirish;
- kuchli huquqiy himoya va imtiyozlar ko'lamini yanada kengaytirish;
- mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish;
- tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar yordamida rag'batlantirish lozim.

Tijorat banklarining resurs bazasini xususiy kapitalni jalb etish orqali mustahkamlash, banklarning kreditlash va investitsiyalash imkoniyatini tubdan oshirishga, natijada bank aktivlari hajmining oshishiga imkon yaratadi. Shu sababli tijorat banklari tomonidan aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun jozibador omonatlar va depozitlar ko'lamini kengaytirish har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi.

Banklarning investitsion kreditlari ustuvor ravishda "2015-2019 yillarda sanoatni rivojlantirish" Davlat dasturiga kiritilgan loyilarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda.

2015 yil mobaynida korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga tijorat banklari tomonidan jami 10,2 trln. so'm yoki 2014 yilga nisbatan 1,2 barobardan ko'proq investitsion kreditlar ajratildi.

Tijorat banklarining iqtisodiyot real sektori korxonalarini kreditlashga yo'naltirilgan mablag'lari summasi 2014 yil boshida 2013 yil boshiga nisbatan 30,1 foizga oshib, 26,5 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 34,8 trln.so'mni, 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra esa o'tgan yilga nisbatan 27,3 foizga oshib, 42,7 trln.so'mga etdi.

E'tiborga molik jihati, respublikamiz tijorat banklarining kredit portfeli va umumiy aktivlarining yuqori o'sish sur'atlari asosan ichki zaxiralarni va manbalarni ko'proq jalb qilish evaziga ta'minlanmoqda.

O'tgan yilda iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlarning 86,7 foizi ichki manbalar hisobiga to'g'ri keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PQ-1438-sonli Qarorining amaldagi ijrosi mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektori korxonalarini kreditlash hajmini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish imkoniyatini yaratmoqda.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsilash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadida ajratilgan bank kreditlarining rolini yanada oshirish uchun:

-xususiy kapitalni keng jalb qilgan holda tijorat banklari resurs bazasi hajmini, uning tarkibi va sifat darajasini ta'minlash orqali oshirish;

-mijozlarni kreditlash jarayonining tashkiliy bosqichi muddatlarini yanada kamaytirish borasida dasturiy ta'minotlardan kengroq foydalanish va mijozlar moliyaviy ahvolini aniqlashning kredit skoringi kabi zamonaviy usullaridan samarali foydalanish;

-banklar faoliyatida zamonaviy bank xizmatlari turlari ko'lamini kengaytirish, zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish va ularning samaradorligini oshirish orqali mijozlarga keng qulayliklar yaratish lozim.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini kreditlash hajmini oshirish - korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, ularning eksport salohiyatini mustahkamlashni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4725-sonli Farmoniga muvofiq iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada engillashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha to'siq va g'oyalarni bartaraf etish bo'yicha keskin va ta'sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini yanada erkinlashtirish, qo'shimcha imtiyoz va qulayliklar yaratish - ularning bank xizmatlari va kreditlariga talabining oshishiga zamin yaratmoqda.

O'tgan, 2015 yilda davlatimiz hukumati tomonidan kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada soha subektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2014 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'payib, 2016 yilning 1 yanvar holatiga 12 112 mlrd. so'mdan ortib ketdi. Jumladan, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 2 526 mlrd. so'mdan oshib, bu ko'rsatkichning ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 barobarga o'sishi ta'minlandi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash hajmlarining yildan-yilga ortib borishi, ularning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi hissasining tobora ortishida o'z ifodasini topmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakatimiz YaIMdagi ulushi 2014 yilda 56,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda 56,7 foizni tashkil etdi. Bunday yuqori ko'rsatkichlarga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hamda mikrokreditlarning o'zni beqiyosdir.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar xalqaro moliya tashkilotlarining reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda.

Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

O'tgan yilning oktabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.

«Yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalariga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga yaratilayotgan qulayliklar va imtiyozlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-kredit olish uchun arizalarni elektron tizim orqali qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yilganligi va muddatlarining qisqartirilganligi;

-davlat byudjetiga ularning hisobvaraqlaridan soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashda bank xizmatlari uchun to'lovlar undirish amaliyoti bekor qilinganligi va boshqalar.

Xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar dasturini izchil amalga oshirish, iqtisodiyotda kichik biznes sub'ektlari hissasining yildan-yilga ortishida muhim o'rin tutadi.

Bank tizimida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ushbu maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag'lar hajmini keskin oshirish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida 2014 yil davomida yosh tadbirkorlar, yosh hunarmandlar va yosh fermerlarning loyihalarini moliyalashtirish uchun 330,2 mlrd. so'm, yosh oilalarga 234,8 mlrd. so'm miqdorida ipoteka kreditlari, 74,4 mlrd. so'm miqdorida iste'mol kreditlari, shuningdek 68,0 mlrd. so'm miqdorida ta'lim kreditlari ajratildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yilda yosh oilalarni yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan majlis bayoniga asosan hududlarda ko'p qavatli "Kamolot" uylarini qurilishiga 82,3 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

O'tgan 2015 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari bilan hamkorlikda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun ko'mak berish maqsadida keng miqyosda targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirdi.

Xususan, birgina 2015 yil davomida joylarda, shu jumladan respublikamizning eng chekka tumanlarida Markaziy bank tashabbusi bilan aholi, yosh tadbirkorlar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari o'rtasida 300 ga yaqin turli xil forumlar, anjumanlar, seminarlar, amaliy uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkil etildi.

Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi biz uchun eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lgan – aholi bandligini

ta'minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi.

O'z navbatida, tijorat banklari tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish maqsadlariga 2014 yil davomida 2013 yilga davriga nisbatan 1,4 barobarga ko'p yoki 200,9 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli mikro kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2015 yilda tijorat banklari tomonidan ularga o'z biznesini tashkil qilish uchun 277,8 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratildi va bu 2014-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'pdir.

2015 yilda 980 mingdan ortiq ish o'rinlari tashkil etilib, ularning 60 foizidan ortig'i qishloq joylariga to'g'ri keladi. Jumladan, kollejlarning 480 mingdan ortiq bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi. 2016 yilda oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari o'quvchilarining 510 mingtasini ish bilan ta'minlash prognozlashtirildi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish maqsadlariga imtiyozli mikro kreditlar ajratilishi va o'z biznesini tashkil qilishlarida ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida 2016 yilning 1 yanvaridan shahar va tuman hokimliklari huzurida "Yagona darcha" muassasalari ish boshladi. Bu esa yoshlarimizning mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishidagi hissalarining ortishiga o'zining samarali ta'sirini ko'rsatadi.

## **19-mavzu. "Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash tartibi"**

### **3. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berishning joriy holdagi tahlili**

#### **4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditni rivojlantirish istiqbollari**

### **Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berishning joriy holdagi tahlili**

Ma'lumki, kreditlash amaliyotining tijorat banklari faoliyatida tutgan o'rnini baholashda bank aktivlari hamda ularning YaIMdagi salmog'ini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini to'g'ri tashkil etilishi tufayli bankning asosiy daromadlari shakllantiriladi. Bundan tashqari mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda bank kreditlarinig o'zni katta. Mamlakat YaIMda bank kreditlari ulushining ortib borishi iqtisodiyotna jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori mamlakatimizda banklar tomonidan real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolini yanada oshishiga zamin yaratdi.

Tahlillar natijasiga ko'ra, bank aktivlarining asosiy qismini kredit quyilmalari tashkil etadi. Sababi, tijorat banklarida kreditlash amaliyotini to'g'ri tashkil etilishi tufayli bankning asosiy daromadlari shakllantiriladi. Bundan tashqari mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda bank kreditlarinig o'rni katta. Mamlakat YaIMda bank kreditlari ulushining ortib borishi iqtisodiyotna jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bank tizimi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmini 2011-2015 yillarda 2,7 baravarga oshirish;
- xalqaro moliya muassasalari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdorini oshirish;
- tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armalarini tashkil etish, jamg'arma mablag'larini uzoq hamda borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek aholi zich yashovchi hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun safarbar etish;
- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarini kreditlash hajmini oshirib borish;
- mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni harid qilish uchun aholiga iste'mol kreditlari berishni yanada oshirish va boshqalar.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini yanada oshirish maqsadida tegishli biznes-tarkiblar bilan olib borilayotgan o'zaro hamkorlik ishlari yanada kengaytirilmoqda. Amalga oshirilgan ishlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar miqdori yildan yilga oshib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilgan mikrokreditlar hisobiga yangi ish o'rinlari tashkil etilmoqda.

Mazkur, jarayon mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birgalikda, tovar va xizmatlar miqdorini oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda bank tizimida biznesni yuritish shart-sharoitlarini engillashtirish va arzonlashtirish hamda tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda.

Izchillik bilan amalga oshayotgan islohotlar natijasida bugun yurtimizning deyarli barcha hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan bank muassasalari, korporativ korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, dehqon va fermer xo'jaliklarining ishonchli hamkoriga aylanib bormoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 6 iyundagi 175-sonli qaroriga asosan O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi huzurida

tashkil etilgan Investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasi tomonidan 2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etilgan loyihalarning 33 tasi ma'qullanib, mazkur investitsiya loyihalari bo'yicha tegishli hujjatlar ishlab chiqarilishi moliyalashtirildi.

Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarining 105 ta loyihalari doirasida tijorat banklari tomonidan 49,3 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish ustuvor vazifamizga aylandi.

Ayni paytda barqaror va ishonchli faoliyat yuritib kelayotgan ATB "Agrobank" aktsiyadorlik tijorat banki ham iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, uning etakchi tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish hamda texnik va texnologik jihatdan yangilash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish hamda aholining ish bilan bandligini ta'minlashga qaratilgan hukumat tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Bundan tashqari, 2015 yilda respublikada investitsion faollikni oshirish hamda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish dasturlariga asosan "O'zdonmahsulot" AK korxonalariga ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlash uchun 55,9 mlrd. so'mlik bank kreditlari berildi.

Hukumat qarori asosida tashkil etilgan va bugungi kunda hisob raqamlari ochilgan 18 ta "Davsuvmaxsuspuadrat" Davlat unitar korxonalariga Agrobank filiallari tomonidan to'laqonli xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda.

Qishloq joylarda suv tanqisligining oldini olish va erlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan bayonnomalar ijrosini ta'minlash borasida 2015 yil davomida Davlat unitar korxonalariga aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 4,4 mlrd. so'm kreditlar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3-iyuldagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 302-sonli Qaroriga asosan Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan erlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tomonidan o'tkazilayotgan tender savdolarida faol qatnashishi uchun davlat unitar korxonalariga 2015 yil davomida Agrobank tomonidan umumiy miqdori 19 mlrd. so'mlik bank kafolatlari taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28-noyabrdagi PF-4058-sonli farmoni bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish yuzasidan Farg'ona viloyati «Quva tekstil» OAJga revolver asosida o'tgan 2015 yilda ajratilgan jami 5 mlrd. so'm kredit resurslari hamda taqdim etilgan jami 5505 ming AQSh dollar bank kafolatlari hisobiga

o'tgan 2015 yil davomida 7949 tonna paxta tolasi o'zlashtirilgan va 10628 ming AQSh dollar hajmidagi mahsulotlar eksport qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 18 fevraldagi PQ-2302-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan "Keksalarni qadrlash yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida aholini, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun bank filiallari tomonidan iste'mol kreditlari ajratib kelinmoqda.

Xususiyl sektorni rivojlantirish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i yil yakuniga qadar 313,4 mlrd. so'mni yoki bank kredit portfelining 10,4 foizini tashkil qildi.

2016 yil 1 yanvar holatiga jami ajratilgan ipoteka kreditlarining qoldig'i 1254 ta mijoz bo'yicha 79,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2015 yil davomida 168 ta mijozga 16,1 mlrd. so'mlik, shu jumladan 29 ta yosh oilalarga 3,6 mlrd. so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi.

Adliya vazirligida 2015 yil 20 martda ro'yxatdan o'tgan 2344-1-sonli Nizomga muvofiq 2015 yil davomida shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish uchun jami 7389 ta mijoz bo'yicha 41,2 mlrd. so'm kredit berildi. Shundan, mevali daraxt ko'chatlari sotib olish uchun 2,5 mlrd. so'm, urug' va mineral o'g'itlar xaridi uchun 1,7 mlrd. so'm, issiqxona tashkil etishga 6,3 mlrd. so'm, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish maqsadlariga 3,6 mlrd. so'm va chorvachilikni rivojlantirish uchun 27,1 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, maksimal darajada qulay investitsiya iqlimini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish sharoitlarini tubdan yaxshilash borasida davlatimiz rahbarining Farmon va qarorlari, Hukumat qarorlariga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun bank xizmatlaridan foydalanishda bir qator qulayliklar yaratilgan.

Xususan, tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilash, ularning kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ajratilayotgan kreditlar hajmini oshirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida, so'nggi 10 yil davomida yurtimizda bank tizimi tomonidan kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 20 barobardan ziyodga o'sdi, o'nlab yangi bank xizmati turlari joriy etildi.

Prezidentimiz tomonidan 2015 yilni "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilinishi hamda unga muvofiq 2015 yil 18 fevralda qabul qilingan "Keksalarni e'zozlash yili Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2302-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida bank tomonidan zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Mazkur dastur doirasida kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha qaratilgan loyihalarni amalga oshirish hamda aholining moddiy va ma'naviy sharoitini yaxshilash borasidagi tadbirlarni kreditlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga o'tgan yilda jami 56,3 mlrd. so'm, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni kengaytirish uchun 18,9 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Rasmdan ko'rinib turganidek, mamlakatimiz moliya bozorida etakchi o'rinda turuvchi Agrobank tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2015 yilda kreditlar ajratish parametrlari tasdiqlandi.



Mazkur parametrlar ijrosi doirasida kichik biznes sub'ektlariga respublika bo'yicha jami 930,6 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi va belgilangan reja 101 foizga bajarildi. Ushbu kreditlar hajmi o'tgan yilga nisbatan 216 mlrd. so'm yoki 130 foizga o'sdi.

Shuningdek, mijozlarga 275 mlrd. so'm miqdorida mikrokreditlar ajratildi. Belgilangan parametrlar ijrosi 103 foizni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 134 foizga o'sdi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan kichik biznes sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirishga 270 mlrd. so'm kreditlar yo'naltirildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalariga esa 209 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi.

Tadbirkor ayollarning loyihalarini moliyalashtirishga 103,7 mlrd. so'm kredit mablag'lari yo'naltirildi.

O'zining xususiy ishini ochib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga qaror qilgan kollej bitiruvchilariga jami 38,4 mlrd. so'mlik mikrokreditlar ajratilgan va belgilangan reja 102 foizga bajarildi. Ushbu kreditlar hajmi o'tgan yilga nisbatan 136 foizga o'sdi.

Mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishda investitsiyaning o'rnini alohida ahamiyatga ega. Texnik va texnologik yangilanishlar, ishlab chiqarish va xizmatlardagi zamonaviylashuv aynan investorlar va ular keltiradigan investitsiya hisobidan amalga oshiriladi.

Bu jarayonlarda mahalliy bank muassasalarining bevosita ishtiroki esa teng sheriklikka asoslangan hakorlikda ishonchning ortishiga sabab bo'ladi.

ATB "Agrobank" aktsiyadorlik tijorat banki ham bu masalaga hamisha jiddiy e'tibor qaratib keladi. O'tgan 2015 yilda ham bu borada samarali natijalar qo'lga kiritildi.

14 ta iqtisodiy nochor korxonalar bank balansiga qabul qilinib, ularning ishlab chiqarish bazasini rekonstruktsiya hamda modernizatsiya qilish uchun jami 39,5 mlrd. so'm miqdorida investitsiya kiritildi.

Bankrot korxonalar negizida raqobatbardosh va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida xorijdan zamonaviy texnika va texnologiyalar keltirish uchun 15,1 mlrd. so'm (5,5 mln. AQSh doll.) miqdorida mablag'lar ajratildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, bankrot korxonalar o'rnida 9,8 ming tonna oziq-ovqat va 7259 tonna tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, 55 mln. dts. kv. terini qayta ishlovchi yangi korxonalar barpo etildi. Natijada 8332 nafar kishi ish bilan ta'minlandi.

Bugungi kunda ishlab chiqilgan biznes reja ko'rsatkichlariga asosan faoliyati tiklangan korxonalarda 99,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi (shundan 2015 yilda 15,9 mlrd. so'm). Uning 24,8 mln. AQSh dollari miqdoridagisi eksportga yo'naltirildi (2015 yilda 2228 ming. AQSh doll.).

Balansga qabul qilingan 14 ta korxonalar bozor qiymatida jami 73,8 mlrd. so'mga baholandi va bosqichma-bosqich to'lash sharti bilan 76,6 mlrd. so'mga salohiyatli investorlarga sotildi. Sotilgan korxonalar bo'yicha yangi mulkdorlar tomonidan to'lov grafiklariga asosan jami 20,7 mlrd. so'm mablag'lar to'lab berildi.


## Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditni rivojlantirish istiqbollari

Mamlakatda yuqoridagi kabi investitsiya tizimini yanada takomillashtirish maqsadida hukumatimiz tomonidan zarur chora-tadbirlar belgilanmoqda. Ana shu chora-tadbirlarda esa “Agrobank” bevosita o’z mablag’lari va xizmatlari bilan ishtirok etmoqda.

Xususan, 2015 yil davomida ajratilgan investitsion kreditlar miqdori 669 mlrd. so’mgaga etdi. O’tgan yilga nisbatan bu ko’rsatkich 107 foizga o’sdi. Ushbu kreditlarning 155 mlrd. so’mi sanoat, 251 mlrd. so’mi qishloq xo’jaligi, 23,5 mlrd. so’mi qurilish va transport, 111,7 mlrd. so’mi moddiy-texnik ta’minot hamda 49,4 mlrd. so’mi iqtisodiyotning boshqa sohalariga yo’naltirildi.

Ayni paytda barqaror va ishonchli faoliyat yuritib kelayotgan “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki iqtisodiyotdagi tarkibiy o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, uning etakchi tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish hamda texnik va texnologik jihatdan yangilash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari, dehqon va fermer xo’jaliklari faoliyatini rivojlantirish hamda aholining ish bilan bandligini ta’minlashga qaratilgan hukumat tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Rasmda qayd etilgandek, 2016 yil 1 yanvar holatiga kredit portfelida investitsion kreditlar qoldig’i 1499,7 mlrd. so’mmi tashkil etib, o’tgan yilga nisbatan 433 mlrd. so’mgaga yoki 135 foizga o’sdi.



**1 -rasm. ATB “Agrobank”ning kredit portfelining tarkibi haqida ma’lumot<sup>31</sup>.(foizda)**

Yuqoridagi rasmdan ko’rinib turibdiki, ATB “Agrobank” kredit portfeli tarkibining eng yuqori 42 foizini qishloq xo’jaligiga berilgan kreditlar tashkil etadi. Shuningdek, 27 foizini sanoat, 22 foizini moddiy texnik ta’minot va 1 foizini qurilish sohasiga berilgan kreditlar tashkil etadi.


O’tgan hisobot yilida bank tomonidan agrar kompleksni moliyaviy qo’llab-quvvatlash, sanoatda ishlab chiqarishni ko’paytirish, qishloq xo’jalik

<sup>31</sup> ATB “Agrobank”ning yillik hisobot ma’lumotlari.

mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash, fermer xo'jaliklarini moliyalashtirishga asosiy e'tibor qaratilib, ushbu yo'nalishlarga 2 trln. 837 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratilib, pirovardida 37,4 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini tashkil etishda ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun valyutaga sarf qilingan harajatlarni qoplay olish negizida, shuningdek bevosita chet el investitsiyasi negizida chet el kredit, zayomlarini jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Respublika shunday vaziyatda kolganki, u mablag' bilan ta'minlashning noan'anaviy usullarini jalb etmay turib, iqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsata olmaydi. Buning uchun Xalqaro moliya tashkilotlarining xorijiy kredit liniyalarini imtiyozli kreditlash shartlari asosida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirish juda muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar keng jalb etilmoqda. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki (KfW), Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati va boshqa xorijiy investorlar tomonidan katta miqdorda kreditlar ajratilmoqda.



**2-rasm. 2011-2015 yillarda xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kreditlar miqdori<sup>32</sup>(mln.AQSh. dollar)**

Rasmdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdori 2011 yilda 75 million AQSh dollarini, 2015 yilga borib esa 155 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini tashkil etishda ishlab

<sup>32</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 ноябрдаги ПҚ-1438 сонли "2011-2015 йилларда Республика молия банк тизимини янада ислоҳ қилиш ва барқарорлигини ошириш ҳамда юқори халқаро рейтинг кўрсаткичларига эришишнинг устувор йўналишлари тўғрисида"ги Қарorigа мувофиқ тузилган.

chiqarishni zamonaviylashtirish hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirishda o'zining ijobiy samarasini berdi.

## **20-mavzu. “Bank kreditlarini tasniflash, zaxiralar tashkil etish tartibi”**

**1. Tijorat banklari kreditlarini tasniflashning iqtisodiy mohiyati va ob'ektiv zarurligi**

**2. Tijorat banklarida kreditlarni tasniflashning iqtisodiy-huquqiy asoslari**

**Tijorat banklari aktivlarini tasniflashning iqtisodiy mohiyati va ob'ektiv zarurligi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining asosiy maqsadi yuqori daromad olishga qaratilganidir. Buning uchun esa bank moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi, doimiy va muntazam daromad manbaiga ega bo'lishi talab etiladi. Bankning asosiy daromadi bu bevosita aktiv operatsiyalardan shakllanadi. Aktiv operatsiyalarning ichida ssuda(kredit) operatsiyalari asosiy o'rinni egallaydi. Bu shundan dalolat beradiki, kredit operatsiyalarining qay darajada tashkil etilganligi va holati bevosita bank aktiv operatsiyalari, qolaversa, bankning faoliyatini belgilab beruvchi muhim omildir. Bank aktivlarini doimiy tarzda nazorat qilib borish, muammoli aktivlarni o'z vaqtida aniqlash va ular bo'yicha tegishli choralar ko'rish har doim ham dolzarb masala hisoblanadi. Aktivlarni samarali tashkil etish va boshqarishda ularni tasniflash alohida ahamiyatga ega.

Tasnif, (arabcha saralash, tartibga solish) klassifikatsiya – ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi. Tasniflash-davr o'tishi bilan o'rganilayotgan ob'ekt haqidagi bilimlarimizning rivojlanishiga mos ravishda takomillashtirib, tuzatilib, rivojlantirib boriladi. Tasniflash har bir tushunchaning tafakkur tizimidagi o'rnini aniqlab beradi. Tasniflash natijasida hosil bo'lgan bilim predmetning asosiy xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga imkon yaratadi va bu bilimlar tartibga solingan hisoblanadi<sup>33</sup>.

Bank aktivlari tasniflanishini to'g'ri yo'lga qo'yish, uni doimiy nazorat qilib borish, bank tizimida bo'layotgan o'zgarishlar moslashtirish, tasniflash mezonlarini ishlab chiqish banklar samarali faoliyatining garovidir. Bank aktivlari tasniflanganda muammoli aktivlarni oldini olish va kamaytirish choralari ko'riladi. Shunday usullardan biri ssudalar (aktivlar) bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiralarni tashkil etish hisoblanadi.

Kredit xatarining bank faoliyatiga ta'siri natijasi o'laroq ssudalar bo'yicha ehtimoldagi zararni qoplash uchun zaxiralar yaratish zarurati yuzaga keladi. Mazkur zaxira banklarning moliyaviy faoliyati uchun barqaror sharoit yaratilishini ta'minlaydi va ssudalar bo'yicha ko'rilgan zarar hisobdan o'chirilishi munosabati bilan qiymat tebranishini chetlab o'tish imkonini beradi. Ssudalar bo'yicha

---

<sup>33</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 8-том. Т., 2002 йил, 293 б.

ehtimoldagi zararni qoplash uchun zaxira bank xarajatlariga kiritiladigan ajratmalar hisobidan shakllantiriladi va undan asosiy qarz bo'yicha qarzdorlar to'lamagan ssuda qarzini to'lash uchungina foydalaniladi.

Shunday qilib, banklar tomonidan ssudalar bo'yicha ehtimoldagi zararni qoplash uchun zaxiralar yaratilishi bank ajratgan kreditning bir qismi qaytarilmasligi oqibatida to'satdan zarar ko'rish omilini istisno qilish (sug'urtalash) bo'yicha samarali metod hisoblanadi, biroq zaxira hisobidan to'lanishi kerak bo'lgan zarar hajmini belgilovchi kredit xatari miqdorini o'ta aniq belgilashni talab etadi.

Ssudalar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiralarni tashkil etish muammolari birinchi navbatda kredit risklari bilan bog'liq, chunki bank amaliyotida aksar hollarda banklarning bankrot deb e'lon qilinishiga "yomon" kreditlar sabab bo'ladi. Kredit xavfi (riski)ning iqtisodiy mohiyati ko'rilyotgan mavzuning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Kredit riskining mohiyatini tushunmasdan turib zaxiralarning ma'nosi va ahamiyatini aniqlab olish qiyin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida" Nizomga asosan, kredit tavakkalchiligi - qarzdorning shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha bank oldidagi o'z moliyaviy majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik<sup>34</sup>, deb ta'riflanadi. Yuqoridagi ko'rsatmada aytib o'tilgan kredit riski kredit shartnomasida belgilangan muddatgacha bo'lgan davr bilan chegaralanadi. Kredit riski (xatari) shartnoma muddati kechiktirilgandan so'ng ishga tushadi, u bankning inqiroziga yoki unga davomiy ta'sir o'tkazilishiga sabab bo'ladi.

Bazel Qo'mitasi esa kredit riski haqida batafsilroq aytib o'tadi: "Alohida qarz oluvchi bilan bog'liq risk ko'lamini qarz oluvchiga berilyotgan barcha kredit instrumentlari, shuningdek balansda o'z aksini topgan kreditlar, avanslar, overdraftlar, u egalik qilayotgan qimmatli qog'ozlar, qarz oluvchining bevosita va bilvosita majburiyatlari, uning barobarida balansda ko'rsatilmagan majburiyatlar, andarrayting, indossamentlar, joylashtirilgan mablag'lar, berilgan hujjatli akkreditivlar, shartnomaviy majburiyatlarni bajarish kafolatlari va boshqa shartli majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Foiz stavkalari va valyuta shartnomalari bilan bog'liq bo'lgan bank risklari ham ushbu toifaga kiritilishi lozim". Ushbu ta'rifning asosi kredit riski amal qiladigan sanab o'tilgan ob'ektlar, ya'ni kredit vositalari, avanslar, foiz stavkalari, valyuta shartnomalari va hk.lar bilan aniqlanadi. Kredit riski mohiyati, uning iqtisodiy tabiati, kredit riski yuz beradigan kredit munosabatlari yuqoridagi ta'rifga kiritilmaganini ham aytib o'tish joiz.

N.F.Karimovning fikriga ko'ra, kredit riski bank boshqaruv organlarining moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan riskdir. Moliyaviy (kredit) risk-bu firma tomonidan investorlarning firma faoliyatiga jalb

---

<sup>34</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг "Тижорат банкларининг банк таваккалчиликларини бошқаришига нисбатан қўйиладиган талаблар тўғрисида" Низом (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2011 йил 25 майда 2229-сон билан рўйхатга олинган Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2011 йил 7 майдаги 14/2-сон қарори)

qilingan, ya'ni qarzga berilgan mablag'larni qaytarish shartlarining bajarilmasligi ehtimolidir.

Professor Sh.Z.Abdullaevaning ta'riflashicha, kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya'ni kredit summasining (qisman yoki to'liq) va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi.

Bizning nuqtai nazarga ko'ra kredit riskini tasodifiy hodisa tufayli ssudalar(aktivlar)ni hisobga olgan holda ularning foizlari, bank tomonidan berilgan kafolatlar va kafilliklar ko'rinishidagi bo'lgan aktivlarning barchasi yoki bir qismining yo'qotilish ehtimolligidir, deb tasavvur qilish mumkin.

Bank faoliyatidagi zaxiralar uning ishonchliligini ta'minlaydi.

Fanda zaxira tushunchasi (fr. *reserve* g'amlab qo'yilgan narsa, lot. *reservare* – g'amlamoq, saqlamoq) etarlicha keng foydalaniladi va u o'zining mohiyatiga ko'ra “Zaxira-ehtiyot qilib saqlangan narsalar (ozuq-ovqat, pul, buyum, qurol-aslaha va b.)<sup>35</sup> yoki “zarurat tug'ilganida ishlatish uchun g'amlab qo'yilgan biror narsa; zarur yangi materiallar, kuchlar olinadigan manba”<sup>36</sup> ni bildiradi.

Bunda turli predmetli sohalarda ushbu tushuncha inson faoliyatining u yoki bu sohasining o'zi xos tomonini aks ettiradi. Xususan, ishlab chiqarishda zaxiralar rivojlanish rejalarida ko'zda tutilmagan alohida holatlarda foydalanish uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlari zaxiralarining yig'indisi sifatida belgilanadi. Sug'urta sohasida zaxiralar sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta tovonlari va sug'urta summalarini to'lash kafolatlarini ta'minlash uchun tashkil etiladigan fondlar sifatida tavsiflanadi. Texnikada zaxiralar texnik ob'ekt tarkibiga asosiy uskunadagi ishdan chiqqan o'xshash elementlarni tezlik bilan (avtomat yoki qo'lda) almashtirish uchun mo'ljallangan qo'shimcha qurilmalar, tugunlar va biriktiruvchi qismlarni kiritish yo'li bilan uning ishonchliligini oshirish usuli sifatida belgilanadi. Bank ishida, bizning fikrimizcha, P.Rouzning zaxiralarga bergan ta'rifi klassik hisoblanadi. Unga ko'ra zaxiralar – bu “kutilmagan xarajatlar” uchun qoldirilgan mablag'lardir. Bunda muallif ularga “sud tartibida undirilgan mablag'larni, hali e'lon qilinmagan dividendlarni to'lash uchun foydalaniladigan zaxiralar”<sup>37</sup> to'lovini ham kiritadi.

Fikrimizcha, “zaxiralar” kategoriyasining muayyan noqulay vaziyatlarda foydalanish maqsadida mo'ljallangan g'amlab qo'yilgan narsa (moddiy, texnikaviy, moliyaviy va boshqa resurslar) sifatida tushunilishi yuqorida keltirilgan ta'riflar uchun umumiy hisoblanadi. Aynan shu ma'noda zaxiralar va ularning xo'jalik yurituvchi sub'ektning iqtisodiy barqarorligini ushlab turuvchi vosita sifatidagi roli namoyon bo'ladi.

Zaxiralar nima uchun yaratilishi, (qanday xatarni qoplash uchun), qanday maqsadga sarflanishi, qaysi qoidalarga ko'ra shakllanishi, ularni shakllantirish va ishlatish erkinligi qay darajada ekanligi bank zaxiralarini shakllantirish va ishlatish tartibini belgilaydi. Bank zaxiralarining hammasini bank xatarini sug'urtalash uchun yaratiladigan ma'lum tizim deb hisoblash mumkin.

<sup>35</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 8-том. Т., 2002 йил, 694 б

<sup>36</sup> Большой экономический словарь / Под ред. А.Н.Азрилияна. М.: Институт новой экономики. 2002, 881 с.

<sup>37</sup> Роуз Питер С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. –М. “Дело”, 1997. 449 с.

Kredit tashkilotining zaxiralarini samarali va samarasiz deb tasniflash mumkin. Xususan, A.V.Belyakov “o’z egasiga noqulay voqealardan himoyalani, istalmagan oqibatlarni yumshatish” imkonini beruvchi xususiyatga ega zaxiralarni samarali zaxiralar toifasiga kiritadi. Bunda, uning ta’kidlashicha, “xo’jalik yurituvchi sub’ekt qanchalik ko’p samarali zaxiralarga ega bo’lsa, uning korxonasi shunchalik ishonchlidir”<sup>38</sup>. A.V.Belyakov zaxiralarning bunday turiga “zararlarni qoplash uchun yaratiladigan zaxira fondini” kiritadi, “uni shakllantirish tartibi va undan foydalanish amaldagi fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadi”.

A.V.Belyakovning fikriga ko’ra, samarasiz zaxiralar, “mohiyati bo’yicha emas, balki nomi bilangina zaxiralar bo’lgani holda”, o’z egasini noqulay voqealardan himoya qilish, istalmagan oqibatlarni yumshatish kabi xususiyatlarga ega bo’lmaydigan zaxiralardir.

Ayrim mualliflar zaxira deganda moliyaviy resurslarning kafolatli likvidligini ta’minlash uchun ishlatiladigan aktivlarni tushunadilar. Masalan, Ch.Dj.Vulfelning fikricha, ayrim turdagi operatsiyalarni, xususan aktiv operatsiyalarni boshqarish turli likvidlik darajasiga ega aktivlar ajratilishini va berilgan darajada saqlab turilishini talab etadi: “Naqd shakldagi aktivlar birlamchi zaxira deyiladi”. Ikkilamchi zaxiralar- yuqori sifat va likvidlikka ega bo’lgan daromadli aktivlardir, bular qisqa muddatli davlat qimmatli qog’ozlari, bank aktseptlari, tijorat qog’ozlari<sup>39</sup>. Ch.Dj.Vulfelning fikricha, bunday birlamchi va ikkilamchi zaxiralarni yaratishdan maqsad- tijorat bankining likvidligini ta’minlashdir. O’z mohiyatiga ko’ra- bu balans hisobotlarida aks ettirilmaydigan, biroq qaytarib olinayotgan omonatlarni to’lash va kredit olishga berilgan buyurtmani qondirishda zudlik bilan ishlatish uchun muhim bo’lgan funktsional zaxiralardir, ya’ni tijorat bankining likvidligini ta’minlovchi asosiy manba. Bu zaxiralar barcha aktivlar summasiga nisbatan foiz miqdorida belgilanadi va yuqori likvidlikka ega aktivlardan iborat bo’ladi. Ikkilamchi zaxiralarga ma’lum daromad olib keladigan “g’aznadan tashqari” likvid aktivlar kiradi, chunki biroz zarar ko’rganda ularni sotib, naqd pulga ega bo’lish mumkin. Ular, asosan, qimmatli qog’ozlardan iborat. Ikkinchi navbat zaxiralarning aktivlardagi ulushi butun bank tizimi ma’lumotlariga asoslanib belgilanadi.

E.Ridning ta’kidlashicha, aktivlarni umumiy mablag’lar jamg’armasi modeli asosida yoki “banklar ichidagi banklar” metodi bilan boshqarish jarayonida birinchi navbatda birlamchi zaxiralar shakllanadi, ya’ni likvidlikni ta’minlash maqsadida qaytarib olinayotgan omonatlarni to’lash va kredit olishga berilgan buyurtmani qondirish uchun zudlik bilan ishlatilishi mumkin bo’lgan aktivlar. Bu tijorat bankining likvidligini ta’minlovchi asosiy manba. Birlamchi zaxiralar tarkibiga g’aznadagi naqd pullar va cheklar, boshqa tijorat banklaridagi korrespondentlik hisob raqamlaridagi mablag’lar, ya’ni “Naqd pullar va to’lov

---

<sup>38</sup> Беляков А.В. Банковские риски: проблемы учёта, управления и регулирования.-М. БДЦ-Пресс, 2003. 142 с.

<sup>39</sup> Чарльз Дж.Вулфел. энциклопедия банковского дела и финансов. /Пер. С англ.- М.: Корпорация “Федоров”, 2000.- 1087-б.

hujjatlari” qismiga kiradigan aktivlar kiradi. Iqtisodiy tabiatiga ko’ra, bu funksional kassa likvid aktivlaridir<sup>40</sup>.

Ikkilamchi zaxiralar- bu ma’lum daromad keltiradigan “kassadan tashqari” likvid aktivlardir. Bu eng kam xatar qilgan holda nisbatan qisqa muddatda naqd pulga aylantirish mumkin bo’lgan yuqori likvidli daromadli aktivlardir. Ikkilamchi zaxiralardan asosiy maqsad- birlamchi zaxiralarni to’ldirish manbai bo’lib xizmat qilish. Ikkilamchi zaxiralar- bu buxgalterlik hisobotlarida aks ettiriladigan iqtisodiy kategoriya. Ikkinchi navbat zaxirasiga likvid qimmatli qog’ozlar yoki ssuda hisob raqamlaridagi mablag’lar kiritiladi. “Tijorat banklari” kitobi mualliflarining fikriga ko’ra “omonatlari va kreditlari hajmi barqaror bo’lgan bankka qaraganda, omonatlari miqdori va kreditiga talab tez o’zgarib turadigan bankka katta miqdordagi ikkinchi navbat zaxirasi ko’proq zarur”

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2015 yil 13 iyunda 14/5--sonli “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo’yicha ehtimoliy yo’qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibida” nizomga asosan zaxiralar quyidagicha ta’riflanadi:

Maxsus zaxira - “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan kreditlar va lizing yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo’yicha yuzaga kelish mumkin bo’lgan zararlarni qoplashga mo’ljallangan zaxira. Umumiy zaxira - bu zaxira bank faoliyati bo’yicha umuman yoki biror-bir faoliyat turi (kreditlash, investitsiyalash va b.) bo’yicha yuzaga kelishi mumkin bo’lgan zararlarni qoplash uchun mo’ljallangan. Alohida muayyan operatsiyalarga doir zararlar bundan mustasno. “Standart” kreditlar bo’yicha yo’qotishlarga qarshi yoki milliy valyuta devalvatsiyasi bo’yicha zaxiralar bunga misol bo’la oladi.

Xo’jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy ahvoriga ta’sir qiladigan har qanday kutilmagan, noxush, favqulodda vaziyatlar, odamlarning atayin yoki bilmay qilgan harakatlari, oldindan kutilgan yoki kutilmagan, halokatli yoki halokatsiz hodisalar zaxira yaratishga ob’ektiv zarurat tug’diradi.

Zaxira yaratishdan umumiy maqsad daromadning bir qismini darhol taqsimlashdan ushlab qolish va uni kelajakdagi ko’pincha mavhum moliyaviy muammolarni hal qilish uchun saqlab qo’yishdan iborat. Zaxira rejalashtirilgan xarajatlar kutilgandan ortib ketganda ham, rejalashtirilgan davrda daromad pasayib ketishini kompensatsiya qilish uchun ham kerak bo’lishi mumkin. Shuningdek, zaxiralar moliyaviy mablag’lar uzilishlar bilan kelib tushayotganda, ularga bo’lgan talabga mos kelmaganda ham yaratiladi.

Bank zaxiralari moliyaviy munosabatlar tizimida muhim o’rin egallagan element bo’lib, ularning yaratilishi bank faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqadi va muqarrar ravishda ma’lum xatarga jazm qilish zarurati bilan bog’liqdir. Bank bajargan deyarli har qanday operatsiya xatar bilan bog’liq bo’lib, uning darajasi turli omillarga bog’liq.

Zaxira yaratish muammosining ko’pgina jihatlari bank menejmenti printsiplari tizimiga bog’liq. Menejmentdagi rejalashtirishning umumiy printsiplari ichida zaxira yaratish printsiipi samarali boshqaruv tizimini yaratishda muhim o’rin

---

<sup>40</sup> Рид Э. и др. Коммерческие банки.- М.: СП “Космополис”. 1991. 124-131-б.



egallaydi. Zaxira yaratish yo'li bilan noto'g'ri moliyaviy qarorlarning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish mumkin. Zaxira yaratish printsipli buzilishi mumkin, aynan shunda bank faoliyatida shakllanadigan zaxiralarning sub'ektivligi namoyon bo'ladi.

Zaxiralarning muhim xususiyati shundan iboratki, ular bartaraf etiladigan xatar mohiyati bilan uzviy bog'liq. Zaxiralarga talab noaniq bo'lgan taqdirda ularning darajasi stoxastik qonunga ko'ra o'zgarishi bank zaxiralarida o'z aksini topadi. Birinchidan, bank xatari namoyon bo'lishi muddatlari noma'lum (u o'z tabiatiga ko'ra tasodifiydir), ikkinchidan, xatardan ko'riladigan zararni oldindan bilib bo'lmaydi va u keng ko'lamda o'zgarib turadi. Xatardan ko'rilgan zarar bankni bankrotlikka olib keladigan darajaga etishi mumkin.

Zaxira yaratishning bank xatarini amalga oshirishdan ko'riladigan zararni qoplash vositasi sifatidagi imkoniyatlari cheklangan, chunki bank xatari, odatda, ko'pgina mikro va makro omillarga, ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq. Biroq, asosiy xatar va uning asosiy omillari noma'lum. Shu munosabat bilan banklarda alohida xatarlar amalga oshirilganda ko'riladigan zararlarni qoplash uchun zaxiralar (masalan, ajratilgan ssuda bo'yicha ehtimoldagi zararni qoplash uchun zaxira) va integrativ xatarga olib keluvchi bir qator omillar yuzaga kelishining salbiy oqibatlarini zararsizlantirish uchun zaxiralar (majburiy zaxiralar jamg'armasi, omonatlarni sug'urtalash jamg'armasi) yaratiladi.

Bank zaxiralarining printsiptial xususiyati shundan iboratki, ular kumulyativ xususiyatga ega. Zaxiralar ma'lum vaqtda yaratiladi (masalan, kredit ajratilayotgan vaqtda) va ma'lum maqsadlarda to'planishi va sarflanishi mumkin. Mablag'lar jamg'arilganda, zaxiralar ham yaratiladi.

Zaxiralar, bir tarafdin, bank tomonidan o'tkazilish vaqti cheklangan konkret amaliyotni bajarish paytida yo'qotishlar ehtimoli yuzaga kelganida tavakkalning konkret turidan saqlanish vositasi rolini o'ynaydi. Boshqa tarafdin, bankda barcha yaratilgan zaxira turlarining jamg'armasidan iborat bo'lgan qandaydir doimiy qiymatning (pul mablag'lari fondining) mavjud bo'lishi uning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi.

Zaxira qilish usuli – aniq bir bankka etkazilgan bevosita zararni ko'zda tutgan tarzda kredit riski boshqaruvini kompensatsiya qilish (qoplash) usulidir. Biroq, kredit riskiga ta'sir qiluvchi, davlatning tartibga solish uslublari asosidagi boshqa bilvosita usullar ham mavjud. Ulardan biri me'yorlar tizimini o'rnatish hisoblanadi.

Kredit riskini cheklashning boshqa shu kabi uslublari xorijiy mamlakatlarda ham mavjud. AQShda berilgan kreditlarning bank kapitaliga minimal nisbati (11 martani tashkil qiladi), Frantsiyada bir kredit oluvchiga yoki bir guruh kredit oluvchilarga kredit hajmining chegarasi bank o'z mablag'larining 75%ini tashkil qiladi, shuningdek Germaniyada ham yirik kreditlar berishda berilgan kreditlar summasining o'z mablag'lariga nisbati inobatga olinadi.

Mavjud shart-sharoitlarda zaxiralashning roli kredit risklarining ortib borayotgan ahamiyati bilan belgilanadi. Ko'plab bank ishi mutaxassisleri bank menejmentining eng muhim printsiplaridan biri bank xatarlarini mumkin qadar kamaytirish deb hisoblashadi.

Ssudalar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun shakllantiriladigan zaxiralarning ahamiyati yana shundan iboratki, zaxiralarning tegishli ko'rsatkichlari tijorat banklarining reytingini baholashda qo'llaniladi.

Bank zaxiralari jahon moliyaviy muammolarini hal etishda keng qo'llaniladi. Masalan, o'tgan asrning 80–yillarida G'arb banklari o'zaro birlashish va tarkibiy qo'shilishdan, ko'chmas mulk sotib olish uchun beriladigan qarzlardan hamda qarzlarni qimmatli qog'ozlarga almashtirish operatsiyalaridan mo'may daromad orttirdilar, bu esa mustaqil davlatlarning to'lanmagan qarzlari bilan bog'liq zararlarni qoplash zaxiralarini ko'paytirish imkonini berdi<sup>41</sup>. Bu holda zaxiralar qarzlarni to'lash uchun kerak edi, chunki qarzni rasmiylashtirish va uni qarzni qaytarish orasidagi vaqt banklar tomonidan qo'shimcha zaxiralar shakllantirish uchun ishlatilgan edi. Agar banklar qo'shimcha zaxiralar yaratmaganlarida, ular muddati o'tgan qarzlarni to'lay olmagan bo'lar edi. Shunday qilib, moliyaviy zaxiralar noxush qarzlarni qaytarish muddati kechikkanida zaxiralarni jamg'arish muddatidan foydalanish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda banklar faoliyatining qiyosiy tahlilida zaxiralar albatta ko'rsatish majburiy hisoblanadi. Masalan, xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlariga (XMHS) ko'ra, taqqoslash quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- Sof foiz daromadi;
- Ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash uchun umumiy zaxira;
- Tijorat banklari bo'yicha zararlarni qoplash uchun zaxira;
- O'z mablag'larining umumiy summasi;
- Ma'muriy va operatsion xarajatlar;
- Pul va kredit investitsiyalari;
- Pul mablag'lari, ssuda va investitsiyalar qoldig'i.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan ettita ko'rsatkichning ikkitasi zaxiralarga tegishli bo'lib, ular bank kredit portfelining sifatini aks ettiradi.

Zaxiralar kredit tashkilotlarini kategoriyalar va tasnif guruhlariga kiritish jarayonida ularning moliyaviy ahvolini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zaxiralarni shakllantirishning muhimligi shundaki, banklar hali ssuda oluvchining to'lov qobiliyatini baholash to'g'risida axborot to'plash borasida reja asosida ish olib borishni o'rganganlaricha yo'q, mijozlarning tarixi va ularga doir hujjatlar to'plamini mufassal o'rganmaydilar.

Zaxiralar tijorat banklarining foydasini sezilarli darajada kamaytiradi, chunki zaxiralarning ortishi bilan bankning soliqqa tortiladigan foydasi hajmi kamayadi. Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, agar banklarga soliqqa tortilgunga qadar xarajatlarga kiritiluvchi, zaxiradagi kreditlar bo'yicha umidsiz qarzlarni qoplash uchun qo'shimcha mablag'lar undirishga ruxsat berilsa, u holda bu ularni daromad, foyda, kapital hajmi to'g'risida ancha ishonchli va to'g'ri ma'lumotlarni berishga majbur qilib qo'yadi.

---

<sup>41</sup> Седова И. Анализ финансового состояния отдельных кредитных организаций, банковской системы в целом и совершенствование методики анализа. Аналитический банковский журнал. 2000, №2.

Zaxira nafaqat umid qilinmaydigan ssudalar hajmidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi, shu bilan birga kelajakdagi xatarlarni, masalan, substandart ssudalarning ma'lum qismi kelajakda umidsiz ssudalarga aylanadi va zaxirani tashkil etishda bu o'zgarish jarayoni hisobga olinadi. Biroq bu kelajakda yuz beradi va zaxirada turli davrlar, hattoki aynan qaysi ekanligi noaniq bo'lgan noo'rin xatarlar jamlanadi. Bunday xolat, tabiiyki, zaxira talablarining oshishiga olib keladi.

Zaxiralar tijorat banklarining kredit berish hajmiga ta'sir etishi mumkin. Ularning noo'rin yoki asossiz o'sishi kredit faoliyati sohasidagi faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Menejment nuqtai nazaridan moliyaviy xatar va risklarni boshqarish mexanizmlarining mohiyatini tahlil etishda I.A.Blank tomonidan xatarning oldini olish, limitlash, xatarlarni kontsentratsiyalash, narx o'zgarishi xatarlarida sug'urtalanish(xedjing), diversifikatsiya, xatarlarni taqsimlash va o'zini himoyalash choralari kabi metodlar alohida ko'rsatib o'tiladi<sup>42</sup>. Bunda xatarlarni bartaraf etish (o'zini himoyalash) yo'nalishi bank tomonidan zaxiralarning ma'lum qismini zaxiraga qo'yishga asoslangan bo'lib, bu zaxiralar bank faoliyati bilan bog'liq salbiy oqibatlarini engib o'tishga imkon beradi.

### **Tijorat banklarida aktivlarni tasniflashning iqtisodiy-huquqiy asoslari**

Mamlakatimiz tijorat banklarida kreditlarni tasniflash va muammoli kreditlarga zaxira tashkil etish qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Uning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, bular O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Buxgalterlik hisobi to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qator me'yoriy hujjatlarida o'z aksini topgan.

Tijorat banklarida tashkil etiladigan ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralar bankning xarajatlariga olib boriladi, ya'ni uni tashkil etish manbasi bank xarajatlari hisoblanadi. Bizga ma'lumki, soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi maxsus qismining 5-bo'limi "Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i"ning "Boshqa xarajatlar" moddasining zararlar va yo'qotishlar qismida umidsiz qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, bundan shubhali qarzlar bo'yicha tashkil etilgan zaxira hisobiga hisobdan chiqarish mustasno<sup>43</sup>, deb aytib o'tilgan. Ushbu Kodeksga asosan umidsiz qarzga quyidagicha ta'rif berilgan: umidsiz qarz - sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz.

---

<sup>42</sup> Blank И.А. Финансовый менеджмент. Учебный курс. Ника-центр, 1999.

<sup>43</sup> Ўзбекистон Республикаси Солиқ Kodeksi, 145-модда

Ilgari chegirilgan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzida olinadigan daromadlar moddasida esa zaxiralarni tashkil etish xarajatlari soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlangan shubhali qarzlarning (tavakkalchilik operatsiyalari) bo'yicha zaxiralar qisqargan hollarda, ularning qisqarish summasi boshqa daromadlar tarkibida hisobga olinadi yoki buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xarajatlarni kamaytiradi, deb ta'kidlab o'tilgan.

Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari moddasida esa shubhali qarzlarning bo'yicha zaxira tashkil etish uchun qilingan xarajatlar umidsiz deb e'tirof etilgan qarzdorlikni hisobdan chiqarilayotganda, hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan umidsiz qarzdorlik miqdoridan oshmaydigan summada chegirib tashlanishi<sup>44</sup> ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlarni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlarida yuqoridagilardan tashqari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan normalar doirasida tavakkalchilik operatsiyalari bo'yicha zaxiralarga ajratmalar ham chegiriladigan xarajatlar tarkibiga kiradi.

Banklarda tashkil etiladigan zaxiralar buxgalteriya hisobining ob'ekti bo'ladi, ya'ni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida shunday deyilgan: Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridir. Buxgalteriya hisobining ob'ektlari jamlama hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Analitik hisobni yuritish tartibi buxgalteriya hisobi sub'ekti tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.<sup>45</sup>

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar turli xil mulkchilik shakllariga asoslangan holda tashkil etiladi va o'z faoliyatini amalga oshiradi. Tijorat banklari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ularning asosiy maqsadi yuqori daromad olishga qaratilgan. Tijorat banklari o'z faoliyatini asosan jalb qilingan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'lari evaziga amalga oshiradi. Jahon amaliyotida banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lari nisbati 20 va 80 foizni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bankning asosiy resurslari jalb qilingan, ya'ni mijozlarning talab qilib olinguncha, muddatli va jamg'arma depozitlaridan iborat. Mijozlar manfaatini himoya qilish, bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish esa birlamchi masala hisoblanadi. Bunda bevosita Markaziy bank va uning tijorat banklari ustidan nazoratiga ehtiyoj seziladi.

1995 yil 21 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunning Markaziy bankning nazorat vazifalarini bajarishga doir vakolatlari moddasida Markaziy bank tijorat bank aktivlari sifatini tasnif qilish va aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar o'rnini qoplash uchun shunga monand rezervlar

---

<sup>44</sup> Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси, 146-модда

<sup>45</sup> Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги Қонун, 1996 йил 30 август, 4-модда

yaratishga doir talablarni belgilash, ishonchsiz aktivlarni hisobdan chiqarish shartlari va taomilini aniqlash huquqiga ega ekanligi ko'rsatib o'tiladi.<sup>46</sup>

Mazkur Qonunning 52-moddasida Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlarni o'rnatilishi keltirilgan. Unga asosan aktivlarni tasniflash va baholashga doir talablarni, shuningdek bunday tasniflar asosida bankning operatsiya xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va harakatsiz qarzlarga qarshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni tijorat banklariga majburiy norma sifatida belgilaydi.

Tijorat banklari faoliyat ko'rsatishining eng asosiy hujjatlaridan biri bu 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi. Ushbu Qonun banklarni tashkil etish va tugatish, bank faoliyatini tartibga solish, banklarga vasiylik qilish, mijozlar manfaatini himoya qilish, bank hisobi va hisoboti hamda banklarni nazorat qilishni huquqiy asoslarini belgilab beradi. Jumladan, banklarning umumiy iqtisodiy normativlarga rioya qilish sohasidagi burchlari borasida banklarning barqarorligini ta'minlash hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan iqtisodiy normativlarga rioya etishlari shart ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Banklar o'z kapitali va likvid resurslarini etarli darajada saqlab turishlari, aktivlarni tasniflash asosida shubhali va harakatsiz aktivlarga qarshi zaxiralarni tashkil etishlari shart, shuningdek, zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida o'z aktivlari diversifikatsiyalanishini ta'minlashlari lozim.<sup>47</sup>

Audit, xususan, kapitalning etarililigini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, tavakkalchilikni va likvidlikni o'lchashni o'z ichiga oladi. Banklar qonun hujjatlariga muvofiq ichki auditorlik dasturlarini ishlab chiqarishlari va amalga oshirishlari ham shart<sup>48</sup>.

1997 yil 1 yanvardan boshlab banklarimiz yangi hisobvaraqlar tizimiga o'tgani munosabat bilan aktivlarni tasniflash, ularga zaxira yaratish, yaratilgan zaxiralarni hisobini olib borishning yangi tizimiga moslashgan tartibiga muhtojlik sezildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2015 yil 13 iyunda 14/5--sonli "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Mazkur tartib oldingi tartibning to'ldirilgan va yangiliklar, qulayliklar hamda aniqliklar kiritilgan varianti hisoblanadi. Ushbu tartibda asosan quyidagilar ko'rib chiqilgan edi:

1. Umumiy qoidalar
2. Aktivlar sifatini tasniflash tizimi
3. Ta'minotga qo'yiladigan talablar
4. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar sifatini tasniflash
5. Investitsiya portfelining sifatini tasniflash

<sup>46</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисидаги Қонун, 1995 йил 21 декабрь, 51-модда.

<sup>47</sup> Ўзбекистон Республикаси "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида"ги Қонун, 1996 йил 25 апрель, 25-модда

<sup>48</sup> Ўзбекистон Республикаси "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида"ги Қонун, 1996 йил 25 апрель, 43-модда

6. Tijorat banki aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga doir zaxirani shakllantirish

7. Majburiy zaxiralar depozitlariga mablag' o'tkazish

8. Zaxiralardan foydalanish

Yangi tartibni oldingisidan asosiy farqlari bunda iqtisodiy terminlarga oydinlik kiritildi, zaxira yaratish qoidalari mustahkamlandi, kreditlarni tasniflashdan aktivlarni tasniflashga o'tildi, ta'minotga qo'yilgan talablar kiritildi, restrukturizatsiya qilingan kreditlarni tasniflashning o'ziga xos jihatlari inobatga olinib, ularni tasniflash tizimi ko'rsatildi, mezonlari aniqlashtirildi.

Ilk marta quyidagi tushunchalardan foydalanildi hamda ta'riflari keltirildi:

**aktivlar** — kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bog'liq barcha boshqa talablar.

**muammoli aktivlar** — sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar;

**maxsus zaxiralar** — sifati “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan majburiy zaxiralar;

**standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar** — tijorat banki faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi natijasida ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash maqsadida tashkil qilinadigan zaxiralar;

**shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar** — shartnoma va (yoki) unga qo'shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o'zgartirilgan aktivlar;

**tijorat banki aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun majburiy zaxiralar depozitlari** (bundan buyon matnda majburiy zaxiralar depozitlari deb yuritiladi) — aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) majburiy zaxiralar depozitlari;

**ta'minlanmagan aktivlar** — ta'minotsiz berilgan yoki ta'minoti belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan aktivlar. Bunday aktivlar mustahkam tushumga ega bo'lgan qarzdorga uning yaxshi kredit tarixi asosida berilishi mumkin.

Restrukturizatsiya qilingan ssudalar - qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashishi sababli to'lovning dastlabki shartlari o'zgargan ssudalar. Agarda bank tomonidan qo'yidagi amallarning hech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, ssuda restrukturizatsiyalangan hisoblanadi:

- foiz stavkasining kamaytirilishi yoki hisoblangan foizlarning undirib olinmasligi;

- jami asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan voz kechilishi ;

- kreditni to'lash muddatining kechiktirilishi yoki uzaytirilishi ;

- foizlarga doir to'lovlarning bir qismi yoki umumiy miqdoridan voz kechish;

- oddiy sharoitlarda qarzdorga berilmay, balki kreditni restrukturizatsiyalash zarurligi natijasida qilinishi mumkin bo'lgan boshqa yon berishlar.

Yangi bozorga doir (imtiyozli) foiz stavkalari - yangi ssuda dastlabki yoki yangi qarzdorga pasaytirilgan foiz stavkalarida berilayotganda qo'llaniladi. Bunday ssudalar korxonalariga hukumat qarorlariga ko'ra berilishi mumkin. Shuningdek ular qarzdor tomonidan ssuda to'lanmasligi oqibatida bank tomonidan huquqlar olingan qarzdorning aktivlari (garov)ni sotish uchun ham berilishi mumkin. Pasaytirilgan foiz stavkali yangi ssudalar uchun foiz stavkasi qaytarilishi aynan shunday tavakkalchilikka xos kreditlarga doir kreditlashning foiz stavkasidan past bo'lmasligi lozim.

O'stirilmaydigan kreditlar (aktivlar) - belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar (aktivlar).

Yaxshi ta'minlangan kreditlar - qimmatli qog'ozlar bozorida baholanadigan mulk yoki kreditning asosiy summasi va unga doir foizlarni to'liq qoplash imkonini beradigan miqdorda bank depozitlari ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan kreditlar.

Qisman ta'minlangan kreditlar - "yaxshi ta'minlangan kreditlar" mezoniga muvofiq kelmaydigan ta'minot. Xususan, ularga doir taqdim etilgan garov qiymati kredit summasi va unga doir foizlarning 100 foizidan, shuningdek, garovni sotishda ko'zda tutilayotgan xarajatlardan kam (e'lon qilingan garov qiymatidan qat'iy nazar) yoki e'lon qilingan qiymat bo'yicha garovning sotilishi shubha tug'diradigan kreditlar.

O'zbekiston Prezidentining 2015 yil 6 mayda "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2344-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilish, shuningdek kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, kredit portfelini muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash respublikaning moliya-bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

## **20-mavzu. "Bank kreditlarini tasniflash, zaxiralar tashkil etish tartibi"**

**3. O'zbekiston tijorat banklarida aktivlarni tasniflash va ularni baholash mezonlari**

**4. Respublika tijorat banklarida muammoli aktivlar va ularga zaxira tashkil etishni amaldagi holati tahlili**

### **O'zbekiston tijorat banklarida aktivlarni tasniflash va ularni baholash mezonlari**

Hozirgi paytda mamlakatimiz tijorat banklarida aktivlarni tasniflash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son

bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2015 yil 13 iyunda 14/5-son bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"ga muvofiq olib boriladi.

Mazkur Tartibga muvofiq barcha tijorat banklari o'z aktivlarini tasniflash hamda shubhali va harakatsiz aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun etarli bo'lgan zaxirani tashkil etishi shart.

Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagi kreditlar, jumladan, bank kafolatlari, kredit liniyalari, banklararo kreditlar, overdraftlar uchun qo'llaniladi va balansdan tashqari majburiyatlarni tasniflashni ko'zda tutadi. Bundan tashqari, ushbu tizim orqali boshqa bank aktivlari, jumladan, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, olishga doir hisobvaraqlar, uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarni bajarish bo'yicha sotib olingan talab qilish huquqi va qaytarilmaslik xatari mavjud bo'lgan boshqa aktivlarni baholashda ham qo'llanilishi mumkin.

Kreditni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar bo'yicha qarzdorni baholashdan boshlanadi:

- tarmoq (iqtisodiyot sektori) tendentsiyasi va istiqboli;
- muayyan loyihaning texnik amalga oshiriluv va iqtisodiy raqobatbardoshligi;
- moliyaviy holati va kredit olishga qodirligi;
- kredit tarixi, kredit ta'minotining yomonlashuvi yoki likvidligining pasayishi;
- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
- rahbarining boshqarish qobiliyati (agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa).

Kredit tahlili va aktivlar tasnifi natijalari qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, kreditlarni to'lash tarixi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan garovning mavjudligi kabi omillarga bog'liq. Ushbu omillarni kredit portfeli va tijorat bankining boshqa aktivlariga xos bo'lgan tavakkalchilikni aniqlash va baholashda qo'llash juda muhimdir.

Mamlakatimizda bank aktivlari quyidagi tartibda va toifalar bo'yicha tasniflanadi:

1. Tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko'ra "standart", "substandart", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarga tasniflanadi.

1. "Standart" aktivlar. Bunda qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u etarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlarni, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun etarli pul mablag'lari oqimiga, shuningdek amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategik rejaga, bozorda raqobatdoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o'z mahsuloti bo'yicha marketing rejasiga ega bo'ladi. Ta'minot "yaxshi ta'minlangan" kredit mezonlariga mos keladi. Ta'minot turlari notarial jihatdan tasdiqlangan bo'lishi (agar qonun hujjatlarida notarial tasdiqlanishi nazarda tutilgan bo'lsa), zarur hollarda, tegishli mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi, shu jumladan, tijorat bankining garov mol-



mulkiga doir huquqlari to'g'risidagi yozuv garov reestrda aks ettirilishi lozim. Tijorat banki kredit qaytarilmagan holda cheklovlarisiz va erkin ravishda uni ta'minot hisobidan undirib olishga haqli. Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi lozim.

2. Sifati "standart" deb tasniflangan aktivlar qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi. Bunda asosiy qarz summasining va foizlarining hech qanday qismi muddati o'tgan yoki shartlari qayta ko'rib chiqilmagan bo'lishi lozim. Asosiy qarz summasi yoki foizlardan muddati o'tgan va shartlari qayta ko'rilgan aktivlar sifati "standart" deb tasniflanishi mumkin emas.

Tijorat banki zaxira kapitali tarkibida sifati "standart" deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining bir foizi miqdorida standart aktivlarga yaratiladigan zaxira shakllantirishi lozim.

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar tijorat banklari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qolgan sof foyda hisobidan mazkur Nizom kuchga kirgan kundan keyin ajratilib, hisobot sanasiga sifati "standart" deb tasniflangan aktivlar qoldig'idan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

Qarzdorning moliyaviy holati barqaror hisoblangan, lekin ayrim salbiy holatlar yoki tendentsiyalar mavjud bo'lib, agar ular bartaraf etilmasa, moliyalashtirilgan loyihaning amalga oshishiga yoki qarzdorning aktivni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan aktivlar sifati "substandart" deb tasniflanadi. Bunda moliyaviy holati yoki ta'minotni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo'lgan, kredit hujjatlarida etarlicha axborot bo'lmagan yoki ta'minot bo'yicha hujjatlari bo'lmagan "standart" deb tasniflangan aktivlarning sifati ham "substandart" deb tasniflanishi lozim.

Tijorat banki sifati "substandart" deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o'n foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

3. Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati "qoniqarsiz" deb tasniflanadi:

- ❖ asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun etarli bo'lmasa, ta'minotga qo'yilgan mulkni va qarz oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish, to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarni uzaytirishlarni hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topish talab etiladigan bo'lsa;

- ❖ qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun etarli bo'lmasa;

- ❖ qarz oluvchining kapitali etarli darajada bo'lmasa;

- ❖ ushbu sohaga nisbatan tendentsiya va istiqbollar barqaror bo'lmasa;

- ❖ ta'minot qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lsa;

- ❖ asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa.

Tijorat banki sifati "qoniqarsiz" deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yigirma besh foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Sifati “qoniqarsiz” deb tasniflangan aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo’lib, mavjud sharoitda aktivlarning to’liq qaytarilishini shubha ostiga va kam ishonchli qilib qo’yadigan aktivlar sifati “shubhali” deb tasniflanadi. Bunda yo’qotishlar ko’rish ehtimoli yuqori bo’lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo’lgan aktivlar sifati sharoit oydinlashguncha “umidsiz” deb tasniflanmaydi.

4. Quyida keltirilgan omillardan hech bo’lmaganda bittasi mavjud bo’lsa, aktivlarning sifati “shubhali” deb tasniflanadi:

➤ “qoniqarsiz” aktivlarning hech bo’lmaganda birorta ko’rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo’lsa (bozorda oson sotiladigan ta’minotning mavjud emasligi yoki ta’minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e’lon qilinishi);

➤ yaqin kelajakda aktivning qisman to’lanish ehtimoli mavjud bo’lsa;

➤ asosiy qarz va foizlar bo’yicha 90 kundan ortiq lekin, 180 kundan oshmagan muddati o’tgan qarzdorlik mavjud bo’lsa.

Tijorat banki sifati “shubhali” deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo’lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan aktivlar sifati “umidsiz” deb tasniflanadi. Bunday tasniflash aktivlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Biroq, tijorat banklari o’z balanslarida bunday aktivlarning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Tijorat banki tomonidan ta’minotga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish yoki uni qaytarish choralari qo’llanishi lozim.

5. Quyida keltirilgan omillardan hech bo’lmaganda bittasi mavjud bo’lsa, aktivlarning sifati “umidsiz” deb tasniflanadi:

✓ aktivlarni undirilishi sud jarayonida bo’lsa;

✓ qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo’yilgan mol-mulkka bo’lgan huquqlardan foydalanish yo’li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo’yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo’lsa;

✓ aktivlarning to’lash muddati uzaytirilgan bo’lsa;

✓ asosiy qarz va foizlar bo’yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o’tgan qarzdorlik mavjud bo’lsa.

Tijorat banki sifati “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Agar tijorat bankida bitta qarzdorga berilgan bir necha aktivlar mavjud bo’lsa, qarzdor tomonidan tijorat bankiga qaytariladigan barcha aktivlar sifati ulardan eng past toifada tasniflangan aktivlar sifatidek tasniflanishi lozim.

Agar qarzdorning bir nechta tijorat banklari oldida qarzi mavjud bo'lib, ularning birida qaytarilishi lozim bo'lgan aktivlar sifati eng past toifada tasniflangan bo'lsa, boshqa tijorat banklari ham ushbu qarzdorga berilgan aktivlar sifatini mazkur toifada tasniflashlari shart. Bunda tijorat banklari qarzdorga boshqa tijorat banklari tomonidan berilgan aktivlar sifatining tasnifini aniqlash uchun kredit axboroti ma'lumotlar bazasidan foydalanishlari lozim.

**1- jadval.**

**Kreditlarning sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zahiralarning me'yori.<sup>16</sup>**

<b>Kreditlarning sifati bo'yicha sinflari</b>	<b>Ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zahiralarning ajratish me'yori</b>
Standart	1%
Substandart	10%
Qoniqarsiz	25%
Shubhali	50%
Umidsiz	100%

Bizga ma'lumki, kreditning ta'minlanganlik tamoyili asosiy tamoyillardan biri bo'lib, kredit iqtisodiy kategoriyasini o'ziga xosligini anglatadi. Kreditlarning ta'minlanganligi odatda 2 xil, ya'ni birlamchi va ikkilamchi ta'minotga ajratiladi. Bunday ajratilishning asosiy farqi xarajatlarga borib taqaladi. Birlamchi ta'minotda xarajat deyarli bo'lmaydi, uni rasmiylashtirishga ko'p vaqt sarf etilmaydi. Ikkilamchi ta'minot(garov, kafolat, kafillik) esa bevosita xarajatlarga borib taqaladi va uni rasmiylashtirishda ancha vaqt sarf bo'ladi. Ikkilamchi ta'minotning eng ko'p tarqalgan turi bu garovdir.

Kreditlar (aktivlar) bo'yicha ta'minot hisoblanuvchi garov bank tomonidan kreditni qoplashning asosiy manbai deb, hisoblanmasligi kerak. Garov kreditni to'lashning ikkilamchi manbai deb qaralishi kerak.

Xavfsiz va ishonchli faoliyat andozalariga muvofiq tarzda banklar garovni kreditni qaytarishning vositasi, deb hisoblagan holda kredit bermasliklari kerak. Kredit (aktiv) bo'yicha olingan garovni tahlil qilishda bank garovning likvidligini e'tiborga olishi kerak. Shunga muvofiq ravishda bank asosiy qarz summalarining qaytarilishini va garovni sotishdan olinadigan foizlarni baholashi kerak.

Kredit uchun taqdim etilayotgan ta'minot turi avvalambor, yuqori likvidli bo'lishi kerak, ya'ni minimal vaqt davomida deyarli yo'qotishlarsiz sotilishi kerak.

Aktivlarning likvidli ta'minotiga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining so'zsiz kafolati;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining so'zsiz kafolati;
- banklarda ochilgan hisobvaraqlarda erkin ayirboshlanadigan valyuta shaklidagi garov;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov;

<sup>16</sup> "Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида"ги Низом Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқаруви 2015 йил 13 июндаги 14/3-сонли қарори

- andozaviy qimmatbaho metallar shaklidagi, ya'ni oltin va kumush quymalari shaklidagi garov.

Quyidagi aktivlar nolikvid ta'minotga ega, deb hisoblanadi, ya'ni:

- ko'chmas mulk, o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan erga bo'lgan huquqni hisobga olgan holda;

- ko'chma mulk;

- xususiy korxonalarining qimmatli qog'ozlari;

- yuridik va xususiy shaxslarning kafolatlari.

Ta'minot kredit to'lashning ikkilamchi manbai hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan ta'minotga kreditni qoplashning asosiy manbai sifatida qaralmasligi lozim.

Aktivlarning yuqori likvidli ta'minotiga:

• O'zbekiston Respublikasi Hukumatining (bundan buyon matnda Hukumat deb yuritiladi) kafolati;

• tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlardagi milliy va xorijiy valyuta shaklidagi garov;

• Hukumatning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov;

• Markaziy bankning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov;

• qimmatbaho metallar shaklidagi oltin va kumush quymalari shaklidagi garov kiradi.

Aktivlarning yuqori likvidli bo'lmagan ta'minotiga:

• ko'chmas mulk, shu jumladan er uchastkasiga bo'lgan huquq;

• ko'char mol-mulk;

• xo'jalik jamiyatidagi ulushga bo'lgan huquq

• yuridik va jismoniy shaxslarning kafolat va kafilliklari kiradi.

Tijorat banking investitsiya portfeli (sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga yoki qaram xo'jalik jamiyatlariga va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar, so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar) quyidagi omillar asosida tasniflanishi va belgilangan miqdorda ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxirasi yaratilishi lozim:

oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya — "qoniqarsiz" sifatida;

oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya — "shubhali" sifatida;

oxirgi uch yil davomida daromad olinmagan investitsiya sifati — "umidsiz" sifatida.

Agar tijorat banki tomonidan qilingan investitsiyani qayta baholash natijasida salbiy farq yuzaga kelsa, ushbu miqdorda ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxirasi yaratilishi lozim.

Investitsiyalarning sifati eng past toifada tasniflanishi kerak.

Tijorat banki aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga doir zaxirani shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Zaxiralarning etarligi davriy ravishda kamida oyiga bir marotaba tahlil qilinishi, zarur hollarda, qo'shimcha zaxiralar yaratilishi lozim.

Belgilangan me'yorlarga muvofiq yaratilgan zaxiraga nisbatan aktiv bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar miqdorining oshib ketishi mumkinligidan dalolat beruvchi omillar va sharoitlar aniqlanganda, zaxiraga ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan yirik ajratmalar amalga oshirilishi kerak.

Aktiv sifati "umidsiz" deb tasniflanishi bilan 3 ish kuni ichida uning hisobi balansdan tashqari moddalarda aks ettirilishi va tegishli maxsus zaxiralar kamaytirilishi lozim. Zararlar ular tan olingan davrda hisobdan chiqarilishi kerak.

Agar aktiv sifati "standart" deb tasniflanmagan bo'lsa, tijorat banki qarzdorga ehtimoliy yo'qotishlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning batafsil tahlilisiz qo'shimcha kredit mablag'lari, joriy kredit bo'yicha qo'shimcha resurslar yoki yangi kreditlar shaklida mablag'lar berishi mumkin emas.

Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lishi, Markaziy bank tomonidan muayyan aktivlar sifatini yanada salbiy tasniflash uchun asos bo'ladi:

- ❖ tijorat banki kredit portfeli umumiy holatining yomonlashuvi;
- ❖ tijorat bankida kreditlar berishga doir etarli tahlil va tekshiruvlarning o'zgarishi yoki mavjud emasligi;
- ❖ tijorat banki shu tarmoq va sohaga berilgan kreditlar bo'yicha amalda zararlar ko'rganligi;
- ❖ yirik aktivlarning to'planishi;
- ❖ nomaqbul iqtisodiy yo'nalish va sharoitlar, xususan, qarzdorlarning bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari yoki ma'muriy-hududiy birlikda katta miqdorda to'planishi;
- ❖ tijorat banki tomonidan taqdim etilgan hisobotni tahlil qilish yoki Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan inspektsiya tekshirishlari natijasida aniqlangan qarzdorning yoxud tijorat banking moliyaviy ahvoriga taalluqli boshqa holatlar.

Bunda Markaziy bank mazkur Nizom talablarida belgilangan miqdorda zaxiralarni qayta ko'rib chiqishni va (yoki) qo'shimcha zaxiralar shakllantirishni talab qilishi mumkin.

Zaxiralarga ajratmalar tegishli "Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash" hisobvarag'ini debetlash hamda tegishli "Aktivlar va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi" hisobvarag'ini kreditlash orqali amalga oshiriladi.

Zaxiralar etarli bo'lmagan hollarda, tijorat banki tomonidan zaxiralarga qo'shimcha ajratmalar zaxiralarning etishmovchiligi aniqlangan davrda amalga oshirilishi zarur.

Agar tijorat banki aktivlari portfeli tahlil qilinganidan keyin uning zaxiralari talab qilinganidan ortiq bo'lsa, u holda tijorat banki tegishli "Aktivlar va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi" hisobvarag'ini debetlashi va tegishli "Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash" hisobvarag'ini kreditlashi lozim.

Tijorat banki zaxiralarning etarli darajada bo'lishini ta'minlash uchun to'liq javobgarlik tijorat banki Kengashi va Boshqaruviga yuklatiladi.

“Umidsiz” aktivlar bo’yicha zaxiralar hisobidan qoplash to’g’risidagi qaror tijorat banki Boshqaruvi tomonidan qabul qilinib, bu haqda tijorat banki Kengashiga 3 ish kuni ichida axborot beriladi.

Tegishli “Aktivlar va lizing bo’yicha ko’rilishi mumkin bo’lgan zararlarni qoplash zaxirasi” hisobvarag’idan qoplangan “umidsiz” aktivlarning hisobi balansning “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvarag’ida yuritiladi. Bunda quyidagi buxgalteriya o’tkazmalari amalga oshiriladi:

**Debet:** tegishli “Aktivlar va lizing bo’yicha ko’rilishi mumkin bo’lgan zararlarni qoplash zaxirasi” hisobvarag’i;

**Kredit:** tegishli aktiv hisobvarag’i;

**Debet:** 95413 — “Hisobdan chiqarilgan kreditlar va lizinglar” hisobvarag’i;

**Kredit:** 96397 — “Boshqa ko’zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo’yicha kontr-hisobvaraqlar” hisobvarag’i.

Ehtimoliy yo’qotishlarni qoplash zaxira mablag’lari etishmagan taqdirda, tegishli “Ko’rilishi mumkin bo’lgan zararlarni baholash” hisobvarag’idan “Aktivlar va lizing bo’yicha ko’rilishi mumkin bo’lgan zararlarni qoplash zaxirasi” kontr-aktiv hisobvarag’iga qo’shimcha ajratmalar qilinishi kerak. O’tkazilayotgan aktiv bo’yicha olinadigan foizlarni hisobga olish shaxsiy hisobvarag’i ham bir vaqtning o’zida ushbu aktiv bo’yicha “Foizli daromadlar” hisobvaraqlarini debetlash va “Aktivlar bo’yicha olinishi lozim bo’lgan hisoblangan foizlar” hisobvaraqlarini kreditlash yo’li bilan yopilishi kerak.

“Umidsiz” aktivlar va ular bo’yicha hisoblab yozilgan foizlarning balans hisobvaraqlaridan “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvarag’iga o’tkazish ushbu aktiv bo’yicha qarzlarni hamda ular bo’yicha foizlarning bekor qilinishini bildirmaydi. Shuning uchun ushbu qarz, shuningdek u bo’yicha foizlar balansdan tashqari moddalarda ular bu hisobvaraqlarga o’tkazilgan paytdan boshlab besh yildan kam bo’lmagan muddat mobaynida aks ettirilishi lozim.

Tijorat banki qonun hujjatlariga muvofiq mazkur aktiv bo’yicha asosiy qarz summasi va foizlarni undirish yuzasidan barcha chora-tadbirlarni qo’llashi zarur. Tijorat banki qarzdor (emitent) majburiyatining to’liq summasini to’g’ri aks ettirish uchun mazkur aktivga foizlar hisoblab yozishni uni balansdan tashqari moddalarga o’tkazgandan keyin ham davom ettiradi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarzdor va kafilning majburiyatlari bekor bo’ladigan holatlar bundan mustasno.

Bunda tijorat banki muntazam ravishda, bir oyda kamida bir marta qarzdorga balansdan tashqari moddalardagi qoldiqlarga mos keladigan asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo’yicha muddati o’tgan qarzning mavjudligini ma’lum qilgan holda kredit bo’yicha qarzni qoplash va u bo’yicha hisoblangan foizlarni to’lash talab qilingan da’vo xatini, balansdan tashqari moddalardan ko’chirma ilova qilingan holda, qarzdor yoki uning huquqiy vorisiga (tugatilish jarayonida bo’lsa, tugatish komissiyasiga) yuborishi lozim. Ushbu da’vo xatlarini olmaslik qarzdorni qarzini qaytarish majburiyatidan ozod etmaydi. Da’vo xati va hisobvaraqlardan ko’chirma tijorat bankining muddati o’tgan asosiy qarzni va hisoblangan foizlarni undirib olish bo’yicha sud organlariga murojaat etishi uchun asos bo’ladi.

Ichki audit xizmati va tijorat banki Boshqaruvi har chorakda balansdan tashqari moddalariga o'tkazilgan "umidsiz" aktivlarni undirish bo'yicha qo'llanayotgan chora-tadbirlar haqida tijorat banki Kengashiga yozma ravishda ma'lumot berishlari shart.

Tijorat banki Kengashi moliyaviy yil yakuni bo'yicha bank aktsiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga bankning "umidsiz" aktivlarini undirish bo'yicha qo'llangan chora-tadbirlar haqidagi masalani kiritadi.

Agar qarzdor ilgari ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira qilingan aktiv bo'yicha to'lovni amalga oshirsa va qarz tijorat banking balans hisobvaraqlaridan balansdan tashqari moddalariga o'tkazilmagan bo'lsa, u holda tegishli "Aktivlar va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi" hisobvarag'i debetlanadi va tegishli "Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash" hisobvarag'i (agar zaxira joriy yilda yaratilgan bo'lsa) yoki "Hisobdan chiqarilgan mablag'larni qaytarilishi" hisobvarag'i (agar zaxira o'tgan yillarda yaratilgan bo'lsa) kreditlanadi.

Agar qarzdor aktiv "Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvarag'iga o'tkazilganidan keyin u bo'yicha to'lovni amalga oshirsa, u holda tijorat banki tomonidan ushbu qarzdorning hisobvarag'i yoki kassa hisobvarag'i debetlanadi va tegishli "Aktivlar va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi" hisobvarag'i kreditlanadi hamda tegishli "Aktivlar va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi" hisobvarag'i debetlanadi va tegishli "Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash" hisobvarag'i (agar zaxira joriy yilda yaratilgan bo'lsa) yoki "Hisobdan chiqarilgan mablag'larning qaytarilishi" hisobvarag'i (agar zaxira o'tgan yillarda yaratilgan bo'lsa) kreditlanadi, shu bilan bir vaqtning o'zida, 96397 — "Boshqa ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha kontr-hisobvaraqlar" hisobvarag'i debetlanadi va 95413 — "Hisobdan chiqarilgan kreditlar va lizinglar" hisobvarag'i kreditlanadi.

Mazkur qoidalarning joriy qilinishi tijorat banklari aktivlar sifatining yanada oshishiga, muammoli kreditlarni paydo bo'lishini dastlabki vaqtlarda aniqlashtirishga imkoniyatlarni yaratadi, pirovardida tijorat banklarining omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini yanada himoya qilinishini ta'minlaydi.

### **Respublika tijorat banklarida muammoli aktivlar va ularga zaxira tashkil etishni amaldagi holati tahlili**

Ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyot jamiyat hayotining asosi va umuminsoniy faoliyat hisoblangan ishlab chiqarish va uning shaxsiy insoniy omiliga xizmat qiluvchi infratuzilma tizimining o'zaro bog'langan va uzviylikda harakatlanishi lozim bo'lgan sub'ektlari faoliyatiga bog'liq.

Amaliyotda bu uzviylik mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va mablag'lar aylanishi jarayonlarida vaqtlar o'rtasidagi tafovut tufayli buzilishi kuzatiladi. Uzviylik ta'minlanishi uchun faoliyatni qo'shimcha moliyalash zaruriyati yuzaga keladi. Bu zaruriyat yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, asosan infratuzilmaning kredit – hisob amaliyotlarini amalga oshirishga ixtisoslashtirilgan

soha tizimi sub'ektlari vositasida amalga oshirilgan kredit munosabatlari bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlab o'tganidek, - "Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bank tizimi amalda lokomotiv vazifasini bajarishi, xo'jalik yurituvchi barcha sub'ektlarni o'z ishlarini qayta tashkil etishga, bozor mexanizmlarini dadil va jadal egallashga da'vat etuvchi omil bo'lishi darkor"<sup>49</sup> ekan, o'zaro uzviy va bog'likda harakatlanishi zaruriy shartlardan bo'lgan ishlab chiqarish va infratuzilmaning bank tizimi sub'ektlari faoliyatida kredit munosabatlari qay darajada samarali yakunlanayotganligiga bog'liq. Aynan shuning uchun ham, fikrimizcha, infratuzilmaning bank tizimi faoliyatida kredit amaliyotlarining sifati va samaradorligi masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, kredit amaliyotlari infratuzilmaning bank tizimi faoliyatidagi daromadlilikning eng asosiy manbasi bo'lish bilan bir qatorda, bank faoliyatiga va ular faoliyati orqali jamiyat iqtisodiyotiga salbiy ta'siri yuqori bo'lgan xizmat turi bo'lib ham hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tgunga qadar bo'lgan davrda moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi faoliyat hisoblangan banklar va ular faoliyatidagi kreditlash asosan markazdan turib boshqarilish asosida amalga oshirilganligi tufayli, mablag'larni jalb etish, ularni foyda keladigan qilib pulga muhtoj xo'jalik sub'ektlariga berish, qarzni o'z vaqtida qaytishini ta'minlovchi chora - tadbirlar ko'rish kabi masalalarda bank xodimlarining boshlari og'rimagan. Mamlakatimizda farovon hayot sari qo'yilgan qadam, ya'ni pulga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida bank tizimida olib borilgan islohotlar natijasida bu masalalar banklarning kundalik faoliyatiga aylanib qoldi.

Chunki, jalb qilingan mablag'lar uchun banklar tomonidan badal to'lanar ekan, bu mablag'lardan nafaqat daromad olish, balki kredit samaradorligiga erishgan holda mablag'larni qarzdorlardan o'z vaqtida qaytarib olish chora – tadbirlarini ko'rishlari lozim, aks holda banklarda daromadlilikka salbiy ta'sir etuvchi holatlar kelib chiqib, banklarning omonatchilar, mulkdorlar, mijozlar hamda kreditorlar oldidagi majburiyatini bajara-olmay banklararo raqobatda o'z mavqeini yo'qotib qo'yish xavfi kelib chiqadi. Bunday xavf, xalqaro moliyaviy munosabatlarga kirishgan mamla-katlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etuvchi global muammoni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri ekanligini ayni paytda dunyoning eng ilg'or mamlakatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan xalqaro moliyaviy inqiroz ham ko'rsatib turibdi.

Banklar, o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishlari hamda banklararo raqobatdagi mavqeini saqlash uchun faoliyati davomida omonatchilar va aktsiyadorlar manfaatini ko'zlagan holda amaldagi qonun va me'yoriy hujjat qoidalari asosida ish yuritishlari va sifatli xizmat ko'rsatish orqali doimo daromad miqdorini orttirib borishlari lozim.

Ma'lumki, kredit amaliyotlaridan olingan foizli daromadlar bank jami daromadining salmoqli hissasini tashkil etadi. Bank daromadining bu manbai

---

<sup>49</sup> И.Каримов. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий баркарорлик тугрисида. Т.: "Ўзбекистон" Нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005й. 386 б.



kreditlash jarayonining qay darajada sifatli olib borilishiga bog'liq. Aynan shuning uchun ham, fikrimizcha, banklarda kredit munosabatlari yuzaga kelgan taqdirda tahlillarga asoslanib oqilona boshqaruv qarorini qabul qilish bank faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Chunki, kredit amaliyotlaridan olingan daromadlar tijorat banklari jami daromadi tarkibida foizli daromad sifatida salmoqli hissa qo'shuvchi xizmat turi bo'lish bilan bir qatorda, bank daromadliligiga salbiy ta'sir etish doirasi yuqori bo'lgan amaliyot hamdir.

Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarish faoliyatini takomillashtirish yo'llari masalalariga doir ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqishda, fikrimizcha, kredit samaradorligi ko'rsatkichlarini, jumladan, bank aktivlarining jamiyat iqtisodiyotidagi rolini baholash va kredit mablag'larining mamlakat YaIM dagi ulushlari dinamikasini tahlil qilib chiqishimiz, shuningdek banklarning kreditlash faoliyatida yuzaga kelib, kredit munosabatlari samaradorligiga salbiy ta'sir etayotgan omillarni aniqlash va ulardan muhofazalanish yoxud ularning kredit munosabatlariga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqish uchun eng avvalo banklarning moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari misolida omilli tahlil etish maqsadga muvofiq degan fikrga keldik.

N.F.Karimovning fikrimizcha, risk natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash manbalarini ichki va tashqi manbalarga bo'lish mumkin. Risklarni qoplashning asosiy ichki manbalari quyidagilardir:

1. bankning o'z kapitali
2. kredit risklarni qoplash uchun Markaziy bankdagi rezerv hisoblari.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, kreditning kaytmaganligidan yuzaga kelgan zararlarni qoplash uchun rezervlar hajmini belgilash kiyin masaladir.

Professor Sh.Z.Abdullaevaning ta'kidlashicha esa ishonchsiz kreditlarni qoplash uchun zarur bo'lgan rezerv fondlarini tashkil etish juda muhimdir, aks holda riskli kreditlarning yuqori darajasi bankning o'z mablag'larining ma'lum qismini yo'qotishga xavf tug'diradi. Bu esa o'z navbatida bankning to'lovga noqobilligiga olib keladi. Ba'zi hollarda banklar bo'yicha kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atining pasayishi bir vaqtning o'zida kredit risklarining kelajakda pasayishi yoki barqarorlashuviga olib kelishi mumkin.

Kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil qilinadigan rezervlar(zaxiralar) fondlari kredit risklarining o'ziga xos himoyachisi bo'lib xizmat qiladi<sup>50</sup>.

Muammoli kreditlar kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Ichki omillar:
  - ta'minot etishmasligi
  - Ssuda buyurtmasini o'rganishda axborotni noto'g'ri baholash
  - Operatsiya nazoratining zaifligi, hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlanmaslik va ular yuzasidan tegishli choralar ko'rmaslik
  - Garov ta'minoti sifatining pastligi

---

<sup>50</sup> Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. Т.: Молия, 2002. 187 б.

- Shartnomada ko'rsatilgan ta'minotni olish imkoniyati yo'qligi

2. Tashqi omillar:

- Kompaniyaning bankrot bo'lish

- Kreditorlarni qarzni qaytarishni talab qilishi

- Kompaniyaning bozorda o'z o'rnini yo'qotishi va ichki ijtimoiy muammolar

- O'g'irlik, muttahamlik

Quyidagi jadvalda banklar tomonidan iqtisodiyot sube'ktlariga berilgan kreditlarning tarkibi va ularning tarkibida muddati o'tgan kreditlar salmog'i ko'rsatib o'tilgan.

**2-jadval.**

**Mamlakatimiz tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlar tarkibi  
dinamikasi<sup>51</sup>  
(1 yanvar holatiga)**

Ko'rsatkichlar	2015 y			2016 y		
	mln. so'm.	kreditga nisbatan % da	aktivga nisbatan % da	mln. so'm.	kreditga nisbatan % da	aktivga nisbatan % da
1. Kredit portfeli - jami	24122131	100,00	62,34%	29 693 208	100,00	60,34
shundan:						
- muddati o'tgan qarzdorlik	655155	2,72%	1,69%	827 997	2,79	1,68
2. Nomoliyaviy tashkilotlarga berilgan kreditlar	19 046 816	1,69%	49,22% 1	23 119 377	77,86%	46,98%
shundan:						
- muddati o'tgan qarzdorlik	645 071	2,67%	1,67%	811 360	2,73	1,65
3. Boshqa banklarga berilgan kreditlar	-	0,00	0,00	564	0,00	0,00
shundan:						
- muddati o'tgan qarzdorlik	-	0,00	0,00	-	0,00	0,00
4. Davlat tashkilotlariga berilgan kreditlar	0,00	0,00	0,00	5399	0,02	0,01
shundan:						
- muddati o'tgan qarzdorlik	-	0,00	0,00	258	0,00	0,00
5. Jismoniy shaxslarga berilgan	5 075 315	21,04%	13,12%	6 567 869	22,12%	13,35%
shundan:						
- muddati o'tgan qarzdorlik	10 084	0,04	0,03	10084	0,04	0,03

<sup>51</sup> "Ahbor-Reyting" agentligi ma'lumotlari. 2016 yil fevral.

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan turli xil sohalarga kreditlar ajratilgan. Shundan 2015 yilda muddati o'tgan kreditlar taqdim etilgan kreditlar tarkibida jami kreditlarga nisbatan 2,72 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda 2,79 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,07f.p.ga oshgan. Bu banklarimizning kreditlash amaliyotida ayrim muammolar borligini ko'rsatadi.

**3-jadval<sup>52</sup>.**

**Bank aktivlari bo'yicha tashkil etilgan zahira to'g'risida solishtirma  
MA'LUMOT (mln. So'm)**

<b>№</b>	<b>Bank nomi</b>	<b>01.01.2015 yil holatiga</b>	<b>01.01.2016 yil holatiga</b>
<b>1</b>	<b>Sanoatqurilish bank</b>	157 225	193 018
<b>2</b>	<b>Milliy bank</b>	151 251	170 440
<b>3</b>	<b>Asaka bank</b>	105 301	89 001
<b>4</b>	<b>Ipak Yo'li bank</b>	23 967	35 743
<b>5</b>	<b>Hamkor bank</b>	16 982	25 770
<b>6</b>	<b>Ipoteka bank</b>	22 626	19 674
<b>7</b>	<b>Qishloq qurilish bank</b>	9 008	17 371
<b>8</b>	<b>Aziya Alyans bank</b>	12 167	9 751
<b>9</b>	<b>Trastbank</b>	56 198	6 965
<b>10</b>	<b>Agrobank</b>	6 316	5 889
<b>11</b>	<b>Xalq banki</b>	9 278	5 296
<b>12</b>	<b>KDB Bank Uzbekistan</b>	1 609	2 200
<b>13</b>	<b>Turon bank</b>	2 044	2 130
<b>14</b>	<b>Kapital bank</b>	9 801	2 105
<b>15</b>	<b>Savdogar bank</b>	1 176	2 045
<b>16</b>	<b>UT bank</b>	194	250
<b>17</b>	<b>Aloqabank</b>	2 215	206
<b>18</b>	<b>Mikrokredit bank</b>	989	185
<b>19</b>	<b>Turkiston bank</b>	234	50
<b>20</b>	<b>Orient-finans bank</b>	10	46
<b>21</b>	<b>Invest Finans Bank</b>	522	35
<b>22</b>	<b>Ravnaq bank</b>	26	10
<b>23</b>	<b>Universal bank</b>	5	8
<b>24</b>	<b>Caderat</b>	-	8
<b>25</b>	<b>Hi-tech bank</b>	57	6
<b>26</b>	<b>Davr bank</b>	75	-

Jadval ma'lumotini tahlil qiladigan bo'lsak, bank aktivlari bo'yicha tashkil etilgan zaxiralar tarkibida Sanoatqurilish bank, Milliy bank, Asaka banklarda tashkil etilgan zaxiralar miqdori anchagina yuqori. Agar banklar kesimida ajratilgan zaxiralarning dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan yilga nisbatan Orient-finans bank 460,0%, Qishloq qurilish bank 192,8%, Universal bank

<sup>52</sup> Tijorat banklari yillik hisobot ma'lumotlari

160,0%, Savdogar bank 173,9%, Hamkor bank 151,7%, Ipak Yo'li bank 149,1% ga zaxira ajratmalarining miqdori o'sganligini ko'rish mumkin. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ushbu banklarda muammoli kreditlar tasnifiga tushi qolayotgan kreditlar miqdori yuqori. Bu o'z navbatida bankda kredit siyosati yaxshi ishlab chiqilmaganligidan yoki o'ng rioya qilinmayotganligidan dalolatdir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Qarz olish oson, bu hammamizga ma'lum, lekin uni bir kun kelib to'lash ham kerak"<sup>21</sup>, "...qarz olishdan oldin uzishni o'ylash kerak...", degan fikrlari muhimdir.<sup>22</sup>

#### 4-jadval<sup>53</sup>

#### AT "Asaka" bank kredit portfelini tasniflanishi (01.01.2016 yil holatiga, mln.so'mda)

Nomlanishi	Umumiy summa	Standart	Substandart	qoniqarsiz	Shubxali	Umidsiz
Sanoat	1 966 590	1 824 622	81 096	3 388	54 093	3 391
Qishloq xo'jaligi	187 862	139 476	45 368	99	2 744	176
Transport va aloqa	26 362	26 184	75	27	76	0
Qurilish	231 246	230 783	0	0	89	373
Savdo va umumiy xizmat ko'rsatish	289 317	277 487	436	900	10 423	70
Moddiy-texnik ta'minot	70 528	70 528	0	0	0	0
Kommunal xizmatlar	58 051	48 436	561	8 983	5	67
Boshqalar	593 020	515 386	69 407	2 136	905	5 186
<b>Jami</b>	<b>3 422 975</b>	<b>3 132 901</b>	<b>196 943</b>	<b>15 533</b>	<b>68 336</b>	<b>9 263</b>

Asaka bankning aktivlari sifatini tahlil qiladigan bo'lsak, bankda qurilish va moddiy-texnik ta'minot tarmog'idan tashqari barcha tarmoqlarda aktivlar tarkibida ma'lum miqdordagi tasniflangan aktivlarni ko'rishimiz mumkin. Sanoat sohasiga berilgan kreditlarning tarkibida shubhali kreditlar boshqalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega. 2015 yilda bankdagi muammoli kreditlar jami kreditlarning 2,7 foizini tashkil etgan.

Jahon amaliyotida bu ko'rsatkichning me'yoriy chegarasi 5% qilib belgilangan.

#### 5-jadval.

#### AT "Asaka" bankda aktivlar bo'yicha ajratilgan zaxiralar to'g'risida ma'lumot (01.01.2016 yil holatiga, mln.so'mda)<sup>54</sup>

Jami	substandart	qoniqarsiz	shubxali	Umidsiz
<b>67107</b>	19 721	3 885	34 173	9 328
<b>Jamiga nisbatan (%da)</b>	29,4	5,8	50,9	13,9

<sup>21</sup> Каримов И.А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида/ Тузувчи Муллажонов Ф.М.- Тошкент, 2011. 558-б.

<sup>22</sup> Каримов И.А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида/ Тузувчи Муллажонов Ф.М.- Тошкент, 2011. 558-б.

<sup>53</sup> AT "Asaka" bank hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.

<sup>54</sup> AT "Asaka" bank hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.

Asaka bankda kredit portfeli hajmi yil sayin oshib borganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga kreditlarning sifat darajasi ham o'zgarib borgan. Ayniqsa, 2015 yilda shubhali kreditlar keskin oshib ketgan, 2015 yilda tashkil etilgan zaxiralarning katta qismi, 50, % i ushbu kreditga to'g'ri kelmoqda.

Ushbu holat yuzasidan bank zudlik bilan muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish talab etiladi.

## 6-jadval

### AT "Asaka" bankda aktivlar bo'yicha ajratilgan zaxiralar to'g'risida ma'lumot<sup>55</sup>

Yillar	Aktivlar	Zaxira ajratmasi	Jamiga nisbatan
2012	4 267 480,76	33 716,50	0,8
2013	4 640 666,39	72 609,42	1,6
2014	5 382 854,98	44 644,61	0,8
2015	7 183 633,99	71 465,20	1,0

Bank tomonidan aktivlardan ko'riladigan zaxiralarni qoplash uchun ajratilgan zaxiralar miqdoriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning miqdorini yillar kesimida o'sish tendentsiyasiga ega bo'layotganligini ko'rish mumkin.

2012 yilda zaxira ajratmalarining jami aktivlardagi nisbati 0,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilada 2 barobarga oshib, 1,6 % ga etgan.

2014- 2015 yillarda ham ana shunday holatni ko'rish mumkin. Bu holat bank aktivlarining sifati nobarqaror ekanligini, uning kredit portfelida muammoli aktivlarning oshish tendentsiyasi mavjud ekanligidan dalolat beradi.

ChEKI Hamkorbank ATBning aktivlari tarkibida standart kreditlar katta ulushga ega. Bankda shubhali va umidsiz aktivlarning turli xillardagi o'zgarish dinamikasini ko'radigan bo'lsak, ular 2011-2015 yillarda pasayish tendentsiyasi kuzatilganligini ko'rish mumkin bo'ladi. Bankda 2015 yilda shubhali aktivlar 0,66 % ni tashkil etgan bo'lsa, umidsiz aktivlar 0,04 % ga teng bo'lgan. Bu ijobiy holat bo'lib, bankning aktiv opeartsiyalari samaradorligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida muammoli kreditlar kelib chiqishining asosiy sabablarini quyidagicha turkumlash mumkin:

- kredit oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini, kredit mablag'laridan foydalanish bo'yicha biznes-rejalarini, investitsion loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini past darajada tahlil qilinishi;

- qarzdorning kredit mablag'laridan foydalanishi ustidan monitoringni sifatsiz olib borilishi, ya'ni qarzdorning moliyaviy holatini yomonlashishi, pul oqimlarining salbiy dinamikasi holatlarida kreditni restrukturizatsiyalash hamda kreditning statusini o'zgartirishni ham qamrab oluvchi choralarni o'z vaqtida ko'rmaslik;

- banklar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga turli davlat organlarining aralashuvi;

<sup>55</sup> AT "Asaka" bank hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.

- milliy valyuta devalvatsiyasi, ya'ni xorijiy valyutadagi kreditlar bo'yicha investitsion davr mobaynida ayirboshlash kurslarida ortiqcha farqning paydo bo'lishi.

Muammoli kreditlarni bartaraf etish amaliyoti samarali bo'lishi uchun ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, tasniflash muammoli kreditlarni bartaraf etish jarayonining asosiy va dastlabki bosqichlaridan biridir.

Kredit faoliyati bankni kredit tashkiloti sifatida shakllantiruvchi faoliyat hisoblanadi. Banklarning xizmat ko'rsatish doirasi qancha kengaymasin, baribir kredit operatsiyalari banklar uchun asosiy daromad manbai bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, bank amaliyotida kredit operatsiyalari katta riskni ham keltirib chiqaradi. Chunki daromad qancha katta bo'lsa, risk ham shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa, qaytmaydigan kreditlar miqdorining oshish ehtimoli bank uchun katta zarar havfini keltirib chiqaradi.

Shu sababli har bir bank o'z kredit siyosatini aynan mana shunday muammoli kreditlar oldini olish, ular bilan ishlash chora tadbirlariga yo'naltiradi, ya'ni kredit siyosati, kredit operatsiyalarini samarali tashkil etish yo'li bilan muammoli kreditlarni yuzaga kelish xavfini oldini olish maqsadida tashkil etiladi.

Respublikamiz bank amaliyotida so'nggi yillarda berilayotgan kreditlar dinamikasi va ularni qaytarishda yuzaga kelayotgvan qarzdorlik muammosi, uni yuzaga keltirayotgan omillar hamda yuzaga kelgan qarzdorlik bo'yicha tijorat banklarida shakllantirilayotgan zaxiralar holati haqida biroz to'xtalib o'tish lozim, albatta, .So'nggi yillarda kreditning iqtisodiyotdagi o'rni va roliga emas, balki kredit munosabatlarini tashkil etish jarayoni ham sifat jihatidan ancha o'zgardi. Huquqiy va jismoniy shaxslarni kreditlash funktsiyasini endi faoliyatning asosiy maqsadi foyda olish bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos tadbirkorlik tuzilmalari rolini bajaruvchi tijorat banklarining o'zlari amalga oshiradilar.

Kreditlashning asosiy manbai banklarning o'z mablag'lari hisobiga emas, balki ma'lum vaqt o'tishi bilan foydalanganlik uchun, odatda ma'lum foiz to'lovi bilan qaytarilishi kerak bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, aholining va davlatning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb oriali orqali shakllanadi. Bu mablag'larni omonatchilarga to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda qaytarib berish uchun tijorat banklari o'zlari, avvalambor, berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytishini tam'inlashi zarur. Aynan mana shu muammo bugungi kunda respublikamiz bank tizimi oldida echilishi kerak bo'lgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi.

**1.** O'z davri uchun mukammal deb hisoblangan amaldagi normativ huquqiy hujjat qoidalari asosida iqtisodiy taraqqiyotning ayni davrida amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar echimini ijobiy hal etishda qiyinchiliklar yuzaga kelayotganligi.

**2.** Bank xodimida qarz oluvchi sub'ektning moliyaviy hisobotlarini to'g'ri va haqqoniy tahlil etish uchun malaka va tajribaning etishmayotganligi.

**3.** Bank kredit qo'mitasining rasmiyatchilik uchungina ish yuritishi, shuningdek o'z vazifasiga sovuqqonlik bilan yondashishi.

**4.** Bank-mijoz kredit munosabatlarida yakdillikning yo'qligi.

5. Kredit shartnomalarning huquqiy va iqtisodiy savodxonlik nuqtai nazaridan to'g'ri tuzilmayotgan holatlarning mavjudligi.

6. Bank mansabdor shaxslarining o'z vakolatini suiste'mol qilish holatlarining kuzatilayotganligi.

7. Qarzdor faoliyati yuzasidan etarlicha monitoring olib borilmayotganligi.

8. Majburiyat ijrosini ta'minlashga oid tadbirlar ijrosida huquqiy va iqtisodiy savodxonlik nuqtai nazaridan xatolikka yo'l qo'yilayotganligini natijasida ekanligiga amin bo'ldik.

## **21-mavzu. "Tijorat banklari kredit portfelini boshqarish"**

**1. Tijorat banklari kredit portfeli tushunchasi va uni tashkil etilishi.**

**2. Kredit portfelini sifat jihatdan tahlili.**

### **1. Tijorat banklari kredit portfeli tushunchasi va uni tashkil etilishi**

So'nggi vaqtlarda "tijorat banklari kredit portfeli" tushunchasi ko'pchilik uchun bank tizimi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni anglatadigan asosiy tushunchalardan biriga aylanib qoldi. Uning tez orada ommalashib ketishiga sabab shundaki, "kredit portfeli" tijorat banklarining kredit bilan bog'liq butun faoliyatida xal qiluvchi o'rin tutadi. "Kredit portfeli" tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko'rsatadigan omillardandir. Kredit portfeli to'g'ri tashkil etilishi tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun asos hisoblanadi. Xususan, kredit berish va uni belgilangan muddatda qaytarib olish, u bilan bog'liq xatarlar, sudalar, muddati o'tgan yoki uzaytirilgan kreditlar buyicha xisob-kitob operatsiyalari, sudalar buyicha zararlarni qoplash zaxira miqdori, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar buyicha operatsiyalar shular sirasiga kiradi.

Demak, kredit portfeli - bu turli xil risklarga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisidir.

Tijorat banklari tomonidan berilgan barcha kreditlar uning kredit portfelida o'z ifodasini topadi. Tijorat banklari o'z mijozlariga turli kurinishdagi kreditlar berishi mumkin. Avvalambor, qarz oluvchilarning asosiy guruhlariga buyicha:

- ✓ xo'jalikka;
- ✓ aholiga;
- ✓ hukumatga va davlat organlariga berilgan kreditlarga bulinadi.

Yunalishi buyicha kreditlar quyidagicha:

- ✓ iste'mol;
- ✓ sanoat;
- ✓ savdo;
- ✓ kishlok xujaligi;
- ✓ investitsion;
- ✓ byudjet.

Kreditlar foydalanish muddati buyicha:

- ✓ kiska muddatli;
- ✓ uzok muddatli kreditlarga bo'linadi.

Mikdori buyicha kreditlar:

- ✓ yirik;
- ✓ o'rta;
- ✓ kichik kreditlarga bo'linadi.

Ta'minlanganlik buyicha:

- ✓ ta'minlanmagan (ishonch) kreditlar;
- ✓ ta'minlangan kreditlarga bulinadi.

Uz navbatida, taminlangan kreditlar ta'minlanish xarakteriga ko'ra:

- ✓ garovli;
- ✓ kafolatlangan;
- ✓ sug'urtalangan kreditlarga bulinadi.

Bank kreditlari maqsad buyicha:

- ✓ ipoteka sudalari
- ✓ moliyaviy tashkilotlarga berilgan sudalar;
- ✓ kishloq xujaligiga berilgan sudalar;
- ✓ savdo va sanoat korxonalariga berilgan sudalar;
- ✓ jismoniy shaxslarga berilgan sudalar;
- ✓ boshqa sudalar;
- ✓ lizing moliyalashtirish.

Bunda bank uzining kaysi tarmokka kuproq etibor berishiga karab, u eki bu kredit ulushi kredit portfelida kuprok buladi. Bu uning kredit siesatidan kelib chiqadi.

Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy va bank daromadini katta qismi ham ayni shu kredit operatsiyalari orqali keladi. SHu sababli bank kredit portfelining qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bank yaxshi kredit portfelini shakllantirish niyatida ekan, kreditlash jaraenini tug'ri tashkil qilishi zarur buladi.

Biz yuqorida turli ko'rinishdagi kreditlarni ko'rdik, biroq konkret banklarning kredit portfelining tarkibi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Bank kredit portfelining tarkibini aniqlovchi muhim omillardan biri bu ayni bank xizmat kursatadigan bozor sektorining spetsifikasidir.

Har bir bank o'z bozor segmenti mijozlarining qarz mablag'lariga bulgan ehtiejini hisobga olishi kerak. Masalan, bank shahar chekkasidagi uylar va kichik do'konlarga ega tumanda joylashgan bulsa, asosiy uy binolari garovi ostida, ipoteka krediti, avtomobil, uy jixozlari, umuman uy xujaligini yuritish uchun xarajatlarni qoplashga kredit beradi, aksincha katta shaharda ofislar, katta univermaglar, sanoat korxonolari orasidagi banklar, odatda uz kreditlarini asosan tijorat firmalariga tovar materiallar zahiralari to'ldirishga, jihozlar sotib olishga va ish haqiga yo'naltiradilar.

Albatta, banklar kredit beraetganlarida o'zlari xizmat ko'rsataetgan regionlarga to'lik bog'liq bulmaydilar. Kerakli kredit mablag'larini to'liq eki qisman ular boshqa banklardan olishlari mumkin. Bu adolat agar bank xizmat qilaetgan region iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelsa, zarar kurish riskini



pasaytiradi.

Bank miqesi ham uning kredit portfeliga ta'sir etuvchi omillardan biri xisoblanadi, ayniksa, bir qarz oluvchiga beriladigan kreditning maksimal miqdorini belgilovchi kapitalning xajmi muhimdir. Katta banklar, odatda ulgurji kreditorlar hisoblanadilar, ular o'zlarining kreditlari asosiy miqdorini korporatsiyalar va boshqa firmalarga beradilar. Kichikroq banklarning faoliyati esa fuqarolarga kichik sudalar, uy garovi ostida xususiy shaxslarga kreditlar, firma va rancho egalariga kichik kreditlar shaklidagi yakka holdagi kreditlarni berishga yo'naltirilganlar.

Bundan tashqari, kredit portfeli tarkibiga ko'ra kreditlashning turli kurinishlari sohasida menejrlarning tajriba va malakasi hamda uz kredit inspektorlariga ma'lum kurinishdagi kreditlarni bermasligi ko'rsatilgan bank kredit siesati ham ta'sir ko'rsatadi.

Kredit portfelining tarkibi ma'lum darajada bankning kutilaetgan daromadiga ham bog'liq. Chunki bank, odatda kutilaetgan daromadi maksimal bulgan sudalarni berishni ma'qul ko'radi.

Tijorat banklari sifatli kredit portfelini shakllantirish uchun avvalambor kreditlash jaraenini tug'ri va sifatli olib borishi zarur.

Kreditlash jaraeni bir necha tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- ◆ maqsadlilik;
- ◆ ta'minlanganlik;
- ◆ muddatlilik;
- ◆ qaytarishlik;
- ◆ to'lovlilik.

Ushbu tamoyil asosida kredit olmoqchi bulgan mijozlarga kredit paketi taierlanadi va kredit olish mumkin eki mumkin emasligi tahlil qilinadi.

YAxlit olib qaralganda, kredit siesati tijorat bankining yagona kreditlash tizimini vujudga keltiradi desak xato bulmaydi. Chunki bu siesat bank o'sgan sari uning yangidan tashkil etiladigan bo'linma va filiallariga bank faoliyatining, kredit vakolatlarining, burchlarining taqsimotida muhim ahamiyat kasb etadi. Aniq bir siesatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan kredit siesati bank krediti madaniyati umumiy tarakkietining o'zagini ko'rsatadi.

Bankning kredit siesatini izohlashda, boshqaruv tashkilotlari tomonidan kreditni foydaliligini ta'minlashda eng asosiy shartlardan biri bu belgilangan standartlarga rioya qilishdan iborat buladi. Kredit siesatini tug'ri tashkil qilish, bankning kredit portfelini tartibli tashkil qilinganligida o'z aksini topadi. Agarda kredit siesati samarali, tug'ri tashkil qilinmasa eki amalga oshirilmasa, rahbariyat tomonidan bu siesat qayta ko'rib chiqilishi va uni tartiblashtirish buyicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi shart. Bunda asosiy jihatlar bulib kuyidagilar hisoblanadi:

1. Kredit portfelini tashkil etishda yaxshi kredit portfeli xususiyatlarini kreditning turlarini, qaytarish muddati, hajmi va sifatini anik baholash zarur.

2. Kredit berish sohasida, kreditlash buyicha vakolatlarni izohlash, vakolatni kredit inspektorlari va kredit qumitasi urtasida taqsimlab berish (maksimal kredit mablag'i va kreditning turi, belgilangan xodim va kerakli imzo orqali tasdiqlanishidir).

3. Kredit boshkarmasi tomonidan huquqlarni berish majburiyati va ma'lumotlarni etkazishlar chegaralanishi.

4. Tekshiruvlar, baho berishlar va mijoz kredit talabnomasi ustidan karor kabul qilinishi.

5. Har bir kredit talabnomasiga kerakli xujjatlarni ilova qilish va shu kabi xujjatlar, ya'ni kredit papkasida saqlanishini ta'minlash.

b. Bank xodimlari xuquqlarini to'raligicha ko'rsatilmog'i va kredit xujjatlarni tekshirilishi va saklanishining javobgarligi.

7. Asosiy usul koidalari, baholari va kredit ta'minotining amalga oshirilishi.

8. Siesatning amalga oshirilishi yo'llari va usullarini izohlash, foiz stavkasini urganish va kredit kaytarilishi shartlari buyicha komissiyani belgilash.

9. Hamma kreditlarga qo'llaniladigan standartlarning sifatini izohlash.

10. Xizmat kursataetgan bankning joylashgan o'rni, mintaqasi izohi va kredit quyilmalarni asosiy qismi qaerga yunaltirilganligi.

11. Tahlil qilish amaliyatini izohlash va muammoli kreditlarga bog'liq bulgan holatlar va ular buyicha qaror kabul qilish masalalari va boshkalar.

Tijorat banking rahbari kredit siesatini amalga oshirishni boshlashdan oldin ushbu izohlarga e'tiborni qaratishi kerak. Kredit siesati tijorat banklari uchun juda katta ahamiyatga ega bulib, siesatni olib borishda bankning kredit portfeliga ta'sir etuvchi omillarni ular ichida, bank xizmatlariga alohida e'tiborni qaratish lozim. Bunda xar bir bank uz mijozlarining kreditga bulgan talablarini hisobga olishi kerak. Bundan tashkari kredit portfelining tarkibi bank kapitalini hajmiga bog'lik buladi. Chunki bir qarzdorga beriladigan urtacha kredit summasi aynan shu kursatkichga bog'lik buladi. Odatda yirikroq banklar katta mikdorda kredit beruvchi kreditorlarga aylanishadi. Bular asosan kredit resurslarini korporatsiya va sanoat qurilish inshootlariga yunaltirishadi. SHu bilan birga boshqa kup yirik banklar uz kredit mablag'larini hajmi jihatdan kata bulmagan xususiy shaxslarga kredit berishga yunaltirishadi. Yirik guruhlarga kirmaydigan banklar, unchalik katta bulmagan savdo-sanoat tashkilotlari va savdo korxonalariga qarz berishga ixtisoslashadi.

#### *Bank kredit portfelini tahlil etishning asosiy bosqichlari*

<i>№</i>	<i>Tahlil etish bo'limlari</i>	<i>Ma'lumotlar</i>
1	Kreditlar holati tahlili	Joriy, muddati o'tgan kreditlar, undirilmagan kreditlar, sud jarayonidagi ssudalar, ro'yxatdan chiqarilgan kreditlar
2	Kreditlarning muddatlari bo'yicha tahlili	Qisqa muddatli kreditlar Uzoq muddatli kreditlar Overdraft krediti Kontokorrent krediti
3	Iqtisodiy sohalar bo'yicha tahlil	Sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik biznes, savdo, davlat transhi, mikrokreditlar, iste'mol krediti
4	Foiz stavkalari tahlili	Imtiyozli foiz stavkasi Kayta moliyalashtirish stavkasi Tijoratli foiz stavkasi
5	Ta'minot turi bo'yicha tahlil	Ishonchli kreditlar, mol-mulk garovi ostida beriladigan kreditlar, uchinchi shaxs kafilligi ostida berilgan kreditlar va kafolatlangan kreditlar
6	Kreditlar sifati tahlili	Birinchi sinf(yaxshi), standart, substandart, shubxali va

		umidsiz
7	Kredit tarixi tahlili	Bank o'z mablag'lari hisobiga beriladigan kreditlar, qayta moliyalashtirish mablag'lari, filiallararo va transh mablag'lari xisobidan berilgan kreditlar
8	Kreditlarning maqsadlariga qarab tahlil etish	Tijorat krediti Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlar
9	Tahlil jarayonidagi kreditlar o'zgarishi dinamikasi	Kredit hajmining o'sishi(kamayishi), muammoli kreditlar hissasi va ular bilan ishlash samaradorligi, zahiralar summasi, kredit aktivlarining rentabelligi

Bizning fikrimizcha, bank tomonidan ma'lum bir xujjat tarikasida ezma ravishda rasmiylashtirgan kredit siesati kreditlashtirish jaraenida faol ishtirok etuvchi barcha bank mutaxassislariga etkazilsa maqsadga muvofiq bular edi. Xujjatning umumiy bulimida karz berishning asosiy tamoyillari mujassamlashtiriladi, kredit kumitasi va kredit bulimi tarkibi, kredit xodimlarning burchlari va vazifalari qayd etiladi, kreditlashtirish buyicha aniq limitlar belgilanadi. Tijorat bankining kreditlar, depozitlar va boshqa majburiyatlar, uz kapitali o'rtasidagi optimal nisbatlarni ta'minlash kredit siesatning maqsadi hisoblanadi. Bank boshqaruvi kredit siesatining asosiy yunalishlarini belgilab berishi lozim. Bizning fikrimizcha tijorat bankining kredit siesatini ishlab chiqishda quyidagi asosiy bo'limlarga e'tibor berish lozim:

1. Kreditlashtirish strategiyasini - bank uz faoliyati davomida xizmat kursatadigan mijozlarning va ularga beriladigan kreditlarning turi, respublikaning iqtisodiy va siesiy haetida yuz beradigan uzgarishlarning ta'sir doirasi, bankning risklarga va kreditning bahosini aniqlashga bo'lgan munosabati.

2. Kredit portfelini boshqarishning vazifalari - kredit portfelini risklar buyicha tavsiflanishi, uni sohalar, jug'rofiy hududlar, miqdorlar buyicha diversifikatsiyalash, aniq belgilangan foydalilik darajasiga erishish va h.k.

3. Kreditlash uchun minimal chegaralar o'rnatish - mijoz moliyaviy ahvolidan mustahkamligi. Bankka takdim etiladigan moliyaviy ma'lumotlar, qarzni kaytarishning aniq manbalari, kreditni ta'minlanganligi, foiz stavkasi buyicha talablarning urnatilishi.

4. Kreditning ta'minlangan bo'lishi - bank garovga oladigan tashkilot va korxonaning aktivlariga bulgan talablarni aniqlash, garovga olinadigan mulkni qay holatlarda mutaxassis va mustakil baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi lozimligini aniqlash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat banklari kredit portfeli to'g'ri tashkil etish va undan oqilona foydalanish uchun quyidagi omillarni xisobga olish lozim:

- Kreditlar buyicha risk darajasi;
- Kreditdan foydalanish muddati;
- Kredit kaytarilish muddati uzaytirilishi;
- Kredit xajmi va uning ta'minlanganligi;
- Mijozning moliyaviy xolati, uning mulk shakli;
- Mamlakat iqtisodiyotidagi shart-sharoitlar o'zgarishi;
- Inflyasiya darajasi.

Mazkur omillarni sinchiklar o'rganib chiqish va shunga muvofiq ish tutish tijorat banklari uchun o'z kredit portfelini samarali boshqarish imkonini beradi.

## 2. Kredit portfelini sifat jihatdan tahlili

Kredit portfelini boshkarishda asosiy o‘rinni aloxida olingan ssudalarning sifatini baxolash mezonlarini ishlab chiqish va ularni baxolash egallaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xorijiy mamlakatlarda kredit munosabatlarini rivojlanishi berilgan kreditlar sifatini baxolash mezonlarining kengayishiga olib keldi. Jaxon amaliyotida banklar tomonidan berilgan kreditlarning sifatini baxolashning 10 xildan ortik yo‘nalishlari mavjud. Kreditning sifatini baxolash kreditning maqsadi, uni to‘lash usuli, mijozning kreditga layoqatlilik darajasi, uning qaysi tarmoqqa taalluqli ekanligi va mulk shakli, mijozning bank bilan munosabatining xarakteri, bankning mijoz to‘g‘risida to‘liq axborotga ega ekanligi va uning etarililigi darajasi, ssudalarning ta‘minlanganligi, xajmi va boshka mezonlar kiradi.

Rossiyada kreditlar sifatini baxolash kursatkichlari cheklangan bo‘lib, xozirgi kunda Rossiya Markaziy banki yo‘riqnomasiga binoan bu soxada ikkita mezon qo‘llaniladi. Bular ssudani qaytarishni ta‘minlash darajasi va oldindan berilgan ssudalarni to‘lashning xaqiqiy xolati xisoblanadi.

Bank aktivlarining sifatini aniqlashga ularning kredit portfelini o‘rnatilgan me‘yorlar asosida tavsiflab chiqish orqali erishilishi mumkin. Uzbekistonda 1996 yil iyulidan boshlab Markaziy bank tasdiqlagan ko‘rsatmaga asosan tijorat banklari aktivlarini tavsiflash va ssudalar buyicha yo‘qotishlar buyicha zaxiralar tashkil qilish amalga oshirilmokda. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlarga asosan aktivlarni tasniflash, muammoli yoki xarakatsiz kreditlar buyicha zaxiralarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda. Bu me‘yoriy xujjatlarga asoslanib banklar tomonidan berilgan kreditlar buyicha qarzlarning sifati, mijozning kreditga layoqatlilik kursatkichlari, uning moliyaviy xolati, kredit riskining darajasi, kelajakda kreditni qaytib berish imkoniyati, kreditning ta‘minlanganlik darajasi, kreditni tulash muddatidan necha kun o‘tganligi kabilarni inobatga olgan xolda guruxlarga tasniflanadi. Kreditlarni tasniflashdan asosiy maksad qarz oluvchining to‘lay olish qobiliyatini xamda qarzning o‘z vaqtida qaytarilishi uchun pul oqimining xolatini baxolashdan iborat.

Kreditlarni tasniflash qarz oluvchining faoliyatini quyidagi mezonlar orqali baxolashdan boshlanishi kerak:

- ◆ Mijozning to‘lovlari tarixi;
- ◆ Tarmoqning kelajagi va an‘anaviy rivojlanish usullari;
- ◆ Korxonaning umumiy xolati;
- ◆ Kreditlanadigan loyixaning xolati va samaradorligi;
- ◆ Korxonaning moliyaviy xolati;
- ◆ Korxonada boshqaruv va raxbarlik sifati;
- ◆ Korxonaning rivojlanish rejasi, strategiyasi va boshqalar.

Banklarning kredit portfelini kuyidagi yo‘nalishlar buyicha tasniflash mumkin:

- 1) risk darajasi buyicha:
  - risksiz

- kichik risk
  - oʻrta miyona risk
  - maksimum risk
  - yukori risk
- 2) tarmoklar buyicha:
- sanoat
  - qishloq xoʻjaligi
  - savdo
  - transport va x.k.lar
- 3) kreditning maksadi buyicha:
- ishlab chikarish
  - vositachilik
  - muomala soxasi
- 4) muddati buyicha:
- qisqa
  - oʻrta
  - uzoq
- 5) kredit xajmi buyicha:
- mikro kredit
  - kichik kredit
  - yirik kredit
- 6) taʼminlanganlik shakli buyicha:
- 7) mulkchilik shakli buyicha:
- qoʻshma mulk
  - davlat mulki
  - xususiy mulk
  - chet el korxonolari
  - aksioner jamoalari

Ushbu tasniflashni xar bir yunalish buyicha mikroguruxlarga bulib yana davom ettirish mumkin.

Undan tashqari manbalarga va qarz oluvchining mintakaviy oʻrni va manzili boʻyicha xam tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin. Tasniflash asosan milliy valyutada amalga oshiriladi. Baʼzi xollarda kayta moliyalashtirish va oʻz mablagʻlari xisobidan beriladigan kreditlar qattiq valyutada xam amalga oshirilishi mumkin.

Xozirgi vaqtda markazlashtirilgan kreditlar davlatning qarorlariga asosan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun milliy valyutada yoki xorijiy valyutada berilishi mumkin.

Tasniflangan kreditlarning qaysi guruxga kirish darajasi tez sotiladigan aktivlar va yukori likvid mablagʻlarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 9 noyabr 1998 yilda tasdiklangan №242-sonli «Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin boʻlgan yoʻqotishlar boʻyicha tijorat banklari tomonidan zaxiralar tashkil qilish va undan foydalanish qoidasi»ga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar boʻyicha «yaxshi», «standart», «substandart»,

«shubxali», «umidsiz» yoki ishonchsiz kreditlarga tasniflanadi.

Tijorat bankining kredit portfelini sifat darajasi bank tomonidan beriladigan kreditning ta'minlanganligiga bog'liq. Bu ta'minlanganlikning bulishi berilgan kredit bo'yicha riskning yuqori yoki past bulishini belgilab beradi. Agar berilgan kredit muammoli ta'minotga ega balsa va ushbu ta'minotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam balsa, bu xolda ushbu kredit «shubxali» yoki «ishonchsiz» deb tavsiflanadi. «SHubxali» yoki «ishonchsiz» deb tasniflangan muammoli kredit ta'minotga ega bo'lmasa, lekin ba'zi bir aniq omillar asosida yaqin kelajakda qisman qoplanish extimoli bo'lsa, u xolda bunday ssuda yuqorida aytib o'tilgan qoplanish extimoli bo'lgan to'lanmagan karz miqdorida shubxali deb, karzning kolgan kismi esa «ishonchsiz» deb tavsiflanadi. Kredit portfelining sifat darajasini taxlil qilish quyidagi bosqichlar bo'yicha taxlil qilish mumkin.

- 1- ta'minlanganlik darajasi
- 2- xaqiqiy to'lash xolati bo'yicha
- 3- xar bir kreditning risk darajasi buyicha
- 4- kreditlarning turi guruxi buyicha
- 5- kredit portfelining umumiy riskini aniklash
- 6- kredit portfelining sifati buyicha zaxira fondlar tashkil qilish
- 7- kredit portfelining xolati buyicha bankning kelgusi kredit siyosatini ishlab chikish.

Tijorat banklarining kredit portfelining sifati pastligi tugrisidagi ma'lumotlar bank tomonidan berilgan kreditlarning salmokli kismini undirib olishda muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bank faoliyatiga ishonchsiz kreditlar salbiy ta'sir kursatadi. Ular bank daromadining kamayishiga, bankning moliyaviy axvolining yomonlashuviga olib kelgan.

Ba'zi banklarda kreditlanadigan ob'ektlar buyicha kreditlarning uzok muddatligi, kreditlar buyicha kafolatlangan ta'minotning yukligi, berilga kreditlar buyicha riskning yukori bulishiga asos buladi. Undan tashkari, investitsiyalangan ob'ektlardan kuplari yangi kurilayotgan ob'ektlar bulib, ularning kurilishini olib borayotgan kuruvchi tashkilotlar bulib, mablaglar sarfiga javob beruvchi xukukiy jixatdan garant tashkilotlar sifatida faoliyat kursata olmaydilar.

Kayta texnik jixatdan ta'mirlanayotgan yoki rekonstruksiya kilinayotgan korxonalar davlat mulkidagi korxonalar bulib, ularning mulki olingan kredit buyicha garant sifatida kabul kilinmaydi. Undan tashkari, ba'zi ob'ektlar buyicha Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining pul- kredit siyosati xay'atining karori buyicha olingan kreditlar buyicha foiz stavkalarini ob'ektlar ishga tushganidan keyin tulanishi mumkin.

Bu uz navbatida moliyaviy jixatdan uncha barkaror bulmagan tijorat banklarining moliyaviy axvoliga salbiy ta'sir kursatishiga, ularning daromadining kamayishiga, likvidlilik va tulovga layokatlilik kursatkichlarining tushib ketishiga, banklarning resurs bazasiga, mijozlar bilan xisob-kitoblarning uz vaktida olib borilishiga salbiy ta'sir kursatishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida xavfli bulgan kredit kuyilmalar - bu muammoli kreditlar shakliga kirgan kuyilmalardir. Substandart va undan past tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar toifasiga kiradi.

Kreditning uz vaktida kaytarilmasligini va shu sababali muammoli ssudaning yuzaga kelishini kuyidagi belgilar orkali bilish mumkin:

- Karz oluvchi tomomnidan belgilangan muddatda balansning takdim etilmasligi;
- Debitorlik karzning birdaniga usib ketishi;
- Kiska muddatli aktivlar ulushining kamayishi;
- Kiska muddatli kreditorlik karzlarning noproporsional usishi;
- Likvidlik koeffitsientining pasayishi;
- Aktivlar tarkibida asosiy kapital ulushining oshishi;
- Savdo xajmining masayishi;
- Muddati utgan karzlarning usishi;
- Operatsion faoliyatdan kurilgan zararlarning paydo bulishi.

Muammoli kreditlar odatda karz oluvchining kreditni tulashi uchun etarli pul mablaglari bulmagan xollarda yuzaga keladi. Ba'zi xollarda ular mijozning schetida mablaglari bula turib, kreditni tulashni xoxlamaganda xam yuzaga kelishi mumkin. Kredit bulimi xodimlari shu belgilar yuzaga kelishini birinchi bulib sezmokliklari va bankni kredit buyicha yukotishlardan saklovchi chegara bulishlari lozim. Ular bank va mijoz manfaatini saklab kolgan xolda bu moliyaviy kiyinchiliklardan chikish yo'llarini ishlab chikishga yordam berishlari, boshkacha aytganda, banklar tulov kuni kreditni undirishni uylab utirmasdan, mijoz faoliyatida muammolar yuzaga kelgan vaktidan boshlab mijozga yordam berishlari, ularga ta'sir kursatishlari zarur. Buning uchun bank doimo mijozning faoliyatidan boxabar bulishi, uzi uchun zarur axborotlarni yigib, taxlil kilib borishi zarur.

SHu bilan birga, muammoli kreditlarni oldindan aniklash tizimini yaratish juda kiyin va bunda inson omili salbiy rol uynaydi. Tijorat banklarida muammoli kreditlar buyicha ishlarni kredit bulimi xodimlari olib boradi. Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, kredit bulimi xodimi shu kreditni berganligi uchun mijozni, uning moliyaviy axvolini yaxshi bilishi mumkin. Ikkinchi tomondan shu bank xodimi etarli nazorat olib bormaganligi sababli shunday muammoli kredit yuzaga kelgan bulishi mumkin. YAna kolaversa, bu kredit xodimi shu kredit soxasida mijozga yon berishi mumkin. SHu sababli bu borada professor SH. Z. Abdullaeva tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlovchi maxsus bulimlar tashkil kilishni taklif etganlar. Xozirgi kunda ba'zi tijorat banklarida shunga uxshash bulimlar tashkil kilingan bulsa-da, ularning faoliyati taklif kilinayotgan xolatdan boshka tomonlarini xam uz ichiga oladi.

Kredit uchun javobgar xodim, bankni ogir axvolga olib borgani sababli tankidga kolmasligi uchun kreditni yomonlashganligi xakida xabar kilmasligi mumkin. Bundan tashkari, muammoli kreditlar aniklab bulingandan keyin xam, bu kreditlar ular uylanganidan ortikcha muammoli bulib chikadi. SHu tarzda kimmatli vakt ketadi. Lekin eng achinarlisi shuki, bank raxbariyati uz kredit portfelining ushbu muammosini yashirishi bilan birga ushbu kredit bilan boglik xarajatlarning urnini yangi riskli kreditlar bilan tuldirishga xarakat kilishadi. Bunday xollarning oldini olish uchun kredit bulimi faoliyati tez-tez ichki audit tomonidan tekshirilib turishi, muammoli kreditlar, ularning sabablari aniklanib turishi lozim.

Kreditlarning muammolilik alomatlari bankka moliyaviy yoki nomoliyaviy tomondan ta'sir kilishidan kat'iy nazar, kredit bulimi xodimlari bunga xamisha tayyor bulishlari kerak. Muammoli kreditlarni oldindan aniklash va ma'lumotlar yigish ushbu mijoz uchun biror bir strategiya ishlab chikish uchun vakti tejaydi. Bunday xolatlarda kandaydir anik chora-tadbir mavjud emas, buning xammasi kreditning kandayligiga boglik. Samarali korxonalar uz muammolarini uzi echib oladi. Samarasiz yoki bozorda uz mavkeini yukotayotgan mijozlar uchun bu borada birmuncha kiyinrok muammolar paydo buladi. Uz bozorida rakobatbardoshlikni yukotgan mijozlar bundan xam kiyinrok axvolga tushadi. Bunday xolatlarda bank tomonidan kilingan biror-bir strategiya yoki chora-tadbirlar karzdor mijoz uchun xam, bank uchun xam salbiy xarakterga ega bulishi mumkin. SHuning uchun kreditning sifati yomonlashayotgan bulsa, kredit xodimi quyidagi choralarni kullashi lozim:

- Karzdorning muammolarini taxlil kilish;
- Bulim xodimlari, muammoli kreditlar bilan ishlovchilar yoki raxbariyat bilan maslaxatlashishi;
- Kreditni iloji boricha pastrok tasniflab, uning undirilmagan foizlarini bank daromadida aks ettirishni tuxtatish;
- Bank ushbu kreditdan boshka yana kaysi joyda mazkur mijoz bilan boglik riskka uchrashi tugrisidagi ma'lumotni tuplash;
- Barcha kredit xujjatlarini, kafolatlarni, ta'minotni, ipotekani kaytadan kurib chikiksh;
- Ta'minot olish imkoniyatlarini urganish;
- CHora-tadbirlar rejasini ishlab chikish.

Bankning ichki audit xodimlari yoki kredit bulimi xodimi tomonidan muammoli kredit yuzaga kelganligi yoki mavjudligi tugrisida axborot aniklangandan keyin bu kreditni boshkarish muammoli kreditlar bilan ishlash bulimiga topshirilishi lozim. Bu bulim kredit bulimi bilan xamkorlikda ma'lumotlar yana bir bor taxlil kilib, muammoli xolatdan chikish strategiyasini ishlab chikishi lozim.

Bunda banklarda yuzaga kelgan muammoli kreditlarni berish belgilariga karab kuyidagi guruxlarga bulib, tasniflash maksadga muvofikdir. Bular:

- Bankning uz karori buyicha berilgan kreditlar;
- Xukumat karori buyicha berilgan kreditlar;
- Vazirliklar kafolati buyicha berilgan kreditlar;
- Boshka turli karor va kafolatlar buyicha berilgan kreditlar.

Agar bank barcha riskni uziga kabul kilgan xolda uzi kredit berishga karor kilib, bu kredit buyicha muammolar yuzaga kelgan bulsa, u xolda bank mijozning aksiyadorlik munosabatini kurib chikishi lozim. Agar mijoz bankning aksiyadori bulsa, kreditni kaytarish masalasini uning aksiyadorlik jamiyatidagi salmogi xisobidan amalga oshirishi maksadga muvofikdir. Mabodo kredit xukumat yoki vazirliklar kafolati buyicha berilgan bulsa, SH. Z. Abdullaeva tomonidan u kreditlarni undirishning kuyidagi echimi taklif kilingan.

Moliya Vazirligida xukumat kafolati buyicha berilgan, lekin muammoli kreditlarga aylangan kreditlar buyicha ish olib boruvchi agentlik-emitentlarni



tashkil kilish lozim. Bu agentlikka obligatsiyalar chikarish xukuki berilib, muammoli kreditlar bulgan banklar shu obligatsiyalarni sotib olish yo‘li bilan muammoli kreditlar salmogini koplashi mumkin. Obligatsiyalar uzok muddatga ega bulgan xollarda banklar ular buyicha dividend olish imkoniga ega bulishlari lozim. Muammoli kreditlar bozorini tashkil kilib unda muammoli kreditlarni va ular buyicha banklar olgan obligatsiyalarni sotishni yo‘lga kuyish lozim.

Muammoli kreditlar yuzaga kelish sabablari buyicha bir-biridan fark kilsada, ularning oldini olishda kuyidagi yondashishlar kul kelishi mumkin. Bunda:

- Karzni restrukturizatsiya dasturini ishlab chikish;
- Kushimcha xujjatlar va kafolatlar olish;
- Kushimcha fondlarni tuxtatish yoki kushimcha in’eksiya kilish;
- Garovni sotish;
- Boshka aktivlarni sotish;
- Kafolat buyicha tulovni talab kilish;
- Boshkaruvni almashtirish;
- Menejment ishlarini olib borish;
- Xukukiy ishlarni kurib chikish va boshkalar.

Bizga ma’lumki, tijorat banklarining ishonchliligi va barkarorligini ta’minlash va mustaxkamlash Markaziy bank tomonidan muvofiklashtirib boriladi. SHuning uchun banklar tizimining samarali va barkaror faoliyat kursatishini ta’minlash masalasi turli mamlakatlar Markaziy bankining asosiy vazifalaridan xisoblanadi. Xar bir mamlakatda bu soxada urnatiladigan nazorat Markaziy bank tomonidan tijorat banklarida ularning aktivlari buyicha mumkin bulgan yukotishlarni koplash uchun zaxiralar tashkil kilish va uni doimo barkaror ushlar masalasini kuyadi.

Banklar muammoli kreditlar buyicha extimoliy yukotishlarga zaxiralar ajratishlari, zaxira fondining etarliligi eng kamida bir oyda bir marta kurib chikilishi kerak.

Substandart va shubxali kreditlar buyicha barcha extimoliy yukotishlar ssudaning amal kilish muddati davomida zaxira fondiga, yaxshi va standart aktivlar uchun barcha extimoliy yukotishlar esa kelgusi 12 oy davmida zaxira fondiga kiritilishi kerak. Ishonchsiz kreditlar esa xisobdan chikarilishi va zaxira fondi shu zaxoti kerakli mikdorga kiskartirilishi xamda yukotishlar kreditlarning kaytarilmaydigan deb topilgan davrdan xisobdan chikarilishi lozim.

## **2-jadval. Kreditlarning sifati buyicha shakllantirilishi lozim bulgan zaxiralar me’yori.<sup>1</sup>**

<b>Kreditlarning sifati buyicha sinflari</b>	<b>Extimoliy yukotishlar buyicha zaxiralar ajratish me’yori</b>
YAxshi	-
Standart	10%
Substandart	25%
SHubxali	50%
Ishonchsiz	100%

<sup>1</sup> O‘zR Markaziy bankining «Aktivlar sifatinı tasnıflash, mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar bo‘yicha tijorat banklari tomonidan zaxiralar tashkil qilish va undan

foydalanish qoidasi», 9 noyabr 1998 y, №242.

Tijorat banki boshkaruvi karoriga kura, kredit kumitasining xulosasi buyicha va bank kengashi bilan kelishuviga binoan ishonchsiz deb topilgan beshinchi sinf kreditlari ssudalar buyicha extimoliy yukotishlarga shakllantirilgan zaxira xisobiga, zaxira etishmagan takdirida 31203 xisobvarak - «taksimlanmagan foyda» xisobiga balansdan chikariladi.

Uzbekiston Respublikasi banklari amaliyotida «yaxshi kreditlar» buyicha extimoliy yukotishlar buyicha zaxiralar tashkil kilinmaydi.

Amaliyotda tijorat banklari konikarli kreditlar buyicha - 10%, standart kreditlar buyicha - 25%, shubxali kreditlar buyicha - 50% va ishonchsiz kreditlar buyicha - 100% atrofida zaxiralar tashkil kilishlari va yukorida keltirilgan kreditlar buyicha yukotishlar shu zaxiralar xisobidan koplanishi lozim.

Ssuda aktivlarini taxlil kilish bankning kredit portfelini sifati tugrisida axborot berishi mumkin. Bank kreditlarining umumiy belgilari va xususiyatlariga karab kredit portfelini tasniflab, mumkin bulgan yukotishlarni koplash buyicha yaratish lozim bulgan zaxira summasi aniklanadi. Iukotishlarni koplash maksadida tashkil kilinadigan zaxiralar mikdorining barcha banklar uchun bir xilligini ta'minlash uchun mumkin bulgan iukotishlarni koplash uchun tashkil kilingan zaxiraning bankning ustav va zaxira kapitalariga nisbatini belgilab beruvchi kursatkichni xisoblash lozim. SHu nisbat asosida tijorat banki aktivlar portfelining sifatini «uta kuchli»dan «konikarsiz»gacha baxolash va kredit portfelining sifatiga I-V bulgan reyting ballini berish mumkin.

Kredit portfelining sifatini baxolashda yagona yondashuvga erishish maksadida keltirilgan reitingga kushimcha ravishda kredit portfelining ishonchliligini aniklashning balli tizimidan foydalanish mumkin. Buning uchun avvalambor kreditning kaytarilmaslik riskini xisoblash lozim. Bu kursatkich (Rk) ni extimoliy iukotishlarni koplash uchun tashkil kilinishi zarur bulgan zaxiralar summasini (RS) kredit portfeli summasi (Kr)ga bulish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$Rk=PC/Kp*100\%$$

Keyin esa olingan natijalar asosida, kreditning kaytarilmaslik riskiga biz tijorat bankining kredit portfeli sifatida kuyidagicha reyting baxo berish mumkin.

**Jadval. Kredit portfelining sifatini baxolash mezonlari.**

Kreditning kaytarilmaslik riski	0-4,0	4,1-8,0	8,1-12,0	12,1-16,0	16,1-20,1
Reyting baxo (ball)	1	2	3	4	5
Kredit portfelining sifati darajasi	uta kuchli	kuchli	urtacha	xavfli	konikarli

Bank kredit portfeli «4,1» va undan yukori ballga baxolansa, bankda kredit buyicha riskni yuzaga kelish muammosi borligini kursatadi. Bu esa vaktida chora kurilmasa, risk darajasining oshib ketishi bank uchun salbiy okibatlariga olib kelishi mumkinligi tugrisida xulosa kilishiga asos buladi. Bunday banklar

faoliyatini UzR Markaziy banki nazorat kilib borishi, majburiy zaxiralar buyicha talablarni oshirish kabi choralar kurishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar sifatining pastligi, ularni tulash buyicha muammolarning kupligi bank faoliyatiga salbiy ta'sir kursatadi va bank tomonidan kredit siyosatini tuzish va uni olib borishda ma'lum kamchiliklarga yo'l kuyilganidan dalolat beradi. Ba'zi banklar tomonidan berilgan kreditlar sifatini pastligini kuyidagi sabablar tufayli, ya'ni birinchidan, kreditlar berishda mijozning kreditga layokatlik kursatkichlari, ularning moliyaviy axvolining yaxshi taxlil kilinmaganligi, ikkinchidan, kreditning ta'minlanganligi tugri aniklanib, rasmiylashtirilmaganligi va uchinchidan, uz vaktida, tugri kredit monitoringi utkazilmaganligi tufayli yuzaga kelgan deb xulosa kilish mumkin.

Kredit tahlili tasnifi natijalari qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, kreditlarni to'lash tarixi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ta'minotni mavjudligi kabi omillarga bog'liq.

Ushbu omillarni kredit portfeli tavakkalchiligini aniqlash va baholashda qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

Kreditlar yuqoridagi omillardan foydalanilgan holda tasniflanganda quyidagilarga bo'linadi:

1. **YAxshi.** Bunday tasnifli kreditlarni muddatida qaytarilishi shubha tug'dirmaydi. Qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u etarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlar, jumladan, mazkur qarzni o'plash uchun etarli pul mablag'lari oqimiga ega bo'ladi. Qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda raqobatlasha olish, yaxshi mahsulot ishlab chiqarishga doir strategik rejani taqdim etadi va o'z mahsulotlari uchun marketing rejasiga ega bo'ladi. Qarzdor mavo'eini baholash kreditga doir to'lovlar tarixi, ta'minotni sifati, ya'ni garovni bozorda sotilishi kabi omillarni o'z ichiga qamrab oladi. "YAxshi" deb tasniflangan kreditlarda ularni qaytarilmaslik alomatlari ko'rilmaydi. Foizlari o'z vaqtida to'lanmayotgan kreditlarni ham "yaxshi" tasnifga kiritib bo'lmaydi.

2. **Standart.** Standart toifaga kiritilgan aktivlar berilishida ikkilamchi to'lov manbasi(kafillik yoki garov) puxta ta'minlangan bo'lishi kerak. Umuman olganda, qarzdorning moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanib, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yo'nalishlar mavjud bo'lsa va agarda ular bartaraf etilmasa, qarzdorning kreditni o'z vaqtida to'lash o'obiliyatiga nisbatan shubha uyg'onishi mumkin. SHu bilan birga moliyaviy ahvol yoki garovni nazorat qilish borasida birmuncha shubhalar bo'lishi mumkin. Kredit hujjatlarida etarlicha axborot bo'lmagan "YAxshi" kreditlar ham "Standart" kreditlar sifatida tasniflanishi mumkin. To'lanmagan foizlari yangi kreditga aylanadigan (kapitallashtiriladigan) kredit hech bulmaganda "Standart" kredit sifatida tasniflanishi zarur. Qisqa vaqt mobaynida (30 kungacha) kechiktirilgan kreditlar "Standart" kreditlar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Biroq, kechiktirilgan maqomi kreditning tasniflanishini baholashda asosiy omil bo'lmisligi lozim.

3. **Substandart.** Substandart kreditlar aniq ifodalangan kamchiliklar belgilariga ega bo'lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg'otadi. "Substandart" sifatida tasniflangan

kreditlarda qarz to'lashning dastlabki manbai qarzga xizmat ko'rsatish uchun etarli darajada bo'lmaydi va bank qarzni qaytarish uchun qo'shimcha manbalar (garovni undirish va qarzdor tomonidan ssuda qaytarilmaganda garovni sotish, asosiy fondlarni sotish singari manbalar)ni qidirishga majbur bo'ladi. SHuningdek, substandart kreditlar ishonchli joriy moliyaviy ahvol va qarz oluvchining to'lov o'obilyati bilan himoyalangan. Substandart kreditlar odatdagiga nisbatan o'oniqarli joriy moliyaviy axborotning yqo'ligi yoki garov hujjatlarining etarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bo'lgan kreditlarni ifodalaydi. Ular bo'yicha foizlar yoki asosiy qarz 30 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta'minlanmagan kreditlar, hech bulmaganda, substandart sifatida tasniflanishi zarur, shuningdek, 90 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta'minlangan kreditlar ham substandart sifatida tasniflanishi lozim.

SHuningdek, quyidagi muammo yoki xususiyatlardan kamida bittasi mavjud bo'lsa, kredit to'lov muddati to'lgunicha substandart sifatida tasniflanishi mumkin:

a) asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun etarli emas, bank garovga qo'yilgan mulkni sotish, qarz oluvchining boshqa asosiy mablag'larini qayta moliyalash kabilarni hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topishi kerak bo'lgan holda;

b) qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni o'plash uchun etarli bo'lmagan hollarda;

v) qarz oluvchi kapitali ko'p darajada etarli bo'lmagan korxonaga bo'lgani taqdirda;

g) ushbu sohaga nisbatan yo'nalish va istiqbollar barqaror bo'lmagan holda;

d) kreditlar, garov qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lgan holda(ya'ni kredit qisman ta'minlangan bo'lsa).

**4. SHubhali kreditlar.** SHubhali kreditlar substandart kreditlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda kreditlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga qo'yadi va kam ishonchli qilib qo'yadi. Ziyon ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha "shubhali" deb tasniflanmaydi.

O'uyidagi omillarning kamida bittasi mavjud bo'lsa, kredit "shubhali" deb tasniflanishi mumkin:

a) "substandart" kreditlarning hech bo'lmaganda bironta ko'rsatkichi, shuningdek, ayrim boshqa noqulay tavsiflari mavjud bo'lsa;

b) yaqin kelajakda kreditning qisman to'lanishi ehtimolining mavjudligi, shuningdek, ushbu paytda kreditlarning "umidsiz" deb tasniflanishi zarur emasligi.

Kreditni "SHubhali" deb tasniflashga imkon beruvchi muhim omillarga quyidagilar kiradi:

- bank kreditlar bo'yicha ayrim to'lov turlarini yoki hech bo'lmaganda qisman to'lovlarni oladi;

- bank garovni undirib olish bo'yicha huquqiy xatti harakatlarni qo'llay boshlaydi va ta'minot sotuvini o'z vaqtida amalga oshiradi.(90 kun ichida).
- qarzdor tomonidan keyinchalik kreditni to'liq ta'minlaydigan qo'shimcha ta'minotni tag'dim etish harakatlarining amalda boshlanishi.

**5. "Umidsiz".** Umidsiz deb tavsiflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Qiymati juda pastligi tufayli bank kreditlari sifatida ularning hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi. Bunday tavsiflash kreditlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Lekin banklar o'z balanslarida bu qarzdorlikning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Bank garovga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish choralarini qo'llashi kerak.

Kamida 180 kun kechiktirilgan kreditlar "umidsiz" deb tasniflanadi.

Kreditlar bir toifadan ortiq toifalarda ham tavsiflanishi mumkin. Summasi asosiy qarzning to'lanmagan qiymatidan kam bo'lgan ta'minotga ega bo'lgan muammoli ssudalar quyidagicha tavsiflanishi mumkin(ta'minot sotilishi mumkin bo'lgan bozor mavjudligi sharti bilan):

- qiymati ta'minotning bozor qiymatiga teng bo'lgan asosiy qarz qismi odatda substandart sifatida tavsiflanadi;
- asosiy qarzning o'olgan qismi shubhali yoki umidsiz kabi tavsiflanadi.

Xulosa kilib aytganda, tijorat banklari faoliyati, ayniksa kreditlash jarayoni risk bilan bogliq. SHu sababli banklar faoliyatining barkarorligini ta'minlashda kredit portfelini okilona boshkarish muxim urin tutadi.

## **21-mavzu. "Tijorat banklari kredit portfelini boshqarish"**

### **3. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish zarurligi.**

**4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kredit portfelini diversifikatsiyalash darajasini orshirish risklarni kamaytirishning asosiy omili sifatida.**

### **3. Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish.**

Kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilarni kursatish mumkin:

- Kredit risklarini darajasiga ta'sir kursatuvchi omillarni aniklash, ularni baxolash va bartaraf etish;
- Karz oluvchining kreditga layokatligini va uning moliyaviy axvolini aniklash, kredit riskini bashorat qilish;
- Muammoli ssudalarni oldindan aniklash va ularni sundirish choralarini ishlab chikish;
- Kredit kuyilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadliligini ta'minlash;
- Kredit olgan mijoz bilan doimiy alokada bulib turish;
- Kichik biznes sub'ektlarini kullab-kuvvatlashdir.

Respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelini boshkarishni takomillashtirish bilan bog'liq bulgan asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ajratib kursatish mumkin:

1. Tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining past ekanligi.

Tahlil natijalari shuni kursatadiki, respublikamizning yirik tijorat banklarida kreditlarning asosiy kismini ma'lum tarmoqlarga mansub korxonalarda tuplanganligi kuzatilmokda. Bundan tashkari, kreditlarni ayrim mulk shaklidagi mijozlarda tuplanishi bank uchun yukori kredit riskini vujudga keltiradi. Masalan, davlat korxonalarining mulk shakli uzgarishi bilan unga berilgan kreditni kaytarishda jiddiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. SHuning uchun ham banklarning kredit portfelini mijozlarning mulk shakliga kamaytirishning muhim omili xisoblanadi.

2. Respublikamizning bir qator tijorat banklarida kredit operatsiyalari buxgalteriya hisobini tug'ri tashkil etishda muammolarning mavjudligi.

Tijorat banklarida kredit operatsiyalari buxgalteriya hisobini tug'ri tashkil etish tijorat banking kreditlash amalieti samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

2004 yildan boshlab tijorat banklarida yangi dastur buyicha bank faoliyati olib borilmokda. Bu dastur IABS deb nomlanib, yagona tizim orqali operatsiyalar olib boriladi. Bunda filiallardagi va bulimlardagi ish qanday ketayotganligini bosh bulimda kuzatilib boriladi. Respublikamiz tijorat banklarida ssuda xisobvaraklarini ochish, ssudalar berish, ssudalarning kaytarilishini nazorat kilish va foizlarni hisoblash vazifalari bulinma xodimlari urtasida taksimlab quyilgan.

Banklarning buxgalteriya boshqarmasi uning moliyaviy pozitsiyalariga tasir qiladigan barcha joriy va kuzda tutilgan majburiyatlarni baholash uchun zarur bulgan barcha ma'lumotlarga ega bulishi lozim.

Buxgalteriya provodkalari va xisob-kitoblar kreditlash boshqarmasida amalga oshirilishi lozim. Buxgalteriya provodkalarini kreditlash boshqarmasida amalga oshirishga fakat bitta holatda yo'l quyilishi mumkin. U ham bulsa bankda kompyuterlashtirishning tegishli darajasi va buxgalteriya hisobini bir vaqtning uzida nazorat qilishning va boshkarish imkonini beruvchi tizimning mavjudligi hisoblanadi. Bankning kreditlash boshqarmasi kreditlashni tasdiqlash va rasmiylashtirish uchun javobgardir. Kredit tasdiqlangandan sung kreditlash boshkarmasi barcha zaruriy ma'lumotlarni, shu jumladan kreditning turi, umumiy majburiyatlari, foiz stavkasi, tulov shakli xususidagi ma'lumotlarni buxgalteriya boshqarmasiga takdim etishi shart. Buxgalteriya hisobi boshqarmasi bu ma'lumotlardan foizli daromadni va hisoblangan foizlarni hisob-kitob qilish maqsadida foydalanadi. Ushbu ma'lumotlar boshqa hisobotlar bilan birgalikda bank rahbariyatiga eki zarur bulgan hollarda Markaziy bankka takdim qilinadi. SHu munosabat bilan davriy hisobotlarni kreditlashni tashkil qilish maqsadida tayerlash va bankning tegishli boshkarmalariga takdim etish zarurdir. Bunda kreditlar qoplash sanalari buyicha, foiz stavkalari, valyutalarning turi, iqtisodiet tarmoqlari, ta'minlangani va geografik joylashuvi buyicha tahlil qilinadi.

Respublikamiz tijorat banklarining kreditlardan kuruladigan zararlarini

qoplashga muljallangan zahiralarini tashkil etish uchun kreditlar «yaxshi», «standart», «substandart», shubhali» va «umidsiz» kabi toifalarga bulinadi va ularning summasiga mos ravishda 0%, 10%, 25%, 50% va 100% mikdorida zaxira shakllantiriladi.

Demak zaxira summasining asosiy qismi muammoli ssudalar buyicha tashkil etiladi.

3. Respublikamizning yirik tijorat banklarida muammoli ssudalarning jami kredit quyilmalari hajmidagi salmogʻini usish tendensiyasiga ega bulaetgani.

TIF Milliy bankida, Uzsanoatqurilishbankida tahlil qilingan davr mobaynida muammoli kreditlar salmogʻining usish tendensiyasi kuzatildi. Bu esa mazkur banklarning kredit portfelini sifatini emonlashaetganligidan dalolat beradi.

Muammoli kreditlarni undirish kreditlash jaraenining sunggi boskichidir. Agar kreditlar summasi tuliq qaytmasa, bu holat kreditlash jaraenining samaradorligiga salbiy taʼsir kiladi.

Muammoli kreditlar deganda, shunday kreditlar tushuniladiki, ular buyicha mijoz kredit shartnomasi shartlarini bajara olmaydi va bank uchun berilgan kreditlarni qisman eki tuliq yukotish xavfi yuzaga keladi. Muammoli kreditlarni 2 toifaga bulib urganish mumkin:

1. ushbu kreditlar buyicha asosiy qarz summasini bir qismini kechikib tulanishi yuz berishi mumkin.

2. hisoblangan foizlar uz vaqtida tulanmay qolishi mumkin.

Muammoli kreditlarning sezilarli qismi kredit shartnomasida kuzda tutilgan majburiyatlar buzilmagan, lekin moliyaviy ahvolini emonlashuvi kuzatilaetgan mijozlarga berilgan kreditlardan iboratdir.

Mijoz tomonidan kreditni qaytarish istiqbolini aniq baholash va yukotishlar mikdorini kamaytirish maksadida muqobil harakatlar dasturini ishlab chiqish lozim. Kreditlarni kaytarishdagi muammolarni uz vaqtida aniqlash va tegishli choralar kurish natijasida muammoli kreditlarning maʼlum qismini bank uchun zararga aylanishiga chek quiish mumkin.

Ayni vaqtda, bir kator obʼektiv va subʼektiv omillar taʼsirida vaziyat shunday shakllanishi mumkinki, bunda kurilgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan gap fakat kreditni undirish tugʻrisida ketishi mumkin. Kreditlarni berish shartlarining turlicha ekanligi va muammoli ssudalarning yuzaga kelishidagi sharoitlarning bir xilda emasligi har bir muammoli ssudaga individual endashuvni talab qiladi. Ammo, shunga qaramasdan muammoli kreditlarni undirish yuzasidan umumiy tizim ishlab chiqish lozim. SHunisi xarakterliki, kreditni undirish strategiyasini mijoz ahvolini oldindan tahlil qilmasdan turib aniqlash mumkin emas. SHu boisdan mijozning moliyaviy ahvolini baholash va vaziyatni kelgusida rivojlantirish prognozini ishlab chikish zarur.

SHuningdek, garovning joriy qiymatini eki sotilishi mumkin bulgan alohida aktivlarning joriy qiymatini belgilab olish zarur.

Bank muammoli kreditlarni undirish strategiyasini ishlab chikishi uchun, avvalo, etarli mikdorda maʼlumotlar tuplashi zarur. Buning uchun esa mijozlarning joriy ahvolini qushimcha tarzda mukammal tahlil qilish lozim. Tahlilni amalga oshirish uchun bank etarli darajada ichki resurslarga ega bulishi kerak. Ayrim

tijorat banklari uzlarining ixtisoslashtirilgan bulinmalarini tashkil etadilar. Kupchilik tijorat banklari esa xolis auditorlik firmalarini maxsus tahlilni amalga oshirish uchun jalb etadilar.

Zarur ma'lumotlarni yig'ish uchun bank xodimlari eki auditorlarning mijoz bilan uzviy alokada bulishi zarurdir.

Kredit shartnomalarini tuzish oqibatlarini xujjatlarda aniq aks ettirilgan bulishi shart. Bunday oqibatlar, odatda bank tomonidan qarzni undirish tug'risidagi talabni kuyishni anglatadi.

Bank har bir aniq vaziyatda qarzni talab qilish xuquqidan foydalanishni maqsadga muvofiq ekanligini anglab olishi kerak. Agarda qarzni zudlik bilan undirish maqsadga muvofiq bulmasa, unda kreditni kayta tarkiblash shartlari aniqlab olinishi lozim. Rivojlangan xorijiy davlatlarda mijoz bir vaqtning uzida bir necha bankdan kredit olish xuquqiga egadir. SHu sababli bank uz mijozining boshqa banklardan olgan barcha kreditlarini va ularning shartlari tug'risidagi ma'lumotlarga ega bulishi lozim. SHuningdek, ushbu mijozning har bir kreditorini ustun jihatlari tug'risida ma'lumotga ega bulishi lozim.

Muammoli kreditlar bilan bog'lik holatlarni tadqiq qilish va ekspertlar tavsiyanomalarini kurib chiqish natijasi buyicha bank ma'lum harakat variantini ishlab chikishi lozim.

Bank muammoli kreditni undirish uchun ixtiyorida qancha vaqt qolganligini aniqlashi va u kreditni undirish yuzasidan kurilaetgan chora-tadbirlarni qarzni kaytarish imkoniyatlariga salbiy tasir qilmasligiga ishonishi lozim.

4. Respublikamizning yirik tijorat banklarida kreditlash shakllaridan tulaqonli tarzda foydalanish muammosi.

Tahlil natijalari shuni kursatdiki, respublikamizning yirik tijorat banklarida kreditlashning, asosan, alohida ssuda hisobraqami orqali kredit liniyasini ochmasdan turib kreditlash shaklidan keng kulamda foydalanilmokda. Faktoring shaklidan esa juda kam hollarda foydalanilmokda. Bu esa kredit portfelining sifat kursatkichlariga salbiy ta'sir qiladi.

### **Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kredit portfelini diversifikatsiyalash darajasini orshirish risklarni kamaytirishning asosiy omili sifatida**

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish uchun bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tijorat bankarining kredit portfelining birinchi navbatda tarmoq xususiyatiga kura diversifikatsiya darajasini oshirish lozim.

Buning uchun har bir tijorat bankida kreditlanayotgan tarmoq korxonalariga nisbatan kreditlash limitlari joriy etilishi lozim. Kreditlash limitlari kreditlarning asosiy kismini ma'lum tarmoqda tuplanib qolishiga yo'l kuymaydi.

Amaliyotdan shu narsa ma'lumki, bankning boshqaruv organlari har bir kredit arizasi buyicha qarorlar kabul kilishda ishtirok eta olmaydi, shu sababli kreditlash limitlarini belgilash banklarning kredit amaliyotida muhim urin tutadi.

Banklar limitlarni aniqlash masalasiga turlicha yondashadilar. Lekin ularning



amaliyotda qullanilayotgan limitlarni umumiy mazmuniga kura ikki guruhga bulish mumkin:

1. Tarmoq limitlari.
2. Bitta mijozni kreditlash limitlari.

Banklar uzlarining kredit portfeli sifatini yaxshilash maqsadida mijozlarni kreditlashning nafaqat individual risklarini, balki risklarning bir qator umumiy kategoriyalarini ham tahlil qilishlari shart. SHuning uchun ham alohida mijozlarni kreditlash limitlari bilan bir qatorda kredit riskiga uchrash darajasi bir xil bulgan mijozlar guruhi uchun kreditlash limitlari urnatiladi. Bu limitlar bitta tarmoqqa mansub korxonalariga bankni bog'liq bulib qolmasligini oldini olish maqsadida urnatiladi. Amaliyotdan ma'lumki, ayrim tarmoqqa mansub korxonalarda rentabellik darajasi ma'lum bir vakt oralig'ida yuqoriligicha qoladi, ayni vaqtda boshqa tarmoqqa mansub korxonalarda rentabellik darajasi ancha past buladi. Bank amaliyotida bunga kuplab misollar keltirish mumkin. Masalan, hozirgi vaqtda Uzbekiston Respublikasida qishloq xujaligi, aviatsiya sanoati korxonalarining rentabellik darajasi past. Bunday tarmoq korxonalarida bank kreditlarining yuqori darajada tuplanishi banklarga sezilarli zarar keltirishi mumkin.

Tarmoq limitlarini belgilashda tahlil qilinayotgan tarmokning joriy holatini, rivojlanish istiqbollari, texnologik uzgarishlarning barqarorlik darajasini, tarmokda asosiy xarajat turlarini uzgarishi kabi holatlarni baholash zarur.

Tarmoq risklarini baholash usullarini ishlab chiqishda banklar ssudalarini berishda yuzaga keladigan, yukorida ta'kidlangan risklarga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishlari zarur. Bunday tahlil natijasida ushbu omillarni ta'sirini hisobga olish uchun tegishli tizim qabul qilinadi. Xalqaro bank amaliyotida bunday tizim sifatida ballarni hisoblash tizimidan keng foydalaniladi. Ta'sir qiluvchi omillarning har birini alohida kurib chiqish asosida tarmoq uchun riskning umumiy reytingi aniqlanadi. Tarmoq riskining limiti berilgan ssuda summasiga nisbatan mutloq summada eki ma'lum foizda belgilab quyilishi lozim. Masalan, bank risk limitini qishloq xujaligiga nisbatan berilgan kreditlarning 10 foiz mikdorida belgilab quyilishi mumkin.

Tarmoq riski aniqlangandan sung bank tarmoq limitlari asosida kreditlar berish tug'risida qaror kabul qilishi mumkin. Bankni bitta mijozga nisbatan kreditlash limitini aniklashda quyidagi omillarni hisobga olishi shart deb hisoblaymiz:

- Mijoz-korxonaning rahbarining reputatsiyasi;
- Mijozning aktivlari va passivlari tarkibi;
- Mijozning moliyaviy barqarorligi;
- Mijoz-korxonaning rivojlanish istiqbollari;
- Bankning mijoz bilan uzaro munosabatlari;
- Milliy iktisodietning umumiy joriy holati;
- Mijoz-korxonaning mansub tarmoqning umumiy joriy holati.

Markaziy bankning tijorat banklarini kreditlash amaliyotiga nisbatan quyilgan direktiv talablari kredit riskini minimallashtirishga xizmat kiladi. SHu sababli tijorat banklarida Markaziy bank tomonida urnatilgan mazkur normativlarni

bajarilishi ustidan nazorat urnatish tijorat banklarining kredit riskiga uchrash darajasini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

YUqorida o'z aksini topgan amaliy takliflar va tavsiyalar respublikamiz tijorat banklarining kredit siesatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi deb umid qilamiz.

2. Respublikamizning barcha banklarida kreditlash shakllaridan tulaqonli tarzda foydalanishni yo'lga quyish lozim.

Kreditlashning har bir shakli uziga xos afzalliklarga ega bulib, mijozlar uchun bank kreditlarining jozibadorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Masalan, overdraft kreditlari mijozlarning shunday toifasiga muljallanganki, ular ishlab chikarish eki mahsulotlarni sotish sikli juda qiska bulgan korxonalar bulib, fakatgina joriy hisobvarag'idagi vaktinchalik va kutilmaganda yuzaga keladigan etishmovchilikni koplash maqsadida bank kreditiga ehtiej sezadilar. Bunday mijozlar uchun muddatli kreditlar olish maqsadga muvofik emas. Agar bank mijozlarga overdraft kreditlari berish imkoniga ega bulmasa, u holda mijozlar boshqa banklarning overdraft kreditlaridan foydalanishga majbur bulishadi. g'ki kreditlashning forfeyting shaklini olaylik. Forfeyting mol etkazib beruvchilarning pul mablag'iga bulgan ehtiejlarini qondirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

3. Respublikamiz tijorat banklarining yirik kreditlar berish imkonini oshirish lozim.

Bizga ma'lumki, respublikamiz tijorat banklarining yirik kreditlar berish imkoniyati Markaziy bankning iqtisodiy me'yorlari orqali tartibga solinadi:

1. Bankning bitta mijozga beradigan ta'minlanmagan kreditining maksimal mikdori birinchi darajali bank kapitalining 5 foizidan oshmasligi kerak.

2. Bankning bitta mijozga beradigan ta'minlangan kreditining maksimal mikdori birinchi darajali bank kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak.

3. Bankning barcha yirik kreditlari uning regulyativ kapitalidan 8 martadan oshib ketmasligi kerak.

Demak, bankning yirik kreditlar berish imkoniyati uning kapitaliga va birinchi navbatda, birinchi darajali kapitalining mikdoriga bog'liq. Agar bankning kapitali kichik mikdorda bulsa, u holda bank mijozlarining yirik kreditlarga bulgan ehtiejini kondirolmaydi. Bu esa yirik mijozlarning boshqa banklarga utib ketishiga sabab bulishi mumkin.

Birinchi kayd etilgan me'yorning darajasi qanchalik kichik bulsa, kredit portfelining diversifikatsiya darajasi shunchalik yuqori buladi. Mazkur me'yor talablarining buzilishi banklar faoliyatini jiddiy kredit riskiga duchor kiladi.

Respublikamiz tijorat banklari faoliyatiga nisbatan qullanilayotgan bitta mijozga eki mijozlar guruhiga tug'ri keladigan riskning maksimal mikdori ta'minlanmagan ssudalar deb ataladi. Bu me'yor ham birinchi darajali kreditga nisbatan urnatilgan bulib, uning maksimal darajasi 0,05 qilib belgilangan. Mazkur me'yorning bajarilishi bankning kredit riskidan sezilarli darajada himoyalanish imkonini beradi. CHunki mijozlarning pul okimiga tashqi ta'sirlar kuchli tarzda ta'sir etib turgan hozirgi sharoitda ta'minlanmagan ssudalarni bitta mijozga eki mijozlar guruhiga yirik mikdorda berilishi bankni jiddiy tarzda kredit riskiga duchor qilishi mumkin.

Mamlakatimiz tijorat banklarining kredit operatsiyalariga nisbatan belgilangan uchinchi me'yor barcha yirik kreditlar uchun riskning maksimal mikdori deb ataladi. Mazkur normativ birinchi darajali kapitalga nisbatan belgilangan bulib, uning maksimal mikdori 8,00 qilib belgilangan, ya'ni bank tomonidan berilgan barcha kreditlar mikdori birinchi darajali bank kapitali summasidan 8 martadan oshib ketmasligi lozim.

Yirik kredit deganda bitta mijozga beriladigan bank kapitalining 15 foizidan oshadigan kreditga aytiladi.

Yirik kreditlarga nisbatan urnatilgan mazkur me'yor xalqaro andozalardan kelib chikkan holda urnatilgan. Masalan, Germaniyada ham yirik kreditlarning umumiy summasi uchun kapitalga nisbatan 8 martalik limit belgilangan.

Fransiyada bitta mijozga beriladigan kreditlar summasi bank aksionerlik kapitalining 40 foizidan oshmasligi va yirik kreditlarning umumiy summasi bank kapitalidan 8 martadan oshib ketmasligi lozim.

Biz kredit portfelining iqtisodiy mazmunini urgangan holda tijorat banklari kredit siesatining mazmun moiiyatini, shuningdek tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning optimal yunalishlarini kurib chikdik. Xulosa kilib aytadigan bulsak, kredit - bu mamlakat iqtisodietining barkarorligini ta'minlovchi, banklar daromad manbaining asosini tashkil etuvchi iktisodiy kategoriyadir.

Kreditlash jarayoni tijorat banklarining asosiy faoliyat turini tashkil etib, mamlakat iktisodiyotida tijorat banklari faol va etakchi sohalardan hisoblanadi. Ular xalk xujaligining barcha soha va tarmoqlariga hamda aholi qulida mavjud bulgan bush pul mablag'larini tuplab, ularning moliyaviy resurslariga ehtiejmand bulgan soha va tarmoqlar urtasida samarali taisimlash vazifasini bajarmokdalar. Bu jaraen manfaatlar uyg'unligi asosida olib boriladi, ya'ni birinchidan tijorat banklari arzon bush pul mablag'larini tuplab, ularni qimmatga sotadilar; ikkinchidan pulga extiejmand bulgan korxonalar qushimcha pul mablag'lari bilan moliyalashtirilib, ular faoliyatining uzluksizligi ta'minlanadi va ularning daromadlari ortadi. Bu esa, uz-uzidan mamlakat iktisodiyotining ravnaki uchun xizmat qiladi. SHuning uchun ham hukumatimiz tomonidan boshqa sohalar singari bank sohasiga ham katta e'tibor karatilmokda.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarda kreditlash amaliyoti yuqori urinni egallaydi. CHunki, bank jami aktivlarining asosiy qismini kredit resurslari tashkil etadi va bu resurslarni taksimlash orqali tijorat banklari yuqori daromadga ega buladilar. SHunday ekan, tijorat banklari tomonidan kreditlash jarayonini tug'ri tashkil etish lozimdir. Bu esa bevosita ularning kredit siyosatiga bog'likdir, ya'ni ularning kredit siyosati kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi riskni boshkarishda bank rahbariyati tomonidan kabul kilingan chora-tadbirlar hamda bank rahbariyati va xodimlarini kredit portfelining samarali boshqarishga doir kursatmalarni uz ichiga oladi.

Tijorat banki faoliyatidan olinadigan foydaning 60-65 foizigacha bulgan kismimi uning kredit faoliyatidan olinadigan foydasi tashkil etadi. SHu sababli har qanday bank uzining aniq va yunaltirilgan kredit siyosatiga, kredit portfelini samarali boshqarish mexanizmiga ega bulishi lozim. Bu esa, bank tomonidan beriladigan kreditlarning uz vaqtida tuliq sundirilishi va bank foydasining

kafolatidir.

## 22-mavzu. Tijorat banklarining investitsion faoliyatini boshqarish

**1. Tijorat banklarning investitsion faoliyatini iqtisodiy mazmuni va ahamiyati**


**2. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsion faoliyati huquqiy asoslari**

**3. Tijorat banklarining investitsiya portfelini tashkil qilish asoslari**

### 1. Tijorat banklarning investitsion faoliyatini iqtisodiy mazmuni va ahamiyati

Investitsiyalar zamonaviy iqtisodiyotda nihoyatda muhim rol o‘ynaydi, chunki investitsiyalar bo‘sh moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan bozor sub‘ektlari uchun foyda olish maqsadida jamg‘armani samarali joylashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish va xizmat qo‘rsatishni kengaytirish, aholini ishsiz qatlamlarini ushbu tarmoq korxonalarining ish bilan ta‘minlash hamda shu orqali aholi farovonligiga erishishga yordam beradi.

«Investitsiyalar» nemischa “investition”, lotincha “investio” so‘zidan olingan bo‘lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo‘yilmalar sarfi, ya‘ni, xarajatlar yig‘indisi, deb talqin etilgan. Iqtisodiy lug‘atda «investitsiyalar - kapitalni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo‘jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig‘indisini aks ettiradi»<sup>56</sup>, – deb ta‘riflangan. Bir guruh iqtisodchi-olimlar investitsiyalarni barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida ishlab chiqarish tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig‘indisi sifatida ta‘riflashadi.



### 1-rasm. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlari<sup>57</sup>

SHunday qilib, tijorat banklari investitsiya faoliyati ikki tomonlama ko‘rinishga ega. Banklarning iqtisodiy sub‘ekt sifatidagi faoliyati bank daromadlarini oshirishga qaratilgan. Banklar investitsiya faoliyatining

<sup>56</sup> Финансово-кредитный словарь. Т. 1. – М.: «Финансы и статистика», 2007 г. – С. 470.

<sup>57</sup> Игонина Л.Л. "Инвестиции. Инвестиционная деятельность коммерческих банков" 2013 г. 30 стр.

makroiqtisodiy samarasi butun jamiyat kapitali oshishiga olib keladi va bank qo'yimlarining ishlab chiqarishga yo'naltirilganligini ifodalaydi.

Mikroiqtisodiy nuqtai nazardagi investitsiya faoliyatida banklar xo'jalik sub'ektlari ustav kapitaliga mablag'larini joylashtirib (birlamchi bozorda ulush, pay, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish) muassislik faoliyatini yuritadilar. SHuning uchun tijorat banklari investitsiya faoliyati butun iqtisodiyot investitsiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Banklar investitsiya faoliyati ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- tijorat banlari investitsiya resurslari hajmi;
- investitsiya resurslarining real bahosi indeksi;
- bank investitsiyalari hajmi;
- bank aktivlarida investitsion qo'yimlarning ulushi;
- bank investitsiyaviy qo'yimlarning tarkibiy ko'rsatkichlari;
- banklar investitsion faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari (aktivlarning investitsiyalar hisobidan o'sishi, foydaning investitsiyalar hisobidan o'sishi);
- ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mablag'larning moliyaviy aktivlarga yo'naltirilgan mablag'larga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichlari.

Tijorat banklari investitsiya faoliyati shakllarining klassifikatsiyasi investitsiyalarning turlari va shakllari, shuningdek bank faoliyatining o'ziga xosligiga bog'liq.

Tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirishdagi ishtiroki. "Investitsiya loyihasi" tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish, ob'ektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonlarini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin. To'liq shakllangan, yakuniga etgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi: investitsiya g'oyasini shakllantirish; investitsiya imkoniyatlarini tadqiq etish; investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash; shartnoma hujjatlarini tayyorlash; loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash; qurilish-montaj ishlari; ob'ektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko'rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutining professional qatnashchisi sifatida ishtirok etadi va emissiya brokerlik, dilerlik faoliyatini bajaradi, qimmatli qog'ozlar bilan savdoni tashkil qiladi. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni emissiya qilishi (aksiyalar, depozit sertifikatlari, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni); qimmatli qog'ozlarni sotib olishi, sotishi va saqlashi hamda ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarishi; ishonchli operatsiyalarni amalga oshirishi; mablag'larni jalb qilishi va joylashtirishi,

qimmatli qog'ozlarni boshqarishi va mijozlarni topshirig'iga binoan boshqa operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Bankni investitsiya strategiyasi maqsadlarni uyg'unlashuvi asosida yaratiladi, ya'ni:

- qimmatli qog'ozlar emissiyasi asosida an'anaviy investitsiya faoliyati uchun qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilish;
- mablag'larni qimmatli qog'ozlarga investitsiyalashdan bankka to'lanadigan foizlar va dividendlar hamda qimmatli qog'ozlarni kurs bo'yicha qiymati o'sishi hisobiga foyda olish;
- bank ta'sir ko'rsatish doirasini raqobatni kengaytirish hamda korxonalar va tashkilotlar jamg'armasida qatnashish hisobiga mijozlarni jalb qilish;
- bankni likvid mablag'lariga qo'yilmalar daromadlilikini ta'minlagan holda likvidlilikni kerakli zaxirasini ushlab turish;
- qonunchilik bilan ruxsat etilgan qo'shimcha xizmatlarni amalga oshirishdan foyda olish.

Tijorat bankining investitsiya faoliyatiga asos qilib olinadigan investitsiya maqsadlari, odatda, quyidagi tarzda shakllantiriladi:

- bank foydasini ko'paytirish, kelgusida yanada keng qo'lamli investitsion vazifalarni hal etish uchun mablag'larni bir joyga jamlash;
- yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda soliq imtiyozlarni olish.

O'zbekiston tijorat banklarining investitsiya faoliyati bank tomonidan real jalb etilgan mablag'larni turli manbalarga joylashtirishga doir turli operatsiyalar bilan ifodalanadi. Mazkur manbalarning xususiyatiga ko'ra tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya operatsiyalari quyidagi guruhlar orqali amalga oshiriladi:

- DQMOga investitsiyalar;
- banklararo kreditlar ko'rinishidagi investitsiyalar;
- iqtisodiyotning real tarmog'i (sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqalar)ga investitsiyalar;
- turli aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalariga va boshqalarga investitsiyalar.

Tijorat banklarining banklararo kreditlar ko'rinishida sarflayotgan investitsiyalari daromad olish bilan birga, bank faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha ham amaliy sheriklik munosabatlarini o'rnatish imkoniyatini vujudga keltiradi. Investitsiya faoliyatining bu ko'rinishi kamroq risklidir, chunki bank tomonidan resurslar qaytarilishi kafolatlari investitsiya loyihasini amalga oshirayotgan korxonalar tomonidan kafolatlardan ko'proqdir.

Sanoat korxonalarini va qishloq xo'jaligi korxonalarini kreditlash yuqori darajadagi riskli operatsiyadir, garchi investitsiyaning aynan shu turi iqtisodiyotning real tarmog'ini rivojlantirish imkonini beradi. Investitsiyaning ana shu turi evaziga sanoat va qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish, shuningdek mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish mumkin. Eng muhimi shundaki, iqtisodiyot real tarmog'iga investitsiyalar kiritilishi O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotda tijorat banklarining investitsion faoliyatini

takomillashtirish iqtisodiyotni rivojlanishida etakchi o‘rinni egallaydi.

## **2. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsion faoliyati huquqiy asoslari**

Hozirgi sharoitda ayrim xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyati va umuman mamlakat iqtisodiyoti investitsiyalarni amalga oshirish hajmi va shakliga hal qiluvchi darajada bog‘liq. Mamlakatda investitsiya faoliyati qonunlar tizimi bilan, shuningdek mamlakat birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya munosabatlarini tartibga solish o‘zagini 1998 yil 24 dekabrda 719-I – sonli “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”, 1998 yil 30 apreldagi “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”, 1998 yil 30 apreldagi “Kafolatlar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonunlar tashkil etadi.

“Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunda belgilab berilganidek: “Investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat ob‘ektlariga sarflanadigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar va ularga egalik qilish huquqidir” (O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasi).

Mamlakatimizda tijorat banklari investitsiya faoliyatini amalga oshirishidagi imkoniyatlari va bu operatsiyalarga riskni boshqarish nuqtai nazaridan o‘rnatilgan cheklovlar, tijorat banklari investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish maqsadidagi barcha imtiyozlar bir qator me‘yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan:

“Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni”ga binoan investitsiya faoliyati sub‘ektlarining manfaatlariga muayyan tarzda daxldor umum majburiy tushadigan qonun hujjatlaridan ular erkin foydalana olishlari lozim.

"Tijorat banklariga qimmatli qog‘ozlar bozorida operatsiyalar bajarishga doir yo‘riqnoma"ga asosan: Mablag‘larni qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalash banklarga o‘z aktivlarini diversifikatsiya qilish, bu bilan tavakkalchilikni pasaytirish va potensial daromadlarni oshirish, shuningdek bank mijozlari omonatlarini xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar kapitallariga samarali investitsiyalash uchun safarbar qilish vositasida makroiqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishni rag‘batlantirish imkonini beradi. Banklar investitsiyalari qo‘yilgan har qanday korxonalar faoliyati monitoringi bo‘yicha boshqarish tajribasiga ega bo‘lishi shart, chunki investitsiyalarni amalga oshirishda prudensial (oqilona) yondashuvni talab qiladigan investitsiyalar bilan bog‘liq muayyan tavakkalchiliklar mavjud.

2009 yil 28 iyul "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 1166-sonli Prezident Qarori qabul qilindi. Bu qarorda Tijorat banklarining investitsiya faoliyati kengaytirilishini yanada rag‘batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo‘naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish uchun ularning resurs bazasini mustahkamlash to‘g‘risida bayon etilgan. Ushbu qabul qilingan qarorga muvofiq:

1. yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha bankning kredit hamda investitsiya siyosatini va investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, buning asosida bankning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash;

2. loyiha hujjatlari, ularning moliyaviy jihatdan o'zini qoplashi va rentabelligini chuqur tahlil qilish asosida investitsiya loyihalarini puxta tanlab olish, kompleks baholash hamda sifatli ekspertiza qilishni ta'minlash;

3. investitsiya loyihalarini moliyalashga o'z moliya mablag'larini sarflash va ulardan samarali foydalanish, loyihalarning amalga oshirib borilishini doimiy monitoring qilish, qo'yilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash;

4. tavakkalchilik, garovlar va ta'minlashning boshqa turlari bozor qiymatini puxta baholashni hisobga olgan holda, berilgan kreditlarning o'z vaqtida hamda to'liq qaytarilishini ta'minlaydigan ishonchli mexanizmlardan keng foydalanish;

5. investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan banklar bo'linmalarini professional tayyorlangan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, investitsiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha bank mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish sifatini tubdan yaxshilash ko'rsatildi.

2015 yilning 1 yanvarigacha respublikamiz bank tizimida shunday tartib o'rnatilishi ko'zda tutilganki, unga ko'ra tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha foyda solig'i to'laydilar.

Bundan tashqari, 2010 yil 6 aprelda 1317-son "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori qabul qilindi. Unda Respublika bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini o'stirish, ularning investitsiyaviy faoliyatini kuchaytirish hamda ichki manbalar hisobidan iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan kreditlar hajmlarini ko'paytirish, shuningdek aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb etish yo'llari bayon etilgan. Ushbu qaror asosida ichki manbalar hisobiga iqtisodiyotga uzoq muddatli kredit qo'yilmalar ulushini yanada oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, zamonaviy texnologiya asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarilishini tashkil etishga yo'naltirilgan tijorat banklari investitsiyaviy faolligini kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Tijorat banklari tomonidan, jumladan, ishlab chiqarishni tashkil etish va yo'lga qo'yish hamda mahsulotlarni sotishda muvaffaqiyatli ish tajribasiga ega boshqa investorlar ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi PF-4010-son farmoyishida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tatbiq etilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 oktyabrdagi PF-3075-son farmoyishi bilan tuzilgan Tijorat banklari rahbarlari va investitsiya faoliyati masalalari bo‘yicha mas’ul bo‘lim boshliqlarini attestatsiyadan o‘tkazish komissiyasi muntazam ravishda, har ikki yilda bir marta tijorat banklari boshqaruvi raislari o‘rinbosarlarini va banklarning investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalari rahbarlarini attestatsiyadan o‘tkazishni ta’minlaydi (xorijiy kapital ishtirokidagi banklar va xususiy banklar bundan mustasno).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»

“Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sindikatli kreitlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom Bank sindikati sindikatli kreditda ishtirok etadigan ikki yoki undan ortik bank o‘rtasida bitim tuzish yo‘li bilan tashkil kilinadi.Sindikatli kreditlash tashabbuskori bo‘lgan xamda ishtirokchi-banklar nomidan ssuda xisobi va xujjatlarni yuritish mas’uliyati yuklangan bank sindikatning etakchi banki xisoblanadi.Tijorat banklari tomonidan sindikatli kreditlash kaytarish, to‘lash, ta’minlash, kiska muddatli va maksadli foydalanish shartlari bilan amalga oshiriladi.Sindikatli kredit karz oluvchi va etakchi bank o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida beriladi.Sindikatli kredit yirik investitsiya loyixasining iktisodiy jixatdan o‘zini o‘zi koplash muddatiga kadar berilishi mumkin.Sindikatli kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi mikdori, shuningdek, investitsiya loyixasini kreditlash muddati karz oluvchi va etakchi bank o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasida sindikatli kredit xakidagi bitimda kelishilgan shartlarda belgilanadi.Zarar ko‘rib ishlayotgan, nolikvid balansga ega xo‘jalik sub‘ektlarini kreditlashga yo‘l ko‘yilmaydi, avval berilgan kreditlar esa belgilangan tartibda muddatidan avval undirilishi zarur. Bu koida kredit shartnomasida majburiy tartibda kayd kilinishi shart.

2008 yil 18 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 4053 – sonli Farmoni, 2009 yil 19 noyabrda esa «Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF – 4010 – sonli Farmoyishi qabul qilindi.Bu muhim hujjatlar bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo‘shimcha investitsiya kiritish , ana shunday korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o‘rinlarini qayta tiklash va yangi ish o‘rinlarini yaratishni ko‘zda tutadi.

Bankrot korxonalarini tiklash jarayonini rag‘batlantirish maqsadida kiritilgan yangi soliq imtiyozlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsion faolligini kuchaytirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 1317 – sonli Qarorida ham o‘z aksini topdi. Unga asosan , tijorat banklari tomonidan , shu jumladan boshqa investorlar ishtirokida bankrot korxonalar negizida tashkil etilgan

korxonalarga , yangi investorlarga sotilgunga qadar , ular davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan boshlab uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga quyidagi huquqlar berilgan:

- mavjud imtiyozlar bo‘yicha mol – mulk solig‘i summasini korxonalar harajatlariga kiritmaslik;

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini o‘rnatilgan me‘yordan kamroq hisoblash;

Investitsion faollikni oshirish bo‘yicha qabul qilingan Dasturlar

- “2011-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” (PQ-1442, 15.12.2010y.)

- “2011-2013 yillar uchun mahalliy lashtirish dasturi” (PQ-1590, 29.07.2011y.)

- hukumat tomonidan har yili tasdiqlanadigan Davlat Investitsiya dasturi.

- namunaviy loyihalar asosida qishloq joylarda uy-joylarning qurilishi dasturi.

- hududlarni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish dasturlari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy masalalarni ijobiy hal qilishning asosiy vazifalaridan biri banklarning investitsion faoliyati barqarorligini ta‘minlash natijasida iqtisodiyotni, shu jumladan moliya bozorini xam rivojlantirishga erishish mumkin. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya faoliyatida ishtirok etishi Bozor iqtisodiyoti jarayonida ijtimoiy masalalarni ijobiy hal qilishning asosiy vazifalaridan biri banklarning investitsion faoliyati barqarorligini ta‘minlash natijasida iqtisodiyotni, shu jumladan moliya bozorini xam rivojlantirishga erishish mumkin.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4609-sonli Farmoni hamda boshqa farmon va qarorlarida mamlakatda ishbilarmonlik va investitsion muhitni tubdan yaxshilash bo‘yicha belgilab berilgan vazifalarning izchillik bilan bajarilishi hisobiga 2015 yilda aholi va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar investitsion faolligining yanada oshishi ta‘minlanadi.

### **3. Tijorat banklarining investitsiya portfelini tashkil qilish asoslari**

Investitsiya portfeli deganda zamonaviy va yuridik shaxs yoki shaxslarga tegishli bo‘lgan va butun bir boshqaruv ob‘ekti sifatida chiqadigan qimmatli qog‘ozlar majmui hisoblanadi. Odatda bozorda portfel boshqaruvi jarayonida yaxshilanishi mumkin bo‘lgan, risk va daromad nisbati bilan berilgan qanaqadir investitsion sifat sotiladi.

Portfel o‘zida korporativ aksiyalarining, turli darajadagi risk va ta‘minotga ega bo‘lgan obligatsiyalarini ma‘lum bir to‘plamini ifodalaydi. Portfelni hajmi qancha katta bo‘lsa u bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat xarajatlarini iqtisod qilishni imkoniyat ham katta bo‘ladi.

Investitsiyalar bilan shug‘ullanayotgan vaqtda o‘z harakatlaringizni siyosatini ishlab chiqish zarur va quyidagilarni aniqlashtirish kerak:

-investitsiyaning asosiy maqsadlari (uning xususiyati strategik yoki portfel ko‘rinishida bo‘ladimi);

-investitsion portfelni shakllantirish, qabul qilinadigan qimmatli qog‘ozlarning turlari;

-investitsion portfelni sifatligini va portfelni diversifikatsiyasi va shu kabilar.

Amalda tijorat banklarining investitsiyalariga - bank aktivining so‘ndirilish muddati bir yildan ortiq bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarga qo‘shimcha daromad olish uchun yo‘naltirilishi hisoblanadi. Agar tijorat banki, emitentlarning muomalaga chiqargan qimmatli qog‘ozlarni har xil miqdorda xarid etib olsa, bu qo‘yilmalarni diversifikatsiya qilishda ushbu bankning qimmatli qog‘ozlar portfeli haqida gapirish mumkin. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning mohiyati esa boshqa investorlarning qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishidan asosan farq qilmaydi. Bu erda boshqa investorlar deyilganda investitsiya institutlari, yirik sub’ektlar va holding kompaniyalari nazarda tutilmoqda. Qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarish o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- portfelni rejalashtirish;
- portfel tarkibini tahlil etish va uni tartibga solib turish;
- portfelni shakllantirish va uni saqlab turish uchun kerakli likvid darajasiga amal qilish;
- portfelni boshqaruv faoliyatidagi xarajatlarni kamaytirish va boshqalar.

Tijorat banklari o‘zlarining bo‘lajak investitsiya siyosatini ishlab chiqishda va qimmatli qog‘ozlar portfeli hajmi hamda uning tarkibini aniqlashda eng avvalo ular qimmatli qog‘ozlarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlariga e‘tiborni qaratadilar:


- foydalilik;
- likvidlik (samaradorlik);
- kapitalni oshirish manbai;
- ishonchlilik darajasi;
- risk.

O‘zbekiston Respublikasida amaldagi bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka asosan tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar portfelining tarkibini muomaladagi davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, davlat o‘rta muddatli g‘azna majburiyatlari va tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalarining qimmatli qog‘ozlariga investitsiya qilish natijasida bank kapitali va sanoat kapitali qo‘shiladi natijada moliya kapitali tashkil topadi. SHuni ta’kidlash lozimki, bunday jarayon ko‘p mamlakatlarda amalga oshirilmaydi, lekin O‘zbekistonda bunday jarayon keng rivojlangan. Bank kapitali va sanoat kapitalini qo‘shilishining ijobiy tomoni shundan iboratki, tijorat banki aksiyador sanoat korxonasining paket aksiyasini sotib olgandan so‘ng u bu jamiyatni boshqaruvida faol ishtirok etadi. O‘zbekiston Respublikasida asosan barcha banklar turli yo‘nalishdagi bir yoki bir necha investitsiya institutlari, nvestitsiya vositachisi, depozitariy, investitsiya kompaniyasining ta’sischisi hisoblanadi.

Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar portfelni bo‘yicha ichki hisobot o‘z ichiga quyidagi ma’lumotlarni olishi kerak:

- qimmatli qog‘ozlarning har bir shakli va turi bo‘yicha ajratilishi;
- qimmatli qog‘ozlarning sifat reytingi;
- qimmatli qog‘ozlarni har birining nominal va bozor qiymati;
- qimmatli qog‘ozlarning har birini sotib olish yoki sotish sanasi;
- qimmatli qog‘ozlarning foiz stavkalari;
- qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha olingan dividendlar yoki foiz daromadlari;
- qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha savdo bitimidan olingan foyda

Umuman olganda, portfelni shakllantirish, tahlil va monitoring qilish hamda optimallashtirish asosida tarkibini qayta ko‘rib chiqish jarayonida uning talab qilingan parametrlariga mos keladigan yangi investitsion sifati xossasiga erishiladi. Bunda bu jarayonni umuman olganda portfelni boshqarish deb tushunish mumkin.



**2-rasm. Daromad manbasi bo‘yicha portfel tasnifi<sup>58</sup>**

<sup>58</sup>Носиров Е.И. ““Қимматли қоғозлар бозорида тижорат банкларининг ролини ошириш масалалари“. Автореферат маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Agar portfellar turini investor uchun ma'qul bo'lgan risklar darajasi bo'yicha tasniflansa, unda portfellar turi to'rt xil bo'lishi mumkin: konservativ, me'yorli-agressiv, agressiv va noratsional. Demak, investorning har bir turiga unga mos bo'lgan portfel turi to'g'ri keladi: yuqori darajada ishonchli, lekin past daromadli; diversifikatsiyalangan; riskli, lekin yuqori daromadli, tizimsiz. Bunda albatta investorning o'zi eng qulay bo'lgan yo'nalishni tanlashga harakat qiladi. Bunda portfel tizimsiz bo'lganligi sababli har qanday iqtisodiy o'zgarishlarda risk darajasi oshib borib portfelning daromadlilik darajasi pasayib borishi mumkin va investor kutgan daromad darajasi pasayib borishi kuzatiladi.

1-jadval

**Respublikamiz tijorat banklari investitsiya portfeli renkingi<sup>59</sup>**  
(01.01.2017 yil holatiga)

Rang	Tijorat banklari nomi	Investitsiyalar mln.so'm	Jamidagi salmog'i	2015 yilga nisbatan o'zgarishi
1	Milliy bank	472149	31,65%	-38,73%
2	Agrobank	186878,9	12,53%	157,87%
3	Asaka bank	184807,8	12,39%	20,50%
4	Xalq banki	122747,4	8,23%	-5,51%
5	Orient Finans	109592,4	7,35%	845,38%
6	O'zsanoatqurilishbank	106745,6	7,16%	-7,55%
7	KDB bank O'zbekiston	78684,3	5,27%	63,99%
8	Trastbank	55764,5	3,74%	43,03%
9	Ipoteka bank	32506,4	2,18%	-26,21%
10	InFinbank	22395,8	1,50%	20,52%
11	Turonbank	22275,2	1,49%	6,74%
12	Asia Alliance Bank	21040,7	1,41%	61,85%
13	Hamkorbank	14900,3	1,00%	-13,75%
14	Aloqabank	13564	0,91%	11,27%
15	Kapitalbank	12603	0,84%	-80,12%
16	Mikrokreditbank	11316,3	0,76%	3,72%
17	Savdogarbank	8444,5	0,57%	42,33%
18	Qishloq qurilish bank	5494,5	0,37%	44,39%
19	Universalbank	5013,9	0,34%	25,60%
20	Ipak Yo'li bank	4018,6	0,27%	-84,89%
21	Ravnaq bank	640	0,04%	1500,00%
22	UT Bank	40,7	0,00273%	1,80%
23	Turkiston bank	40,5	0,00271%	-99,49%
24	Saderat bank	40	0,00268%	0,00%
25	Davr bank	40	0,00268%	-98,87%
26	Hi-tech bank	40	0,00268%	0,00%
27	Madad Invest Bank	0	0,00%	0,00%
<b>Jami</b>		<b>1491784,3</b>	<b>100,00%</b>	<b>-6,69%</b>

<sup>59</sup> «Ahbor-reyting» рейтинг агентлиги ma'lumotlari asosida tayёрланди.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, respublikamiz tijorat banklarini jami investitsiya portfeli 1491784,3 mln so'mni tashkil etgan.

Investitsiya portfeli hajmining kattaligi bo'yicha birinchi o'rinda milliy bank tursa, eng oxirgi o'rinda Madad Invest bank turmoqda. Ularning jamidagi ulishi mos ravishda 31,65% va 0 %ni tashkil qilmoqda. Ko'pchilik tijorat banklarining investitsiya portfeli o'tgan yilga nisbatan pasayganini ko'rishimiz mumkin.

Fikrimizcha, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun ularning jami regulativ kapitalini oshirish lozim. SHu holatdagina tijorat banklari kapitalining etarliligi Markaziy bank tomonidan qo'yilgan talablarga javob beradi va ularning investitsiya qilish imkoniyatlari oshadi. Tijorat banklari investitsiya portfelidagi daromadlilik darajasi past bo'lgan qimmatli qog'ozlarni sotib, ularning o'rniga birjada kotirovka qilinadigan va daromadli qimmatli qog'ozlarni sotib olishi zarur. SHundan kelib chiqish mumkinki, tijorat banklari faoliyatida foydali qimmatli qog'ozlarga investitsiya sarflash muhim o'rin tutib, ularni istiqbolli rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi.

Investitsiya portfeli tarkibiga uni rejalashtirish, tahlil qilish va tartibga solib turish, portfel oldiga qo'yilgan vazifalarga erishish uchun uni shakllantirish hamda quvvatlab turish, uning likvidligini zarur darajada saqlab turish va u bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishni o'z ichiga oladi. Investitsiya siyosatini ishlab chiqish va investitsiya portfeli tuzilmasini aniqlash vaqtida banklar avvalombor likvidlik, daromadlilik va xatarga e'tibor beradi.

Banklarning qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qilishdan asosiy maqsadi foizlar olish, kapitalni saqlab qolish va qimmatli qog'ozlar kursi qiymatini O'sib borishi asosida sarmoyaning ko'payishini ta'minlashdir.

Banklarning bu sohadagi strategiyasiga bank qonunchiligi katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Buyuk Britaniya, Italiya kabi mamlakatlarda qonun bank portfelida mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlar kurs qiymatining o'sishi hisobiga vujudga keladigan yashirin zahiralarning shakllantirilishini ta'qiqlaydi.

## **23-mavzu. "Kredit risklari va ularni boshqarish"**

**1. Tijorat banklari kredit riski, iqtisodiy mohiyati va yuzaga kelish sabablari**

**2. Tijorat banklari kredit risklari darajasini baholash va ularni boshqarish usullari**

### **1. Kredit riski, mohiyati va yuzaga kelish sabablari.**

Kredit riskiga ta'rif berishdan oldin iqtisodiy kategoriya sifatida kredit tushunchasining mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Jamiyat faoliyatining o'ta muhim jihati – bu ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlatiladi, mahsulotlar va xizmatlardan iborat hayotiy ne'matlar yaratiladi.

Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy va mehnat omillari ta'minlaydi. Ishlab chiqarishning bu omillar bilan bir tekisda ta'minlanishi muammodir. Bu muammo o'z echimini **kredit** orqali topadi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

**birinchidan**, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo'sh qolgan mablag'larning harakatsiz turib qolishining oldini olinadi.

**ikkinchidan**, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kredit – foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanish uchun pul yoki material mablag'lari berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida qator vazifalarni bajaradi:

1. **Taqsimlash.** Bo'sh pul mablag'larini qaytarish sharti bilan qarzga berish orqali kapitalni turli tarmoqlar, korxonalar o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashni amalga oshiradi va ishlab chiqarish resurslarining ko'chib yurishini ta'minlaydi.

2. **Emissiya.** Kredit asosida va unga bog'liq xolda pul belgilari, pulga tenglashtirilgan naqd pulsiz to'lov vositalari, turli qimmatbaho qog'ozlar emissiya qilinadi va xo'jalik oborotiga kiritiladi.

3. **Nazorat qilish.** Kredit operatsiyalarini bajarish jarayonida iqtisodiy faoliyat, moliyaviy ahvol nazorat qilinadi.

4. **Bo'sh pul mablag'larini harakatdagi, oborotdagi kapitalga aylantirish.**

5. **Rag'batlantirish.** U yoki bu maqsad uchun qarz berish, qarzni undirish orqali tejamkorlik, iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi.

Kredit resurslaridan korxonaga quyidagi hollarda foydalanishi mumkin:

1) Korxonaga kreditni xarajatlarning biron turini amalga oshirish uchun, masalan, xom-ashyo, materiallar sotib olish, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki jo'natilgan tovarlar uchun olishi mumkin.

2) Korxonaga aylanma fondlarning doiraviy aylanishining barcha bosqichlarida kreditni jalb qilishi mumkin.


3) Korxonani kompleks kreditlashtirish zarur bo'lganda amalga oshiriladi.

Boshqa iqtisodiy kategoriyalar singari kredit mahsulot ishlab chiqarishni va muomala sohasini rag'batlantiradi. Shuningdek, kredit ijtimoiy-iktisodiy maqsadlarni amalga oshirishga, iqtisodiy vazifalarni bajarishga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Kreditning **umumiy maqsadi** – bu ijtimoiy ishlab chiqarishning dinamik va proporsional rivojlanish asosida aholining moddiy va madaniy turmush darajasining oshishini ta'minlashdan iborat.

Kreditning **asosiy maqsadi** ishlab chiqarishni rivojlantirishning intensiv omillarini qo'llash asosida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir.

Kredit davlatning iqtisodiy vositalaridan biri sifatida butun iqtisodiyotning rivojlanishiga va alohida korxonaga faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kreditning iqtisodiyotga va ilmiy texnika taraqqiyotini rivojlanishiga ta'siri korxonalarining moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashdagi rolini oshiradi. Xo'jalik hisobiga qarz oluvchi yuridik mustaqil shaxs sifatida kreditor bilan kredit shartnomasi tuza oladi.



**1- rasm. Bir qancha olimlarni “risk” ka bergan ta'riflari<sup>6061</sup>.**

<sup>60</sup> Abdullayeva Sh.Z Bank risklari va kreditlash.

<sup>61</sup> Лаврушин О И “Основы банковского менеджмента” М.: «Финанси и статистика» 1977 г. 57ст.



Risk - deganda inson jamiyatning faoliyatini hamda tabiatning u yoki bu xususiyatli xodisalaridan kelib chiqadigan mumkin bo'ladigan yo'qotishlar xavfi tushuniladi deyishgan. Risk tarixiy hamda iqtisodiy kategoriyadir.

Tarixiy kategoriya sifatida risk inson tomonidan anglangan xavfni bildiradi. Bu esa o'z navbatida risk jamoat rivojlanishi bilan bog'liqligi to'g'risida guvohlik beradi. Jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi bilan tovar pul munosabatlari vujudga keladi va risk iqtisodiy kategoriyaga aylanadi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida risk - sodir bo'lishi mumkin bo'lgan va sodir bo'lmaydigan hodisalarni anglatadi. Bunday vaziyatda 3 ta iqtisodiy natija jamlanadi: salbiy, nolli, ijobiy.

Umuman olganda har qanday sohada ham risk sodir bo'lishi mumkin. Tijorat banklari faoliyatini esa risksiz tasavvur qilish mumkin emas. Risklarni qabul qilish bank ishining asosi hisoblanadi. Banklar faoliyati quyidagi hollarda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin, agar ular qabul qilayotgan risklar nazorat ostida banklarning moliyaviy imkoniyati chegarasida bo'lgandagina banklar o'z faoliyatini optimal boshqarishi mumkin.

Odatda banklar eng yuqori foyda olishga harakat qiladilar. Lekin bu harakat zarar olib kelishi bilan ham chegaralanishi mumkin.

Bank faoliyatidagi risklar va ularga xos xususiyatlarni tatbiq qilishdan avval **“risk”** so'zining lug'aviy ma'nosi va risk kategoriyasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

**“Risk”** so'zi lotin tilidan olingan bo'lib **“rescum”** - “dengizdagi xavf” ma'nosini anglatadi. Endi biz riskning tub ma'nosini ko'rib chiqadigan bo'lsak **“risk”** so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, “suv ostidagi qoya” degan ma'noni bildiradi. “ Risk bu shunday narsaki, undan qochish lozim ”<sup>62</sup>.

Iqtisodiy munosabatlarda kredit aloxida o'rin egallaydi. Kredit foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanish uchun pul yoki material mablag'lari berish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar tizimidir. Tabiiyki bu borada olingan mablag'ni qaytarish masalasi ham yotadi. Kredit risklari tarkibiga quyidagiarni kiritishimiz mumkin:

-kreditni o'z vaqtida qaytarmaslik bilan bog'liq risk. Bu risk qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlari bajarilmasligi

-likvidlik riski ( to'lovlarning muddatida o'tkazmaslik ), bu risk kreditni va foizlarni muddatida qaytara olmaslik natijasida bank likvid mablag'larining kamayishiga olib kelishi bilan bog'liq,

- kreditni ta'minlash bilan bog'liq risk, bu riskni aloxida ko'rib bo'lmaydi, chunki bu holat kreditni qaytarmaslik bilan bog'liq bo'lgan risk bilan birgalikda o'rganiladi. Ushbu risk turi kredit uchun qo'yilgan garovni sotishdan tushgan mablag' ajratilgan kreditni qoplash uchun yetarli emasligi bilan bog'liqdir, natijada bank o'z talabini to'la qondira olmaydi.

Bank kredit riskining darajasi quyidagi omillarga bog'liq:

- bank kredit faoliyatining ma'lum bir sohada markazlashuvi darajasi;

---

<sup>62</sup> Синки Дж Управление финансами и коммерческих банках.

-o'ziga xos ma'lum qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan mijozlarga kredit va boshqa bank xizmatlarining qanchaga to'g'ri kelishi;

-kam o'rganilgan, yangi, noan'anaviy sohalarda bank faoliyatining markazlashuvi.

Risk insoniyat faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan tarixiy va iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilar faoliyatida yoki tabiiy xodisalarda mumkin bo'lgan yo'qotishlar salmog'ini bildiradi. Tovar pul munosabatlarining rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va sub'ektlar faoliyatida mustaxkam o'rnatib olishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham risklar bizni doimo har joyda o'rab keldi. U bizning hayotimizda har doim ham qochib bo'lmaydigan va yechimi lozim bo'lgan ir jarayon bo'lib biror bir natijani yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bunday natija ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Insoniyat tabiatan riskdan qochishga harakat qiladi. Agar biz riskni nazorat qila olmasak odatda undan qochishga harakat qilamiz. Chunki har qanday ishonchsizlik o'ziga xos tarzda ma'lum darajadagi yo'qotishlarni olib keladi. Biz hayotimizda risklarni mavjudligini bilib turib har bir harakatimizda riskni minimum darajaga tushirishga harakat qilamiz.

Bank risklarining kelib chiqish sabablari bo'lib turli iqtisodiy ommillar, shuningdek bank faoliyatiga nisbatan olganda esa tashqi va ichki omillar xisoblanishi mumkin. Qayd etib o'tilgan omillarning barchasi bankning likvidligi, rentabelligi va xavfsizligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirishi ehtimoldan holi emas. Bu esa, banklardan kutilishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirni bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralarni ko'rishni taqazo etadi.

Tijorat banklarining eng katta riskli operatsiyasi- bu kredit operatsiyalari bo'lib, bu operatsiyalar kreditlarni to'g'ri rasmiylashtirish talablarig javob bersa, bank faoliyatida eng ko'p daromad keltiradigan operatsiya hisoblanadi. Bunda albatta bank boshqaruvi va bank kredit qo'mitasi a'zolarining kredit tavakkalchiligi va uning qaytarilishini inobatga olgan holda chiqargan qarorlari muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik joiz.<sup>63</sup>

Kredit riskining yuqori bo'lishi bank tomonidan pul bozoriga murojaat qilish va uning mablag'laridan foydalanishda ehtiyotkor bo'lishiga da'vat qiladi. Kredit risklarini tahlil qilish nafaqat qarz oluvchining moliyaviy holatini o'rganish, shuningdek bankning ichki faoliyatini yaxshilash uchun zarur axborotlar yig'ish imkoniyatini yaratadi. Kreditlarni risk bo'yicha jihatlariga bo'lish, ularni minimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish, bank manfaatlarini himoya qilish kredit risklarini kamaytirishga asos bo'lishi mumkin. Kredit risklarning vujudga kelishining asosiy sabablari kreditlarning bir soha, bir tarmoqqa ko'p ajratilishi, bir qarzdorga to'g'ri keluvchi riskka rioya qilmaslik tufayli ham bo'lishi mumkin

Har qanday vaziyatda ham risk aniqlanishi hamda hisoblanishi kerak. Risklarni boshqarish mumkin, ya'ni riskli vaziyat sodir bo'lishini aniq darajada aniqlashga imkon beruvchi choralarni ishlatish hamda risk darajasini pasaytirish uchun choralarni qabul qilish. Risklarni samarali boshqarish ko'p jihatdan ularning

---

<sup>63</sup> С.Н.Кабушкин “ Управление банковским кредитным риском “ Минск “ Новое знание “ 2007

tasnifiga bog'liqdir. Risklarni tasniflash deganda, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun risklarni aniq bir jihatlari bo'yicha guruhlariga bo'linishi tushuniladi:

1. bozorni yaxshi o'rganmaslik,
2. resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasidagi ma'lumotlarni yetarlimasligi,
3. kreditlanadigan loyiha, ob'ekt va mijozlar to'g'risida ularning moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot va axborotlarni to'liq emasligi,
4. sub'ektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi, mablag'dan foydalanish bo'yicha bo'limi, tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi.

P. Rouz risklarning turlari haqidaga quyidagicha fikr bildirgan "Bank riski oltita asosiy turdagi risk-kredit riski, foyda ololmaslik riski, likvidlilik riski, bozor, foiz riski, to'lay olmaslik riskidan tashkil topgan bo'lib, bu risklar bank faoliyatida juda muxim, hal qiluvchi risklar hisoblanadi"<sup>64</sup>. Shuningdek, u bank uchun ikkinchi darajali bo'lgan risklar sifatida siyosiy riskni, bank xizmatchilari tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan suiste'mol riski va valyuta riskini ko'rsatadi.

Bank risklarining eng ko'p uchraydigan turi bu-kredit riskidir. Kredit riskiga ham xuddi bank riski kabi juda ko'plab ta'riflar berilgan.

Kredit riski - qarz oluvchi kredit shartnomasiga rioya qilmaganligi natijasida bank ko'rishi mumkin bo'lgan zarardir degan ta'rif ba'zi adabiyotlarda uchray turadi. Lekin bank kredit berishda kelajakda yuqori darajada daromad olishni rejalashtirgan holda risk qiladi. Risk qilmaslik natijasida kredit operatsiyalarini amalga oshirmasa, kelajakda bank foyda ko'ra olmaydi.

Sh. Abdullaeva kredit riskiga quyidagicha ta'rif beradi: "Kredit riski deganda qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya'ni kredit summasining qisman yoki to'liq va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi."<sup>65</sup>

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz kredit riskiga "kredit olgan tomonning kredit bergan bank yoki nobank kredit tashkiloti oldidagi o'z javobgarligini bajara olmasligi riskidir" degan ta'rifni berishimiz mumkin. Fikrimizni to'liqroq bayon etadigan bo'lsak, kredit riski bank bergan kreditlari va qilgan investitsiyalarining ularga to'lanishi kerak bo'lgan foizlari bilan birga qaytmasligi bo'lib, ko'p miqdordagi kreditlarning qaytmasligi o'z navbatida bankni bankrotlikka olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ta'minoti past likvidli yoki umuman ta'minotsiz berilgan kreditlarning risk darajasi yuqori bo'ladi. Bunday kreditlarni to'liq yoki qisman qaytmasligi bank daromadlilikiga salbiy ta'sir etib, uni ham qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin. Kredit riski bankning kredit operatsiyalarini bajarishi davomida yuzaga keladi.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga bog'liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo'yicha loyiha tayyorlash kreditlovchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish

---

<sup>64</sup> П.Роз Банковский менеджмент- М, ДЕЛО ЛТД. 1995.

<sup>65</sup> Abdullayeva Sh.Z Bank risklari va kreditlash.

imkoniyatini beradi. Kredit beruvchi bank bevosita quyida keltirilgan savollarga aniq va to'liq javoblar olishi zarur:

1. Qarz oluvchining iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning ishchanlik, ma'naviy qiyofasi, ishlab chiqarish imkoniyati, marketingi, moliyaviy boshqaruvini qay darajada bilishi?

2. Kreditga bo'lgan talabning qanchalik darajada to'g'ri asoslanganligi va bu taklif korxonaning haqiqatdan ham iqtisodiy holatidan kelib chiqqanmi?

3. Kreditning maqsadi bank uchun to'g'ri keladimi?

Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichlarida yangi korxonalar, firmalar tashkil topayotgan va ular to'g'risida aniq axborot mavjud bo'lmagan sharoitda birinchi savolga javob berish juda muhim. Ikkinchi savolni kredit oluvchi tomon to'ldirishi, uning moliyaviy ahvoli, undagi hisob-kitoblar holati, auditorlik tekshiruvlari bo'yicha hisobotlar va xulosalar, korxonalar balansi, pul oqimi to'g'risida hisobot, daromadlar va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar bank uchun zarur hamda bu hujjatlarning mavjudligi korxonaning o'z moliyaviy resurslarini muvaffaqiyatli boshqarayotganligidan dalolat berishi mumkin. Uchinchi savolda esa bank u berayotgan kredit uning kredit portfeliga mos keladimi yoki yo'qmi shuni aniqlashi lozim. Agar bu beriladigan kredit bankning kredit portfelini yanada ko'proq diversifikatsiyalanishiga olib kelsa, bu bankning kredit portfeli riskini kamaytiradi. Agar bu kredit bir tarmoqqa kreditlarning yig'ilishini kuchaytiradigan, to'lash muddati bir vaqtda to'g'ri keladigan bo'lsa, u holda kredit portfelining riski oshishi mumkin. Bunda bank xodimlari kredit berish, kreditni baholash sohasida etarli bilimga va tajribaga ega bo'lishi, kredit berish bo'yicha oxirgi qarorni qabul qilmasada, u kreditni baholash jarayoniga javobgar bo'lishi lozim.

Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan xolda kreditor, ya'ni bankda qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasining shartlarini, uning o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi. Ma'lumki, bank amaliyotida foydaning asosiy qismi asosan berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi yoki umuman to'lanmasligi oqibatida bank foydasining kamayishi bankning kelajakdagi mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun kreditorlar ular bergan mablag'larning kaytishi bilan bog'liq risklarni kamaytirishga xarakteristik harakat qiladilar.

Qarz oluvchi faoliyatida mavjud risklar darajasini kreditor kredit bergunga qadar, keyinchalik kredit bergandan keyin, undan foydalanish davomida aniqlash mumkin. Riskni minimallashtirish maqsadida kreditor kredit berishdan oldin riskni aniqlashga harakat qiladi.

Banklar va bankirlar boshqa kreditorlarga nisbatan riskdan ko'p himoyalalanuvchi yoki qochuvchi bo'lishlari kerak. Buning sababi shundaki, bank boshqa kreditorlarga nisbatan o'z mablag'i bilan emas, balki jalb qilingan mablag'lar, ya'ni jismoniy, huquqiy shaxslarning vaqtincha bankda turgan mablag'lari bilan ishlaydilar. Bankning kredit berish imkoniyati u jalb qilgan

resurslarga bog'liq bo'ladi. Bank o'z navbatida bu jalb kilingan mablag'larni talab qilingan vaqtda mijozga kaytarib berish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu imkoniyat esa bank faoliyatida mavjud risklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish choralari ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bankning asosiy maqsadi aholiga xizmat ko'rsatish va foyda olishdir. Bank o'z faoliyati davomida xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish maqsadida kreditlar beradi. Bu berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmasligi bankga kredit riskini beradi.

Kredit riskining yuzaga kelishiga quyidagi hollar sabab bo'lishi mumkin:

a) turli xil makro va mikro iqtisodiy omillar, iqtisodiy konunchilik va me'yorlardagi o'zgarishlar;

b) qarz oluvchi faoliyatida bo'ladigan iqtisodiy va siyosiy muxitdagi o'zgarishlar, salbiy xollar tufayli olingan kreditni to'lashga mos pul oqimini tashkil qila olmaslik;

v) kreditning ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo'yicha to'liq ishonchning yo'qligi;

g) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlari va mijozlarning yetishmasligi;

d) Qarz oluvchi sub'ektning maxalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatida yuzaga kelgan o'zgarishlar va boshqalar.

## **2 Kredit riski darajasini baholash va boshqarish.**

Tijorat banklari faoliyatida kreditlash jarayonida yuzaga keldigan kredit risklarini aniqlash, ularning risk darajasini baholash va ularni samarali boshqarish banklar faoliyatida yuzaga keladiga risklarning hajmi va ta'sir doirasini belgilab beradi. Shu bois, bank risklarining ichida asosiy o'rinni egallovchi kredit risklarining ta'sir darajasini kamaytirish banklarning daromadlari va foyda olish imkoniyatini kengaytiradi.

Bizning fikrimizcha tijorat banklari faoliyatida kredit risklarining yuzaga kelishining bosh sabablarida biri- bank tomonidan mijozning kreditga layoqatliligini to'g'ri baholashdir. Chunki kredit oluvchi mijozning kreditga layoqatliligi va moliyaviy ahvolini oldindan aniq va to'g'ri tahlil qilib baho bermaslik, bank tomonidan ajratilgan kreditning riskli yoki muammoli kreditga aylanishiga olib keladi. Bu jarayon to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, ta'kidlashimiz kerakki, har bir mamalakatda kredit oluvchi subektning kredit olish imkoniyatini baholashga o'zining mustaqil yondashuvi mavjud.

- O'zbekiston respublikasida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlari bo'lgan Qoplash koeffitsienti (Kq), likvidlilik koeffitsienti (Kl) va muxtoriylik koeffitsienti (Km) hamda kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari aylanma mablag'larning kunlarda aylanishi (Ak), aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti (Ka) va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

$$Kq = \frac{\text{I,II,III guruh likvid mablag'lar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$

Likvidlilik koefitsienti:

$$Kl = \frac{\text{I,II guruh likvid mablag'lar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$

Muxtorilik koefitsienti:

$$Km = \frac{\text{O'z mablag'lari}}{\text{Korxonalar balansidagi passivlari}}$$

Muxtorilik koefitsienti korxonaning iqtisodiy qay darajada mustaqil ekanligini ko'rsatuvchi koefitsient hisoblanadi.

Mijozning kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari:

Aylanma mablag'larning aylanish koefitsienti taxlil qilinadi.

$$Ak = \frac{\text{Aylanma mablag'lari o'rtacha qoldig'i} * 360}{\text{Realizatsiya hajmi}}$$

aylanma  
aylanish  
quyidagicha

$$Ka = \frac{\text{Realizatsiya hajmi}}{\text{Aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i}}$$

Shuningdek,  
mablag'larning  
koefitsienti  
aniqlanadi:

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlar 3 sinfga ajratiladi va ularning sinfiga, ya'ni moliyaviy holatiga qarab kredit berishda turli yondashuvlar qo'llanilishi mumkin.

Ko'rsatkichlar	I sinf	II sinf	III sinf
1. Qoplash koefitsienti (Kq)	$Kq \geq 2$	$2,0 > Kq > 1,0$	$1,0 > Kq$
2. Likvidlilik koefitsienti (Kl)	$Kl \geq 1,5$	$1,5 > Kl > 1,0$	$1,0 > Kl$
3. Muxtorilik koefitsienti (Km)	$Km \geq 60\%$	$60\% > Km > 30\%$	$30\% > Km$

2-rasm. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlarni sinflarga ajratish bo'yicha talablar:<sup>66</sup>

Kreditga layoqatlilikning har bir sinfdagi korxonalar banklar xar xil kredit munosabatlari tuza oladilar. 1-sinfga mansub qarz oluvchilarga bank kredit liniyasi ochishi, kontokorrent hisob rakami bo'yicha kredit berishi, boshqa qarz oluvchilarga nisbatan past foizlarda ishonchli kreditlar berishi, kreditlar bo'yicha ta'mingalik talab qilinmasligi mumkin.

2-sinfga mansub qarz oluvchilarga esa umumiy asoslarda va odatdagi tartibda, ya'ni majburiyatni muvofiq shaklda ta'minlanishi (kafolat, garov, kafillik) shartlari asosida kredit beriladi., agar uning qo'shimcha ko'rsatkichlari ijobiy holda

<sup>66</sup> SH.Z Abdullayeva "Bank ishi". Toshkent: "IQTISOD MOLIYA" 2014 y 121 bet.

bo'lsa, unda unga imtiyozlar berilishi mumkin, ammo ishonchli kreditlar berilmaydi. Agar qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha kamchiliklar bo'lsa, uning moliyaviy ahvoli nobarqaror deb topilishi va uni yaxshilash uchun choralar ko'rishni talab qilinishi, kredit bo'yicha garovni mustahkamlash, foiz stavkalarini oshirishi, ssudaning summasini va muddatini cheklash choralari ko'rish mumkin.

Bank uchun 3-sinfga mansub korxonalarini kreditlash jiddiy risklar bilan bog'liqdir. Shuning uchun ular kamdan kam holatlarda va yuqori turadigan korxonalar kafolati hamda mulkni garovga qo'ygan holatda eng yuqori foizlarda kreditlanadilar.

Risklarni boshqarish daromad bilan risk o'rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud riskni minimallashtirishni o'z ichiga oladi.

Agar risklarni oldini olishning to'liq imkoniyati bo'lmasa, u holda oxirgi manba — bu riskni boshqarish usuli hisoblanadi.

Riskni qoplash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- banklar tomonidan umumiy va maxsus rezerv fondlarni tashkil qilish;

- kredit bo'yicha foizlar belgilashni to'xtatish va boshqalar:

Bank risklarida bo'lgani kabi kredit risklarini boshqarishda ham beshta usul ajratib ko'rsatiladi. Bular:

- prognoz;
- tahlil qilish;
- tartibga solish;
- kuzatib borish;
- nazorat qilish.

Demak, bank kredit risklarini boshqarish uchun eng avvalo prognoz qilib borishi va shu prognozning qanchalik darajada bajarilishini kuzatib borishi lozim. Shu bilan birga bank kreditlarni turlari, muddatlari, sohalari, tarmoqlari va boshqa hususiyatlariga ko'ra ma'lum davr uchun yoki ma'lum bir sanaga tahlil qilib boradilar, kreditlarning holatini, sifat darajasini aniqlab boradilar, zarur bo'lsa rezerv yaratadilar, qayta ko'rib chiqadilar yoki hisobdan chiqaradilar. Bank kredit portfelining sifatini nazorat qiladilar, kreditlarning qaytish yoki qaytmasligini nazorat qiladilar, uning sabablarini o'rganadilar.

Tijorat banklari bitta mijozga yoki biror bir soxada kredit summasining ko'p miqdori to'planib qolishini oldini olish maqsadida ssuda portfelining diversifikatsiya qilishiga aloxida e'tibor beradilar. Buning natijasida kredit riski minimallashtiriladi va uni boshqarishga qulay sharoit yaratadi.

Yuqorida kredit riski - qarz oluvchi kredit shartnomasiga rioya kilmaganligi natijasida bank ko'rihi mumkin bo'lgan zarardir deb ta'rif berdik. Kredit munosabatlarda kreditorlar kreditga yoki qarzga berilgan summaning qayta to'lanishini va mo'ljallangan foiz stavkalarini belgilangan vaqtda olishni kutadilar. Ular riskdan qochadilar va o'z kutishlarida riskni minimum deb qabul qiladilar. Xaqiqatda esa ular kredit berishgacha u bilan bog'liq risk darajasi bilan qiziqadilar, uni aniqlaydilar. Bizga ma'lumki, risk va uning darajasi doimo o'zgarib turadi. Shu

sababli kreditor tomonidan kutiladigan natija har doim ham u o'ylaganidek bo'lmasligi mumkin.

Kredit riski yoki qarzni qaytarmaslik xavfi kreditorning kredit kelishuviga asosan kreditni o'z vaqtida qaytarilishiga va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chiqadi.

Bu holat quyidagilar ta'sirida vujudga kelishi mumkin:

a) tadbirkorlikda, iqtisodiy yoki siyosiy muhitda kutilmagan o'zgarishlar yuz berishi natijasida qarzdorning pul tushumini kerakli darajada ta'minlay olmasligi;

b) kreditga qo'yilgan garovning kelajakdagi qiymati va sifatiga bo'lgan ishonchsizlik (narx o'zgarishi, qo'yilgan mulkning xaridorligi)

s) qarz oluvchining tadbirkorlik dunyosida obro'siz bo'lib qolishi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar banklarning risklarni boshqarish va ularni rejalashtirish uchun doimiy ishlar olib borishga majbur etadi.

Kredit riskining tarkibiga quyidagi risklarni kiritish mumkin:

1. Kreditni o'z vaqtida qaytarmaslik bilan bog'liq risklar.

Riskning bu turi qarz oluvchi kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligi natijasida kreditni o'z vaqtida qaytarmasligiga olib keladi.

2. Likvidlik riski (to'lovlarning muddatida o'tkazmaslik).

Bu risk kreditni va foizlarni muddatida qaytara olmaslik natijasida bank likvid mablag'larining kamayishiga olib kelishi bilan bog'liq.

3. Kreditni ta'minlash bilan bog'liq risk.

Bu riskni alohida ko'rib bo'lmaydi, balki bu kreditni qaytarmaslik bilan bog'liq bo'lgan risk bilan birgalikda o'rganiladi. Bu risk turi kredit uchun qo'yilgan garovni sotishdan tushgan mablag' ajratilgan kreditni qoplash uchun etarli emasligi bilan bog'liqdir. Natijada bank o'z talabini to'la qondira olmaydi.

4. Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'liq risklar.

Bu risk korxonaning ish faoliyati bilan bog'liq bo'lib (sotib olish, ishlab chiqarish va sotish), ammo boshqa risklardan farqli o'laroq bu riskka korxonada rahbaridan bog'liq bo'lmagan omillar ta'sir ko'rsatadi, masalan tarmoqning rivojlanishi va kon'yukturasi. Bu riskning hajmini investitsion dastur va ishlab chiqaradigan mahsulot turi va sifati belgilaydi.

5. Kapitalning tarkibiy qismi bilan bog'liq risklar.

Bu risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog'liqdir.

Tijorat bankning kredit risklarini boshqarish jarayonida bir nechta umumiy xarakterlovchi bosqichlarga ajratiladi:

- bankning kredit siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish;
- ma'muriy echimlarni qabul qilish tizimini va kredit riskini boshqarish ma'muriy tarkibini tashkil etish;
- qarzdorning moliyaviy holatini tahlil qilish;
- qarzdorning kreditlash tarixini, uning aloqalarini aniqlash;
- kredit shartnomasini ishlab chiqish va imzolash;
- kreditlarning qaytarilmaslik riskini tahlil qilish;



- barcha ssudalar portfeli bo'yicha qarzdorning kredit monitoringini yo'lga qo'yish va uzluksizlashtirish;

- muddati o'tgan va shubhali kreditlarni qaytarish va garovni sotish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar

Hozirgi kunda har bir tijorat banki o'zining kredit siyosatiga ega. Ilgari barcha tijorat banklari Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan qisqa va uzoq muddatli kreditlash operatsiyalarini tashkil qilish bo'yicha tartib va nizomlar asosida o'zlarining kredit faoliyatlarini yuritgan bo'lsalar, bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirib borish natijasida banklarga erkinliklar berildi. Bu erkinliklarni ularning o'z kredit siyosati, foiz siyosati, depozit siyosatiga ega ekanliklarida ko'rish mumkin. Har bir tijorat banki 1 yil uchun kredit siyosatini ishlab chiqadi va shu siyosat asosida kreditlash operatsiyalarini amalga oshiradi. Ushbu kredit siyosatida kreditlash borasidagi maqsad va vazifalari belgilab olinadi.

Bankning kredit inspektorlari tomonidan har bir qarzdorning kreditlash tarixi, uning aloqalarini aniqlanadi, qarzdorning moliyaviy holatini tahlil qilib boriladi. Kredit shartnomasini ishlab chiqiladi va imzolanganidan so'ng kredit beriladi. Kredit berilgandan boshlab u qaytarilgunga qadar bank tomonidan kreditlar sifat jixatdan tahlil qilib boriladi, shu bilan birga kreditlarning qaytarilmaslik riski ham tahlil qilinadi, barcha bankning kredit portfeli bo'yicha qarzdorning kredit monitoringini yo'lga qo'yilib, bu kredit yopilmaguncha uzluksiz ravishda davom etadi. Shunday holatlar ham bo'ladiki qarzdor kreditni qaytara olmaslik riski ortadi, xatto ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra kredit qaytmasligi xolatlari kuzatiladi. Bunday xollarda bank tomonidan muddati o'tgan va shubhali kreditlarni qaytarish va garovni sotish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshiriladi.

Kredit riskini boshqarishda quyidagi usullardan keng ko'lamda foydalaniladi:

- Kredit va uning foizini sug'urtalash.
- Bankning mijozlarning to'lovga qobilligini baholash tizimini takomillashtirish.

- Kredit riskini baholash tizimini takomillashtirish.

- Kredit monitoringini kuchaytirish.

- Kredit riskini kamaytirish maqsadida joriy qilingan iqtisodiy normativlarni bajarilishigiga rioya qilish

Banklar boshqa kreditorlarga nisbatan riskdan ko'p ximoyalanuvchi yoki qochuvchi bo'lishi kerak. Bankning kredit berish qobiliyati jalb qilingan resurslarga bog'liq bo'ladi. Bank o'z navbatida bu jalb qilingan vaqtda mijozga qaytarib berish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu imkoniyat esa bank faoliyatida mavjud risklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqishiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan kredit risklarini baholash va tartibga solish tizimini takomillashtirish borasida shuni aytish mumkinki, ushbu yo'nalishda mavjud kreditlar va ular bilan bog'liq risklarni o'rganish hamda kelgusida berilishi mumkin bo'lgan kreditlar va ular bilan bog'liq risklarni

o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu kredit risklarini o'rganish ularning bank faoliyatiga va banklarning kreditlash jarayoniga ta'sirini aniqlab olish mumkin. Bu esa o'z navbatida bank faoliyatini samarali tashkil etish borasida amalga oshirish lozim bo'lgan qadamlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston bank amaliyotida yuqorida keltirilgan kredit risklarini boshqarishda jaxon amaliyoti tajribasidan foydalanish mumkin. Risklarni kamaytirish uchun ularni baholab borish talab etiladi.

Kredit risklarini baholashning besh asosiy o'lchovi mavjud:

1. Reputatsiya. Mazkur jarayon shaxsiy muomala, ham shaxsiy, ham ish bo'yicha tajribasidan iborat bo'lishi kerak. ( kreditor, mahsulot yetishtirib beruvchilar va mijozlarni tekshirish )

2. Imkoniyatlar. Qarz oluvchi o'zining barcha operatsiyalari bo'yicha (o'zining butun faoliyati davomida qarz oluvchining olgan pullari ) yoki aniq loyixa bo'yicha mablag' olish qobiliyati va pul vositalarini boshqarish qobiliyati.

3. Kapital. Qarz oluvchining kapital ba'zasi va kredit so'ralgan loyiha uchun o'zining mablag'larini sarflashga doir qat'iyligi. Qarz oluvchi loyiha xavfi ma'suliyatini kredit beruvchi bank bilan birga o'z zimmasiga olishi, o'zining hissadorlik kapitalining qabul qilinishi mumkin bo'lgan qismini taqdim etib, o'ziga tegishli bo'lgan majburiyatlarini zimmasiga olishi kerak.

4. Shart-sharoitlar. Mahalliy, hududiy va umummilliy iqtisodning joriy ahvoli va tasnifi, shuningdek qarz oluvchi xo'jaligining sohalari.

5. Garov. Kreditni garov yoki kafillik shaklida ishonchli ta'minlash boshqa tomondan kuchsizliklarni yo'qqa chiqarib qo'yadi. Yaxshi bir qoida bor: faqat garov va kafillik asosida hech vaqt kredit bermang. Kredit risklarini baholashdagi yana bir muammolardan biri bu mijoz haqida, kreditlanayotgan soha to'g'risida hamda mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va kelgusidagi o'zgarishlar haqida mas'ul kredit xodimining yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega emasligi. To'g'ri bugungi kundagi kredit mutaxassisleri yuqoridagilardan xabardor hisoblanadi. Lekin ba'zi bir bank xodimlari tomonidan kredit riskini baholashda ushbu omillarni birortasini to'g'ri tahlil qila olmaslik holatlari ham uchrab turibdi yoki kredit riskini baholashda bir tomonlama yondashuvga ko'proq ahamiyat qaratmoqda. Misol uchun faqatgina mijoz moliyaviy holatini tahlil qilish va ta'minot shartlarini o'rganish orqali kredit risikni baholashni aytish mumkin. Oddiygina kichik biznes sub'ektini kreditlashda ham kredit riskini har tomonlama baholash talab etiladi. Chunki har qanday mijozning samarali ish yuritishi bankning daromadiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mijozning foyda bilan ishlashi bankga kelib tushadigan tushumlarning o'z vaqtida tushishiga xizmat qiladi. Mijoz moliyaviy holatidagi oqsashlar o'z navbatida kredit va u bilan bog'liq to'lovlarning kechikishiga olib kelishi mumkin.

Kredit riskini to'g'ri baholay olmaslik tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlar hajmini ortishiga olib keladi. Muammoli kreditlarning ortishi o'z navbatida bir qator salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bularga bank aktivlarining yomonlashuvi, omonatchilar, investorlarning bankka bo'lgan ishonchi yo'qolishi va bank nufuzining pasayishi, tijorat banklarining muammoli

kreditlarni bartaraf etishni nazorat qilishi sababli, bankning ma'muriy xarajatlarining ortib ketishi, kredit operatsiyalaridan olinayotgan foyda hajmining qisqarishi tufayli, moddiy rag'batlantirishlarning susayishi, bankning malakali kadrlaridan mahrum bo'lish riskining ortishi kabilarni kiritish mumkin. Ko'rinib turibdiki, kredit riskining ortishi yoki noto'g'ri baholanishi boshqa bir bank riskini keltirib chiqarishi mumkin ekan.

Yana shuni aytish kerakki, kredi risklarini baholashda kreditlarni umumiy turlari bo'yicha va alohida mijozga berilgan kredit bo'yicha baholash mumkin. Bu esa o'z navbatida bank xodimiga bir qator qiyinchiliklarni tug'diradi. Ya'ni kredit so'rab murojaat qilgan va kredit olgan hamma mijoz ham bir xil faoliyat yuritmaydi. Ularning har biri alohida sohaga tegishli bo'lib, moliyaviy va sifat ko'rsatkichlarini baholash ham turlicha amalga oshirilishi talab etiladi. Bank xodimi har bir mijozning tarmoq va sohalaridan kelib chiqib kredit riskini baholashiga to'g'ri keladi.

Kredit risklarini tartibga solish tizmidagi asosiy masalalardan biri bu riskning qaysi turiga mansubligini aniqlab olishdadir. Bu borada ko'pincha kredit riskini keltirib chiqaruvchi omillarga asoslanib tartibga solinadi. Bu jarayondagi muammo shundaki, bir vaqtni o'zida bir necha omillar sababli kredit riski vujudga kelsa va u orqali bank ma'lum bir yo'qotishlarga duch kelsa, ushbu omillarning ta'siri qanday bo'lganligi va qaysi omilning riskni keltirib chiqishdagi ulushi qancha bo'lganligini aniqlashdir. Ushbu jarayonga aniqlik kiritilmasa, keyinchalik shu kabi kreditlash jarayonida qaysi omilga ko'proq e'tibor qaratish lozimligi borasida ikkilanish yoki mavhumlik paydo bo'lishi mumkin.

Kredit riskini baholashning keyingi bosqichi qarz oluvchi haqidagi moliyaviy axborot yig'indisi hisoblanadi. Bankka taqdim etilayotgan moliyaviy axborotlar mustaqil ekspertlar tomonidan tayyorlangan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Moliyaviy axborotlar tarkibiga quydagilar kirishi kerak:

- qarz oluvchining yillik ( yarim yillik yoki choraklik bo'lsa yaxshiroq ) xisoboti; balans, daromad to'g'risida hisobot, pul fondlari to'g'risida hisobot (manbalar va foydalanish);

- qisqa kreditlar uchun aylanma mablag'lari- zaxiralar strukturasi, so'nggi bir yarim yil ichida debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrovkasi;

- uzoq muddatli kreditlar uchun- korxonaning kelgusi moliyaviy ahvolini, kredit xarajatlari natijalarini aks ettirgan biznes reja.

Biznes reja quydagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- rahbarlarning fikrlari;
- kredit hisobidan moliyalashtirish kerak bo'lgan mahsulotlar, xizmatlar yoki loyihalarni tasvirlash;

- bozor va tarmoqlar tahlili;

- marketing, ishlab chiqarish va boshqarishning rejaları;

- pul fondlari holatini bashorat qilish (kreditni to'lash vaqtida);

- taxminiy moliyaviy hisobot.

Kredit riski darajasini baholashning keyingi bosqichi kredit sifati bilan bog'liq. Chet el banklari kreditlarni tekshirishda va aktivlar monitoringida kreditlarning sifati bo'yicha reyting sistemasidan keng foydalanadilar.

Odatda banklar o'zlari kreditlarning sifati bo'yicha reyting sistemasini yaratidilar. Ayrimlari oddiy sxemalardan foydalansalar, boshqalari batafsil tekshirilgan sxemalardan foydalanadilar. Lekin har qanday holatda ham maqsad bitta- kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish prosessini osonlashtirish va uning bahosini aniqlash, ya'ni kredit uchun foiz belgilash. Odatda bu riskning turli kategoriyalarining aniq son va harflarini o'zlashtirib, risklar klassifikatsiyasi orqali amalga oshiradi. Har qanday turdagi kreditning sifati doimo o'zgarib turuvchi ko'pgina faktorlarga bog'liq.

Xorijda kredit risklarini baholashning turli usullaridan foydalaniladi.

Historical Simulation usuli. Bu usul tarixiy ma'lumotlar yig'ish asosida portfel aktivlarida daromadlarning tarixiy taksimlanishini qo'llash g'oyasiga asoslanadi va uning yordamida risk kattaligi modellashtiriladi. Bu o'tgan davrda ma'lum vaqt oralig'ida mavjud bo'lgan, portfelning har bir elementi riskining bozor omillarining kullanilishini xisobga olgan xolda portfelni kayta baxolash jarayonidir. Bu usulning qo'llanilishi portfelning tarkibiy elementlarini aniqlashni va ularning kurilayotgan tarixiy davr ichida amalga oshirilgan aylanmasining grafigini to'zishni talab etadi. Bu usulni kullashda daromadlarning tarixiy taksimlanishi biz kelajakda ma'lum davrda oladigan daromadlar taksimlanishining o'ziga xos ifoda etilishi ekanligini tasavvur etish mumkin, Mos ravishda, bizni qiziqtirayotgan o'tmishdagi daromadlar taqsimoti xaqidagi ayni joriy vaqtdagi bizning potfel uchun extimoliy risk kattaligini aniqlashga yordam beradi.

Tarixiy modellashtirish usuli ancha foydali va sodda xisoblanadi. Uni tushuntirish oson va boshqa usullarga nisbatan amaliyotda kullash kulay. Birok bu usulning o'ziga xos kamchiliklari xam mavjud, u xam bo'lsa tarixiy ma'lumotlarni olish kerak bo'lganligidir, ya'ni u tulalligicha ma'lum bir ma'lumotlar tuplamiga bog'liq. Bundan kurinib turibdiki, bu usulni ancha extiyotkorlik bilan qo'llash kerak.

Stress testing usuli. Bu usul o'zida o'tgan davrda moliya bozorlarida yuz bergan gipotetik va ekstremal voqealarga portfelning chidamliligini baxolashga yordam beruvchi turli mulojalar to'plamini aks ettiradi. Bu kabi tadbikotlarning natijalari kelgusidagi mumkin bo'lgan yuqotishlar va moliyaviy risklarga duch kelish extimolini modellashtirishda foydalaniladi. Stress testing usuli gipotetik ssenariylarni: stillashgan ssenariylar, favkulotda xolatlar ssenariylari va bir martalik gipotetik voke'a ssenariylarini tuplashdan boshlanadi.

Stillashgan ssenariyda foiz stavkalari qimmatbaho qog'ozlar va tovarlar baxosi valyuta valyuta kurslari uzgarishining modellashtirilishi amalga oshiriladi. Bu ssenariyda ko'rilayotgan o'zgarishlar nisbatan me'yorlashgandan tortib to anchagina yuqori bo'lgan darajagacha tebranishi mumkin. Ular shuningdek absolyut, qisman o'zgarishlar yoki standart chetlashishi birliklarida keltirishi mumkin.

Favqulotda ssenariy tanlanishi mumkin, masalan, bozorning moliyaviy inqirozi. Bunday vaziyatda eng to'g'ri qaror kabul qilib muximlikning maksimal darajasi ssenariyini tanlanishi xisoblanadi. Bunda vazifa ma'lum davrlar uchun ma'lumotlar to'plamini tanlashdan, eng sezilarli tushishni aniqlash va bu tushishni ssenariy generatorini modellashtirish uchun asos sifatida qo'llashdan iborat. Mazkur

usulning muxim jixati bo'lib uning tanlangan ssenariga to'la bog'liqligi xisoblanadi. Demak to'g'ri ssenariyni tanlash muxim, ba'zida esa o'ta mushkul vazifa bo'lib xisoblanadi. Bu usulning muxim bo'lgan kamchiligi- bu ssenariyni bosqichma-bosqich asoslangan qayta ishlashdagi qiyinchilikdir. Stress testing usuli agar eng yomon xodisa ro'y bersa mumkin bo'lgan yo'qotishlarni, zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Monte Carlo usuli kredit riski extimolligini statistik va matematik modellar yordamida olingan natijalar asosida baxolaydi, bu usulning g'oyasi bizni kiziktirayotgan moliyaviy vositalarning baxolarini boshqaruvchi tasodifiy jarayonlarni bir necha bor modellashtirishdan iborat. Mazkur usul kredit riskini baxolashda juda kuchli va ko'p qirrali usul xisoblanadi, uning yordamida deyarli ixtiyoriy turdagi kredit portfelining nazoratini amalga oshirish mumkin. U VAR kattaligini xisoblashda foydalaniladi va baholari kamida ikkita extimoliy o'zgaruvchiga, chiziqli – bog'liq baho shakllanishiga, ko'rsatkichlarning vaqt davomida o'zgarishiga va normal bo'lmagan taksimotga bog'lik bo'lgan moliyaviy vositalarga ko'llanilishi mumkin. Bu usulning kamchiligi unig tashkiliy masalalaridadr, ya'ni uni amalga oshirish ko'p mexnat va vaqt talab etadi. Xisob-kitoblar juda ko'p vaqt sarflanishini shu bilan birga mutaxassislardan yuqori darajadagi ma'lumotga ega bo'lishi va tajriba xamda sabr talab etiladi. Bu esa riskli vaziyatlarga barvaqt ta'sir etish imkoniyatini bir oz kamaytiradi.

Simulation Scenario usuli, bu usul anchagina sodda xisoblanadi va "What if? "degan yoki" ixtiyoriy tanlangan ssenariy yuz bersa portfelga, bankga, bozorga va shu kabilarga nima bo'ladi? " degan savolga javob berishni kuzda tutadi. Mazkur usul ixtiyoriy olingan, o'ylab topilgan yoki tarixiy ssenariylarning to'plamini tuzishdan iborat. Ularning asosida yakuniy natijada umumiy kredit portfelining bahosiga ega bo'lish uchun mavjud kredit portfelining baholanishini xar bir ssenariy buyicha aloxida amalga oshiriladi. Bu usulning vazifasi modellashtirish natijalarini bank faoliyatining o'tgan yilgi natijalari, o'z mablag'lari va shu kabilar bilan solishtirishdan iborat.

$$\text{Kredit riskining xaqiqiy darajasi} = \frac{\text{To'lanmagan kreditlar}}{\text{Berilgan kreditlar}}$$

Ya'ni, ma'lum vaqt oralig'ida to'lanmagan kreditlarning jami berilgan kreditlarga nisbati taxlil qilinadi va bu fakt ko'rsatkich kelajak uchun me'yor vazifasini bajaradi. Bunda risk darajasini qanchalik chuqur, barcha omillarni xisobga olgan xolda taxlil qilinsa, kelajakdagi samaradorlik ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Bu usulning afzalligi soddaligida bo'lsa, kamchiligi kutilmagan xolatlarni , iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni inobatga olmaydi.

Kredit risklari kattaligi boshqaruv hisobi tizimida tegishli operatsiyalar guruhi bo'yicha zararlarni qoplash uchun yaratilgan zahira ko'rinishida aks ettiriladi:

$$V^t = NR^t * CE^T$$

Bu yerda  $V^t$ - t vaqt boshida yaratilgan zahira hajmi,  $NR^t$ - moliya instrumenti uchun zahira yaratish me'yori;  $CE^T$ - Credit exposure- kredit uchragan pozitsiya.

Kredit riski ta'sirida daromadning ma'lum vaqt o'zgarishi aktiv operatsiyalarning ma'lum turi bo'yicha zararni qoplash uchun yaratilgan zaxiralar hajmi o'sishi yoki qisqarishiga teng. Demak t vaqtda ko'rilayotgan kredit riski quyidagi ko'rinishda baholanadi:

$$PL_{kr}^T = dNR^t * CE^t = \frac{dNR^t}{NR^t} * V^t$$

Bu yerda  $PL_{kr}^T$  – t vaqtda kredit riski (zaxiralar yaratilishi natijasida aktivlar portfelining toza bahosi o'zgarishi);  $dNR^t$  – vaqt mobaynida portfelni zaxira yaratish me'yori o'zgarishi;  $V^t$  – t vaqt boshida yaratilgan zaxiralar hajmi.

## **23-mavzu. “Kredit risklari va ularni boshqarish”**

### **3. Kredit riskini kamaytirishda garov ta'minoti va kredit riskini taqsimlash va qoplash**

#### **4. Kredit riskini kamaytirishda sug'urtalashning ahamiyati**

#### **Tijorat banklarida kredit riskini kamaytirishda garov ta'minotining roli va Tijorat banklarida kredit riskini qoplash va taqsimlash.**

Banklar amaliyotida eng keng tarqalgan, kredit riskini kamaytirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Qarzdorning kreditga bo'lgan layoqatliligini baholash. Bu usul mijoz reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotidagi mavqeidan kelib chiqishi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi lozim.

2. Bir qarzdorga beriladigan kreditning hajmini kamaytirish. Bu usul mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

3. Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha harajatlar ssuda oluvchilar tomonidan to'lanadi.

4. Yetarli ta'minlanishni talab qilish. Bunday usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoyalashda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan etarli ta'minotni jalb qilishga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdor kreditga layoqatliligini tahlil qilishga qaratadi.

5. Diskontli ssudalar berish. Diskontli ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usulda kredit berish kreditga minimum to'lov olishni ta'minlaydi. Agar kredit riskidan

himoyalashning boshqa usullari qo'llanilmasa, uning qaytishi muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tijorat banklarining kredit riskini kamaytirishda garov ta'minoti muhim rol o'ynaydi. Bunda asosiy e'tibor bank kreditlari uchun garov sifatida qabul qilinayotgan ob'ektlarning likvidlilik darajasiga qaratiladi. Garov ob'ektlari likvidlilik darajasiga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Xalqaro bank amaliyotida yuqori likvidlilik darajasiga ega bo'lgan garov ob'ektlari birinchi toifali garov ob'ektlari deb ataladi va ularga quyidagilar kiradi: er, hukumatning qimmatli qog'ozlari, markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlari.

Yer garov ob'ekti sifatida amaliyotda juda qadrlanadi. Odatda, yerning bahosi doimiy ravishda o'sib boradi va u barqaror hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda erning bahosi sezilarli darajada yuqori sur'atlar bilan o'sadi, shuning uchun ham erni garovga olish asosida kreditlash moliyalashtirishning nisbatan xavfsiz shakli hisoblanadi. Bunda banklar istalgan vaqtda garovga olingan erni sotish yo'li bilan kredit va uning foizini undirib olishlariga qattiq ishonadilar. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, erni garov sifatida foydalanish uchun huquqiy asoslar etarli bo'lishi lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasida yer fondining mutlaq asosiy qismiga nisbatan xususiy mulkchilik xuquqi mavjud emas. Qishloq xo'jaligida fermerlarga erlar uzoq muddatli ijaraga berilgan, lekin ijara huquqidan bank kreditlari uchun garov sifatida foydalanish mumkin emas. Hukumatning qimmatli qog'ozlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida yuqori likvidli garov ob'ektlari sifatida tijorat banklari tomonidan tan olinadi. Braziliya, Argentina va Rossiya davlatlarida hukumatning qimmatli qog'ozlariga nisbatan sezilarli darajada ishonchsizlik kayfiyati mavjud. Bu kayfiyat ushbu mamlakatlar hukumatlarining defolt holatlariga yo'l qo'yganligi bilan izohlanadi. Lekin bunday davlatlar ko'pchilikni tashkil etmaydi.

Hukumatning qisqa, o'rta va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari mavjud bo'lib, ulardan kreditlar olishda garov sifatida faol tarzda foydalaniladi. Lekin O'zbekiston Respublikasida ushbu ob'ektdan faol tarzda foydalanish real shart-sharoit mavjud emas. Ya'ni, birinchidan, O'zbekiston hukumatining faqat olti oydan bir yil muddatgacha chiqarilgan qimmatli qog'ozlari mavjud. Bu esa, ulardan garov sifatida foydalanish imkoniyatini chegaralab qo'yadi. Ikinchidan, hukumatning qimmatli qog'ozlarining emissiya qilingan miqdori kam. Buni respublikamizning yirik tijorat banklarining balansi orqali ko'rish mumkin. Masalan, 2005 yilning 1 yanvar holatiga, hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning bank aktivlari tarkibidagi salmog'i Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bo'yicha 0,04 foizni, aksionerlik-tijorat O'zsanotqurilish bankida esa, 1,15 foizni tashkil etdi.

Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, shubhasiz, yuqori likvidlilik xususiyatiga egadir. Chunki tijorat banki Markaziy bankdan o'ziga ajratilgan qayta hisobga olish kontingenti doirasida istalgan vaqtda trattalarni topshirib, pul mablag'lari olishi mumkin. Markaziy bank esa, odatda, to'lovga qobil sub'ekt hisoblanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, G'arbiy Evropa davlatlari xo'jalik amaliyotida sanoat korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalari mavjuddir. Har qanday qimmatli qog'ozning to'lovini hukumat tomonidan kafolatlanishi uning likvidlilik darajasini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi xo'jalik amaliyotida korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlari mavjud emas.

Ayni vaqtda tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlardan ham likvidli garov ob'ekti sifatida keng ko'lamda foydalanadilar.

Rivojlangan industrial davlatlarning fond bozorida tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish bo'yicha hukumatdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Tijorat banklari to'lovga qobillik nuqtai-nazardan korporatsiyalarga nisbatan ustivor mavqega egadirlar. SHunisi xarakteriligi, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari fond bozorida oldi-sotdi ob'ektiga aylangani yo'q. Bu borada qilingan ilmiy izlanishlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, banklarning to'lovga qobillik darajasini nisbatan yuqori ekanligi ularning qimmatli qog'ozlarini sotib olgan sub'ektlar tomonidan bozorda qayta sotmasliklariga sabab bo'lmoqda.

Kreditni berish jarayonida va berilgan kreditni nazorat qilish jarayonida korxonaning buxgalteriya hisobotini doimiy asosda tahlil qilib borish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun banklar butun kreditlash davri mobaynida buxgalteriya hisobini doimiy asosda taqdim etishni mijozlardan talab qilishlari zarur. Afsuski, respublikamiz bank amaliyotida kredit berilgandan so'ng mijozning buxgalteriya balansidagi o'zgarishlarni doimiy ravishda tahlil qilmaslik hollari mavjuddir. Kreditning bahosi uning foiz stavkasidir. Foiz stavkasining o'zgarishi kredit resurslariga bo'lgan talabni o'zgarishiga olib keladi. Buning natijasida berilgan ssudalarning bank aktivlari tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi va kredit operatsiyalaridan keladigan daromadni kamayishi yoki ko'payishi yuz beradi. Foiz stavkasini shaklanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni belgilovchi asosiy omillardan biri depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasining darajasi hisoblanadi. Bundan tashqari, Markaziy bankning majburiy zahira siyosati tijorat banklari depozitlari va kreditlarning foiz stavkasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Majburiy zahira stavkalarining oshirilishi banklarning resurs bazasining qisqarishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, kreditlarning foiz stavkasini oshishiga olib keladi. Shunday qilib, kredit berish hususida oqilona qaror qabul qilish uchun kredit inspektorlari tegishili hisobotlarni to'plashi va o'rganishi hamda qarz oluvchini va uning korxonasini ahvolini moliyaviy jihatdan puxta tahlil qilib chiqishi kerak. Shuningdek, xatarlar va taminot ham baholanishi zarur.bo'larning barchasi bilan bir qatorda undirilgan kredit narxini (foiz stavkasini) aniqlash, shuningdek, yalpi daromadni muntazam taxmin qilib turish ham muhimdir. Oqilona kredishtlashning barcha qoidalarni (muddatlilik, to'lovlilik, ta'minganlanlik, kreditning qaytarib berilishi) hisobga olgan holda bo'lajak qarz oluvchini kompleks tahlil qilishning ushbu usulini O'zbekiston banklarini kreditlash sohasidagi ishda qo'llash ijobiy natijalar berishi mumkin.

Bankning kredit portfeli shunday diversifikatsiya qilingan bo'lishi lozimki, bunda biror bir mijozning, mijozlar guruhining yoki ma'lum bir tarmoqdagi



mijozlarning nochor holatga tushib qolishlari bank faoliyati uchun xavf tug'dirmasligi kerak.

Mijozlar bo'yicha:

Bitta mijozga to'g'ri keladigan qarz majburiyatlari Markaziy Bankning 1-ko'rsatmasiga asosan cheklab qo'yilgan. Unga ko'ra bitta qarzdor zimmasiga bank sarmoyasining 25% foizinigina yo'qotish mumkin. Bu ham albatta, ancha yuqori ko'rsatkich, biroq kelajakda bu ko'rsatkichlarni yanada kamaytirish ko'zda tutilgan.

Mijozlar guruhlari bo'yicha:

Yuqorida ko'rsatilgan me'yor mos kelmaydi, chunki banklar ko'plab mijozlarga ega bo'lishlari mumkin. Birvarakayiga bir nechta mijozlarning bankrot bo'lishlari ehtimoli ancha yuqori va yuqorida ko'rsatgan sharoitlarda, to'rtinchi yirik mijozning bankrot bo'lishi bilan bank o'z mablag'laridan butunlay mahrum bo'lib qoladi. Shuning uchun ham o'zaro aloqador bo'lgan mijozlar guruhi uchun ham cheklovchi me'yorlarni qo'llash ko'zda tutilgan. Shu bilan birga yirik kredit risklarini maksimal o'lchamlari uchun me'yor belgilangan.

Faoliyat sektori bo'yicha:

Faoliyat u yoki bu sektorida yuzaga keladigan qiyinchiliklar shu sektordagi korxonalar uchun, albatta, ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xuddi shu sektorga jalb qilingan bank yoki kredit moliya muassasi ham shu qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelishi shubhasiz. Masalan, bazi tijorat banklarning mintaqaviy xususiyati, ularni shu mantaqada etakchi mavqeyiga ega bo'lgan sektorda risklarning yuqori konsentratsiyalashuviga yo'l qo'yishga majbur qiladi.

Geografik zonalar bo'yicha:

Ma'lum bir mintaqada, davlat yoki qit'ada iqtisodiy yoki siyosiy qiyinchiliklar shu hududda faoliyat ko'rsatayotgan banklarning to'lov qobiliyatiga tasir ko'rsatmay qolmaydi. Bu mamlakatlarning o'z qarzlarni to'lashga layoqatsizligi ba'zi banklarning, jumladan, yirik banklarni ham murakkab ahvolga solib qo'yadi. Chunki banklar mablag'larning ma'lum qismini zahiralarni yaratishga sarflashlariga to'g'ri keladi.

Risklarni qoplash.

Mijozning bankrotligi bilan bog'liq bo'ladigan risklarga qarshi tura olish uchun har bir bank yetarli miqdorda o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Bu narsa ularga yuzaga keladigan zararlarni qoplay olish va to'lov layoqatini saqlab qolish imkoniyatini yaratadi. Agar depozitlarni majburiy sug'urta qilish to'grisidagi qonun amalda bo'lmasa, tijorat banklari kredit risklarini qoplash uchun yetarlicha real zahiralarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llaydilar. Shuningdek, ular o'zaro shartnomalarni qoplash uchun korporativ fondlarni tashkil qiladilar.

Risklar sifatini aniqlash.

Risklar sifati kriteriyalarini aniqlab olish mijozlarning bankrotligi oqibatida yuzaga keladigan zararlarni cheklash uchun juda muhim. Risklarni son ko'rishda ifodalash uchun kotirovkalash, shuningdek, tashqi yoki ichiki reytinglash tizimini amalga kiritish foydali. Bu narsani xorijiy banklar ancha vaqtdan beri amaliyotda qo'llab kelmoqdalar. Bu tizimga ko'ra, har bir mijozga uning moliyaviy ahvolini,

aksiyadorlarning tarkibini, raxbariyatga va boshqalarni hisobga olgan holda kredit katirovkasi (bahosi) beriladi. Bu tizim har tomonlama qulaydir. Albatta, mijoz bilan munosabat o'rnatish to'g'risida qaror qabul qilish asosan, uning reytingiga bog'liq bo'ladi. Bunda reyting o'zgarib turuvchi ko'rsatkich ekanligini ham nazardan qochirmaslik lozim. Agar axborot haqiqatga mos keladigan bo'lsa, unda har bir mijoz bo'yicha reyting to'g'risida yigilgan axborot joriy kreditlarni ularni katirovkalari bo'yicha tasniflash imkoniyatini beradi. Bu esa muhim ma'lumot hisoblanadi (hususan u turli davrlar uchun to'langan bo'lsa). Bu ma'lumot bankning kredit portfeli sifatini baholash va bank faoliyatini yaxshilash uchun uning oldida turgan maqsad va vazifalarni belgilab olish imkonini yaratadi.

Turli banklarda mavjud bo'lgan mijozlarning moliyaviy ahvolini baholash tizimlarining asosiy kamchiligi –bu ko'p hollarda moliyaviy ko'rsatkichlar kriterial qiymatlarining tarkibiy aniqlashidir. Bu ko'rsatkichlarni esa faqat tarmoqning barcha korxonalarining xolatini bilgandagina aniqlash mumkin.

Qarz oluvchining moliyaviy holati sifatini aniqlaydigan bu kriteriyalardan tashqari, bozorning har bir segmenti, faoliyatining har bir sektori, har bir geografik hudud, har bir alohida mamlakat uchun majburiyatlar bo'yicha limitlarni o'rnatish zarur. Bu chora-datbirlar u yoki bu kategoriyada qiyinchiliklar tugilganda yuzaga keladigan zararlarni cheklab, xavflarni taqsimlash imkoniyatini yaratadi.

Risklarni hushyorlik bilan kuzatib borish.

Kredit shartnomasini tuzib, mablag'larni mijoz ixtiyoriga berish hali kredit operatsiyasini tugallangini bildirmaydi. Chunki risk kredit muddati davomida saqlanib turadi. Jumladan, bu korxonalarga beriladigan qisqa muddatli kreditlarga ham tegishilidair. Doimiy kuzatuvni amalgam oshirib boorish zarur, chunki kredit berish uchun qaror qabul qilishga asos bo'lgan unsurlarda ruy berishi mumkin bo'lgan risklarni o'z vaqtida aniqlab uni bartaraf qilishi juda muhim.

Salbiy hodisalarni tezlik bilan aniqlash va zudlik bilan uni oldini oladigan choralarni ko'rish, mijozlar bankrot bo'lganda bank zararlarini kamaytiradigan omillardan hisoblanadi.

Buning uchun quydagi tartibga rioya qilish kerak:

- mijoz holatini tekshirish uchun javobgarlik;
- boshqarish uchun yaxshi axborot tizimiga ega bo'lish;
- kreditning ortib borishini kuzatishi;
- to'lanmagan to'lovlarni identifikatsiya qilish;
- mablag'lar harakati ustidan nazorat qilish;
- mijoz holatini kuzatib borish.

Mijoz bankka o'z vaqtida yillik, choraklik, zarurat tug'ilganda esa oraliq oylik hisobotlarini jo'natib turishi lozim. Hsobotning kechikishi esa, salbiy natijalar bilan bog'liq bo'ladi. Moliyaviy hujjatlarni olishning jadvalini tuzib chiqish zarur, ular kechikib qolganda esa bu haqda mijozga eslatma junatish lozim. Bu sohada mikroinformatika juda qo'l kelishi mumkin. Yillik moliyaviy hisobotlar albatta rasmiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi zarur bo'lgan holni nazardan qochirmaslik kerak. Ikki hisobot davri oraliqi uchun korxonona bankka oraliq hisobotlarni va pul mablag'lari holatining prognozlarini junatishi lozim (korxonona bu hujjatlarni e'lon qilishga majbur bo'lsa). Boshqa korxonalardan esa bu kabi

hujjatlar, hususan, ularning ahvoriga nisbatan shub'halar mavjud bo'lib qolganda, bankning qaroriga ko'ra talab qilib olinishi mumkin.

Mijozlarni baholashda kredit riskini kamaytirish va kredit portfelini samaradorligini oshirish uchun har bir mamlakatda har xil metodlardan foydalaniladi.

Risk strategiyasini ishlab chiqishning asosiy qismi xedjirlash hisoblanadi-risk yuzaga kelishidan ogohlantiradi va uni tushirish tadbirlarini ishlab chiqadi.

Xorij davlatlarida olib boriladigan tadbirlardan biri, kredit riskini pasaytirishga qaratilgan quyidagi tadbirlardir:

1. Qarzdorning kreditga layoqatliligini baholash. Xorijiy davlatlarda keng tarqalgan metodlardan biri ssuda oluvchini baholash hisoblanadi. Bu metod mijozning reytingini aniqlashtiradi. Har bir mijozni baholash har bir bank tomonidan jiddiy o'tkaziladi.

2. Mijozga beriladigan kreditni xajmini kamaytirish. Bu usul asosan kreditga layoqatsiz mijozlar uchun qo'llaniladi.

3. Sug'urta krediti. Kredit sug'urtasi kreditni qaytarilmasligini oldini olish maqsadida, sug'urta kompaniyasi tomonidan olib boriladi. Sug'urta bilan bog'liq hamma xarajatlar mijoz tomonidan to'lanadi.

4. Yetarli ta'minot jalb qilish. Bu metod odatda bankka kreditni va uni foizini qaytishni kafolatlaydi.

5. Imtiyozli ssuda berish. Imtiyozli ssuda qaysidir ma'noda kredit riskini pasaytiradi. Bunday yo'l asosan minimal darajada kredit beriladigan vaqtda olib boriladi. Agar bu ta'minlanmagan bo'lsa ochiq qoladi. Kredit riskini boshqarishda chet el banklari tajribasi taxliliga kata e'tibor beriladi. Boshqaruv qarorlarining xatoligi, kreditlar bilan noqonuniy faoliyat olib boorish, noto'g'ri kredit siyosatini olib orish orqali bankda kata moliyaviy qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining kredit siyosatini amalga oshirish amaliyotining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Bank tomonidan berilgan kreditlarning iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida joylashtirilganlik xolati.

2. Tijorat banki tomonidan berilayotgan qisqa muddatli kreditlarning o'zaro nisbati.

3. Tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar xajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'zgarishi.

4. Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlar xajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash.

5. Kreditlash shakllaridan foydalanish darajasi.

Agar kredit xususiy shaxsga berilayotgan bo'lsa, u holda qarz oluvchi qo'shimcha shaxsiy deklaratsiyasini so'nggi uch yil uchun berishi zarur.

Agar bank kredit risklarini maqul topib, kredit berish mumkin deb hisoblasa ham, u har ehtimolga qarshi qarz oluvchi majburiyatlarini bajarmay qolganda bir qator dastlabgi choralarni amalga oshiradi:

Ssuda berish vaqtida garovga qo'yilgan oxirgi biron bir aktivlar sessiyasi, ya'ni bank va qarz oluvchi o'rtasida zayom va qo'yilgan aktivlarning shartlari va

muddatlari o'rtasidagi aloqani batafsil tekshiradigan yozma kontrakt kelishuv amaldagi yuridik normalarga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Bank qaysi aktivlar munosib garov bo'lishini aniqlashi kerak. Shuning uchun garovga qo'yilgan aktivlar to'g'risida bank qo'shimcha ravishda quyidagilarni aniqlashi kerak:

- kredit berish haqidagi bir qarorga kelishdan oldin va kredit muddati davomida garov bahosining nisbiy qulayligini baholash;
- bozorda garovni joylashtirish imkoniyatini, uning likvidligini, ya'ni tez pulga aylanishini tekshirish;
- amortizatsiya tezligini yoki garovning ahloqiy eskirish tezligini, uning ishdan chiqish ehtimolini aniqlash;
- garov sifatida qo'yilgan aktivlarni kredit berishdan oldin tekshirish;
- garov huquqlariga ko'nishni sudda ro'yxatga olish (agar qonun bunga yo'l qo'ymasa);

Qarzni to'lashdan bosh tortgan vaqtda garov qiymatining mumkin qadar katta darajasini taminlash uchun bank ssuda marjasini qo'llashi mumkin. Bu shuni bildiradi, kredit garov qiymatining muayyan foizini tashkil qiluvchi summada berilishi kerak. Garovning turli ko'rinishlari uchun marja bir xil bo'lmaydi. Umuman, u 100% dan (naqd pul mablag'lari uchun) 50% gacha (zahiralar va asbob uskunalar uchun) o'zgarishi mumkin. Bank kredit shartnomasida marjani o'zgarishda qarz oluvchiga bu haqida bildirgan holda o'z huquqlarini ko'zda to'tishi lozim. Shunga qaramay, kuchli inflyatsiya vaqtida garov qiymati tez-tez o'sadi. Bu xolda bank qarz oluvchiga garovning oritqcha qismini berishi kerak.

Bankning ehtiyot choralaridan biri bu- kafolatdan foydalanish. Kafolat – bu qarz oluvchi to'lashdan bosh tortgan paytda uchinchi tomon qarzni to'lash majburiyatining yozma shakli. Shuni nazarda to'tish kerakki, kafolat garov singari kredit sifatini yaxshilamaydi, ya'ni u to'lamlasligi riskini kamaytirmaydi. Shuning uchun hech qachon kredit bitta kafolat asosida berilmasligi kerak. Kafolatning huquqiy qonuniyligini tekshirishi muhim hisoblanadi.

Kafolatning asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

Taminlangan yoki taminlanmagan kafolat. Yuqori riskli kreditlar uchun taminlangan kafolatni olish kerak. Ushbu kafolatda kafilning garovidan foydalaniladi.

Chegaralangan yoki chegaralanmagan kafolat. Chegaralanmagan kafolatda kafil bir qarz oluvchining hamma qarzlarini bir kreditorga kafolatlaydi. Bu kafolat har yil o'zgarilishi kerak va bank bir yo'la kafilning qarzni to'lash qobiliyati haqida axborotga ega bo'lishi lozim. Odatda chegaralanmagan kafolat taminlanmagan bo'ladi.


### **Kredit riskini kamaytirishda sug'urtalashning ahamiyati**

Chumchuqdan qo'rqqan –tariq ekmaydi, deydi xalqimiz. Albatta katta bir xayrli ish boshlayotganda unga o'ziga xos tavakkalchiliklar, risklar ham yo'ldosh bo'ladi, lekin oldiga qat'iy maqsad qo'ygan har qanday inson o'z navbatida bu risklarni ham hisobga olib qo'ygan bo'lishi lozim. Ko'pgina faoliyat turlari

singari, tadbirkorning ish jarayoni ham turli havf- risklar, kutilmagan vaziyatlar bilan bog'liqdir. Ana shu risklar oqibatini yengillashtirish, moliyaviy yo'qotishlar o'rnini qoplashda sug'urta faoliyatining o'rni beqiyos.

Islahotlarning bugungi bosqichida sug'urta ishiga jiddiy ahamiyat berilayotganini kuzatish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yildagi yettinchi sessiyasida keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasining birinchi o'qishda qabul qilinishini va ayniqsa, 2002 yil 31 yanvarda respublikamiz Prezidenti tomonidan "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzolanishi mazkur bozorning iqtisodiyotimizdagi o'rniga katta baho berilayotganidan dalolatdir.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatining umumiy shartlarini ko'rib chiqaylik. Sug'urtalashda odatda ikki tomon ishtirok etadi. Biri- sug'urta tashkiloti (davlat, aksiyadorlik yoki xususiy) bo'lib, sug'urtalash shartlarini ishlab chiqadi, u sug'urtalovchi deb ataladi, ikkinchisi-yuridik yoki jismoniy shaxslar, ular sug'urta qildiruvchilar deb yuritiladi, boshqachasiga mijozlar deyish mumkin, bunday shaxslar o'zlarining yoki uchinchi tomonning manfaatlarini sug'urtalaydilar, ana shu maqsadlar uchun sug'urta mukofotlari (to'lovlar, badallar) to'laydi. Sug'urta hodisasi ro'y bergan taqdirda sug'urta qildiruvchi polisga muvofiq ravishda sug'urta pulini undirib oladi.



**4- rasm.** Qarz oluvchining kreditni to'lay olmaganligi uchun sug'urtalash mas'uliyati sxemasi.<sup>67</sup>

1. Mijoz biznes-reja va boshqa hujjatlar taqdim qilgan holda bankka kredit berish to'g'risida ariza beradi.

<sup>67</sup> 2002 yil 31 yanvarda respublikamiz Prezidenti tomonidan "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

2. Bank taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va mijoz bilan kredit shartnomasini tuzadi.

3. Mijoz sug'urta shartnomasini tuzish uchun hujjatlarni sug'urta kompaniyasiga topshiradi.

4. Sug'urta kompaniyasi mijozning moliyaviy ahvolini, kreditdan foydalanish maqsadini o'rganadi va sug'urtalovchi mijoz bilan sug'urta shartnimasini tuzadi.

5. Sug'urta shartnomasi asosida mijoz sug'urtalovchi xisobiga sug'urta pullarining yigindisi o'tkaziladi.

6. Sug'urta kompaniyasi mijoz nomiga sug'urta polisini yozib beradi.

7. Bank mijozga kredit beradi.

8. Mijoz kreditni yoki uning bir qismini to'lay olmagan vaqtda bank u bilan birga sug'urtalovchiga sug'urta hodisasini boshlash haqida axborot beradi.

9. Sug'urta kompaniyasi bankka sug'urta tavonini to'laydi.

Qarz oluvchi kreditni to'lay olmaganligi uchun sug'urtalash mas'uliyati shartnomasini tuzish tartibi:

- Sug'urta shartnomasining muhim bo'lmagan shartlari.
- Sug'urta tarifi stavkasi va uni to'lash tartibini aniqlash.
- Sug'urta polisi va unig rekvizitlari tushunchasi.
- Litsenziyalarning mavjudligi va sug'urta tashkilotlarining moliyaviy ahvoli haqida axborot.

- Sug'urta vaziyatlari boshlanganda tomonlarning munosabati.


- Sug'urta tavonini to'lash va to'lashdan vos kechish.

Sug'urta muammolari:

1) Respublika hududlari sug'urta xizmatlar bozorinig rivojlanmaganligi.

2) Bank kredit mutahassslarinig spesifik bilimlari sug'urta bo'yicha hamon yaxshi darajada emasligi.

3) Qarz oluvchilar va sug'urtalovchilarning shartnoma majburiyatlarini bajarmasligi.



**5-rasm.** Garovga qo'yilgan mulkni majburiy sug'urtalash sxemasi.

1. Mijoz biznes-reja va boshqa hujjatlarni taqdim qilgan holda bankka kredit berish to'g'risida ariza beradi.

2. Bank mijoz bilan mulk garovi shartnimasini tuzadi. Odamlar yashamaydigan binolar va inshootlarni garovga quyish bo'yicha shartnomalar tuman va shaharlarning davlat kadastr xizmatida, odamlar yashaydigan binolar va inshootlarni garovga quyish bo'yicha shartnomalar texnik inventarizasiya byurosida ruyxatga olingan bo'lishi kerak.

3. Bank mijoz sug'urta kompaniyasiga garovga qo'yilgan mulkni sug'urtalash to'g'risidagi ariza bilan murojat qiladi. Ariza bilan birga ruyxatga olingan mulk shartnomasi va boshqa hujjatlarni qo'shib beradi.

4. Sug'urtalovchi hujjatlarni ko'rib chiqqandan keyin sug'urta shartnomasini tuzadi.

5. Mijoz sug'urtalovchiga sug'urta shartmasida belgilangan sug'urta pulini to'laydi.

6. Sug'urta kompaniyasi sug'urta polisini yozadi.

7. Mijoz bankka sug'urta shartnomasining va sug'urta polisining nusxasini taqdim etadi.

8. Bank mijoz bilan kredit shartnomasini tuzadi.

9. Sug'urta xabarlari kelgan vaqtda mijoz sug'urtalovchiga bu haqda ma'lum qiladi.

10. Mijozga sug'urta to'lovi to'lanadi.

11. Mijoz bankka kredit resurslarini qaytara olmasligini ma'lum qiladi.

12. Qarz oluvchi asosiy qarzni va u asosida hisoblab ustiga qo'shilgan foizini to'lay olmagan vaqtda bank kredit shartnomasiga binoan garovga qo'yilgan mulkni undiradi.

Sug'urtalash shartlari:

1. Sug'urta shartnomasini tuzish va uning yuridik kuchga kirishi.

2. Sug'urta tarifi stavkasi va uni to'lash tartibi.

3. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining huquq va majburiyatlari.

4. Garovga qo'yilgan mulkning zarar miqdorini aniqlash, aktlar tuzish va sug'urta to'lovini to'lash.

Sug'urtalash muammolari:

1. Sug'urtalash shartnomasiga binoan sug'urta kompaniyasining majburiyatlarini bajarish uchun mablag'larning yetarli emasligi.

2. Sug'urtalovchilarda litsenziyalarning yo'qligi.

3. Bozor hamda baholovchi firmalar talabiga muvofiq garovga qo'yilgan mulkning aniq bahosining yo'qligi.

4. Ushbu sug'urta turini o'tkazish ba'zi sug'urta kompaniyalari ("O'zagrosug'urta", "Kafolat", "O'zbekinvest", "Madat") tomonidan chegaralanganligi.